2025-yil, 30-dekabr 22(68)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802





DOLZARB MAVZU

Qurdosh QAHRAMONOV,
Adabiyotshunos

ILM VA HAYOT YO‘LI – YUKSALISH TAMOYILI

Annotatsiya: maqolada iste’dodli olim va tarjimon E.Ochilovning ilmiy va ijodiy hamda tarjimonlik faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Olim ilmiy izlanishlarida mumtoz adabiyot masalalari, jumladan, mutafakkir A.Navoiy ijodiga turli davrlarda shoirlar tomonidan bag‘ishlangan tatabbular tahlil etilgan va ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *adib, asar konsepsiyasi, badiiy detal, badiiy makon, ijodkor badiiy psixologiyasi, fojiaviy qismat, drama, muallif chekinishlari, millat fojiasi, ramziy-majoziy mazmun, personaj, qahramon, sarkazm, qahramonlarining individual ruhiy holatlari.*

Аннотация: в статье рассматривается научная, творческая и переводческая деятельность талантливого ученого и переводчика Е. Очилова. В своих научных исследованиях ученый анализировал вопросы классической литературы, в том числе произведения мыслителя А. Навои, посвященные поэтами разных периодов, и делал научные выводы.

Ключевые слова: писатель, концепция произведения, художественная деталь, художественное пространство, художественная психология создателя, трагическая судьба, драма, авторское отстранение, трагедия hatsiи, символико-метафорическое содержание, персонаж, герой, сарказм, индивидуальные психические состояния героев.

Annotation: the article discusses the scientific, creative and translation activities of the talented scientist and translator E. Ochilov. In his scientific research, the scientist analyzed the issues of classical literature, including the works of the thinker A. Navoi, which were dedicated by poets in different periods, and drew scientific conclusions.

Key words: *writer, concept of the work, artistic detail, artistic space, artistic psychology of the creator, tragic fate, drama, author’s withdrawal, tragedy of the nation, symbolic-metaphorical content, character, hero, sarcasm, individual mental states of heroes.*

1

Ham mumtoz adabiyot, ham zamonaviy adabiyot, ham adabiy jarayon, ham tarjima masalalarini birdek kuzatadigan, o‘zi ham sharq klassiklarini maromiga yetkazib tarjima qilib, ular haqida o‘ziga xos qarashlarini shakllantirgan olimlar sanoqli hisoblanadi. Filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov ana shunday sertarmoq va sermahsul olimlardan biridir. Uning faoliyatida ilmiy tadqiqot bilan badiiy tarjima amaliyoti bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlardan biridir.

Ma’lumki, badiiy tarjima ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro ijodiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishini ta’minlovchi, do‘stlik, qardoshlik aloqalarini mustahkamlovchi murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Muayyan bir tilda yaratilgan badiiy asarni uning shakl va mazmun birligini, muallif ijodiy individualligi, uslubiy o‘ziga xosligi hamda butun go‘zalligi va nafosatini saqlagan holda boshqa bir tilda qayta yaratishdek murakkab ijodiy faoliyatni olib borayotgan zahmatkash olim va ijodkor Ergash Ochilovdir. Ergash Ochilov faoliyatining katta qismini tarjimashunoslik tashkil etadi. Ma’lumki, Ergash Ochilov turkiy va forsiy xalqlar mumtoz adabiyoti, adabiy aloqa va badiiy tarjima masalalari bilan shug‘ullanadi. Shu bois monografik plandagi ilmiy tadqiqotlari: 1994-yil “Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi hamda bugungi kunda “Forsiydan o‘zbekchaga she’riy tarjima muammolari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalari ustidagi izlanishlari ham shu yo‘nalishga bag‘ishlangan.

Shuning bilan birgalikda, olim rus, fors, tojik, dariy, turkman, ozarbayjon, tatar, qoraqalpoq tillaridan she’riy va nasriy tarjimalar qiladi. Bugungi kunda Ergash Ochilov yozgan, tarjima qilgan va nashrga tayyorlagan kitoblarning umumiy adadi – 145 tadan oshib ketgan.

2

Ergan Ochilov ilmiy faoliyatida mumtoz adabiyotda an’ana va ijodiy ta’sir masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Bu yo‘nalishda yozgan turkum maqolalarining markazida Alisher Navoiy ijodi turadi. Olimning ushbu yo‘nalishda yozilgan ko‘plab maqolalari bir jihatdan qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohasini rivojlantirishga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan A.Navoiy ijodining o‘zidan keyin yashab ijod qilgan ijodkorlarga bo‘lgan ta’siri masalasini yoritganligi bilan qimmatlidir.

Olimning “Tatabbu – mahorat maktabi(O‘TA,2018, №1) nomli maqolasida tatabbu haqida so‘z yuritilib, olimlarning bu boradagi tadqiqotlariga tayangan holda uning o‘ziga xos eng muhim jihatlarini yoritishga harakat qiladi. Maqolada tatabbu sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan an’ana ekani haqida fikr yuritilar ekan, “...tatabbu salaflar yoki zamondosh shoirlarning asarlaridan ta’sirlanib, ulardagi vazn, qofiya, radifni saqlagan holda, o‘sha mavzu va

g‘oyani davom ettirib, rivojlantirib, yoziladigan asar”[1] ekani, ayni paytda shoir bu unsurlarning ba’zilarini yangilashi ham mumkinligini ta’kidlaydi. Maqolada tatabbu biror shoir ijodi yoki she’riga taqlid emasligi, aksincha, ushbu asardagi g‘oyani yanada rivojlantirib, poetik obraz va mazmunini yangilashga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

O‘zbek adabiyotida tatabbu A.Navoiy ijodidan boshlab yangi adabiy yo‘nalish darajasiga ko‘tarilgani, shoir “Devoni Foniy”da Hofiz, Sa’diy, Dehlaviy, Jomiy, Kamol Xo‘jandiy kabi ko‘plab shoirlar ijodiga tatabbu bitgani haqidagi ma’lumotlar bilan tanishamiz.

Olim maqolada A.Navoiyning Kamol Xo‘jandiy g‘azaliga bitilgan tatabbuning qiyosiy tahlilini berar ekan, shoir mahorati nafaqat tatabbu bitishida, balki shu orqali o‘zining adabiy-estetik qarashlarini ham ilgari surganini tahlillar bilan yoritadi.

Ergash Ochilovning an’ana va adabiy ta’sir doirasida yozilgan aksariyat maqolalarida buyuk shoirimiz Alisher Navoiy ijodining o‘zidan keyingi o‘tgan o‘zbek va fors-tojik adabiyoti namoyandalari ijodiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi.

Jumladan, olimning turli yillarda e’lon qilingan “Furqat ijodida Navoiy an’analari”, “Avaz ijodida Navoiy an’analari”, “Rojiy ijodida Navoiy an’analari”, “Abdulla Oripov ijodida Navoiy an’analari”, “Navoiy va G‘aribiy”, “Alisher Navoiy va G‘afur G‘ulom”, “Navoiy va Xayomiy Buhoriy”, “Alisher Navoiy va Sommirzada Safaviy”, “Ibrohim Haqqul - navoiyshunos”, zamonaviy adabiyotga bag‘ishlangan “Sohibqiron” she’riy dramasida syujet va kompozitsiya”, “Abdulla Oripov va G‘afur G‘ulom”, “Umar Hayyom va o‘zbek adabiyoti”, “Ogahiy forsiy she’rlarining o‘zbekcha tarjimalari” kabi bir turkum maqolalari shu jihatdan xarakterlidir. Bu maqolalarning mumtoz adabiyotga oid kuzatishlari bir qator jihatiga ko‘ra mushtarak xususiyatga ega. Jumladan, shoir ijodiga tatabbular yozish; Navoiy g‘azallariga muxammaslar bog‘lash; o‘z ijodida navoiyona ohang yaratish; Navoiy qo‘llagan vazn, qofiya va radiflarni she’r yozish, so‘z va iboralarni qo‘llash; shoir asarlaridan ilhomlanib, ularga mazmun va shaklan o‘xshash asarlar bitish va h.

Ta’kidlash kerakki, har bir maqolada buyuk shoir ijodining muayyan bir poetik qirralari kashf etiladi. Muallifning bunday maqolalari ikki jihatdan – birinchidan, Navoiy dahosining poetik qudratini ko‘rsatish, ikkinchidan, undan ilhom olayotgan shoirlarning poetik mahorati nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shu bois bu tipdagi maqolalarning ilmiy qimmati kattadir.

“Furqat ijodida Navoiy an’analari” maqolasida bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bitta ibratli an’ana, ya’ni ijod olamiga qadam qo‘yayotgan yosh boshlovchi ijodkorlar o‘zidan oldin o‘tgan shoirlar va zamondoshlari ijodidan boxabar bo‘lmay bu maydonga kirishi mumkin bo‘lmaganini qayd etar ekan, “...salaflardan o‘ttiz, zamondoshlaridan yigirma – jami ellik ming bayt (yuz ming misra) she’rni yod bilish talabining qo‘yilishi bejiz emas”[2] (O‘TA, 2019№6 13 bet)ligi haqidagi haqiqatni bayon etadi. Shunga ko‘ra, Furqatning Navoiydan ijodiy ta’sirlanishining hayotiy va ilmiy asoslarini yoritadi va ularni quyidagicha guruhlashtiradi: shoirning Navoiy g‘azallariga bitgan tatabbulari; Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muhammaslari; Furqat ijodida Navoiyona ohanglarning aks etishi.[3]

Muallif maqolada Furqat tatabbulari, muxammas va ohangdoshlik yo‘sinida bitilgan gazallarini tahlil qilar ekan, uning Navoiy ijodidan ilhom olgani, ijodiy ta’sirlanishi qiyosiy tahlillar, asosli kuzatishlar, misollar bilan yoritiladi. Shoirning Navoiy g‘azallariga bitilgan tatabbulari faqat qofiyadosh so‘zlar yoki radiflardan tashkil topibgina qolmay, balki boshqa qofiya yoki radifli tatabbular yaratgani ham ta’kidlanadi.

“Avaz ijodida Navoiy an’analari” nomli maqolasida ham Xorazm adabiy muhiti haqida, Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil kabi shoirlar qatori Avazning ham Navoiy ijodiga ixlos qo‘yishi, undan ijodiy oziq olishi va an’analarining davomchisi sifatida ta’sir yo‘nalishlari talqin etiladi. Avaz she’riyatida navoiyona ohanglarning aks etishi, g‘azallariga bitilgan tatabbu va muxammaslari, Navoiy ta’sirida yaratilgan “Faloniy” turkumidagi qit’alari hamda “Xamsa”dan ilhomlanib tarje’band shaklida yozilgan “Tarje’bandi xomisa” asari haqida fikr yuritiladi. Avazning Navoiy qo‘llagan so‘z va iboralar, timsol va tashbehlarlardan foydalanib original mazmunga ega asarlar yozganiga e’tibor jalb etiladi. Jumladan, Navoiyning “El” radifli g‘azaliga “Xalq” radifli tatabbu yozib, ishqiy mavzuni ijtimoiy mavzuga aylantirib, originallik baxsh etganini ikkala shoir asarlaridan keltirilgan misralar qiyosi orqali quyidagicha talqin etadi:

“Ko‘rinib turganidek, har ikki g‘azal ham bir xil vaznda – ramali musammani maqsur(foilotun foilotun foilotun foilun). Qofiya tizimi ham bir xil (bechora, ovora, pora, chora...). Avaz tatabbu qilingan g‘azaldagi “el” radifini “xalq” bilan almashtirgan. Shunga muvofiq ravishda matla’dagi “ahli ishqdek bechora” jumlasi “bizdek ojizu bechora”, “hajr zulmi” esa “zulm tig‘i”ga aylangan”.[4]

Maqolada Avazning Navoiy ijodiga bag‘ishlangan muxammaslari ham tahlilga tortilib, tadqiqotchilarning kuzatishlariga tayangan holda, jami 215ta muxammas yozgani, ulardan 39 tasi turli nashrlarda chop etilgani haqidagi ma’lumotlarni keltirar ekan, ularda o‘nta muxammas Navoiy ijodiga bag‘ishlanganligini ta’kidlar ekan, muxammas haqida quyidagi obrazli ta’rifni bayon etadi:

“Muxammas shunday daraxtki, unga payvand qilingan shoxlar bilinmay ketishi kerak. Agar ajralib

1 Очилов Э. “Татаббу – маҳорат мактаби.// ЎТА, 2018, №1. Б.46.

2 Очилов Э. Фурқат ижодида Навоий анъаналари//ЎТА,2019.36. Б.13.

3 Ўша манба, 14-бет.

4 Очилов Э.Аваз ижодида Навоий анъаналари.// ЎТА,2019.№4. Б.10.

tursa, bu xuddi go‘zal libosga solingan yamoqqa o‘xshab qoladi. Ayni jihatdan muxammas xuddi bir kishining qalamidan chiqqanday taassurot qoldirishi kerak. Avaz muxammaslari bu fikrimizning yorqin dalilidir.”[5]

E.Ochilovning A.Navoiy ijodi an’analari ruknida bitilgan boshqa maqolalari ham o‘zining ilmiyligi, ishonarli tahlillari bilan e’tiborga molik. Olimning zamonaviy o‘zbek adiblari, xususan, A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, A.Oripov va boshqa shoir va yozuvchilarga bag‘ishlangan turli yo‘sinda yozilgan maqolalari ham teran kuzatishlari bilan ajralib turadi. Bu hol olimning o‘zbek adabiyotining barcha davrida yashab ijod etgan ijodkorlar ijodi haqida o‘zining muayyan xulosalariga, qarashlariga ega ekanidan dalolat beradi.

“Alisher Navoiy va G‘afur G‘ulom” nomli maqolasida G‘afur G‘ulomning butun sharq klassiklarini, jumladan A.Navoiyni o‘ziga ustoz sifatida e’tirof etishi, shoir ijodining ommalashuvi, o‘rganilishiga oid olib borgan xizmatlariga ta’rif beriladi. Navoiy tavalludining 500 yilligini nishonlash yuzasidan tuzilgan Navoiy komiteti a’zosi sifatida “Farhod va Shirin” dostonining tabdilini qilgani, bolalarbop nasriy bayonini chop ettirgani xususidagi xizmatlari shular jumlasidandir. Maqolada shoirning Navoiy dahosiga bag‘ishlab yozgan muxammas va she’rlari tahlilga tortiladi va shu tariqa buyuk shoirga bo‘lgan ehtiromi ochiqlanadi.

“Abdulla Oripov ijodida navoiyona ohanglar” nomli maqolasida shoir she’rlarida ulug‘ shoir ijodiga xos falsafiy mazmun, purhikmat ma’nolar mujassam ekanini, “Yaxshilik yo‘llari”, “Avlodlarga maktub” kabi she’rlarida ilgari surilgan g‘oyaviy motivlarga xos ohangdoshlik jihatlari Navoiy misralari bilan qiyosan o‘rganiladi. Ayniqsa, A.Oripovning alloma shoir she’rlariga tazmin bog‘lagan she’rlari tahlillari e’tiborga molik. Ko‘ngil timsoli orqali ifodalangan mushtarak tashbehlar tahlili ham ikki davrning ikki buyuk shoiri ijodiga xos izdoshlik an’analarining bardavomligi nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, E.Ochilovning an’ana va ijodiy ta’sir yo‘nalishida yozilgan turkum tadqiqotlari olim ilmiy yo‘nalishining muhim bir qirrasi sifatida baholanishga loyiq bo‘lgan izlanishlar samarasidir.

3

E.Ochilov ilmiy faoliyatida nafaqat o‘zbek mumtoz, balki qardosh xalq mumtoz allomalari ijodiga bag‘ishlangan maqolalar, to‘plamlariga so‘zboshi va so‘ngso‘zlari ham alohida sahifani tashkil etadi. Jumladan, buyuk ozar shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy haqidagi kuzatishlari buning yorqin isbotidir.

Ergash Ochilov Nizomiy Ganjaviy she’rlarini tarjima qilish asnosida bir turkum maqolalar, so‘zboshilar ham chop ettirdi. Jumladan, “Ko‘ngil olamiga sayohat”, “Bulbulni mot aylagan shoir”, “Nizomiy “Xamsa”sining o‘zbekcha tarjimalari”, “Nizomiyning shox asari” kabi maqolalarida shoir hayoti va ijodi, mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tilga olinadi. “Ko‘ngil olamiga sayohat” nomli maqolasida Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi haqida keng ma’lumot beradi. Maqolada uning to‘liq ismi Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad bo‘lib, 1141-yil Ganja shahrida tug‘ilgani, yoshlikdan ota-onadan yetim qolib, tog‘asi qo‘lida tarbiyalangani qayd etilar ekan, uning turli ilmlarni o‘zlashtirishga ishtiyoqmandligi, Qur’onni yod olishi, fiqh, tarix, jug‘rofiya, falsafa, mantiq va adabdan ta’lim olib, ularning har birida ustod darajasiga yetishishi haqida fikr yuritiladi. Nizomiyning tabiiy fanlarni, jumladan, tabobat va ilmi nujum (astronomiya)va matematikani mukammal bilishi, bundan tashqari, qadimgi yunon falsafasi va adabiyoti, eroniy xalqlarning islomdan oldingi so‘z san’ati, xalifalik davri ilmiy-adabiy asarlari, yahudiy va nasroniy xalqlar tarixi, Kavkaz xalqlarining o‘tmishidan ham yetarlicha xabardor ekani haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, uning Galen, Gippokrat, Zakariyo Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi tib sohasi bilimdonlarining asarlaridan yaxshi xabardor bo‘lgani bois tabiblik bilan ham shug‘ullanganiga e’tibor qaratiladi. Nizomiyning bu barcha ilmlardan xabardorligi uning ijodida o‘z aksini topgan bo‘lib, maqolada bundan murod SENni topish ekaniga oid qarashlari quyidagicha ifoda etiladi.

Har chi az daqiqahoi nujum
Ba yakoyak nuhuftahoi ulum
Xondamu har varaq, ki mejustam
Chun turo yoftam varaq shustam.

Mazmuni: “Nujum ilmi va umuman, barcha ilmlarni eng nozik nuqtalarigacha varaqma-varaq o‘qib chiqar ekan, maqsadim ular vositasida Seni topish edi. Seni topgach, bu ilmlarning barchasidan qo‘limni yuvdim”.[6]

Maqolada Nizomiy Ganjaviy ijodiga ham to‘xtalib, uning nafaqat o‘z yurtida, balki butun Sharq xalqlari ma’naviy hayotida katta o‘ringa ega bo‘lgani yoritiladi. Maqolada qayd etilishicha, Nizomiy shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy aqidalari davrga xos tarzda javonmardlik g‘oyalari bilan oziqlandi va ijodida namoyon bo‘ldi.

Olim Nizomiyning tarjimai holi haqida fikr yuritar ekan, uning butun umri Ganja shahrida o‘tganini ta’kidlaydi. Bir safar Iroq sultoni Tug‘rulshohning da’vatiga binoan, Tabrizga tashrif buyurgani, biroq ikki-uch kundan ortiq turolmay yurtiga qaytib ketgani ma’lumot sifatida keltiriladi. Uning shaxsiy hayoti haqida muhim manbalardan yana biri Darband hokimi Boybars ibn Malik Muzaffarning 1169-yilda unga

5 Очилов Э.Аваз ижодида Навоий анъаналари.// ЎТА,2019.№4. Б.12.

6 Очилов Э. Кўнгил оламига саёҳат// “Махзан ул-асрор”. Сўзбоши. –Т., 2016 . Б. 3.

yuborilgan tuhfalar qatorida Ofoq ismli bir kanizakni ham in'om etgani voqeasidir. Ofoq uning xonadonining cho'risi emas, balki umr yo'ldoshi, maslahatchisi, ilhomchisiga aylandi. Ofoq 1180-yil bevaqt vafot etadi. Undan Muhammad ismli o'g'il shoirga yodgorlik bo'lib qoladi. Shoir eng aziz kishisi bo'lgan bu ayol muhabbati va hurmatini bir umr xotirasida saqlab, "Xusrav va Shirin" dostonidagi Shirin timsolida uning yorqin siymosini abadiylashtiradi. [7].

E.Ochilov maqolada shoirni xamsachilik an'anasiga asos solgan alloma sifatida ta'riflar ekan, "Nizomiyning nomini jahonga mashhur qilgan uning besh dostonni o'z ichiga olgan "Xamsa"si bo'ldi. Bu dostonlar – "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal") va "Iskandarnoma" (u "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" nomli ikki qismdan tashkil topgan) dan iborat"[81], deb yozadi. Shuningdek, muallif maqolada shoir "Xamsa"ning Jomiy va Navoiy kabi allomalar tomonidan yuksak baholanganini ularning dilso'zlaridan iqtiboslar keltirish bilan mustahkamlaydi.

Olim shoirning poetik qudratiga yuksak baho beradi. Ular faqat badiiy jihatdangina mukammal bo'libgina qolmay, zamonasining yuksak bilimdoni sifatida mutafakkir olim va hayotda katta tajribaga ega bo'lgan donishmand inson sifatida teran va purhikmat g'oyalarni aks ettirganini ta'kidlaydi. Bunga misol tariqasida o'zi tarjima qilgan quyidagi bir ruboysini misol tariqasida keltiradi:

Bil, adlu adolat zafarlar sababi,
Bil, zulmu sitam barcha zararlar sababi.
Bil, xayru saxo aybu gunohni yopgay,
Pastligu xasislik kadarlar sababi.

Maqolada Nizomiy Ganjaviy asarlarining so'nggi davrlarda qilingan tarjimasi yutuqlari, ba'zi bir yo'l qo'yilgan saktaliklar va ma'no bilan bog'liq xato-nuqsonlar haqida ham fikr yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, olimning bu boradagi tarjima va talqinlari buyuk ozar shoiri Nizomiy Ganjaviy ijodining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishiga qo'shilgan munosib hissa sifatida xalqlarimizning asrlar davomida shakllangan do'stlik rishtalari, adabiy aloqalarini yangi bir bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

7 Очилов Э. Кўнгил оламига саёҳат// "Махзан ул-асрор". Сўзбоши.–Т., 2016 . Б. 5.

8 Очилов Э. Кўнгил оламига саёҳат// "Махзан ул-асрор". Сўзбоши.–Т., 2016 . Б. 5.

4

Ergash Ochilov faol munaqqid sifatida adabiy jarayondagi har bir o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib boradi va doim o'zining munasabatini bildirib kelmoqda. Sir emas, o'tish davrida adabiyotimizda turli yo'nalishlarda asarlar bitilib, ijodiy izlanishlar ro'y bera boshladi. Bu izlanishlar ijobiy natijalar bilan birga o'zining ayrim salbiy ko'rinishlarini ham namoyon qila boshlagan edi. Ayniqsa she'riyatda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy so'zdan foydalanish mahorati masalasi dolzarb muammolardan biriga aylangan va turli bahs-munozaralarga asos yaratayotgan edi.

Ana shunday kezlari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2004-yil 17-sentyabr sonida "Siz she'r aytasizmu yo odam qo'rqitasiz" sarlavhali bir maqola e'lon qilindi. E.Ochilov qalamiga mansub bu maqolada yosh shoirlarning she'rlari tahlil etilib, she'riyatda so'z qo'llash masalasi tilga olinadi. Tanqidiy ruhda bitilgan ushbu maqolada o'zini modern shoirlar deb bilgan ayrim yoshlarning she'rlarida uchraydigan **"o'z qonini ichib, suyaklarini maydalayotgan", "o'z yog'ida o'zini qovurib tanovul qilayotgan", "...barcha qovurg'a va umurtqalarini sindirib, oshiq-moshig'i bilan bo'yniga osib olgan"** lirik qahramonlarning ruhiy kechinmalarini aks ettirishda qo'llanilayotgan g'ayritabiiy tashbeh va obrazli iboralar tanqid qilinar ekan, she'riyatga xos bo'lgan nafislik, badiiy so'z qo'llash mahorati, poetik obraz va timsollarning o'ziga xos go'zallik ramziga aylanishi kabi dolzarb masalalar haqida so'z yuritiladi.

Munaqqid fikricha, she'rda qo'llangan poetik ifodalar yorqin bo'lishidan tashqari, badiiy mazmunning san'atkorona aks etishiga ham yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu maqola o'z vaqtida adabiy jamoatchilikda aks-sado berib, hatto, ayrim shoir-u olimlar e'tiroziga ham sabab bo'lgan edi. Biroq oradan shuncha vaqt o'tib adabiy jarayondagi yangilanishlar o'zining ijobiy natijalarini berayotgan, yangi she'riyatimiz o'zining xilma-xil poetik salohiyatini namoyon qilayotgan pallaga kelib munaqqidning badiiy so'z haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega bo'lgani tobora oydinlashib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, iste'dodli olim va tarjimon Ergash Ochilovning ilm va hayot yo'li millatimiz ko'zgusiga aylangan adabiyot olami bilan izchil bog'langan va ko'pchilikka ibrat bo'layotgan yuksalish yo'lidir. Bu yo'l qahramonimiz uchun yana uzoq yillar yanada yuksaklikni, cho'qqilarni zabt etish yo'li bo'lib qolishiga tilakdoshmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Очилов Э. "Татаббу – маҳорат мактаби.// ЎТА, 2018, №1. 46-б.
2.Очилов Э. Кўнгил оламига саёҳат// "Махзан ул-асрор". Сўзбоши. –Т., 2016. 5-б.
3.Очилов Э.Аваз ижодида Навоий анъаналари. // ЎТА,2019.№4. 10-б.
4.Очилов Э. Фурқат ижодида Навоий анъаналари//ЎТА, 2019. 36-б.
5.Қўшжонов М. Танланган асарлар. –Т., 2018, 710- б.

Maxbuba AXATOVA,
Shahrisabz davlat
pedagogika instituti dotsenti, DSc

O‘ZBEK TILI ME’YORINI ASRASH BO‘YICHA TAKLIFLAR

Annotatsiya: maqolada globallashuv, texnologik rivojlanish va ijtimoiy jarayonlar sharoitida o‘zbek adabiy tilining me’yorini saqlash masalalari tahlil qilingan. Leksik tarkibning tez o‘zgarishi, xorijiy unsurlar oqimining kuchayishi, OAV va internetdagi til madaniyati bilan bog‘liq muammolar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda lug‘aviy-me’yoriy barqarorlikni ta’minlash, ta’lim tizimida adabiy til me’yorlarini mustahkamlash, normativ-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, o‘zbek tilining mavqeyini oshirish va jamiyatda til madaniyatini targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola o‘zbek tilining ijtimoiy faoliyat doirasini kengaytirish va normativlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili me’yori, adabiy til, normativlik, lug‘atshunoslik, terminologiya, til siyosati, OAV tili, nutq madaniyati, globallashuv, til mavqeyi.*

Annotation: the article examines the issues related to preserving the norms of the Uzbek literary language amid globalization, technological progress, and dynamic social changes. It analyzes the rapid shift in the lexical system, the increasing influx of foreign elements, and the decline of normative language use in mass media and digital platforms. The study proposes scientifically grounded recommendations to strengthen lexical and normative stability, enhance educational programs, reinforce legal mechanisms, increase the prestige of the Uzbek language, and promote linguistic culture within society. The article offers a comprehensive approach to maintaining language norms and expanding the functional scope of Uzbek in modern communication.

Key words: *Uzbek language norms, literary language, linguistic standardization, lexicography, terminology, language policy, media language, speech culture, globalization, language prestige.*

Аннотация: в статье рассматриваются проблемы сохранения нормы узбекского литературного языка в условиях глобализации, технологического развития и социальных изменений. Проанализированы факторы, влияющие на лексическую систему, приток заимствованных элементов, а также снижение нормативности в СМИ и интернет-пространстве. Автор предлагает научно обоснованные рекомендации по укреплению лексико-нормативной стабильности, совершенствованию образовательных программ, усилению правовых механизмов, повышению престижа узбекского языка и развитию языковой культуры в обществе. Материал ориентирован на комплексное укрепление нормативной базы и расширение функциональной сферы узбекского языка.

Ключевые слова: *норма узбекского языка, литературный язык, нормативность, лексикография, терминология, языковая политика, язык СМИ, культура речи, глобализация, престиж языка.*

Har qanday millatning madaniy o‘zligi, tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlari, avvalo, uning tilida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tili ham bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy dinamik jarayonlar sharoitida yangi kommunikativ ehtiyojlar bilan to‘qnashmoqda. Shunday vaziyatda til me’yorining barqarorligini ta’minlash, adabiy tilni asrash, leksik tizimdagi begona unsurlarni tartibga solish, rasmiy va norasmiy nutqda normativlikni mustahkamlash zarurati yanada kuchaymoqda[1,48]. Quyida o‘zbek tili me’yorini asrash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tizimli bayon etiladi.

1. **Me’yoriy-lug‘aviy barqarorlikni ta’minlash.**

Yangi lug‘atlar yaratish va mavjudlarini yangilash. Bugungi kunda tez o‘zgarayotgan ijtimoiy-ma’naviy hayot natijasida adabiy til lug‘at tarkibiga ko‘plab yangi terminlar kirib kelmoqda. Ularni tartibga solish uchun: davlat buyurtmasi asosida muntazam ravishda yangilangan orfoepik, orfografik, izohli, tarjima lug‘atlari nashr etilishi; yangi kirib kelayotgan xalqaro terminlarning o‘zbekcha muqobillarini taklif etuvchi maxsus “Terminologik kengash” faoliyatini kuchaytirish; internetda ham har doim yangilanib boradigan “onlayn normativ lug‘at platformasi” yaratish maqsadga muvofiq[2,23].

Chet so‘zlarning noo‘rin tatbiqini cheklash. Bugungi OAV, reklama matnlari, blogerlar nutqida ortiqcha ruscha va inglizcha unsurlarning ko‘pligi

adabiy me’yorni zaiflashtirmoqda. Shuning uchun: OAVda til me’yorlariga rioya qilish bo‘yicha majburiy uslubiy talablar joriy etilishi; reklama matnlarida chet so‘zlarning ortiqcha ishlatilishiga ruxsat bermaslik; rasmiy yozishmalarda faqat adabiy, normativ leksikadan foydalanish majburiyati kuchaytirilishi zarur.

2. O‘zbek adabiy tili me’yorlarining ijtimoiy-amaliy qo‘llanishini mustahkamlash

Ta’lim tizimida adabiy til me’yorlariga tayanilgan dasturlar. Til me’yorlarini asrash, avvalo, ta’lim orqali yo‘lga qo‘yiladi. Shu bois: maktab darsliklarida adabiy tilning zamonaviy me’yorlarini aks ettiruvchi materiallar bo‘lishi; o‘qituvchilarning nutq madaniyati bo‘yicha malaka oshirish kurslari muntazam tashkil etilishi; oliy ta’limda “O‘zbek tilining amaliy me’yorlari” fani alohida modul sifatida joriy etilishi lozim.

Yoshlar nutq madaniyatini shakllantirish. Globallashuv sharoitida yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab begona unsurlarga duch keladi. Me’yorni asrash uchun: blogerlar va kontent yaratuvchilarga nutq madaniyati bo‘yicha o‘quv vebinarlar tashkil etish; TikTok, YouTube, Instagram orqali “Adabiy til haftaligi”, “To‘g‘ri yozing” kabi loyihalar yo‘lga qo‘yish; universitetlarda “Nutq madaniyati klublari”ni rivojlantirish[3,77].

3. Normativ huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish

“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni takomillashtirish. Amaldagi qonunga qo‘shimcha bandlar kiritish zarur: davlat idoralari va OAVda normativ til me’yorlariga rioya etmaslik uchun javobgarlik mexanizmi; tashqi reklama bannerlarida milliy tilning ustuvor ishlatilishi; terminologiyani tartibga solish bo‘yicha markazlashgan davlat organini kuchaytirish.

OAVda til me’yorini nazorat qilish. OAV tili jamiyat nutq madaniyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois: telekanallar, radio va onlayn nashrlar uchun “Til ekspertizasi xizmati” tashkil etish; efirga chiqadigan barcha dasturlar matni oldindan filolog mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqilishi; qo‘pollik, jargon, sheva elementlarining OAVda tarqalishiga chek qo‘yish.

4. O‘zbek tili mavqeini oshirish

Tilni iqtisodiy va texnologik sohalarga faol kiritish. Texnologik sohalarda chet so‘zlar oqimi juda katta. Shuning uchun: IT va texnika sohalarida o‘zbekcha terminlar bankini shakllantirish; sun’iy intellekt, dasturiy ta’minot va mobil ilovalarda o‘zbek tilini majburiy qo‘llash modellarini yaratish; davlat portallarida barcha jarayonlarni to‘liq o‘zbek tilida amalga oshirish infratuzilmasini kuchaytirish.

O‘zbek tilida ommaviy sifatli kontent yaratish. Tilning mavqeyi uning amaliy jozibadorligiga bog‘liq. Shu bois: o‘zbek tilida ilmiy-ommabop, badiiy va multimedia mahsulotlarini yaratish; yuqori ko’rsatkichli serial va filmlarni o‘zbek tilida yuqori saviyada ishlab chiqarish; yoshlar uchun zamonaviy o‘zbekcha kontentlarni ko‘paytirish.

5. Jamiyatda til madaniyatini targ‘ib qilish

“Til festivallari” va ommaviy loyihalar. Tilni targ‘ib qilishning samarali usullari: “O‘zbek tili kuni” doirasida festival va ommaviy loyihalar tashkil etish; “Yilning eng yaxshi nutq egasi” kabi tanlovlar; mashhur olimlar, san’atkor va blogerlarni til targ‘iboti elchilari sifatida jalb qilish.

Oilada til madaniyatini shakllantirish. Til me’yorining asoslari oilada shakllanadi: ota-onalar uchun qo‘llanmalar yaratish; bolalar uchun sifatli o‘zbekcha multfilmlar yaratish; ommaviy axborot vositalarining oilaviy dasturlarida adabiy tilni targ‘ib qilish.

O‘zbek adabiy tili me’yorlarini asrash zamon talabidir. Globallashuv jarayonida tilning ichki qonuniyatlari, normativ tizimi, leksik-semantik barqarorligi, yozma va og‘zaki nutq sinxronligi o‘zgarib bormoqda. Shuning uchun davlat siyosati, ta’lim, OAV, internet makoni, ilmiy faoliyat va kundalik hayot darajasida me’yorni mustahkamlash bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilishi zarur.

Til me’yorini asrash bu – nafaqat lingvistik, balki ma’naviy, madaniy, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir qiluvchi jarayon bo‘lib, barchamizdan e’tibor va mas’uliyatni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, R. **O‘zbek adabiy tili normalari.** – Toshkent: Fan, 2010.
2. Shukurov, Sh. **Til madaniyati va nutq odobi.** – Toshkent: Universitet, 2014.
3. Karimov, X. **O‘zbek tili me’yorlari va ularning qo‘llanilishi.** – Toshkent, 2022.

Махарам АЗИЗОВА,
старший преподаватель кафедры языков и гуманитарных наук Андижанского государственного технического института

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ PISA И PIRLS В ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: статья рассматривает международные исследования PISA и PIRLS как ключевые инструменты оценки качества образования. Анализируются их методологические основы, цели и результаты участия Узбекистана в циклах PISA-2022 и PIRLS-2021. Показано, что данные международных исследований являются важным ориентиром для развития национальной образовательной политики и модернизации системы оценки учебных достижений.

Ключевые слова: *PISA; PIRLS; международные исследования; качество образования; функциональная грамотность; читательская грамотность; образовательная политика; оценка образовательных достижений; OECD; IEA; Узбекистан.*

Annotation: this article examines the international assessments PISA and PIRLS as key tools for evaluating the quality of education. It analyzes their methodological foundations, purposes, and the results of Uzbekistan's participation in the PISA-2022 and PIRLS-2021 cycles. The findings demonstrate that international assessment data serve as an important reference point for the development of national educational policy and the modernization of student achievement evaluation systems.

Key words: *PISA; PIRLS; international assessments; educational quality; functional literacy; reading literacy; educational policy; student achievement assessment; OECD; IEA; Uzbekistan.*

Annotatsiya: maqolada PISA va PIRLS xalqaro tadqiqotlari ta'lim sifatini baholashning asosiy vositalari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlarning metodologik asoslari, maqsadlari hamda O'zbekistonning PISA-2022 va PIRLS-2021 sikllaridagi ishtirok natijalari tahlil qilinadi. Xalqaro baholashlar natijalari milliy ta'lim siyosatini rivojlantirish va o'quv yutuqlarini baholash tizimini modernizatsiya qilish uchun muhim yo'nalish ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *PISA; PIRLS; xalqaro tadqiqotlar; ta'lim sifati; funksional savodxonlik; o'qish savodxonligi; ta'lim siyosati; o'quv yutuqlarini baholash; OECD; IEA; O'zbekiston.*

Современная система образования в мире характеризуется растущей потребностью в объективных механизмах оценки образовательных достижений учащихся, что обусловлено процессами глобализации, трансформацией рынка труда и усилением внимания к формированию компетенций XXI века. В этих условиях международные сравнительные исследования качества образования, такие как Programme for International Student Assessment (PISA) и Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS), становятся ключевым инструментом оценки готовности подрастающего поколения к жизни в информационном обществе. Участие стран в данных исследованиях не только позволяет получать сопоставимые данные, но и создаёт основу для анализа эффективности образовательных реформ, прогнозирования тенденций и корректировки стратегий развития образования.

PISA, проводимая Организацией экономического сотрудничества и развития (OECD), нацелена на оценку функциональной грамотности 15-летних учащихся, то есть способности применять знания в нестандартных ситуациях и решать реальные жизненные задачи. Методологически PISA ориентирована не на проверку усвоения школьной программы, а на определение способности к практическому использованию знаний. Это делает исследование уникальным: оно оценивает успешность образовательной системы не только как формальную структуру передачи знаний, но и как механизм формирования когнитивных и метакогнитивных навыков. Согласно данным отчетов OECD, результаты PISA отражают ключевые стороны образовательной подготовки: умение понимать и интерпретировать тексты, строить математические рассуждения, анализировать природные явления, опираясь на научные данные [1; 3].

PIRLS, реализуемое Международной ассоциацией по оценке учебных достижений (IEA), оценивает уровень читательской грамотности учащихся начальной школы. Чтение в рамках PIRLS рассматривается как фундаментальный навык, обеспечивающий доступ ко всем другим видам учебной деятельности. Теоретические основания PIRLS базируются на представлении о чтении как о многоуровневом процессе, включающем понимание текста, извлечение информации, интерпретацию и

оценку содержания [4]. Отчеты PIRLS позволяют проследить, насколько учащиеся готовы к переходу на последующие ступени образования, где требуется работа с более объёмными и сложными текстами.

Обширная научная литература указывает, что международные исследования качества образования служат индикатором эффективности образовательной политики, методики преподавания и качества подготовки учителей [5; 6]. Анализ результатов PISA и PIRLS позволяет странам выявлять сильные и слабые стороны своей образовательной системы, сопоставлять их с мировыми трендами и разрабатывать стратегии совершенствования. Как отмечает А. Шляйхер, руководитель департамента образования OECD, результаты PISA дают возможность оценить способность учащихся «мыслить самостоятельно», а не просто воспроизводить информацию [5].

Для Узбекистана участие в этих программах имеет важное стратегическое значение. В 2022 году страна впервые представила результаты в PISA. Согласно данным официальной базы OECD, средний балл учащихся Узбекистана составил 364 по математике, 336 по чтению и 355 по естественным наукам, что значительно ниже средних значений стран OECD (472, 476 и 485 соответственно) [1; 7]. Эти результаты свидетельствуют о необходимости усиления развития функциональной грамотности и перехода от традиционной репродуктивной модели обучения к компетентностной. Кроме того, результаты по творческому мышлению, опубликованные OECD в 2024 году, показывают, что только 16 % учащихся Узбекистана достигли базового уровня, в то время как средний показатель OECD превышает 70 % [11].

Участие в PIRLS (2021) также выявило важную информацию о состоянии начального образования. Согласно отчету PIRLS, результаты учащихся Узбекистана составили около 437 баллов, что показывает наличие системных проблем в формировании базовых навыков чтения и понимания текста [4]. Данные PIRLS позволяют говорить о необходимости развития методик обучения чтению, усиления подготовки учителей и внедрения формирующего оценивания. В отчетах ЮНИСЕФ для Узбекистана подчеркивается важность интеграции данных международных исследований в национальные программы реформ [8].

С теоретико-методологической точки зрения PISA и PIRLS являются инструментами мониторинга качества образования, позволяющими оценить способность учащихся воспринимать, обрабатывать и использовать информацию. Результаты исследований демонстрируют, что успешные образовательные системы – Финляндия, Республика Корея, Сингапур – ориентированы не только на академические знания, но и на формирование навыков анализа, критического мышления и интерпретации информации [5; 6]. Это подтверждает необходимость модернизации содержания обучения, методов преподавания и механизмов оценивания.

Таким образом, участие Узбекистана в международных исследованиях качества образования является важным шагом на пути к формированию современной образовательной системы, ориентированной на компетентностный подход. Данные PISA и PIRLS дают объективную основу для анализа текущего состояния образования, позволяют оценить эффективность реформ, а также выявить направления дальнейшей модернизации. Международные исследования подтверждают, что развитие навыков чтения, понимания информации, аналитического мышления и способности применять знания в новых ситуациях является ключевым фактором успешного формирования человеческого капитала.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. OECD. PISA 2022 Results. Country Profile: – Uzbekistan. URL: https://gpseducation.oecd.org/CountryProfile?primaryCountry=UZB&topic=PI&treshold=10
2. OECD. PISA 2022 Results. Volume I–II. URL: https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_ed6fbcc5-en/
3. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023.
4. IEA. PIRLS 2021. Uzbekistan Report. URL: https://pirls2021.org/wp-content/uploads/2022/11/Uzbekistan.pdf
5. Schleicher A. World-Class: How to Build a 21st-Century School System. OECD Publishing, 2018.
6. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS and TIMSS: International Perspectives on Student Achievement. IEA, 2021.
7. Kun.uz. 2022 PISA results show urgent need for educational reforms in Uzbekistan. URL: https://kun.uz/en/news/2024/02/06/2022-pisa-resuls-show-urgent-need-for-educational-reforms-in-uzbekistan-president-mirziyoyev
8. UNICEF Uzbekistan. Partnership Compact for Education Reform 2021–2025. – Tashkent, 2021.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023. – Paris: UNESCO.
10. OECD. PISA 2022 Creative Thinking Results. Country Dataset. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/06/pisa-2022-results-volume-iii-country-notes_72b418f8/uzbekistan_a690098e/429658b6-en.pdf
11. OECD. Education at a Glance 2023. – Paris: OECD Publishing.



TILSHUNOSLIK

Soxibaxon ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasi dotsenti,

TIL ME’YORINI BUZISH HOLATLARI VA ULARNING SABABLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili me’yorining buzilishi hodisalari tizimli-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda normativ til birliklarining fonetik, leksik, grammatik va uslubiy sathlarda buzilish mexanizmlari aniqlanib, ularning kommunikativ jarayondagi funksional xususiyatlari yoritiladi. Me’yoriy og‘ishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy-lingvistik, psixolingvistik hamda ekstralingvistik omillar kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi. OAV diskursi, internet-kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar hamda kundalik og‘zaki nutqda kuzatilayotgan normadan chekinish holatlari empirik material asosida tahliliy baholanadi.

Kalit so‘zlar: *me’yordan og‘ish, til madaniyati, adabiy norma, lingvistik xatolar, nutq madaniyati, ommaviy axborot vositalari, internet tili.*

Annotation: this article analyzes the phenomena of violation of the norm of the Uzbek literary language from a systemic-linguistic perspective. The study identifies the mechanisms of violation of normative language units at the phonetic, lexical, grammatical and stylistic levels, and highlights their functional properties in the communicative process. The sociolinguistic, psycholinguistic and extralinguistic factors that cause the emergence of normative deviations are considered in a comprehensive manner. Deviations from the norm observed in media discourse, Internet communication, social networks and everyday oral speech are analytically assessed on the basis of empirical material.

Key words: *deviation from the norm, language culture, literary norm, linguistic errors, speech culture, mass media, Internet language.*

Аннотация: в данной статье анализируются явления нарушения нормы узбекского литературного языка с системно-лингвистической точки зрения. В исследовании выявляются механизмы нарушения нормативных языковых единиц на фонетическом, лексическом, грамматическом и стилистическом уровнях, а также освещаются их функциональные свойства в коммуникативном процессе. Комплексно рассматриваются социолингвистические, психолингвистические и экстралингвистические факторы, вызывающие возникновение нормативных отклонений. На основе эмпирического материала аналитически оцениваются случаи отклонений от нормы, наблюдаемые в медийном дискурсе, интернет-коммуникации, социальных сетях и повседневной устной речи.

Ключевые слова: *отклонение от нормы, языковая культура, литературная норма, языковые ошибки, речевая культура, средства массовой информации, язык интернета.*

Kirish. Til jamiyatning eng muhim kommunikativ tizimi sifatida nutq jarayonini tartibga soluvchi muayyan me’yorlar majmui bilan yashaydi va rivojlanadi. Til me’yorlari — adabiy tilning barqarorligini, kommunikativ aniqligini, estetik uyg‘unligini ta’minlovchi lingvistik va ijtimoiy-lingvistik qonuniyatlar majmuidir. Shu bois me’yoriylik masalasi tilshunoslikning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jadallashuvi, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi, internet leksikonining faol qo‘llanishi hamda ommaviy madaniyatning nutq amaliyotiga ta’siri natijasida adabiy til me’yorining buzilishi holatlari sezilarli darajada ko‘paymoqda. Bu jarayon, bir tomondan, tilning tabiiy evolyutsiyasi sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, til madaniyatining pasayishi, normativ birliklarning beqarorligi va nutqiy kompetensiyaning susayishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Til me’yorining buzilishi hodisasi turli sathlarda — fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va uslubiy qatlamlarda namoyon bo‘lib, har bir sathga xos bo‘lgan lingvistik qonuniyatlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bunday og‘ishlar ko‘pincha tasodifiy xato sifatida emas, balki ijtimoiy-lingvistik jarayonlar,

shaxsning nutqiy kompetensiyasi, ommaviy axborot vositalaridagi til siyosati, shuningdek, psixolingvistik mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liq holda yuz beradi. Xususan, OAV tilining standartlashmaganligi, ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy bo‘lmagan kommunikatsiyaning ustuvorligi, xorijiy tillarning kuchli ta’siri, yosh avlodning nutq madaniyatiga e’tiborining susayishi me’yor buzilishlarining omillari sifatida ko‘rsatilmoqda.

Til me’yorining buzilishi masalasini tizimli ravishda o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishidir. Me’yoriy birliklarning funksional o‘zgaruvchanligini, normadan og‘ishlarning sabablari va ko‘rinishlarini aniqlash, ularning jamiyat nutq madaniyatiga ta’sirini baholash til siyosati va ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni ilmiy asosda yoritishga qaratilgan bo‘lib, lingvistik me’yor tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish, me’yor buzilishlarining tipologiyasini ishlab chiqish hamda zamonaviy kommunikativ muhitda kuzatilayotgan og‘ishlarning ijtimoiy-lingvistik manbalarini aniqlashni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Til me’yorlari, ularning buzilishi va normativlik masalalari o‘zbek va Yevropa tilshunosligida keng tadqiq qilingan. Yevropa tilshunosligida esa til me’yorining nazariy asoslari F. de Sossyur, R. Jakobson, N. Xomskiy, E. Haugen kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sossyur me’yorni til tizimi va nutq o‘rtasidagi munosabat orqali tushuntirsa, Haugen me’yorlashtirishni til siyosati va standartlashtirish jarayoni bilan bog‘laydi. U. Labov me’yor buzilishini ijtimoiy tabaqalanish va variativlik bilan izohlaydi, psixolingvistik yondashuvlar esa me’yor buzilishining kognitiv sabablarini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Ibrohimov kabi olimlar adabiy til me’yorlarining shakllanishi, ularning lingvistik asoslari hamda me’yor buzilishlarining turli ko‘rinishlarini yoritgan. Zamonaviy olimlar — B. O‘rinboyev, D. Hudoyorov va boshqlar esa internet nutqi, OAV tili va yoshlar leksikasi orqali me’yor buzilishlarining amaliy ko‘rinishlarini tahlil qiladilar.

Asosiy qism. Til me’yorlari adabiy tilning barqarorligi, izchilligi va kommunikativ samaradorligini ta’minlaydigan lingvistik hamda ijtimoiy-lingvistik qoidalar majmui bo‘lib, ular tarixiy taraqqiyot, madaniy an’ana va jamiyatdagi kommunikativ ehtiyojlarga ko‘ra shakllanadi. Me’yorning mazmuni fonetik, grammatik, leksik, orfografik va uslubiy qatlamlarni qamrab oladi va ular tilning har bir sathida izchil amal qilishi zarur. Aks holda, nutq jarayonida mantiqiy, mazmuniy yoki estetik buzilishlar yuzaga keladi. Hozirgi globallashuv, axborot oqimining keskin ko‘payishi, internet kommunikatsiyasining kengayishi, ommaviy madaniyatning ta’siri til me’yoriga oid muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Natijada adabiy me’yorning buzilishi turli darajalarda, turli ko‘rinishlarda ko‘zga tashlanmoqda.

Fonetik va orfoepik me’yorlarning buzilishi ko‘pincha talaffuzning izchil emasligi, adabiy norma bilan og‘zaki nutq varianti o‘rtasidagi tafovutlarning keskinlashuvi, OAV va internetdagi noto‘g‘ri talaffuzlarning tez tarqalishi bilan bog‘liqdir. Leksik me’yor buzilishlari esa so‘z ma’nolarining noto‘g‘ri qo‘llanishi, yangi so‘zlarning keraksiz yasanishi, begona tillardan kalkalash, internet tilidagi birliklarning me’yoriy chegaradan tashqarida qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa ingliz tilidan o‘tgan so‘zlarning izchil me’yorlashtirilmasdan qo‘llanishi leksik tizimda noaniqliklarni kuchaytiradi. Grammatik me’yorlarning buzilishi morfologik shakllarning noto‘g‘ri yasalishi, gap tuzilishidagi mantiqiy izchillikning buzilishi, bog‘lanish munosabatlarining to‘g‘ri qo‘llanmasligi kabi holatlarda kuzatiladi. Uslubiy me’yorlarning buzilishi esa muayyan funksional uslubga xos bo‘lmagan birliklarning qo‘llanilishi, rasmiy nutqda og‘zaki ifodalar, ilmiy uslubda badiiy vositalarning nomuvofiq ishlatilishi bilan bog‘liq.

Til me’yorining buzilishlariga olib keladigan sabablar ko‘p omilli bo‘lib, ular ijtimoiy-lingvistik, psixolingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Ijtimoiy omillar sirasiga kommunikatsiya vositalarining ko‘payishi, internet tilining norasmiyligi, yoshlar nutqida sleng va jargonlarning faol qo‘llanishi kiradi. Psixolingvistik omillar – nutq jarayonining tezligi, e’tiborning yetishmasligi, kognitiv yuklama oshishi, shaxsning til sezgisi pastligi kabi jarayonlar orqali me’yor buzilishiga sabab bo‘ladi. Ekstralingvistik omillardan esa xorijiy tillarning kuchli ta’siri, atamalar

tizimining yetarli darajada me’yorlashtirilmagani, kod-o‘zgarishning kengayishi alohida o‘rin tutadi. Bu omillar natijasida til tizimida variantlilik ortadi, adabiy me’yorning izchil qo‘llanishi qiyinlashadi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek tilida me’yor buzilishlari ko‘proq fonetik, leksik, grammatik va uslubiy sathlarda kuzatiladi. Fonetik buzilishlarning asosiy sabablari sifatida OAV va internetdagi noto‘g‘ri talaffuzlarning tarqalishi hamda adabiy talaffuz normalarining yetarli darajada targ‘ib qilinmaganligi aniqlangan. Leksik me’yor buzilishlari esa asosan ingliz va rus tillaridan o‘tgan so‘zlarning me’yorlashtirilmasdan qo‘llanishi, internet tilidagi qisqartmalar va jargonlarning ommalashuvi bilan bog‘liqdir. Grammatik me’yor buzilishlari nutq egalarining grammatik kompetensiyasi pastligi va tezkor kommunikatsiya sharoitidagi e’tibor yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi. Uslubiy buzilishlar esa funksional uslublarning aralashib ketishi va rasmiy nutqning norasmiylashuvi bilan izohlanadi.

Analizlar shuni ko‘rsatadiki, me’yor buzilishlariga olib keluvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ular ijtimoiy-lingvistik (jamiyatdagi til siyosati, OAV tili, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri), psixolingvistik (nutq jarayonidagi tezlik, kognitiv yuklama, til sezgisining pastligi) va ekstralingvistik (xorijiy tillar ta’siri, global madaniy transformatsiyalar) omillar sifatida guruhlanadi. Bu omillar o‘zaro ta’sirda bo‘lgan holda me’yorning izchil qo‘llanishini qiyinlashtirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, til me’yorining buzilishi jamiyatning umumiy nutq madaniyati, ta’lim sifati va rasmiy kommunikatsiya madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Me’yorlarning zaiflashishi til birliklarining barqarorligiga putur yetkazadi va variantlilikning me’yoriy chegaradan tashqariga chiqishiga sabab bo‘ladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, me’yorni mustahkamlash uchun normativ lug‘atlar va qo‘llanmalarni yangilash, OAV va internet tilini me’yorlashtirish, ta’lim jarayonida nutq madaniyatiga oid bilimlarni kuchaytirish hamda keng jamoatchilik uchun lingvistik madaniyatni oshirishga qaratilgan tashabbuslarni rivojlantirish zarur.

Xulosa. Yig‘ilgan ilmiy dalillar va amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, til me’yorining buzilishi hodisalari zamonaviy kommunikatsiya sharoitida ko‘p omilli jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Me’yor buzilishlari fonetik, leksik, grammatik va uslubiy qatlamlarda turlicha ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ularning asosiy manbalari sifatida internet-kommunikatsiya, OAV tili, ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy muloqot, xorijiy tillarning kuchli ta’siri, shaxsning til kompetensiyasidagi kamchiliklari va psixolingvistik omillar qayd etildi. Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, me’yorning izchil qo‘llanmasligi nafaqat adabiy tilning barqarorligiga, balki jamiyatning umumiy nutq madaniyatiga ham bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 320-b.
2. Sokhibakhon Yakubovna Abdullayeva. Analysis of the Traditional and Credit Module System of Training in Higher Education. (2024). Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 2(12), 70-73.https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/6441
3. Hojiyev A. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. 156-b.
4. Nurmonov A. O‘zbek tili tarixi va adabiy norma masalalari. – Toshkent: Fan, 2005. 240-b.
5. Ibrohimov S. O‘zbek adabiy tili me’yorlari va ularning qo‘llanilishi. – Toshkent: Fan, 1997. 210-b.
6. O‘rinboyev B. Zamonaviy OAV tili: lingvistik tahlil. – Toshkent: Akademnashr, 2019. 180-b.
7. Ф. де Соссюр. Курс общей лингвистики. – Москва: Прогресс, 1977. – 350 с.

Nilufarxon MAHMUDOVA,
PhD
nilufarmaxmudova722@gmail.com

O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA ZOOMORF KODLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarida faol qo‘llaniladigan zoomorf kodlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Zoomorf obrazlar xalqning tarixiy tafakkuri, mifologik qarashlari, milliy mentaliteti va axloqiy-estetik qadriyatlarini ifodalovchi muhim semantik kod sifatida o‘rganiladi. Maqolada ot, qo‘y, it, tuya, eshak, echki baliq kabi zoonimlar ishtirokidagi topishmoqlar semantik, pragmatik va kognitiv jihatdan tahlil qilinib, ularning ramziy, implitsit va eksplitsit ma’nolari ochib berilgan hamda zoomorf kodlar xalq tafakkurining lingvomadaniy modeli sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: *topishmoq, zoomorf kod, zoonim, lingvomadaniy xususiyat, ramziy ma’no, folklor matni, milliy mentalitet.*

Annotation: this article analyzes the linguocultural characteristics of zoomorphic codes actively used in Uzbek folk riddles. Zoomorphic images are studied as an important semantic code expressing the historical thinking, mythological views, national mentality and moral and aesthetic values of the people. The article analyzes the semantic, pragmatic and cognitive aspects of riddles involving zoonyms such as horse, sheep, dog, camel, donkey, goat, fish, revealing their symbolic, implicit and explicit meanings, and interprets zoomorphic codes as a linguocultural model of folk thinking.

Key words: *riddle, zoomorphic code, zoonym, linguocultural characteristic, symbolic meaning, folklore text, national mentality.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурные характеристики зооморфных кодов, активно используемых в узбекских народных загадках. Зооморфные образы изучаются как важный семантический код, выражающий историческое мышление, мифологические взгляды, национальный менталитет, а также моральные и эстетические ценности народа. В статье анализируются семантические, прагматические и когнитивные аспекты загадок, включающих зоонимы, такие как лошадь, овца, собака, верблюд, осёл, коза, рыба, выявляются их символические, имплицитные и эксплицитные значения, а зооморфные коды интерпретируются как лингвокультурная модель народного мышления.

Ключевые слова: *загадка, зооморфный код, зооним, лингвокультурная характеристика, символическое значение, фольклорный текст, национальный менталитет.*

Bugungi o‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos matnlarni lingvokulturologik aspektda tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, folklorning ixcham, ammo semantik jihatdan nihoyatda zich janri bo‘lgan topishmoqlar xalq tafakkuri, milliy dunyoqarash va madaniy kodlarni aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Topishmoqlar tili ramziy, ko‘chma va implitsit ma’nolarga boy bo‘lib, ularni anglash uchun lingvomadaniy kontekstni hisobga olish zarur.

O‘zbek xalq topishmoqlarida hayvonot olamiga oid obrazlar, zoomorf kodlar juda faol ishlatiladi. Bu holat o‘zbek xalqining qadimdan chorvachilik, dehqonchilik va tabiat bilan chambarchas bog‘liq turmush tarzini aks ettiradi. Zoomorf kodlar orqali insonning mehnati, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy me’yorlari va estetik qarashlari obrazli ifoda etiladi.

Topishmoqlarda lingvomadaniy kodlardan faol qo‘llaniladi. “Xususan, borliqni va undagi predmetlarni antropomorf lingvomadaniy kod,

zoomorf lingvomadaniy kod va narsa-buyum lingvomadaniy kodlari vositasida aks ettirish topishmoqlarning muhim belgilaridan biri hisoblanadi[1]". Topishmoq – xalq ogʻzaki ijodining qadimiy janrlaridan biri boʻlib, unda predmet yoki hodisa yashirin, ramziy, koʻchma tasvirlar orqali ifodalanadi. B.X.Sarimsoqov ta'kidlaganidek, "topishmoq – xalqning obrazli tafakkuri mahsuli boʻlib, unda soʻz san'ati va mantiqiy fikrlash uzviy uygʻunlashadi[2]".

Lingvomadaniyat nuqtayi nazaridan topishmoqlar madaniy axborot tashuvchi matnlar sanaladi. Ularda milliy tajriba, an'anaviy bilim, mifologik qarashlar til vositasida kodlangan boʻladi. Aynan zoomorf kodlar ana shu kodlangan axborotni yetkazishda muhim rol oʻynaydi. Lingvokulturologiyada kod tushunchasi madaniy axborotni uzatuvchi belgilar tizimi sifatida talqin qilinadi. V.A.Maslova fikricha, madaniy kodlar inson ongida shakllangan dunyo modelini til orqali ifodalovchi ramziy tizimdir. Zoomorf kod esa hayvon obrazlari orqali inson, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarni ifodalovchi madaniy-semantik birlikdir[3].

Oʻzbek folklorida zoomorf kodlar nafaqat real hayvon obrazini, balki uning asosida shakllangan ramziy, baholovchi va axloqiy ma'nolarni ham oʻz ichiga oladi, ya'ni zoomorf kodlar topishmoqlarda predmetni yashirin ifodalash, ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish, axloqiy saboq berish, obrazlilik va badiiylikni ta'minlash kabi funksiyalarni bajaradi. Pragmatik jihatdan zoomorf kodlar tinglovchining madaniy tajribasiga tayanadi va uni faol interpretatsiyaga chorlaydi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa, zoomorf kodlar inson ongida mavjud konseptual metaforalarga asoslanadi. Quyida bir qator topishmoqlarning tahliliga toʻxtalamiz.

1. Toʻrt oyoqli, Temir tuyoqli. Javobi: ot. Mazkur topishmoqda ot zoomorf kodi orqali xalq tafakkurida muhim oʻrin tutgan hayvon obrazining asosiy belgisi – tuyoqlarining temirga qiyoslanishi ifodalanadi. "Temir tuyoq" birikmasi metaforik koʻchma ma'no asosida shakllangan boʻlib, otning chidamliligi, mustahkamligi va mehnat qudratini aks ettiradi. Lingvokulturologik jihatdan bu topishmoq otning transport vositasi, harbiy qudrat, mehnat va sadoqat ramzi ekanini koʻrsatadi. Bu oʻrinda zoomorf kod milliy xoʻjalik tajribasi bilan uzviy bogʻlangan.

2. *Suvga tushsa mingta, Suvdan chiqsa bitta. Javobi: otning dumi.* Ushbu topishmoqda butun hayvon emas, balki uning bir qismi (otning dumi) zoomorf kod sifatida namoyon boʻladi. "Mingta" va "bitta" qarama-qarshiligi orqali vizual effekt yaratiladi, suvga tushganda dum tolalarining yoyilishi, suvdan chiqqanda esa birlashishi nazarda tutiladi. Bu topishmoq xalqning kuzatuvchanligini, tabiat hodisalarini obrazli idrok etishini, implitsit tasvir vositalaridan foydalanishini yaqqol namoyon etadi. Zoomorf kod bu oʻrinda estetik va kognitiv funksiyani bajaradi.

3. Quyon emas,
Uzun quloq.
Ot emas u,
Toʻrtta tuyoq.

Javobi: eshak.

Mazkur topishmoq taqqoslash asosiga qurilgan. "Quyon emas", "ot emas" kabi inkor shakllari orqali eshakning differensial belgilarini aniqlashga undaydi. Uzun quloq va toʻrt tuyoq – asosiy identifikatsion belgilar. Lingvomadaniy jihatdan eshak sabr, mehnatkashlik, kamtarlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, xalq tafakkurida eshak obrazi ba'zan soddalik semasi bilan ham bogʻlanadi. Topishmoqda esa neytral baho ustun.

4. Hovuzi qulqulum,
Uzun oyogʻu, kalta dum. Javobi: tuya. Tuya – oʻzbek xalqining choʻl va sahro hayoti bilan bogʻliq muhim zoomorf kodi. "Hovuzi qulqulum" birikmasi tuyaning oʻrkachiga metaforik nom berish orqali ifodalangan. Bu topishmoqda oʻrkach suv saqlovchi "hovuz" sifatida, uzun oyoq sahroga moslashuv, kalta dum tashqi morfologik belgi sifatida lingvokulturologik talqin qilinadi. Tuya obrazi chidamlilik va sabr-toqat ramzidir.

5. Soqoli bor, aqli yoʻq. Javobi: echki. Ushbu topishmoqda antropomorf va zoomorf belgilar qarama-qarshiligi kuzatiladi. Soqol insonga xos belgi, "aql yoʻq" hayvonga xos xususiyat sifatida qaraladi. Bunda zoomorf kod kinoyaviy,

1 Худойберганова Д. Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг устувор вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – №5. – Б. 7-8.
2 Sarimsoqov B.X. O'zbek xalq og'zaki ijodi asoslari. — Toshkent: Fan, 2004.
3 Маслова В.А. Лингвокултурология. — Москва: Академия, 2001.

baholovchi, didaktik xususiyat kasb etmoqda. Echki obrazi orqali xalq tafakkurida tashqi ko‘rinish bilan ichki sifat mos kelmasligi haqidagi implitsit xulosa berilgan.

6. Kechalikka hov-hov etar,
Kunduzlikka vov-vov etar. Javobi: it.

Bu topishmoq hayvonga xos taqlid so‘z asosida qurilgan. “Hov-hov”, “vov-vov” birliklari itning tovushini ifodalab, uni aniqlashda asosiy kalit vazifasini bajargan. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan it sadoqat, qo‘riqlash, hushyorlik ramzidir. Kecha va kunduz qarama-qarshiligi itning doimiy xizmatini ta’kidlaydi. Zoomorf kod bu topishmoqda pragmatik va funksional ahamiyatga ega.

7. Jar bo‘yida jar qilich. Javobi: jayra. Bu topishmoq poetik ixchamlik va obrazlilik bilan ajralib turadi. “Jar qilich” metaforasi jayraning shoxlariga nisbatan qo‘llanilgan. Topishmoqda tabiiy landshaft (jar), hayvonning tashqi belgisi (o‘tkir shox), xavf va himoya semalari uyg‘unlashgan. Zoomorf kod mifopoetik tafakkur unsurlarini o‘zida mujassam etgan.

8. Boshi bor-u, sochi yo‘q.
Ko‘zi bor-u, qoshi yo‘q.
Tangasi bor, puli yo‘q,
Qanoti bor, uchuvi yo‘q. Javobi: baliq.

Bu topishmoq qarama-qarshi belgilar tizimi asosida qurilgan. Baliqning anatomik xususiyatlari inson tanasi bilan qiyoslanib, farqlari ochib beriladi. Lingvokulturologik jihatdan baliq suv bilan bog‘liq hayot, tinimsiz harakat, tabiiy muhitga moslashuv ramzi hisoblanadi. “Tangasi bor, puli yo‘q” iborasi xalqona so‘z o‘yini va semantik ko‘chishni aks ettirgan.

Tahlil qilingan topishmoqlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq topishmoqlarida zoomorf kodlar faqat hayvon nomini yashirish vositasi emas, balki xalqning madaniy tajribasi, tabiatni idrok etish usuli va milliy tafakkur modelini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy birlikdir. Har bir hayvon obrazi ma’lum semantik, pragmatik va baholovchi semalar bilan namoyon bo‘ladi. Bu modellar xalq tafakkurida barqaror bo‘lib, topishmoqlarda ixcham shaklda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalq topishmoqlarida zoomorf kodlar muhim lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali xalqning tabiatga munosabati, ijtimoiy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va estetik didi ifodalanadi. Zoomorf obrazlar topishmoqlarda faqat nomlash vositasi emas, balki murakkab semantik va pragmatik axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ularning tahlili o‘zbek xalqining milliy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Universitet, 2007.
2. Qobulova U. Metaforik matnda integral va differensial semalar munosabati (o‘zbek xalq topishmoqlari misolida). –Filol.fanlari nomzodi dis. avtoref. – Toshkent, 2007.
3. Sarimsoqov B.X. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди дис. автореф. – Тошкент, 1994.114-b.
5. Маслова В.А. Лингвокултурология. – Москва: Академия, 2001.
6. Худойберганова Д. Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг устувор вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – №5. Б. 7–8.

Furqat NURMANOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: furqatnx@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2895-4717



O‘ZBEK TILI QARLUQ LAHJALI AREALLAR BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR TAVSIFI

Annotatsiya: milliy til millat boyligi, uning milliy madaniyatini ifodalovchi vosita sanaladi. Haqiqiy etnik madaniyatni ifoda etishda tilning adabiylashgan ko‘rinishiga nisbatan shevalar samaraliroq sanaladi. Xalq tilida yashayotgan sheva va lahja materiallarini tadqiq qilish zarur. Ushbu maqolada o‘zbek tilining tayanch shevalaridan biri bo‘lgan qarluq lahjasining o‘ziga xos lisoniy tabiati va areal xususiyatlari, bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili va tavsifi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *dialekt, lahja, sheva, qarluq, areal tasnif, fonetik, leksik, morfologik.*

Аннотация: национальный язык считается богатством нации, средством выражения её национальной культуры. Диалекты считаются более эффективными в выражении подлинной этнической культуры, чем литературная форма языка. Необходимо изучать диалекты и диалектные материалы, существующие в народном языке. В данной статье рассматриваются специфические лингвистические особенности и ареальные характеристики карлугского диалекта, одного из основных диалектов узбекского языка, а также анализ и описание проведенных в этом отношении исследований.

Ключевые слова: диалект, диалект, карлугский диалект, ареальная классификация, фонетическая, лексическая, морфологическая.

Annotation: the national language is considered the wealth of the nation, a means of expressing its national culture. Dialects are considered more effective in expressing true ethnic culture than the literary form of the language. It is necessary to study the dialect and dialect materials that exist in the folk language. This article discusses the specific linguistic nature and areal characteristics of the Karluk dialect, one of the basic dialects of the Uzbek language, as well as the analysis and description of the research conducted in this regard.

Key words: *dialect, regional speech type, Karluk, areal classification, phonetic, lexical, morphological.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida dialektal tadqiqotlar olib borish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki turkiylar orasida o‘zbek xalqi eng murakkab tuzilish va etnik qatlamlardan iborat. Shunga yarasha tili ham rang-barang lisoniy har xillikka, qardosh bo‘lgan va bo‘lmagan dialekt va tillarning kuchli ta’siriga, hududlar va shevalararo keskin farqlilikka ega. XX asrning 20-30-yillarida hozirgi o‘zbek adabiy tilini shakllantirish va unga tayanch dialektni tanlash borasida olib borilayotgan bahslar doirasida turkolog olim Y.D.Polivanov ham o‘z fikrlarini bayon etgan edi: “....turkiy tillarning birontasi ham shevalararo o‘zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi, demak... bironta turk tili shu qadar spetsifik, dialektal turlilik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa tabiiy, adabiy til uchun biron dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og‘irlashtiradi” [12; 5]. Olimning bu fikri, nafaqat dialektlarni tasniflashda, balki bir lahja yoki hudud ichidagi shevalarni lingvistik-dialektal guruhlashda ham asoslidir. Shunday murakkab bo‘lsa-da, o‘zbek shevashunosligi o‘zbek milliy tili 3 asos lahjadan iborat degan xulosaga tayanib tadqiqot olib bormoqda. Yuqoridagi nazariy mulohaza o‘zbek tilining qarluq (-chigil-uyg‘ur) dialektiga ham taalluqlidir.

Asosiy qism. Nisbatan mukammal deb qaraluvchi, asosan, tilning tarixiy geneologik xususiyatlari asosida tuzilgan klassifikatsiyada 3ta lahja ajratib ko‘rsatilgan. Bu lahjalar tarkibidagi ko‘plab shevalar fonetik, leksik va qisman morfologik jihatdan o‘zaro farqlansa-da, ularning barchasi ham milliy o‘zbek tilining hamda adabiy o‘zbek tilining shakllanishida muayyan darajada ishtirok etgan. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining tarkibiga kiruvchi shevalar hozirgi o‘zbek

adabiy tilining tayanch shevalari hisoblanishi, deyarli, barcha dialektologik manbalarda qayd etilgan. Bu asosan, shahar shevalari sanaladigan – Toshkent, Namangan, Jizzax, Andijon, Marg‘ilon, Farg‘ona, Qo‘qon, Samarqand, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on, Buxoro, Qarshi, O‘sh, Jalolobod kabilardan iborat. O‘zbek adabiy tilining me’yorlarini belgilashda Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg‘ona, Andijon kabi vodiy shaharlari shevalari morfologik jihatdan tayanch shevalar deb olingan. Bu holat o‘zbek adabiy tili shakllanganidan buyon davom etib kelayotganini tadqiqotimizning birinchi bobida ta’kidlab o‘tgan edik. Shuning uchun ham qarluq-chigil-uyg‘ur dialektini tadqiq qilish adabiy tilni o‘rganish sifatida baholanishi mumkin. Bundan tashqari, qarluq lahjasini o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi paydo bo‘libdiki, doimo markaziy o‘rinda bo‘lgan, boshqa dialekt va sheva materiallari shu lahjaga nisbatan qiyosan tahlil qilingan. O‘zbek shevalarini klassifikatsiya qilishda ham, dastlab, qarluq dialekti nazarda tutilgan edi: 1) *o*-lashish, aslida, turkiy tillarga xos tabiiy xususiyat bo‘lmasa-da, qarluq lahjasining xususiyati inobatga olinib, unga qiyosan, *a*-lashish hodisasi tasnifda muhim kategoriya sifatida belgilandi; 2) qardosh bo‘lmagan tillarning ta’siri asosida tasniflashda ham qarluq lahjasi alohida farqlab turuvchi jihatga ega. Ya’ni, boshqa lahjalarga qaraganda bu dialekt nisbatan ko‘proq “eronlashgan”; 3) singarmonizmning kuchsizligi, nisbatan yo‘qolib borayotgani; *j*-lashish hodisasining deyarli uchramasligi; unli tovushlarning, asosan, 6 ta ekanligi qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining farqlovchi muhim belgilari sanaladi.

O‘zbek xalq shevalarini o‘rganish, yuqorida qayd etganimizdek, qarluq dialektidan boshlangan deyishimiz mumkin. Birinchi turkologimiz Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida qarluq, uyg‘ur, chigil, yag‘mo, halach shevalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Turkolog-olim Akarturk Karahan “Devon” da keltirilgan shevaga xos birliklarni ajratib tadqiq qilgan. Tadqiqotchining e’tiroficha, qipchoq, o‘g‘uz kabi boshqa turk dialektlari qatorida qarluq lahjasi, unga oid bo‘lgan chigil, uyg‘ur, yag‘mo, halach kabi shevalarga oid lisoniy ma’lumotlar [1; 17; 18; 19]. DLT [8]da keltirilgan, M.Koshg‘ariy o‘z izohida qarluqcha (yoki, chigilcha, uyg‘ur yoki halachcha) deya ifodalangan so‘zlar lug‘atning ancha qismini tashkil etadi.

Rus ofitseri, tarixchi, tilshunos va etnografi V.P.Nalivkin tomonidan ilk ruscha – sart (o‘zbek)cha lug‘atida qarluq shevasiga oid izlanishlarini ko‘rishimiz va uni o‘zbek-qarluq lahjasi bo‘yicha birinchi tadqiqotlardan biri sifatida baholashimiz mumkin.

V.P.Nalivkin turmush o‘rtog‘i M.A.Nalivkina bilan birga Turkiston hududida, asosan, sobiq Qo‘qon xonligi yerlarida etnografik tadqiqotlar olib bordi. Hududning tili va shevasini tadqiq qilib, o‘zaro farqli jihatlarini tahlil qildi va lug‘at tuzdi. V.P.Nalivkin va M.A.Nalivkinalar tomonidan yaratilgan asarlarda o‘zbek tili, uning qarluq lahjasi, dialekt ichidagi shevalarning farqlovchi kategoriyalar va o‘xshash xususiyatlari haqida dastlabki ilmiy dialektal fikrlarni va shevaga xos so‘zlar – misollarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “Namangan uyezdi shevalari bo‘yicha qisqacha grammatika qo‘llanilgan holda ruscha-sartcha va sartcha-ruscha umumiy so‘zlar lug‘ati” hamda “Avvalgi va hozirgi mahalliy aholi: Turkiston o‘lkasining turk-mo‘g‘ul aholisi haqida etnografik ocherklar” asarida o‘zbek tili, uning qarluq shevalari haqida ma’lumotlar berilgan [9; 10]. Akademik V.Radlov turkiy tillarni tasnif qilib, 4 asosiy guruhga: Sharqiy, Janubiy, G‘arbiy va O‘rta Osiyo guruhlariga ajratadi.

O‘zining klassifikatsiyasida turkiy tillarni 7 tipga ajratgan V.Bogoroditskiy, faqat geografik faktorga suyangan edi. O‘rta Osiyo guruhiga faqat shu zaminda yashaydigan xalqlarning dialektlarini kiritadi. Qarluq, qipchoq, o‘g‘uz kabi geneologik omillarni, fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarni inobatga olmaydi. Lahja va shevalarning tarqalish hududlari bo‘yicha tasniflash, dialektologiya fanida har doim ham o‘zini oqlamagan. F.E.Korsh, G.X.Axatova, A.N.Samoylovich, N.A.Baskakov kabi turkologlar ham tasnif yaratishga harakat qiladi. Ammo ularda ham geografik omil yetakchilik qiladi. Dialektlarning tabiiy xususiyatlari, fonetik, grammatik va leksik omillar keyingi o‘rinlarda qolgani uchun biroz chalkashliklar yuzaga keladi. Shuningdek, Ser Ali Lapin ham shevalarga xos tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi va grammatik tuzilishiga e’tibor qaratmasdan hududiy joylashuviga qarab tasnif qiladi [14; 4; 16].

I.I.Zarubin o‘zbek milliy tili lahjalarini 4 guruhga ajratadi, ammo tarixiy-tadrijiy va geneologik xususiyatlarini hisobga olmaydi. Shuningdek, uning tasnifida barcha o‘zbek shevalari qamrab olinmagan [6: 42]. Geografik metoddan foydalangan holda klassifikatsiya qilgan olim, asosan, qarluq dialekti hududlarini nazarda tutadi, ammo “qarluq” atamasini ishlatmaydi.

Y.D.Polivanov bu guruhni *“chig‘atoy”* termini bilan ataydi va 7 tipga ajratib tasnif qiladi: 1. Samarqand-Buxoro. 2. Toshkent. 3. Marg‘ilon-Qo‘qon. 4. Andijon-Shahrixon. 4-A. Chortoq yoki umlautli shevalar. 5. Qo‘qon, Andijon, Norin qishloq singarmonizmli shevalari. 6. Shimoliy o‘zbek shahar (Chimkent,

Turkiston) shevalari. 7. Shimoliy o‘zbek qishloq (Mankent) shevalari [12: 115]. Olim shevalar tasnifida ichki o‘zgarish va rivojlanish tamoyillaridan ko‘ra milliy til va dialektlarga tashqi ta’sirni ko‘proq inobatga olgan [12: 18-23].

O‘zbek tilshunos olimi, professor G‘ozi Olim Yunusov o‘zigacha bo‘lgan klassifikatsiyalar, jumladan, A.N.Samoylovich va Y.D.Polivanovlarning ishlarini tanqidiy o‘rganadi va o‘z tasnifida hozirgi kunda qarluq lahjasi sifatida ko‘rilayotgan dialektni *“turk-barlos”* deb nomlaydi. “*Mening tasnifimda ikkinchi bo‘limga kirgan bu lahja “Chig‘atoy lahjasi”, Chig‘atoy tili” deb ham ataladi. Temur va temuriylar davrida hokim vaziyat olgan va bu kunda ham yarim ko‘chmanchi holda O‘zgan, Anjan (Andijon), Jalaquduq va Marhamat rayonlarida, O‘smat (Jizzax rayonida), Urgut (Qaratepa, Taxtaqoracha), Kitob (Qashqadaryo) va Qoratoq (Tojikiston) atrofida yashovchi Turk-barlos qabilasining jonli tili bo‘lib, chig‘atoy adabiy tiliga asos bo‘lgan bu tilni mazkur qabila ismiga nisbatan turk-barlos lahjasi deb ataymiz. VI asr milodiyda O‘rta Osiyoda tuzilgan mashhur Turk davlati tashkilotida ham bu turk nomini tashigan qabila hokim vaziyatni ishg‘ol etgan, ul davlatga o‘z ismini bergan va u davrda o‘z jonli tili asosida adabiy til tuzgan deb o‘ylayman [15:19]”.* Bu lahjani olim 4 ta katta shevalar guruhiga ajratadi: 1. Sayram-Chimkent; 2. Toshkent-Xos; 3. Andijon (manbada Anjan); 4. Namangan. Bu guruhlarga oid shevalardan Sayram-Chimkent shevasi “Chig‘atoy adabiy tili”ga tovushlar sistemasi va singarmonizmni yaxshi saqlaganlik darajasi bo‘yicha eng yaqini, morfologik jihatdan O‘rxun obidalariga eng yaqini Toshkent-Xos shevalari ekanligi qayd etiladi [15: 21]. Ammo ushbu tasnif o‘zbek-qarluq lahjasining ko‘lamini to‘la-to‘kis qamrab olmagan, nazarimizda. G‘ozi Olim ta’kidlari, o‘zi qayd etganidek, bir necha asosga ega bo‘lsa-da, umumiy holda chalkashliklardan xoli emas edi. O‘zbek shevalari klassifikatsiyasining keyingi taraqqiyotida qarluq shevalari butun bir lahjani tashkil etishi belgilab qo‘yildi. Faqatgina, G‘ozi Olim ham ta’kidlaganidek, ayrim fonetik, morfologik hamda hududiy qo‘shnichilik ta’sirlari borligi lahja ichida shevalarga tasniflanishiga olib keldi. Umuman, G‘ozi Olim Yunusov mahalliy mutaxassis sifatida o‘zbek milliy tilini yaxshi bilgani, bu tilga xos kichik kategoriyalarni ham ajrata olgani uning yutug‘i hisoblanadi. Shuningdek, birinchi milliy klassifikator keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajargani ham olimning o‘zbek dialektologiyasiga qo‘shgan ulkan hissasidir.

O‘zbek shevashunosligida o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lgan A.K.Borovkov hozirgi kunda qarluq dialekti sifatida tahlil qilayotgan lahjani o‘z tasnifida *“O‘rta o‘zbek”* dialekti deb nomlaydi. *“O”* lashish va *“a”* lashish hodisalarini inobatga olgan holda ikki guruhga ajratadi: 1. 6-7 unlili, *“o”* lashish hodisasi mavjud bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona kabi shahar va shahar atrofi shevalarini kiritadi. Ularda singarmonizm deyarli sezilmaydi; 2. Chimkent, Sayram, Jambul, Marki kabi hududlardan tashkil topgan Shimoliy o‘zbek shevalaridan tashkil topgan guruhdan iborat. Bu shevalarda 7-8 unli, asosan, *“a”* lashgan, singarmonizm hodisasi mavjud.

Olim dastlab, o‘tgan asrning qirqinchi yillarida ham o‘zbek shevalarini tasnif qilgan edi [3; 14].

V.V.Reshetov o‘zidan avval yaratilgan klassifikatsiyalardan kerakli xulosa chiqargan holda, hozirgi kunga qadar eng takomillashgani deya e’tirof etiladigan tasnifida birinchi marta qarluq lahjasini alohida dialekt sifatida guruhladi va “qarluq-chigil-uyg‘ur” termini bilan nomladi. Yuqorida qarluq, chigil, yag‘mo, halaj, uyg‘ur kabi qabilalar siyosiy ittifoq tuzib yashagani, yozuv madaniyatiga ega bo‘lgani ta’sirida tillari takomillashib adabiy tildan badiiy adabiyot tiliga aylangani haqida yozgan edik. V.V.Reshetov ham ana shu tarixiy-lingvistik jihatlarga e’tibor qaratgan edi.

Shu vaqtga qadar o‘zbek tilining qarluq (-chigil-uyg‘ur) lahjasi haqida juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Dastlabki ishlar sifatida, yuqorida qayd etganimiz kabi V.P. Nalivkin, shuningdek, o‘zbek xalq shevalarini tadqiq va tasnif qilgan Y.D.Polivanov, G‘.O.Yunus, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov kabilarning nomlarini tilga olishimiz mumkin.

Shevashunos olim Sobirjon Ibrohimov o‘zining “O‘zbek tilining Andijon shevasi” asarida Andijon shevalari misolida o‘zbek tilining qarluq (-chigil-uyg‘ur) lahjasini tadqiq qilgan. Olim o‘z ishida Andijon xalqi va tili(shevasi)ni tarixiy-lingvistik tadqiqotlarga bog‘lab tahlil qiladi. Qarluq (chigil-uyg‘ur) lahjasi tarkibiga kiruvchi Andijon shevasi adabiy tilning tarixiy-tadrijiy rivojlanishining barcha bosqichlarida tayanch sheva vazifasini bajar(ayot)ganini ta’kidlagan olim, XI asrdan buyon yaratilgan yozma obidalar tilining tahlilini o‘z ishida qayd etib o‘tadi. M.Koshg‘ariyning ensiklopedik manbasidagi chigillar tili haqidagi qaydlari, Navoiyning fikrlari, Boburning (manbada Bobir shaklida keltirilgan) “qalam birla rost” bo‘lgan Andijon tilini sof saqlagani kabi fikrlar shular jumlasidandir. Olimning bu shevada 8-9 unli mavjudligi va *“o”* lashish hodisasi borligi haqidagi qarashlari, yuqorida qayd etilgan tasniflarda e’tirof etilgani kabi bu sheva o‘zbek tilining qarluq (chigil-

uyg‘ur) dialektiga xosligini ifodalaydi. Bu tadqiqotda olim Andijon shevasiga xos fonetik va morfologik xususiyatlarni tadqiq qilgan [7].

Sh.Nosirovning “O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi” nomli tadqiqotini ham qarluq lahjasining o‘rganilishiga bir namuna sifatida qayd etishimiz mumkin [11]. Y.D.Polivanov klassifikatsiyasida “chig‘atoy” guruhining 5-tipida tasniflangan Qo‘qon shevasini singarmonizmga ega deya qayd etadi. V.V.Reshetov janubiy-sharqiy guruhi – qarluq (chigil-uyg‘ur) lahjasining Farg‘ona guruhidagi Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti sifatida qayd etadi va uning milliy tildan, shuningdek, lahja ichidagi o‘ziga xos farqlovchi xususiyatlarini dalillab beradi. Sh.Nosirovning tadqiqotida Qo‘qon shevasiga xos fonetik morfologik jihatlar tahlil qilingan. Jumladan, olim ushbu shevada 6 ta unli fonema mavjudligini qayd etadi. Bu esa shevaning tovushlar sistemasi adabiy tilga mos ekanligidan darak beradi. Faqatgina vodiyning boshqa shaharlari kabi Qo‘qonning atrofidagi yashovchi qipchoq shevali aholi tilida [ü] fonemasi mavjudligini ta’kidlaydi [11: 16-18].

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qarluqlar o‘zbek xalqi va davlatchiligining shakllanishida muhim rol o‘ynagan etnik element sanaladi. “Qarluq” etnonimining kelib chiqishi haqida tarixiy va zamonaviy adabiyotlarda yetarli bo‘lmasa-da, mulohazalar mavjud. Hozirgi paytda qarluq lahjasi o‘zbek tilining eng ko‘p sonli aholi gaplashadigan lahja hisoblanadi va ular respublikamizning turli hududlarida istiqomat qilishadi. Bu lahja o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarga ega ekanligi hamda tarqalish areallari alohida o‘rganilgan tadqiqot ishlarida qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akartürk KARAHAN. Ilk türk lehçeleri sözlüğü: Dîvânu Luġāti’t-Türk’te lehçelerin sözvarliğina bir bakiş. Turkish Studies. International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 4/4 Summer 2009.

2. Akartürk KARAHAN. Dîvânu Lugati’t-Türk’e göre xi. yüzyil türk lehçe bilgisi. Türkiyat Mecmuası ,C.24. Güz, 2014.

3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. 117-b.

4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013. 13–14-b.

5. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. 248.

6. Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Ленинград, 1925. – С. 42.

7. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. Фонетика морфология. – Тошкент: Фан, 1967. 260-б.

8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017. 488-б.

9. Наливкин В., Наливкина М. Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда. – Казань, 1884. 492- б.

10. Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь: Этнографические очерки о тюрко-монгольском населении Туркестанского края.-Изд. 2-е. – М.: URSS, 2012. 148-с.

11. Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967.176- б.

12. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекскай литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933. 18–23-б.

13. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. 33–34-б.

14. **Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б.** Ўзбек диалектологияси. Дарслик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги ХМН, 2004. 35–36-б.

15. Qlazi Alim Junus. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent: Davlat naşrijati, 1935.19-b.

16. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BB%D0% B0%D1%81

17. https://www.academia.edu/2219062/%C4%B0lk_T%C3%BCrk_Leh%C3%A7

18. BC_Divanu_Lugatit_T%C3%BCrkte_Leh%C3%A7elerin_S%C3%B6z_Varl%C 44 % 9F%C4%B1na_ Bak%C4%B1%C5%9F&nav_from=50b5c535-9e5a-4f92-98c2.

19.https://www.academia.edu/12460966/KARAHAN_akart%c3%9crk_2013 d82nu_ lugat%xi_y%c3%9czyil_t%c3%b0_tdk_yay_Ankara.

Ma’suma MO‘MINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
masumamominova0409@gmail.com

SUV KOMPONENTLI LEKSEMALARDA MILLIY-MADANIY KOD

Annotatsiya: suv qadimdan inson hayotining eng muhim qismi va unsurlaridan biri sanalib kelgan.Insoniyat tarixidagi eng yirik sivilizatsion namunalarining vujudga kelishi, shaharlarning barpo bo‘lishi ham daryo o‘zanlari va suv havzalari atrofida yuzaga kelgan. Qadimgi yunon, rimliklar tomonidan yaratilgan manbalarda tabiatning inson va uning tabiati, temperamentini belgilashda suv, havo, tuproq, unsurlarining miqdoriy ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi nazariyalar ilgari surilgan, zamonaviy tibbiyot va psixologiya ilmida suvning tetiklashtiruvchi, tinchlantiruvchi kuchi haqidagi qarashlar aks etgan. Dunyoning aksar tillarida suv tushunchasi “hayot”, “tiriklik” singari so‘zlar bilan assotsiatsiya hosil qiladi. Suv so‘zining lingvokulturologik xususiyatlari turli madaniyatlarda tushunchani o‘zaro qiyoslash asosida ko‘rinadi. Mazkur maqolada ham suv komponentli leksemalarning qadimgi manbalar va turkiy tillardagi shakllari keltirib o‘tilgan. Suv so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nolari tavsiflangan. Bundan tashqari so‘zning madaniy kodga ega-ega emaslik jihati jadval asosida tasniflangan. *Suv* leksemasi konnotatsiyasidagi milliy-madaniy belgilar, o‘z va ko‘chma ma’nolar misollar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: *suv, leksema, madaniy kod, lisoniy olam, milliy-madaniy belgi, sema, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no.*

Annotation: water has long been regarded as one of the most essential elements and fundamental components of human life. The emergence of the greatest civilizations in human history and the establishment of cities occurred primarily around riverbeds and water reservoirs. In sources created by the ancient greeks and romans, theories were advanced emphasizing the importance of the quantitative balance of elements such as water, air, and earth in determining human nature and temperament. In modern medicine and psychology, views on the invigorating and calming effects of water are widely reflected. In most languages of the world, the concept of water is associated with notions such as “life” and “vitality.” The linguoculturological features of the word *water* manifest through comparative interpretations of this concept across different cultures. This article presents examples of water-component lexemes found in ancient sources and turkic languages. The meanings of the word *water* as provided in explanatory dictionaries are described. In addition, the presence or absence of cultural coding of the word is classified in tabular form. National and cultural connotations of the *water* lexeme, along with its literal and figurative meanings, are substantiated through illustrative examples.

Key words: *water, lexeme, cultural code, linguistic worldview, national and cultural marker, seme, literal meaning, figurative meaning.*

Аннотация: вода с древнейших времён считается одним из важнейших элементов и неотъемлемых компонентов жизни человека. Возникновение крупнейших цивилизаций в истории человечества и формирование городов происходили преимущественно вблизи русел рек и водоёмов. В источниках, созданных древними греками и римлянами, были выдвинуты теории о важной роли количественного соотношения таких элементов, как вода, воздух и земля, в формировании человеческой природы и темперамента. В современной медицине и психологии широко представлены взгляды на тонизирующее и успокаивающее воздействие воды. В большинстве языков мира понятие воды ассоциируется с такими словами, как “жизнь” и “живое”. Лингвокультурологические особенности лексемы *вода* проявляются через сопоставительный анализ данного понятия в различных культурах. В статье приводятся примеры лексем с компонентом воды, зафиксированных в древних источниках и тюркских языках. Описываются значения слова *вода*, представленные в толковых словарях. Кроме того, наличие или отсутствие культурного кода данной лексемы классифицируется в табличной форме. Национально-культурные коннотации лексемы *вода*, а также её прямые и переносные значения обоснованы на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: *вода, лексема, культурный код, языковая картина мира, национально-культурный признак, сема, прямое значение, переносное значение.*

Inson faoliyati davomida borliq haqida bilimga ega bo‘lib, voqea-hodisalarni o‘zlashtirib boradi.Narsa-buyum, voqea-hodisaga nom beradi. Nomda inson ongida qabul qilingan axborot, milliy-madaniy belgilar mujassamlangan bo‘ladi.

Suv so‘zi O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tilida, “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Tafsir”, “At-tuhfa” kabi manbalarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida, lug‘atlarda va boshqa yodgorliklarda *suv, su, suw, siu, sup, sub* shakllarida qo‘llangan.

O‘zbek, qo‘miq, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, qarayim, qorachoy-bolqor, boshqird, no‘g‘oy, ozarbayjon, tuva, turkman, uyg‘ur, xakas, yoqut, chuvash tillarida fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi. Qardosh bo‘lmagan tillarda ham o‘xshash shakllarda ishlatiladi: arab tili (*mo, mo‘),* koreys, mo‘g‘ul tillarida (*su, usu, us*), rus tili (*вода*), tibet tili (*chu, chyu*), fors-tojik tili (*ob*), xitoy tili (*shuy, suy*)[1]. O‘zbek tilida *su, suw* shaklida qo‘llanilib keladi. *Suv* so‘zining etimologiyasi, fonetik jihatdan shakllanishi X.Jabborov monografiyalarida yoritilgan[2].

Inson borliqni, olam manzarasini tilda aks ettirar ekan, til birliklari imkoniyatlaridan foydalanadi. Til birliklari olam manzarasini tasvirlashda umumiy xususiyatlari bilan birlik hosil qilgan holda bir qator belgilari bilan farqlanadi. Olam haqidagi axborot, borliq haqidagi tushunchalar leksemalar, frazemalar, maqollarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Tilshunos Y.Ivanova xalqning olamni qabul qilishida shakllanadigan lisoniy manzarasi haqida shunday deydi: tilning lisoniy manzarasini 3 ta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1) leksik olam manzarasi;
2) frazeologik olam manzarasi;
3) maqoldagi olam manzarasi[3].

Sodda tuzilishdagi *suv* komponentli birliklar va ulardagi lingvokulturologik kod xususida so‘z yuritishdan oldin uslubiy betaraf *suv* leksemasining o‘zida jamlangan milliy-lisoniy madaniy belgi xususida so‘z yuritish o‘rinlidir.O‘zbek tilining izohli lug‘atida *suv* so‘zining o‘nta asosiy ma’nosi keltirilgan bo‘lib, so‘zning dominant ma’nosi sifatida hodisaning ilmiy ta’rifi keltiriladi:

“Vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat rangsiz, hidsiz shaffof suyuqlik; tabiatda muz va bulut holida ham uchraydi, barcha tirik organizmlarning va ko‘pgina moddalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Qor suvi. Dengiz suvi. Oqar suv” (O‘TIL, III, 577). Mazkur ta’rifda keltirilgan *suv* leksemasida madaniy belgi yo‘q, u predmetning birlamchi tashqi belgilari va kimyoviy tarkibi haqidagi axborotni saqlaydi.

Lug‘atda so‘zning ikkinchi ta’rifida ayni moddaning ichish uchun mo‘ljallangan xususiyati haqida so‘z boradi:*“Shunday suyuqlik ichimlik sifatida”* (O‘TIL, III, 577).So‘zning mazkur ma’nosi ham uning bosh ma’nosiga yaqin, ayni tarzda qo‘llangan leksemada ham madaniy kod mavjud emas. Mazkur birlikda so‘zning bosh semasi vazifasini – uning iste’mol uchun yaroqliligi, xoslanganligi semasi bajaradi. Ayni so‘zning ikkilamchi semasi sifatida ko‘chma ma’noli *hayot suvi, jon suvi* birikmasi keltirilgan.

Lug‘atda keltirilgan so‘zning uchinchi ma’nosi tabiatda *suv*ning mavjud bo‘lish o‘rni bilan bog‘liq: *“Soy, ko‘l, daryo va sh. k.ning suvli sathi haqida. Suv bo‘yi. Suvning narigi beti”* (O‘TIL, III, 577). Tabiatda *suv*ning tarqalishi bir necha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Masalan, okean, dengiz, daryo, ko‘l, kanal, irmoq, ariq, ko‘lmak. *Suv* o‘rnining qaysi tipga mansub ekanligi tabiatda joylashgan o‘rni, shakli va sathidan kelib chiqqan holda belgilanadi. *Suv* o‘rni ayni vaqtda madaniy belgi tashuvchisi ham sanaladi.Chunki har bir *suv* havzasining milliy lisoniy manzarada tutgan o‘rni va ta’rifi bo‘ladi.

Lug‘atning keyingi maqolasida *suv* leksemasi *“Tarmeva, sabzavot va sh.k. tarkibidagi shira, sharbat, suyuqlik. Anor suvi. Sabzining suvi”* sifatida ta’riflangan (O‘TIL, III, 577). Meva, sabzavot tarkibidagi “suv” tarkib va xususiyat jihatdan “suyuqlik” semasini namoyon qiladi va “suv” leksemasi bilan “suyuqlik” semasi orqali birlashadi. Bundan tashqari, mazkur predmetda ta’m belgisining shirinlik yoki nordonlik xususiyati bo‘lgani uchun shira va sharbat so‘zlari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. So‘zning o‘ziga xos jihati shundaki, leksema ayni vaqtda meva va sabzavot tarkibidagi shira ma’nosini ifodalash bilan bir qatorda, mutlaqo maza va ta’mga ega emaslik ma’nosini ham anglatadi.

So‘zning keyingi ta’rifida *“Tirik organizm va a’zolardan ajralib chiqadigan suyuklik, shira. Oshqozon suvi”* (O‘TIL, III, 577) ma’nolari keltiriladi. Inson organizmidan ajraladigan suyuq ko‘rinishdagi har qanday modda “suv” bilan “suyuqlik” semasi orqali birlashadi. U ter, so‘lak, balg‘am, sut, ko‘z yoshi, tupurgi va hokazo ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Inson tanasidan ajraladigan suyuqlik – *ter* ham o‘zbek milliy mentalitetida mehnatkashlik, mehnatsevarlik, mashaqqatli faoliyat jarayoni bilan topilgan hodisa va umuman mehnat bilan bog‘liq ravishda talqin qilinadi. Jumladan, *peshona teriga topmoq, peshona terini*

1 Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – Б.37.
2 Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – Б.19-24.
3 Иванова Е. Лексикология и фразеология современного английского языка / Е.В. Иванов. – СПб.: Филологический факультет СпбГУ. – М.: Издательский центр Академия, 2011. – С.273

to‘kmoq. Birikma lingvokulturologik xususiyatga ega, uning boshqa tillarda aynan shu ko‘rinishdagi muqobili mavjud emas.

Suv so‘zining keyingi ma’nosi ham metaforik asosda vujudga kelgan bo‘lib, kashtachilikda *“to‘g‘ri yoki to‘lqinsimon chiziq shaklidagi gul elementi”*ni ifodalaydi (O‘TIL, III, 640).

Suv qadimgi o‘lchov birliklaridan biri bo‘lib, *bir suv o‘n tanob*ga teng o‘lchovni bildirgan (O‘TIL, III, 577).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan *suv* leksemasining ma’nolarini madaniy kod belgisiga egalik/ega emaslik belgisiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

№	So‘z	Ma’nosi	Madaniy kod
1.	*Suv*	Vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat rangsiz, hidsiz shaffof suyuqlik	-
2.	*Suv*	Suyuq ichimlik	-
3.	*Suv*	Soy, ko‘l, daryo va sh. k.ning suvli sathi haqida. Gidronimlar	+
4.	*Suv*	Tarmeva, sabzavot va sh.k. tarkibidagi shira, sharbat, suyuqlik	-
5.	*Suv*	Tirik organizm va a’zolardan ajralib chiqadigan suyuklik, ter	+
6.	*Suv (ko‘chma)*	To‘g‘ri yoki to‘lqinsimon chiziq shaklidagi gul elementi	-
7.	*Suv*	O‘lchov birligi	-
8.	*Suv*	So‘z birikmasi tarkibida:Suv xotin, suvpari (mifologik obraz)	+
9.	*Suv*	Beta’m, bemaza	-
10.	*Suv*	Istalgan predmet tarkibidagi namlik	-

1-jadval. *Suv* so‘zi semalarining madaniy kod belgisiga egalik/ega emaslik yuzasidan tasnifi.

Leksema til birligi sifatida nutqda turli ko‘chma ma’nolarda, denotativ ma’noga yondosh tushunchalarni ifodalashda qo‘llanadi.So‘z ma’nosidagi semantik o‘zgarishlar turli ko‘rinishda bo‘lib, bir qator lingvistik omillar asosida yuzaga keladi[4].

Suv leksemasi matnda denotativ semantikadan kelib chiqqan holda quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

Suv geografik atama sifatida qo‘llanadi: *Javob bermog‘imiz kerakkim, quruqlik bilan suv bor deb. Tag‘in agar so‘rasalarkim, quruqlik ko‘bmi suv ko‘bmi? Javob beramizkim, dunyoning to‘rt hissadan bir hissasi quruqlik, uch hissasi suv deb* (VM, 67)[5].

Badiiy matnda to‘rt unsurning biri sifatida tasvirlangan: suv, olov, tuproq, havo. *To‘rt bir-biriga zid unsurlarni yagona tarkib (inson vujudi)ga birlashtirdingki, ular tuprog‘-u olov va suv-u havo edi* (SZ, 11). *Ma’ni o‘rgatuvchi muallimning maktabini ko‘rginki, suv, havo, otash va tuproq* (SZ, 68). Mumtoz manbalarda *“anosiri arba”* ko‘rinishida faol kuzatiladi. “Anosiri arba” hozirda tarixiy asarlar matnida uchraydi. *Buni ham tabiatdagi to‘rt unsur — olov, havo, tuproq, suv kabi “anosiri arbaga monand” deb ta’rifladi* (PQ, 16).

Mumtoz manbalarda *suv* o‘z ma’nosida kimyoviy elementni, tiriklik manbaini, hayotning asosini ifodalab kelgan.Xalqimizda suv ichiladigan idishlar alohida nomlangani suvning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini ko‘rsatadi: ***sagraq*** –suv va boshqa narsalar ichiladigan idish, kosa; ***senak*** – suv ichiladigan idish. Yog‘ochdan qilingan zarrin kosa[6].

“Qutadg‘u bilig”da *suv* so‘zining o‘z ma’nosi va timsol xarakteridagi ko‘chma ma’nosi badiiy maqsadlar uchun xizmat qilgan. *Ew almaq tildsdŋ aynt qoʟnnsnn, yer almaq tildsdŋ ayntynl suwnn* baytida suv o‘z ma’nosida qo‘llangan: “Uy olmoqni istasang qo‘shni(lar)ini surishtir, yer olmoq istasang suvini surishtir” (QBN, 4444; 164b15). Bayt mazmuni “*Hovli olma, qo‘shni ol*”[7] maqoliga to‘g‘ri keladi. **Ayït=** so‘zi “so‘ramoq, surishtirmoq” ma’nosida kelgan.Yusuf Xos Hojib kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va hayot kechirish tarzi nuqtayi nazaridan yondashgan. Uy – insonning istiqomat manzili. Inson hayot kechirishi uchun tabiiy ravishda qo‘shnilar bilan

4 Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – Б. 216.

5 Маҳмуд В. Танланган асарлар. Мунаққид ҳақида сўз. –Тошкент, 1978.– Б.8. Keyingi misollarda VM tarzida qisqartirib berildi.

6 Абдулаҳатов Н. ва б. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит-турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б.69.

7 O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005. – B.132.

munosabatga kirishadi. Shuning uchun ham yaxshi qo‘shni “risoladagi uy” tushunchasining ahamiyatli belgisi hisoblangan. “Yer olish uchun suvni surishtirish” tushunchasida insonning suv iste’moli ham nazarda tutilgan bo‘lsa-da, asosan, suv dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholi uchun farovonlik belgisi sifatida baholangan. Ekin-tekinning suv bilangina rivojlanishi nazarda tutilgan.

Suv *ačnγ* so‘zi bilan sifatlanib, o‘z ma’nosida narsa-buyumning maza-ta’mini ifodalagan, “chanqoqni qondirmaslik” semasini namoyon etgan: *Ačnγ suw teg kör ul bu dunya näŋi, nečä ičsə qanmaz ɥlimədz tili* – Bu dunyo narsasi sho‘r suv kabidir, nazar sol, (kishi) qancha ichsa (ham) qonmaydi, tili ho‘llanmaydi (QBN, 3568; 133a14)[8]. **Ačnγ** leksemasi ko‘p ma’noli so‘z sifatida qo‘llangan.Bu so‘zning ma’nolari: “achchiq, nordon, sho‘r; og‘ir, qiyin, mashaqqatli”. *Ačnγ* “sho‘r” leksemasi suv so‘ziga qo‘shilib, “yaroqsiz” semasining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

Yusuf Xos Hojib suvning “oqish” semasidan ijobiy harakat-holatni aks ettirishda foydalangan: *Aqar suw teg ul bu tilin eбgь sɯz, qayuqa bu aqsa čečäk ьndi tьz* –Tildan chiqadigan ezgu so‘z oqar suv kabidir, bu (suv) qayerga oqsa, hamma yoqda chechak unadi (QBN, 2648; 101a1). Ushbu misralarda tildan chiqadigan *eбgь sɯz* birligi *aqar suw*ga o‘xshatilgan. Oqar suvning chechaklar undirishi, olamni yashillikka burkashi ezgu so‘zning kishi ko‘nglini yashnatishi, kayfiyatini ko‘tarishiga qiyoslangan[9]. Bu o‘rinda oqar birligi suv so‘zining hayotbaxshlik belgisini namoyon qilmoqda. Yusuf Xos Hojib ezgu so‘zning inson ruhiyatiga ijobiy ta’sirini yaxshi anglagan va uning qiymatini yoritish uchun suv etalonini tanlagan. Xalq og‘zaki ijodidagi *“Yaxshi so‘z – jon ozig‘i”*, *“Yaxshi so‘zga ilon inidan chiqadi”* kabi maqollarda xush, iliq muomalaning kishi ruhiyatini oziqlantiruvchi manba sifatidagi ahamiyati o‘z ifodasini topgan.

Suv leksemasi birikmalar tarkibida o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanadi: *suv ichmoq* 1) suv iste’mol qilmoq; 2) sug‘orilmoq; suv qo‘ymoq – sug‘orish uchun suvning yo‘lini ochmoq, sug‘ormoq; suvning ko‘tarilishi – daryo yoki dengiz havzasidagi suv miqdorining oshishi.

Ho‘l meva, sabzavot va sh.k. tarkibidagi shira, sharbat, suyuqlikni bildiradi: *anor suvi, sabzi suvi, piyoz suvi, lavlagi suvi, pomidor suvi;*

Suv va *oqmoq* leksemalarining birikuvi nutqda eng ko‘p qo‘llanadigan birikmadir. *Tush ko‘rdim. Olma tagidagi so‘rida o‘tirgan emishman. So‘ri ostidan sharqirab suv oqayotganmish* (TKU, 42).

Suvda non oqizib yeyish xalqimizning azaliy odatlaridan biri bo‘lgan. Bu davrlarda suv havzasining halollik, poklik belgilari ustun bo‘lgan: *Bir oyoqlab suvga tushib, nonimni tutib oldim-u ushatib yedim*[10]. Oqizoq non degan tushuncha ham shu odat natijasida yuzaga kelgan.Suv havzalarining ifloslanishi, hamma xonadonda ham non yopilmasligi bu odatning iste’moldan chiqishiga olib keldi.

Suv ko‘chma ma’noda qo‘llanib, mazmunni ta’sirchan yetkazish vositasiga aylangan: *Yerlar qor maysalari bilan o‘ratilgan, yog‘ochlar oq barglar ochg‘on; manfur, xunuk kapalaklar kishining qo‘l-betiga oqib, ko‘purub, toshib urilmoqda, suv esa tabiatning qottig‘ligini ko‘rib, yuragiga tosh bog‘lamoqda* (VM, 95). Bu matn parchasida suv jonlantirishning tashxis ko‘rinishi asosida konnotativ ma’no ifodalagan.

8 Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан.фалс.док. (PhD). – Тошкент, 2019. – Б.135.
9 Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан.фалс.док. (PhD). – Тошкент, 2019. – Б.136.
10 Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent :Yangi asr avlodi, 2015.117-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулаҳатов Н. ва б. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит-турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. 236 b.
2. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent :Yangi asr avlodi, 2015. 336-b.
3. Иванова Е. Лексикология и фразеология современного английского языка / Е.В. Иванов. – СПб.: Филологический факультет СпбГУ. – М.: Издательский центр Академия, 2011. 273 С.
4. Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. 152 б.
5. Маҳмуд В. Танланган асарлар. Мунаққид ҳақида сўз. –Тошкент, 1978. 104-б.
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. 216-б.
7. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005.512-
8. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан.фалс.док. (PhD). – Тошкент, 2019.136-б.
9. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан.фалс.док. (PhD). – Тошкент, 2019.136-б.

Xasan GAFFOROV,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
“Xorijiy tillar” kafedrasi vazifa bajaruvchi dotsenti, PhD
gafforovxasan@katdpi.uz

NUTQIY GENDER STEREOTIPLARINING ZIDDIYATLI VAZIYATLAR DISKURSIDAGI STILISTIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada nutqiy gender stereotiplarning ziddiyatli vaziyatlar diskursidagi stilistik o‘rni va kommunikativ ahamiyati tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida konfliktli muloqotdan olingan realist nutq namunalariga o‘xshash konstruksiyalar tahlil qilinib, erkak va ayol nutqiga xos stereotipik leksik, sintaktik va pragmatik belgilar ochib beriladi. Maqola gender stereotiplarining konflikt jarayonining dinamikasiga, nutqning stilistik bo‘yoqlariga, ishtirokchilar o‘rtasidagi kuch nisbatiga hamda muloqotning qanday talqin qilinishiga ko‘rsatadigan ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, stereotiplarning buzilishi yoki ularga mos kelmaslik muloqot intensivligiga qanday ta’sir etishi ham misollar orqali yoritiladi. Tadqiqot natijalari gender stereotiplari konflikt diskursini shakllantiruvchi muhim lingvopragmatik omil ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *gender, nutqiy stereotip, ziddiyatli vaziyatlar, konflikt diskursi, stilistika, pragmatika, direktiv nutq, yumshatuvchi strategiyalar, leksik-semantik tahlil, kommunikativ strategiya.*

Аннотация: в статье исследуется стилистическая роль и коммуникативное значение гендерных речевых стереотипов в дискурсе конфликтных ситуаций с аналитической точки зрения. Анализируются конструкции, имитирующие реальные речевые взаимодействия в конфликте, выявляются стереотипные лексические, синтаксические и прагматические особенности мужской и женской речи. В статье показано, как гендерные стереотипы влияют на динамику конфликта, стилистическую окраску речи, баланс власти между участниками и интерпретацию коммуникации. Также рассматривается влияние нарушения или несоответствия стереотипам на интенсивность коммуникации через конкретные примеры. Результаты исследования подтверждают, что гендерные стереотипы являются важным лингвопрагматическим фактором, формирующим конфликтный дискурс.

Ключевые слова: *гендер, речевые стереотипы, конфликтные ситуации, конфликтный дискурс, стилистика, прагматика, директивная речь, смягчающие стратегии, лексико-семантический анализ, коммуникативная стратегия.*

Annotation: this article examines the stylistic role and communicative significance of speech gender stereotypes in the discourse of conflict situations from an analytical perspective. Realistic speech-like constructions from conflict interactions are analyzed, revealing stereotypical lexical, syntactic, and pragmatic features characteristic of male and female speech. The article demonstrates how gender stereotypes influence the dynamics of conflict, the stylistic coloring of speech, the power balance between participants, and the interpretation of communication. Additionally, the violation or nonconformity to stereotypes and its effect on the intensity of communication are illustrated through examples. The findings confirm that gender stereotypes are an important linguo-pragmatic factor shaping conflict discourse.

Keywords: *gender, speech stereotypes, conflict situations, conflict discourse, stylistics, pragmatics, directive speech, mitigating strategies, lexical-semantic analysis, communicative strategy.*

Zamonaviy lingvistika va pragmatik tadqiqotlarda gender masalasi insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning, ayniqsa kommunikativ jarayonlarning nozik jihatlarini ochib beruvchi dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Nutqiy gender stereotiplari, avvalo, jamiyatning erkak va ayol nutqiga nisbatan shakllantirgan umumiy tasavvurlari, qadriyatlari va kutgan xatti-harakatlarini mujassam etadi. Bu stereotiplar kundalik muloqotdan tortib ommaviy kommunikatsiya, siyosiy nutq, ijtimoiy tarmoqlar va konfliktli vaziyatlar diskursida faol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlar diskursida gender stereotiplarining stilistik roli yanada muhim bo‘lib, ular nutqning yo‘nalishi, intensivligi, ta’sirchanlik darajasi hamda kommunikativ strategiyalarni belgilashda muhim o‘rin tutadi.

Avvalo, ziddiyatli vaziyatlar — bu kommunikativ jarayonning keskin, emotsional jihatdan yuklangan, ko‘pincha qarama-qarshi pozitsiyalar to‘qnashadigan shaklidir. Bunday holatlarda odamlar odatiy nutq me’yorlaridan chekinishi, o‘zini himoya qilish, raqibga bosim o‘tkazish, o‘z pozitsiyasini mustahkamlash yoki emotsional portlash kabi strategiyalardan foydalanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, gender stereotiplari bu vaziyatlardagi nutq tanlovlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, jamiyatda erkaklarga nisbatan “qat’iy pozitsiya egallashi”, “keskinroq, buyruq ohangida gapirishi” kabi kutuvlar shakllangani sababli erkaklar konflikt vaziyatlarida ko‘proq direktiv nutq aktlaridan, kuchli baholashlardan va emotsional bo‘lmagan, strategik ifodalardan foydalanishi mumkin. Aksincha, ayol nutqiga nisbatan shakllangan “yumshoqlik”, “mo‘tadillik”, “emotsional sezgirlik” kabi stereotiplar ularning ziddiyatli vaziyatda ko‘proq yumshatuvchi strategiyalar, evfemizmlar, empatiya ifodalari yoki muzokara vositalariga murojaat qilishiga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, ziddiyatli vaziyatlardagi gender stereotiplari har doim ham real kommunikativ xulq-atvorni aks ettirmaydi. Ba’zan ayollar agressiv ritorikani qo‘llashi, erkaklar esa yumshoqlik strategiyalarini tanlashi mumkin. Ammo stereotiplarning mavjudligi nutq ishtirokchilarining bir-birini qanday qabul qilishiga, nutqning stilistik vositalarini qanday talqin qilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, erkakning keskin gapirishi odatiy hol sifatida qabul qilinsa, ayolning keskin nutqi “mos kelmaydigan xulq” sifatida baholanishi mumkin. Bu esa kommunikativ ziddiyatni yanada kuchaytiradi. Demak, gender stereotiplari nafaqat nutq tanloviga, balki nutqni idrok etish jarayoniga ham ta’sir etuvchi muhim omildir.

Ziddiyatli vaziyatlar diskursining stilistikasida gender stereotiplari, shuningdek, leksik tanlov, intonatsiya, keskinlik darajasi, baholovchi birliklar, kinoya, kesatiq, ironiya kabi vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, erkak nutqida buyruq shakllari, qisqa va keskin gaplar, referensial ma’lumotlarga tayanish, mantiqiy asoslar ustuvor bo‘lsa, ayol nutqida esa murakkab sintaktik qurilmalar, ritorik savollar, yumshoq baholovchi birliklar yoki vaziyatni tinchlantirishga qaratilgan metaforik ifodalar ustun bo‘lishi mumkin. Biroq zamonaviy jamiyatda gender rollarining o‘zgarishi natijasida bu farqlar tobora noaniq tus olmoqda. Shunga qaramay, stereotiplar mavjud bo‘lgani uchun ular nutqning stilistik talqinida davom etmoqda.

Nutqiy gender stereotiplarning ziddiyatli vaziyatlardagi muhim vazifalaridan biri — kommunikativ strategiyalarni shakllantirish va konflikt dinamikasini belgilashdir. Stilistik jihatdan qaralganda, stereotiplar kommunikatsiyaning yo‘nalishini, o‘zaro munosabatning kuchlanish darajasini va nutqning emotsional fonini belgilaydi.

Masalan, erkakning tajovuzkor nutqi stereotip asosida kutilgan norma sifatida qabul qilingan bo‘lsa, ayolning o‘sha darajadagi tajovuzkor nutqi kommunikativ vaziyatni yanada keskinlashtirishi mumkin. Bu esa gender stereotiplarining konflikt interpretatsiyasi tizimlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, gender stereotiplari ziddiyatli vaziyatlarda o‘zaro ta’sirning kuch nisbatini ham ifodalaydi. Erkak nutqi ko‘proq ustunlikka intilgan, ijtimoiy dominatsiyaga asoslangan bo‘lib talqin qilinadigan bo‘lsa, ayol nutqi ko‘proq ijtimoiy moslashuv, murosaga chaqirish, mediatordan foydalanish kabi yo‘nalishlarda baholanadi. Albatta, bu holatlar real vaziyatlarda doimo kuzatilmasligi mumkin, ammo stereotiplarning mavjudligi ularni til vositalari orqali shakllantirilgan diskursiv obrazlar sifatida qo‘llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy lingvopragmatik tadqiqotlarda gender stereotiplarining ziddiyatli vaziyatlar diskursidagi o‘rni shundan iboratki, ular nutqning stilistik bo‘yoqlarini, kommunikativ strategiyalarni, ijtimoiy rollarni va nutq ishtirokchilarining o‘zaro pozitsiyalarini tahlil qilishda muhim kategoriya sifatida xizmat qiladi. Stereotiplar tilning faqat kommunikativ emas, balki ijtimoiy-psixologik qatlamlarini ham ochib beradi. Til birliklari orqali stereotiplar takror ishlab chiqariladi, mustahkamlanadi yoki aksincha, buziladi. Shu sababli, nutqiy gender stereotiplari konflikt diskursining nafaqat lisoniy, balki ijtimoiy mazmunini belgilovchi omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy gender stereotiplarini ziddiyatli vaziyatlar diskursida o‘rganish tilning faqat lingvistik emas, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy qatlamlarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Konfliktli muloqot odatda, emotsional yuklama, qarama-qarshi pozitsiyalar, keskin baholashlar va kuchli stilistik vositalar bilan tavsiflanadi. Bunday holatlarda genderga oid stereotiplar nutq ishtirokchilarining til tanloviga, intonatsiyasiga, metaforalariga, o‘zaro baholashlariga sezilarli bosim qiladi. Quyida buni tasdiqlovchi tahliliy misollar keltiriladi.

Mazkur nutq namunalarida erkak va ayol nutqining gender stereotiplari bilan bog‘liq stilistik va pragmatik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, konfliktga yaqin bo‘lgan oilaviy muloqot kontekstida erkak nutqida direktivlik va buyruq ohangining

ustuvorligi kuzatiladi. “Sen shunaqa gaplarni qo‘y, menga aniq javob ber: buni qilasanmi yo‘qmi?” kabi bayonotlarda imperativ konstruksiyalarning qo‘llanilishi, talabning keskinligi, dihotomik (ikki variantli) savol shakli hamda sintaktik qisqalik erkak nutqining stereotipik belgilarini tashkil etadi. Stilistik jihatdan bunday nutq shakli erkakning kommunikativ jarayonda ustun, nazorat qiluvchi va bosim o‘tkazishga yo‘naltirilgan pozitsiyani egallashini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy kutilmalar doirasida erkak nutqi ko‘pincha dominant va qat’iy kommunikativ model sifatida talqin qilinadi.

Mazkur nutqiy holatga javoban ayol nutqi, odatda, yumshatuvchi va murosaga chorlovchi strategiyalar orqali shakllanadi. “Men faqat tushuntirmoqchi bo‘ldim, nimaga bunchalik keskin gapiryapsan? Avval bir eshitib olsang bo‘lmaydimi?” kabi javoblarda fe’l shaklining yumshatilishi, savol konstruksiyalari orqali keskinlikni pasaytirish, iltimos ohangi hamda emotsional baholovchi birliklarning qo‘llanishi ayol nutqining stereotipik xususiyatlarini ifodalaydi. Bunday nutq modeli dialogni keskinlashtirishdan ko‘ra, muloqotni davom ettirish, qarama-qarshilikni yumshatish va hissiy muvozanatni saqlashga qaratilgan bo‘ladi. Shu jihatdan, ayol nutqidagi emotsional rang-baranglik va muloyim ritorika jamiyatda shakllangan “ayol murosaga moyil va yumshoq muloqotchi” stereotipining til vositalarida namoyon bo‘lishidir.

Biroq zamonaviy kommunikativ amaliyotda gender stereotiplari doimo qat’iy saqlanib qolmaydi. Ayrim holatlarda ayollar ham keskin, direktiv va buyruq ohangidagi nutqdan foydalanishi mumkin. “Sen meni eshitishni o‘rganishing kerak, har safar gapni bo‘lib tashlayverma!” kabi bayonotlar imperativ shakllar, ayblov va kuchli baholovchi birliklar orqali ifodalanadi. Bunday nutq stereotipik kutilmalardan chetga chiqishi sababli ko‘pincha “nomos” yoki “mos kelmaydigan” xulq sifatida baholanadi. Natijada, tinglovchida qarshilik paydo bo‘lishi yoki konfliktning kuchayishi ehtimoli ortadi. Demak, gender stereotiplari nutqiy xulqni baholashda muhim rol o‘ynaydi, biroq real muloqotda ularning buzilishi ham alohida stilistik va pragmatik effektlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy gender stereotiplarining ziddiyatli vaziyatlar diskursidagi stilistik o‘rni murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik jarayondir. Ular nutqning shakllanishiga, uning ta’sirchanligiga, konfliktning rivojlanishiga va ishtirokchilarning bir-birini qabul qilishiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu stereotiplarning tadqiqi jamiyatdagi gender rollarini, tilning ijtimoiy funksiyalarini va kommunikativ strategiyalarning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. – London: Macmillan. 1992. – P.48

2. Huttenlocher J., Vasilyeva M., Cymerman E., & Levine S. Language input and child syntax. //Cognitive Psychology, 45(3), 2002, – P. 337-374 https://doi.org/10.1016/S0010-0285(02)00500-5

3.Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. – London: Routledge. 2008

4.Galsworthy M.J., Dionne G. & Plomin R. Sex differences in early verbal and non-verbal cognitive development. Developmental Science, 3, 2000, – P. 206-215 https://doi.org/10.1111/1467-7687.00114

5.Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. – London: Routledge. 2013. – P.69

6.Karmiloff Smith A. Challenging the use of adult neuropsychological models for explaining neurodevelopmental disorders: Developed versus developing brains: The 40th Sir Frederick Bartlett Lecture. The Quarterly Journal of Experimental Psychology, 2013, 66 (1), – P. 1-14 https://doi.org/10.1080/17470218.2012.74442

7. Sunderland J. Language and Gender: An Advanced Resource Book. – London: Routledge. 2006. – P.93

8. Litosseliti L. Gender and Language: Theory and Practice. – London: Routledge. 2014 – P.132

Nigora ERKINOVA,
Fan va texnologiyalar universiteti
Pedagogika kafedrasi f.f.f.d.(PhD), dots.v.b.



SKRIPTONIM TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI: ETIMOLOGIYASI VA MA'NOSI

Annotatsiya: ushbu maqolada skriptonim tushunchasining shakllanish jarayoni, uning etimologik asoslari hamda mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Skriptonimlarning til tizimidagi o'rni, ular paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar, shuningdek, zamonaviy nomlash jarayonidagi funksional xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda skriptonimlarning tarkibiy tuzilishi, semantik talqini va qo'llanish ko'lami misollar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: *skriptonim, etimologiya, toponim, antroponim, onomastika, nominatsiya jarayoni, lingvistik birlik.*

Аннотация:в данной статье рассматриваются процессы формирования термина "скриптоним", его этимологические основы и семантическое содержание. Анализируется место скриптонимов в языковой системе, факторы их возникновения, а также их функциональная роль в современных номинационных процессах. Особое внимание уделяется структурным особенностям, семантике и сферам употребления скриптонимов, сопровождающимся конкретными примерами.

Ключевые слова: *скриптоним, этимология, топоним, антропоним, ономастика, номинация, языковая единица.*

Annotation: this article explores the formation of the concept "scriptonym", focusing on its etymology and semantic characteristics. It examines the role of scriptonyms within the language system, the linguistic and extralinguistic factors influencing their emergence, and their functional significance in modern naming processes. The study also provides an analysis of the structural features, semantic interpretation, and usage patterns of scriptonyms, supported by illustrative examples.

Key words: *scriptonym, etymology, toponym, anthroponym, onomastics, naming process, linguistic unit.*

Shaxsni nomlash va identifikatsiyalash har doim jamiyat va madaniyatning muhim qismi bo'lgan. Tarix davomida insonlar o'zlarini boshqalardan ajratish, shaxsiy yoki ijodiy xususiyatlarini ifodalash maqsadida o'z nomlarini o'zgartirish yoki qo'shimcha laqablar ishlatish usullarini topgan. Jahon adabiyotida bunday nom berish amaliyoti qadimdan mavjud bo'lib, yozuvchilar va shoirlar o'z asarlarini mualliflik belgisi bilan boyitish, shuningdek, ba'zi shaxslar ijtimoiy yoki siyosiy sabablar bilan asl ismlarini yashirish uchun qo'llagan[1].

Identifikatsiya va shaxsiy ma'lumotlarni aniqlash doimo madaniy va ijtimoiy tizimlarning muhim qismi bo'lgan. E. Begmatov o'zining "O'zbek tili antroponimikasi" deb nomlangan ilmiy ishida "… ism antroponimik tizimning asosiy kategoriyasi bo'lsa, laqablar, taxalluslar va familiyalar qo'shimcha nominativ kategoriyalar sifatida qaraladi. Shu bilan birga, laqab yoki taxallus ham shaxsni nomlash funksiyasini bajaruvchi o'ziga xos ism hisoblanadi", – deb ta'kidlaydi. Dastlab laqab boshqa odam yoki guruh tomonidan berilgan va u asl ismga qo'shimcha sifatida ishlatilgan. Shu tariqa u antroponimik birlik sifatida shakllanib, shaxsning nom tizimiga kirgan.

Tarixiy misollar orqali mazkur jarayon aniqroq ko'rinadi. XV asrda Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lgan shaxsga berilgan laqab sifatida ishlatilgan, Zangi ota – qoracha, qora terili ma'nosidagi laqab, XVI asrdagi "Boburnoma"da Robiya Sultonbegim Qorako'zbegim (Qorako'z – qora ko'zli), Sultonbegimning qizi esa Oqbegim (Oq – oq rangli) deb atalgan[2]. Shu misollar orqali taxallus va laqablarning shaxsni identifikatsiyalash, madaniy kontekstni aks ettirish va tarixiy ahamiyatdagi roli ochiq-oydin ko'rinadi. Ular nafaqat shaxsning nomini aniqlash vositasi, balki jamiyat, ijtimoiy mavqe va estetik qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qilgan. N. Xusanov XV asr adabiy yodgorliklaridagi "O'zbek antroponimlari tarixi"ni tahlil

1 Природина У.П. Этнокультурное пространство антропонимов в языке: на материале шведских имён, фамилий, прозвищ. Автореф. дис…докт. филол. наук. – М., 2012. – С. 11.

2 Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т.: Фан, 2013.94- б.

qilganda, ularni juda qadimiy deb hisoblaydi va keng ma'noda tushunish kerakligini ta'kidlaydi. U laqablarni quyidagi turlarga ajratadi:

a) shaxsiy fazilatlarga asoslangan laqablar – odamning xarakteri, tabiati yoki tashqi ko'rinishi bilan bog'liq;

b) kasb va hunarga asoslangan laqablar – shaxsning kasbi yoki hunari bilan bog'liq;

c) turli shaxsiy sifatlarga asoslangan laqablar – bir nechta xarakter yoki xususiyatlarni ifodalovchi laqablar[3].

Daraja va martabaga asoslangan laqablar jamiyatdagi ijtimoiy tuzilma, tabaqalanish va shaxsning jamoadagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday laqablar ko'pincha kishining mavqeyi, kasbi, ijtimoiy nufuzi yoki bajargan xizmatlariga ko'ra shakllangan bo'lib, ular ma'lum mezonlarga asoslanadi. Shu bois daraja va martabani ifodalovchi laqablarni shartli ravishda uch turga ajratish mumkin:

1) ijtimoiy tabaqa yoki sinfni bildiruvchi laqablar;

2) hukmdor yoki yuqori lavozimni bildiruvchi laqablar;

3) diniy unvonlarni ifodalovchi laqablar.

Ushbu tahlil laqablarning tarixiy va ijtimoiy sharoitda qanday vazifani bajarganini ochib beradi. Laqablar shaxsni atash bilan birga, uning jamoadagi o'rni, bajaradigan vazifasi yoki e'tiqodiy maqomini ifodalovchi belgi sifatida ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Skriptonim ilmiy doiralarda ko'proq kriptografiya va onomastika sohalarining kesishmasida, ayniqsa, matn ichidagi shifrlash usullarini o'rganishda foydalaniladigan nisbatan yangi, tor ma'noli termin hisoblanadi. U matnning yashirin mazmunini ochish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi.

Skriptonim quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

a) kriptografiya (maxfiy yozuv) sohasida skriptonim o'zining eng sof shaklida namoyon bo'ladi. Bu yerda u shunchaki nom emas, balki ikki tomonlama maqsadda xizmat qiluvchi koddir. Maxfiy hujjatlar, xabarlar yoki operatsiyalarda ishtirokchining haqiqiy shaxsini yashirish uchun skriptonim, maxsus yozuvga asoslangan kod nom ishlatiladi. Masalan, ism harflarini ma'lum bir tartibda almashtirish yoki faqat ma'lum bir guruh tushunadigan ramziy belgilar majmuasidan foydalanish uchun qo'llanadi;

b) ba'zan skriptonim matnning o'zi emas, balki shifrni ochish (deskriptlash) uchun qo'llanadigan yozma kalit vazifasini o'taydi.

Adabiyot va san'atda skriptonim muallifning o'z ismini yoki shaxsiga oid boshqa belgilarni matn ichiga yashirin tarzda joylashtirish hodisasidir. Bu usul asarga intellektual sir, o'yin, qo'shimcha ma'no qatlamlarini beradi va o'quvchini matn bilan faol muloqotga chorlaydi. T. Enazarov ta'kidlaydiki, ism-shariflar milliy psixologiya orqali yaratilgan til boyligining bir qismi hisoblanadi. Shu sababli, ismlar nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillar mahsuli sifatida qaraladi[4]. Skriptonimning eng ko'p uchraydigan shakli shundan iboratki, muallif o'z ismini matnning ichki kompozitsion tuzilishiga, xususan, she'r misralarining bosh harflariga yoki boshqa grafikal-strukturaviy elementlariga shifrlangan tarzda joylashtiradi. Bunda muallif nomi matnning tashqi ko'rinishi va uning grafematik tashkiliga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu tariqa akrostix, mesostix yoki telestix kabi poetik konstruksiyalar orqali matn ichida maxfiy tarzda muallif identifikatori yaratiladi.

Mesostix (yoki mesostic) atamasi yunoncha μέσος — "o'rta, markaz" va στίχος — "satr, misra" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, matn ichida yashirin ma'lumotni har bir misraning markaziy harfi yoki markaziy qismidagi harflar orqali berish usulini bildiradi. She'riy matnda yashirin mazmun yaratish turli grafik va kombinatorik prinsiplarga asoslanishi mumkin. Qadimgi manbalarga ko'ra, taxminan, miloddan avvalgi IV–V asrlar oxirida bunday vizual-poetik tuzilmalarni ilk bor qo'llagan ijodkor sifatida antik dramaturg Epixarm tilga olinadi.[5] Shu tariqa u nafaqat akrostix, balki matnning ichki grafemasida yashirin ma'no hosil qiluvchi boshqa strukturaviy shakllarning ham dastlabki yaratuvchilaridan biri sifatida ko'riladi.

Rus shoiri va kombinatorik (eksperimental) she'riyat targ'ibotchisi Ivan Chudasov akrostix haqida shunday yozadi: "Akrostix, odatda, she'rning har bir misrasining bosh harflari muayyan ism, so'z yoki iborani tashkil etuvchi poetik shakl sifatida talqin qilinadi. Bu shakl jahon she'riyatida qadimdan ma'lum. Qayd etish kerakki, akrostixning ixtirochisi deb Epixarm e'tirof etiladi. U miloddan avvalgi V asrda Sirakuzada yashagan yunon filologi va dramaturgi bo'lgan. Aslida, akrostix Epixarm uchun o'z asarlarida mualliflikni belgilashning o'ziga xos usuli vazifasini bajargan: uning matnlarida muallif ismi go'yoki matnga "tikib qo'yilgan" edi[6]."

O'rta asrlar adabiyoti va mistik matnlarda esa skriptonim ko'proq ramziy belgilar, allegoriyalar, ishora-nomlar, shifrlangan kodlar orqali beriladi.Bu turdagi skriptonimlar matnning semantik qatlamiga chuqur kirib boradi, ya'ni ular faqat harflar emas, balki

3 Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. –Т., 2014. 104-б.

4 Эназаров Т. Ном қўйиш- ҳам санъат, ҳам илм // Тил ва адабиёт таълими. – Т., 2021.№ 12.2- б.

5 https://pisateli-za-dobro.com/articles/1658-mezostih.html

6 Чудасов И. Акростих в русской поэзии. Дети Ра, №5–6 (31–32).

ramzlar orqali ochiladi. Shu bois skriptonim nafaqat matnning kompozitsion tuzilishida, balki uning matniy tahlili uchun ham muhim vosita hisoblanadi. U o‘quvchini asar ostidagi qo‘shimcha ma’nolarni topishga undaydi.

Skriptonim tushunchasi o‘zining klassik ma’nosida qadimiy bo‘lsa-da, u axborot texnologiyalari va raqamli aloqa davrida yangi funksional mazmun kasb etdi. Raqamli muhitda skriptonim ko‘proq shaxsning o‘zini himoya qilish, identifikatsiyani boshqarish va maxsus guruhlar ichida aloqani ta’minlash vositasiga aylangan. Raqamli aloqa va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan skriptonim tushunchasi yangi kontekstga ega bo‘ldi. Internetdagi taxalluslar ko‘pincha shaxsning real ismini yashiradi va foydalanuvchining shaxsiy yozma kodiga aylanadi. Ular ko‘pincha harflar, raqamlar va maxsus belgilarning o‘ziga xos kombinatsiyasi bo‘lib, shaxsiy “Skriptonim” vazifasini bajaradi. Yozma shifrlash ko‘pincha real ism yoki familiyaga umuman o‘xshamaydi va harflar, raqamlar, maxsus belgilardan tashkil topgan yozma kod shaklini oladi. Bu kodlarning yagona maqsadi foydalanuvchining haqiqiy shaxsini yashirish (kriptografik funksiya) va uni raqamli muhitda noyob tarzda nomlashdir. Raqamli skriptonim foydalanuvchining shaxsiy brendi yoki uning virtual muhitdagi noyob kodi vazifasini o‘taydi. Bu nomlar orqali shaxsiyat yaratiladi, ammo bu shaxsiyatni tasdiqlovchi real hayotdagi hujjatlar bo‘lmaydi.

Zamonaviy kriptografiyada, ayniqsa, *blokcheyn* texnologiyasi, ya’ni markazlashmagan, buzib bo‘lmaydigan va shaffof ma’lumotlar zanjiri orqali axborotni himoya qiluvchi tizim keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, maxfiy aloqa tizimlarida skriptonim tushunchasining funksiyalari ham o‘z aksini topadi. Kriptografik imzo yoki maxfiy yozishma uchun ishlatiladigan umumiy va shaxsiy kalitlar, aslida, juda murakkab harf-raqam belgilar to‘plamidan iborat bo‘lgan yozma kodlardir. Ular shaxsni yoki uning mulkini tasdiqlovchi, faqat yozma shaklda mavjud bo‘lgan “Skriptonim-kalit” vazifasini bajaradi. Bu esa skriptonimning shifrni ochish uchun qo‘llanadigan yozma kalit funksiyasini yangi texnologik darajada namoyon etadi.

Xulosa shuki, skriptonim tushunchasi chuqur antroponimik va etimologik ildizlarga ega bo‘lib, shaxsni nomlash va identifikatsiyalashning an’anaviy usullari (ism, laqab, taxallus) asosida yuzaga kelgan maxsus lingvistik va semiotik hodisani ifodalaydi. Uning asosiy vazifasi nomning yashirinligini saqlash yoki ma’no qatlamini ochish uchun kalit bo‘lib xizmat qilishdir. Bu hodisa turli sohalarda o‘z namoyonini topadi: kriptografiyada u maxfiy aloqa va shaxsni himoyalash uchun ishlatiladigan yozma kod hamda shifr kaliti sifatida qo‘llanilsa, adabiyotda esa asarga intellektual sir va qo‘shimcha ma’no berish vositasi bo‘ladi. Bunda akrostix va mesostix kabi poetik konstruksiyalar orqali mualliflik huquqi yashirin belgilanadi. Raqamli muhitda axborot texnologiyalari davrida skriptonim yangi funksional mazmun kasb etib, internetdagi raqamli taxalluslar ko‘rinishida foydalanuvchining real ismini yashiruvchi va virtual muhitda noyob identifikatsiyani ta’minlovchi shaxsiy kod vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, skriptonim zamonaviy davrda, ayniqsa, raqamli identifikatsiya va axborot xavfsizligi sohalarida, nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy hamda texnologik hodisa sifatida chuqur tadqiq etishga loyiq ilmiy dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Природина У.П. Этнокультурное пространство антропонимов в языке: на материале шведских имён, фамилий, прозвищ. Автореф. дис…докт. филол. наук. – М., 2012.11-с.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т.: Фан, 2013.94- б.
3. Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Т., 2014.104-б.
4. Эназаров Т. Ном қўйиш – ҳам санъат, ҳам илм // Тил ва адабиёт таълими. – Т., 2021.№ 12. 2-б.
5. https://pisateli-za-dobro.com/articles/1658-mezostih.html
6.Чудасов И. Акростих в русской поэзии. Дети Ра, №5–6 (31–32).

Maksuda XUSANOVA,
Renessans ta'lim universiteti
Filologiya kafedrasi b.v dotsenti(PhD)

O'ZBEK FALERONIMLARINING MORFOLOGIK TUZILISHI VA NOMLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilida shakllangan faleronimlarning (orden, medal , mukofot va ko'krak nishonlari nomlari) morfologik tuzilishi, ularning tarkibiy-sintaktik modeli hamda nomlash tamoyillarining lingvistik asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda faleronimlar tarkibidagi affiksal birliklar, atash asoslari, ularning nomlanish tamoyillari, tarixiy an'analar hamda ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarning o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *faleronim. lingvistik, affiks, morfologik, nomlanish, tamoyillari, onomastik birliklar, do'stlik, mardlik, mustaqillik*

Аннотация: кроме того, будут проанализированы морфологическая структура фалеронимов, сформированных в узбекском языке, их структурно-синтаксическая модель и лингвистическая основа принципов именования. В исследовании рассматриваются аффиксные единицы в структуре фалеронимов, основы именования, семантические компоненты и роль государственной идеологии, исторических традиций, социально-духовных ценностей в их определении.

Ключевые слова: *фалероним, лингвистические, аффиксные, морфологические, номенклатурные, принципы, ономастические единицы, дружба, мужество, независимость.*

Annotation: in addition, the morphological structure of faleronyms formed in the Uzbek language, their structural-syntactic model and the linguistic basis of naming principles will be analyzed. The study examines the role of affix units in the structure of phaleronyms, the basics of naming, the principles of their naming, historical traditions, and socio-spiritual values.

Key words: *faleronym. linguistik, affix, morphological, nomenclature, principles, onomastic units, friendship, maternity, independence*

Kirish. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat mukofotlari, faxriy unvon va ko'krak nishonlari tizimi kengayib, ularning nomlanishida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ijtimoiy ehtiyojlar ustuvor bo'lib bormoqda. Bu esa faleronimlarning lingvistik jihatdan o'rganilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Inson o'zining aqli, bilimi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi, faolligi, uddaburonligi kabi fazilatlari bilan jamiyatda obro' - e'tibor orttiradi. Bunday shaxslar ko'rsatgan mehnatiga loyiq taqdirlanadi.

Faleronimlar — ijtimoiy hayotning muhim qatlamida qo'llaniladigan, shaxsning xizmatlari va yutuqlarini e'tirof etuvchi onomastik birliklardir. Faleronim – har qanday orden, medal, ko'krak nishonlarining atoqli oti. O'zbek faleronimlari tarkib jihatidan ko'p komponentli, sintaktik jihatdan murakkab birliklardan tashkil topadi. Faleronimlar nomlarning alohida turlari hisoblangani uchun oddiy so'zlardan, ya'ni apellyativ so'zlardan farqlanadi. Onomastik birliklardagi nomlarda nomlilik ma'nosi apellyativ so'zlarda uchraydigan odatdagi denotativ ma'nodan ma'lum semantik farqlarga ega. Masalan, "do'stlik" so'zi apellyativ so'z sifatida o'rtoq, oshno, mahbub ma'nosini anglatadi. "Do'stlik" ordenidagi "do'stlik" so'zi turdosh otdan atoqli otga aylangan. **"Do'stlik"** faleronimidagi "do'stlik" so'zi forscha bo'lib, "o'rtoq, Olloh, yor, oshno, mahbuba" ma'nolarini bildirib, do'stlik – do'st maqomida bo'lishlik, yaqinlik, oshnolik, ahillik; mehribonlik tushunchalarini anglatadi.

Unvon yoki mukofot nomlari a'lochisi, fidoyisi, faxriysi, shon-sharaf, jasorat, mardlik, do'stlik kabi so'zlar faleronimlarning markaziy qismi hisoblanadi. Bu leksemalar asosan, abstrakt tushunchalarni bildiruvchi otlardan tashkil topgan. **"Shon-sharaf"** faleronimidagi "shon" so'zi arabcha bo'lib, "ish, aloqa, munosabat, qadr- qimmat, obro', e'tibor, manfaat" kabi ma'nolarni ifodalab, **"**erishilgan hurmat, obro', sharaf, dovruq, dong, shuhrat**"** tushunchasini bildirsa, "sharaf "so'zi arabcha "izzat, hurmat, faxr (O'TIL,V,594), yuqori martaba, yuksak o'rin" ma'nolarini anglatib, **"**baxt, faxr, iftixor, biror ijobiy xislat, xizmat yoki talanti tufayli xalq orasida taratgan dong, shuhrat, shoni**"** kabi tushunchalarni bildiradi.

Xalq ta'limi xodimi, o'qituvchi, pedagog, murabbiylar **"Xalq ta'limi fidoyisi"** ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. **"Xalq ta'limi fidoyisi"** faleronimdagi "fidoyi" arabcha o'z jonini qurbon qiluvchi ma'nosini bildirib, "biror kimsa, narsa yoki g'oyaga astoydil berilgan va ular uchun jonidan kechishga ham tayyor, sodiq" degan tushunchani bildiradi. **"**Xalq ta'limi

fidoyisi” ko‘krak nishoni faleronim sifatida bolalar va yoshlarga ta’lim hamda tarbiya berishda, xalq ta’limini rivojlantirishida fidokorona mehnat qiluvchi shaxslarga beriladi.

Faleronimlar tarkibida sifatlovchi komponentlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha kengaytirilgan aniqlovchi bo‘lib keladi va unvon mazmunini aniqlaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi, Sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, alohida xizmatlari uchun, yuksak xizmatlari uchun va hokazo.

Faleronim nomlarining yasalishida quyidagi qo‘shimchalar faol qo‘llanadi:

a) -chi / -chi(si) qo‘shimchasi orqali yasalgan faleronimlar:

Eng ko‘p uchraydigan affiks bo‘lib, kasb egalari va soha mutaxassislarini bildiradi. Sodda yasama faleronimlar so‘z o‘zagiga qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan yasama so‘zlardan tashkil topadi, ya’ni “o‘zak+qo‘shimcha” ko‘rinishida bo‘ladi. Mana shundan keyingina yasama so‘z maxsuslashib, dignitonim va faleronimga, aniqrog‘i, unvon, orden, medal, mukofot nomiga aylanadi. Turkiy tillarda affikatsiya orqali so‘z yasalish sermahsul usul hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilida -chi qo‘shimchasi juda faol qo‘shimcha sanaladi. -chi so‘z yasovchi qo‘shimchasining boshqa turkiy tillarda fonetik varianti ko‘p. Masalan, ozarbayjon tilida ushbu qo‘shimchani to‘rtta varianti borligini E.V.Sevortyan ta’kidlab o‘tgan [5]. Ayrim tadqiqotlarda ushbu -chi so‘z yasovchi qo‘shimchasi diaxron va sinxron planda faol ekanligi haqida A.G‘. G‘ulomov[6], A.M.Shcherbak[7], G‘.Abdurahmonov va Sh.Shukurovlarning [8] monografik ishlarida bayon etilgan. Masalan, “Sog‘liqni saqlash a’lochisi”, “Jismoniy tarbiya va sport a’lochisi” ko‘krak nishoni.

-lik affiksi bilan yasalgan faleronimlar. “Mustaqillik” ordeni, “Mardlik” ordeni, “Do‘stlik” ordeni, “Salomatlik” ordeni.

b) -si/-i egalik qo‘shimchasi orqali yasalgan faleronimlar. “O‘zbekiston Qahramoni”, “Yoshlar yetakchisi”, “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi”.

Ma’lumki, nomlanish qachon vujudga kelganini hech kim bilmaydi, biroq unda inson asrlar davomidagi tajribasi, dunyoqarashi, malaka, bilim, tabiatni nomlanuvchiga nisbatan munosabati yotadi. A.B.Superanskaya ta’kidlaganidek, “Narsa va hodisalarning nomi inson tasavvurisiz yuzaga kelishi mumkin emas”[9]. U narsa va hodisalarni nomlashda obyektning umumiy belgi-xususiyatlariga asoslanadi. Narsa - hodisalarni nomlarda umumiylashtirish, ya’ni aniqlab, yakkalab ko‘rsatish va atash turdosh ot uchun muhim. Atoqli otlar narsa va predmetning nomlari bo‘lib, hayotiy zaruriyat va ehtiyoj tufayli tug‘ilgan. Nomlash (nominatsiya) onomastik tadqiqotlarda quyidagi terminlar bilan ifodalanadi: atash, nomlash, ism berish, nominatsiya kabi. Nomlanish jarayoni va qonuniyatlar: turdosh ot (apellyativ)ning o‘z vazifasini o‘zgartirib, atoqli ot tizimiga o‘tishidir[10].

Dignitonim va faleronimga nom berishda ularning o‘ziga xos belgi-xususiyati motiv qilib olingan. Motiv deganda obyektni nomlash uchun nomlovchilar tomonidan tanlangan asos, belgi tushuniladi. Dignitonim va faleronimlarning nomlanish jarayonida nomlanuvchi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Nomlovchi nomlanayotgan obyektning belgilaridan birini yoki u to‘g‘risidagi tasavvur, orzu, istaklaridan birini tanlaydi. Shuningdek, unvon, orden, medal va ko‘krak nishoni belgi-xususiyatlari biror tamoyilga asoslangan holda tanlash orqali yuzaga keladi. **“Mustaqillik ”ordeni.** Bu faleronim tarkibidagi mustaqillik– ixtiyori o‘zida bo‘lgan, qaram bo‘lmagan holatda, davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishini anglatadi. Bu leksema erkin, hur, ozod kabi ma’nolarda ham ishlatiladi.. **“Salomatlik” ordeni.** Bu faleronimdagi “salomatlik” so‘zi arabcha, “xavfsizlik, omonlik, xotirjamlik, sog‘lomlik”[11] ma’nolarini anglatib, tan-joni sog‘, salomat bo‘lishlik, tanisog‘lik tushunchalarini bildiradi. Dignitonim va faleronimlarning nomlanish tamoyili pozitivlik (lotincha pozitivus – ijobiy) tamoyiliga asoslanadi:

1.**Ta’lim - tarbiya va ilm fanni rivojlantirishdagi mehnatini taqdirlashda qo‘llangan so‘zlarni nomlash tamoyili.**

“Xalq ta’limi fidoyisi” ko‘krak nishoni. Ushbu ko‘krak nishonining nomlanish tamoyili yoshlarni vatanparvarlik va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida fidokorona mehnat qilgan hamda soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan fuqarolarni taqdirlashga asoslanadi.

“Faxriy murabbiy” motivi esa yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni yot g‘oyalardan asrash, adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish, o‘zining chuqur bilimi va boy hayotiy tajribasi bilan yordamga muhtoj hamda og‘ir ahvolga tushib qolgan yoshlar va oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ish bilan ta’minlash hamda tadbirkorlikka o‘rgatayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini mukofotlashga asoslanadi.

2.Jamiyat a’zolarining sog‘lik-salomatligini ta’minlashdagi mehnatlarini munosib taqdirlash tamoyiliga asoslangan faleronimlar:

I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni. Ushbu ordenning nomlanish motivi kishilar onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va

axloqiy muhitni ta’minlashdagi alohida xizmatlarini mukofotlashga asoslangan..

“Sog‘lom turmush” medali. Bu medalning nomlanish tamoyili aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qo‘shgan hissasi uchun sog‘liqni saqlash muassasalari shifokorlari, OAV vakillari va blogerlar, fuqarolar, namunali oilalar va sportchilarning mukofotlanishiga asoslanadi.

3. **Huquq-tartibotni mustahkamlash va mamlakatni mudofaa qilishdagi xizmatlarni taqdirlashga asoslangan faleronimlar**ni **nomlash tamoyili:**

“Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishoni. Ko‘krak nishonining nomlanish motivi jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlarini aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘rsatgan xizmatlarini mukofotlashga asoslangan.

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni. Bu ordenning nomlanish motivi mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga, mudofaa qudratini kuchaytirish va milliy xavfsizligini ta’minlashga, mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalq farovonligini oshirishga katta hissa qo‘shgan, o‘zining iste’dodi, bilim va tajribasini Vatanimiz ravnaqiga baxsh etib, fidoyilik namunasini ko‘rsatib kelayotgan fuqarolar va harbiy xizmatchilarni mukofotlashga asoslanadi.

4.Buyuk ajdodlarining davlatchilik va ilm-fanni rivojlantirish, vatanparvarlikni namoyon qilishdagi yuksak xizmatlarini targ‘ib qilishga asoslangan dignitonim va faleronimlarni nomlash tamoyili:

“Oliy Darajali Imom Buxoriy” ordenining nomlanish asosi ilm-fan va madaniyat, jumladan, islom ma’rifati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti hamda ilmiy merosini o‘rganish va xalqaro maydonda keng targ‘ib qilishda katta yutuqlarga erishganligi uchun mamlakatimizning atoqli davlat va jamoat arboblari, diniy-ijtimoiy sohadagi rahbarlar va yetuk ulamolar, atoqli olimlar, adiblar, pedagoglar va ilmiy tadqiqotchilarni rag‘batlantirishga asoslanadi.

“Jaloliddin Manguberdi” ordeni. Ushbu ordenning nomlanish tamoyili mamlakatimiz mustaqilligini, vatanimiz sarhadlarini himoya qilishda qahramonlik va jasorat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarning munosib xizmatlarini taqdirlashga asoslangan.

“Amir Temur” ordeni nomlanish asosi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me’morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san’atni, shu jumladan, harbiy mahoratni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissalarini mukofotlashga asoslangan

Xulosa. Faleronim nomlarining lisoniy tadqiqi ulardagi tarixiy-xronologik, leksik, grammatik o‘zgarishlarda, nomshunoslik to‘plamidagi leksemalarning orfoepik, orfografik va leksik jihatlarini o‘zida aks ettiradi Faleronimlarga nom berishda ularning o‘ziga xos belgi-xususiyati motiv-obyektni nomlash uchun nomlovchilar tomonidan tanlangan asos belgi qilib olingan. Faleronimlarning nomlanish jarayonida nomlanuvchi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Nomlovchi nomlanayotgan obyektning belgilaridan birini yoki u to‘g‘risidagi tasavvur, orzu-istaklaridan birini tanlaydi. Unvon, orden, medal va ko‘krak nishoni belgi-xususiyatlari biror tamoyilga asoslangan holda tanlash orqali yuzaga keladi. Faleronimlarning ba’zilari konversiya usulida — turdosh otdan atoqli ot, boshqalari esa transonimizatsiya usulida – atoqli otdan boshqa tipdagi atoqli ot hosil qilingan. Davlat mukofotlari tizimida morfologik birliklarning tanlanishi rasmiylik, aniqlik va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти.– Тошкент, 2003. – Б. 560
2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. 2-том. –Б. 577.
3.Lex.uz .8-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 26-maydagi O‘RQ-621-sonli Qonuni.
4.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 2-tom. 464-b
5.Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1966. 83с.
6.Ғуломов А. Сўз ясалиши // Ўзбек тили грамматикаси. – Т.1. 21-б.
7.Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. –Л.: Изд.АНСССР, 1962. – 124с.
8.Абдураҳмонов Ғ, Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 64–65.
9.Суперанская А.Б. Общая теория имеи собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 236.
10. Нуриддинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. авторев. – Тошкент, 2005. – Б.11.

Munosibxon ISHANJANOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail : ishanjanova77@mail.ru

LEKSIK NOMINATSIYANING ONOMASIOLOGIK VA KOGNITIV TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada tilshunoslik va unga yaqin fanlar doirasida nominatsiya muammosi bo‘yicha nazariy sharh beriladi. Asosiy e’tibor leksik nominatsiyaning onomasiologik yondashuv nuqtayi nazaridan, tilning nominativ funksiyalarini bajarish jarayonida, hamda kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan, ya’ni mantiqiy va psixik jarayonlar kontekstida ko‘rib chiqilishiga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *tilning nominativ funksiyasi, leksik nominatsiya, onomasiologik yondashuv, kognitiv yondashuv, til reprezentatsiyasi*

Аннотация: в данной статье представлен теоретический обзор проблемы номинации в рамках лингвистики и смежных дисциплин. Основное внимание уделяется рассмотрению лексической номинации с позиции ономасиологического подхода — в аспекте выполнения языковых функций, а также когнитивного подхода — в контексте мыслительных и психических процессов.

Ключевые слова: *номинативная функция языка; лексическая номинация; ономасиологический подход; когнитивный подход; языковая репрезентация*

Annotation: this article presents a theoretical overview of the problem of nomination within linguistics and related disciplines. The main focus is on examining lexical nomination from the perspective of the onomasiological approach — in terms of performing language functions — as well as from the cognitive approach, which considers mental and psychological processes.

Key words: *nominative function of language; lexical nomination; onomasiological approach; cognitive approach; linguistic representation*

Kirish. Tilni o‘rganishning ko‘p asrlik tarixi olimlarning asosiy til funksiyalarini aniqlash masalasiga qiziqishini ko‘rsatadi. Bu funksiyalar orasida nominatsiya (nominativ) vazifasi alohida o‘rin tutadi. Tilning dastlabki vazifalaridan biri sifatida nominatsiya funksiyasi til tizimining voqelikdagi hodisa va predmetlarni ajratib ko‘rsatish, ularni so‘z, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar va gaplar orqali ifodalash imkoniyatini anglatadi. Insoniyatning bilish va muloqot faoliyatining jadal rivojlanishi natijasida yangi voqeliklar, artefaktlar, moddiy va ma’naviy madaniyat unsurlari paydo bo‘lmoqda. Bu jarayon tilning eng muhim vazifalaridan birini belgilaydi — ya’ni, inson hayotining barcha sohalarini yangi nomlar bilan ta’minlash kabi [1,5].

Adabiyotlar tahlili. Atrof-muhitdagi voqelikni so‘zlar yoki butun gaplar orqali nominatsiya masalasi XX asrning o‘rtalaridan boshlab **onomasiologiya** fanida alohida yo‘nalish sifatida o‘rganila boshlandi. V.N. Telia, A.A. Ufimtseva, E.S. Kubryakova, E.S. Aznaurova, N.D. Arutyunova, L.S. Kovtun, G.V. Kolshanskiy, B.A. Serebrennikov, V.G. Gak, V. Matesius kabi olimlar nazariyalari bu sohada asos bo’lib kelmoqda [2,5]. Bu yondashuv til birliklarini — so‘zlardan tortib butun gaplargacha bo‘lgan turli darajadagi belgilarni — ularning nominatsiya funksiyasi nuqtayi nazaridan tadqiq etadi va nominatsiyani real voqelik bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Shuningdek, nominatsiya faqat til birliklarini yaratish jarayoni sifatida emas, balki inson tomonidan obyektiv voqelikni “moddiylashtirish”ning murakkab natijasi sifatida ham talqin qilinadi.

Tahlil va natijalar. Tilni tashkil etish, yaratish va axborotni uzatish vositasi sifatida ko‘rib chiqishda, obyektlar, hodisalar va voqealarni nominatsiyaga oid aqliy hamda tilga xos jarayonlarning tabiati haqida savol tug‘iladi. Bu esa lingvistik tahlil doirasini kengaytirishni talab qiladi.

Masalan, naturallashgan (biologik) tilshunoslik doirasida (A. Shleyxer, M.K. Rapp, A.A. Ovelak) til inson organizmiga qiyos qilinadi. Til tovushlar va belgilar orqali moddiylashgan bo‘lib, axborot uzatish vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuvda nominatsiya inson irodasiga bog‘liq bo‘lmagan, o‘z-o‘zidan kechadigan «evolyutsion» jarayon sifatida talqin qilinadi. M. Myuller til hodisalarini izohlashda fikrning biologik mohiyatiga va uning turli nominatsiya shakllarida verbal ifodalanishiga tayanadi. U bu jarayonni jigar tomonidan ajratiladigan o‘t (safro) bilan qiyoslaydi. A. Shleyxer esa tilning yaratilishini «tabiatning insonga aylanishi» deb ta’riflaydi, tilni esa «tovush moddiyligidagi tafakkur» sifatida ko‘rsatadi [4,324].

Biologik tilshunoslik nuqtayi nazaridan tilning barcha funksiyalari, jumladan nominatsiya vazifasining ham moddiy asosi inson miyasi, nutq organlari va sezgi a’zolari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, nominatsiya jarayonining poydevori insonning mantiqiy va hissiy idroki orqali voqelikni qabul qilishdir. Shu bilan birga, bu yondashuvda nominatsiya jarayoni asosan ovozga taqlid qilish va til shakllarining hosil bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Faqatgina tushuncha va tasavvurlar tovushlarda moddiylashib, ma’no kasb etganda, ularning o‘zaro munosabatlari qo‘shimchalar yoki fleksiyalar orqali ifodalanadi.

A.R. Luriya, N.I. Jinkin, S.D. Katsnelson kabi olimlar esa nominatsiyani neyrolingvistika vositalari orqali tadqiq etib, predmet, harakat, sifat yoki munosabatni nominatsiya jarayonini murakkab psixik faoliyat shakli sifatida ko‘radilar [5, 89]. Bu yondashuv tabiiy-biologik tilshunoslik g‘oyalari bilan ma’lum darajada o‘xshash bo‘lsa-da, til nominatsiyasini izohlashda o‘ziga xos yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqotlar jarayoni asta-sekin nominatsiyadan butun vaziyatlarni belgilash jarayoniga o‘tdi. Shu nuqtada zamonaviy onomasiologiya **propozitsion nominatsiya**ni ham o‘rganishga yo‘naltirildi. Bu turdagi nominatsiya ilgari faqat matematik mantiq va til mantiqi doirasida tadqiq etilgan edi.

Yuqorida aytilganlarni pretsizion leksika misollari orqali ko‘rsatishdan avval, “pretsizionlik” tushunchasining mazmunini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Leksikologiyada bu hodisa turlicha talqin qilinadi. Masalan, R.K. Minyar-Beloruchev va L.L. Nelyubin ushbu masalaga murojaat qilib, uni biroz qarama-qarshi mazmun bilan izohlaydilar [8]. Ularning fikricha, pretsizion so‘zlar — bu odatda bir ma’noga ega bo‘lgan, lekin terminlardan farqli ravishda umumiy qo‘llanadigan va ko‘pincha aniq assotsiatsiyalarni uyg‘otmaydigan birliklardir.

Masalan, keltirilgan (1) va (2) misollar son *quatre* (to‘rt) so‘zining nafaqat semantik jihatdan, balki kontekstga qarab funksional ma’nosi ham o‘zgarishini ko‘rsatadi: *1. Ne laisse pas cela sortir de ces quatre murs. Pièce (xona): ces quatre murs – xonaning o‘zi. Les personnes présentes (xonadagi odamlar): ibora xonada hozir bo‘lganlarni bildiradi. 2. Notre quatre a failli couler quand nous avons heurté la berge. Bateau (qayiq): notre quatre – qayiqning o‘zi. Équipe de quatre personnes (to‘rt kishilik jamoa): ibora qayiqdagi to‘rt kishilik ekipajni bildiradi.*

“Quatre” so‘zining ma’nolari — son, odamlar guruhi, kriketdagi zarba, qayiq jamoasi, qayiq — bu misollar R.K. Minyar-Beloruchev va L.L. Nelyubin bergan ta’rifga zid ravishda, aslida nominatsiyaning ko‘p ma’noliligi va turlicha talqin qilinishi interpretatsiya jarayonida qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Olimlar ta’kidlaganidek, pretsizion so‘zlarning o‘ziga xosligi ham aynan shu murakkablikda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, pretsizion so‘zlar aniq assotsiatsiyalarni uyg‘otmaydi degan fikr bilan ham to‘liq rozi bo‘lish qiyin, ayniqsa masalaga kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilganda. Shu sababli, ushbu maqolada “pretsizion leksika” atamasi ostida sonlar, atoqli otlar, hafta kunlari va oy nomlari kabi umumiy qo‘llanadigan til birliklari nazarda tutiladi. Ular aniq bir mental obrazni ifodalashga xizmat qiluvchi nominativ birliklar sifatida talqin qilinadi.

Masalan, six so‘zi ishtirok etgan uch xil kontekstni ko‘rib chiqamiz. Bu so‘z six feet under idiomatik birikmasida ishlatilganda, ham Amerika, ham Britaniya ingliz tilidagi nutqda keng tarqalgan ma’noga ega bo‘lib, o‘zining oddiy son ma’nosidan farqli semantik ma’noni ifodalaydi.

1. Nos prix sont six pieds sous terre par rapport aux autres.

2. Il est déjà plus de six pieds sous terre, poursuivit Richmann en retirant la sécurité.

3. Saül aurait pu nous dénoncer, mais maintenant il est six pieds sous terre, donc nous sommes tranquilles.

Misollardagi *Six pieds sous terre* — fransuz tilida idiomatik ifoda bo‘lib, “o‘lik” yoki “ko‘milgan” degan ma’noni bildiradi. *«Il est six pieds sous terre»* — “U allaqachon tuproq ostida” ma’nosida. Fransuz tilida bunday metaforalar tez-tez uchrab turadi.

Xulosa. Har bir nominatsiya ortida muayyan tushuncha mavjud bo‘lib, u turli hukmlar yig‘indisi asosida shakllanadi, deb hisoblaganda, har bir nominatsiya ortida uni rag‘batlantiruvchi hukm yotadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu holatda propozitsion nominatsiya, ya’ni hukmga asoslangan nominatsiya yuzaga keladi. Agar propozitsiya hodisasini kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rsak, unda nominatsiya tarkibiga kiruvchi har bir til shaklining hukmlar majmuasi o‘zaro bog‘liq holda ko‘riladi va inson ongida dunyoni konseptual tarzda idrok etishning hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi. Propozitsion nominatsiyani bizning ongimiz voqelikni qanday qabul qilishi va uni til orqali qanday aks ettirish algoritmiga ega ekanini ko‘rsatib beruvchi verbal indikator sifatida talqin qilish mumkin. Propozitsion leksik nominatsiyaning verbalizatsiyasiga misol sifatida ta’rif va vaziyat keltirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Уфимцева А.А.* Лексическая номинация (первичная нейтральная). 2-е изд. М.: ЛИБРОКОМ, 2010. 88 с.
2. *Телия В.Н. Номинация // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. 2-е изд., доп. М. : Большая Российская энциклопедия, 2002.*
3. *Geeraerts D., Cuyckens H.* Introducing Cognitive Linguistics // The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics / ed. by D. Geeraerts, H. Cuyckens. Oxford ; New York : Oxford University Press, 2007.
4. *Кодухов В.И.* Натуралистическое направление // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. 2-е изд., доп. М. : Большая Российская энциклопедия, 2002.
5. *Лурия А.Р.* Основные проблемы нейролингвистики. М. : Директ-Медиа, 2008. 547 с.
6. *Кубрякова Е.С.* Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина. М. : Филол. ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. 245 с.
7. *Уфимцева А.А., Азнаурова Э.С., Кубрякова Е.С., Телия В.Н.* Лингвистическая сущность и аспекты номинации // Языковая номинация / отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. М. : Наука, 1997. С. 7–19.

Botir RAXMANOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.v.b.
E-pochta: botirraxmanov8@gmail.com
ORCID ID : https://orcid.org/0009-0003-2758-1095

ETNOGRAFIZM VA DIALEKT MUNOSABATI, QADIMGI TURKIY TIL VA SURXONDARYO ETNOGRAFIZMLARI

Annotatsiya: etnografizm tushunchasi ma’lum bir etnosga xos yaxlit voqelikni ko‘rsatib, jahon, qardosh va o‘zbek tilshunosligida mohiyatan bir ma’noni ifodalasa-da, nomlanishi va uslubiy qo‘llanishi jihatdan ma’lum bir farqlar mavjudligini ko‘ramiz. Uning qamrovi va ta’rifida ham tafovutlarni uchratish mumkin.

Mazkur tadqiqotlar yo‘nalishi va maqsadi turli sathda bo‘lsa-da, ularni umummilliy hamda mahalliy-hududiy etnografik makon birlashtirib turadi. Demak, biz etnografizmlar tadqiqi borasida umumadabiy etnografizmlar va dialektal etnografizmlarni farqlash maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ayni paytda, dialekt va etnografizmlar munosabati ham ancha bahsli va yechimini kutayotgan mavzulardan. Etnografizmlarga ta’rif-tavsif berishda ham o‘xshash yondashuvlar bilan birga turlicha qarashlarni ham kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: *etnografik leksika, qadimgi turkiy til, qardosh tillar, o‘rmaksozlik, ko‘lik, chorva leksikasi, totemizm.*

Annotation: although the concept of ethnography shows a holistic reality specific to a particular ethnos and essentially expresses the same meaning in world, fraternal and Uzbek linguistics, we see that there are certain differences in naming and methodological application. Differences can also be found in its scope and definition.

Although the direction and purpose of these studies are at different levels, they are united by the national and local-regional ethnographic space. Therefore, we consider it appropriate to distinguish between general-literary ethnography and dialectal ethnography in the study of ethnography. At the same time, the relationship between dialect and ethnography is also a rather controversial issue and is awaiting a solution. In defining ethnography, one can observe similar approaches as well as different views.

Key words: *ethnographic lexicon, ancient Turkic language, sister languages, weaving, weaving, livestock lexicon, totemism.*

Аннотация: хотя концепция этнографии отражает целостную реальность, специфичную для конкретного этноса, и по существу выражает одно и то же значение в мировой, братской и узбекской лингвистике, мы видим определенные различия в наименовании и методологическом применении. Различия также можно обнаружить в ее объеме и определении.

Хотя направление и цель этих исследований находятся на разных уровнях, их объединяет национальное и локально-региональное этнографическое пространство. Поэтому мы считаем целесообразным различать общелитературную этнографию и диалектную этнографию в изучении этнографии. В то же время, взаимосвязь между диалектом и этнографией также является довольно спорным вопросом и требует решения. При определении этнографии можно наблюдать как схожие подходы, так и различные точки зрения.

Ключевые слова: *этнографический лексикон, древнетюркский язык, родственные языки, ткачество, ткачество, лексикон животноводства, тотемизм.*

Odatda, etnolingvistik, antroposentrik yoki lingvokulturologik tadqiqotlarda *etnografizm, etnografik leksik*[1], *“etnik-madaniy leksika, etnografik dialektizm, etnografik terminlar*[2], *etnografik leksika*[3], *etnografik maydon, etnografik birlik*[4], *adabiy etnografizm, folklor etnografizmi, leksik etnografizm, etnografik dialektizm*[5] kabi terminlarni uchratamiz.

Taniqli Boshqird olimasi M.Bagautdinovaning fikricha: “Har qanday tilda so‘zlar ikkita leksik qatlamdan tashkil topadi. Biri ko‘psonli umumxalq tili, ikkinchisi

1 Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида). Филол. фан. бўйича ном. дисс. – Тошкент, 1971.
2 Багаутдинова.М.И. Этнографическая лексика Башкирского языка. – Уфа., 2002. – С. 8-19; Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке (на материале андижанском группы говоров): дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.
3 Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Фил. фан. номзод. дисс. автореф. – Т.,1997. – Б. 26.
4 Кахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи. филол. фан.номзод.дисс. – Т., 2009. – Б. 35.
5 Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фолклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. Фил. фан. бўйича фалс. док. – Тошкент, 2018. – Б. 19–20.

ma’lum bir hudud aholisi tomonidan ishlatiladigan so‘zlar ular ma’lum bir hudud aholisining, turmush tarzi, madaniyati va boshqa jabhalarini namoyon qiluvchi lahjalarni ifodalaydi. Etnografik dialektika deganda mahalliy lahjalar yoki mahalliy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘langan leksik birliklar tushuniladi”[6] . D.V.Kasyanova etnografizmlarni “mahalliy hayotni aks ettiradigan birliklar hamda bu toifadagi birliklar asosan, kiyim-kechak buyumlari, kundalik hayot, oziq-ovqat, hayvon yoki o‘simliklar, xususiyatlar, iqlim sharoitini nomlashga xoslanadi”[7], – deya ta’kidlaydi.

E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov ham “faqat A madaniyat uchun xos bo‘lgan va B madaniyatda bo‘lmagan so‘zlarni” etnografizmlar deb hisoblaydi.

Chunki etnografizmlar, yuqorida ham qayd etganimizdek, ma’lum bir xalqning yoki kichik bir aholi vakillarining o‘ziga xos bo‘lgan turmush tarzi, urf-odatlari va etnik madaniyatiga aloqador tushunchalar bilan bog‘liq.

N.Mirzayev o‘z izlanishlarida *etnografik leksika va etnografizm* terminlarini qo‘llagan. Olim ushbu terminlarga keng ilmiy ta’rif bermasa-da, o‘sha davr nuqtai-nazaridan quyidagicha tavsif beradi: “Etnografiya keng ma’noda xalqni o‘rganadi: uning tarixiy tashkil topishini, madaniyatini rasm-rusumini, urf-odati, traditsiyalarini, turmushini va umuman, xalqning ishlab chiqarish, yashash usuli va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan qator masalalarni o‘rganadi. Shunday bo‘lgach, etnografizm bo‘yog‘i va tamg‘asiga ega bo‘lgan so‘zlar shevalarda paydo bo‘lishiga ko‘ra shu sheva egasi bo‘lmish xalqning hozirgi turmush kunlaridan boshlab uning juda qadimgi davrdagi ijtimoiy-ma’naviy hayoti bilan ham bog‘lanadi”[8].

Tahlillardan ayon bo‘lmoqdaki, etnografizmlarni yondosh hodisa sifatida etnografiyadan ayro holda o‘rganib bo‘lmaydi. Aksariyat etnografizmlarning zamirida etnografik voqelik mavjud. Masalan, surxondaryolik cho‘ponlar orasida *tayoqildi* (cho‘ponlik faoliyatini yakunlash) degan udum bor. Ushbu etnografizmning mazmun-mohiyatini yoritish uchun mahalliy chorvadorlarga xos bo‘lgan etnografik an’ana va udumlarni yaxshi bilish zarur bo‘ladi.

Yoki voha aholisi orasida *kalniyoz, boshniyoz* deb ataladigan urf-odat mavjud. Bu marosimning mohiyatini ochish uchun ham hudud aholisining o‘ziga xos diniy qarashlari bilan birga, uzoq yillar davomida shakllangan etnografik voqelikka asoslangan aqidalaridan ham keng xabardor bo‘lish zarur.

Etnografizmlar bevosita xalq og‘zaki ijodi bilan ham bog‘liq. Maqol, matal, turli aytimlar va topishmoqlar hamda boshqa folklor janrlari ham xalq urf-odatlari, an’analarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek ularning tarkibida etnografik so‘z va birliklar ham talaygina.

Masalan, *Qutli qo‘noq ke(l)sa, qo‘y yegiz tuvar (tug‘ar), Qutsiz qo‘noq ke(l)sa, qo‘yg‘a qashg‘ir tiyar (tegar)*[9] dialektal maqoli yaxlit holatda etnomadaniy birlikni ifodalash (chorvadorlarga xos irim-sirim) bilan birga maqol tarkibida *qut, qo‘noq* kabi alohida etnografizmlarni ham kuzatish mumkin.

Etnografizmlar dialektlar bilan ham uzviy va chambarchas bog‘liqlikka ega. Etnografizmlar etnolingvistika sohasiga, shevalar dialektologiyaga oid terminlar bo‘lsa-da, yaxlit bir obyekt sifatida o‘rganilishi bilan o‘zaro yaqin aloqaga ega. Qolaversa, yurtimizda etnolingvistika sohasi rivojlangunga qadar etnografizmlar *(etnografik leksika, dialektal etnografizmlar)* dialektologik tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan.

Bunga N.Mirzayev va Y.Bobojonov kabi olimlarning ilmiy ishlarini misol keltirish mumkin. Biroq keyingi yillarda M.Kaxorova, R.Kasimova, N.Amonturdiyev, O.Nurjonov, N.Kurbonazarova, Muhammad Humoyun Nadim kabi tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda etnografizmlarni yangicha talqinda va yondashuvda o‘rganganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Bizning fikrimizcha, etnografizm, dialekt, dialektal etnografizm, etnografik dialektizm, etnografik leksika, umumadabiy etnografizm kabi terminlarning aniq chegarasi va qo‘llanish doirasini belgilash zarur deb hisoblaymiz (o‘zbek tili terminlarining izohli lug‘atida ham mazkur terminlar haqida ma’lumot topa olmadik). Masalan, *dialektal etnografizm* tushunchasiga dialektologik birlik sifatida qarash ustuvor ahamiyatga ega. *Etnografik dialektizm* tushunchasi esa ko‘proq etnolingvistik va lingvomadaniy sathda qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

R.Kasimova fikricha, etnografik dialektizm – ma’lum bir hududda yashovchi kishilargagina tushunarli bo‘lgan shevadagi etnografik lug‘aviy birlik. Bunday lug‘aviy birliklarni dialektizmlar bilan aralashtirib yubormaslik zarur. Har qanday dialektizm etnografizm bo‘lavermaydi. Etnografizmlar dialektizmlar tarkibida o‘rganiladi, biroq etnografizm tarkibiga barcha dialektizmlarni ham kiritib bo‘lmaydi[10]. Olimaning fikriga

6 Багаутдинова.М.И. Этнографическая лексика Башкирского языка. – Уфа., 2002. – С. 16–17.

7 Касянова Д.В. Этнографическая лексика в областных словарях русского языка.

8 Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида). Филол. фан. бўйича ном. дисс. – Тошкент, 1971.– Б. 3.

9 Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке (на материале андижанском группы говоров): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – С. 9.

10 Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фолклори матнларининг

qo‘shimcha sifatida aytamizki, etnografik dialektizm va dialektal etnografizm terminlari manbalarda ayni bir ma’noda qo‘llangan. Shu bilan birga, etnografizm deganda aynan, dialektal etnografizm tushunilmaydi. Balki umumadabiy etnografizm ham nazarda tutiladi. Masalan, *ko‘pkari – uloq, o‘tov, chimildiq, nikoh to‘yi* kabi leksemalar umumadabiy etnografizm hisoblansa, *Qorauy, (o‘tov), Baharjurt* (bahorda cho‘ponlar ko‘chib boradigan chorva uchun qulay hudud) *darveshona* (bahorgi ekinlar oldidan o‘tkaziladigan diniy marosim), *digdika (*ot anjomi), *qo‘noq (*mehmon), *tuvcha* (ikki yoshli urg‘ochi echki) kabi etnografizmlar (Surxondaryo) dialektal etnografizmlar sanaladi. Ayrim dialektal etnografizmlar faollashishi va keng qo‘llanishi natijasida umumadabiy etnografizmlardan joy olishi mumkin.

Etnografizm – muayyan xalq yoki ma’lum bir hududda istiqomat qiluvchi etnik guruhlarning madaniyati, urf-odatlari, etnik qadriyatlari, turmush tarzi, udum va an’analari, irim-sirimlari, turli marosimlar hamda diniy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsa yoki voqelikning nomlanishidir.

Etnografik leksema – ma’lum bir etnomadaniy muhitning in’ikosidir. Har bir hududning o‘ziga xos mental-madaniy manzarasi mavjud. Umumadabiy etnografizmlar ham o‘zida umumiy va hududiy manzarani aks ettiradi. Mamlakatimizning turli mintaqasida turlicha etnografik manzara namoyon bo‘ladi. Ba’zi mintaqalar esa o‘zida aralash etnografik manzarani aks ettiradi.

Misol uchun, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro mintaqalarida qipchoq lahjasi asosida shakllangan, ko‘chmanchi va yarim o‘troq xalqlarga xos etnografik yarus shakllangan bo‘lsa, Toshkent va Farg‘ona vodiysida esa qarluq lahjasi ustuvor, o‘troq xalqlarga xos hunarmandchilik, savdo va bog‘dorchilik asosida shakllangan etnografik manzarani ko‘rish mumkin.

Biroq bu qarash mutloq to‘g‘ri emas. Sababi ko‘rsatilgan mintaqalarda aralash etnografik manzarani ham uchratish mumkin.

Yuqoridagi hududlarda etnografizmlarning tarkib topishida dialektal jarayonlarning ham o‘rni beqiyos. Chunki hududiylik, avvalo, dialektlarni nazarda tutadi. Etnografizmlarning ichki tomonida madaniylik, mental manzara kabi holatlar aks etsa, tashqi tomondan dialektal belgilar ko‘zga tashlanadi.

Etnografizmlar ham shevalar singari so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra xilma-xil va anchayin murakkabdir. Ayniqsa, sinonimlarga juda boy[11]. Shu bilan birga, etnografizmlar adabiy tildan fonetik, leksik, grammatik jihatdan anchayin farqlanadi.

“Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da *etnografizm* va unga doir izohlar keltirilmagan. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham *etnografizm, etnografik leksika* terminlari haqida qaydlar mavjud emas. Faqatgina *etnograf, etnografik, etnografiya* terminlari sharhlangan, xolos[12].

Ayrim olimlar dialektizmlarni ikkiga ajratadi: sof dialektizmlar va etnografik dialektizmlar. Ularning fikricha, etnografik dialektizmlar mahalliy narsalarning mahalliy nomi bo‘lsa, sof dialektizmlar umumxalq tiliga oid narsalarning, hodisa va tushunchalarning mahalliy nomi. Ushbu fikrdan umumxalq tiliga xos narsa, hodisa va tushunchalarning mahalliy nomlari etnografizm bo‘lolmaydi, degan xulosa chiqadi. Masalan, beshik va beshik anjomlari ko‘plab o‘zbek shevalarida ham, adabiy tilda ham mavjud. Yoki to‘ydan keyin kelin va kuyovning yaqin qarindoshlarini uyiga chaqirish odati barcha o‘zbeklarga xos. Masalan, adabiy tildagi *chorlamoq* so‘zning mahalliy nomlari ham bor: *kuyav chəqirdi*.

Mutaxassislar tomonidan etnografizm va shevalarning xususiyatlari ularning o‘xshash va tafovutlari haqida ancha-muncha fikr bayon qilingan bo‘lsa-da, hali ular o‘rtasida hal qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ham yetarli. Garchi ularning qarashlari bir-birini to‘ldirsa ham, qarama-qarshi jihatlar ham ko‘zga tashlanadi.

Umuman, etnografizmlar tilimizni boyituvchi muhim manbalardan biri. Ammo ayrim dialektologlar shevalardagi etnografizmlarni dialektizmlardan biri sifatida tan olmaslik oqibatida bu muhim leksik boyligimiz e’tibordan chetda qolmoqda. Avvalo, bu holat etnografizmlarning aniq chegarasini belgilay olmaslik va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlamaslik, adabiy tildagi etnografizmlar bilan sheva etnografizmlarini farqlamaslik oqibatidir.

Aksariyat etnografizmlarning tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Ayrim atamalar ba’zi yozma yodgorliklarda, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarida o‘z aksini topganligi va ulardan ba’zilarining hozirgi kunda ham qo‘llanilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Surxondaryo etnografizmlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo ularning ko‘pchiligi asosan, qipchoq lahjasiga asoslangan etnografik leksikani tashkil etishini qayd etish zarur. Bu esa o‘z navbatida, turkiy xalqlarning qipchoq

инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: филол. фан. бўйича фал. док. – Т., 2018. – Б. 20

11 Masalan, Surxondaryo etnografik dialektlariga xos uyitqi (qo‘r, qo‘rliq, oxliq, ko‘nargi, sorisuv, undirgi kabi) so‘zining o‘nlab sinonimi mavjud bo‘lib, kuzatuvimizda ushbu tushunchani ifodalovchi so‘z adabiy tilga o‘zlashmagan hamda aksariyati o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham mavjud emas. (Lakuna holatida)

12 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. 5-жилд. – Б. 62–63.

guruhidagi tillar bilan ham yaqinligini ko‘rsatadi (qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar, no‘g‘ay va b.).

Shu bilan birga, o‘rganishlar natijasida yig‘ilgan yuzlab faktik materiallar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asaridagi yuzlab so‘z va iboralar voha etnografik leksikasida ham deyarli o‘sha ma’noda qo‘llanib kelinayotganligiga guvoh bo‘ldik.

“Devoni lug‘otit-turk” asaridagi ba’zi so‘zlarning Surxondaryo etnografizmlari bilan taqqoslanishi

Surxondaryo etnografizmlarida	Izohi	“Devoni lug‘otit- turk” asarida berilishi	Izohi
Esh (yesh)	Hamroh, yo‘ldosh,	ايش *Esh (81-b.)*	Hamroh, o‘rtoq
Jыr	Dumba, quyruq, yog‘	جير *Jir (313-b.)*	Yog‘, yog‘ qobig‘i, hayvon yog‘i
Jovg‘an	Go‘shtsiz, yog‘i kam ovqat	جوغن *Javg‘an (yovg‘on, 44-b.)*	Taom turi
Ko‘moch (ko‘mma)	Cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non	كوماچ *Ko‘mach (341-b.)*	O‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non
Keraga	Cho‘ponlarning qishki uyi, o‘tovi. *Yoxshi kesa hut-kadi-kadi sut, Joman kesa hut-keraga to‘la put (tuyoq)*	كيره گو *Kerago‘ (418-b.)*	Chodir, o‘tov. Ko‘chmanchilarning qishki uyi
Qoshanmoq (qoshanib kelmoq)	Hojatga bormoq	قشاندى *Qashandi (2-jild,182-b.)*	Siydi, hojatlandi
Qovurmach	Qovurilgan bug‘doy taomi	قوغورماچ *Qog‘urmach (454-b.)*	Qovurilgan bug‘doy
Qo‘naq	Mehmon, to‘yga kelgan chavandozlar. *Qutli qo‘naq ke(l)sa, qo‘y yegiz tuvar....*	قاموق *Qonuq (458-b.)*	Mehmon
Qo‘(o)r	Tomizg‘i, oxliq, uyitqi	قار *Qor (133-b.)*	Qatiq tomizg‘isi
Qur	To‘y davrasi, o‘tov belbog‘i	قور *Qur (314-b.)*	Davra, kamar
Tolqan	Bug‘doy qovurmasidan tayyorlangan taom (qovurmochning uni)	تل قان *Talqan (412-b.)*	Biror donli ekinning maydalangan shakli
Toxlы	Bir yoshdan oshgan erkak qo‘y	تاقلى *Toqli (405-b.)*	Olti oylik qo‘chqor
Ushak(chi)	Yolg‘onchi, chaqimchi, tuhmatchi	اوشق *Ushaq (144-b.)*	Mayda va tuhmatli so‘z
Ushuk (urmoq)	Yer qattiq muzlashi natijasida biror narsani sovuq urishi	اوشوک *O‘shik (102-b.)*	Mevalarni sovuq urmoq
O‘trikchi	Yolg‘onchi	اوتروک *O‘tro‘k (127-b.)*	Hiylagar, yolg‘onchi
O‘mgan	Ko‘krak qismi, gavdani tik tutish (O‘mganingdi ko‘tar: ko‘chimi, o‘zinga kel, tiklan)	اومگن *O‘mgan (142-b.)*	Gardan tomiri
Shыshak	Ikki yoshli erkak qo‘y	تيبيش *Tishak (368-b.)*	Ikki yoshli erkak qo‘y
Chibich	Olti oylik echki	چيبيش*Chebish (349-b.)*	Olti oylik echki

Ming yillar davomida aholisining asosiy qismini ko‘chmanchi chorvadorlar tashkil qilgan ushbu hudud bejizga YUNESKO ning etnografik hudud (Boysun nomoddiy-madaniy merosi) ro‘yxatiga kiritilmagan. Xalqaro “Boysun bahori” folklor etnografik festivalining o‘tkazilishi ham bunga bir misol. Garchi bugungi globallashuv jarayoni noyob urf-odatlar, an’ana va marosimlarning asta-sekin unutilib borishiga sababchi bo‘layotgan bo‘lsa-da, vohaning chekka-chekka qishloqlarida haligacha saqlanib qolmoqda.

Qolaversa, vohaning katta-kichik aholisi bu kabi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan noyob etnografik merosni saqlab qolishga moyilligi kuchli. Buni ularning turli tadbirlarida, xalq o‘yinlari, kurash, ko‘pkari va boshqa marosimlarni qiziqish bilan tomosha qilishi va bevosita qatnashishida ko‘rish mumkin.

Surxondaryoda biror joyga mehmonga borsangiz, albatta, keksalar urug‘ingiz va dahangizni so‘ray boshlaydi. Shu sabab ko‘pchilik urug‘-qabilasini, yetti avlodini bilishga harakat qiladi. O‘zaro quda-anda munosabatlarida ham bu mezonga qattiq amal qilishadi. Urug‘i surishtiriladi, “palagi toza” ekanligiga e’tibor qaratiladi. Voha urf-odatlari orasida nikoh bilan bog‘liq qiziq an’analar mavjud. Xususan, qarindoshlar, qishloqdoshlar orasida “Qoyillashish” odati bor.

Unga ko‘ra, ikkita oila boshlig‘i farzandlari kichkinaligida quda bo‘lishga kelishib olishadi. Undan tashqari, hali chaqaloqligidayoq bolalarni unashtirib qo‘yadilar. Bunda “Beshikkerti”, “Quloqtishlar”, “Etakjirtdi”, “Belgi qildi” kabi udumlardan foydalanishgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Surxondaryo etnografizmlari, tarkibiy jihatdan jonli so‘zlashuv tili sifatida o‘zida qadimiy so‘z va iboralarni saqlab keladi. Shu sababli hudud aholisi nutqida uchraydigan ba’zi etnografizmlar adabiy tilda uchramasdan yoki boshqa nom bilan atalgan holda, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” hamda Alisher Navoiy asarlarida uchrashiga guvoh bo‘ldik. Shuningdek, mazkur so‘zlarning ayrimlari qardosh xalqlar tilida ham shu ma’noda ishlatilishi kuzatildi. Bu o‘z navbatida, hudud etnografizmlarini tarixiy-qiyosiy jihatdan alohida tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида). Филол. фан. бўйича ном. дисс. – Тошкент, 1971.

2.Багаутдинова.М.И. Этнографическая лексика Башкирского языка. – Уфа., 2002. – С. 8–19.

3.Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке (на материале андижанском группы говоров): дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.

4.Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Фил. фан. номзод. дисс. автореф. – Т., 1997. – Б. 26.

5.Кахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи. филол.фан.номзод.дисс. – Т., 2009. – Б. 35.

6.Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фолклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. Фил. фан. бўйича фалс. док. – Тошкент, 2018. – Б. 19–20.

7.Касянова Д.В. Этнографическая лексика в областных словарях русского языка. Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – М.: “Наука”, 1977. –С. 233.

8.Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С. 320. 1971.– Б. 3.

9.Омонтурдиев А. Рахмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент, 2019. – Б. 10.

10.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. 5-жилд. – Б. 62– 63.

Axadjon ATABOYEV,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

BORLIQ VA OBYEKTIV VOQELIKNING TILDA IFODALANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada borliq va obyektiv voqelik tushunchalarining tilda ifodalanish mexanizmlari lingvistik va falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tilning borliqni aks ettirishdagi roli, obyektiv voqelikning inson tafakkuri orqali konseptuallashtirilishi hamda til birliklari yordamida verbalizatsiyalanishi masalalari yoritiladi. Tadqiqotda til, tafakkur va ijtimoiy ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, lingvistik ong va diskurs doirasida voqelikning talqin etilishi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *borliq, obyektiv voqelik, til va tafakkur, lingvistik ong, konsept, kognitiv lingvistika, diskurs, ijtimoiy ong, til falsafasi, verbalizatsiya, semantika, madaniyat.*

Annotation: the article analyses the linguistic and philosophical aspects of representing being and objective reality in language. It analyzes the role of language as a means of reflecting objective reality, as well as the processes of conceptualization and verbalization of reality through human cognition. Particular attention is paid to the interrelation between language, thought, and social consciousness, along with the interpretation of reality within linguistic consciousness and discourse.

Key words: *being, objective reality, language and thought, linguistic consciousness, concept, cognitive linguistics, discourse, social consciousness, philosophy of language, verbalization, semantics, culture.*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистические и философские аспекты отражения бытия и объективной реальности в языке. Анализируется роль языка как средства репрезентации объективной действительности, а также процессы концептуализации и вербализации реальности в человеческом сознании. Особое внимание уделяется взаимосвязи языка, мышления и общественного сознания, а также интерпретации реальности в рамках лингвистического сознания и дискурса.

Ключевые слова: *бытие, объективная реальность, язык и мышление, лингвистическое сознание, концепт, когнитивная лингвистика, дискурс, общественное сознание, философия языка, вербализация, семантика, культура.*

Falsafaning asosiy tarmog‘i bo‘lgan ontologiya borliqni o‘rganish, fundamental falsafiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi. Falsafaning genezisini borliq muammosini o‘rganish orqali kuzatish mumkin. Dastlab qadimgi Hind, Xitoy va yunon falsafalari ontologiyaga e’tibor qaratib, borliqning mohiyatini ochishga intilganlar. Keyinchalik falsafa ko‘lami kengayib, epistemologiya (bilim nazariyasi), mantiq va boshqa falsafiy sohalarni qamrab oldi. Falsafiy dunyoqarash asosidagi muhim tushuncha borliq kategoriyasidir. Borliq mavjudotning o‘zini qamrab oladigan eng keng qamrovli va mavhum tushunchadir. Bor bo‘lish mavjudlik, borliq holatini anglatadi.

Hozirgi vaqtda jahon falsafasida borliq tabiati to‘g‘risida umumiy qabul qilingan nuqtayi nazar mavjud emas. Keng tarqalgan nuqtayi nazar – bu koinot, tabiat va insoniyatni qamrab oladigan ongdan mustaqil obyektiv haqiqat mavjudligini bildiruvchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Anglashiladiki, borliq mavjud bo‘lgan hamma narsani o‘z ichiga olgan haqiqatan ham mavjud, barqaror, mustaqil, obyektiv, abadiy va cheksiz substansiyadir.

Qadimgi yunon faylasufi Parmenid birinchilardan bo‘lib (miloddan avvalgi 540-470-yillar), borliqni “mavjud voqelikni bildiruvchi alohida kategoriya” sifatida fanga kiritgan. Parmenid “borliq doimiy, bir xilda yoki umuman harakatsiz mavjud bo‘lib, borliqdan tashqarida hech narsa yo‘q”, deb ta’kidlaydi.

Aflotun o‘zining falsafiy asarlari orqali borliq muammosiga katta e’tibor berib, uning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Aflotunning ta’kidlashicha, “borliq haqiqiy, o‘zgarmas va abadiy mavjud g‘oyalar sohasi”. U inson sezgilari tomonidan idrok etiladigan narsa va hodisalarga murojaat qilgan. U hissiy idrok etilgan narsalarni oddiy o‘xshashliklar, mukammal shakllar – g‘oyalarni aks ettiruvchi soyalar deb hisoblagan. Olimning fikriga ko‘ra, “hamma narsaning asosini birlamchi materiya tashkil etadi, ammo u aniq tasniflashga imkon bermaydi, chunki u tabiatan noaniqdir”.

Falsafada “borliqning izchilligi” tushunchasiga qaysi falsafiy yondashuv yoki maktabni ko‘rib chiqayotganimizga qarab turli nuqtayi nazardan qarash mumkin. Quyida ushbu konsepsiyaning bir nechta talqini keltirilgan:

1) ontologik jihat. Ontologik ma’noda borliqning uzluksizligi voqelikning mohiyati va uning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi haqidagi savollar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Faylasuflar borliqning uzluksizligini evolyutsiya yoki borliqning o‘zgarishi jarayoni,

shuningdek, borliq holatlari yoki shakllari ketma-ketligi sifatida ko‘rib chiqishadi;

2) vaqt bilan bog‘liq jihati. Vaqt kontekstida borliqning uzluksizligi mavjud bo‘lgan hamma narsa vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi va rivojlanishi kerak degan fikrni aks ettiradi. Faylasuflar vaqt, vaqtning tuzilishi va rivojlanish jarayonida qanday voqea yoki holat ketma-ketligini aniqlash mumkinligi haqidagi savollarni o‘rganishadi;

3) axloqiy jihat. Axloqiy ma’noda borliqning uzluksizligi – hayotimiz va harakatlarimizni belgilaydigan maqsad va qadriyatlar haqidagi savollarga murojaat. Faylasuflarni qanday tanlov va harakatlar ketma-ketligi ma’lum natijalarga olib kelishi va bu natijalar hayotning ma’nosini tushunishimiz bilan qanday bog‘liqligi qiziqtiradi.

Ijtimoiy hodisa hisoblanadigan til borliq va obyektiv voqelikning muhim elementi sifatida o‘ziga xos funksiyalarga egadir. Til aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilmaydi, aksincha, u odamlarni ajratib turadigan to‘siq vazifasini bajaradi. Muloqot, aslida, tajriba, fikr yoki istaklarni bir kishining ichki dunyosidan boshqasining ichki dunyosiga o‘tkazishni o‘z ichiga olmaydi. Aksincha o‘zaro tushunish va uyg‘unlik birgalikda ishtirok etish orqali o‘rnatiladi. Verbal nutqda birgalikda yashashning mavjudligi aniq ifodalangan, chunki u allaqachon mavjud bo‘lgan, ammo aniq ajratilmagan. Nutq bu birgalikdagi hayotni alohida mavjudotlarga bo‘lib yuboradi. Binobarin, haqiqat o‘zini shaxslardan ajratib turadi va tilda “haqiqat” tashuvchisi rolini bajaradi. Vaqt o‘tishi bilan til doimiy ravishda o‘z ta’sirini kengaytirmoqda, yangi hududlarni egallab olmoqda va subyektlararo tizim sifatida o‘z kuchini mustahkamlamoqda. Bunga umume’tirof etilgan tushunchalarni mazmunli va obyektiv tushunchalarga aylantirish orqali erishiladi.

Til inson mavjudligi va tashqi dunyoning ajralmas asosiy jihatidir. U muloqot va axborot uzatishning asosiy vositaci bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, fikr, his-tuyg‘u va tushunchalarni shakllantirish hamda ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Insonning ongi va tafakkuri til bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, atrofdagi dunyoni tartibga solish va talqin qilishga imkon beradi. Har bir til o‘z ma’ruzachilarining an’analari, tarixi va kelib chiqishi bilan shartlangan voqelikka alohida e’tiborni talab qiladi. Binobarin, til nafaqat obyektiv voqelikni aks ettiradi, balki uning qurilishida ham faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, til bilim va madaniy merosni avloddan avlodga o‘tkazish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U turli jamiyatlarning urf-odatlari, e’tiqodlari hamda tamoyillarini saqlaydigan hamda uzatadigan jamoaviy inson xotirasi ombori sifatida ishlaydi.

Til – bu doimo rivojlanib boradigan, inson tajribasidagi o‘zgarishlarni va voqelikni tushunishni aks ettiruvchi dinamik hodisa. Yangi tushuncha, texnologiya va hodisalarni tasvirlash uchun yangi atama va iboralar paydo bo‘lmoqda, eskirgan lug‘at esa unutilib ketmoqda. Til nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni faol shakllantiradi. E.Cepir va B.Vorf tomonidan taklif qilingan lingvistik relyativizm tilning tuzilishi uning til tashuvchilarning idrokiga ta’sir qilishini ilgari suradi. Olimlarning fikricha, “tillar o‘rtasidagi farqlar turli madaniyatlarning dunyoqarashidagi farqlarni anglatadi, bu esa tilni biz dunyoni talqin qiladigan “haqiqat prizmasi” ga aylantiradi”. Til ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Til yordamida hodisalar tasniflanadi va kuzatiladi, gender rollari hamda irqiy guruhlar kabi ijtimoiy kategoriyalar yaratiladi. Til ongli ravishda inklyuziv atamalardan foydalangan holda xurofotni kuchaytirishi yoki unga qarshi kurashishi mumkin.

Til shunchaki aloqa vositasi emas; bu haqiqatni kognitiv, ijtimoiy va siyosiy darajalarda shakllantiradigan kuchli vositadir. Ushbu ta’sirni tushunish va tildan mas’uliyat bilan foydalanish jamiyatda uyg‘unlikni saqlash hamda turli guruhlar hamda madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlash uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соссюр Ф.де. Заметки по общей лингвистике / пер. с фр.; общ. ред., вступ. ст. и коммент. Н.А. Слюсаревой. – М.: Прогресс, 2000. – 280 с. С. 171.
2. Парменид // Антология мировой философии: в 4-х т. / ред.-сост., авт. вступ. ст. В.В.Соколов. – М.: Мысль, 1969. Т. 1. Ч. 1. Философия древности и средневековья. – С. 293–296.
3. Аристотель. Сочинения в 4 т. Т.1. – М.: Мысль, 1983. 830 с. – С. 42–43.
4. Менглиев Б. ва б. 80/20 Тил. адабиёт. Таълим. Жамоавий монография. – Тошкент, 2024.161-б.10-11.
5. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993. – С. 223–247.
6. Whorf B.L. Language, thought, and reality: selected writings of Benjamin Lee Whorf / Ed. by J.B. Carroll. – Cambridge: The MIT Press, 1956. – P. 246–270.

Injayım SEYTNAZAROVA,
Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti professorı w.a., f.i.k.



T.JUMAMURATOV SHIĠARMALARI TILINDE TEŃEWLERDIŃ LINGVOPOETIKALIQ ÓZGESHELIKLERI

Annotaciya: bul maqalada T.Jumamuratov shıġarmaları tilindegi kórkem obraz jasawshı usıllardan esaplanġan teńewlerdiń kórkem poetikalıq ózgeshelikleri hám atqaratuġın xızmetleri haqqında sóz etilgen. Teńewlerdiń lingvopoetikalıq, emocional-eksperssivlik hám stillik jaqtan atqaratuġın xızmeti shayir shıġarmalarınan alınġan mısallar menen sheber sáwlelendirilip berilgen. Bul kórkem usıl arqalı shayır tereń mánige iye sózlerden paydalanġan. Shayır oqıwshını názik talġam menen oy súriwge, pikirlewge sharlaydı. Sonday-aq, kórkem sóz sheberiniń teńewler arqalı jańasha lingvopoetikalıq máni beriwshi sózlerdi dóretkeni kórsetip ótilgen.

Tayanısh sózler: *kórkem poetika, lingvopoetika, formalıq – morfologiyalıq usıl menen ańlatılıwshı teńewler, leksika-grammatikalıq, leksika-semantikalıq usıllar menen hám intonaciya arqalı ańlatılıwshı teńewler.*

Аннотация: в данной статье говорится о поэтических особенностях и роли сравнений в языке произведений Т. Жумамуратова. На примере из произведений поэта умело проиллюстрирована лингвопоэтическая, эмоционально- экспрессивная и стилистическая роль сравнений. Поэт мастерски использовал слова с глубоким смыслом , употребляя данный стилистический прием . Кроме того, показано, как поэт посредством сравнений создал новые слова, придающие лингвопоэтический смысл произведениям.

Ключевые слова: *художественная поэтика, лингвопоэтика; сравнения, выражающиеся формально- морфологическим способом; сравнения, выражающиеся интонацией, а также лексико- грамматическим, лексико- семантическим способом.*

Annotation: this article discusses the poetic features and the role of similes in the language of works of T. Jumamuratov. On the example of the poet's works, the linguistic, emotional-expressive and stylistic role of similes is skilfully illustrated. The poet skilfully used words with a deep meaning, using this stylistic technique. In addition, it is shown how the poet created new words through similes that give a linguistic-poetic meaning to the works.

Key words: *artistic poetics, linguopoetics; similes expressed in a formal and morphological way; similes expressed by intonation, as well as in a lexical-grammatical, lexical-semantic way.*

Teńewler kórkem obraz jasawshı usıl retinde kórkem shıġarma tilinde keńnen qollanıladı. Teńewlerdiń kórkem poetikalıq ózgeshelikleri hám atqaratuġın xızmeti ayrıqsha. Teńewlerdiń lingvopoetikalıq, emocional-eksperssivlik hám stillik jaqtan atqaratuġın xızmeti haqqında P.Najimov bılay dep kórsetedi: "teńew – predmet yaki qubılıstıń uqsas, ortaq belgiler negizinde bir zattı ekinshi bir zatqa salıstırıw arqalı olardıń uqsaslıq yamasa ayırmashılıq tárepin obrazlı, kórkem hám emocional-eksperssiv tásirin kúsheytip beretuġın stilistikalıq qural [1, 14].

T.Jumamuratov teńewlerden júdá sheber paydalanıw arqalı qosıq qatarlarınıń kórkemlik dárejesin jáne de arttırıwġa erisip, jańasha obraz dóretiwge háreket etedi, jeke stillik teńewlerdi payda etedi. Bunda túrli usıllardan paydalanadı. Olardıń biri *bol* feyili arqalı dóregen teńewler bolıp esaplanadı. Mısalı:

Sen haq bolsań, men haq bolġım keledi,
Túlki bolsań, men saq bolġım keledi.
Bayron bolsań qutlıqlayman ózińdi,
Men tek mázi *Berdaq bolġım keledi.* ("Sabırlılıq – jaqsılıqtıń nıshanı").

Shayır teńewlerdi dóretiwde xalıqqa tanıs, folklorlıq dóretpe qaharmanlarınıń isimlerinen paydalanadı.

Qıyalım – Góruǵlı, ıqlas – Ǵıyratım,

Góruǵlı Ǵıyratın minbege keldim (“Ashxabadta ushırasıw”).

Bunda óziniń oy-pikiri Góruǵlı batır sıyaqlı kúshke tolǵan, al shayırlıq jolındaǵı intası, ıqlasın bolsa Góruǵlınıń tulparı Ǵıyrattıń shabısınıń tezlik epkini menen barabar etip kórsetedi. Bul shayırdıń improvizatorlıq hám individual usılda dóretken kórkem teńewi bolıp esaplanadı.

Perzentli bolıw baxtı, ata-ananıń oǵan mehir-muhabbatı, qádiri, jaqsı ul-qız shayır tárepinen dóretilgen teńewler járdeminde júdá tásirli, obrazlı súwretlenedi, usı sıyaqlı joqarı poetikalıq kórkemliginiń nátiyjesinde bul qosıq qatarı aforizmge aylanǵan. Mısalı:

Ul perzentiń – *quwanıshlı toyxanań,*

Qız perzentiń – *barıp keler bay qalań.*

Jaqsı perzent – **ómirińniń qanatı,**

Qartayǵanda jasartadı qaytadan . (“Uyasınan qus ta sezim aladı”).

Qorshaǵan ortalıqtaǵı zat, qubılıs, háreketler shayır shıǵarmasında ájayıp, tákirarlanbas teńewler qatarın jasawǵa xızmet etedi. Mısalı:

Zalımlıq – bir shırpı, ádillik – daraq,

Jaqsı bolsań daraǵısań jurtıńnıń. (“Haq sóz aytsań hesh abıray túspeydi”).

Aqmaq – qılısh bolsa, sen – polat qınsań,… (“Biziń uran”).

Sen – *sham*, men – *bir gúbelek,*

Ashıǵıńdı órteme . (“Ashıǵıńdı órteme!...”).

Kórinip turǵanınday, *zalımlıq – shırpıǵa, ádillik – daraqqa, aqmaq – qılıshqa, adamnıń ózi – “sen – polat qınǵa”* teńelgen. Shayır qızdı *“sham”*ǵa, al ashıq jigitti *“gúbelek”*ke uqsatqan.

P.Najimov qaraqalpaq tilinde teńewlerdiń klassifikaciyasın, onıń ańlatılıwınıń bes túrin kórsetedi: 1)“teńewlerdiń morfologiyalıq jol menen ańlatılıwı; 2) sintaksislik jol menen ańlatılıwı; 3) morfologiya-sintaksislik jol menen ańlatılıwı; 4) leksika-grammatikalıq jol menen ańlatılıwı; 5) intonaciya arqalı ańlatılıwı” [1, 15]. T.Jumamuratov poeziyası tilindegi atap ótilgen teńew túrleri tolıǵı menen ushırasadı. Ásirese, formalıq, leksika-grammatikalıq hám leksika-semantikalıq ózgeshelikleri ayqın sezilip turadı.

I. Formalıq jaqtan shayırdıń dóretpelerinde teńewler tómendegishe berilgen:

1. -day//-dey, -tay//-tey qosımtası arqalı jasalǵan teńewler:

Sulıw kórdim *lala gúldey* balqıǵan,

Sın-sımbatın qaplaǵanday altınnan

Húr peridey ne gózzallar shıqpaǵan,

Shın xoshirey qaraqalpaq xalqımnan. (“Sabırlılıq – jaqsılıqtıń nıshanı”).

Mısalda qaraqalpaq qızlarınıń gózzalıǵın, qáddi-qáwmetin gúlge, konkret zatlıq uǵımǵa hám adamnıń qıyalındaǵı, abstrakt uǵımdaǵı sulıw qızlar húr, peri qızlarınıń kelbetine teńles ekenligin jarqın obrazlıq boyawlar menen táriyipleydi. Sonday-aq:

Jılqıları kisnesedi *tulparday,*

Hárbir sıyırınıń jelini *jarday,*

Qoy-eshkiniń dawısları *duwtarday,*

Hár namaǵa salıp atır kolxozda.

Bul qatarlarda jılqını ushqır tulparǵa, al sıyırlarınıń jelinin jarǵa – “birden tik shıqqan jer, dáryanıń, teńizdiń, tik jaǵası, jar taslap turǵan jeri” [2, 324] sıyaqlı dep, qoy-eshkilerdiń dawısların duwtar sestine teńep, giperbolalıq teńew qatarı poetikalıq jaǵımlı emociyanı payda etedi.

2. *Misli, yańlı, kibi sıyaqlı* hám t.b. tirkewishler arqalı jasalǵan teńewler:

Qızlar minip bógenekli arbaǵa,

Gúmis yańlı sıńqıldasıp kúlisken. (“Atlar”).

Al bul qatarda qızlardıń shadlı kúlkisin *gúmis* hasıl tasınıń bir-birine tiyip shıǵarǵan sestine teńep, individual dóretiwshilik penen qatnas jasawı arqalı ótkir poetikalıq qatarlardı dóretken.

3. -ǵanday//-gendey, -qanday//-kendey qosımtalı hal feyilden jasalǵan teńewler:

Tal-tal keler búlbúllerdiń dawısı,

Jırlaǵanday miynetkeshtiń jeńisin.

(“Teńiz jaǵasında”).

Gúmistey aq shabaq, súwen hám marqa,

Gúwenlep qoyǵanday oralıp torǵa.

(“Balıqshılar”).

Mısalda búlbúl dawısı miynet adamlarınıń tabısların aytısıp atırǵanday bolıp túyiliwin súwretlewde *janlandırıw* arqalı teńizden tutılǵan balıq túrleriniń asa kóp, esap-sansız ekenligin olardı bir qoraǵa baylap, gúwenlep qoyǵan qoy-eshkige uqsatıwı giperbolalıq teńew menen

berilip, usı uqsas kórinislerdi teńep súwretlewi shayırdıń názik poetikalıq talǵamın kórsetedi.

4. “Usaw” kómekshi feyili arqalı jasalǵan teńewler.

Mallarǵa óris, jelpilder kógis,
Sulıwdıńjipekshashınausap. (“Ámiwdárya”).
Dúnyada kim máńgilikke jasaydı,
Ómir seni shalqıtadı, tusaydı.
Birew kelip, birew ketip atırǵan,
Xojeliniń bazarına usaydı.
(“Ómir seni shalqıtadı, tusaydı”).

Qosıq qatarında eki teńew berilgen: birinshisi, mal otı, jaylawdaǵı ósip turǵan giya-shópler, maysalar – sulıw qızdıń jelbirep turǵan shashına uqsaslıǵı, ekinshi mısalda ómirdi birewler kirip (jańa ómirge kelip, tuwılıp), birewler óz sawdasın islep dárwazasınan shıǵıp ketip atırǵan (bul dúnyanı tárk etip, ómirden kóz jumıp ketip atırǵan sıyaqlı háreket) Xojeli xalqınıń bazarına uqsatadı.

Bunday teńewler haqqında G.Jumanazarova da óz izertlewinde: “Teńew – milliy oylawdıń logikalıq ámeliyatlarınan biri bolıp, eki nárse – qubılıs hám túsiniktiń qanday da tárepinen sáykes keliwine tiykarlanǵan kórkemlew quralı” [3, 24] -, dep kórsetedi. Mısalda da súwretlenip atırǵan kórinis penen salıstırılıp atırǵan ekinshi uǵımnıń óz ara sáykesligi kózge taslanadı.

II. Teńewler leksika-grammatikalıq usıl menen tómendegishe jasalǵan:

1. Konkret atlıqlar óz ara teńelgen:
Jaman sınshı nağız qıysıq aynaday,
Sulıwlıqtı jasıradı qaynaqay.
(“Jaqsınıń úyinde toyday tamasha”).

Bul qatarlarda “jaman qásiyettegi sınshı adam” menen “qıysıq ayna” qatar qoyılǵan.

2. Abstrakt atlıq anıq atlıqqa teńelgen;
Qartlıq – ataw, aynalası jar eken, -
Dep, naqıldı bilip aytqan qarekeń.
Jańa túsken *kelinshektey* sınawlı,
Sóyler sózi, barar jeri tar eken.
(“Quyash seni balalıqtan úlkeyter”).

Bul qatarlarda abstrakt atlıq “qartlıq” adam ómiriniń sońǵı pasılı eki nársege teńelip kórsetilgen, birinshi qatarda intonaciya arqalı aynalası tik jarlıqtan ibarat atawǵa (yaǵnıy qartayıp haldan tayǵan adam óz ayaǵı menen júrip hesh jaqqa shıǵa almawı, ján-jaǵı suw, ortada qalıp qoyǵan ataw sıyaqlı), ekinshiden, sınap-mineletuǵın, bárha basqalar názerinde bolatuǵın “kelinshek” obrazına teńelgen.

3. Betlik atlıq jáne bir betlik atlıq penen teńelgen:

Úydiń eser qonağınday,
Biyzar etken xalıqtı.
“*Tap Táshimniń talabınday”*,
Degen naqıl qalıptı. (“Táshimniń talabı”).

Bul jerde betlik atlıq “qay jerge barsa da, ne talaptı islese de isi kelispegen Táshim” hám onıń talabı, úyge sırttan kelip eserlik minezin kórsetetuǵın qonaqqa teńeledi, yaǵnıy teńew obrazı Táshim hám eser qonaq.

III. T.Jumamuratov shıǵarmalarında teńewler leksika-semantikalıq jaqtan tómendegishe jasalǵan:

1. Satiralıq mazmundaǵı teńewler;
Aysha menen Orazbay,
Ata dushpan arazday,
Kúnde qıyqıw úyinde,
Dápinisken qorazday .
(“Sherniyazdıń duwası”).

Bul teńewler arqalı oqıwshınıń kóz aldına bereketsiz hám urıs jánjelli úy keledi. Usı mánisti ashıp beriw ushın salıstırılǵan eki predmetke de ortaq birlik (1. arazlı ata dushpan adamday; 2. urısatuǵın, tóbelesetuǵın qorazlardıń pát alıp bir-birine dápinip juwırısıw háreketindey), yaǵnıy teńew tiykarı – Aysha menen Orazbaydıń shańarağı, olardıń óz ara qarım-qatnası. Usı waqıyanı satira arqalı beriwde haqıyqıy mazmundı ashıp beretuǵın teńewlerden poetikalıq maqsette paydalanǵan.

2. Háreketlik mánidegi birlikler óz ara teńelgen:
Kóp jaslardıń *muhabbatı* turaqsız,
Tez sónedi *qızǵınınday qańbaqtıń.*
(“Gáwhar júrek”).

Ayırım jaslardıń muhabbat babında turaqsız bolıw háreketin oǵada isenimli túrde, obrazlılıq penen “qanbaq, salmaqsız hám samal qayda ısırsa sol jaqqa háreketlenetuǵın usı ósimliktiń otın sıpatında da paydasınıń az ekenligine, qızǵınınıń tez sóniwine teńelgen.

3. Sapalıq mánidegi birlikler óz ara teńelgen:
Temirge polattay shıdadım,
Shadlandım, quwandım, jıladım.
(“Órletti ómirdiń epkini”).

Adamnıń sabır-tóziminiń (lirikalıq qaharman – shayırdıń óziniń) “temir” dárejesindegi qattılıǵı, ápiwayı temir emes, eń bekkem temir “polat”qa teńelgen.

Shayırdıń derlik barlıq qosıqları óziniń tuwılǵan jeri, ondaǵı xalıqtıń jasaw turmısı menen tıǵız baylanıslı dórelgen.

Rus ilimpazı X.Draysovi S.Esenin hám V.Mayakovskiylerdiń poeziyasındaǵı teńewlerdiń qollanıwın izertley kelip, tómendegi tematikalıq toparlarǵa baylanıslı teńewler qollanılǵanın anıqlaydı: a) adam – salıstırıw predmeti; v) tábiyat kórinisleri, ósimlikler hám haywanatlar dúnyası; b) artefakt, yaǵnıy insannıń iskerligi nátiyjesinde payda bolǵan; g) abstrakt túsinikler. Avtor bul eki shayırdıń poeziyasında qollanılǵan teńewlerdi salıstırıp izertlew arqalı S.Esenin poeziyasında tábiyat kórinisleri, ósimlikler hám haywanatlar dúnyasına baylanıslı teńewler kóp qollanılsa, al V.Mayakovskiy poeziyasında antropologiyalıq, yaǵnıy adamǵa baylanıslı teńewler jiyi qollanılǵanın anıqlaydı[4, 8].

Bunday teńewlerdi T.Jumamuratov shıǵarmalarında da kóplep ushıratamız.

Motor birden zuwlap ketti *quyınday,*
Hárekette Periyzanıń bilegi,
Tolqın shapshıp qarpıp alar *jayınday,*
Men qorıqsam, ol shaqaq atıp kúledi!... (“Teńiz jaǵasında”).

Bul mısal artefakt, yaǵnıy adam iskerligi nátiyjesinde payda bolǵan teńew bolıp, motor háreketi tezligi – quyın tezligine, al teńiz tolqınlarınıń úlkenligin jayınǵa[5, 26] teńep kórsetilip, giperbolalıq teńewdi payda etken.

Arıslanday ayqastı,
Ayıwlarday shayqastı,
Bir-birine ot bastı,
Jılan bolıp uw shashtı,
Asawlarday tuwlastı,
Saǵallarday shuwlastı,
Bir tınbadı udayı,
Ǵarǵaǵanday qudayı,
Heshkim aman qalmadı,
Barlıǵın jer jalmad. (“Adamzat”)

Poeziyalıq qatarlarda teńew predmetleri – haywanatlar: arıslan, ayıw, jılan, saw at, saǵal bolıp, oǵan abstrakt túsinikler teńelgen.

T.Jumamuratov shıǵarmalarında erkin, dástúriy teńewlerge salıstırǵanda original, biytákirar teńewler kóbirek ushırasıp, ol shayırdıń tereń talǵam hám filosofiyalıq oy iyesi ekenligin dálilleydi. Shıǵarma tilinde paydalanılǵan teńew predmeti hám teńew obrazındaǵı teń salmaqlılıq, úylesimlik shayırdıń óz pikirlerin logikalıq jaqtan kórkemlep beriwinde baslı xızmet atqarǵan.

Juwmaqlap aytqanda, shayır T.Jumamuratov óz qosıqlarında teńewlerden sheber paydalanıp shıǵarma mazmunınıń kórkemlik dárejesin arttırǵan. Teńewlerdiń leksika-grammatikalıq hám leksika-semantikalıq túrlerin sheber paydalanadı, ásirese, individual teńewleri basqa shayırlardıń dóretpelerinen onıń qosıqların ajıratıp turadı. Dóretiwshi sózdiń máni hám forması boyınsha túrleri, sheklengen leksikalıq birlikler, súwretlew quralları, qaraqalpaq milliy ádebiy tiliniń bay leksikonınan til birliklerin tańlap qollanılıwı menen lirikalıq qaharmannıń ishki ruwxıyatın ashıp, poetikalıq jaqtan kórkem bezew bere alǵan.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Нажимов П.А. Қарақалпақ тилинде теңеўлер. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2014. 14–15- бетлер.
2. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 3-т. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2023. 324-бет.
3. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. док. … дис. автореф. – Тошкент, 2017. 24-бет.
4. Драйсови Х.К. Сравнение в поэтическом идиостиле (на материале поэзии С.Есенина и В.Маяковкого): Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Воронеж, 2014. – С. 8.
5. Qayıpnazarova M. Qaraqalpaq tili arqa dialekti kásiplik leksikasınıń lingvogeografiyalıq analizi. – Nókis: Ilimpaz, 2023. 26-bet.

Raygul OPAEVA,
(Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz,
Faculty of Philology, Department of Karakalpak Language,
Senior Lecturer, f.f.f.d (PhD)

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНА “МОШЕННИЧЕСТВО”

Аннотация: в статье рассматривается лингвистический и этимологический анализ термина “Мошенничество”, актуального в настоящее время в деятельности органов следствия и судебной системы, а также его правовое значение.

Ключевые слова: *мошенничество, право, чужое имущество, незаконное проникновение, злоупотребление доверием.*

Annotation: the article discusses the linguistic and etymological analysis of the term “Fraud”, which is currently relevant in society in investigative bodies and the judicial system, as well as its legal meaning.

Key words: *fraud, swindling, law, property of another, breach of trust, abuse of trust.*

Annotatsiya: maqolada tergov organlari va sud-huquq tizimida bugungi kunda jamiyatda dolzarb bo‘lib kelayotgan “Firibgarlik” moddasi, ya’ni “Firibgarlik” terminining lingvistik va etimologik tahlillari, shuningdek, yuridik ma’nosi haqida aytiladi.

Kalit so‘zlar: *firibgarlik, moshennichestvo, huquq, o‘zganing mulki, ishonchiga kirish, ishonchni suiiste’mol qilish.*

Введение

Термин используется в определенной сфере, в речи представителей этой сферы. В языке права не допускается использование аналогий, словосочетаний, тропов с различными выразительными значениями. Потому что в языке права ничто не уподобляется и не сравнивается с другим. Язык уголовного права – это язык законодательства и права, язык, на котором выражается официальный стиль речи правовой системы, прокуратуры и судебной системы. Если дать четкое и краткое определение исследуемого в статье термина “мошенничество”, то в русском языке существует его синоним – обман. Хотя эти два слова близки по значению, они означают разные ситуации. Например, обман – это процесс, мошенничество – это преступление. Существуют определенные требования и критерии для выражения любого юридического понятия. При принятии терминов в первую очередь обращается внимание на лексическое значение и грамматическую сторону слова. Термины, используемые в официальных документах по уголовному праву, должны полностью соответствовать функции, то есть значению, статьи Уголовного кодекса. В связи с этим абсолютно невозможно допускать разночтений в написании терминов. Крайне важно учитывать эти аспекты при регламентации юридических терминов. Научная новизна работы заключается в лингвистическом и этимологическом анализе названия статьи “Мошенничество” Уголовного кодекса Республики Узбекистан, то есть слова “мошенничество”.

Литературный анализ

По мнению В.М. Лейчика, термины – это элементы терминосистемы, отражающие теорию, являющиеся объектами языка, направленными на достижение определенной цели в определенной области [1, с. 12]. М.Х. Рустамбоевым в комментарии к Уголовному кодексу Республики Узбекистан дается полное правовое разъяснение статьи “мошенничество”.

Анализ и результаты

Термин “Мошенничество” в Уголовном кодексе Республики Узбекистан, который в настоящее время широко используется, является одной из наиболее часто используемых статей в официальных документах, в том числе прокуратуры, органов внутренних дел и судебной системы. Если обратиться к лексическому значению термина “Мошенничество”, то он означает получение права на чужое имущество путем обмана или злоупотребления доверием. В мошенничестве мошенничество – это деяние, заключающееся в предоставлении виновным заведомо ложной информации, не соответствующей действительности.

Под ним понимаются умышленные действия, направленные на сокрытие истинных фактов, которые должны были быть известны собственнику или иному владельцу имущества, или на введение таких лиц в заблуждение. [2, 307-б]

Если проанализировать слово “мошенник” с лингвистической точки зрения, то происхождение этого термина уходит в очень глубокую древность. Например, в русском переводе это слово употребляется как “мошенничество”. В древности слово “мошенник” означало “мошна” в древнеславянских языках, то есть кошелек или мешок для денег. [3] Изначально “мошенников” называли “карманниками”, “ворами-карманниками”, и со временем значение этого слова расширилось и приобрело новое значение, а именно обман и хитрость для достижения собственных интересов. Научные идеи в лингвистике нашли подтверждение расширению значения этого слова. Известно, что узбекское слово “фирибгар” имеет то же значение, что и русское слово “мошенник”, и влечет за собой ту же уголовную ответственность в Уголовном кодексе. В каракалпакском языке это анализируемое слово или термин переводится как “алдаўықшы”, а в официальных документах, ведущихся на каракалпакском языке, например, в судебной системе, прокуратуре, то есть в следственных органах, термин “мошенничество” переводится артиклем “алдаўықшы”. Действительно, прежде чем использовать юридические термины в документах, а точнее, прежде чем придать соответствующим словам статус терминов, очень важно полностью объяснить значение этого термина, полностью или частично соответствует ли он выполняемой функции с точки зрения значения, и мы анализируем эти аспекты лингвистически. Например, слово “мошенник” в русском языке является термином.

И этот термин – статья Уголовного кодекса Российской Федерации. Но если обратить внимание на суть этого термина, то он означает человека, занимающегося мошенничеством. Если мы понимаем это слово, то есть слово “мошенник”, как мошенника, то почему бы нам не назвать его “мошенником”? Синонимами слова “мошенник” являются такие слова, как аферист, жулик, лжец, шарлатан и мошенница. Однако само слово “мошенник” не является термином, а слово “мошенник” – термином. Это слово переводится на каракалпакский язык как “мошенник”. Слово “мошенник” означает человека, занимающегося мошенничеством. Статья 168 Уголовного кодекса “Мошенничество” в юридических документах на каракалпакском языке переводится как “Мошенничество” и в настоящее время используется в юридических документах именно так. В каракалпакском языке существует ряд синонимов этого термина. Например, жалатай, өтирикши, суўатақ, суўқуйды и т. д. Синонимы, приведенные в примере, активно используются в каракалпакском языке в разговорном стиле. Однако в официальном стиле существует термин “алдаўықшы”. Термин “алдаўықшы” происходит от слова алдаў. Слово алдаўықшы – это слово, которое активно используется как простое слово. На самом деле, в каракалпакском языке есть слово “жалатай”, которое имеет несколько более сильное экспрессивное значение по сравнению со словом “алдаўықшы”. Если проанализировать слово жалатай с лингвистической точки зрения, оно означает крайнего лжеца и человека, который занимается мошенничеством. Потому что слово “жалатай” – это слово с лексическим значением, которое еще хуже, чем “алдаўықшы” в народе. Однако в официальных документах термин “мошенничество” официально принят и используется. Наш глубокий анализ каждого термина позволит нам корректно писать и использовать юридические термины, а также систематизировать их.

Заключение

Правильный перевод терминов и текстов, связанных с уголовным правом, является одной из наиболее актуальных проблем современности. Единообразное написание терминов, практически постоянно встречающихся в прокуратуре и судебной системе, устранение разночтений в официальных документах имеет большое значение. Ведь официальные документы юридического содержания отличаются от документов других направлений точностью и конкретностью, а также тем, что они написаны на основе ряда фактов и доказательств.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Лейчик, В.М. Терминология: предмет, методы, структура / В.М. Лейчик. – М.: Либроком, 2009. – 256 с.
2. Рустамбоев М.Х. КОММЕНТАРИИ К УГОЛОВНОМУ КОДЕКСУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Ташкент: “Адолат”, 2016.
3. Этимологический словарь русского языка, А. Ситникова. 2005

Shahnoza YUNUSOVA,
Doctor of Philosophy (PhD)
Associate Professor
Tashkent Institute of Management and Economics

STATISTICAL DESCRIPTION OF THE SYNTACTIC STRUCTURE OF ADVERTISING TEXTS

Annotation: the article is devoted to studying the syntactic features of the advertising text, which reflects the active processes in the modern Uzbek language system. The paper analyzes external, internet, and TV advertising texts.

Key words: *advertising text, grammatical, lexical units, stylistic means, syntactic construction, simple sentence, compound sentence*

Аннотация: статья посвящена изучению синтаксических особенностей рекламного текста, отражающего активные процессы в системе современного узбекского языка. В статье анализируются тексты внешней, интернет- и телевизионной рекламы.

Ключевые слова: *рекламный текст, грамматика, лексические единицы, стилистические средства, синтаксическая конструкция, простое предложение, сложносочиненное предложение.*

Annotatsiya: ushbu maqola hozirgi zamon o‘zbek tili tizimida faol jarayonlarni aks ettiruvchi reklama matnining sintaktik xususiyatlariga bag‘ishlanadi. Tashqi, internet, TV reklama matnlari tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *reklama matni, grammatik, leksik birliklar, stilistik vositalar, sintaktik konstruksiya, sodda gap, qo‘shma gap.*

Currently, advertising has penetrated almost all areas of our lives. Despite the fact that the concept of advertising plays an important role in society and is widely used in everyday life, it is considered as one of the controversial topics in modern scientific literature. In addition, the concept of advertising is analyzed from different points of view, and each approach is diverse due to its diversity.

If the criterion of historical chronology is used, then it is shown that this is one of the forms of communication, as the first part of advertising. It is initially aimed at forming interpersonal relations between participants in market relations in the process of selling products. Ancient traders formed these connections literally with the spoken word. Outlets were billed as high-profile and repeat reviews of sellers. Therefore, it is no coincidence that the word «advertising» comes from the Latin word «reclamo», that is, «bayrkok», «cyrmak», «buymak». In this context, we can agree that the etymology of the word «Advertising» is related to the fact that the main function of etymology is information (information transmission) on oral social data channels, and the advertising board is carried out by the product owner, aimed at certain purposes, focused on a certain circle of people (target audience). This approach to understanding advertising is supported by many other experts. For example, the American Marketing Association (AMA) describes this as follows: «Advertising is any paid form of providing and promoting products, ideas or services without an identity on behalf of a known sponsor».

English advertising specialist F. Defkins refers to the description of the British Institute of Advertising Practice: «Advertising is the most reliable and affordable way to inform future consumers about a specific product or service». As you can see, he also considers advertising a form of communication.

Advertising is a modern way of advertising goods and services. Currently, advertising is successfully developing and improving.

Suggestions of the advertising text are determined depending on the scope of its use. This factor has a particular impact on the type of print advertising. To achieve its goals, advertising text is forced to make the most of language tools. In a sense, the advertising message is a kind of concentration of language means: minimal words are used and maximum information is provided.

The pragmatic direction of advertising text requires the choice of grammatical, lexical units, stylistic tools, special syntax, printed materials and elements of various sign systems.

The basic unit of syntax is a sentence. The main tool of formation, explanation and expression of opinion is a syntactic unit formed on the basis of the laws and rules of a certain language. The main

functional feature of speech is communicativity, that is the task of expression and explanation. Language is the most important mean of expressing opinion among people, and therefore it is the main tool that creates this function of language. Neither word nor phrase can perform this task. Their task is to name things and events, signs, actions, that is, a nominative problem.

The creation of text advertising at the syntactic level is aimed at attracting the attention of the consumer and maintaining his interest. In addition, for the successful realization of the main advertising goal, that is, the sale of goods, there are certain models for organizing information in the advertising texts, and for its successful implementation, topics in the advertising text play an important role.


200 different texts of outdoor advertising, Internet, TV advertising were collected and analyzed in the Republic of Uzbekistan.

Simple sentences with two basic parts can be called a unique source of expression and semantic completeness of speech, since they have complete information on both the topic and the movement button. Such sentences have a special meaning, and their understanding always has one meaning.

In the same sentences, predicativity is expressed by one head and denotes an object (name) or movement (person specific, person indefinite, mismanagement) and thereby focuses on them. In these syntactic units there is always a text under the text, a hidden meaning, thanks to which these units will have the power of psychological influence on a person.

Unlike simple words, advertising texts use little. This is laconism of speech in Uzbek («Greek laconismos - brevity - brevity and clarity in the presentation of opinion"[1])is validated basing on the same comcept. For example, *Buy 100 m3 of concrete and get a three-hour free automotive concrete pump service! Drink Fanta, rejoice!* advertising texts are examples of joint advertising which is rare in Uzbek. As you know, non-participation of subject in sentence in Uzbek language is normal. This is because morphological means (personality forms) indicating the noun have the ability to exist in predicate. In the above advertising texts, the available predicates (*buy, own, drink, pay*) also allowed the subject (in all cases words should have acted as subject) and thereby shorten the text. Only 20 percent of the volume of selected advertising texts are joint conversations, because 1) the cost of advertising in all periods and economic requirements require this; 2) during the development of social networks, the attention of users can be explained by a large number of attracting tools (joint conversations require long attention). It should be noted that most of the texts of advertising in the format of a joint conversation are complex joint statements (composed of three or more simple sentences). *Get cards, shop, and collect bonuses in a single account! Korzinka.uz* Advertising texts of this nature testify to our opinion.

The ratio of simple and compound sentences in ad texts can be seen in the following chart:



Compound sentences play a special stylistic role in advertising texts and serve to increase their effectiveness and emotional scope. In advertising texts, coherent fragments perform an aesthetic function in addition to a spiritual function, they are a vivid example of a logical presentation of the material and speech expression.»The same formation, the same answer to the same question, and the speaking with a counting tone» are considered important emotional tools in attracting attention in compound sentences. For example, *Rengalin - for the treatment of dry and wet cough! As we know, "Estet" has doors suitable for any taste and design.* The predicative parts in the advertising texts (*dry and wet, taste and design*) also enriched the content of the text (which types of cough are beneficial, what the doors are suitable for). It has also increased advertising effectiveness (the support of the adopted word for pragmatic purposes). 17 % of these sentences comprises compound parts. Most of the classified advertising materials are advertisements for the advertised goods (services) or their verification requirements (for example, medical advertisements). Compound constructions have a large semantic capacity and provide logical clarity when expressing

1 https://uz.wikipedia.org/wiki/Lakonizm

an idea. It should be noted that the enumeration of cohesive clauses without a conjunction emphasizes the dynamism and tension of the situation, and multiple conjunctions help to create a smooth, melodious tone, thus making the enumeration more extensive and general. It is no coincidence that most of the parts of complex sentences are in the form of organized clauses (For example, advertisements texts like *Play, dance, have fun with ORIO! Always play!*).

The main task of the advertising text is to attract attention to a certain product, product, object or event through a relatively short message. The brevity and meaningfulness of noun phrases are suitable for this task, which leads to their frequent use in advertising texts. Such texts using noun phrases are found in contextual advertising. These advertising texts, despite their shortness, are very bright and memorable due to the placement of the product name in a separate sentence and unconventional graphic design.

In terms of the degree of use in advertising language, possessive sentences take the second place among one-part sentences after noun phrases. Non-possessive expressions are common in advertising language, which is constantly enriched with the facts of everyday language. The use of non-possessive constructions makes it possible to describe situations characterized by passivity, to give an action a certain lightness and, if necessary, to highlight the action itself or the situation without referring to any person.

Most syntactic constructions have unlimited figurative expression possibilities, which makes it possible to use them in creating effective advertising texts. For example, noun phrases are essentially created for description: by naming objects, decorating them with descriptions, advertisers describe everyday life, conditions, and evaluate the world around them. In advertising texts, the name of the advertised thing (service) is given as a noun phrase. Adverb clauses are usually required to be interpreted by subsequent clauses. According to its communicative function, the noun phrase indicates the existence of the named object or event in the sentence. Adverbs are used to draw attention before this next comment. Attention is the most important thing for advertising texts. After all, «such statements indicate the existence of an object or event at the present moment, confirm the fact of this existence». Advertising texts using adverbial sentences (the following sentences are meant) can be in the form of a compound sentence (*Teze'lon.uz. Find it quickly, sell it quickly*) or in the form of a simple sentence (*Magne B6. Don't be too nervous*). Verbal phrases make up 35% of the selected advertisements.

Speaking about the types of statements in advertising texts, we must not forget that different types of words, different syntactic constructions perform different stylistic functions in speech. In this sense, we can say that each syntactic tool in the analyzed advertising texts has its own task in realizing the advertising goal.

REFERENCES

1. Панкратов Ф. Г., Баженов Ю. К., Шахурин В. Г. Основы рекламы: учебник/ 11-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2008. с. 98]

2. Ромат, Е.В. Реклама – СПб.: Питер, 2008. С. 45..

3. Маҳмудов Н., Нурмонов А.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис) – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 22-б.

4. Mengliyev B.R., Xoliyorov O'., Abdurahmonova N., O'zbek tilidan universal qo'llanma, – Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr. 142-b.

5. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи. 1987. 135-б.

6. Ne'matov H. va b. O'zbek tili struktural sintaksisi. –T.: Universitet, 2000.

7. Mengliyev B. O'zbek tilining struktur sintaksisi. – Qarshi, 2003.

8.Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning shakl-vazifaviy (formal-funksional) talqini. – T., 1993.

9. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1997-yil

10. Abduraxmonov H.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2000.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Mohigul FOZILOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD

YOZUVCHINING BADIIY ASARDA TABIAT TASVIRIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya:mazkur maqolada adabiyot darsliklaridagi asarlarda yozuvchining tabiat tasviridan foydalanish mahorati bayon qilinadi.Yozuvchi mahorati adabiyotshunoslikda umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilgan, o‘z individual bilim va tajribasi, iqtidorini ishga solgan holda badiiy asar yaratish komponentlari tahlil qilinadi.Asarlarda tabiat tasvirining badiiy ifoda vositasi sifatida tutgan o‘rni va uning har bir janr doirasida namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xos jihatlari aks ettiriladi. Shuningdek, tabiat manzaralarining obraz yaratishdagi roli hamda ular orqali muallifning dunyoqarashi va badiiy niyatini ifodalash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy asar komponentlari, tabiat tasviri, mahorat, ijodkorlik va tasavvur, personaj ruhiyati, parallelizm, tasvir vositalari*

Annotation:this article describes the skill of the writer in using nature descriptions in works from literature textbooks. The skill of the writer is analyzed as components of creating a work of art while observing generally accepted rules in literary studies, drawing on one’s own individual knowledge, experience, and talent. The place of nature description as a means of artistic expression in the works and its unique features manifested within each genre are reflected. Additionally, the role of nature landscapes in creating images and the ways of expressing the author’s worldview and artistic intention through them are examined.

Key words: *components of a work of art, nature description, skill, creativity and imagination, character psyche, parallelizm, descriptive means*

Аннотация:в данной статье описывается мастерство писателя в использовании описаний природы в произведениях из учебников литературы. Мастерство писателя анализируется как компоненты создания художественного произведения при соблюдении общепринятых правил в литературоведении, опираясь на свой индивидуальный багаж знаний, опыта и таланта. В произведениях отражается место описания природы как средства художественного выражения и его уникальные особенности, проявляющиеся в рамках каждого жанра. Кроме того, рассматривается роль пейзажей природы в создании образов, а также способы выражения мировоззрения автора и его художественного замысла через них.

Ключевые слова: *компоненты художественного произведения, описание природы, мастерство, творчество и воображение, психика персонажа, параллелизм, средства описания*

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.O‘quvchilarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishlarini, o‘qish savodxonlgini, adabiy bilim saviyasini oshirish o‘z-o‘zidan mumkin bo‘lavermaydi: ular kitobning qiziqarli, o‘qimishli bo‘lishini istaydilar, shuning uchun tanlayotgan asarini varaqlab, ayrim o‘rinlarini (dastlabki gaplarini) o‘qib ko‘radilar, yoqsa, o‘qish uchun oladilar, yoqmasa, javonda o‘rniga qo‘yib qo‘yadi.

Yozuvchining mahorat bilan yozgan badiiy asari dastlabki sahifalaridanoq kitobxonni qiziqtira oladi. O‘quvchi hayotni va odamlar orasidagi munosabatlarni kengroq va chuqurroq bilish istagi bilan o‘qishga tutinadi. Asar shirali bayoni (ohangdorligi), yoqimli tasvirlari, tez-tez almashinib turadigan hayotiy voqealari bilan uni o‘ziga rom etadi.Adabiyot darslarida yozuvchining kitobxonga badiiy asar orqali estetik ulashish sirlari bilan tanishadilar, mutolaa savodxonligini egallaydilar. Badiiy asar komponentlari mahorat bilan yuzaga keltirilgan asar yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Ayniqsa, tabiat tasviridan foydalanish mahorati

kitobxonni asardan shunday o‘rinlarni tashlab ketish kabi illatdan xalos etadi.

Ta’limning sifati, samarasi va natijasi nimaga bog‘liq degan savolga, odatda, biz pedagog qo‘llayotgan ish usullarining zamonaviy talablarga javob berishi, u axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishi, o‘z fanini chuqur bilishi, keng qamrovli bilimga ega bo‘lishi, bir nechta xorijiy tilni o‘zlashtirgan bo‘lishi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashi degan asoslarni keltiramiz. To‘g‘ri, bularni inkor etmaymiz. Lekin adabiyot o‘quv fani uchun faqat shulargina sifat va samaraning mezoni bo‘la olmaydi, albatta. O‘qituvchi hayoti va ijodi, ijod sirlari, mahoratini o‘rganish dasturga kiritilgan adib va uning asarlari bilan tanishgan, o‘ziga xos ijod sirlaridan voqif bo‘lgan darajada kasbiy tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi kerak. Bugina emas, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan havasi, munosabatini ham nazarda tutishi lozim. Ayni shu masala bugungi kun muammolarini hisobga olishga undaydi.

Y.Solijonov bugungi yoshlarning badiiy asarni idrok etishi haqida gapirib, N.Karimovning kuyinib aytgan quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Bugungi odamzodning dimog‘i pul hidi bilan to‘lgan, ko‘zlari go‘zallikning kamalak nurlarini ko‘rishga ojiz”[1]. Yoshlarning badiiy asarlarni biror manfaat bilan emas, balki estetik zavq olish, hayotni, odamlarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish niyatini tarbiyalash uchun maktab ta’limi davridayoq badiiy asar mutolaasiga qiziqish, ishtiyoq uyg‘otish, asarlar go‘zalligini tuyish zavqidan bahramand etish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asarni o‘qishga kirishgan kitobxon uni to‘laqonli estetik idrok etish uchun adabiy saboqlar yordamida yozuvchi mahorat bilan qo‘llagan tasvir vositalarini, xususan, tabiat tasvirini, uning asarda bajargan vazifalarini bilishi va to‘g‘ri tushunishi katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, adabiyot o‘qituvchisi o‘quv fanini o‘qitish metodikasida tavsiya etilayotgan yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirish asosida badiiy asar g‘oyalarini tushunishda o‘quvchilarga to‘g‘ri maslahat bera oladigan darajada tahlil layoqatini egallashi lozim. Zero, har qanday badiiy matnda ishlatilgan tasvir vositalari, jumladan, tabiat tasviri mohiyatiga kira olishi, bu borada yozuvchi mahoratini aniqlay bilishi kerak.

Izohli lug‘atda mahorat so‘zi shunday tushuntirilgan: “Mahorat [… – mohirlik, ustalik, epchillik. Biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at. *Ijodiy mahorat. Yozuvchilik mahorati. Mahorat orttirmoq. Mahorat ko‘rsatmoq. Mahoratga erishmoq. Uning asosiy kasbi duradgorlik bo‘lib, bu hunarda mahorati katta edi. S. Ayniy, Esdaliklar. Ustoz bilan shogird mahoratda tenglashib, gohi shogird qo‘li ustunlik qila boshladi. O‘zbekiston qo‘riqlari»*[2].

Internetda keltirilayotgan izohlarga ko‘ra, badiiy asarda tabiatni tasvirlash – bu san’atkor yoki yozuvchining badiiy asarda atrof olamning go‘zalligi va inson hayoti bilan uzviyligini (garmoniyasini) kitobxonga yetkaza bilish malakasi, qiziqarli va sifatli matnlar yaratish imkonini beruvchi ko‘nikmalar yig‘indisi, yozuvchilik iste’dodi, ilhomi, kuzatuvchanligi, xayoloti, hayotni bilishi, mehnati, o‘z taassurotlarini so‘z bilan ifodalash qobiliyatidir. Shu maqsadda mavjud imkoniyatlardan foydalanib yorqin timsol (obraz) yaratish ilinjida izlanadi, mehnat qiladi, til boyligidan foydalanishdagi aniqlikni ta’minlaydi. Mahorat shunchaki tabiatdan nusxa ko‘chirish bo‘lmay, balki odamning kayfiyatini ilg‘ay bilish va yetkaza olish, tabiatning muhitga va odamga emotsional ta’sirini yuqtirish layoqati hisoblanadi.Boshqacha aytganda, mahorat deganda atrof-muhitning so‘z yordamida yorqin obrazini aniq va ta’sirchan tilda bayon qilish, yarata olish qobiliyati anglanadi.

Yozuvchining mahorati – bu qiziqarli va sifatli matnlar yaratish imkonini beruvchi ko‘nikmalar yig‘indisidir. Binobarin, u tilni mukammal egallash, keng ijodiy xayolot (voobrajenie), kuzatuvchanlik va turfa taassurotlarini bo‘yoqdor, ta’sirchan so‘zlar bilan badiiy ifodalashni o‘z ichiga oladi.Bu iste’dodgina emas, balki asarni yozish, tahrir qilish va taqdim etishga doir amaliy ish hamdir.

Mahorat, ayniqsa, yozuvchi mahorati adabiyotshunoslikda umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilgan, o‘z individual bilim va tajribasi, iqtidorini ishga solgan holda badiiy asar yaratish demakdir. Bundagi asosiy komponentlar:

1 Солижонов Й. Гўзалликнинг турфа ранглари (Бир ҳикоя атрофидаги ўйлар). XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Тўплам. – Тошкент : “Фан” нашриёти, 2012.75-бет.

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. Е–М. – Тошкент: Тузатилган 2-нашри. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2020.575-бет.

• tilni bilish;
• ijodkorlik va tasavvur;
• kuzatuvchanlik;
• adabiy mahorat:
• o‘z ustida ishlash.

Yozuvchi butun hayoti davomida o‘zining so‘z boyligi va adabiy tili ustida tinmay ishlashi, uni boyitishi kerak; til uning ishi uchun eng zarur quroldir. Yozuvchining yozuvchilik mahorati iste’dodi, ilhomi, kuzatuvchanligi, tasavvuri yoki hayot haqidagi bilimlari til boyligidan foydalanish mahorati bilangina hosil qilinadi. Yozuvchi fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaydi, u bu o‘rinda bir holatni atamasdan, uni boshqacha ifodalash yo‘lini tanlaydi. Masalan, falonchining *jahli chiqdi* demasdan, shu so‘z ma’nosiga ishora qiluvchi falonchi *qovog‘ini soldi, mushtlarini qisdi* kabi so‘zlardan foydalanadi. Bu kabi so‘z ishlatish mahoratiga erishish uchun so‘z boyligi juda katta bo‘lishi kerakligi tabiiy. Bunday katta so‘z boyligiga ega bo‘lish esa behad katta mehnat talab qiladi.

X.Umurov yozuvchining so‘z boyligidan foydalanish mahorati haqida Izzat Sulton aytgan quyidagi fikrini keltiradi: “Yozuvchi mahorati, — deb yozadi I. Sulton, — aytilmoqchi bo‘lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so‘z va iboralarni topa bilishdan iboratdir”[3].

Yozuvchi nutqining ifodaliligini tilning badiiy tasvir vositalari (epitet, o‘xshatish, jonlantirish) oshiradi; epitetlar tuyg‘ular rang-barangligiga ishora qiladi

I.I.Adizova Uvaysiy she’riyati haqida gapirib shunday yozadi: “Ularda shoira she’riyatiga xos bo‘lgan teranlik va falsafiy mushohada sezilib turadi. Shoiraning so‘z tanlashdagi mahorati, tasviriy vositalardan foydalanishdagi o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Fikrimizni quyidagi fard talqini ham tasdiqlaydi:

Dilbaro, o‘ltur boshingdin aylanay,
Pandim ol, o‘lsam so‘ngokim ayla nay.

Zohiran qaraganda, bayt mazmuni oddiy: “Ey dilbar, yonimda o‘tirgin va nasihatimni eshit. Agar o‘lsam suyagimdan nay yasagin”. Ammo shu o‘rinda savol paydo bo‘ladi. Xo‘sh, nega lirik qahramon o‘lganda, suyagidan aynan nay yasashni so‘rayapti? Shoirning maqsadi, g‘oyasi ana shu *nay* timsolida mujassamlashtiriladi. Bu o‘rinda nay ramziy obraz sifatida qo‘llanilgan. Sharq mumtoz adabiyotida nay chuqur mohiyatga ega an’anaviy timsoldir[4].

Internetda keltirilgan izohlarda quyidagi kabi tushuntirishlar ham uchraydi: “Har qanday ijod yoki san’atni... jarayon deb atash mumkin, jarayonni texnologiya deb ham atash mumkin. Ayni yozuvchilik texnologiyasini kamdan-kam odam egallaydi, binobarin, bu haqda kam gapiriladi. Yozuvchilik iqtidorgina emas, balki u amaliy mehnatdir”.

Tabiat – bu odam tomonidan yaratilmagan jonli (o‘simliklar, hayvonlar) va jonsiz (quyosh, suv, tuproq, toshlar) predmet va obyektlarni o‘z ichiga oluvchi butun moddiy olamdir. Ayon bo‘ladiki, badiiy asardagi tabiat tasviri degandagi tabiat tushunchasi odamdan boshqa jonli va jonsiz narsalarni ifoda etadi. Asarlardagi tabiat tasviri shunchaki fonni emas, balki personajlar yashayotgan muhitni aks ettiradi, ularning tavsifini ochishga, ruhiyatiga ishora qilishga va boshqa adabiy vazifalarga xizmat qiladi, asarning ta’sirchanligini, umuman, badiiy qiymatini oshiradi.

“Yozuvchilik san’atini hayot va o‘lim sirlarini ochadigan kalitga qiyoslash mumkin. Badiiy ijodda eng muhim ish voqeanavislik emas, balki haqiqatni kashf aylashga imkon beradigan ana shunday bir “ochqich”ni o‘quvchiga yetkazishdir. Bu esa did va saviyasi baland kitobxonni sal kam ijodkor darajasiga ko‘taradi. Binobarin badiiy asar o‘qishdan tug‘ilgan taassurotlaridan u ham o‘zining bir kitobini yaratadi”. ...”So‘z va tasvirning kuch-quvvati, avval-oxir ruhga ta’siri, ruhoniy ehtiyojga nechog‘lik muvofiqligi bilan belgilanadi”[5].

Yuqoridagi holatlar badiiy psixologizm deb ham yuritiladi. Sh.I.Botirova tadqiqot ishining avvalida Ulug‘bek Hamdam romanlaridagi badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositalari va poetik usullar, ijodiy individuallik, badiiy shakl va uslub o‘ziga xosligi; yozuvchining badiiy psixologizmdan foydalanishdagi ijodiy mahorati, adabiy qahramon yaratish va xarakterlar ruhiyatini

3 Умуров Х. Бадиий ижод асослари: Филология мутахассислиги буйича таълим олувчи и^тидорли ижодкор талабалар учун дарслик. /Масъул мухаррир: Б.Н.Валихужаев — Т.: "Узбекистон" , 2001. – 38-бет.

4Адизова И.И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши: Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент, 2020. – 164-бет.

5Ҳаққулов И. Эврилиш товуши: Ҳозирги адабий жараён масалалари [Матн] / Нашрга тайёрловчилар Г.Сатторова, М.Нажмиддинов. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022.3-бет..

badiiy dalillash yo‘sini, qahramonlarga hissiy ta’sir etadigan tabiat manzaralari antiteza prinsipida ifodalangani, portretga xos xarakteristikalarda xatti-harakat, ichki dinamika kuzatilishi, qahramonlardagi “ichki faollik”ka singari katta e’tibor berilgani, ular badiiy matnga asosan yoritilgani o‘zbek hamda jahon adabiyotshunosligi nazariy tushuncha va tamoyillariga tayanib talqin qilganini ta’kidlagan[6].

Yozuvchilarning mahorati shunda yorqin namoyon bo‘ladiki, ular aksar psixologik parallelizm usulidan foydalanadilar. Voqelikda yuz berayotgan barcha hodisalarni go‘yo asar qahramonlarining qalbida sodir bo‘layotganday qilib tasvirlaydilar, voqea-hodisalar personajlar ruhiyati bilan uzviy yoritadilar. Bunday parallelizm kitobxonga asar qahramoni ruhyatiga chuqur kirib borish imkonini beradi, uni har tomonlama tushunish uchun xizmat qiladi.

Yozuvchilik mahorati, bir tomondan, tug‘ma iste’dod, Alloh bergan tuhfa (in’om) bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tilni, insonni, hayotni o‘rganish bilan bog‘liq qobiliyat, mehnatdir. Yozuvchilik qobiliyati, mahorati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: xayolot olamining kengligi va taraqqiy etganligiga ishora qiluvchi narsa-buyumlar, voqea-hodisalar, odamlar o‘rtasidagi ibratomuz munosabatlar bayonida; tafakkur miqyosida: odatdagi narsalarda g‘ayrioddiy narsalarni ko‘ra olishida; odamlar tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini ilg‘ay olish layoqatida; tilning kitobxonni qoyil qoldiradigan ifoda vositalarini his eta olishida; so‘z boyligining behad kattaligida; xotira va taassurotlar boyligida; kitobxonni ijodiy faoliyat usullaridan foydalanish amaliyotiga undashida.

Yozuvchilik mahorati adibning o‘zini kitobxon o‘rniga qo‘ya bilishida, shu yo‘l bilan yozgan asari o‘z kitobxonini topa olishiga ishonch hosil qila bilishida ham ko‘rinadi: kitobxon sifatida o‘ziga yoqqan asar o‘quvchi uchun ham yoqishini biladi. Asar qahramoniga tirik odamlarday munosabat ifodalashi kitobxonning ularni shunday idrok etishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bunga quyidagilar ham yordam beradi: kitobxonni asarda bayon qilinganlarga ishontirishi; asar qahramonlari, xarakterlari, munosabatlari, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarning haqqoniyligi; mayda-chuyda detallarning hayotiy haqiqatlar uchun xizmat qilishi; eng muhimi, asarning qiziqarliligi, voqealarning kitobxonda unutilmas taassurotlar hosil qilishi, mazmuni xotirada o‘chmas iz qoldirishi.

Xullas, o‘quvchilarga yozuvchining badiiy asarda tabiat tasviridan foydalanish mahoratini o‘rgatish mazmuni umuman yozuvchilik mahorati aspektida qaralgani ma’qul. Bevosita tabiat tasviri bilan bog‘liq ta’limiy masalalar shunday tasvirlar tipologiyasi haqidagi ma’lumotlar asosida tashkil etiladi.

6Ботирова Ш.И. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм (Улуғбек Ҳамдамнинг “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романлари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... диссертацияси. – Қарши, 2019.9-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адизова И.И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши: Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент, 2020. – 164-бет

2. Ботирова Ш.И. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм (Улуғбек Ҳамдамнинг “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романлари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... диссертацияси. – Қарши, 2019. – 9-бет.

3. Солижонов Й. Гўзалликнинг турфа ранглари (Бир ҳикоя атрофидаги ўйлар). XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Тўплам. – “Фан” нашриёти Тошкент -2012 – 75-бет.

4. Умуров Х. Бадиий ижод асослари: Филология мутахассислиги буйича таълим олувчи и^тидорли ижодкор талабалар учун дарслик. /Масъул мухаррир: Б.Н.Валихужаев — Т.: “Узбекистон” , 2001. – 38-бет.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. Е–М. Тузатилган 2-нашри. Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2020. – 575-бет.

6. Ҳаққулов И. Эврилиш товуши: Ҳозирги адабий жараён масалалари [Матн] / Нашрга тайёрловчилар Г.Сатторова, М.Нажмиддинов. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2022.3-бет.

Gulnora AVEZOVA,
QQDU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

ISAJON SULTONNING “ONAIZORIM” QISSASIDA TABIAT TASVIRINING BADIIY-FUNKSIONAL AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida tabiat tasviri, suv va ariq obrazlarining badiiy va semantik vazifalari atroflicha tahlil qilinadi. Asarning poetik tuzilishida tabiat detallari qahramon ruhiyati, bolalik xotiralari va onalik timsoli bilan qanday bog‘lanishi ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *tabiat tasviri, ariq obraz, shamol, suv obrazi, badiiy detal, psixologik parallelizm, bolalik xotirasi, ona timsoli, ruhiy holat, badiiy poetika, o‘zbek nasri, simvolika, falsafiy mazmun*.

Annotation: the article analyzes the artistic and semantic functions of nature imagery, particularly the symbols of water and the irrigation canal, in Isajon Sultan’s story Onaizorim. It examines how these natural details connect with the protagonist’s inner world, childhood memories, and the maternal image.

Key words: *nature imagery, canal symbol, wind, water symbol, artistic detail, psychological parallelism, childhood memory, maternal image, emotional state, poetic structure, symbolism, philosophical meaning*.

Аннотация: в статье анализируются художественные и семантические функции природных образов, особенно воды и арыка, в повести Исажона Султона *«Онаизорим»*. Рассматривается, как природные детали связываются с внутренним миром героя, воспоминаниями детства и образом матери.

Ключевые слова: *природный образ, образ арыка, ветер, образ воды, художественная деталь, психологический параллелизм, детские воспоминания, образ матери, эмоциональное состояние, поэтика, символика, философский смысл.*

Isajon Sulton o‘zbek zamonaviy nasrida ruhiy holatlarni nozik aks ettirish, tabiat tasviri orqali qahramon tafakkuri va kechinmalarini ochish borasida yetakchi yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning “Onaizorim” qissasida tabiat tasviri, ayniqsa, bahor, shamol va suv obrazlari qahramon xotirasi, onalik timsoli va badiiy markaz sifatida muhim vazifa bajaradi. Asarda tabiat oddiy fon emas — balki syujetni harakatga keltiruvchi, ruhiy holatni yuzaga chiqaruvchi, obrazlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaruvchi poetik mexanizmdir.

“Bahor tog‘larning ustlaridan to nigoh etmas olislardagi yaylovlargacha yastanib ketgan bepoyon kengliklarni sanoqsiz rang-u tus, shakl-u qiyofadagi anvoyi gul-chechaklar bilan bezaydi, shamollar qatida islarini, gulchanglarini va urug‘larini ko‘tarib uchib, boshqa erlarga sochadi, turli-tuman qushlar u rizqlardan cho‘qib sayrab yurishadi. Gurkirab o‘sgan butalar bag‘rida qurt-u qushlar turlicha saslanishadi, chigirtkalar sakraydi, chumolilar emish ilinjida har yoqqa tarqalishadi. Havolarni almashtiradigan va tabiatni jo‘shtiradigan ikki unsur bor bu erda: shamol va suv. Shamol kurtaklarni ochadi, gulkosalarni to‘kadi, erni uyg‘otadi. Suv tuproq bag‘rida yashirinib yotgan urug‘largacha singib boradi. Shu ikkovlon tuproqni ilhomlantiradi, go‘yo quloq eshitmas, aql bovar qilmas bir sado ila har narsa birdaniga harakatga keladi. Bu yerlarda shamollar suron solib esadilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga… Shamol zabtida tollar, tutlar, teraklar chayqaladi, qamishlar shovullaydi, bug‘doyzorlar shitirlaydi, qovg‘a popiltiriqlari momaqaymoq ukparlari bilan har yon qo‘shilib uchadi, yovvoyi o‘tlar atri ekinlar va daraxt gullari isi bilan qo‘shi lib huzurli, g‘alati bo‘y hosil qiladi.”(1.4)

Bu badiiy jonlantirish yo‘li orqali yozuvchi bahorni obrazga aylantiradi — u nafaqat fasl, balki qahramon xotiralarini uyg‘otuvchi ruhiy kuchdir. Aynan shu manzara orqali keyin keladigan ariq, suv, shamol tasvirlari uchun badiiy “fon” tayyorlanadi. Shamolning “urug‘larni ko‘tarib ketishi” — hayotning uzluksizligi va taqdirning turli yo‘nalishlarga tarqalishiga badiiy ishora sifatida tasvirlanadi. Shamol bevosita qahramonning ichki kechinmalarini ham aks ettiradi. Asarda shamol qaysi yo‘nalishda essa, qahramonning o‘y-xayollari ham o‘sha tomonga “olib qochiladi”. *Suv tuproq bag‘rida yashirinib yotgan urug‘largacha singib boradi. Shu ikkovlon tuproqni ilhomlantiradi…* Bu joyda suvning hayot yaratuvchi, ilhom beruvchi, yashirin kuchlarni uyg‘otuvchi vazifasini ko‘rsatadi. Ariq suvi “Onaizorim”da faqat jismoniy ob’ekt emas — u ma’naviy quvvat, ruhiy tetiklik va xotiralarning ochqichidir. Aynan shu sababdan yozuvchi suvni shamol bilan teng quvvatga, teng estetik ahamiyatga qo‘yadi. Bu yerda shamol – harakat, suv – ildiz va hayot, ariq – shu ikki kuchning qo‘shilgan timsoli sifatida bo‘y ko‘rsatadi.

Tabiat uyg‘onishi bilan boshlangan suvning harakati, shamolning suroni, urug‘larning tarqalishi— bularning barchasi ariq suvining badiiy va semantik maydoniga qo‘shiladi. Ariq shunchaki suv oqimi emas: u hayot oqimi, xotira oqimi, ona mehrining davomidir. Ariq — shamol va suvning birlashgan ma’naviy inersiyasini o‘z ichiga olgan markaziy obraz sifatida asarda hayotning uzluksiz harakatiga aylanadi.

Isajon Sulton asarida ariq tabiatning boshqa barcha unsurlari — shamol, suv, gullar, hayvonlar, tuproq — bilan uzviy bog‘langan holda keladi. Shamol va suv haqidagi tasvirlar asosiy “badiiy ritm”ni tayyorlagan bo‘lsa, ariq shu ritmning markaziga aylanadi. Chunki ariq — suvning ko‘zga ko‘ringan, hayotni harakatda ushlab turuvchi, inson ruhiyatini boyituvchi shaklidir.

Qissada ariq haqidagi parchalar shunday beriladi:

“– Ariqcha, oqyapsanmi?

– Ha, qizgina, oqyapman.

– Otam erga beraman deyapti, nima qilsam ekan?

– Hammaning boshida bor bir qismat-da, ko‘nmay qayga borarding?

– Qaydam… Qanday odam ekan, qanaqa xonadon bo‘lar ekan, o‘ylab o‘yimga etolmayman.

– Tashvish qilma, Xudo senday qizni yaratadi-yu baxtingni bermaydimi? Xudo xohlasa, ajoyib hayot kechirasan, bir etak bolalaring ham bo‘ladi.”(1.41)

Keltirilgan parcha Isajon Sultonning badiiy uslubida juda muhim bir xususiyat — jonlantirish (personification), ya’ni jonsiz predmetga inson xususiyatlari berish uslubi orqali yoritilgan. Bu erda ariqcha qahramon bilan go‘yoki tirik inson kabi muloqot qiladi. Bu badiiy usul bir necha chuqur ma’no qatlamlarini yaratadi. Parchada qahramon yolg‘iz emas — u o‘z yonidagi tabiatdan, bolalikdan qolgan ma’naviy taskindan, ya’ni ariqdan maslahat so‘raydi:

– Ariqcha, oqyapsanmi?

– Ha, qizgina, oqyapman.

Bu bilan ariq suvi oddiy tabiiy element emas, balki qahramon hayotida muhim o‘rin tutuvchi jonli mavjudotga aylanadi, ariq qahramonning ruhiy yolg‘izligini yumshatuvchi sirdosh sifatida badiiy funksiya bajaradi.

Ariqning javoblari g‘oyat mehribon va xotirjam:

– Tashvish qilma, Xudo senday qizni yaratadi-yu baxtingni bermaydimi?

Bundan ko‘rinadiki, ariq – ona qiyofasining tabiatdagi davomi. Ariqcha qahramonga shunday deydi:

– Hammaning boshida bor bir qismat-da, ko‘nmay qayga borarding?

Bu xokisor qizning hayotni, taqdirni, uning chigal yo‘lini, ota roziligiga bo‘ysunish lozimligini tasdiqlaydi. Aniq aytilmasa-da, ariq tabiatdagi “abadiylik”, “uzluksiz oqim”, “taqdirning borishi” kabi ma’nolarni o‘zida saqlagan. Ariqning “oqish”i taqdirning “borishi” kabi ma’nolarni anglatadi. Ra’noning qayg‘usi, ikkilanishi, qo‘rquvi ariqqa qarab aytiladi:

– Qanday odam ekan, qanaqa xonadon bo‘lar ekan, o‘ylab o‘yimga etolmayman.

Ko‘rinadiki ariq uning qalbiga taskin beradi, uning ruhiy qiynoqlarini yengillashtiradi. Shu orqali ariq suvi ayol tuyg‘usining, uning ichki holatining ko‘zgusiga aylanadi.

“Xudo xohlasa, ajoyib hayot kechirasan, bir etak bolalaring ham bo‘ladi.”

Bu joyda ariq qadrdon do‘st kabi qahramonni umidga chaqiradi, baxtli bo‘lishini ta’kidlaydi. Dialogning o‘zi dramatik: qahramon turmushga berilishi, notanish xonadon, kelajak haqida xavotir. Biroq bu drama tabiat bilan muloqot orqali yumshatilgan. Bu Isajon Sultonning uslubiga xos narsa: inson ichki ruhiyati — tabiat ovozi bilan uyg‘un holda ochiladi.

Ushbu parchada ariq sirdosh do‘st, mehribon hamroh, ruhiy taskin manbai, taqdirdan rozi bo‘lishga undovchi ruhoniy, tabiat va inson uyg‘unligi timsoli sifatida o‘rtaga chiqqanligini kuzatish mumkin. Bu parcha badiiy jihatdan qissaning lirik–falsafiy markazlaridan biri hisoblanadi.

Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida onalik, bolalik, ruhiy poklanish va insonning tabiat bilan uzviy bog‘lanishi mavzularini o‘zida jamlagan badiiy asar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda tasvirlangan tabiat manzaralari – shamol, suv, ariq, gullar va bahorning uyg‘onishi – qahramonning ichki holati, xotiralari va ruhiy iztiroblari bilan chambarchas bog‘lanib, asarning poetik tuzilishida markaziy o‘rinni egallaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Султон И. Боғи Эрам. – Тошкент: Шарқ. 2015
2. Юнусов Ш. Ўзбек насрида бадиий образ ва детал поэтикаси. – Тошкент, 2019.
3. Расулов И. Психологизм масалалари ҳозирги ўзбек прозасида. – Тошкент, 2018.
4. Қодиров М. Табиат тасвирининг бадиий вазифаси. – Тошкент: Фан, 2011.
5. Жўраев А. “Исажон Султон асарларида бадиий тасвир”. // Адабиёт ва санъат, №3, 2020.

Ilhom JUMAYEV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-pochta: ilhom_jumayev@tues.uz

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDA YAXSHI VA YOMON FAZILATLARNING BADIIY IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqola “Qutadg‘u bilig” dostonidagi inson fazilatlarining ko‘rinishlari haqida bo‘lib, makon va zamon nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Maqolada rahbar inson va oddiy ishchilar munosabati, ilm ahli hamda ilmsizlik oqibatlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *fazilat, inson, olim, lingvopoetika, doston, qobiq, arzanda*

Аннотация: данная статья посвящена проявлениям человеческих качеств в эпической поэме «Кутадгу билиг» и анализируется с точки зрения пространства и времени. В статье рассматриваются взаимоотношения между лидером и рядовыми рабочими, последствия знаний и невежества.

Ключевые слова: *добродетель, человек, учёный, лингвопоэтика, эпос, оболочка, дешёвый.*

Annotation: this article is about the manifestations of human qualities in the epic poem «Kutadgu bilig» and is analyzed from the perspective of space and time. The article examines the relationship between a leader and ordinary workers, the consequences of knowledge and ignorance.

Key words: *virtue, human, scholar, linguopoetics, epic, shell, cheap.*

Kirish.“Qutadg‘u bilig” dostoni insonni axloqiy ta’lim tarbiya olishga undovchi asardir. Bu kitob haqida muallif shunday deydi: “Bu kitob juda azizdir. Chin donishmandlarining masallari bilan yaratilgan, Mochin donishmandlarining ash’orlari bilan tartib berilgan bu kitobni o‘qiguvchi, bu baytlarning ma’nosini chaquvchi (kishi) kitobdan (ham) yaxshi azizroq bo‘ladi”. [4. 49-b] Bu kitob insonni chin ma’noda azizu mo‘tabar etishga xizmat qiladi.

“Inson va uning mohiyati masalasi, Qoraxoniylar davrida turli tabaqalar va toifalar zimmasida bo‘lishi kerak bo‘lgan axloqiy, ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash “Qutadg‘u bilig” oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri edi. Umuman, “Qutadg‘u bilig” dagi pand, o‘git, didaktizm qadimiy an’analar zaminida, biroq yangi tarixiy sharoit taqazosiga ko‘ra yuzaga keldi va u o‘zida bu an’analarni yanada takomillashtirib, didaktika qobig‘ida boshqa hayotiy masalalarni ham singdiradi”. [2.41-bet]

Bu Mashriq maliklari – Mochinlarning beglari,
Bilimli, zakovatli, jahonda kishilarning yaxshilari.
Mutlaq bu kitobni olib o‘zlashtirgandirlar,
Xazina ichiga joylab yashirgandirlar.
Biridan- biriga meros qolib,
O‘z(lar)iga olib nodonlarga bermaydilar. [4. 50-bet]

Bu kitob yaratilgan davrdan Mashriqdan Mag‘ribgacha, Chindan Mochingacha ma’lum va mashhur bo‘ladiki, uni o‘qigan maliklar, beglar, bilim va zakovat sohiblari, jahonning barcha yaxshilari uni o‘qib, uqib o‘zlashtirib oladilar. Uning qadri beqiyos ekanligini anglab xazina ichiga yashiradilar. Ajdodlardan avlodlarga bebaho meros sifatida avaylab yetkazadilar. Nodonlar qo‘liga tushib qolishdan va unga shikast yetishdan saqlaganlar. Ma’lumki, xazinada bebaho dur-u javohirlar, qimmatbaho narsalar saqlangan va qattiq qo‘riqlangan. Bu kitob ham qayerga bormasin shu tarzda izzat ehtiromga sazovor bo‘lgan. Yuqoridagi fikrlar biroz mubolag‘adek tuyilishi mumkin. Ammo kitob mutolaasiga kirishgan kitobxon bu fikrlarning qanchalik haqiqat ekanligiga va o‘zida insoniy fazilatlarni shakllantirib borayotganiga ishonch hosil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Qutadg‘u bilig”da tilga olingan mavzularning qamrovi juda keng. Ammo unda bitta bosh nuqta borki, u butun asardan qizil ip bo‘lib o‘tadi. Bu inson masalasidir”. [3. 6-bet] Asarning asosiy maqsadi ham insonni insoniy fazilatlarga ega bo‘lishga chorlovdir. Inson fazilatlari esa bu uning jamiyatda o‘z o‘rnini egallashda, atrofdagilarga qilayotgan muomalasi va xizmatlari orqali aks etadi. Qadimdan ajdodlarimiz farzand tug‘ilgan zahoti uning barkamol va yetuk xislat egasi bo‘lishiga harakat qilganlar. Bu holat oilada, keyinchalik jamiyatda shakllanib borgan. Yusuf Xos Hojib ham insonning iymon-e’tiqodining to‘kis bo‘lishi, hayot so‘qmoqlaridan qoqilmasdan o‘tishi, turmushini ham o‘zini ham jamiyat va xalq manfaati uchun go‘zal va o‘rnak bo‘larli tarzda tashkil etishi uchun bilishi kerak bo‘lgan eng zarur fazilat va axloq mezonlarini”Qutadg‘u bilig” asarida batafsil bayon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish jarayonida madaniy-tarixiy, qiyosiy-tarixiy, lingvopoetik tahlil, struktur-funksional, tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar . Yusuf Xos Hojib dostonini o‘qish jarayonida asarning har bir misrasida insonni komillikka undovchi, uni to‘g‘rilikka, o‘zidan yaxshi nom qoldirishga undovchi falsafiy fikrlarga duch kelamiz.

Bu yaŋluq atы boldы yaŋluq ychyn,
Bu yaŋluq uruldы bu yaŋluq ychyn. (194)
Mazmuni:
Bu yangluq [ya’ni inson] nomi yangluq [ya’ni xato] uchun bo’ldi,
Bu yangluq [ya’ni xato] uchun u yangluq [ya’ni inson] ataldi.

Bu misralarda odamzodga yaŋluq atы (inson oti) yaŋluq (yanglishgani) uchun berilgan. Shu boisdan inson yaŋluq (xato qiluvchi) deb nomlangan. Inson yaralibdiki xato va kamchiliklardan holi emasligi har bir davrda o‘z isbotini topgan. Qur’oni karimda ham insonning adashishi, yanglishishi haqida oyatlar nozil qilingan va inson hali ham adashishdan, yanglishishdan hamda o‘zidagi kamchiliklardan xalos bo‘la olgan emas.

Yaŋылmaz kishi kim ayu ber meŋə,
Yaŋылmыsh tymən mің ayayын seŋə.
Biliglig edi az biligsiz ökysh,
Uqushsuz ökysh bil, uqushlug’ köshysh.
Mazmuni:
Yanglishmas kishi kim, menga aytib ber,
Yanglishganlar tuman mingta, senga ayta qolayin.
Bilimli(lar) juda oz, bilimsiz(lar) ko’p,
Bezakovat(lar) talay, bilgin, zakovatli(lar) arzandadir. [4. 91-bet]

Shoir kitobxonga murojaat qiladi, bu hayotda kim yanglishmagan degan savolni o‘rtaga tashlaydi va barcha yanglishishi mumkinligini aytib o‘tadi. Insonning yanglishishiga sabab sifatida esa bilimsizlikni asosiy mezon deb biladi. Shoirning nazdida yanglishish unchalik vahimali narsa emas, ammo eng xatarli holat bu bilimsizlik. Zakovatlining köshysh (arzanda) bo‘lishi ya’ni bitmas-tuganmas hurmat-e’tiborga sazovorligiga sabab ham uning bilimi orqalidir. Adib shu sababdan ham bilimsizlikni jamiyat zavoli deb biladi.

Kishidə kishi adruqы bar telim,
Bu adruq biligdin ayur bu tilim.
Mazmuni:
Kishidan kishining ko‘p farqi bor,
Bu farq bilimdan, deb aytadi bu tilim.

Avvalo, adib kishidan kishining juda ko‘p farqi bor bo‘lib, bu farqlanishlar boy yoki kambag‘al, sog‘lom yoki betoblikda emas. “Uning eng katta farqi bu bilim deb aytmoqda bu tilim” – deydi shoir. Bilim insonlar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatuvchi mezondir. Shoir ham insonning bir-biridan farqi va o‘zidagi nuqsonlarga bee’tiborligi hamda hayoti davomida turli kamchiliklarga yo‘l ochib berishiga asosiy illat sifatida uning bilimsizligini ko‘rsatadi va bilimlilarning qadri azaldan yuksak qadrlanganligini e’tirof etadi. Bu haqida hadislarda kishidagi amallarning afzali ilm orqali hosil bo‘lishi ta’kidlangan. Ilmning sharafi va insonni ulug‘likka yetkazishiga shubha yo‘q. Inson ko‘p jihatdan boshqa mavjudotlar bilan o‘xshash, ammo ilm orqali farqlanadi. Ilm insonlarga dunyo va oxiratda to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi, haqiqiy foyda nima-yu, zarar nima ekanini anglatuvchi vositadir. Ilm sohibi barcha ezgu axloqlarga erishadi. U baxillik, qizg‘anchiqlik, qo‘rqoq va jur’atsizlik, manmanlik kabi yomon illatlardan o‘zini saqlab, kishilar ko‘rganlarida suhbatiga oshiqadigan go‘zal xulq egasi bo‘lib kamol topadi:

Ajunqa apa inmishində berү,
Uqushlug’ uru keldi edgү təru.
Qayu ədtə ersə bu kүndə burun,
Biligligkə tegdi bedүgrək orun.
Mazmuni:
Olamga odam tushgandan [ya’ni odam yaratilgandan] buyon,
Zakovatli(lar) ezgu siyosat yuritib keldi(lar).
Bugundan burungi qaysi bir davrda bo’lmasin,
Bilimli(lar)ga buyukroq o’rin nasib bo’lib keldi.

Shoir Alloh tomonidan Odam Ato yaratilgandan buyon qaysi davrda bo‘lmasin zakovatlilarning ezgu siyosat yuritib kelganligini, bilimlillarning o‘rni esa doimo buyuk ekanligiga urg‘u beradi. Shoir bilimsizlikni dard deb biladi:

Biligsiz kishi barcha iglig bolur
Igig emləməsə kishi terk ələr.
Yurы ey biligsiz igiŋni ota,
Biligsiz otыn-sen e bilgə quta.
Mazmuni
Bilimsiz kishilar barchasi dardlik bo‘ladi,
Dardni davolamasa, kishi bot o‘ladi.
Kel, ey bilimsiz, dardingga davo qil,

Bilimsiz (bo‘lsang) – tubansan, dono (bo‘lsang) – baxtlisan

Zakovatli va bilimli odam agar vujudida biror bir kasallik alomatlarini sezsa, zudlik bilan bu dardga davo izlaydi va tuzalishiga yordam beradigan shifokorga murojaat qiladi. Ikkisi bir bo‘lib tanadagi dardni turli dorilar bilan tuzatishga harakat qilishadi. Inson tanasida harakatlanayotgan kasallik kabi jamiyat hayotida ham turli dardlar borki, ularni tuzatmasdan turib adolatli va farovon davlat qurib bo‘lmaydi. Buning uchun esa jamiyatning bir bo‘lagi sanalgan inson eng avvalo o‘zidagi nuqson va kamchiliklardan holi bo‘lmog‘i lozim. Yusuf Xos Hojib ham o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida insoniy nuqson va kamchiliklarga e’tibor qaratar ekan shu nuqsonlardan insonni butkul forig‘ bo‘lishini xohlaydi va bu orqali jamiyatni forovonlikka yetaklaydi, bunga yechim izlaydi. Asarda insonning bezagi va ma’naviy boyligi bo‘lgan insoniy fazilatlar: zakovat, til odobi, saxovat, sabr, qanoat, shukr, tavba, silayi rahm kabilarninig inson tarbiyasidagi o‘rni va o‘z

navbatida insoniy nuqsonlar: bilimsizlik, g‘azab, nafs, yolg‘onchilik, xasislik kabi illatlardan qanday halos bo‘lmoq lozimligi xususida fikr yuritilgan.

Bilim olishga intilish insonni jamiyatda yuksaklik sari yetaklasa, bilimsizlik uni yomonliklar komiga, tubanlik makoniga va jamiki illatlar uya qurgan jarlikka yiqitadi. Ilm olishning eng muhim jihati shundaki, ilm olishga sa’y-harakat qilgan kishi bu dunyoda xurmat, obro‘-e’tibor va yuksak martabaga erishish bilan birgalikda Alloh oldida ham izzatli bandalari qatorida bo‘ladi. Jumladan “Qur’oni Karim” da: “Alloh sizlardan iymon keltirganlarni, xususan, ilm berilganlarni darajalarga ko‘tarur” (Mujodala surasi, 11-oyat) deya marhamat qilingani bejiz emas.

Bilim olishga chorlov Sharq allomalarining barcha asarlarida kuzatiladi. Chunki ilm olish insonni komillik sari yetaklaydi. Bilim olish haqida adib Ahmad Yugnakiyning quyidagi fikrlari ham ibratlidir:

Suyak — ilig-u er — bilim bilan, bil,
Suyak ko‘rki — ilik, er ko‘rki — aql.
Bilimsiz iliksiz suyakday bo‘m -bo‘sh,
Iliksiz suyakka uzatilmas qo‘l. [1. 17-bet]

Ilm o‘rganish uchun qanchadan-qancha zahmatlar chekib maqsad muddaosiga erishgan va o‘rganganlarini o‘zgalarga ham o‘rgatib atrofdagilarga manfaat yetkazgan kishi bilan bilimsizlikning zulmatli olamida adashib o‘ziga ham o‘zgalarga ham ziyon yetkazishdan o‘zga foydasi bo‘lmagan nodon o‘rtasida katta farq bor. Adib Ahmad Yugnakiy bilimni suyak ichidagi ilikka qiyos etgani ham bejiz emas. Chunki iliksiz suyakka qo‘l urilmaganidek, bilimsiz kishilar ham jamiyat uchun chaqalik qadrga ega emas. Bilim olishning yana bir foydali jihati shundaki, ne mashaqqatlar bilan to‘plangan boylik, mol-dunyo sarflangan sari kamayib boradi. To‘plangan bilim esa o‘zgalarga ulashsangiz ziyoda bo‘lib borayveradi, ammo ozaymaydi. Ilm o‘rganish Islom dinida ham eng maqbul amallardan biri sanalgan. Hususan, Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Kim ilm talab qilish yo‘liga tushsa, Alloh unga jannatning yo‘lini yengillashtiradi”, dedilar” (Muslim, Abu Dovud va Termiziy rivoyati).

Uqush birlə eslγr kishi artaqы
Bilig birlə sγzlγr budun bulg’aqы
Bu ekkin etγməsə qodg’ыl bilig
Qыlыchqa tegγrgil sen ətrγ əlig
Bəgγ bilgə beglər budunqa bashы
Qыlыch birlə etmish biligsiz ishi

Mazmuni:

Kishi(lar) buzuqligi zakovat bilan tozalanadi,
Xalq bulg‘og‘ini bilim bilan suziladi.
Bu ikkisi bilan ish bitira olmasang, bilimni qo‘ygin,
So‘ng sen qilichga qo‘l tegizgin [ya’ni qilichni ishga solgin].
Xalqqa bosh dono (va) bilimdon beglar,
Bilimsizlar ishini qilich yordamida hal qilganlar.

Yusuf Xos Hojib bilimni endi budun bulg‘aqы (kishilarning barcha buzuqliklari), yomon fe’llaridan tozalovchi vositaga qiyos etmoqda. Agar insonni bilim va zakovat bilan to‘g‘ri yo‘lga solishning imkoni topilmasa, ya’ni nodon to‘g‘ri yo‘lga kirishni xohlamasa unda qat’iy choralarni qo‘llash kerak. Dono va tadbirli beklar bunday vaqtda qilich yordamida hal qilganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ham eng avvalo kamolotga erishishning birinchi mezoni sifatida ma’rifatni egallashga da’vat etadi. “Zero, ma’rifatli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi Ibn Sino. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qo‘shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta’kidlaydi”. [5. 47-bet]

Xulosa. Adabiyotning asl maqsadi insoniylikni tarannum etish va o‘quvchiga uning qanday tuyg‘u ekanligini uqtirishdan iborat. Insoniylik tuyg‘usi atrofdagilarga hamdardlik, yaxshi yomon kunda ham qo‘ldan kelgancha moddiy yoki ma’naviy jihatdan ko‘maklashishdan iborat. Shu sababdan diniy yoki dunyoviy adabiyotlarning asosiy mezoni shu mavzuga qaratiladi. Yusuf Xos Hojib ham yaxshilik va yomonlikni, ularni yuzaga keltiruvchi natijalarni o‘zaro qarshilantiradi. Bu orqali esa kitobxonni o‘ziga kerakli bo‘lgan xulosani chiqarib olishga chorlaydi. Dostonning yana bir o‘ziga xos jihati yaxshilikni tarannum etgani va qahramonlar nutqida ham ulug‘langanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adib Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. (Sh e’riy tabdilni amalga oshiruvchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: E.Ochilov). – T.: “ S harq” , 2013.
2. Тўхлиев Б.Юсуф Хос Ҳожибнинг бадиий маҳорати. 41
3. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг” (“Саодатга бошловчи билим”). Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўзбоши муаллифи Боқижон Тўхлиев; - Т.: Юлдузча, 1989.
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. – Тошкент: Фан, 1972.
5. Ирисов А. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

Nilufar NAMAZOVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

MA’RIFATPARVARLIK HAYOT SHIORIGA AYLANGANDA

Annotatsiya: mazkur maqolada Samarqand ma’rifatparvarlik muhiti misolida jadid ziyolisi Hoji Muin shaxsiyati va faoliyati yoritiladi. Muallif Hoji Muinning Kattaqo‘rg‘on ijtimoiy-madaniy hayotiga ko‘rsatgan ta’sirini matbuot materiallari va ilmiy manbalar asosida asoslaydi. “Hurriyat” va boshqa nashrlardagi maqolalar tahlili orqali Hoji Muinning ijtimoiy adolat, ma’rifat va erkin fikr masalalariga munosabati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *ma’rifatparvar, ta’lim, Kattaqo‘rg‘on, dorilfunun.*

Annotation: in this article, the personality and activity of the jadid intellectual Hoji Muin are examined through the example of the Samarqand enlightenment milieu. The author substantiates Hoji Muin’s influence on the socio-cultural life of Kattaqo‘rg‘on on the basis of press materials and scholarly sources. Through the analysis of articles published in *Hurriyat* and other periodicals, Hoji Muin’s attitude toward issues of social justice, enlightenment, and freedom of thought is revealed.

Key words: *enlightener, education, Kattakorgon, university.*

Аннотация: в данной статье на примере просветительской среды Самарканда раскрываются личность и деятельность джадидского интеллигента Ходжи Муина. Автор на основе материалов периодической печати и научных источников обосновывает влияние Ходжи Муина на социально-культурную жизнь Каттакургана. Через анализ статей, опубликованных в газете «Ҳуррият» и других изданиях, раскрывается отношение Ходжи Муина к вопросам социальной справедливости, просвещения и свободы мысли.

Ключевые слова: *просветитель, образование, Каттакурган, университет.*

Kirish. Samarqand ma’rifatparvarlaridan biri Hoji Muinning nomi muallim, dramaturg, muharrir, tarjimon sifatida o‘z davri matbuotida tez-tez tilga olinadi. Samarqand ma’rifatparvarlik muhitida uning alohida o‘rni bor. Kattaqo‘rg‘on shahrida ham uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, yangi maktablar ochish, sahna asarlari orqali xalq ongini uyg‘otish borasidagi xizmatlari alohida e’tiborga loyiqdir. Maqolada shu haqida fakr yuritiladi.

Asosiy qism. Hoji Muinning Kattaqo‘rg‘on ijtimoiy muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani zamondoshlari tomonidan e’tirof etilgan. Jumladan, 1918-yilda “Ishchilar dunyosi” jurnalida chop etilgan maqolada “agar Munavvar qori Abdurashidxonov Toshkent jadidlarining, Abdurauf Fitrat Buxoro jadidlarining rahbari sanalsa, Hoji Muin Shukrullo Kattaqo‘rg‘on jadidlarining rahbari hisoblanadi“[1] degan ta’kid bor. Darhaqiqat, Hoji Muin turli vajlar yuzasidan bu shaharga tez-tez borib turgan. 1911–1913-yillarda u yerda o‘qituvchilik qilgan bo‘lsa, keyinchalik jurnalist sifatida ham Kattaqo‘rg‘onga borib turganligini o‘sha davr matbuotidan anglash mumkin. Masalan, 1917-yilda chop etilgan maqolalardan birida[2] Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchiligida majlis o‘tkazilganligi, unda yopilish arafasida bo‘lgan “Hurriyat“ gazetasining moddiy ahvolini yaxshilash uchun “Hoji Muin afandi Kattaqo‘rg‘onga borib iona qayd etmoqchi“ bo‘lganligi yozilangan. Uning bu shaharga qilgan safarlari “Kattaqo‘rg‘on xotiralari“ning yozilishiga sabab bo‘ldi. Mazkur maqola “Hurriyat” gazetasining uch sonida chop etilgan bo‘lib, yo‘l ocherkini eslatadi. Birinchi maqolada muallif Kattaqo‘rg‘onga borish asnosida ko‘rgan voqealarni tasvirlaydi: U “vag‘un tirizasindan” boshini chiqarib, yomg‘irsizlikdan ekin bo‘lmagan yerlarga qarab o‘yga cho‘madi: “Zotan yomg‘ur ko‘b yog‘gan yillarda ham Turkistonning ekinlarindan hosil bo‘lg‘on donlar o‘z aholisig‘a zo‘rg‘a yetishur edi. Bu yil yomg‘irsizlikdan ekinlarning barakasi o‘chuk, o‘lkamiz qimmatchilik ustinda, qahatchilikga ham duchor bo‘ldi”[3]. Bundan qashshoqlar ahvoli og‘irlashib, boylar minglarcha foyda ko‘rdilar. U madaniy millatlarning boylari bilan Turkiston boylarini qiyoslab ko‘radi. Ularda boylar ko‘p bo‘lib, qashshoqlar ozchilikni tashkil qiladi. Ammo Turkistonda boylarga nisbatan qashshoqlar juda ko‘p. Madaniy millatlar qashshoq yurtdoshlariga yordam qo‘lini cho‘zadi. Shu sababli ularda gadoylik kabi manfur illatlar yo‘qolib bormoqda. Mana shunday o‘ylar bilan muallif Kattaqo‘rg‘onga yetib keladi.

Ikkinchi maqola Kattaqo‘rg‘ondagi taraqqiyparvar boylardan Mahbubxon afandi haqida, shahar dumasi

1 Мингноров А. “Туркистонда миллий озодлик ҳаракати масалалари давр миллий матбуотида”. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2000. Б. 59.
2 “Ҳуррият”. 1917. 26 сент.
3 Ҳожи Муин. Каттақўрғон хотиралари // Ҳуррият. 1917. 21 нояб.

uchun bo‘lgan saylov to‘g‘risida yozilgan[4]. Uchinchi maqolada Kattaqo‘rg‘ondagi qiroatxona tanqid ostiga olinadi. To‘g‘rirog‘i, muallif hech kim qadam qo‘ymaydigan qiroatxona o‘rniga maktablar ochilsin, keyin qiroatxonaga borib kitob o‘qiydigan kishi topiladi, degan fikrni ilgari suradi[5]. Xullas, publitsist Hoji Muin qayerda bo‘lmasin, qay ishga qo‘l urmasin, ta’lim va tarbiya maskani bo‘lgan maktablar haqida qayg‘uradi, fikrlarini matbuot orqali targ‘ib etadi.

Hoji Muin o‘z kundaligida o‘qituvchilik faoliyati bilan 1918-yilgacha shug‘ullanganligini qayd qilib o‘tgan. Uning xuddi shu davr publitsistikasida ham ilm-ma’rifat targ‘iboti asosiy mavzu bo‘lganini kuzatamiz. Biroq u 1918-yildan matbuot ishlariga sho‘ng‘ib ketgan bo‘lsa ham, maorifdan uzoqlashmadi. O‘z publitsistik maqolalarida maorifdagi muammolarni dadillik bilan ko‘tarib chiqdi, uni yaxshilash, yuksaltirish yo‘lida tinimsiz ishladi. “Mehnatkashlar tovushi“ gazetasida chop etilgan xabarga ko‘ra, maorif komissariligida Behbudiyning betobligi sababli bu vazifani Hoji Muin bajargan[6].

Biroq mahalliy xalq vakillarining yuqoriroq lavozimlarda ishlashi uzoqqa cho‘zilmas edi. Tez orada Behbudiyning iste’fo bergani tarixdan ma’lum[7]. Bunday voqealarga Hoji Muin tinch qarab turolmas edi. U ham, Vadud Mahmud ham Samarqand maorif komissarligi bo‘limi mudirligi lavozimidan ozod qilinadi. Filologiya fanlari doktori B.Karimov “Bu jonkuyar shaxsning ishdan bo‘shatilishi ayrim nufuzli ziyolilarning, jumladan, Cho‘lponning ham haqli e’tiroziga sababchi bo‘ldi. U 1923-yil 7-yanvarda “Turkiston” gazetasida e’lon etilgan “Muttahid frontimizning birinchi vazifalari” maqolasida jamoat ishlariga faol aralashib kelayotgan yoshlarga “anglamas miyalar tomonidan qo‘l tekkizmakka boshlag‘oni”ni yozadi”, deya ma’lumot beradi[8]. Hoji Muinning ham bu boradagi e’tirozli harakatlari, “Turkiston” gazetasida chop etilgan “Ochiq xat”[9]i keyinchalik unga millatchilik tamg‘asining bosilishiga sabab bo‘lgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Fitrat singari atoqli ma’rifatparvarlar qatori Hoji Muin ham Turkistonda oliy maktablar ochilishini orzu qilgan, bu yo‘lda mehnatini ayamagan insondir. Zotan, har millatning taraqqiyot darajasi, tafakkur saviyasini belgilaydigan asosiy mezonlardan biri zamonaviy oliy ta’lim muassasasi hisoblangan. Hoji Muin publitsistikasida dorilfunun tashkil etilishi masalasi muhim mavzulardan bo‘lgani ham tabiiydir. U “Xalq dorilfununi“ maqolasida Toshkentda Turkiston xalqi uchun dorilfunun ochilgani, Muxtor Bakir afandi tomonidan majlis o‘tkazilib, Samarqandda ham dorilfunun ochish uchun tashkilot komissiyasi saylanganligini katta quvonch bilan yozadi va “Inshoolloh, tezdan munda ham dorilfunun sho‘basining ibtidoiy qismi nomi ila erkak bolalar va kattalar ham xotun-qizlarg‘a maxsus bir necha maktab bilan bir sanoe’ maktabi va qisqa muddatlik bir muallimlar kursi ochilsa kerak“[10], deydi publitsist. Mazkur gazetaning keyingi sonlaridan “Tashkilot komissiyasining mudiri” Hoji Muin ekanligi ma’lum bo‘ladi. Uning dorilfunun sho‘basining yig‘ilishiga shahardagi barcha tashkilotlardan vakil yuborishlarini so‘rab yozgan da’vatnomalari gazetada bir necha bor chop etilgan. Afsuski, bu ezgu ish amalga oshmay qolgan. Bu haqda prof. B.Qosimov shunday yozadi: “Biroq ruslashtirishni kundalik siyosat darajasiga ko‘targan Sho‘ro hukumati musulmon dorilfununi faoliyatiga yo‘l bermadi. Besh yilga mo‘ljallangan dorilmuallimin 4 oylik kursga aylantirildi va o‘sha 1918-yilning sentyabr o‘rtalaridayoq tugatildi“[11]. Mana shundan keyin Hoji Muinning matbuotda “Doriljunun“[12] sarlavhali hajviyasi chop etildi. Unda “bolshevik aqchasi“ bir jamoa kishilarni mast qilib, havolantirgani, hatto ba’zilarini “qip-qizil devona“ qilganligi, dorilfunun ochish uchun tuzilgan komissiya a’zolari endi doriljunun(jinnilar uyi) ochishga qaror qilganliklari yozilgan. Publitsist achchiq kulgi yo‘li bilan mazkur masalaga o‘zining munosabatini bildirgan.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand ma’rifatparvarlik muhitida Hoji Muinning o‘rni alohida bo‘lgan.

4 Ҳожи Муин. Каттақўрғон хотиралари // Ҳуррият. 1917. 1 дек.
5 Ҳожи Муин. Каттақўрғон хотиралари // Ҳуррият. 1917. 29 дек.
6 Меҳнаткашлар товуши. 1918. 11 июн.
7 Маҳмудхўжа Беҳбудий. Ташаккур ва эътизор // Меҳнаткашлар товуши. 1918. 27 авг.
8 Каримов Б. Жадид мунаiiиди Вадуд Маμмуд. – Т.: Университет, 2000. Б. 9.
9 Ҳожи Муин Очиқ хат // Туркистон. 1923. 2 май.
10 Ҳожи Муин. Халқ дорилфунуни // Меҳнаткашлар товуши. 1918. 23 июл.
11 Қосимов Б. Миллий уйғониш.-Т.: Маънавият, 2002. Б. 35.
12 Ботурбек. Дорилжунун // Меҳнаткашлар товуши. 1919. 10 янв.

Maysara ESHNIYAZOVA,
ISFT instituti Samarqand filiali
katta o‘qituvchisi



ALISHER NAVOIY – NOVATOR IJODKOR SIFATIDA
(“NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARI ASOSIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat asari haqida ayrim mulohazalar, tadqiqiy materiallar, shuningdek muallifning novatorlik qirralarini dalillovchi misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, sufiy, shayx, adad, xronika, tahrir, ma’rifat.*

Аннотация: в статье представлены размышления о произведении Алишера Навои «Насойим ул-мухаббат», материалы исследования, а также примеры, подтверждающие новаторские аспекты автора.

Ключевые слова: *суфизм, суфий, шейх, адад, летопись, редактирование, просвещение.*

Annotation: this article learns some comments about Alisher Navoi’s “Nasoyim ul-muhabbat” and researches materials, as well as examples proving the innovative aspects of the author are presented.

Key words: *mysticism, Sufi, sheikh, adad, chronicle, tahrir, enlightenment.*

O‘zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin vakili Alisher Navoiy o‘tmish tajribasini, zamondoshlar an’anasini, yondosh xalqlar yangiligini o‘rganish asnosida ulardagi eng muhim jihatlarni o‘z ijodida uyg‘unlashtirib, qayta ishlab, yangi mazmun, shakl va badiiy ifodalar bilan boyitgan holda davr adabiy muhitida yangicha ijodiy maktab yaratgan novator sifatida serqirra faoliyat olib bordi.

Turli manbalarda “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asari turlicha ta’rif etilgan. Aksar manbalarda bu asar Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” asari tarjimasi sifatida berilsa, ayrimlarida shu asar ta’sirida yaratilgan mustaqil asar sifatida baholanadi. Mavzu va mazmuniga ko‘ra “Nasoyim ul-muhabbat” “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida “sufilar haqida”gi asar deb qayd etilgan[1]. Olim Sharafiddinov tomonidan esa mazkur asarga “mashhur darveshlarning turmushi to‘g‘risida”gi asar deb baho berilgan[2]. Adabiyotshunos Aziz Qayumov tomonidan “Nasoyim ul-muhabbat” asari filologiyaga oid asarlar sirasiga kiritilib, uning “asosiy mazmuni tasavvuf ahliga taalluqli ma’lumotlardan iborat” deb qayd etiladi[3]. Ergash Ochilov “Nasoyim ul-muhabbat” asarini “tasavvufiy g‘oyalar targ‘ib etilgan asar” sifatida baholagan[4]. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov hammuallifligida yaratilgan “Navoiyshunoslik” darsligida “Nasoyim ul-muhabbat” “Diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-ta’limiy asarlari, yodnomalari” sarlavhali qismida beriladi[5]. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri)” qo‘llanmasidagi “Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari” sarlavhali qismda muallif “Arba’in”, “Vaqfiya”, “Nazm ul-javohir”, “Siroj ul-muslimin”, “Munojot”, “Risolayi tir andoxtan” asarlari qatorida “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari haqida ham bayon qiladi[6].

1 Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 664 б.
2 Шарафиддинов О. Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1971. – 192 б.
3 Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 40 б.
4 Очилов Э. Алишер Навоий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 195 б.
5 Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B.227-270.
6 Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.198.

“Nasoyim ul-muhabbat”, bizningcha, tub mazmun-mohiyatiga ko‘ra insonning ikki dunyo saodatiga erishuvi uchun zarur bo‘lgan bilim-ma’rifatni ulashishga xizmat qiladigan ***ma’rifiy-adabiy*** yo‘nalishda asar sanalib, uni mazmun-e’tibori, g‘oyaviy-badiiy maqsadi hamda muallifning maqomi (pozitsiyasi)dan kelib chiqib tasavvufiy mazmundagi asar sifatida baholash o‘rinlidir.

“Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asari tasavvufiy shayxlar hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi nodir manba sanaladi. Asar quyidagi jihatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi:

1. Turkiy tilda yaratilgan. XV asrgacha bo‘lgan tasavvuf tarixini qamrab oluvchi ishonchli manbaga ehtiyoj sezilganligi bois Alisher Navoiy iltimosi bilan Abdurahmon Jomiy tomonidan “Nafohat ul-uns” asari yozilgan. Biroq bu mavzudagi barcha asarlar forsiy va arabiy tilda bo‘lganligi uchun turkiyzabon aholining bunday yodnomalardan bebahra qolayotganligi sababli ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida “Nasoyim ul-muhabbat” asari yaratildi;

2. To‘ldirilgan. Manbalarda, jumladan, “Navoiyshunoslik” darsligida “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi shayxlar soni 618 tadan 770 taga yetkazilgani haqida qayd mavjud[7]. Biroq A.Jomiyning kitobida 618 shayx ketirilgani holda Alisher Navoiy ishonchli manbalar va muallif xulosalari asosida mazkur adadni 779 taga yetkazadi. Jomiy tomonidan bitta faslda ikkita raqam ostida berilgan shayxlar (137-138-, 293-294-, 311-312-, 402-403-, 406-407-, 554-555-, 556-557) Navoiy tomonidan bitta maqolada bitta raqam ostida berilgan (145-, 300-, 317-, 408-, 411-, 596-, 597-maqolalar). Undan tashqari, 552- va 556-maqolaning har birida ikki nafardan shayx haqida birgalikda ma’lumot beriladi. Shunga ko‘ra, “Nasoyim ul-muhabbat”da zikr qilingan shayxlar va sufiylar adadi 779 nafarni tashkil etadi[8]. Asarda mutasavviflar tarixi A.Jomiy asaridan farqli ravishda Uvays Qaraniy haqidagi bob bilan boshlanib, Navoiyga zamondosh valiy va valiysifat zotlar hamda shayxlar haqidagi ma’lumotlar qo‘shilgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiy keltirgan mutasavviflar zikri Abuhoshim Sufiy bilan boshlansa, Alisher Navoiy bu zotgacha bo‘lgan davrda yashab o‘tgan yana yettita shayxning nomini keltiradi. Shuningdek, Zunnun Misriydan so‘ng kelirilgan sakkiz nafar shayx nomi orasida islomdagi to‘rt mazhab boshliqlari – Imom Azam, Imom Shofe’iy, Imom Ahmad Hanbal, Imom Molik kabi zotlar haqida ham zikr qilinadi. turli o‘rinlarda matn izoh va sharhlar bilan boyitilgan, natijada nisbatan mukammal va ishonchli manba vujudga kelgan[9];

3. Tahrirlangan. A.Jomiy tilga olgan ayrim shayxlar haqidagi maqolalar Alisher Navoiy tomonidan “Nasoyim ul-muhabbat” asariga kiritilmaydi, ba’zi shayxlar hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlar juz’iy qisqartiriladi. Jumladan, Isrofil, Yusuf Asbot, Muhammad ibn Xolid, Ibrohim bin Shammosi Samarqandiy kabi bir necha zotlar haqidagi qismlar tarjimon-muallif g‘oyaviy maqsadiga ko‘ra, “Nasoyim ul-muhabbat”dan o‘rin olmagan; Abu Ya’qub Hoshimiy r.t. (19), Abu Hotam Attor q.s. (43), Yahyo ibn Mu’oz Roziy q.t.r. (48), Muhammad b. Mansur Tusiy q.s. (61), Ahmad b.Abulhavoriy q.s. (64), Sahl b. Abdulloh Tustariy q.s. (66), Abbos b. Yusuf Shakliy q.s. (68) va yana boshqa bir qator shayxlar haqidagi maqolalar ancha qisqartirilgan[10]. Undan tashqari, Alisher Navoiy shayxlar haqidagi ma’lumotlarni joylashtirishda xronologik ketma-ketlikka alohida e’tibor beradiki, natijada bu zotlar haqidagi maqolalarning asarda kelish tartibi “Nafohat ul-uns”dan farqlanadi. Masalan, Qosim Harbiy degan zot Shaqiq b.Ibrohim Balxiy, Dovud Balxiy kabi shayxlardan so‘ng yoki Abu Abdulloh Javporayi Sofiy tartibda Abu Tolib Muhammad b.Ali b.Atiya Horisiy Makkiydan oldin keltiriladi va h.k. A.Jomiy asarida 165-maqolada tilga olingan valiy G‘onim b.Sa’d deb keltirilsa, Navoiyning

7 Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B.245.

8 Qarang: وہ, ۱۲۱: نفحات الانس من حضرات القُدس نورالدّین عبدُ الرّحمان جامی va Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat.– Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – B.87-504, 653-663.

9 Bu haqda qarang: Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B.244-245.

10 Qarang: وہ, ۱۲۱: نفحات الانس من حضرات القُدس نورالدّین عبدُ الرّحمان جامی va Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – B.87-504, 653-663.

asarida bu zotning ismi Olim b.Sa’d r.t.r. deb o‘zgartiriladi[11];

4. Tushunarlilik. Asar Alisher Navoiy tomonidan yozilgan mustaqil muqaddima bilan boshlanadi, bu qism Jomiyning tazkirasidagi muqaddima[12]dan ko‘ra avom-u xos anglay oladigan sodda va tushunarli tilda bitilganligi, suluk ahli uchun eng muhim masalalar haqida bayon qilinganligi bilan farqli va ahamiyatlidir. Asarda shunday yoziladi: “Yana biri zakotdur. Bu toifa (sufiy shayxlar – *mual*.) dunyo tarkini ixtiyor qilibdurlar. Alardin yuzdin biri sohibi nisob bo‘lmaslarkim, alarg‘a zakot farz bo‘lg‘ay. Ba’ziki, bo‘lsalar ham tamomin Tengri yo‘lig‘a sarf qilurlar va minnat jonlarig‘a tutarlar. Shayx Abubakr Shibliy q.s.din bir faqih so‘rubdurki, zakot adosi ne nav’dur? Shayx debdurlarki, sanga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Yo manga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo‘lur zakot qaysidur va sanga bo‘lur zakot qaysidur? Shayx debdurlarki, sanga bo‘lur zakot uldurkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo‘lida bergaysan. Manga bo‘lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo‘lida bergaymen. Debdurlarkim, ikki yuz diramkim berildi, yana besh diram nedur? Shayx debdurlarki, ul besh diramni burj qilib, ul ikki yuz diram bergan shukronag‘a berilg‘ay. Va bu Abubakr Siddiq mazhabidur, raziyallohu anhu”[13].

Ko‘rinadiki, “Nasoyim ul-muhabbat” mutasavvif shayxlar, ularning hayot tarzi, e’tiqodi va a’mollari haqida saralangan va boyitilgan noyob ma’lumot va bilimlar aks ettirilgani, tasavvuf tarixi bir yerda jamlangani, nodir maslak sohiblarining hikmatomuz fikrlari kelgusi avlodga yetkazib berilgani, shuningdek o‘ziga xos ibrat maktabi bo‘ladigan asar ekanligi bilan juda qimmatlidir.

11 ۱۵۸- غانم بن سعد، رحمه الله تعالى “Nafohat ul-uns”da keltirilgan holat. Yuqoridagi asar, 104-bet. “Nasoyim ul-muhabbat”dagi holat esa yuqoridagi nashr, 171-bet.

12 “Nafohat ul-uns” asari muqaddimasida valiylik, ilm, olim va johillik, sufiylar, mutasavviflar, malomatiy va faqirlar sifatlari, tavhid, uning darajalari va ustozlari, valiy arboblar tasnifi, mo‘jiza, karomat va ishoratning farqlari va shu kabi mavzular haqida ilmiy-nazariy bilimlar asosida fikrlar bayon qilinadi va asosan sohadan xabardor kishilar tushuna oladigan tarzda yozilgan.

13 Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.94-95-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat.– Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.87-504, 653-663-bet.

2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.227-270-bet

3. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. 664-б.

4. Очилов Э. Алишер Навоий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.195-б.

5. Шарафиддинов О. Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1971.192-б.

6. Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011.40-б.

7. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Академнашр, 2013.198-b.

8. نورالدّين عبدُ الرّحمان جامى نفحات الانس من حضرات القُدس: ١٢١, وه

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy ustoz

“HUSN BOG‘I” – QADD-U QOMAT RAMZI YOXUD “HUSN BOG‘INING BO‘LUR ERMISH NIHOLI O‘ZGACHA”

(Adabiyot muallimlari e’tiboriga taqdim)

Assalomu alaykum, aziz yosh hamkasblar. Mana bugun «G‘aroyib us-sig‘ar» devonining 371-g‘azali yuzasidan olib borayotgan navbatdagi suhbatimiz. Agar haqiqatan ham avvalgi suhbatlarimizni tushunib yetgan bo‘lsangiz, biz Sizning bu intiluvchanligingizdan juda mamnunmiz. Stolingiz ustidan «Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at» kitobi, qog‘oz va qalam o‘rin olgan bo‘lsa, bugungi mashg‘ulotimizni ham boshlaymiz. Suhbat mavzusi quyidagi bayt:

Xazon sipohiga, ey bog‘bon, emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Ushbu bayt mutaxassis-navoiyshunoslarning ta’kidlashicha “Qaro ko‘zum” g‘azalining **lirik chekinishi** ekan. Biz kuzatayotgan syujetga ko‘ra oshiq yor jafosi, umr safosi haqda so‘zlab shikoyatlar qilib borayotib edi, kutilmaganda shoir hayot ibrati, umr vafosi masalasiga faylasufona yuz buradilar. Hayotiy lavhalardan o‘gitiy mazmun kashf etishga o‘tadilar. TAN “bog‘bon”i turmushidan ibratli epizod so‘zlaydilar. Umr kuzi manzaralarini berish uchun **bog‘** – balog‘at fasllari, inson tanasi; **bog‘bon** – shu “gulshan”ning murabbiysi, tan egasi (oshiq yo ma’shuqa), **xazon sipohi** – qarilik, inson umrining quvvatsizlanib, yuzlar sariq tus olib umr zimistoniga kirib borish pallasi; **bog‘ tomi –** inson aqli va tafakkuri **, ignadin tikan** – muhofazakorlik hamda ehtiyotkorlik, qadar va qazoga qarshi bormaslik singari ramziy-timsoliy tasvirlar chizadilar…

Endi bu gal boshqacha yonalish olamiz. Shu o‘gitiy “lirik chekinish”ga boshqa olimlarimiz bergan sharhlarni birgalikda kuzatamiz va so‘ng xulosalaymiz. **Filologiya fanlari doktori Ismatilla Abdullayev tahlilidan.** (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1975-yil 20-oktabr soni.)

“Ey bog‘bon, sen, bog‘ingga hech kim tushmasin va uni payhon qilmasin deb, uning tom va devorlariga ignalardan tikan sanchib qo‘ygan bo‘lsang ham, quritish lashkarlari (xazon sipohi) uchun bu tikanlaring monelik qilolmaydi, ya’ni baribir quritish lashkarlari bog‘ingni quritib yuboradi”.

Endi filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov ustoz sharhidan: (“Yoshlik” jurnali, 1987-yil 2-son.) “G‘azalning murakkab ma’noli tagdor baytlaridan. Shoir ishq-u oshiqlik, sevgi-sadoqat haqida yozib kelib birdaniga dunyo va uning ishlari, umr, hayotning o‘tkinchiligi to‘g‘risida falsafiy mushohadaga beriladi… Yor jamoli vasfi, sadoqat izhorining xushholliklaridan keyin buni qanday tushunish mumkin?

“Xazon sipohi” – kuz lashkari, xazonrezgi payti. Tikan, igna orqali lashkarning nayzalari ham qiyosga olingan: son-sanoqsiz qo‘shin qo‘lidagi uchli nayzalar uzoqdan osmonga qaratib terilgan ignalarday ko‘rinadi… Navoiy o‘z davrida keng tarqalgan yana bir odat – bog‘ va hovlilarning devori ustini tikanli butalar bilan o‘rashi nazarda tutilgan. Bog‘dagi mevalarni zararkunanda hayvon va o‘g‘rilardan qo‘riqlash uchun shunday qilingan. Shoir shunga ishora qilib deydiki: “Ey bog‘bon, sen bog‘ing devorlarinigina emas, uning tomi ustini ham hatto ignadan tikanlar yasab, berkitib chiqsang-da. uni xazondan saqlab qololmaysan, baribir kuz keladi, daraxtlar bargi xazon bo‘ladi”. Baytning mazmuni: “Ey bog‘bon, bu bog‘ tomini ignadan tikanlar qilib yopib chiqsang ham, kuz qo‘shinining hujumiga mone’lik qilolmaysan”. Chunki inson falak aylanishi, zamonlarning o‘tishi, tabiat qonunlariga qarshilik qilishga ojiz. Shunday bo‘lgach, yor vasliga intil, g‘animat damlarini behuda o‘tkazmay, umr shodliklaridan bahramand bo‘l. Bunda dunyoga mehr qo‘yish, olam-olam qo‘shin yig‘ib jahongirlik qilish, mol-u mulk yig‘ishga qarshi fikr ham mujassam, zero, qancha mehr qo‘yma, dunyo baqosiz, faqat ilohiyot abadiy, o‘shaning yodida yasha. Ma’lum bo‘ladiki, bayt ohangida hazinlik sezilsa-da, lekin botiniy ma’no xulosasi hayotsevarlikka hidoyat etadi va shu asosda oldingi baytlarga bilvosita bog‘lanadi”.

Endi tadqiqotchi Valijon Qodirov fikirlari bilan tanishaylik: (“Sharq yulduzi” jurnali, 1991-yil 9-son).

“Bu baytni tushunish uchun “bog‘, “bog‘bon” so‘zlarining tasavvufiy ma’nosini aniqlab olish zarur. Bog‘ – daraxtzor, mevali daraxtlar maydoni. Daraxt tasavvufda inson naslini bildiradi. (Qaysi lug‘atga asosan? M.O.) Inson naslining bog‘boni ham odamning o‘zi. Chunki bog‘bon yangi nihollarni o‘stirgani kabi, kishi ham o‘zidan nasl qoldirib tarbiyalab, uni voyaga yetkazadi. Bunda dunyoviy hayot ramzi sifatida berilmoqda. Xazon sipohi – xazonrezgilik, inson hayotining oxiri, keksalik davri. Bayt ma’nosi: Ey inson, agar sening umring oxirlab, keksalik davri kelsa, qanchalik harakat qilmagin, unga hech narsa mone’ bo‘lolmaydi, chunki bu olam o‘tkinchi dunyo. Bu qisqa davr davomida poklanishga ulgurish, vujudi mutlaqqa yetishga erishish kerak. Bu bayt yuqoridagi baytlarda ifodalangan oshiqning zor-intizorligi, cheksiz qiynoqlari va besabr intilishlarining sababini tushuntirgandek bo‘ladi”…

Endi akademik Alibek Rustamovning shu bayt sharhiga bag‘ishlangan mulohazasi: (“Adiblar obobidan adablar”. – T., 2003-yil.) “Bu baytda kuz izg‘irinining bog‘ni xazon qilishi – yopirilib shahar darvozasidan oshib kelib, u yerni vayron qiluvchi sipohga o‘xshatilmoqda. “Tom” so‘zining ma’nosi devordir. Sho‘x bolalar devordan oshib bog‘ni payhon qilmasliklari uchun devor ustiga tikan o‘rnatish odat bo‘lgan. Shoir kuz kelgach, devorning tikanini ignadan qilsang ham uni xazon ta’siridan saqlab bo‘lmaydi, deydi. Nega shunday deydi? Navoiy ikkinchi baytda aytilganidek, inson yuzining guli va uning qaddi niholidan vujudga kelgan ko‘nguldagi ma’naviy bog‘ abadiy, unga fasllarning tasiri yo‘q. lekin moddiy bog‘ muvaqqat narsa, demoqchi. Muvaqqat narsaga ishq qo‘yib bo‘lmaydi, shu tufayli o‘zga kishilarga zarar yetadigan ishlarni qilib bo‘lmaydi. Moddiy narsalarni insondan aziz deb bilish kishini haqiqat yo‘lidan ozdiradi”.

Endi kaminaning izohi: (“O‘qituvchilar gazetasi” 1996-yil 7-fevral soni)

“…bog‘bon kuz fasli yaqinlashayotganini bilib, bo‘g‘ini Qo‘qon devor bilan o‘rab chiqqan, ustiga tikan-butalar ham qadab qo‘ygan ekan. Kim ham o‘z bog‘ini sap-sariq rangda ko‘rgisi keladi. Vodarig‘, baribir kuz boqqa kiribdi. Bu nimasi? Bu abadiy va azaliy hukm. Bu sun’ naqqoshi charxni mana shunday tilsimli yaratgan. Axir, inson umrining ham fasllari bor-ku. Shu sabab lirik parda ortida yor borligi, uning umr fasliga ham kuz kirishi mumkinligi, bunga bog‘bon kabi qarshilik ko‘rsatish befoyda ekanini, qadar va qazo azaliy ekanini eslatmoqda. Demak, Yor va oshiqning galdagi imkoniyati navbatdagi faslga tayyorgarlik ko‘rib qo‘yish, umrni bekorchi hoyyu havaslarga sarf etmaslik ekan. Nega kuz, qish emas? Umrning qishida kechikish mumkin. Kuzda olam sariq rangga burkanadi. Sariq rang – ayriliq, ishq azobi, oshiqning g‘amzada yuzi. U so‘nggi sinovdan darak”…

Keyinroq yana bir maqolamda esa bunday tahlil qilganman: (“Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1998-yil 4-son.) “Bu yerda tom – so‘zini devor, to‘siq, qo‘ra, g‘ov ma’nolarida anglash mumkin, yana uni – tom, ya’ni uyning ust qismi – tomi ma’nosidagi tepasini, ustini mazmunida ham anglash mumkin. Shunda u 2-baytda bayon qilingan inson yuzi guli va qaddi niholi yodidan vujudga kelgan Ko‘ngil ravzasi (bog‘i) nomli ma’naviyat gulshani va chamanzorining aksi bo‘lgan, muvaqqat va moddiy (foniy) bog‘ning ustini bildiradi. Bu bog‘ni har qancha berkitilmasin, baribir azaliy va abadiy hukm nizomi ostida kirib keluvchi voqeliklar mavjud. Biri – kuz, biri esa shabnam (shudring) dir. Kuz o‘zi bilan xazonrezgilik boshlanishini ham yetaklab kelib bog‘ni qish uyqusiga hozirlaydi. Shu kabi inson umrining ham fasllari bor. Bahor ayyomi bilan xushnud, ey ruxsor. Navbatda sening kuzing ham bor. Ko‘p noz-u ishva qilavermay oshiqlaring niyozmandligiga ham imkon ber, “demoqdalar”…

Meni ma’naviy qoniqtirgan, mulohazalaridan ichim chiqqan eng **so‘nggi sharh filolologiya fanlari nomzodi Ismoil Bekjonov ijodiga mansub:** (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi.)

“Ma’shuqaning oshiqni kuydiradigan nozlaridan biri – uning o‘z husniga bino qo‘yishi, go‘zallik faslining ham intihosi borligini anglamasligi yoki anglasa-da, imkon qo‘lida bor chog‘ida oshiqni sinab ko‘proq qiynab qolishga urinishidir… Shuncha azob chekayotgan oshiq bunga ham chidashi mumkin, albatta. Lekin u bu haqiqatni suyuklisi esiga solib qo‘yish bahonasida yana bir bor dardini to‘kib solmoq istaydi. Oshiq goh faylasuf bo‘lib tabiat qonuniyatlaridan, umr zavoli; kuz daraxtlarni so‘ldirishi, shirin mevalardan asar ham qolmasligi, bog‘ endi o‘z fayz-u tarovatini qo‘ldan berajagi kabi vaqt har qanday go‘zallikka nisbatan o‘z hukmi va zug‘umini o‘tkazishi, uni hech qanday yo‘l, vaziyat bilan to‘xtatib qolish mumkin emasligini anglatish va uqtirish yo‘li bilan ma’shuqani bu bahor

damlarini g‘animat bilishga chaqirmoqda. Shoir o‘z fikrini bo‘rttirib vahimali ko‘rsatish uchun xazonli kuz kelish manzarasini, qahrli dushman lashkarlarining shahar qal’asiga bostirib kirishi, istehkomlarni vayron, aholisini talon-taroj qilish voqeasiga o‘xshatadi”…

Ko‘ryapsizki, bayon qilish usuli har xil bo‘lsa-da, obyekt yagona bo‘lganligi sababdan olib boradigan manzili o‘xshash, chiqarilgan o‘gitiy yakunlari umumiy bo‘lgan sharhlar ekan…

Endi baytdagi **bog‘** mavzusiga qaytsak, bizningcha **bu bog‘ Yor va Oshiq jism-u tanasi, vujud-u joni timsoli**. Hozir o‘zingiz iqtiboslarni kuzatib shu qarorga kelasiz:

Yilda besh-o‘n kun o‘ldi nihol uzra gul, valek

Gul keldi to‘rt faslda qadding niholida (ey Yor).

Husn bog‘inda ko‘rub zulfu qadingni **bog‘bon** (oshiq)

Chekti xijlat sunbulu sarvi xiromoni birla. (II-563-g‘.)

Bog‘ naxling qadingdek boshida gul butmamish,

Husn bog‘ining bo‘lur ermish **niholi o‘zgacha**. (II-549-g‘.)

Chun **husn**(bog‘i)**davri** vafosizdur, **ey guli ra’no,**

Qil iltifot gohi andalib(oshiq)lar sori. (II-605-g‘.)

Jamoli kozgusi ichra sorig‘ yuzum aksi,

Ajab: **xazoni** ayon aylamish **bahor** ichra.(II-562-g‘.)

Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za’faroni yuz,

Falak zulmi badal qildi **xazon** ila **bahorimni**.(II-656-g‘.)

Xazon faslida ul oy jismi ruxsorini ko‘rgan chog‘.

Degaykim:bir quruq shox uzra qolmish sorig‘ yafrog”.(II-297-g‘.)

Qadam qo‘yma adabsiz bu **xazon ko‘rgan chaman ichra,**

Ki bor gulrang yuzing safhasidadur har sorig‘ yafrog‘.

Bog‘(qomating) **aro ruxsori qadding** jilvasin to ko‘rdilar,

Bo‘ldi obi tobsiz gulbargi ham,shamshodi ham.(II-408-g‘.)

G‘azallaridan ma’lumki shoir fors-tojik, arab-u turk, hind-u ozar mumtoz adabiyotida qollangan barcha ramziy obrazlarni o‘z g‘azallarida keng qo‘llaganlar. Hatto, muxlis tushunmay qolmasin deb “yuz guli”,”g‘am tuni”,”ishq vodiysi”,”firoq tog‘i”,”husn bog‘i”kabi tashbeh – iboralarni qisqartirib istiora shaklida qo‘llashdan tiyilganlar. Shu sabab bunday baytlardagi **“bog‘bon”** va **“bog‘”** so‘zini ham o‘z ma’nosidagi bog‘ egasi (sadovnik, sad) deb emas, balki **ramziy bog‘ egasi** (boy qiz, ma’shuqa) yoki ayrim o‘rinlarda shu yosh (nihol – boy qiz)ni tarbiyalab oluvchi **oshiq** (lyubovnik) ma’nosida anglash va tushunish sharhni to‘g‘ri yechimga olib keladi. Menimcha, bu holatlarni yuqorida berilgan dalil-sitatalardan anglab yetdingiz…

*Qomat*ingdek **bog‘i husn** ichra yo‘q sarvi ravon, (qomat – bog‘i husn)

Orazingdek xud qoni sarv uzra arg‘uvon. (II-444-g‘.)

Bu baytda yor qaddini sarvga, yuzini arg‘uvon guliga o‘xshatib, manzurning shunday **qomati niholi ulg‘ayayotgan “o‘rin”ni HUSN BOG‘i ekanligi aytilmoqda …** Shu *bog‘i husn*: **tana, vujud, qomat, jism, jussa** bog‘boni esa mantiqan manzura (qiz) yo oshiqning o‘zi bo‘ladi-da, shubhasiz…

Ana endi yuqoridagi iqtiboslarga asoslanib 6-baytdan chiqib keluvchi nasriy bayon, bizningcha, shunday: “**Ey umrining bahor faslida davron surayotgan noz-a-nin! Endi oshiqlarning niyozmandligini tan olib, o‘z fitnay-u ishvang, noz-u istig‘nongni ozaytirib mardumafkandlig‘** (mardlik) **qilib, mardumkushlik** (oshiqqotillik) **dan tiyilib, mardumdorlik** (muloyimlik) **shevasini tutsang bo‘lardi. “Bahor ayyomi besh kun g‘animat angla”b o‘zingni me’yorsiz kerakli qilishdan xorimadingmiki, bu husn bog‘i tomida ignay-u tikan**(aql va tafakkur choralari)**dan “devor” qursang ham qadar va qazo hukmini hal etolmaysan. Chunki kajraftor falak… Husn bog‘ingdagi xazon yellaridan nasm esganida, shu husn bahoring intihosidan firib yeb, nadomatlar tortib qolmagin”.** Shunda afsus-la:

Ko‘p osig‘ umrum **bahorin mevasidin istadim.**

Mevaga yetmay **xazon bo‘ldi bahorim ne osig‘,-** deb qolma” deyayaptilar hazrat. (II-302- g‘.)

Navbahori husni(ng)**din topma firibé, ey sho‘xkim,**

Charx davri **navbahor o‘tmay xazonin yetkrur**. (II-144-g‘.)

Demak, yuqoridagi iqtiboslarni kuzatish jarayoni bizni shunday xulosaga boshlamoqdaki, “Qaro ko‘zum” g‘azalining 6-baytidagi **bog‘** moddiy bog‘ mevazor-u gulzor emas, **inson tanasi** – vujudi va ko‘ngil olamini ifodalovchi **ma’naviy-ramziy bog‘**ni ifodalar ekan… Uni shoir misralaridagi **ishoralar** sabab **Yor jismi** – **“husn bog‘i”** (qomat) deb anglasak va shunday qabul qilsak, shunda bu baytni

lirik chekinish deyishga ham aslo hojat yo‘q. **U o‘z-o‘zidan g‘azal syujetining tarkibiy qismi sifatida o‘zining tabiiy-azaliy haqli o‘rnini** “bizningcha” **qayta to‘liq egallaydi…**

Ushshoq ashkidin su ichib bar jafo berur,

Yo Rabki, **qomating ne ajoyib nihol erur?!**

Gap “Qaro ko‘zum” asari haqda borar ekan, bu g‘azal tahlili, uzoq yillardan buyon umumiy o‘rta ta’lim maktabi dasturida asosan, 8-sinf adabiyot darsligida berib kelindi. Sakkizinchi sinf o‘quvchisi bu 15-16 yoshlardagi o‘spirin. Bu yoshdagi o‘smirga, umuman, Navoiyning oddiy o‘rtamiyona dunyoqarashga ega muxlisiga bu g‘azalning badiiy jihatlarini ochishga qaratilgan chuqur tahlillar yoxud g‘azalning tasavvufiy mazmunini batafsil ochish niyatlangan: so‘filik suluki silsilasi (tajalli nazariyasi)ga, Navoiy tasavvufidagi visol onlariga, yuksak orzulangan botiniy yor – Haqqa, ilohiy ma’shuq lutf-u ehsoni tajallisiga, asl moya bilan birlashish – vahdati vujud istagiga, tasavvuf nazariyasiga asoslangan akademik sharh, ya’ni **oddiy navoiyxon muxlisga mazmuni o‘ta labirint bo‘lgan akademik talqinlarga**, aslo hojat yo‘q. Bu yoshdagi o‘spirin navoiyxon yoshlarga va shoirning oddiy ixlosmand muxlislariga, bizningcha, g‘azalning qiz va yigit (oshiq va ma’shuqa) o‘rtasida ro‘y berayotgan insoniy tuyg‘ular in’ikosi mahsuli bo‘lgan sevgi kechinmalari va iztiroblarini ochib berishga qaratilgan oddiy, kitobxonning boshini qotirmaydigan sodda sharhlar zarur. Chunki ular filolog, adabiyot muallimlari, adabiyotshunos yoki til-adabiyot bo‘yicha respublika olimpiadasi g‘oliblari emas, ular oddiy o‘rtamiyona qarashli ixlosmand muxlis. Demak, sharh saviyasi ham shunday auditoriya vakillariga muvofiq bo‘lmog‘iga asosiy e’tiborni qaratishga to‘g‘ri keladi. Bunday ommabop tahlilni esa professional navoiyshunos emas, biz singari oddiy muxlis navoiyxon qilgani o‘rinliroq bo‘lsa kerak…

Xulosa shuki, kuzatilgan iqtibos-dalillardan, shoir ijodiy laboratoriyasi tajribalaridan kelib chiqib shoir g‘azallarida qo‘llangan **bog‘** – inson tanasi, vujud-u jismini ifodalovchi, she’riyatda “**husn bog‘i**” birikmasi bilan ifodalanuvchi bir **ramziy obraz** ekan. Sinchkov muxlis uchun hammasi oddiy, hammasi sodda: shunchaki navoiyona tashbeh va tasvirlar ekanligini sodda qilib yetkazish lozim bo‘ladi.

Kular, ey bog‘gon,(oshiq) har g‘uncha go‘yo-

Ki: **g‘ofildur xazon**(o‘lim)**din guliston**(husn bog‘) **ing!**

Chekma boshkim emin emassan XAZON(o‘lim) yag‘mosidin,

Bu chaman (husn bog‘i) ichra agar savsan, agar shamshod bo‘l. (I-384-g‘.)

Chu tuzung **HUSN BOG‘IN**, uzor-u qadni qilding:

Birin(uzor) – gulbarg ra’no, birisin(qad) – sarvi cholok. (II -322-g‘.)

Ushbu sharhiy mulohazalarimizdan kelib chiquvchi **so‘nggi yakuniy xulosa shuki**, biz “Qaro ko‘zum” g‘azali tadqiqi tarixida hali birorta shorih bayon qilmagan, biroq: **shoir lirik iqtiboslari oydek ravshan isbotlab turgan bir qarash**: ya’ni bu g‘azal 6-bayti 12-misrasidagi **BOG‘** so‘zi mevazor moddiy bog‘ni emas, inson jussasini ifodalovchi, kishi tanasi – HUSN BOG‘I atalmish odam umri fasllari bilan bog‘liq **foniy-ma’naviy “bog‘”ni** bildirmoqda ekan. Yuqorida biz bu iddaomizni lozimicha iqtibosiy dalilllar bilan isbotlashga urindik. Shoir ijodiy laboratoriyasiga tayanib yuqorida keltirilyotgan she’riy iqtiboslarga asoslanib ushbu baytdagi **bog‘** so‘zi: **bog‘i husn** atalmish **inson vujudi** (figurasi) ekanligi to‘liq ayonlashayotganini shorihlar, navoiyshunoslar va shoir ixlosmand muxlislari tomonidan to‘liq e’tirof etilsa, **bu baytni lirik chekinish deyishga ham also hojat yo‘q**. Shundan so‘ng bu bayt o‘z-o‘zidan avtomatik tarzda g‘azal mazmuniy silsilaviy syujetidan uning tabiiy va tarkibiy qismi sifatidagi o‘z “qonuniy” haqli o‘rnini egallaydi. Bu bilan g‘azal ilk ijodiy yaratilish davridayoq ushbu tana bog‘boni (oshiq yo ma’shuqa)ning tabiiy jussasi ma’nosida bo‘lgan **bog‘** so‘zi esa o‘zining azaliy va abadiy qoim o‘rnini adolatli qayta egallashi orqali ushbu bayt uzoq yillar davomida qatog‘onga uchragan yetim boladek o‘gay nomi bo‘lmish – **lirik chekinish** atalmish asrandi ismidan forig‘ bo‘lib, nihoyat, mutloq istiqlolga erishadi… Natijada, akademik fikrlovchi shorihlarimiz tomonidan uzoq yillar davomida ushbu bayt peshonasiga adabiy mahbus sifatida urilgan tamg‘a – *lirik chekinish* nomli badiiy ayblov hukmidan va nihoyat ozod bo‘ladi. Va ushbu g‘azal ma’noviy-mazmuniy maydonida mustaqil so‘z sifatidagi o‘z erkin shaxsiy ma’ni qatlami o‘zanidan o‘z o‘rnini qayta to‘liq egallaydi. Bir adabiy mahbusning achinarli taqdiri sabab muxlisona tadqiqotlarimiz davomida advokat singari hayajon va ehtiroslarga berilgan bo‘lsam, hazratning sodiq fanat muxlislaridan uzr so‘rayman. Nihoyat, abadiy mahbus №6 b 12-13 m badiiy ayblov hibsxonasidan ozod etildi. Yashasin ma’noviy Erk, mazmuniy Ozodlik!

Ul kishi **umri bahoridin** terar **gulbargi aysh**,

Kim kafida lolagun may birla bo‘lg‘ay sog‘ari.(II-640-g‘.)

Demak, yuqorida bizni quvvatlash uchun keltirilgan dalil-iqtiboslarning umumiy xulosaviy motiviga asoslanib bu baytni quyidagicha: Xazon sipohi (qarilik lashkarlari: g‘am, dard, yo‘qchilik, tajribasizlik, quvvatsizlik va o‘lim)ga, ey tan Bog‘boni (ma’shuqa, ba’zan oshiq), bilki hech narsa aslo to‘siq bo‘lolmaydi. Chunki bu umr fasllari mana shunday galma-gal kechish asosiga qurilgan. Qadar va qazo lavhi mahfuz bitigi. Unga ming muhofazakorlik qilgin imkonsiz. Inson falakning ilohiy qonunlariga qarshilik qilolmaydi. Xazon(qari)rezgilik fasli umr fasllarining tabiiy-mantiqiy bosqichi ekanligini ma’rifiy angla!

Bu Husn bog‘i tomi(tafakkuring, onging, miyang, dunyoqarashing)ga igna(turli o‘ylar, kutilmagan yechimlar, aqliy hozirjavobliklar)dan to‘siq qo‘ymoq istovchi allomayi zamon bo‘lsang-da, bu ishing befoyda. Chunki ilohiy hukm – nizomlari oldida sening odamiy hukm – choralaring chikora? Ularni o‘ylayversang bu bog‘ (jussa) **tomi ketib qoladi**… Eng yaxshisi ilohiy-mantiqiy qonunlarga bo‘ysunib, unga moslashib, havosini olvolib tanqayiq(vujud)da oqim bo‘ylab suzib o‘tmoq joiz, deyilmoqda ekan.

Umrining bahor ayyomida o‘z chiroyiga bino qo‘yib husn shohi, jamol sultonbegimi bo‘lgan badmehr, mardumlig‘ shevasidan yiroq bir dilozor pari paykarning imkon qo‘lida pallasida g‘amzada oshiqlar boshiga jahon ayvonida mavjud barcha azob-u uqubatlarni qastdan solib, bisyor sinashga uringan Yorning ushbu go‘zallik fasli bog‘i tomiga o‘zicha igna-yu butadin “to‘siq” yasab, uni bor jon-u jahoni bilan saqlab qolishga tirishgan, bu ishq xonining umr kuzida qazo-yu qadar bitigi sabab shu husn bog‘i tomiga tushgan xazonrezgi(qari)lik to‘fonlaridan keyingi: “Tugandi ashki gulgun emdi qolmish zafaroni yuz”, – deya zorlanayotgan holatini shoir o‘z misralariga quyidagicha chizgi beradilar:

Xazon faslida ul oy jismi ruxsorini ko‘rgan(ing) chog‘ .

Degay(san)kim:bir quruq shox uzra qolmish sorig‘ yafrog‘ .

Xullas, baytda kelayotgan “ey bog‘bon” undalmasi mevazor-u gulzorning egasi(sadovnik)ni emas, odam vujudini parvarishlovchi, insonning o‘z tanasi va ma’shuqaning o‘z jussasiga bo‘lgan murabbiyligini bildiruvchi, husn bog‘i “bog‘boni” ma’nosidagi istiorali so‘zni ifodalab kelayotgan ekan.

Keyinchalik bu asarning ideal tahlili sifatida taqdim etilgan variant asosidagi talqin X sinf darsligiga ham kiritildi. Biroq tahlil o‘ta ilmiy-akademik uslubdaligi hamda g‘azalning badiiy jihatlarini ochishga ko‘p e’tibor qaratilganligi umuman esa, maktab o‘quvchisi badiiy-meyoriy nazariy dunyoqarashidan yuqori saviyadagi auditoriyaga xoslanganligi bois va ehtimol, yuqoridagi ayrim mutasaddi rahbarlarga muallifning xususiy munosabat doirasi ma’qul emasligi sababli maktab ta’limida ko‘p davr surolmadi. Ushbu talqin adabiyot muallimlariga ham o‘zining murakkab ilmiy-tasavvufiy sharhiy uslubi bilan og‘irlik qildi chog‘i… Xullas, tezda ta’lim dasturidan olindi. Oqibatda esa, endu ushbu el suygan g‘azal o‘zining uzoq yillik muqim o‘rniga ega bo‘lgan 8-sinfdan ham, ancha keyin maqsadli kiritilgan 10-sinf darsligidan ham joy topolmay qoldi… Bu holat esa o‘ta achinarli. 8-sinf darsligidagi sharhda obraz shaxsini “komil inson” deb talqin etilgani bois qatag‘onga uchragan darslik muammolari Ta`lim markaziga bir necha bor qilingan rasmiy-tanqidiy murojaat sabab bu o‘z chiqishlarida: “… badiiy asarni har kim har xil tushunadi. Boshqa bir mutaxassis nuqtayi nazaridagi to‘g‘ri (raqobat sabab) bu olimnazarida noto‘g‘ri bo‘lib tuyuldi chog‘i. Bu timsol – “o‘lim farishtasi timsoli sifatida ham talqin etildi. Birov e’tiroz bildirgani yo‘q… Zotan, u o‘sha mutaxassisning o‘ziga xos tushunchasi”, – deya bag‘rikenglik va flyuralizmning, adabiy demokratiyaning ideal darg‘asi qiyofasini gavdalantirgan bu tahlilshunos munaqqidimiz me’yoriy ta’limdagi tahlillarga munosabatda yuqoridagi hur fikrlilik fazilatlariga sodiq qololmadi. Balki bu qarshilikning tub boisi majburiy talim dasturi va darsliklarida qaysi sinfda “Qorako‘zum” g‘azalini saqlab qolish va o‘quvchilarga biror (go‘yo ideal) namunaviy sharh talqini taqdim etilishi masalasiga borib taqalar, ehtimol. “Darsliklarimizda g‘azal manzuri erkak kishi deyilishidan saqlanishimiz lozim”, – deyilgan iddao sabab 8-sinf darsligidagi bolalar yoshi va ruhiyatiga bop, sodda usuldagi talqinlar yo‘q bo‘ldi. Eng yomoni bugunga kelib har ikki darslikdan ham bu g‘azal sharhi olib tashlandi. Eng achinarlisi endi o‘quvchilar bu g‘azalning tahlili bor kitobda ham mosuvo bo‘lishdi. Ming afsus.

Sobira JO‘RAYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
O‘zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va O‘zbek filologiyasi fakulteti
sobirajorayeva65@gmail.com

SHUKURIY G‘AZALLARI POETIKASI

Annotatsiya: Shukuriy Sharq mumtoz nutq san’ati maktabida tarbiyalangan, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi buyuk shoirlarning ijodiy tajribalaridan saboq olgan iste’dodli qalamkashdir.Uning mahorati o‘zidan oldingilarga ergashib, o‘z fikrlarini turli badiiy vositalarda tasvirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, har qanday shoirning mahorat saviyasi uning o‘z fikrini yangicha va ta’sirchan ifodalashi bilan baholanadi.

Ma’lumki, badiiy san’at Sharq poetikasining alohida yo‘nalishi bo‘lib, mumtoz poetika mutaxassislari she’riy san’atni ikki katta guruhga bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, Sharq poetikasi, mumtoz she’riy san’at, so‘z san’ati, talmeh, tamsil, mubolag‘a.*

Annotation: Shukuri is a talented penman who was brought up in the school of classical speech art of the East and learned from the creative experiences of great poets such as Hafiz Sherozi, Alisher Navoi, Fuzuli. His skill is evident in following his predecessors and portraying his thoughts in various artistic mediums. In fact, the level of skill of any poet is judged by his new and impressive way of figuratively expressing his thoughts.

Key words: *artistic work, Eastern poetic, classical poetic, poetic art, verbal art, talmeh, tamsil, exaggeration.*

Аннотация: Шукури – талантливый литератор, воспитанный в традициях восточного классического ораторского искусства, перенявший творческий опыт таких великих поэтов, как Хафиз Ширази, Алишер Навои и Физули. Его мастерство ярко проявляется в умении следоват за предшественниками, изображая свои мысли разнообразными художественными средствами. Поистине, уровен мастерства любого поэта оценивается его способности выражат свои мысли новаторски и впечатляюще.

Известно, что художественное искусство является особым направлением восточной поэтики, и специалисты по классической поэтике разделяют поэтическое искусство на две большие группы.

Ключевые слова: *художественное произведение, восточная поэтика, классическое поэтическое искусство, искусство слова, талмех, тамсил, гипербола.*

Shukuriy Sharq mumtoz so‘z san’ati maktabida tarbiya topgan, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi zabardast shoirlar ijod tajribalaridan saboq olgan iste’dodli qalam sohibidir. Uning mahorati salaflariga ergashib, o‘z fikrlarini har turli badiiy san’atlar vositasida tasvirlashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aslida har qanday shoirning mahorati darajasi uning yangi va ta’sirli, tarzda fikrlarini obrazli ifodalashi bilan baholanadi. Shoir she’rlarini badiiyat nuqtayi nazaridan tekshirganda uning o‘ziga xos iste’dod sohibi ekanligiga hech shubha qolmaydi. Badiiy-tasviriy san’atlar Shukuriy ijodida bir vosita bo‘lib xizmat qilganligini alohida uqtirish kerak. U o‘z fikr va g‘oyalarini badiiy asarning tarkibiy qismi sanalgan tasviriy vositalar bilan sayqallab bayon etgan.

Ma’lumki, she’r asosan o‘ziga xos va betakror tashbehlar asosiga quriladi va shoirning mahorati hech kimning xayoliga kelmagan yangi tashbehlarni kashf etgani va ular vositasida she’rlariga joziba va ta’sirchanlik bag‘ishlaganligi bilan belgilanadi. Ayni jihatdan qaraganda Shukuriy she’rlarida uning o‘zigagina xos tashbehlarning butun boshli bir silsilasiga duch kelamiz. Albatta, u mavjud an’analar doirasida ijod qilgan, lekin o‘tmish adabiyotida keng qo‘llangan qator tashbehlarning yangi qirralarini topa olgan yoki ular asosida o‘ziga xos tashbehlar yarata olgan. Chunonchi, bir baytida ko‘z qorachig‘ining qoraligini kiprigidan aso yasab, o‘zining motamida egnini qaro qilganiga nisbat beradi:

Olib mardumak kirpikimdin aso,
Tutub motamim, qilmish egnin qaro.

Bu o‘ziga xos va ohorli tashbeh bo‘lib, boshqa mumtoz shoirlar ijodida unga o‘xshashini uchratmaymiz. Elning xayolini o‘g‘irlab, uni hayratga solgan osmon to‘la yulduzlar bo‘lmay, balki ular falak kaftidagi tanga-chaqalardir, degan yana bir tashbeh qo‘llaydi boshqa bir baytida:

Anjum dema el rohatini sotqun olurg‘a,
Gardun kafida aqchau yormog‘i ko‘rundi.

Yana bir misrasida visolsiz hijronni tongsiz kechaga qiyoslaydi:

Vasli yo‘q hijroni oni subhsiz shomim meni.

O‘zining hijrondagi holatini esa o‘tda kuyayotgan qilga o‘xshatadi:

O‘t aro qil pechu tob urg‘on kibi hijron aro
Tolpinurmen har taraf, yo‘q lahza oromim meni.

Ma’lumki, aziz mehmon kelsa, unga sochqi sochadilar. Yor kulbamga tashrif buyurdi – endi men ham ko‘z sadafidan uning hurmatiga dur sochaman, deydi shoir shunga ishora qilib. Diydorga yetishish baxtidan shodlik yoshlarini to‘kishini ana shunday obrazli yo‘sinda ifodalaydiki, bu mahoratidan dalolat beradi. Tajohuli orifda shoir tasvirlayotgan narsasining xarakter va xususiyatini bilsa-da, o‘zini bilmaslikka solib turadi:

Bilmon Haram ichra ne yongʻogʻi koʻrundi,
Yo gulshan aro lolani yofrogʻi koʻrundi.
Gulshanda gul gʻunchamu dayr ichra va yo kim,
Jomi may ila shishani qursogʻi koʻrundi.

Ma'lumki, she'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shaklan bir xil ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati tajnisdir.

Irsoli masal san'ati bayt tarkibida masal, maqol va hikmatli so'zlarni tamsil yo'li bilan muayyan maqsadda qo'llashdan iborat. Agar baytda ikkita maqol, masal yo hikmatli so'z qo'llansa, u holda irsol ul-masalayn deyiladi. Baytda tamsil qo'llash biz yuqorida munosabat bildirgan "turkona"lik, xalq og'zaki ijodi va mazmundor, lekin sodda yozish san'ati bilan yaqin aloqadordir. Mazmunan chuqur, lekin sodda yozish shoirning yuksak iste'dodidan darak beradi. Shu maqsadda, jumladan, u xalq so'zlashuv tilidan ko'p o'rganib, g'azal, muxammaslari tarkibiga undagi iboralarni, matal, maqollarni, frazeologik birikmalarni ko'plab va har bir holatda juda o'rinli tatbiq qiladi. Navoiy she'riyati uchun xarakterli bo'lgan tamsil, irsoli masal usullari ham bu shoirlar (Humuliy, Shukuriy) ijodida o'ziga xos o'rin egalladi. Bu san'atlar Humuliy va boshqa shoirlar ijodida ayrim baytlarda ko'rinsa, Shukuriyda butunlay boshqacha holni ko'ramiz. Shoir Navoiyda bo'lganidek, ba'zan bir san'atning o'zini bir necha baytda qatorlatib ishlatadi. Quyida shunday g'azallardan ba'zi namunalarnigina keltiramiz, xolos:

Xirad bazmida dunparvar halokat topsa tong ermas,
Najasparvarda qurt, albatta, oʻlgʻay kirsa bol ichra.
Muhabbat ahligʻa bemehrlar unsidin or oʻlgʻay,
Gʻazanfargʻa ne, mumkin kirmagi jam'i shogʻol ichra.
Muqaddar oʻlgʻusi gar sofdil hamrohi dun boʻlsa,
Qumulsa boʻlgʻanur axlatdin obi zilol ichra.
Tong ermas doʻstlarni dushman aylar boʻlsa bil dushman,
Najasdin tushsa bir qatra harom boʻlgʻay halol ichra.
Eshitishda budur ne tushsa tuz konigʻa tuz boʻlgʻay,
Shukuriy, boʻl kamol istar esang ahli kamol ichra[1].

1 Шукурий. Девон. – Тошкент: Навруз, 2018 .– Б. 71.

She'rning har qaysi baytidagi ikkinchi misrada oldingi misradagi fikr bilan bog'liq bo'lgan, uni ta'kidlash, tasdiqlashga xizmat qiluvchi maqol keltirilganligini ko'rish qiyin emas. Xalq jonli so'zlashuv tilining tuganmas manbalaridan bahramand bo'lgan shoir, o'z navbatida, adabiy tilimizning boyib, yanada rang-barang tovlanishiga, uning xalqchil va ta'sirchan bo'lishiga ham katta xizmat qildi. Bu g'azalda shoir o'zining pand-nasihatlarini aytib, insonlarni barkamol bo'lishlikka chaqiradi. Har baytning oxirgi misrasida xalqning purma'no hikmatlari, maqollaridan unumli foydalanib, go'zal she'riy san'atni yuzaga keltirgan. Bir g'azalda shuncha maqol va aforizmlardan foydalanib, fikr, tuyg'u, ohang va obraz yaxlitligiga erishish, albatta, zo'r malaka belgisidir.

Husni ta'lil ham mumtoz she'riyatda ko'p uchraydigan ma'naviy san'atlardan biri. Shoir biror fikr va maqsadni chiroyli asoslash uchun unga xos biror fakt va dalil keltiradi. Shu asosida haqiqiy sabab bo'lmay, shoirning muddaosi bilan tashbeh, qiyos, istisno yo'sinida bog'lanadi. Shukuriy g'azallarida 26 marta husni ta'lil san'atini qo'llaydi. Ularda ma'shuqa xusnini ko'rib, Iso payg'ambar osmonga chiqib yashirinadi, gul xijolatdan qizaradi, quyosh uyalganidan sarg'ayadi:

Sen botib oltungʻa koʻk masnatda oʻlturgʻon chogʻi,
Sargʻarib koʻkdin yiqilmishdur boʻlub rasvo quyosh.

Yana davom ettiradi:

Goh oʻtdek ravshan oʻlgʻay, goh qozon yanglig' qaro,
Goh sendin nur olur, goh aylar istigʻno quyosh.

Ikkinchi baytda shoir husni ta'lil va mubolag'a she'riy san'atidan mohirona foydalangan. Yoki ikkinchi baytni tahlil etsak, shoirning badiiy mahorati yanada oydinlashadi. Birinchi misradagi "o'tdek" so'zi olovga ishora. Shoir aytmoqchiki, "Ey go'zal siymo, quyosh sendan nur olganda o'tdek ravshan bo'lib ketadi, goho istig'no, ya'ni tortinganda, qozon kabi qop-qora bo'ladi. Sen shunday kuchga egasan". Ko'rinadiki, shoir g'azallarida ranglardan shunday mohirona foydalanganki, bu o'ziga xos usullaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Shukuriy she'riyatining badiiy qimmati shundaki, u o'zidan oldin o'tgan ulug' so'z san'atkorlarining ijodini puxta o'rganib, adabiy an'analarni ijodiy davom ettirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Носиров У. Образларда услуб жилолари. – Тошкент: Фан, 1991. 196-б.
2.Ойбек. Навоий гулшани. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1967.
3.Орзибеков Р. Узбек лирик поэзиясида газал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976.
4.Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
5.Ochilov E. Bir xovuch dur. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
6.Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. – Toshkent: Istiqlol, 2009. 232-b.
7.Рустамов А. Суз хусусида суз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.160-б

Амина ФАТТАХОВА,
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент Ташкентского государственного
юридического университета
fattahovaamina77@gmail.com



ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ: ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ МИР И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ПОВЕСТИ “ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ”

Аннотация: в статье рассматривается художественно-философская концепция женского счастья в творчестве Чингиза Айтматова на материале повести «Тополёк мой в красной косынке». Анализируется специфика авторского осмысления любви как многомерного явления, в котором эмоциональная страсть соотносится с ответственностью, надёжностью и нравственным выбором. Особое внимание уделяется внутреннему конфликту героини Асель и символическому противостоянию образов Ильяса и Байтемира, воплощающих разные модели жизненных ценностей и отношений. Показано, что выбор героини выходит за рамки любовного треугольника и приобретает характер зрелого нравственного решения, отражающего гуманистическую философию писателя. Делается вывод об актуальности произведения Айтматова в контексте современных представлений о любви, семье и личной ответственности.

Ключевые слова: *Чингиз Айтматов; «Тополёк мой в красной косынке»; женское счастье; любовь; нравственный выбор; ответственность; внутренний конфликт; гуманизм; художественная философия.*

Annotatsiya: maqolada Chingiz Aytmatov ijodida ayollar baxtining badiiy-falsafiy konsepsiyasi “Qizil ro‘molli teragim” qissasi misolida ko‘rib chiqilgan. Muallifning muhabbatni ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida talqin qilishining o‘ziga xosligi tahlil qilingan, unda hissiy ehtiros mas’uliyat, ishonchlilik va axloqiy tanlov bilan bog‘liq. Asar qahramoni Aselning ichki qarama-qarshiligi, hayotiy qadriyatlar va munosabatlarning turli modellarini o‘zida mujassam etgan Ilyos va Baytemir obrazlarining ramziy qarama-qarshiligiga alohida e’tibor qaratilgan. Qahramonning tanlovi muhabbat uchburchagi doirasidan chiqib, yozuvchining insonparvarlik falsafasini aks ettiruvchi yetuk axloqiy yechim xarakteriga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Aytmatov asarining muhabbat, oila va shaxsiy mas’uliyat haqidagi zamonaviy g‘oyalar kontekstida dolzarbligi haqida xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Chingiz Aytmatov; “Qizil ro‘molli teragim”; ayol baxti; sevgi; axloqiy tanlov; mas’uliyat; ichki ziddiyat; insonparvarlik; badiiy falsafa.*

Annotation: the article examines the artistic and philosophical concept of women’s happiness in Chingiz Aitmatov’s work based on the story “My Poplar in a Red Scarf.” The specifics of the author’s interpretation of love as a multidimensional phenomenon, in which emotional passion is correlated with responsibility, reliability, and moral choice, are analyzed. Special attention is paid to the internal conflict of the protagonist Asel and the symbolic confrontation between the characters of Ilyas and Baytemir, who embody different models of life values and relationships. It is shown that the heroine’s choice goes beyond the love triangle and takes on the character of a mature moral decision reflecting the writer’s humanistic philosophy. A conclusion is drawn about the relevance of Aitmatov’s work in the context of contemporary ideas about love, family, and personal responsibility.

Key words: *Chingiz Aitmatov; “My Poplar in a Red Scarf”; women’s happiness; love; moral choice; responsibility; inner conflict; humanism; artistic philosophy.*

Чингиз Айтматов по праву считается одной из ключевых фигур мировой литературы XX века. Его произведения на протяжении десятилетий сохраняют художественную силу, философскую глубину и удивительную эмоциональную насыщенность. Творчество писателя стало неотъемлемой частью культурного наследия не только Кыргызстана, но и всего мирового литературного сообщества. Неугасающий интерес к его книгам, неизменные очереди в библиотеках и бесчисленные переиздания свидетельствуют о том, что Айтматов обращается к темам, неподвластным времени.

Несмотря на глубокую привязанность автора к родной киргизской земле, его герои и их судьбы выходят за рамки этнических и территориальных

границ. Образы, рожденные Айтматовым, несут универсальные человеческие переживания – любовь, веру, сомнение, утрату, надежду – которые близки людям любой эпохи и культуры. Это, по словам многих литературоведов, и стало главным секретом его творчества: национальное у Айтматова органично перерастает в общечеловеческое.

Особое место в его творческом наследии занимает повесть «Тополёк мой в красной косынке». Это небольшое по объёму, но исключительно глубокое произведение оставляет у читателя сильное эмоциональное впечатление и неизменно вызывает внутренний диалог. Несмотря на трагичность развязки, рассказ дарит ощущение наполненности, обновлённого восприятия мира и тонкого сопереживания героям.

В повести Ч. Айтматова «Тополёк мой в красной косынке» (1961) подчёркивается мысль о том, что подлинное женское счастье связано не только с умением самоотверженно любить, но и со способностью принимать любовь, ощущая рядом с собой защиту, поддержку и собственную значимость в жизни близкого человека. [2; С. 67-69 .] Писатель не умаляет значения сильного чувства и искренней страсти, однако убеждён, что без устойчивости и уверенности в будущем счастье женщины оказывается неполным. Тем самым Айтматов отказывается от идеи фатального подчинения судьбе и акцентирует внимание на сознательном, зрелом выборе, который совершает героиня.

В центре повести «Тополёк мой в красной косынке» конфликт разворачивается не только в пространстве событий, но прежде всего во внутреннем мире Асель, где происходит столкновение двух противоположных жизненных начал, воплощённых в образах Ильяса и Байтемира. Противостояние кратковременной страсти и ответственной надёжности становится ключом к осмыслению авторской концепции женского счастья. [3; С.89-92] Ильяс предстаёт как человек импульса и стихии, носитель ярких, но нестабильных чувств. Его любовь к Асель вспыхивает стремительно, однако столь же легко угасает при столкновении с жизненными трудностями. Он – талантливый водитель, виртуоз своего дела, но тяга к скорости, риску и свободе лишает его способности нести ответственность за семью. Его инфантильность проявляется в небрежном отношении к материальным вопросам и в неспособности обеспечить близких. Ильяс живёт мгновением, не осознавая, что его кажущаяся независимость разрушает судьбы тех, кто находится рядом. Даже искренняя и пылкая любовь к Асель оказывается для неё болезненной, так как не даёт того чувства защищённости и опоры, в котором женщина особенно нуждается.

На противоположном полюсе находится Байтемир – олицетворение спокойной, устойчивой и надёжной любви. Его чувства лишены внешней бурности, но отличаются глубиной и постоянством, сродни самой земле. Он не склонен к громким признаниям, предпочитая доказывать любовь делами. [4; С.45-46] Байтемир становится человеком, который восстанавливает разрушенное: он берёт на себя ответственность за Асель и её ребёнка, обеспечивая им дом, заботу и безопасность. Айтматов подчёркивает его трудолюбие и внутреннюю собранность, отмечая, что он «всегда думал о деле». Забота Байтемира о сыне Ильяса – это не проявление жалости, а подлинная любовь-забота, выходящая за пределы кровного родства. Рядом с ним Асель обретает то, чего не могла получить в отношениях с Ильясом, – чувство опоры и защищённости. Его любовь подобна не пламени, сжигающему всё вокруг, а тёплому очагу, который дарит покой и уверенность.

Пройдя через боль, разочарование и внутреннюю борьбу, Асель приходит к осознанию того, что истинное женское счастье заключается не в ярком, но эгоистичном чувстве, а в тихой, надёжной заботе. В основе повести лежит не просто любовный треугольник, а глубокая драма личностного взросления, в ходе которой героиня делает непростой, но осмысленный выбор. Её уход от Ильяса – это не измена любви и не отречение от чувств, а важный этап на пути к внутренней зрелости и самопознанию. Асель понимает, что «любовь – это ещё не всё», и что подлинное счастье невозможно без ответственности и устойчивости. Если в юности её жизнь определялась эмоциями, то материнство и жизненные испытания заставляют взглянуть на любовь иначе. Она осознаёт, что страсть к Ильясу, какой бы сильной она ни была, не может стать фундаментом семейного счастья, поскольку ему необходима свобода, тогда как ей – безопасность и уверенность в будущем своего ребёнка.

Таким образом, выбор Асель – это не просто решение между двумя мужчинами, а нравственный и жизненный выбор между мимолётной страстью и подлинной любовью, включающей

ответственность за другого. Принимая заботу Байтемира, героиня не отвергает любовь, а открывает её более зрелую и устойчивую форму. Айтматов убеждает читателя в том, что счастье не всегда скрыто в буре чувств, а нередко обретается в «тихой гавани», где царят уважение, защита и доверие.

В повести «Тополёк мой в красной косынке» Чингиз Айтматов не отрицает всепоглощающую силу любви, но раскрывает её сложную и многомерную сущность. Он показывает, что женское счастье – это не только страсть и самопожертвование, но и гармония разума и сердца. На примере судьбы Асель писатель утверждает, что истинная любовь должна быть созидательной, дарить чувство ценности и обеспечивать защиту. Выбор героини – это не отказ от чувства, а переход к более зрелому его пониманию. Она приходит к осознанию того, что быть счастливой – значит не только уметь любить, но и быть по-настоящему любимой, принятой и защищённой. Такой взгляд на женскую судьбу, в которой счастье достигается через принятие заботы и надёжности, делает произведение Айтматова актуальным и в наши дни, напоминая, что подлинная любовь – это не кратковременная буря эмоций, а прочный и спокойный союз, дарящий уверенность в завтрашнем дне.

Герои Айтматова всегда глубоко психологичны и многомерны, а их взаимоотношения формируют цельную художественную картину, наполненную внутренней логикой и эмоциональной правдой. Читатель, сопутствуя персонажам, словно проживает их судьбы вместе с ними – именно в этом заключается магия письма Айтматова.

Эстетическая система Чингиза Айтматова представляет собой цельный и гармоничный мир, связанный сквозными мотивами и устойчивой философской платформой. Его произведения остаются значимыми и актуальными, поскольку поднимают вопросы нравственного выбора, ответственности человека перед собой и перед другими, духовных ориентиров и смысла жизни.

Каждая повесть и каждый роман Айтматова – это уникальная школа размышлений, которая помогает читателю расширить своё мировоззрение, заново взглянуть на привычные вещи и открыть в себе новые смыслы. Нельзя сводить творчество писателя лишь к описанию родного края, хотя в этом он также неповторим. Главная ценность его текстов – глубокая гуманистическая философия, способность проникнуть в самые тонкие сферы человеческих переживаний.

Следует также отметить, что в Узбекистане активно развивается филологическая школа, в которой изучение русской литературы и языка имеет важное значение. Это способствует дальнейшему интересу к творчеству Айтматова и его всестороннему анализу современными исследователями.

Список литературы

1. Айтматов Ч. И дольше века длится день. – М.: АСТ, 2018.
2. Айтматов Ч. Джамиля. – Бишкек: Турар, 2008.
3. Айтматов Ч. Тополёк мой в красной косынке. – М.: Знание, 1964.
4. Айтматов Ч. Плаха. – СПб.: Азбука, 2016.
5. Сергеева Э. С. Топос в художественном пространстве литературного произведения // Вестник НУУз. – 2018.
6. Кононова И. Ю. Вводные и вставные конструкции в современном русском языке // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020.
7. Кененбаев Е. Т. Невербальная коммуникация в социальной жизни общества. — International Scientific Review, 2020.
8. Тангирова Г. И. Мифологические реминисценции в современной русской прозе. – 2021.
9. Касимова А. Б. Анализ произведений «Герой нашего времени» и «Посторонний» // Academic Research in Educational Sciences, 2021.
10. Шакирова Р. Р. Категория одушевлённости в современном русском языке // Academic Research in Educational Sciences, 2020.
11. Муратов К. К. Анализ сложноподчинённых предложений // Academic Research in Educational Sciences, 2021.
12. Наркузиева Г. З. Смешанное обучение русскому как иностранному // Молодой учёный, 2019.
13. Шагиева Н. Ф. Роль информационных технологий в обучении русскому языку // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020.

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Feruza ISHANKHUDJAEVA,
Associate professor of
"Teaching foreign languages"department
Tashkent State University of Economics

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLAR SAMARADORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TADQIQOTLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tili nutq malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishda interaktiv metodlarning asoslari va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasining talabalarni o'qitishdagi ahamiyati, ilmiy manbalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: *til, nutq malaka va ko'nikmalari, metod, talaba, o'qitish.*

Аннотация: в данной статье анализируются основы и эффективность интерактивных методов в совершенствовании языковых и речевых навыков по английскому языку. Освещается значение современных педагогических подходов и интеграции цифровых технологий в обучении студентов на основе научных источников.

Ключевые слова: *язык, речевые умения и навыки, метод, студент, обучение.*

Annotation: this article analyzes the foundations and effectiveness of interactive methods in developing English language speech skills and competencies. The significance of modern pedagogical approaches and the integration of digital technologies in student instruction is examined based on scientific sources.

Key words: *language, speaking skills, method, student, teaching.*

Kirish. Ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalarining mislsiz rivoji bilan xarakterlanayotgan davrda yashayapmiz. Global kommunikatsiya tezligi ortib borayotgan, madaniyatlararo muloqot inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib kelgan bir sharoitda ingliz tilini mukammal bilish bugun nafaqat zarurat, balki har bir yosh mutaxassisning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylanib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilida erkin va ishonchli muloqot qila olish kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatning ajralmas qismi sanaladi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda ingliz tili ta'limining mazmuni, metodlari va texnologiyalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan izlanishlar yanada faollashdi. Til o'rganish jarayoni avvalo muloqotga tayanadi. Aytish mumkinki, talaba o'rganayotgan tilda fikrlab, o'z nuqtayi nazarini bayon qila olmaguncha uning lingvistik bilimlari to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu ma'noda, nutq malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar zamonaviy pedagogikaning eng samarali yondashuvlari sifatida e'tirof etilmoqda. Interaktiv metod — bu shunchaki guruh vazifasi yoki juftlikda ishlash emas; u talabaning tafakkur jarayonini faollashtiradigan, mustaqil fikrlashga chorlaydigan, o'zaro hamkorlikni talab qiladigan, eng asosiysi, tilni tabiiy muhitda qo'llashga imkon yaratadigan murakkab pedagogik tizimdir. Ushbu maqolada aynan til o'rgatishda doir interaktiv dars jarayonni yanada takomillashtirish va unga xizmat qiluvchi yondashuv va izlanishlar haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism. Jahon tilshunoslik va pedagogik tadqiqotlarda ham xorijiy tilni o'qitishni takomillashtirish masalasi doim asosiy izlanishlardan hisoblangan va ayni kunlarda ham izlanishlar olib borilmoqda. Brown (2001) ning fikriga ko'ra, talabani markazlashtirishga asoslangan interaktiv darslar tilning tabiiy ravishda egallanishiga xizmat qiluvchi eng samarali pedagogik muhitni yaratadi. Bugungi

kunda tadqiqotchilar Harmer (2015), Nunan (2016), Richards (2020), Nation (2022) interaktiv metodlarning nutq ravonligi, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini yangi empirik dalillar bilan tasdiqlashgan.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning takomillashuvi ham interaktiv metodlardan foydalanishda butunlay yangi mazmun kashf etmoqda. Virtual sinflar, simulyatsiyalar, talaba-o‘qituvchi o‘zaro muloqotini tezlashtiruvchi platformalar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan online kommunikativ mashqlar ingliz tili nutq malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar yaratmoqda.

Talabalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. An’anaviy metodlar (traditional methods), masalan, repetitsiya (repetition) yoki tarjima (translation) ko‘pincha talabaning tilni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirmaydi (Foster, 2018). Shu sababli pedagoglar dunyo bo‘ylab interaktiv metodlar (interactive methods)ga e’tibor qaratmoqda. Role-play (rolli o‘yinlar), group discussions (guruh muhokamalari) va project-based learning (loyiha asosida o‘qitish) talabalarning speaking skillsini oshirishda eng samarali vositalardan biri sifatida tan olinmoqda.

Johnson & Johnson (1999) fikricha, hamkorlikda o‘rganish talabalarga tengdoshlar bilan faol muloqot orqali chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Ellis (2003) esa, vazifaga asoslangan mashqlar talabalar uchun haqiqiy kontekst yaratadi, ular mazmunni muhokama qilib, tilni amalda qo‘llashni o‘rganadilar deb ta’kidlaydi. Shu asosda interaktiv metodlar nafaqat til malaka va ko‘nikmalarini, balki talabalar motivatsiyasini ham oshiradi.

Ingliz tilini o‘qitishda interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar dunyo bo‘ylab olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida keng tahlil qilinganda ular quyidagicha:

Interaktiv metodlarning samaradorligini yoritishda Active learning (faol o‘rganish) Bonwell & Eison (1991) fikricha, talabalarni faol ishtirokga jalb qilish bilimni saqlash va ko‘nikmalarni rivojlantirishga olib keladi. Prince (2004) esa, talabalar bilimni faol shakllantirganda samaraliroq o‘rganadi degan fikrni ilgari suradi.

Collaborative learning (hamkorlikda o‘rganish) Johnson & Johnson (1999) guruhdagi muloqot kommunikativ kompetensiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi deb ta’kidlaydi. Nunan (2004) juftlik va kichik guruh ishlari talabalarga tilni real kontekstlarda ishlatish imkonini beradi deb hisoblaydi. Contextual learning (kontekstual o‘rganish) Ellis (2003) rolli o‘yinlar talabalarga tilni kontekstga mos ravishda qo‘llash imkonini beradi degan fikrni ilgari suradi. Oxford (2017) haqiqiy hayot vaziyatlariga o‘xshash mashqlar talabalar kommunikativ kompetensiyasini oshiradi deb yozadi.

Technology-enhanced learning (texnologiya yordamida o‘qitish) Warschauer & Kern (2000) raqamli vositalar talabalar uchun an’anaviy sinfdan tashqarida mazmunli muloqot qilish imkonini beradi deb ta’kidlaydi. Stockwell (2010) fikricha mobil texnologiyalar yordamida o‘rganish talabalar faolligini oshiradi va nutq ravonligini rivojlantiradi degan fikrni bildiradi.

Yuqoridagi fikrlarga e’tibor berilsa, talabalarni rivojlantirishda interaktiv metodlarning samaradorligini ahamiyatini ko‘rsatadi va talabaning individual xususiyatlari hamda til bilish darajasini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar talabalarning gapirish malakasini rivojlantirishda an’anaviy metodlarga qaraganda sezilarli darajada samaraliroq. Guruh muhokamalari (group discussions) va juftlikda ishlash (pair work) talabalarning kommunikativ kompetensiyasini (communication competence) oshiradi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini (critical thinking skills) shakllantiradi. Nunan (2004)ning fikricha, pair work va kichik guruh mashqlari talabalarga real til kontekstlarida mazmunni muhokama qilish imkonini beradi, bu esa ularning nutqni erkin ishlatish qobiliyatini oshiradi.

Role-play (rolli o‘yinlar) va project-based learning (loyiha asosida o‘qitish) orqali talaba tilni kontekstual ravishda qo‘llashni o‘rganadi. Ellis (2003) rolli o‘yinlar talabalar uchun tilni kontekstga mos ravishda ishlatish imkonini beradi) deb yozadi. Bu mashqlar talabalarning speaking fluency (nutq ravonligi)

va confidence (o'ziga ishonganlik)ni sezilarli darajada oshiradi.

Texnologiya yordamida o'qitish (technology-enhanced learning) ham gapirish malakasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Warschauer & Kern (2000) raqamli vositalar talabalar uchun an'anaviy sinfdan tashqarida mazmunli muloqot qilish imkonini beradi deb yozadi. Stockwell (2010) mobil texnologiyalar yordamida o'rganish (mobile-assisted learning) talabalar faolligini oshiradi va nutq ravonligini rivojlantiradi deb hisoblaydi.

Shu asosda, interaktiv metodlar nafaqat speaking skillsni, balki talabalarning motivatsiyasini, faolligini va tilni amalda qo'llash qobiliyatini oshiradi. Ularning samaradorligi talabaning individual xususiyatlari va til bilish darajasini hisobga olgan holda yanada yuqori bo'ladi. Bu, shubhasiz, zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni ustun qo'llashni talab qiladi.

Xulosa. Interaktiv metodlar — guruh muhokamalari (group discussions), rolli o'yinlar (role-play), loyiha ishlari (project-based learning) va multimedia va texnologiyalarni integratsiyalash (technology-enhanced learning) — talabalarda gapirish malakasini rivojlantirishda eng samarali vosita ekanligi, ushbu metodlar nafaqat til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi, balki talabalarning kommunikativ kompetensiyasini, nutq ravonligini (speaking fluency), o'ziga bo'lgan ishonchini (confidence), ijodiy fikrlash (creative thinking) va muammoni hal qilish qobiliyatlarini (problem-solving skills) rivojlantiradi.

Ellis, Foster, Nunan kabi bir qator olimlarning fikrlariga ko'ra, metodlarni tanlash va qo'llashda talabalarning individual xususiyatlari va til bilish darajasini hisobga olish juda muhim. Shu bilan birga, interaktiv metodlarni tizimli va uzluksiz qo'llash orqali pedagoglar nafaqat til ko'nikmalarini, balki talabalarning motivatsiyasini, faolligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rag'batlantirishi mumkin.

Shu asosda, zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni dars rejasiga integratsiyalash va ularni real nutq vaziyatlariga yo'naltirish talabalarning speaking skillsini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Multimedia va raqamli vositalardan foydalangan holda interaktiv mashqlarni boyitish, talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va ularni mustaqil o'rganishga undaydi. Shu tarzda, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar nafaqat bilim berish, balki talabaning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladigan samarali vosita sifatida o'zini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford: Oxford University Press. pp. 45–78.
2. Foster, P. (2018). *Traditional vs. Interactive Methods in Language Teaching*. London: Routledge. pp. 22–50.
3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning*. Boston: Allyn & Bacon. pp. 101–130.
4. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press. pp. 33–60.
5. Oxford, R. (2017). *Teaching and Researching Language Learning Strategies*. London: Routledge. pp. 140–165.
6. Stockwell, G. (2010). *Using Mobile Phones for Vocabulary Activities: Examining the Effect of the Platform*. Language Learning & Technology, 14(2), 95–110.

Gulbar SANOYEVA,
“Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti (Phd)
Alfraganus universiteti
g.sanoyeva@afu.uz

TIL PORTFELI ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELI VA UNI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada til portfeli asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model hamda uni amalga oshirish texnologiyasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda til portfelining talaba shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, o‘z-o‘zini baholash, refleksiya va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantiruvchi vosita sifatidagi imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *til portfeli, kommunikativ kompetensiya, chet tili ta’limi, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim modeli, pedagogik texnologiya, refleksiya, mustaqil ta’lim, baholash tizimi.*

Аннотация: в данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются педагогическая модель и технология её реализации, направленные на развитие коммуникативной компетенции студентов на основе языкового портфеля. В ходе исследования раскрываются возможности языкового портфеля как средства поддержки личностного развития студентов, формирования навыков самооценки, рефлексии и самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *языковой портфель, коммуникативная компетенция, обучение иностранным языкам, компетентностный подход, образовательная модель, педагогическая технологи, рефлексия, самостоятельное обучение, система оценки.*

Annotation: this article analyzes, from both scientific-theoretical and practical perspectives, a pedagogical model and its implementation technology aimed at developing students’ communicative competence based on the language portfolio. The study highlights the potential of the language portfolio as a tool for supporting students’ personal development and for fostering self-assessment, reflection, and independent learning skills.

Keywords: *language portfolio, communicative competence, foreign language education, competency-based approach, educational model, pedagogical technology, reflection, independent learning, assessment system.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan ta’lim makonida chet tillarini o‘qitish jarayonida talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi talabaning faol subyekt sifatida shakllanishini, uning mustaqil fikrlashi, o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholay olishi hamda real kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ta’minlashni talab etadi. Kommunikativ kompetensiya til o‘rganishda markaziy tushuncha bo‘lib, u lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik komponentlarning uyg‘unligini ifodalaydi. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish an’anaviy bilimga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida yetarli darajada ta’minlanmaydi. Shu sababli chet tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta’lim va shaxsga yo‘naltirilgan metodlar asosida yangi pedagogik vositalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Ana shunday samarali vositalardan biri til portfeli hisoblanadi.

Til portfeli talabaning til o‘rganish jarayonidagi yutuqlari, tajribasi va rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi didaktik vosita bo‘lib, u o‘z-

o‘zini baholash, refleksiya va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Til portfeli talabaning individual ta’lim trayektoriyasini belgilash, uning kommunikativ kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda ta’lim natijalarini monitoring qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, til portfelidan samarali foydalanish uni ilmiy asoslangan pedagogik model va aniq texnologiya asosida joriy etishni talab qiladi. Til portfeli asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Mazkur modelni amalga oshirish texnologiyasi esa ta’lim jarayonining izchilligi, tizimliligi va samaradorligini kafolatlaydi.

Zamonaviy lingvodidaktika va chet tillarni o‘qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ta’lim jarayonining ustuvor maqsadi sifatida e’tirof etiladi. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR hujjatlarida kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarning yaxlit tizimi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida talabaning faolligi, mustaqilligi va reflektiv fikrlashini kuchaytirishni talab etadi. Til portfeli aynan ushbu talablarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida baholanadi. L. Bachman va A. Palmer fikriga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya faqat bilimlar majmui emas, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Til portfeli esa talabaning o‘z til tajribasini muntazam hujjatlashtirish, baholash va tahlil qilish imkonini berib, ushbu qobiliyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

G‘arb olimlaridan H. Little ta’kidlaganidek, til portfeli o‘quvchini o‘z ta’lim jarayonining subyekti sifatida shakllantiradi. Uning fikricha, portfel texnologiyasi o‘z-o‘zini baholash va refleksiya mexanizmlarini rivojlantirish orqali kommunikativ kompetensiyaning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Shu jihatdan, til portfeli an’anaviy baholash tizimlaridan farqli o‘laroq, jarayon va natijani uyg‘un holda qamrab oladi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham til portfelining samaradorligi tasdiqlangan. Xususan, o‘zbek metodistlari til portfeli asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ strategiyalarni ongli tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini ta’kidlaydilar. Ushbu jarayonda portfel talabaning individual yutuqlari va muammolarini aniqlashda diagnostik vosita vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv doirasida til portfeli ta’lim modeli pedagogik texnologiya sifatida qaralib, unda maqsad, mazmun, metod va natijalar o‘zaro tizimli bog‘langan bo‘ladi. Ta’lim jarayonida portfel texnologiyasining joriy etilishi talabaning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, uning kasbiy va shaxsiy o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu asosda aytish mumkinki, til portfeli asosida ishlab chiqilgan pedagogik model nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Bajarilgan topshiriqlar natijasida dars jarayonida og‘zaki nutqqa bo‘lgan motivatsiya va tashabbuskorlik saqlanib qoldi, har bir o‘quvchi belgilangan vaqt oralig‘iga amal qilishga intildi. Mashg‘ulotlarda real hayotiy vaziyatlar muhokama qilindi, og‘zaki raqamli portfelni muntazam to‘ldirish zarurati tufayli ko‘plab o‘quvchilarning leksik zahirasi sezilarli darajada boyidi. Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, shuni ta’kidlash mumkinki, muammoli ta’lim texnologiyasi hamda “og‘zaki raqamli portfel” texnologiyasi raqamli ta’lim muhitida chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga samarali hissa qo‘shadi, degan gipotezani ilgari surish mumkin.

Ma’lumki, kommunikatsiyaning turli xil turlari mavjud: pedagogik, ishbilarmonlik, ommaviy, shaxslararo, subyektiv va boshqalar. Kommunikatsiya turiga qarab uning maqsadlari va axborot manbai belgilanadi. Biroq, ta’lim jarayonida axborot manbai hamda kommunikantlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro hamkorlikni tashkil etuvchi asosiy shaxs, shubhasiz, o‘qituvchi hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etadi, bunda ta’limning asosida real muloqot modeliga tayangan faoliyat

yotishi lozim. Kommunikativ yondashuvning bunday talqini ta’lim jarayonida quyidagi asosiy prinsiplarga e’tibor qaratish imkonini beradi:

– mashg‘ulotlarda talabalarning faolligini oshiruvchi kommunikativ topshiriqlardan foydalanish;

– ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash, bunda talabalarning individual qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish;

– o‘quv vazifalarini hal etishda metodik-nazariy adabiyotlar hamda ilg‘or pedagogik tajribadan foydalanish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, til portfeli asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy chet tili ta’limida samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Til portfeli talabaning individual ta’lim yo‘lini rejalashtirish, o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash, refleksiya qilish hamda mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan pedagogik model kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari — lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalarni tizimli ravishda shakllantirishga yo‘naltirilgan. Modelning izchilligi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi talabalarning til faoliyatida faolligini oshirib, ularning real kommunikativ vaziyatlarda erkin va samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda taklif etilgan texnologik yondashuvlar — diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish va baholash bosqichlarining uyg‘unligi — ta’lim jarayonining shaffofligi va natijadorligini ta’minlaydi. Ayniqsa, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya mexanizmlarining joriy etilishi talabaning o‘quv jarayonidagi mas’uliyatini oshirib, uzluksiz o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, til portfeli asosidagi ta’lim modeli o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, an’anaviy bilim berishdan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Natijada ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasi nafaqat til bilimlari darajasida, balki ijtimoiy va kasbiy muloqot kontekstida ham rivojlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til portfeli asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli va uni amalga oshirish texnologiyasi chet tili ta’limining sifatini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari kelgusida lingvodidaktika, pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy ta’lim yo‘nalishlarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 260 p.
2. Little D. The European Language Portfolio: Structure, Origins and Applications // Language Teaching. 2005. – Vol. 38, № 2. – P. 63–68.
3. Bachman L.F., Palmer A.S. Language Testing in Practice. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 377 p.
4. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 52 p.
5. Zaynalov A., Abdurakhmanov A. Chet tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan, 2018.156-b.
6. Pardayev S. Lingvodidaktikada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. 184-b.

Dildora RAHIMOVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
@royalempirelight.gmail.com

SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN MATNLARDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ingliz va o'zbek tilidagi matnlar lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Nutq aktlari, madaniy kontekst, xushmuomalilik strategiyalari, ijtimoiy maqom, semantik va pragmatik moslik mezonlari asosida matnlar o'zaro solishtirilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt grammatik jihatdan to'g'ri matn yaratsa-da, madaniyatga oid konnotatsiyalar, milliy nutq odobi va kontekstual pragmatik signallarni yetarlicha aks ettirmaydi. Shu sababli sun'iy intellekt modellarini milliy-madaniy kompetensiyalar bilan boyitish zarur.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, lingvopragmatika, madaniyatlararo muloqot, nutq aktlari, xushmuomalalik, o'zbek tili, ingliz tili, sun'iy intellekt (SI) kommunikatsiyasi.*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвопрагматические особенности межкультурной коммуникации в текстах, сгенерированных искусственным интеллектом на английском и узбекском языках. В процессе исследования проводится сопоставительный анализ речевых актов, стратегий вежливости, культурных реалий и семантического соответствия. Результаты показывают, что несмотря на грамматическую правильность, тексты, созданные ИИ, не в полной мере отражают культурно-прагматические особенности. В связи с этим необходима интеграция культурных и прагматических компетенций в AI-модели.

Ключевые слова: искусственный интеллект, лингвопрагматика, *межкультурная коммуникация, речевые акты, вежливость, узбекский язык, английский язык, коммуникация ИИ.*

Annotation: this article analyzes the linguo-pragmatic features of intercultural communication in English and Uzbek texts generated by artificial intelligence. The study conducts a comparative analysis based on speech acts, politeness strategies, cultural references, and semantic adequacy. The findings demonstrate that while AI-generated texts may be grammatically correct, they often fail to represent culturally embedded pragmatic elements. Therefore, incorporating cultural and pragmatic competence into SImodels is essential for improving communication quality.

Keywords: *artificial intelligence, linguopragmatics, intercultural communication, speech acts, politeness, Uzbek language, English, AI communication.*

Kirish. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan til vositasidagi muloqot yangi bosqichga ko'tarildi. ChatGPT, Gemini, Claude kabi ilg'or modellar matnlar yaratishda inson tilini ancha darajada o'xshatishga erishmoqda. Ammo bu matnlar faqat sintaktik yoki semantik jihatdan emas, balki madaniyat va muloqotga xos **pragmatik** nuqtayi nazardan ham baholanishi lozim. Ayniqsa, o'zbek tilida madaniy kontekst, xushmuomalalik va ijtimoiy maqomga asoslangan muloqot uslublarining aks etishi SI uchun katta muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarda **madaniyatlararo lingvopragmatik tafovutlarni** aniqlashga qaratilgan bo'lib, zamonaviy sun'iy intellekt vositalarining madaniy moslik darajasini baholashni maqsad qiladi.

1. Nutq aktlari va kontekstga moslik

SI tomonidan yaratilgan ingliz tilidagi matnlarda "I'm afraid I can't help you" kabi

yumshoq rad etish formulalari keng qo‘llaniladi (Brown & Levinson, 1987)[1]. Bu iboralar ingliz madaniyatida yuzaga keltiriladigan “negative politeness” — ya’ni hurmat va masofani saqlovchi strategiyalarga mos keladi. O‘zbek tilida esa, sun’iy intellekt odatda, “Kechirasiz, bu borada yordam bera olmayman” kabi to‘g‘ridan to‘g‘ri va rasmiy ifodalardan foydalanadi. Bu esa **milliy kommunikativ me’yorlarga zid** bo‘lishi mumkin.

Levinson (1983) [2] qayd etganidek, kontekst — tilning asosiy talqin vositasidir. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan o‘zbekcha matnlarda kontekstga moslashuv yetarli emas: kim bilan, qanday vaziyatda, qanday ijtimoiy maqomda gapirilayotgani hisobga olinmaydi.

2. Xushmuomalalik strategiyalaridagi tafovutlar

Brown va Levinson (1987) [1] tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko‘ra, har bir madaniyatda “pozitiv” va “negativ” xushmuomalalik strategiyalari mavjud. Ingliz tilidagi sun’iy intellekt matnlarida “please”, “would you mind” kabi yumshoq iboralar tez-tez uchraydi, bu esa ingliz muloqoti uslubiga mos keladi.

O‘zbek tilida esa sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar nutq madaniyatiga oid frazeologik birikmalarni yetarli darajada ishlatmaydi: “marhamat qiling”, “ko‘nglingizga tegmasin”, “iltimos qilaman” kabi iboralar kam uchraydi (Karimova, 2021)[3].

3. Semantik nomuvofiqliklar va pragmatik muvaffaqiyatsizlik

SI tomonidan yaratilgan jumlalar grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, ammo stilistik va pragmatik jihatdan nomuvofiq bo‘lishi tez-tez uchraydi. Masalan, “muammo yo‘q” iborasining inglizcha muqobili “no problem” ingliz tilida informal tarzda ishlatiladi va rasmiy muhitda salbiy taassurot qoldirishi mumkin (Thomas, 1983)[6]. Wierzbicka (1991) [7] fikricha, til bu — madaniy kodlash tizimidir va har bir ibora o‘z madaniyatida ma’no kasb etadi. O‘zbek tilida bu kabi ijtimoiy shartlangan so‘zlashuv shakllari sun’iy intellekt modellari tomonidan noto‘g‘ri joyda ishlatiladi, bu esa muloqotda noqulaylik tug‘diradi.

4. Madaniyatlararo muvaffaqiyatsizlik sabablarini bartaraf etish yo‘llari

Tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar hali ham to‘laqonli madaniy moslikka ega emas. Bowe & Martin (2007) [8] ko‘rsatganidek, tillararo xatolar ko‘pincha madaniy tafovutlar sababli yuzaga keladi. Shu bois, quyidagi chora-tadbirlar zarur deb hisoblanadi:

- Sun’iy intellektni madaniy kontekstga moslashtirish uchun maxsus o‘quv korpuslari yaratish;
- O‘zbek tilidagi sun’iy intellekt modellariga milliy nutq qadriyatlari asosida tahlillangan materiallar asosida mashq berish;
- Pragmatika va tilshunoslik sohasida mutaxassislar ishtirokida modellarni takomillashtirish;

5. Sun’iy intellekt matnlarida ijtimoiy maqom va til registrlari

O‘zbek tilida ijtimoiy maqom — ya’ni suhbatdoshning yoshi, kasbi, mavqei — nutq uslubiga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, talaba o‘qituvchiga “Siz” deb murojaat qiladi, oddiy tanishga esa “sen” ishlatiladi. Sun’iy intellekt esa bu farqlarni ko‘pincha e’tiborga olmaydi, ayniqsa, avtomatik tarjima yoki natural language generation orqali ishlab chiqarilgan matnlarda (Sadock, 2004) [9].

Ba’zan sun’iy intellekt matnlari til registrini barcha kontekstlarga tenglashtiradi, bu esa norasmiy vaziyatlarda sun’iy, sovuq yoki salbiy taassurot qoldiradi. Holmes (2013) [10] ta’kidlaganidek, “social meaning” ya’ni til orqali ifodalanadigan ijtimoiy ma’no madaniyatning ajralmas qismidir.

6. Til vositalarining qo‘llanilish chastotasi va variantlilik.

Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarda til vositalari repertuari ancha cheklangan bo‘ladi. Xususan, o‘zbek tilidagi sinonimlar, iboraviy birliklar, ijobiy e’tirof yoki hazil aralash gaplar juda kam ishlatiladi. Bu esa matnning tabiiyligi va muloqotning insoniy jihatini pasaytiradi (Crystal, 2003) [11].

Sun’iy intellekt tili ko‘pincha rasmiy, izohli va bevosita bo‘ladi — bu esa xalq og‘zaki nutqining emotsional rang-barangligini to‘laqonli aks ettira olmaydi (Nurmatov, 2022) [12].

Xulosa. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar lingvopragmatik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt modellar til strukturasi — ya'ni grammatik va semantik darajada yuqori natijalarga erishgan bo'lsa-da, madaniy va muloqotga oid jihatlarda hali sezilarli kamchiliklarga ega. Xususan, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan o'zbek tilidagi matnlarda xushmuomalalik strategiyalari, madaniy referensiyalar, ijtimoiy maqomga mos til registrlari va nutq aktlarining kontekstual ifodalanishi yetarli darajada ko'zga tashlanmaydi.

Muloqot nafaqat til vositasi, balki ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligi e'tiborga olinsa, sun'iy intellekt modellarining kommunikativ sifatini oshirish uchun ularni milliy-madaniy kompetensiya bilan boyitish muhim masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa o'zbek tilidek yuqori kontekstga asoslangan va nutq madaniyatida ijtimoiy tafovutlar chuqur aks etuvchi tillarda bu zarurat yanada dolzarbdir. Maqolada ilgari surilgan ilmiy asoslar va tahlillar shuni anglatadiki, sun'iy intellekt modellarini takomillashtirishda tilshunoslar, madaniyatshunoslar, tarjimonlar va sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari o'rtasida multidisiplinar hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur. Shu bilan birga, sun'iy intellekt til modellariga lokalizatsiyalangan o'quv korpuslari, real kommunikativ vaziyatlarni aks ettiruvchi misollar, milliy-nutq odobi va xushmuomalalik shakllari singdirilishi maqsadga muvofiqdir.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining lingvopragmatik darajasini oshirish orqaligina sun'iy intellekt inson bilan chuqur, mos va madaniy jihatdan uyg'un muloqot olib boruvchi tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.

2.Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.

3.Karimova, T. (2021). Semantik va pragmatik moslik muammolari. *O'zbek tili va adabiyoti*, No. 3, pp. 55–61.

4.Ibrohimov, M. (2020). *Pragmatik tafakkur va tarjimada madaniy omillar*. –Toshkent: Filologiya nashriyoti.

5.Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. Anchor Books.

6.Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. *Applied Linguistics*, 4(2), pp. 91–112.

7.Wierzbicka, A. (1991). *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Mouton de Gruyter.

8.Bowe, H., & Martin, K. (2007). *Communication Across Cultures*. Cambridge University Press.

9.Sadock, J. M. (2004). *Speech Acts*. In: *The Handbook of Pragmatics*. Blackwell Publishing.

10.Holmes, J. (2013). *An Introduction to Sociolinguistics*. Routledge.

11.Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

12.Nurmatov, M. (2022). O'zbek tilida emotsional ifoda vositalari va ularning muloqotdagi roli. *Til va Adabiyot*, No. 2, pp. 41–49.

13.Tannen, D. (2005). *Conversational Style: Analyzing Talk Among Friends*. Oxford University Press.

Dilnoza RAXIMOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Chet tillar” kafedrasi o’qituvchisi

TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH VA NATIJADORLIKKA TA’SIRI

Annotatsiya: ushbu maqola ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati va ularning ta’lim natijalariga ta’sirini tahlil qiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini rivojlantirishda muhim vositaga aylangan bo‘lib, ular ta’lim berish va o‘rganish usullarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta’siri va natijadorlikni oshirishda qanday rol o‘ynashi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, o‘quv natijadorligi, innovatsion metodlar, samaradorlik.*

Annotation: this article analyzes the significance of using digital technologies in education and their impact on learning outcomes. Today, digital technologies have become an essential tool in the development of the educational process, contributing to more effective teaching and learning practices. The article also examines the influence of digital tools on learners’ knowledge acquisition and discusses their role in improving overall academic performance.

Key words: *educational technologies, digital learning, learning outcomes, innovative methods, effectiveness.*

Аннотация: в данной статье рассматривается значение использования цифровых технологий в образовании и их влияние на результаты обучения. На сегодняшний день цифровые технологии стали важным инструментом развития учебного процесса, способствуя повышению эффективности методов преподавания и усвоения знаний. В статье также анализируется влияние цифровых инструментов на процесс получения знаний учащимися и их роль в повышении общей учебной результативности.

Ключевые слова: *образовательные технологии, цифровое обучение, учебная результативность, инновационные методы, эффективность.*

Raqamli texnologiyalar bugungi ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet, kompyuter texnologiyalari, mobil qurilmalar va boshqa raqamli vositalar o‘quv jarayonida keng qo‘llanilmoqda va ta’lim berish metodlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli ta’lim innovatsiyalari, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qulay, samarali va interaktiv o‘quv muhitini yaratadi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim natijalariga ta’siri, ularni qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi.

Ta’limda raqamli texnologiyalar – zamonaviy o‘quv jarayonini yangicha usulda tashkil qilish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bugungi global texnologiyalar davrida raqamli vositalar ta’limning samaradorligini oshirishda va o‘qitish sifatini yaxshilashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim olish jarayoni moslashuvchan, individual yondashuvga ega va yuqori interaktivlik bilan kechadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari bugungi kunda ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular o‘z ichiga turli xil vositalarni qamrab oladi. Jumladan, Zoom, Microsoft Teams va Google Classroom kabi onlayn dars platformalari orqali masofaviy ta’lim tashkil etilmoqda. Shuningdek, Khan Academy va Coursera singari interaktiv o‘quv platformalari yordamida turli fanlar bo‘yicha kurslarni mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari amaliy mashg‘ulotlarni simulyatsiya qilishga xizmat qilsa, mobil ilovalar va ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning mustaqil hamda interaktiv tarzda bilim olishiga sharoit yaratadi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, ta’lim jarayoni moslashuvchan bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘zlariga qulay vaqt va joyda bilim olishlari mumkin. Shu bilan birga, individual o‘rganish imkoniyati kengayib, har bir o‘quvchi o‘z qobiliyati va tezligiga mos tarzda ta’lim oladi. Internet resurslari orqali esa dunyo miqyosidagi keng qamrovli bilimlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Onlayn platformalar yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini kuzatish va baholash jarayoni ham ancha samarali tashkil etiladi.

Biroq raqamli ta’lim texnologiyalari ayrim cheklov va muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, internet tarmog‘ining yetishmasligi yoki texnik qurilmalarning yo‘qligi ba’zi o‘quvchilar uchun to‘siq bo‘lishi mumkin. Onlayn darslar jarayonida chalg‘ituvchi omillar

ko'payib, o'quvchilarning e'tiborini jamlash qiyinlashadi. Shuningdek, uzoq vaqt davomida ekran qarshisida o'tirish ko'z, umurtqa pog'onasi va psixologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish, albatta, kelajak ta'limini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta'limni yanada interaktiv va jozibador qilishi bilan birga, o'quv jarayonini ham samarali va ixtisoslashtirilgan holga keltiradi. Shu boisdan, raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham zaruriy hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Xususan, interaktiv darsliklar va onlayn platformalar orqali o'quvchilar o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniga ega bo'lmoqda. Masalan, Khan Academy yoki Coursera kabi platformalar o'quvchilarga o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda bilim olish, darslarni qayta ko'rib chiqish hamda individual sur'atda o'rganish imkonini yaratadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning individual usullari keng rivojlanmoqda. Har bir o'quvchining qobiliyati, bilim darajasi va o'rganish tezligiga moslashgan ta'lim materiallari raqamli platformalar orqali taqdim etiladi. Bu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari muhim rol o'ynab, o'quvchilarning bilim darajasiga mos keladigan topshiriq va materiallarni tanlashda yordam beradi.

Bundan tashqari, raqamli vositalar ta'lim jarayonini ma'lumotlar bilan boyitadi. Vizual kontent, jumladan videolar, grafikalar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq va osonroq tushunadilar, bu esa o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligiga oid olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalardan foydalanish bilim olish natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xususan, raqamli o'quv dasturlari va onlayn testlardan foydalangan o'quvchilarda bilim darajasini baholash natijalari ancha yuqori bo'lishi kuzatiladi. Buning asosiy sababi shaxsiy yondashuvning mavjudligi hamda topshiriqlarga darhol javob olish imkoniyatidir.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar bilimga bo'lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Vizual va interaktiv elementlarga boy ta'lim jarayoni o'quvchilarning e'tiborini jalb etib, ularning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Natijada o'quvchilar bilim olish jarayonida faolroq ishtirok etib, fanlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradilar.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular o'z bilimlarini mustaqil ravishda boshqarishni, o'z-o'zini nazorat qilishni va kamchiliklarini aniqlab, bartaraf etishni o'rganadilar.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ta'limda ayrim kamchiliklarga ham ega. Masalan, onlayn ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalar o'quvchilarning e'tiborini chalg'itishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli ta'lim samarali bo'lishi uchun barqaror internet aloqasi va zamonaviy texnologik qurilmalar zarur, bu esa barcha o'quvchilar uchun birdek mavjud emas. Shuningdek, uzoq vaqt davomida ekran qarshisida o'tirish ko'z salomatligi, umurtqa pog'onasi va psixologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularni qo'llashda mavjud xavf va cheklovlarni inobatga olish zarur.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini boyitishda muhim vosita bo'lib, ta'lim berish usullarini tubdan o'zgartiradi. O'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'rganishni yanada interaktiv va moslashuvchan qiladi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim samaradorligi yuqori bo'lsa-da, uning kamchiliklari va cheklovlariga e'tibor qaratish zarur. Bularning barchasini hisobga olib, raqamli vositalarni ta'limda to'g'ri va balansli qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashda, ularning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buckingham D. Youth, Identity, and Digital Media. – Cambridge: MIT Press, 2008. – 192 p.
2. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2011. – 224 p.
3. Johnson L., Adams Becker S., Estrada V., Freeman A. The NMC Horizon Report: 2015 Higher Education Edition. – Austin, TX: The New Media Consortium, 2015. – 50 p.
4. Oblinger D. G., Oblinger J. L. Educating the Net Generation. – Boulder, CO: Educause, 2005. – 450 p.
5. Kozma R. Technology, Innovation, and Educational Change: A Global Perspective. – Eugene, OR: International Society for Technology in Education, 2003. – 360 p.

Nurillo JUMABOYEV,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali o‘qituvchisi
nurillojumaboyevtiu96@mail.com

KROSS-PLATFORMA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqola bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kross-platforma texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslarini o‘rganadi. O‘zbekiston, MDH va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modellari, raqamli vositalar hamda inklyuziv ta’lim yondashuvlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, kross-platforma texnologiyalarini qo‘llash talabalarning amaliy qobiliyatlarini 30–50% ga oshiradi, ammo resurslar va infratuzilma cheklovlari haligacha dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: *kross-platforma texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, pedagogik asoslar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, raqamli ta’lim, blended learning, virtual reallik, inklyuziv ta’lim.*

Аннотация: в статье исследуются педагогические основы использования кросс-платформенных технологий в развитии профессиональной компетентности будущих олигофренопедагогов. Анализируются модели компетентностно-ориентированного образования, цифровые инструменты и инклюзивные подходы на основе опыта Узбекистана, СНГ и зарубежных стран. Результаты исследования демонстрируют, что применение кросс-платформенных технологий повышает практические способности студентов на 30–50 %, однако ограничения в ресурсах и инфраструктуре остаются актуальными.

Ключевые слова: *кросс-платформенные технологии, профессиональная компетентность, педагогические основы, компетентностно-ориентированный подход, цифровое образование, blended learning, виртуальная реальность, инклюзивное образование.*

Annotation: this article explores the pedagogical foundations of utilizing cross-platform technologies in enhancing the professional competence of future oligophrenopedagogues. It analyzes competency-based education models, digital tools, and inclusive approaches drawing from experiences in Uzbekistan, CIS countries, and abroad. The research findings reveal that the application of cross-platform technologies boosts students’ practical abilities by 30–50%, yet constraints in resources and infrastructure continue to pose challenges.

Key words: *cross-platform technologies, professional competence, pedagogical foundations, competency-based approach, digital education, blended learning, virtual reality, inclusive education.*

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida kross-platforma texnologiyalarining pedagogik asoslari zamonaviy ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu texnologiyalar talabalarda nazariy bilimlar va amaliy qobiliyatlarni uyg‘unlashtirishga, shuningdek, raqamli savodxonlik va refleksiv fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, Prezidentning PQ-4860-sonli Qarori oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashni ta’minlashga qaratilgan [1]. Xalqaro tajribada kross-platforma dasturiy ta’minotni ishlab chiqish bitta kod bazasidan foydalanib, turli operatsion tizimlarda ishlay oladigan ilovalarni yaratishni anglatadi, bu ta’limda resurslarni tejash va o‘quv jarayonini tezlashtirishga imkoniyat yaratadi [2]. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida xarajatlar va vaqtni kamaytirish orqali samaradorlikni oshiradi, chunki bitta loyiha bir necha platformalarda qayta ishlatilishi mumkin.

Pedagogik asoslarni tushunishda kross-platforma texnologiyalari kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limning konseptual bazasiga asoslanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu konnektivizm nazariyasiga mos keladi, u raqamli davrda o‘quv jarayonini “tarmoqlar va aloqalar orqali” deb baholaydi [3]. Masalan, talabalar kross-platforma vositalari yordamida loyihalar ishlab chiqib, kasbiy kompetensiyalarini (dasturlash, dizayn va testlash) mustahkamlaydilar. Bu yondashuv ta’limda interaktivlikni oshiradi va talabalar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantiradi, chunki bitta loyiha guruh ishida turli qurilmalarda sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston kontekstida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli ta’limni rivojlantirishni belgilaydi, bu yerda kross-platforma texnologiyalari blended learning modellari uchun asosiy element hisoblanadi [1]. Blended learning raqamli vositalar

orqali kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishning afzalliklarini ta'kidlaydi [4]. Virtual reallik (VR) va gamifikatsiya ta'limda qo'llanilishi oligofrenopedagogikada kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular immersiv tajribalar orqali talabalarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi [5]. Masalan, VR yordamida talabalar maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashni simulyatsiya qilishlari mumkin, bu ularning empatik va adaptiv qobiliyatlarini oshiradi. O'zbekistonning ta'lim islohotlari doirasida kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim tizimi joriy etilmoqda, bu inklyuzivlikni ta'minlashga qaratilgan [1].

Psixologik va inklyuziv asoslar. Kross-platforma texnologiyalari psixologik omillarni inobatga olgan holda loyihalashtiriladi. Maxsus ta'limda bu texnologiyalar inklyuzivlikni ta'minlaydi, masalan, adaptiv interfeyslar orqali maxsus ehtiyojli talabalar uchun shaxsiy o'quv dasturlari yaratiladi. Bu yondashuv talabalar motivatsiyasini oshiradi va o'quv jarayonini individualizatsiyalashga imkon beradi. O'zbekistonda Raqamli O'zbekiston strategiyasi bo'yicha 2030- yilga qadar 80% raqamli savodxonlikka erishish rejalashtirilgan, ammo shu bilan birga, qishloq hududlarida infratuzilma cheklovlari mavjud [1].

Rivojlantirish muammolari. Infratuzilma va resurslar yetishmasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda, xususan, O'zbekiston va MDH mamlakatlarida raqamli ta'limning rivojlanishi hududiy tengsizliklar bilan bog'liq [4]. Milliy farmonlar malaka oshirish va texnik bazani mustahkamlashni ko'zda tutadi, ammo pandemiya davrida onlayn ta'limdagi qiyinchiliklar, masalan, internet sifati va qurilmalar yetishmasligi, ta'lim samaradorligini pasaytirdi [5]. Bunday muammolarni hal qilish uchun xalqaro tajribadan foydalanish zarur, masalan, AI va adaptiv platformalarni joriy etish orqali.

Rivojlantirishni osonlashtirish strategiyalari:

- Kross-platforma ilovalarini o'quv rejalariga integratsiyalash, bu talabalar qobiliyatlarini real loyihalar orqali rivojlantiradi [2].
- VR va gamifikatsiya yordamida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, bu immersiv tajribalar orqali o'quv jarayonini qiziqarli qiladi [5].
- Blended learning modellarini joriy etish, bu onlayn va oflayn elementlarni uyg'unlashtiradi [4].
- Raqamli savodxonlikni baholash tizimlarini rivojlantirish, bu talabalar taraqqiyotini monitoring qilishga yordam beradi [3].
- Inklyuziv muhit uchun adaptiv vositalar yaratish, maxsus ehtiyojlarni inobatga olgan holda [1].

O'zbekistonda raqamli ta'limning rivojlanishi hududiy tengsizliklarni bartaraf etish uchun qishloq maktablariga qo'shimcha resurslar ajratishni talab etadi, chunki shahar va qishloq o'rtasidagi farq raqamli savodxonlik darajasini pasaytirmoqda [1]. Blended learning modellarini kengaytirish orqali, masalan, VR-ni maxsus ta'limda qo'llash, talabalar o'quv jarayonida ko'proq ishtirok etadilar va ularning kognitiv rivojlanishi tezlashadi [5]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuvlar talabalar motivatsiyasini 40% ga oshirishi mumkin, ammo o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlari zarur [4]. Kelajakda xalqaro standartlarni mahalliy kontekstga moslashtirish orqali pedagogik markazlarni rivojlantirish mumkin [1]. Bu O'zbekiston ta'lim tizimini global darajaga ko'taradi va jamiyatda raqamli madaniyatni shakllantiradi.

Xulosa. Kross-platforma texnologiyalari bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik asoslarni mustahkamlaydi, chunki ular milliy strategiyalar, xalqaro nazariyalar va amaliy tajribalarga asoslanadi. O'zbekistonda (30% amaliy qobiliyatlar o'sishi [5]) tajribalari ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Integratsiya orqali talabalar raqamli davrga tayyorlanadi, inklyuzivlik ta'minlanadi va o'quv samaradorligi oshadi. Kelajakda infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro standartlarni moslashtirish O'zbekiston oligofrenopedagogika sohasini global darajaga yetkazishi mumkin. Bu barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratib, jamiyatda inklyuziv va raqamli madaniyatni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli Qarori.

[2] GeeksforGeeks. (2025). Introduction to Cross-Platform Mobile Application Development. Available at: https://www.geeksforgeeks.org/introduction-to-cross-platform-mobile-application-development/.

[3] Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

[4] Ismoilov, A. (2022). Blended learning in higher education: Challenges and opportunities. Ta'lim olamida, 2(6), 45-52.

[5] Mamatov, O. (2022). Virtual reallik texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. – Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti vestniki, 2(27), 56-62.

Nilufar XUJANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
nilufarxujanova@gmail.com
ORCID: 0009-0000-3852-5329

SUN’IY INTELLEKT DASTURLARI ORQALI BO‘LAJAK ONA TILI VA ADABIYOTI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada sun’iy intellekt asosidagi ta’limiy dasturlarning bo‘lajak ona tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kasbiy kompetentlikni o‘rganish, pedagogik jarayonni yanada sifatli va samarali qilish uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Hozirgi zamon ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash, interfaol ta’lim usullarini tatbiq etish va o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishda kerak. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi Elicit.ai, Almanack.ai, Canva Magic Write, AudioPen kabi zamonaviy dasturlarning ta’limda qo‘llash imkoniyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu dasturlar talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirish, mustaqil izlanish olib borish, kreativ fikrlash, tezkor axborot tahlili kabi zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, zamonaviy pedagogika, kasbiy kompetentlik, texnologiyalar, komponent.*

Annotation: this article analyzes the potential of artificial intelligence-based educational programs in developing the professional competence of future teachers of native language and literature. The study of professional competence is the main foundation for making the pedagogical process more qualitative and effective. In modern education, the professional competence of teachers is also necessary for the effective use of digital technologies, the implementation of interactive teaching methods, and the enrichment of the educational process with innovative approaches. Information is provided on the possibilities of using modern programs based on artificial intelligence, such as Elicit.ai, Almanack.ai, Canva Magic Write, AudioPen in education. These programs help develop students’ digital literacy, independent research, creative thinking, and the formation of modern pedagogical competencies such as rapid information analysis.

Key words: *artificial intelligence, modern pedagogy, professional competence. technologies, component.*

Аннотация: в статье анализируется потенциал и возможности образовательных программ, основанных на искусственном интеллекте, в развитии профессиональной компетентности будущих учителей родного языка и литературы. Изучение профессиональной компетентности является основой повышения качества и эффективности педагогического процесса. В современном образовании профессиональная компетентность педагогов также необходима для эффективного использования цифровых технологий, внедрения интерактивных методов обучения и обогащения образовательного процесса инновационными подходами. Представлена информация о возможностях использования в образовании современных программ, основанных на искусственном интеллекте, таких как Elicit.ai, Almanack.ai, Canva Magic Write, AudioPen. Эти программы способствуют развитию у студентов цифровой грамотности, самостоятельной исследовательской деятельности, творческого мышления, а также формированию современных педагогических компетенций, таких как способность к быстрому анализу информации.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, современная педагогика, профессиональная компетентность, технологии, компонент.*

Kirish.“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga ko‘ra “*raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta’lim maktabi o‘quvchilariga dasturlashni o‘rgatish uchun sharoit yaratish*;” kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan[1].Hozirgi kun talabalari o‘z sohalarini chuqur egallashdan tashqari raqamli savodxonlik ko‘nikmalariga ega ekanliklari ham muhim sanaladi.O‘z ishining mutaxassisi bo‘lish uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalana olish katta yordam bera oladi. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi: u darslarni avtomatlashtirish, har bir o‘quvchiga individual yondashuvni qo‘llash, bilim darajasini aniqlash hamda o‘qituvchilarga turli jihatlardan ko‘maklashish (masalan, o‘quv materiallarini ishlab chiqish yoki o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatib borish) imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish va o‘quvchilarga raqamli savodxonlikni o‘rgatish ham muhim vazifalardan sanaladi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan texnologiyalar ichida sun’iy intellekt (SI) alohida o‘rin egallamoqda. Ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi, ta’lim tizimida ham SI keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunga kelib SI imkoniyatlari kengayib o‘quv jarayonlarida

faol ishtirok etmoqda. Ta'lim sohasida SI vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada interaktiv, samarali va individual yondashuvga asoslangan shaklga keltirmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlarning o'qituvchilar uchun taklif qilayotgan imkoniyatlari orqali ta'lim sifatini yanada rivojlantirish mumkin. Sun'iy intellekt (SI) ta'lim sohasida tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos dars metodikasini ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, SI baholash va nazorat jarayonlarini soddalashtirib, o'qituvchilarga o'quv dasturlarini ishlab chiqish va sifatli dars o'tishga ko'proq vaqt ajratishga yordam beradi. Aldosari (2020) ta'kidlaganidek ta'lim muassasalaridan zamonaviy texnologik taraqqiyotga mos ravishda o'qitish va o'rganish jarayonlarini yangilab borish talab etiladi[2]. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektga asoslangan ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim omil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi haqida tadqiqotchilar turlicha fikr bildirganlar. Anderson (2018) o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt asosida ishlovchi moslashtirilgan ta'lim tizimlari (adaptive learning systems) o'quvchilarga individual yondashuv asosida ta'lim olish imkonini berishini ta'kidlaydi[3]. Masalan, Duolingo, ChatGPT, Grammarly kabi vositalar yordamida talabalar yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Biroq, ayrim tadqiqotchilar sun'iy intellektdan haddan tashqari foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Laurillard(2014) o'z tadqiqotlarida "raqamli aqliy dangasalik" (digital mental laziness) tushunchasini ilgari surib, inson miyasi o'z-o'zini rivojlantirishdan ko'ra tayyor javoblarga suyanishga moyil ekanini qayd etgan[4]. W. Holmes, M. Bialik va C. Fadel (2019) esa sun'iy intellektni pedagoglarni almashtiruvchi emas, balki ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida baholaydi[5]. Ularning fikricha, SI yordamida o'quvchilarning bilim olish darajasi kuzatilib, shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar berilishi orqali ta'lim sifati oshadi. Shuningdek, SI asosida ishlab chiqilgan tahliliy dasturlar o'qituvchilarga o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari — mashinaviy o'rganish, chuqur o'rganish, sun'iy neyron tarmoqlari, tabiiy tilni qayta ishlash va genetik algoritmlar — aqlli o'quv muhitlarini yaratishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday muhitlar xatti-harakatni aniqlash, bilim modeli yaratish hamda individual ta'lim materiallarini tavsiya qilish imkonini beradi. Sun'iy intellektning asosiy maqsadi — axborotni qayta ishlash orqali inson tafakkuriga yaqin darajadagi muammolarni hal qilish usullarini ta'minlashdan iboratdir.

Sun'iy intellektga asoslangan o'quv dasturlarini loyihalash — bunday dasturlar har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, o'quvchining qiziqishlari, bilim darajasi va kamchiliklarini tahlil qilish orqali shaxsiylashtirilgan o'quv yo'nalishlarini ishlab chiqadi.

N.A.Amanlikova "Kasbiy kompetentlik tushunchasi zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning professional faoliyatini belgilovchi muhim unsur sifatida" qaraladi. Bu tushuncha o'z ichiga o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini, shuningdek, ularning kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini oladi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarga samarali ta'lim berish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda zarurdir[6].

Kasbiy kompetentlik – bu shaxsning o'z kasbiga doir bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, shu bilan bir qatorda, ushbu bilimlarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda, o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida kasbiy kompetentlik tushunchasi rivojlanayotgan pedagogik yondashuvlar va zamonaviy talablar asosida yangilanmoqda[7].

Kasbiy kompetentlikning o'qituvchilar tayyorlashdagi o'rni beqiyosdir, chunki bu nafaqat o'qituvchilarning kasbiy malakalarini, balki o'quvchilar bilan muloqot qila olish, ularga bilim berish va ularning qiziqishlarini rag'batlantirish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon ta'limda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash, interfaol ta'lim usullarini tatbiq etish va o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishda kerak.

Raqamli kompetentlik — bu shaxsning raqamli texnologiyalarni samarali va oqilona qo'llash qobiliyatidir. Ushbu tushuncha o'z ichiga raqamli vositalarni ishlatish, axborotlarni topish, tahlil qilish va ulardan foydalanish, shuningdek, raqamli muhitda o'z fikrlarini ifodalash va muloqot qilish qobiliyatlarini oladi. Ta'lim jarayonida raqamli kompetentlikning ahamiyati har qanday zamonaviy o'qituvchining tayyorgarligi va o'quvchilarni tayyorlashda alohida o'ringa ega.

SI asosida ishlovchi dasturlar:

1. **Elicit (The AI Research Assistant)**

Bu dastur orqali talabalar oz sohalari boyicha ishonchli ma'lumotlar izlab topa olishadi. olishadi. Ushbu vosita adabiyotlar sharhi (literature review) jarayonida "seed article" deb nomlanuvchi asosiy maqolalarni izlab topishda va tegishli mavzularni tahlil qilishda katta qulayliklar yaratadi.

Elicit foydalanuvchi tomonidan kiritilgan savol asosida muqobil savollarni shakllantirib, turli ilmiy maqolalarni taklif etadi. Bu esa izlanishning ko'lamini kengaytirish va mavzuga oid yangi yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

2. **Almanack.ai**

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlari doimiy ravishda muddatlar, maqsadli ko'rsatkichlar va hujjatlarni yuritish kabi yuklamalarga duch keladilar. Ushbu jarayonlar ko'plab vaqt va resurslarni talab qilgani sababli, o'qituvchining asosiy vazifasi – o'quvchilar bilan sifatli ishlash – ko'pincha ikkinchi planga tushib qoladi. Shu nuqtayi nazardan, Almanack platformasi butun dunyo bo'ylab pedagoglar uchun kengayib borayotgan generativ sun'iy intellekt resurslari to'plami bilan yetakchilik qilmoqda.

Natijada, o‘qituvchilar orttirilgan vaqtni o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, dars sifatini oshirish va pedagogik yondashuvni chuqurlashtirishga yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Krik Gringhamning fikriga ko‘ra Almanack dasturi o‘qituvchilarning mavjud kontent va kontekstga oid bilimlarini to‘ldiruvchi samarali vosita sifatida,ta’lim jarayonini yanada individualizatsiyalash va optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, barcha o‘qituvchilarga ushbu platformaning imkoniyatlarini o‘rganish va uni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash samarali hisoblanadi[8].

3. AudioPen — bu sun’iy intellektga asoslangan ovozdan matnga konvertatsiya qiluvchi veb-ilova bo‘lib, u foydalanuvchining aytgan gaplarini nafaqat yozma shaklga o‘tkazadi, balki ularni tahrirlab, mazmunan boyitadi. Ushbu vosita blog, dars rejasi, maqola yoki boshqa turdagi matnlar tayyorlashda o‘qituvchilarga katta qulaylik yaratadi. AudioPen kompyuter hamda mobil qurilmalarda ishlaydi va natijaviy matn foydalanuvchi tomonidan qo‘shimcha tahrir qilinishi mumkin. Bu esa uni universal vositaga aylantiradi.

Shuningdek, bu turdagi vositalar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, AudioPen kabi ilovalar orqali pedagoglar o‘z fikrlarini tez va samarali tarzda yozma shaklga keltirib, ilmiy-ijodiy faoliyatga ham ko‘proq vaqt ajrata oladilar. Bu, ayniqsa, darsdan tashqari faoliyatlarda (metodik qo‘llanmalar yozish, konferensiyalar uchun tezis tayyorlash, grant loyihalarini ishlab chiqish va h.k.) juda foydalidir.

4. Canva Magic Write esa matndan tasvir yaratish (text-to-image) texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, taqdimot tayyorlash, fikrlar xaritasi tuzish, dars mazmunini shakllantirishda o‘ziga xos yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. U foydalanuvchi kiritgan so‘zli buyruqlar asosida matn tahlilini amalga oshirib, turli taklif va g‘oyalar ishlab chiqadi. Bu vosita orqali o‘qituvchilar qisqa vaqt ichida vizual jihatdan jozibador materiallar tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Canva Magic Write matn, tasvir, dizayn va vizual elementlar orqali o‘quvchilarning turli uslubdagi idrok qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars materiallarini boyitadi. Bunday yondashuv VAK (vizual-audio-kinestetik) modeliga asoslanib, har bir o‘quvchining individual o‘rganish uslubini hisobga olish imkonini beradi.

Ushbu vositalar o‘qituvchi va talabalar uchun vaqtni tejash, ish unumdorligini oshirish va takroriy ishlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Masalan, Elicit orqali ilmiy maqolalarni topish, AudioPen orqali fikrlarni tezda yozma shaklga keltirish, Canva Magic Write bilan kreativ matn yaratish va Almanack yordamida dars rejasini avtomatik tuzish mumkin.

To‘rtala platforma ham sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanadi. Ular tabiiy tilni qayta ishlash, mashinaviy o‘rganish va avtomatik tavsiya tizimlariga asoslangan. Bu esa ularni inson fikrini tushunishga, kontekstli javob berishga va foydalanuvchining ehtiyojlariga moslashishga qodir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimi SI texnologiyalari bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Sun’iy intellektning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi orqali o‘qituvchilar o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlab, ko‘proq vaqtlarini sifatli dars berishlari uchun sarflashlari mumkin. Biroq, SI texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga nisbatan muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, inson omilining zaiflashuvi, shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi, texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik kabi muammolar yuzaga chiqishi mumkin. Shu boisdan, zamonaviy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida muvozanatli yondashuv, texnologiyalarning pedagogik, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limni yanada samarali, inklyuziv va adolatli qilish yo‘lida muhim vositaga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari” to’g‘risidagi PF-6079 son farmoni. https://lex.uz/pdfs/5030957

2. Aldosari, S. A. (2020). The future of higher education in the light of artificial intelligence transformations. International Journal of Higher Education, 9(3). https://doi.org/10.5430/ijhe.v9n3p145

3. Anderson, J. (2018). Artificial Intelligence in Education: Personalized Learning. Educational Review.

4. Laurillard. D. (2014). Rethinking University Teaching. Routledge

5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign. Retrieved from https://curriculumredesign.org

6. Amanlikova N.R. Zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantrishning metodlari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2023.

7. Olimov Q.T. O’qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda pedagogik amaliy treninglar. Toshkent: O’zbekiston milliy universiteti. (2020).

1. https://www.almanack.ai

Мухтарам ХАЛИКОВА,
старший преподаватель кафедры
«Языки и гуманитарные науки»
Андижанского государственного
технического института

АКТУАЛЬНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЕ МОТИВАЦИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются Актуальные проблемы применения мотивации в методике преподавания языков, в частности, русского языка как иностранного, вопросы развития уровня мотивации студентов на основе учебных материалов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *образование, воспитание, молодежь, общество, мотивация, язык, занятие, актуальность.*

Annotatsiya: ushbu tadqiqot maqolasida til o'qitish usullarida, xususan, rus tilini chet tili sifatida qo'llashda motivatsiyani qo'llashning dolzarb masalalari va oliy ta'lim muassasalarida o'quv materiallari asosida talabalar motivatsiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, yoshlar, jamiyat, motivatsiya, til, kasb, dolzarblik.*

Annotation: this scientific article examines the theoretical problems of motivation in the methodology of teaching languages, in particular, Russian as a foreign language, the development of the level of motivation of students on the basis of educational materials in higher educational institutions.

Key words: *education, upbringing, youth, society, motivation, language, occupation, relevance.*

Президент Республики Узбекистан, выступая на 75-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций, наряду со многими важными вопросами обратил внимание мирового сообщества на инициативу Узбекистана о правах молодежи: «Мы в первую очередь имеем в виду ее право на мирную и здоровую жизнь, образование. В этой связи для нас всегда приоритетной задачей будут воспитание гармонично развитого молодого поколения и обеспечение его качественного, всестороннего образования».

Ш.М. Мирзиёев представил предвыборную программу «Стратегия Нового Узбекистана», в которой отметил: «Для всех нас ясно, что наука, образование, воспитание – это краеугольный камень развития, сила, приумножающая мощь страны и народа. Завтрашний день, будущее Родины неразрывно связаны с системой образования и воспитанием, которое получают сегодня наши дети».

В Указе Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан.» отмечается, что «для стабильного развития нашего государства, его экономического благосостояния и укрепления правового статуса Республики Узбекистан самым важным в современном мире является богатство интеллектуального и духовно-нравственного потенциала общества».

На наш взгляд, поднимая проблему интеллектуального и духовно-нравственного потенциала общества, в том числе и молодежи, важно повышение ее интереса к обучению, повышения мотивации и интереса к иностранным языкам, в том числе и русскому языку. В связи с этим важно уяснить следующее: что такое мотивация, интерес? Чем она вызывается у студентов? В какой связи находятся мотивы учения и интерес? Как развиваются мотивы учения? Какие предпосылки способствуют проявлению у студенческой молодежи интереса к занятиям русского языка в вузе? Какие виды учебной работы более всего занимает учащаяся молодежь? Что препятствует проявлению интереса к русскому языку у нерусских учащихся?

О важности развития интереса к изучению русского языка в высшем учебном заведении

указывают видные психологи, лингвисты, методисты: Н.М. Шанский, В.Г. Костомаров, О.Д. Митрофанова, Е.П. Пассов, М.Б. Успенский, М.Ф. Морозов и др.

Актуальность научной статьи

Необходимость значительного повышения уровня мотивации к изучению русского языка, вызванная в последнее время определенным спадом интереса к данному предмету, обусловила тему которого мы сформулировали следующим образом: ««Мотивация и ее повышение у студенческой молодежи в процессе обучения русскому языку».

Подчеркивается актуальность интегрированного подхода к обучению, объединяющему в себе креативные технологии, что в значительной степени снимает психологический и языковой барьеры, а также повышает мотивацию обучающихся. Рассматривается положительный эффект использования мотивационных возможностей учащихся для развития воображения и эмоциональной восприимчивости.

Объектом данной статьи является процесс обучения русскому языку в вузе, обязательным компонентом которого становится учебный материал, позволяющий усилить мотивацию студенческой молодёжи.

Цель донной статьи: рассмотреть мотивации учащейся молодежи, вскрыть пути реализации мотивационного потенциала учебных материалов в зависимости от условия и задач обучения в вузе.

Задачи исследования:

– изучение научной литературы по исследуемой проблеме;

– отбор учебного материала по русскому языку для усиления мотивации студентов на занятиях русского языка в вузе;

– описание методических приемов и форм работы, позволяющих повысить мотивацию студенческой молодёжи к изучению русского языка как неродного;

– разработать систему работы по повышению мотивации у студентов в учебно-воспитательном процессе в вузовской аудитории.

При решении поставленных задач использовались следующие методы исследования: теоретический метод, метод индивидуальных бесед со студентами, метод обобщения научных изысканий ученых и исследователей по теме выпускной работы.

Анализ литературы и нормативно-правовых документов, использованных при подготовке работы. Работы ученых, которые внесли большой вклад в преподавание русского языка как иностранного, а также педагогики и психологии, посвященные разработке методических принципов обучения русскому языку как иностранному (И.А. Стернин, О.Д. Митрофанова, А.А. Леонтьев, В.В. Молчановский, Т.Н. Капитонова, А.Н. Щукин); понятия современной образовательной технологии обучения языкам в целях повышения мотивации учащихся (В.Н. Козлов, Ф. Янушкевич, В.Н. Михелькевич).

Теоретической (методологической) основой данной выпускной работы явилось учение основоположников научных концепций о языке, речи и мышлении, а также официальные государственные документы по вопросам образования и преподавания русского языка в высших учебных заведениях страны.

Практическая значимость статьи заключается в следующем:

1. Преподаватели-русисты могут использовать результаты исследования в своей педагогической деятельности.

2. Отобранные учебные материалы и виды работ с ними могут быть включены в методические разработки преподавателей-русистов по повышению мотивации студентов к изучению русского языка в вузе.

Мотивация (динамический процесс внутреннего, психологического и физиологического управления поведением, включающий его инициацию, направление, организацию и поддержку) при обучении считается важнейшим среди общепсихологических и индивидуально-психологических факторов, определяющих успешность обучения иностранному языку.

Данная проблема в последнее время всё больше привлекает внимание методистов и преподавателей по иностранному языку, в частности, русскому. Показателем неразрешенности указанной проблемы может служить тот факт, что у части студентов интерес к занятию по русскому языку

отсутствует. Особенно актуальна проблема отсутствия или недостаточного уровня мотивации у студентов.

Основную роль играет устанавливающаяся система социальных взаимоотношений с окружающими. Доминирующая потребность возраста – потребность в общении со сверстниками и потребность в самоутверждении. Это возраст бурной социализации обучаемых, когда расширяется круг общения, все большее значение приобретает общественная оценка своей личности и деятельности, растет социальная активность обучаемого, и потребность быть и считаться взрослым превращается в этот период в доминирующую. У них формируется самооценка, когда они, взаимодействуя с другими, познают себя на основе этого сравнения, выбирая себе «эталон», на который они хотят быть похожими, так как усвоение внешних признаков взрослости и такая взрослость приобретается путем подражания. В связи с этим возникает стремление компенсировать недостаток социальной активности путем создания своего собственного, социального мира, частый выбор в качестве эталона такого человека, который, с точки зрения общества, эталоном служить никак не может, но обладает определенными привлекательными личностными качествами и умеет удовлетворить социальные потребности студентов.

Юношеский возраст характеризуется активностью не только в социальной сфере. Здесь особенно ярко проявляются интересы и увлечения, появляются устойчивые «хобби» – любимое занятие. С этим связано развитие волевой деятельности, умение поставить цель и достичь ее, настойчивость в таком достижении. Однако воля и настойчивость в этом возрасте очень избирательны: проявляя их в одном виде деятельности, студент может сохранить, как говорят в психологии, «полевой» характер поведения в других случаях, и это очень зависит от ведущих мотивов и интересов. Проще говоря, обучаемый в этом возрасте зачастую умеет заниматься тем, чем ему хочется заниматься.

Одной из наиболее важных в этом плане является проблема правильной организации работы студентов с целью сознательного усвоения учебного материала, развития прочных речевых навыков, повышения положительной мотивации к изучению русского языка.

Считаем, что в любом варианте занятий в них должны быть реализованы методические формы и приемы работы, побуждающие студентов к активному мышлению и интенсивному говорению на русском языке. Самостоятельно высказываемые учащимися вузов суждения и оценки по услышанному и прочитанному способствуют возникновению самого действенного мотива - чувства любви к учебной дисциплине «русский язык».

Углубление у студентов положительной мотивации к изучению русского языка – основной путь повышения эффективности и результативности работы будущего словесника.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Мирзиёев Ш.М. Согласие нашего народа – это высшая ценность, которую мы придаем нашей деятельности. Том 2 Т .: «Узбекистан», 2018. – 507 с.
2. Мирзиёев Ш.М. Работа нации с великими намерениями также будет велика, ее жизнь будет яркой, а ее будущее будет процветающим. Том 3.– Т .: «Узбекистан», 2019. – 400 с.
3. Александрова И.Н., Самойлов С.Н. Проблемы мотивации в методике. – Москва: Знание, 2000.
4. Андриянова В.И. Развитие активной русской речи учащихся. – Ташкент: Укитувчи, 1993.
5. Давыдова В.О. Научные основы проблемы мотивации. – Москва: Наука, 2008.

Feruza SAIDOVA,
Phd, professor
Head of "Teaching foreign languages"department
Tashkent State University of Economics

IMPROVING STUDENTS' VERBAL COMMUNICATION SKILLS IN THE LEARNING PROCESS

Annotation: in this article is discussed various methods for enhancing students' speaking skills. The educational process is defined as an interactive exchange between teacher and learner, requiring active participation from both sides. At its core, education aims to deliver content through effective methods and tools, emphasizing the relationship between them. Discussions around the purpose of education often bring attention to the dynamics of student-teacher interactions. The primary goal of this article is to examine how lessons can be better structured and to identify practical solutions to common challenges encountered during instruction.

Key words: *speaking, speech, language, student, education, communication*

Аннотация: в данной статье рассматриваются различные методы развития разговорных навыков у учащихся. Образовательный процесс определяется как интерактивное взаимодействие между преподавателем и учеником, требующее активного участия обеих сторон. Основной целью образования является передача содержания с помощью эффективных методов и инструментов, с акцентом на их взаимосвязь. Обсуждение целей образования часто связано с анализом взаимодействия между учителем и учеником. Главная задача статьи — исследовать пути более эффективной организации учебных занятий и предложить практические решения распространённых проблем в процессе обучения.

Ключевые слова: *устная речь, разговор, язык, учащийся, образование, коммуникация*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning turli usullari muhokama qilinadi. Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro faol muloqot sifatida talqin etilib, har ikki tomonning faol ishtirokini talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi — mazmunni samarali metod va vositalar orqali yetkazish hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u berishdan iborat. Ta'lim maqsadi haqida fikr yuritilganda, ko'pincha o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — dars jarayonini yanada samarali tashkil etish va yuzaga keladigan muammolarga amaliy yechimlar topishdir.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, so'zlashuv, til, talaba, ta'lim, muloqot

Introduction

The majority of language learners struggle with speaking English. How to speak English more effectively will be discussed in this article. Many students lament that despite having a strong grasp of English grammar and tenses, the ability to write essays and even the ability to understand the language, they struggle to communicate their ideas clearly in the language.

Speech activity types and language content are taught together in the educational process. The student speaks, listens, reads and writes during each activity. The process involves language units that have been previously learned or mastered during training. Depending on the procedure or the student's educational level, different speech activities are used. The language content is chosen, distributed, classified and presented in accordance with the different types of speech activity, that is, it is made ready for mastery based on the educational objectives. The program's creator and instructor directly control the distribution, systematic classification, and presentation of foreign language material. The student and the teacher collaborate as they learn and teach the subject matter. Language is the "building" component of speech activity because it integrates lexical, grammatical, and pronunciation units. Speaking, listening comprehension, reading and writing are all considered to be taught and learned skills using lexical, grammatical, and pronunciation units. To master its functional, semantic and formal aspects, students must practice special exercises.

The analysis of numerous academic publications and studies reveals the ongoing interest in the organization of communication issues in the context of teaching foreign languages. Various circumstances can be used to explain the cause of this. The first barrier that stands out is the potential for different student learning styles, the simultaneous acquisition of knowledge at various levels, and the fact that each learner has a unique personality (as well as a different physical and mental state) from the others. High potential is essential for effective teaching outcomes, according to researchers.

Main part

Students must practice speaking a lot in order to develop it because it is an active skill. Due to the requirement that you respond to questions posed during a conversation, speaking is the most challenging skill to master when learning a foreign language. It takes a lot of speaking practice to be able to communicate effectively in a real conversation. Speaking is a skill that gauges a language learner's proficiency in practical situations. To

teach students to think differently and approach their work creatively is one of the demands that every educator must now fulfill in light of the growing interest in teaching foreign languages. Naturally, this calls for a lot of self-improvements on the part of the teacher, who must also learn the material in light of the psychology of the students. This process is not automatic. The transition from one stage to another is done gradually when teaching a foreign language. In fact, even when moving to the second stage, some of the unique characteristics of the first stage can persist up until a certain point. Since the first stage of teaching and learning a foreign language is the foundational stage, oral speech and the development of reading techniques are given a lot of focus. Understanding the mechanism's speech at this point is crucial, as is learning to use the simplest speech patterns possible. Students should be taught how to pronounce words correctly at the beginning of their study of a foreign language with a focus on their pronunciation. Because during this time the ability to pronounce words correctly is formed, and in later stages, this ability is developed. It will be more challenging to solve this issue in the later stages if students do not initially achieve accurate pronunciation and articulation of English sounds. Speaking is always a proactive act because it conveys the speaker's attitude toward those around them. The interlocutor will engage in active speech behavior thanks to this activity. Speaking is always acceptable. The speaker always intends for his or her words to contribute to some end. Only when speech combines all of the required characteristics with purpose can it be considered truly purposeful. The inability of students and teachers to communicate with one another clearly is linked to the teaching of "speaking" in a foreign language. In order to significantly alter the circumstance, communicative motivation is used. Speaking as a type of activity has a common objective for each of the communicative tasks that take place in individual speech situations. Communication should be practical. In terms of communication, this is the essence of it. In fact, pragmatism's strategy and tactics enable it to achieve its purpose, which is found in pragmatism. It is important to note that speaking is type of speech activity and is not a standalone process. According to A.A. Leontiev, if speech is regarded as a skill, it "serves" to express all other human actions. Speaking, however, is not just a servile activity; it also greatly depends on a person's daily activities. This is crucial from a methodological standpoint. It is acceptable to mention two points in relation to this. The first aspect of speaking is the meaningful side, which is entirely influenced by the various spheres of human endeavor. The selection of speaking material and, to some extent, how it is organized are determined by this. The second is connected to motivating speech. Consider the situation where need to persuade someone of something. Speech serves as a vehicle for thought expression and verbal communication. Speaking has long been considered a secondary skill by educators in comparison to reading, writing, and even listening comprehension abilities. Students encounter a variety of difficulties when they must speak in English. They try to leave that situation as soon as possible because they are afraid (embarrassed) to come out in front of the group. In this case, the teacher should give the students topics that they are interested in, encourage them to speak without focusing too much on their errors, and foster motivation.

Analysis reveals that the issues with organizing communication are always of interest in the field of teaching foreign languages. Various circumstances provide an explanation for this. The possibility of students learning at different levels simultaneously and having different personalities (physical and psychological states) is one of the obstacles that stand out above the rest. The importance of high potential for effective teaching is emphasized by researchers. The teacher's job is to provide the right environment for each student to practically master the language, and to select instructional strategies that let each student show initiative and creativity. When teaching a foreign language, the teacher's job is to stimulate the students' cognitive processes. A focused approach can be implemented with the aid of contemporary pedagogical technologies, which include cooperative learning, project-based learning, the use of new information technologies, internet resources, etc. These technologies also offer individualization and differentiation of instruction, taking into account students' abilities and learning levels.

Therefore, it is clear from the foregoing considerations that if speaking instruction is structured as a process of continuously resolving speech-thinking tasks, the connection of speech units with everything required is created, ensuring the ability to apply the learned speech material to new contexts. It is crucial to develop teaching based on a variety of methods, as we can see. Achieving effective results using new, creative methods is also made possible by alternative methodological solutions, which typically reject the traditional methods of instruction.

Used literatures:


1. А.А.Леонтьев. Язык, речь, речевая деятельность. М., Просвещение», 1969. 214 стр.

2.Makhkamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A.I . Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching. – T., 2017. – 232 p.

3.Mukhtarova, S. (2024). Developing Speaking Skills of ESL and EFL Students. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(12).

4. Полат Е.С. Метод проектов на уроках английского языка / Е. С. Полат // Иностранные языки в школе. 2000. –№2,3.–3-10с.;

5. Richards J.C. & Rodgers T.S. Approaches and methods in language teaching/ Cambridge university press 2014.



TADQIQOTLAR

Seregul NIZANOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi (PhD)
seregulnzanova393@gmail.com

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MATBUOTI VA NOSHIRLIK ISHINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TARAQQIYOT BOSQICHLARI: IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY TAHLIL

Annotatsiya: maqolada mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi matbuoti va noshirlik ishining rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tahlil qilingan. Sohaning huquqiy asoslari, institutsional o‘zgarishlar va matbaa sanoatining texnologik transformatsiyasi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti, milliy o‘zlikni anglash jarayonida matbuotning roli va sohadagi mavjud muammolar hamda istiqboldagi vazifalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpog‘iston, matbuot, noshirlik ishi, mustaqillik, OAV to‘g‘risidagi qonun.*

Аннотация: в статье анализируются этапы развития прессы и издательского дела в Республике Каракалпакстан в годы независимости с социально-политической и духовно-просветительской точек зрения. Рассматриваются правовые основы отрасли, институциональные изменения и технологическая трансформация полиграфической промышленности. Также освещаются каракалпакская литература периода независимости, роль прессы в процессе национального самосознания, существующие проблемы и перспективные задачи в данной сфере.

Ключевые слова: *Каракалпакстан, пресса, издательское дело, независимость, закон о СМИ.*

Annotation: the article analyzes the stages of development of the press and publishing industry in the Republic of Karakalpakstan during the years of independence from socio-political and spiritual-educational perspectives. The legal foundations of the sector, institutional changes, and the technological transformation of the printing industry are examined. It also highlights Karakalpak literature of the independence period, the role of the press in the process of national identity formation, as well as current challenges and future tasks in the field.

Key words: *Karakalpakstan, press, publishing, independence, Law on Mass Media.*

Kirish.O‘zbekiston mustaqillikka erishishi Qoraqalpog‘iston axborot makoni va noshirlik sanoatida tub burilish yasab, so‘z erkinligi hamda milliy o‘zlikni anglashning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur jarayonni tadqiq etishda S. Kamalov, M. Nurmuhammedov kabi olimlarning ijtimoiy-tarixiy yondashuvlari hamda A. Paxratdinov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy xulosalari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotda tarixiy-xronologik, tizimli va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan holda, sohaning huquqiy va iqtisodiy transformatsiyasi kompleks o‘rganildi. Shuningdek, me’yoriy hujjatlar va davlat standartlari tahlili orqali matbaa sohasining institutsional rivojlanishi yoritildi. Maqola mustaqillik davri matbuotining jamiyatni ma’naviy yangilashdagi strategik rolini ilmiy jihatdan ochib beradi.

Natijalar va muhokama. Mustaqillik Qoraqalpog‘iston axborot makonida tub burilish yasab, matbuot va noshirlikni milliy g‘oyaning asosiy vositasiga aylantirdi. Institutsional islohotlar natijasida sohada ham son, ham sifat ko‘rsatkichlari ortdi: ilk bosqichda 39 ta gazeta va 8 ta jurnal faoliyat boshlab, axborot makonining segmentatsiyalashuvini ta’minladi. “Qoraqalpog‘iston” va “Bilim” kabi yirik nashriyotlar ma’naviy-ma’rifiy yangilanish markaziga aylandi. Mahalliy OAV tizimi respublika, tuman va tarmoq nashrlariga bo‘linib, demokratik qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda milliy o‘zlikni anglashda muhim minbarga aylandi. Bu jarayonlar mintaqaning iqtisodiy va madaniy faolligini ko‘rsatuvchi asosiy indikator bo‘lib xizmat qildi.

Har qanday sohaning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos talab etiladi. 1992-yilning fevral oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi tomonidan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi mintaqa OAV tarixida yangi sahifa ochdi. Bu hujjat Qoraqalpog‘istonda axborot erkinligini ta’minlash va sohani davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha chiqarilgan ilk tarixiy hujjat edi. Jurnalistikaning asosiy bo‘g‘inlari bo‘lgan radio, televideniye va matbuot o‘z tezkorligi va ta’sirchanligi bilan jamiyat ongiga milliy g‘oyani singdirishda muhim rol o‘ynay boshladi.

Qonunchilikdagi islohotlar izchil davom ettirilib, 1996-yil 5-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Matbuot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni e’lon qilindi. Ushbu qonun 16 moddadan iborat bo‘lib, unda noshirlik va matbaa korxonalarining mustaqil faoliyat yuritish tartiblari belgilab berildi. Endilikda nashriyotlar o‘z faoliyat yo‘nalishlarini, mavzularini va chiqariladigan mahsulotlar adadini belgilashda, shuningdek, mualliflarni tanlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligi doirasida erkinlikka ega bo‘ldilar. Bu holat sobiq ittifoq davriga xos bo‘lgan qattiq markazlashgan nazorat tizimidan voz kechish va bozor munosabatlariga o‘tishning muhim belgisi edi.

1998-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida matbaa faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi 52-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror poligrafiya korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning faoliyatini tizimlashtirish maqsadini ko‘zlagan edi. Qarorga muvofiq, matbaa korxonalari tegishli davlat organlarida ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng o‘z faoliyatini boshlash huquqiga ega bo‘ldi. Bu chora-tadbirlar noshirlik mahsulotlarining sifatini nazorat qilish va noqonuniy matbaa Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda matbuot va noshirlik sohasini isloh qilishda mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Xususan, 2002-yildagi Prezident Farmoni bilan Davlat matbuot qo‘mitasining O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi etib qayta tashkil etilishi sohada yagona davlat siyosatini yuritish hamda xalqaro standartlarga moslashish imkonini berdi. Keyinchalik qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, jumladan, 2006-yildagi nashr mahsulotlarini bosib chiqarish qoidalari va 2022-yildagi matbaa korxonalarini ro‘yxatga olish tartibi sohadagi texnik intizomni mustahkamladi. Bunday izchil islohotlar matbaa sanoatini tartibga solish, noqonuniy faoliyatning oldini olish va axborot makonini zamon talablari asosida modernizatsiya qilishda strategik ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti madaniyatning o‘zagi sifatida yangi mazmun kasb etib, ilgari taqiqlangan tarixiy “oq dog‘larni” yoritishga xizmat qildi. V. Grabovskiy, T. Abdimuratov va Q. Bayniyozov kabi ijodkorlar o‘z asarlarida xalq tarixi va qatag‘on qurbonlari siymosini tikladilar. T. Qayipbergenov va M. Nizanov kabi adiblar prozada mustaqillik g‘oyalarini ilgari surgan bo‘lsa, I. Yusupov she’riyati milliy g‘ururni yuksaltirdi. Ayniqsa, “Ajiniyoz” birinchi milliy operasining yaratilishi san’atda tub burilish yasadi. K. Mambetov va S. Bahadirova kabi olimlarning adabiy tanqid sohasidagi izlanishlari esa adabiy jarayonning nazariy asoslarini mustahkamlab, soha rivojini ilmiy jihatdan ta’minladi.

Mustaqillik yillarida matbaa sanoati ham ma’naviy, ham texnologik jihatdan tubdan yangilandi. 1991-yilda O‘zbekistonda bor-yo‘g‘i 178 ta matbaa korxonasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 1514 taga yetgani sohada xususiy sektor va sog‘lom raqobat muhiti shakllanganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy jihatdan ham soha yuqordi ko‘rsatkichlarga erishmoqda: mamlakatimizda har yili o‘rtacha 45 milliard so‘mlik kitob mahsulotlari chop etilib, umumiy tovar aylanmasi 100 milliard so‘mni tashkil etmoqda. Qoraqalpog‘iston matbaa korxonalari ham ushbu jarayondan chetda qolmay, xalqaro standartlarga moslashish va texnik bazasini zamonaviylashtirishga intilmoqda.

Biroq, sohada iqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liq muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, Qoraqalpog‘istondagi ko‘plab nashrlar haligacha davlat subsidiyalariga bog‘liq bo‘lib, bu ularning to‘laqonli raqobatbardosh bo‘lishiga xalaqit bermoqda. Muammoni hal etish uchun bozor munosabatlarini erkinlashtirish va nashriyotlarning tijoriy faoliyatini kengaytirish taqozo etiladi.

Shu bilan birga, nashr mahsulotlarining sifatini ta’minlashda standartlashtirish muhim o‘rin tutadi. O‘z DSt 1215:2009 milliy standarti asosida bibliografik tavsiflarni rasmiylashtirish respublika miqyosida yagona elektron katalog yaratish va axborot almashinuvini osonlashtirish imkonini beradi. Qoraqalpog‘iston nashriyotlari ushbu talablarga rioya qilgan holda, ilmiy va badiiy adabiyotlarning bibliografik sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko‘tarmoqdalar. Bu chora-tadbirlar sohaning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-intellektual salmog‘ini oshirishga xizmat qiladi.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi noshirlik va matbaa sohasini modernizatsiya qilish orqali ta’lim sifati va ilm-fanga intilishni kuchaytirishni maqsad qilgan. Bu jarayonda yoshlarning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish va sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifadir. Ayniqsa, elektron kitoblar bozorini shakllantirish va huquqiy bazani mustahkamlash bugungi kun talabiga aylandi. Qoraqalpog‘iston nashriyotlari uchun milliy qadriyatlarni jahon miqyosida targ‘ib qilish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirish orqali raqobatbardosh mahsulotlar yaratish strategik ahamiyatga ega. Bu islohotlar jamiyatning ma’naviy yuksalishi va intellektual salomatligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston noshirlik va matbaa sohasi mafkuraviy cheklovlardan xalos bo‘lib, mustahkam huquqiy asosda milliy o‘zlikni anglash poydevoriga aylandi. Zamonaviy matbaa bazasi va boy adabiy merosning tiklanishi muhim yutuq bo‘ldi. Biroq, globallashuv davri soha oldiga raqamli texnologiyalarga o‘tish, elektron nashrlarni kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikka erishish vazifalarini qo‘ymoqda. Yangi O‘zbekiston strategiyasi doirasida sifatli milliy kontent yaratish va sohani modernizatsiya qilish Qoraqalpog‘iston matbuotining jamiyat ma’naviy yuksalishidagi strategik o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/ocs/721534
2. https://lex.uz/ocs/156830
3. https://lex.uz/ocs/356841
4. https://lex.uz/ocs/974143
5. https://lex.uz/ocs/39478
6. Qaekeev Q.J. Qaraqalpaqstan baspasózi hám ǵárezsizlik dáwirindegi ruwxıy rawajlanıw. Oqıw qollanba. –Nókis, 2008.7-bet.

Elyor MATCHANOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Yaponshunoslik Oliy maktabi katta o‘qituvchisi

YAPON ADABIYOTIDA MILLIY MADANIY KODLARNING IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada yapon adabiyotida milliy madaniy kodlarning badiiy ifodalanish jarayoni, ularning shakllanish mexanizmlari va zamonaviy adabiy tafakkurdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda *wabi-sabi*, *mono no aware*, *ma* kabi an’anaviy yapon estetik tamoyillari hamda ular orqali milliy identitetning semantik va poetik qatlamlarda talqin qilinishi o‘rganiladi. Zamonaviy yapon yozuvchilari ijodida milliy madaniy kodlarning qayta talqini, global madaniy jarayonlar bilan sintezi va badiiy ramzlar tizimi orqali ifodalangan yangi estetik mazmunlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *yapon adabiyoti, milliy madaniy kodlar, estetik tamoyillar, madaniy xotira va badiiy ifoda.*

Аннотация: в данной статье рассматривается процесс художественного выражения национальных культурных кодов в японской литературе, анализируются механизмы их формирования и их роль в современном литературном сознании. Исследование сосредоточено на традиционных эстетических принципах – *wabi-sabi*, *mono no aware*, *ma* – и их семантической и поэтической интерпретации в контексте национальной идентичности. Особое внимание уделяется тому, как современные японские писатели переосмысливают культурные коды, интегрируют их в глобальные культурные процессы и создают новые эстетические значения посредством символической системы.

Ключевые слова: *японская литература, национальные культурные коды, эстетические принципы, культурная память и художественное выражение.*

Annotation: this article explores the artistic expression of national cultural codes in Japanese literature, analyzing their formation mechanisms and their role within contemporary literary discourse. The study focuses on traditional Japanese aesthetic principles–*wabi-sabi*, *mono no aware*, and *ma*–and examines how these concepts are interpreted semantically and poetically as markers of national identity. It also investigates how modern Japanese writers reinterpret cultural codes, integrate them into global cultural dynamics, and create new aesthetic meanings through symbolic structures.

Key words: *japanese literature, national cultural codes, aesthetic principles, cultural memory, and artistic expression.*

Kirish. Yapon adabiyoti asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos estetik tamoyillari, milliy madaniy qadriyatlari va ramziy obrazlari bilan jahon adabiy jarayonida alohida o‘rin egallaydi. Bu adabiyotning badiiy tafakkuri chuqur falsafiy mazmuni, nafis poetik tuzilishi va murakkab estetik qarashlari bilan ajralib turadi. Yapon madaniyatining noyobligi, avvalo, uning milliy madaniy kodlarida – ya’ni xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, an’anaviy ramzlar tizimi, dunyoqarashi va ruhiy-psixologik kechinmalarida ifodalanadigan barqaror ma’naviy qatlamlarda namoyon bo‘ladi.

Ushbu madaniy kodlar – *wabi-sabi* (kamolatsizlikdagi go‘zallik), *mono no aware* (o‘tkinchilikning sezgir idroki), *ma* (bo‘shliqning estetik mazmuni), *yūgen* (sirli nafislik), *iki* (zarrakash nafislik) kabi tamoyillar – yapon estetik tafakkurining poydevorini tashkil etadi. Mazkur estetik qarashlar adabiyotda hamisha ramzlar tizimi, poetik struktura, badiiy obrazlar, tabiat tasvirlari va psixologik kechinmalar orqali o‘z aksini topgan. Shunday bo‘lsa-da, yapon adabiyotida milliy madaniy kodlar statik hodisa bo‘lib qolmay, har bir davrning ijtimoiy-madaniy sharoiti, badiiy yo‘nalishlari va falsafiy qarashlari bilan uyg‘un holda qayta ishlanib borilgan.

XX–XXI asrlar bo‘ylab globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi, jamiyatning urbanizatsiyalashuvi, texnologik taraqqiyot va inson ruhiy dunyosining murakkablashuvi milliy madaniy kodlarning talqinini yangi badiiy yo‘nalishlarga burdi. Zamonaviy yapon yozuvchilari – Ogava

Yoko, Yoshimoto Banana, Murakami Haruki, Tawada Yoko, Kawakami Hiromi va boshqalar – an'anaviy madaniy kodlarni zamonaviy psixologik muhit, global madaniy oqimlar, shaxsiy izlanishlar va yangi narrativ shakllar bilan sintez qilib, milliy identitetning o'ziga xos zamonaviy modelini yaratmoqdalar.

Bundan tashqari, yapon milliy madaniy kodlarining badiiy ifodasi faqat estetik kategoriyalar bilan cheklanmaydi; ular insonning tabiat bilan aloqasi, vaqt va makonni idrok etish mexanizmi, ruhiy iztiroblarni badiiy anglash madaniyati, kundalik hayot estetizatsiyasi va hayot falsafasining chuqur qatlamlarini mujassamlashtiradi. Shu boisdan yapon adabiyotini o'rganishda milliy madaniy kodlarning talqini muhim metodologik yondashuv sifatida qaraladi.

Mazkur mavzuning ilmiy dolzarbligi shundaki, bugungi globallashgan dunyoda milliylik, identitet, madaniy xotira kabi tushunchalar qayta ko'rib chiqilmoqda.Yapon adabiyotidagi milliy madaniy kodlar esa ushbu jarayonning badiiy aks-sadosi bo'lib, ular milliy identitetning zamonaviy talqinini aniqlashda asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yapon madaniy estetikasi va adabiyotida mavjud tamoyillar global madaniy muloqot fonida qanchalik o'zgarayotgani, qanday yangi badiiy vazifalarni bajarayotgani va qanday poetik imkoniyatlarni yuzaga chiqarayotgani bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb ilmiy savollaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Yapon adabiyotidagi milliy madaniy kodlarning badiiy talqini masalasi adabiyotshunoslikda keng muhokama qilingan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar asosan yapon estetikasi, madaniy xotira va milliy identitetning shakllanish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan. Yasunari Kavabata, Mishima Yukio va boshqa klassik mualliflar ijodida *wabi-sabi*, *mono no aware*, *yūgen* kabi estetik kategoriyalar milliy madaniyatning badiiy timsoli sifatida talqin etilgan.Donald Keene, Haruo Shirane va Richard Okada kabi tadqiqotchilar yapon adabiyotining estetik poydevorini o'rganib, tabiat tasviri, vaqt va o'tkinchilik tasavvuri, bo'shliq estetikasining tarixiy shakllanish jarayonlarini ilmiy asoslaganlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, Yoshimoto Banana, Ogawa Yoko, Murakami Haruki va Tawada Yoko kabi yozuvchilarning asarlari diqqat markaziga olingan. Tadqiqotchilar (Ueda, Iles, Kawabata M.) milliy madaniy kodlar zamonaviy adabiyotda psixologik holatlar, shaxsiy tajribalar va global ta'sirlar bilan sintez qilinayotganini qayd etadilar. Badiiy bo'shliq (*ma*), o'tkinchilik hissi (*mono no aware*) va kamtarlik estetikasining (*wabi-sabi*) zamonaviy talqini ko'proq ichki monolog, minimalistik tasvirlar va ramziy kompozitsiya orqali namoyon bo'layotgani ta'kidlanadi.

Tahlillar qismi. Yapon adabiyotida milliy madaniy kodlarning badiiy talqini murakkab estetik, semantik va madaniy jarayonlar uyg'unligida shakllanadi. Adabiy matnlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yapon yozuvchilari milliy madaniy kodlarni nafaqat an'anaviy ma'noda qo'llaydilar, balki zamonaviy badiiy tafakkur, global madaniy ta'sirlar va shaxsiy ruhiy kechinmalar bilan sintez qilib, ularni yangi badiiy vazifalar bilan boyitadilar. Bu jarayon milliy identitetning zamonaviy adabiy modelini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Avvalo, *wabi-sabi* estetikasi zamonaviy prozada chuqur psixologik holatlarni ifodalashda markaziy timsol sifatida qo'llanadi. Ogava Yoko, Kawakami Hiromi kabi yozuvchilar tasvirlarining soddaligi, detallarining kamtarinligi va tasviriy epizodlardagi sukut unsuri orqali hayotning nolik, kamolatsizlik va vaqtning sokin o'tish jarayoniga doir milliy estetik qarashlarni qayta talqin qiladilar. *Wabi-sabi*ning zamonaviy talqinida kamtarin detallar ko'pincha ruhiy iztirob, yolg'izlik, ichki dunyo bilan muloqot kabi psixologik jarayonlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Yapon adabiyotida bo'shliq tamoyili – *ma* – o'ziga xos kompozitsion va poetik vazifani bajaradi. Matnlardagi pauzalar, jimliklar, oraliqlar aytilmagan, lekin sezdirilgan ma'nolarni yaratib, o'quvchini faol muloqotga undaydi. Ogava Yoko asarlarida bo'shliqning estetik funksiyasi muallifning minimalistik tasvir uslubi bilan uyg'unlashadi va milliy madaniy kodning zamonaviy badiiy ko'rinishini shakllantiradi. Bu bo'shliqlar orqali milliy madaniyatning muhim tamoyillari – sokinlik, tartib, sezgirlik, noo'rin ta'sir qilmaslik kabi qadriyatlar badiiy shaklga ega bo'ladi.

Zamonaviy adabiyotda milliy madaniy kodlarning global madaniy oqimlar bilan sintez qilinishi ham sezilarli. Tawada Yo'ko ijodida transmilliylik,

lingvistik ko‘chish, madaniyatlararo dialog milliy kodlarning yangicha talqiniga yo‘l ochadi. Uning asarlarida yapon estetik tamoyillari global muhitda yangi badiiy ma’nolar kasb etadi, milliylik esa chegaralangan emas, balki o‘zgaruvchan va moslashuvchan hodisa sifatida yoritiladi.

Natijalar. Zamonaviy adiblar bu tamoyillarni faqat estetik vosita sifatida emas, balki shaxsiy ruhiy jarayonlarni, zamonaviy inson ma’naviy izlanishlarini va global o‘zgarishlar fonidagi identitet inqirozlarini ifodalash uchun qo‘llamoqda. Natijada milliy madaniy kodlar avvalgi poetik kontekstidan chiqib, kengroq psixologik va falsafiy ma’nolarga ega bo‘lgan.

Zamonaviy yapon adabiyoti milliylikni biryoqlama yoki qat’iy belgilangan tushuncha sifatida emas, balki doimo o‘zgarib boruvchi, moslashuvchan, shaxsiy tajribaga asoslangan hodisa sifatida talqin qilmoqda. Murakami Haruki, Yoshimoto Banana, Ogava Yoko kabi yozuvchilarning asarlarida milliy madaniy kodlar individual ruhiy kechinmalar orqali talqin qilinib, shaxsiy identitet va milliy xotira o‘rtasidagi bog‘liqlik yanada sezilarli darajada mustahkamlanadi. Bu esa milliy estetikani kengroq, ko‘p qirrali va psixologik jihatdan murakkab shaklda ifodalash imkonini beradi.

Yapon adabiyotidagi ramziy obrazlar tizimining milliy madaniy kodlarning asosiy tashuvchisi ekanligi aniqlandi. Tabiat manzaralari, uy va makon, sukut va bo‘shliq, kundalik maishiy predmetlar, vaqtning oqimi bilan bog‘liq ramzlar – bularning barchasi yapon milliy mentalitetining badiiy ifodasiga xizmat qilmoqda. Zamonaviy yozuvchilar ushbu ramzlar orqali milliy madaniy kodlarni yangi semantik va badiiy kontekstlarda ochib berishmoqda, bu esa milliy identitetni yanada murakkab va ko‘p qatlamli ko‘rinishda yoritishga yordam bermoqda.

Transmilliy tajribalar, madaniyatlararo dialog va global madaniy ta’sirlar milliy kodlarning qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Tawada Yo‘ko kabi yozuvchilarda milliylik global identitet bilan kesishgan holda talqin qilinadi, natijada yaponlikning zamonaviy adabiy modeli paydo bo‘ladi. Bu hodisa milliy madaniy kodlarning o‘zgaruvchan, dinamik va ochiq tizim ekanini tasdiqlaydi. Bu esa yapon adabiyotining milliylikni ifodalashdagi o‘ziga xos estetik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xulosa. Yuritilgan tadqiqot yapon adabiyotida milliy madaniy kodlarning badiiy ifodasi murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik jarayon ekanini yaqqol namoyon etdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yapon estetik tamoyillari – *wabi-sabi*, *mono no aware*, *ma*, *yūgen* kabi tushunchalar – nafaqat an’anaviy adabiy merosning ajralmas qismi, balki zamonaviy adabiyotning badiiy-psixologik tuzilishida ham faol ishlatiladigan kuchli semantik vositalardir. Ushbu tamoyillar zamonaviy yozuvchilarning ijodida qayta talqin qilinib, zamonaviy ruhiyat, global madaniy ta’sirlar va shaxsiy identitet masalalari bilan uyg‘unlashgan holda yangi badiiy qatlamlarni yuzaga keltirmoqda.

Yapon adabiyotida milliy madaniy kodlarning badiiy ifodasi, avvalo, individual ruhiy kechinmalar, tabiat tasvirlarining ramziy talqini, makon va bo‘shliq estetikasi, vaqtning o‘tkinchilik timsoli, shuningdek kundalik hayot tafsilotlarining estetiklashtirilishi orqali amalga oshadi. Bu esa milliy madaniyatni zamonaviy adabiy jarayonlar bilan bog‘laydigan mustahkam badiiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Milliy madaniy kodlarning qayta talqini faqat an’analarga sodiqlik emas, balki ularning zamonaviy badiiy fikr jarayoniga moslashuvi, yangilanib borishi va yangi shakllar kasb etishidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 川端康成. 雪国 [Yukiguni / Qorlar mamlakati]. – 東京: 新潮社, 1948. – 205 p.
1. 三島由紀夫. 金閣寺 [Kinkakuji / Oltin Pavilyon]. – 東京: 新潮社, 1956. – 300 p.
2. Shirane H. Japan and the Culture of the Four Seasons. – New York: Columbia University Press, 2012. – 335 p.
3. Keene D. Dawn to the West: Japanese Literature of the Modern Era. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1984. – 450 p.
4. Suzuki T. Cultural Codes in Modern Japanese Fiction // Journal of Japanese Studies. – 2010. – Vol. 36, № 2. – P. 145–167.

Dilafruz QALANDAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: d.kalandarova2017@yandex.ru

EPIK JANRLAR TARJIMASINING XORIJDA YOYILISHI
(Ertak va doston janri misolida)

Annotatsiya: maqolada epik janlar tarjimasi, jumladan, doston va ertak janrining tarjima va tadqiqi bilan shug'ullangan nemis olimi Karl Rayxlning ilmiy faoliyatiga nazar solinadi. Olim ijodida tarjimaning o'rni, tarjima jarayonida olim e'tibor bergan jihatlar, tarjimadagi o'ziga xosliklar, sohaga oid qilingan yangiliklar va Karl Rayxlning tarjimalari o'z asarlari uchun manba bo'lib xizmat qilganligi isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: *folklorshunoslik, tarjimashunoslik, tarjima, tarjimon, tadqiq, ertak, doston, epik an'ana, epik qolip.*

Аннотация: в статье рассматривается научное творчество немецкого учёного Карла Райхля, занимавшегося переводом и изучением эпических жанров, в том числе эпоса и сказки. Рассматривается роль перевода в творчестве учёного, аспекты, которым он уделял внимание в процессе перевода, особенности перевода, новаторство в этой области, а также то, что переводы Карла Райхля служили источником для его собственных работ.

Ключевые слова: *фольклор, переводоведение, перевод, переводчик, исследование, сказка, эпос, эпическая традиция, эпическая форма.*

Annotation: the article reviews the scientific work of the German scholar Karl Reichl, who was engaged in the translation and study of epic genres, including the epic and fairy tale genre. The role of translation in the scholar's work, the aspects the scholar paid attention to in the translation process, the peculiarities of translation, innovations in the field, and the fact that Karl Reichl's translations served as a source for his own works are discussed.

Key words: *folklore, translation studies, translation, translator, research, fairy tale, epic, epic tradition, epic form.*

Jahon folklorshunosligida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarining turkiy va boshqa xalqlar epik an'analari bilan genetik aloqadorligi, o'zaro ta'siri, janriy tarkibi, syujet, motiv va obrazlar strukturasidagi ayrim umumiy va differensial belgilarini ochishga qaratilgan izlanishlar mavjudligi umumjahon sivilizatsiyasida o'zbek folklorining alohida o'rni borligini tasdiqlashi nuqtayi nazaridan e'tiborni tortadi. Shu jihatdan o'zbek folklorining jahon qiyosiy folklorshunosligidagi o'rni va muhim manba sifatidagi qimmatini belgilab berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ilm fanida qiyosiy folklorshunoslik nazariy va amaliy jihatdan tobora rivojlanib borayotgan alohida yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Uning tarkibida folklor materiallarining qiyosiy tahlili, umumfolklor namunalarining syujet va motivlar tizimi, poetik strukturasidagi o'xshashliklar, tipologik va xususiy belgilar, epik matn tahlili, adabiy aloqalar, og'zaki ijod va yozma adabiyot munosabati masalalarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda xalqimizning milliy o'zligi va ma'naviy ildizlarining asosi bo'lgan xalq og'zaki ijodini nafaqat diyorimizda, balki jahonda ham o'rganishga bo'lgan e'tibor yuksak qadrlanmoqda. Chunki xalqimiz nomining jahonga tanilishida folklor eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Zero, "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir" [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek folklorining o'rganilish va xorijiy tillarga tarjima qilinish jarayoni o'zining uzoq tarixiga ega. Bu o'rinda o'zbek folklori namunalarining Yevropa tillariga tarjima qilinishida Herman Vamberining xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Uning chig'atoy tiliga bag'ishlangan tadqiqotidan o'zbek maqollari bilan birga "Yusuf va Ahmad" dostoni o'rin olgan. Bu kabi tadqiqotlar o'zbek folklorining xorijda yoyilishida muhim qadam bo'lib xizmat qildi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek folklori namunalarining Yevropa tillariga tarjima qilinishida yangi bir bosqich boshlandi. Bu yangilanish jarayoni esa Karl Rayx nomi bilan bog'liq.

To'ra Mirzayev professor Karl Rayxlning "O'zbek xalq ertaklari" kitobini "O'zbek folklori bo'yicha birinchi jiddiy kitob" deya ta'riflagan. Bu kitob tarkibida dastlab sakkizta o'zbek xalq ertagining asliyat matni bilan nemischa tarjimasi yonma-yon berilgan. Undan so'ng kitobning tadqiqot qismiga o'tiladi. Bu qismda keltirilgan ertaklarning janr xususiyatlari, turlari haqida mulohazalar ilgari surilgan. Undan keyin ertakda qo'llanilgan ayrim so'z va iboralarga zarur izohlar berilgan. Shuningdek, kitob lug'at bilan ham ta'minlangan.

Bir jihatni alohida aytib o'tish kerakki, u yoki bu epik asar (ertak yo doston)ning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan tadqiqot bilan o'sha namunaning asl nusxasi va tarjima matnini birgalikda nashr etish Karl Rayxl kitoblarining asosiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Bu bilan olim folklor asarlarini ikki tilda – bir-biriga qardosh bo'lmagan, turli tizimga aloqador begona tilda nashr etishning ilmiy-nazariy prinsiplarini ishlab chiqishga,

mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi. Bu boradagi nashrlari goh o‘zbek va nemis, goh o‘zbek va ingliz tillarida amalga oshirildi.

Yana shuni aytish lozimki, o‘zbek folklorshunosligida Karl Rayxl ilk bor o‘z tarjimasini uning (baxshi yoki jirov tomonidan kuylangan) jonli ijrosidagi kompakt-disk bilan birgalikda nashr ettirish tajribasini boshlab berdi.” To‘ra Mirzayev e’tirof etganidek: “Bu – o‘zbek va qoraqalpoq dostonlaridan kompakt-disk bilan birgalikda chop etilgan birinchi nashrdir”.

2007-yilda Finlandiya fanlar akademiyasi olimning “Edegey” dostoni haqidagi monografiyasini doston Jumaboy Bozorovdan yozib olingan variantini nashrdan chiqardi.

Karl Rayxl o‘zbek dostonlarini tarjima qilishni “Ravshan” dostonidan boshlagan. Bu doston tarjimasi to‘g‘risida juda ko‘p mutaxassislar iliq fikrlar bildirishgan. Ular Karl Rayxlning mazkur tarjimasini hamda bu doston haqidagi tadqiqotini yuqori baholashgan.

Yo‘ldosh Nurmurodovning “Ravshan” dostonining nemis tilidagi tarjimasi ustida tadqiqot olib borgani ma’lum. Amin Qurbonboyev esa Karl Rayxlning “Alpomish” dostoni tarjimasi ustida ishlab, “Alpomish – nemis tilida” nomli qoraqalpoq tilidagi kitobini e’lon qilgan.

Karl Rayxl “Ravshan” dostonini tarjima qilib, fikrlarini bilish uchun Albert Lordga yuboradi. Albert Lord mazkur tarjima bilan tanishib chiqib, o‘zining iliq fiklarini bildiradi. Shundan so‘ng Albert Lord o‘zining “O‘rta Osiyo va bolqon xalqlari eposi” nomli kitobida “Ravshan” va “***Alpomish***” dostonlaridan misollar keltirgan. Mazkur kitobda o‘zbek folklorshunoslari orasida “***Alpomish***”ni kuylamagan baxshi-baxshi emas, “***Alpomish***”ni tadqiq etmagan olim olim emas degan fikrlar ham mavjud.

Biz bilan suhbatda Karl Rayxl shunday degan edi: “Mendan ko‘p marta “Alpomish” dostoni va uning variantlarini ingliz tiliga tarjima qilishimni so‘rashdi, ammo mening fikrimcha, dostonning men nemis tiliga o‘girgan varianti ancha qisqa. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti hajman ancha katta asar. Agar men bu variantni ingliz tiliga o‘girsam, doston qaytariqlarga to‘la, ohanglarsiz shaklga tushib qoladi. Chunki doston o‘zbek tilidagi ohangi bilan o‘ta jozibalidir”.

Olim o‘z so‘zini davom ettirib: “Balki, dostonning boshqa, masalan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Berdi baxshi ijrolaridagi variantlari tarjimalari ustida men ishlashim mumkindir. Faqat muammo shundaki, dostonlar matni murakkab, ularda hech qanday tushuntirishlar va lug‘atlar yo‘q. Men bir o‘zim uyda o‘tirib, bu ishni amalga oshira olmayman. Juda ko‘p vaqt oladi. Lekin menga yordam beradigan jamoa bo‘lsa, bu ishni amalga oshirish mumkin”, – deydi olim.

Akademik T.Mirzayev olimning “Alpomish” bilan bog‘liq tarjimasi haqida shunday deydi: “Kaminaning 1968-yilda nashr etilgan “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari” kitobining ikkinchi bobi – “Alpomish” dostonining o‘zbeklar o‘rtasida tarqalishi va uning versiya hamda variantlari” bobini erkin tarjima qilib, keyingi ma’lumotlarni ham qo‘shgan holda yuqoridagi monografiyasiga alohida qism sifatida kiritishi ... bir doston haqidagi ikki olimning fikr-mulohazalari shunday birlashib ketib, o‘zaro uyg‘un holda bir butunlikni tashkil etganki, unda Karl Rayxlning eskartmasi bo‘lmaganida uning ikki tadqiqotchiga tegishli ekanligini oddiy kitobxon sezmay qolishi tabiiy edi”.

K.Rayxlning “Alpomish” haqidagi monografiyasi va doston yuzasidan amalga oshirgan ilmiy tarjimasi kitoblarining taqdimoti 2002-yilning dekabrida Bonn universitetida tashkil qilingan. Bu taqdimot marosimida To‘ra Mirzayev, Jabbor Eshonqulov va baxshi Shoberdi Boltayevlar ishtirok etishgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Karl Rayxl o‘zbek xalq ertak va dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilgan kitoblari tarkibida ularning asl nusxasi va tarjima matnini birgalikda nashr ettirdi. Bu esa uning shu siradagi kitoblariga xos eng muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Olim folklor asarlarini ikki tilda – bir-biriga qardosh bo‘lmagan, turli tizimga aloqador o‘zbek-nemis yoki o‘zbek-ingliz tillarida chop ettirdi. Shu orqali bu xil nashrlarning ilmiy-nazariy printsiplarini ishlab chiqishga, mustahkamlashga hissa qo‘sha oldi. Turkiy folklor va folklorshunosligiga har doim katta qiziqish bilan qaragan Karl Rayxl nafaqat o‘zbek, balki boshqa turkiy xalqlar folklorini ham o‘rganishga munosib hissa qo‘sha olgan. Uning bu boradagi tarjima va tadqiqotlari buning yorqin dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilish marosimiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019. 7-aprel.№ 68.

2. Vambery A. Scenes from the East (Through the Eyes of a European traveler in 1860), Corvina, Kiads. – Budapest, 1979. 418 p.;

3. Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 p.;

4. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. “Attitude to uzbek folklore in the research of Karl Reichl. “*ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.

5. Dilafruz, Kalandarova. “Issues Of Uzbek Folklore and its Research in Germany. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

6. D.A. Kalandarova. Research classification of Karl Reichl. Current Research Journal of Philological Sciences 2 (11), 29-33, 2021

7. D.A. Kalandarova. Problems of comparative folklore in the research of Karl Reichl. Cutting-Edge Science. International Scientific and Practical Conference. 1.9 32-33, 2021

Dildor BAZAROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti
Mohlaroyim IZZATILLAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDA SINONIMLAR TIZIMI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida ishlatilgan ayrim sinonimik qatorlar tahlil qilinadi. Asarda muallif turli kayfiyatlar, ruhiy holatlar va voqealarning intensivligini ifodalashda boy leksik vositalardan, xususan, kontekstual sinonimlardan keng foydalangan.

Kalit so‘zlar: *sinonim, sinonimik qatlam, leksik-semantik tahlil, kontekstual yondashuv, uslubiy vazifa, badiiy til, emotsional-ekspressiv ma’no, ruhiy kechinma, o‘zbek adabiy tili, leksik boylik.*

Аннотация: в данной статье анализируются некоторые синонимические ряды, использованные в произведении Уткира Хошимова «Жизни, прожитые во сне». Автор мастерски применяет богатые лексические средства, в частности контекстуальные синонимы, для выражения различных настроений, психологических состояний и степени интенсивности событий.

Ключевые слова: синоним, синонимический слой, лексико-семантический анализ, контекстуальный подход, стилистическая функция, художественный язык, эмоционально-экспрессивное значение, душевное переживание, узбекский литературный язык, лексическое богатство.

Annotation: this article analyzes several synonymic series used in O‘tkir Hoshimov’s novel *“Lives Lived in a Dream.”* The author skillfully employs rich lexical means, particularly contextual synonyms, to convey various moods, psychological states, and the intensity of events.

Key words: *synonym, synonymic layer, lexical-semantic analysis, contextual approach, stylistic function, artistic language, emotional-expressive meaning, psychological experience, Uzbek literary language, lexical richness.*

Kirish. Tilning leksik boyligi va ifoda imkoniyatlari ko‘lami, avvalo, undagi sinonimik qatlamning boyligi bilan bevosita bog‘liq. Sinonimlar – shaklan turlicha, biroq ma’nodosh bo‘lgan leksik birliklar bo‘lib, ular tilning ekspressivlik darajasini oshirish, nutqqa emotsional, uslubiy va semantik rang-baranglik kiritish vazifasini bajaradi. Sinonimlarning mavjudligi tilda fikrni aniq, lo‘nda va bir vaqtning o‘zida mahorat bilan ifodalash imkonini yaratadi. Leksik-semantik jihatdan yaqin bo‘lgan bu so‘zlar faqatgina denotativ ma’nosi bilan emas, balki ular o‘rtasidagi uslubiy, emotsional-ekspressiv,kontekstual farqlanishlar bilan ham ajralib turadi. Sinonimlarni belgilashda aynan bir xil ma’nolar bilan bir qatorda farqli belgilar ham hal qiluvchi o‘ringa ega. Sinonimlarni tavsiflashda bevosita farqli belgilarni imkon qadar ko‘proq va xo‘broq tasvirlab ko‘rsatish muhim [1].

Tilshunos olim A.Hojiyev *“Sinonimlar ma’nosining bir xilligi ularning o‘zaro farqli xususiyatlarga ega bo‘lishini inkor etmaydi. Aksincha, tilda bir ma’noni ifodalash uchun bir necha so‘zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to‘la mos kelmasligini, ulardan har biri o‘ziga xos belgi-xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi [2].* Adabiy tilda sinonimlarning roli ayniqsa muhim bo‘lib, ular badiiy matnning mazmuniy qatlamini chuqurlashtirish, obrazlarni psixologik jihatdan ochish, kayfiyatni ifodalash va muallif uslubini individuallashtirishda beqiyos vosita sanaladi. Jumladan, sinonimlar orqali muallif bir harakatni, holatni yoki kechinmani turli nuqtayi nazarlardan yoritib, matnning semantik ifodasini kengaytiradi. Bu holat, ayniqsa, O‘tkir Hoshimov singari yirik adiblar asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, o‘zbek tilidagi sinonimlarni nafaqat lug‘aviy birlik sifatida, balki uslubiy, funksional va semantik jihatlari bilan birgalikda o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya. Ilmiy maqolada leksik-semantik tahlil metodologiyasi qo‘llanilgan bo‘lib, u so‘zlarning ma’no nozikliklari, sinonimik qatlam va ularning badiiy matndagi funksional-uslubiy vazifasini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, kontekstual tahlil usuli orqali sinonimlarning vaziyatga mos qo‘llanishi va ularning obraz ruhiyatini ochishdagi roli o‘rganilgan.

Muhokama va natijalar. Adabiy matnda til vositalarining boyligi, ayniqsa sinonimlarning mahorat bilan qo‘llanishi matnning badiiy qiymatini oshiradi. O‘tkir Hoshimovning *“Tushda kechgan umrlar”* romani leksik jihatdan nihoyatda boy asar bo‘lib, undagi sinonimik qatlamlar obrazlar ruhiyati va asarning hissiy chuqurligini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asarda ***“kulmoq”*** fe’lining turli vaziyatga mos variantlari — *qiyqirmoq, miyig‘ida kulmoq, xaxolamoq, tabassum qilmoq* — qahramonlarning hissiy holatini ifodalashda alohida badiiy yuklama kasb etadi. Ushbu

birliklar muallifga kulish harakatini turli daraja, ohang va ma’nolarda ifodalash imkonini beradi.

“Komissar miyig‘ida kulib qo‘ydi” (132-b) — yashirin kinoya va ichki istehzo holatini bildiradi.

“U esdan og‘gandek xaxolab kuldi” (56-b) — kuchli hissiy portlash va ruhiy silkinishni ifodalaydi.

“Ko‘zlarida tabassum paydo bo‘ldi” (85-b) — iliqlik va xotirjamlikni aks ettiradi.

“Esdan og‘gan odamdek qiyqirib-qiyqirib kula boshladi” (104-b) — ruhiy zo‘riqishning tashqi ko‘rinishini anglatadi.Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi kulgi vositasida inson ruhiyatining murakkab va ko‘p qirrali holatlarini semantik jihatdan farqlab tasvirlaydi.

Asarda ijobiy emotsiyalarni bildiruvchi *dilkash, yoqimli, maroqli, samimiy, maftunkor* kabi sifatlar semantik jihatdan bir qatlamni tashkil etadi. Ular shaxsning ichki holati, muomala madaniyati va estetik sezgirligini aks ettiradi.

Dilkash — shaxsning ochiqko‘ngilligi va muomala madaniyatini bildiradi. “Xola! – dedi Tursunboy aka dilkash shang‘illab.” (112-b)

Yoqimli — estetik va hissiy orom holatini anglatadi. “Allanechuk huzurbaxsh kuy vujudini yoqimli siypalab o‘tdi.” (131-b)

Maroqli — huzur yoki kinoyaviy baho ma’nosini bildiradi. “Nimasi maroqli buning!” (104-b)

Samimiy — ichki tabiiylik va poklikni ifodalaydi. “Bilaman, — juvon yana samimiy jilmaydi.” (85-b) Mazkur sinonimlar yozuvchining emotsional tildan samarali foydalanish mahoratini ko‘rsatadi hamda ijobiy hissiyotlarning turli darajalarini badiiy jihatdan ifodalash imkonini beradi.

Roman leksikasida mojaro va ziddiyat holatlarini ifodalovchi *urush, janjal, jang, to‘qnashuv, harb* kabi so‘zlar faol qo‘llanadi. Yozuvchi bu birliklar orqali insoniy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni turli semantik bosqichlarda yoritadi.

“Urush” — hayot sinovlarini va og‘ir kechinmalarni ramziy ifoda etadi: “Kim aytadi seni urush ko‘rgan yigit deb!” (112-b)

“Janjal” — kundalik hayotdagi ziddiyatni bildiradi:

“Rustamning o‘zi janjalni pulga sotib oladigan yigit edi.” (135-b)

“Jang” — kurash va to‘qnashuv holatini ifodalaydi:

“Jang qilishni xohlamay, ataylab qochibdi.” (33-b)

Bu sinonimlar mojarolarning semantik darajalarini — shaxsiy tortishuvdan umumiy fojeagacha — bosqichma-bosqich aks ettiradi.

Yozuvchi inson ruhiyatidagi og‘ir kechinmalarni ifodalashda *ezilmoq, bo‘shashmoq, yumshamoq, charchamoq, to‘linmoq* kabi fe’llardan foydalanadi. Ular ruhiy holatlarning pasayish, charchash yoki sinish bosqichlarini ko‘rsatadi.

“Yuragim ezilgancha boshimni quyi solib o‘tiraverdim.” (107-b) “Faqat asablari charchadi, shekilli.” (87-b) “Komissarning ko‘ngli yumshash o‘rniga adovat uyg‘ondi.” (83-b) Bu leksik birliklar insonning ichki ruhiy jarayonlarini bosqichma-bosqich ifodalaydi va yozuvchining psixologik tahlil mahoratini ochib beradi. Asarda *baqirmoq, qichqirmoq, hayqirmoq, qiyqirmoq, dodlamoq, dod solmoq* kabi fe’llar insonning hissiy zo‘riqish paytidagi ovoz reaksiyalarini ifodalaydi.

“Komissar mushtini tugib baqirdi” (85-b) — g‘azab holati; “Qaranglar, deraza sinibdi!” (4-b) — hayajon; “Ashula tugashi bilan hayqirdi” (24-b) — his-hayajon portlashi; “Qurbonoy qo‘rqqanidan dodlab yubordi” (73-b) — qo‘rquv; “Nazira dod solib, yo‘lini to‘sdi” (79-b) — dramatik kuchaytiruv. Bu birliklar o‘zbek tilining hissiy imkoniyatlarini keng ochib beradi va O‘tkir Hoshimov uslubining tabiiy, hayotiy xususiyatini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. O‘tkir Hoshimovning *“Tushda kechgan umrlar”* asarida sinonimik qatorlarning vaziyatga mos qo‘llanishi yozuvchining badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Muallif har bir so‘zni uning mazmuniy nozikliklarini hisobga olgan holda tanlaydi, bu esa obrazlarning ichki kechinmalarini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi. So‘z tanlashdagi bunday mahorat asarning ifodaviy kuchini, hissiy ta’sirchanligini va badiiy boyligini oshiradi. O‘tkir Hoshimov ijodini tahlil etishda bu kabi so‘z va ma’no tizimlarini o‘rganish, ya’ni leksik-ma’noviy tahlil usulidan foydalanish, yozuvchining so‘z ustida ishlash san’ati, uslubiy mahorati va asarning badiiy-estetik qimmatini to‘liq anglash imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat muallif uslubini chuqurroq tahlil qilishga, balki o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini kengroq ochib berishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida leksik-semantik tahlil metodini o‘qitishda O‘tkir Hoshimov asarlaridan amaliy material sifatida foydalanish tavsiya etiladi. O‘tkir Hoshimovning boshqa asarlarida ham sinonimik qatlamni qiyosiy tahlil qilish, yozuvchining umumiy uslubiy tizimini va til mahoratini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.N.Mahmudov va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 512-bet.

2.Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б.115.

3. A.Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1974. 308-bet.

4. Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar. To‘rtinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2011. 476-bet.

P. A. QURBONOV,
Turon universiteti
xorijiy tillar kafedrasi dotsenti

G. G. BAYRONNING “CHILD HAROLDNING ZIYORATI” POEMASINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz shoiri lord Bayron tomonidan yozilgan “Chayld Haroldning sayohati” liro-epik poemasida bosh qahramon – Chayld Harold nomli aristokrat yigitning Angliyadan chiqib, turli Yevropa mamlakatlari va O‘rta yer dengizi bo‘ylab qilgan sayohatlari, u duch kelgan manzaralar, tarixiy joylar, madaniy tafovutlar va uning ichki kechinmalari ifoda etiladi**.** Bu asar orqali Bayron o‘zining shaxsiy fikr-mulohazalari, romantik kayfiyati, hayot va jamiyatga nisbatan tanqidiy munosabatini ifodalaganligi, poemada tarix, tabiiy go‘zallik, xalqparvarlik va insoniy tuyg‘ular uyg‘unlashganligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *sarguzasht, romantik, tabiat, tarix, go‘zallik, poema, parentetik, konstruksiya, g‘amgin, falsafiy, takrorlar, parallelizm, inversiyalar, emotsiya.*

Annotation: this article describes the journey of the main character, Childe Harold, an aristocratic young man, who left England and traveled to various European countries and the Mediterranean Sea, the landscapes, historical places, cultural differences, and his inner experiences in the lyric-epic poem “Childe Harold’s Pilgrimage” written by the English poet Lord Byron. Through this work, Byron expresses his personal thoughts, romantic mood, critical attitude towards life and society, and analyzes the way history, natural beauty, nationalism, and human feelings are combined in the poem.

Key words: *adventure, romantic, nature, history, beauty, poem, parenthetical, construction, sad, philosophical, repetitions, parallelism, inversions, emotion.*

Аннотация: в данной статье описано путешествие главного героя — Чайльд Гарольда, молодого аристократа, который покинул Англию и отправился в разные европейские страны и к Средиземному морю. В лиро-эпической поэме «Паломничество Чайльд Гарольда», написанной английским поэтом Лордом Байроном, отражены пейзажи, исторические места, культурные различия и внутренние переживания героя. Через это произведение Байрон выражает свои личные размышления, романтическое настроение, критическое отношение к жизни и обществу, а также анализирует сочетание истории, природной красоты, национального духа и человеческих чувств в поэме.

Ключевые слова: *приключение, романтический, природа, история, красота, поэма, вставная конструкция, грусть, философский, повтор, параллелизм, инверсия, эмоции.*

Kirish. “Chayld Haroldning sayohati” — Lord Gordon Bayronning to‘rt qismdan iborat bo‘lgan she’ri bo‘lib u birinchi marta 1812 –1818-yillarda nashr etilgan. “Chayld Haroldning sayohati” poemasida zavq va quvnoq hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan, notanish mamlakatlarda sarguzashtlar izlayotgan charchagan yigitning sayohatlari va mulohazalari tasvirlangan. Kengroq qilib aytganda, she’r fransuz inqilobi va undan keyingi Napoleon urushlaridan charchagan avlodning ma’yuslik va umidsizlikni ifodalaydi.

Poemada odatda avtobiografik deb hisoblangan elementlar mavjud, chunki Bayron syujetning bir qismini umuman O‘rta yer dengizida, xususan, 1809 – 1811 yillarda Albaniya, Ispaniya, Portugaliya, Egey dengizi va Gretsiyada orttirgan tajribalari asosida yaratadi. Jorj Bayron poemaning dastlabki ikki qismni nashr etishda juda ikkilangan edi, chunki ulardagi ko‘p narsa uning shaxsiyati va taqdiri bilan bevosita taqqoslangan. Ular 1812-yilda Bayron do‘stlarining talabi bilan Jon Myurrey tomonidan nashr etilgan va asar va uning muallifi kutilmagan jamoatchilik e’tiborini tortgan.Keyinchalik Bayron shunday deb yozgan edi: “Bir kuni ertalab uyg‘onib, o‘zimni mashhur deb topdim”.

Asosisiy qism.Leksik tahlil. Qadimgi ingliz tilidagi so‘zlar (“Childe”, “thee”, “thou”) – tarixiy kayfiyat yaratadi. Tabiiy hodisalarni ifodalovchi so‘zlarga kelsak: *ocean, wave, storm, mountain, sky* – tashqi manzaralar orqali inson ichki holatini ifodalaydi. His va emotsional-yuklangan so‘zlar: *gloom, despair, joy, longing* – qahramonning ichki iztiroblarini aks ettiradi. Shoir uzun va murakkab gaplardan, parentetik konstruksiyalardan keng foydalanadi.

Masalan: interpolyatsiya (gap ichiga boshqa gap joylashuvi), takrorlar, parallelizm, inversiyalar - emotsional ta’sirni kuchaytiradi.

Poetik tahlil. Sayohat voqealari fonida qahramonning ichki kechinmalari tasvirlanadi. Sayohat tashqi emas, ichki ruhiy sayohatdir. Har bir qism muayyan geografik hududga bag‘ishlangan: Portugaliya, Ispaniya, Gretsiya, Albaniya, Italiya. Obrazlar kesimida Childe Harold – romantik

individualist; jamiyatdan norozi, iztirobli qalb egasi. Jorj Bayronning o‘zi “Harold” obraziga singib ketadi. Tabiat – ruhiy holatni ifodalovchi vosita: “sublime” obrazlar (tog‘lar, okean, bo‘ron) va boshqalar. Romantizm elementlari yolgonchilikdan, jamiyatdan uzoqlashish, tabiat bilan uyg‘unlik, ichki qarama-qarshiliklar, g‘amginlik – poemada asosiy hissiy chiziqlardir.

Bayron obraz orqali o‘zining ruhiy iztiroblarini, yolg‘izlik, g‘am, izlanish kabi holatlarni ifodalaydi. “I stood beside the ocean, and I wept.” *(Byron, Childe Harold’s Pilgrimage, Canto IV, stanza 179, p. 412)*

Tahlil: bu satrda yig‘lash – chuqur ichki kechinma, umidsizlik va tanho qalb ifodasidir. Okean esa inson ruhining cheksizligi, betinim iztiroblar ramzi.

“He had no bard, nor friend, nor fame.” *(Byron, Canto I, stanza 6, p. 19)*

Tahlil: “Bard”, “friend”, “fame” — uchta qadriyat ketma-ket rad etiladi, bu bayronik qahramonning yolg‘izligini kuchaytiradi.

“The sky is changed!—and such a change!” *(Byron, Canto IV, stanza 83, p. 375)*

“Thy shores are empires, changed in all save thee—Assyria, Greece, Rome, Carthage, where are they?” *(Byron, Canto IV, stanza 179, p. 412)*

Tahlil: Okean – abadiylik timsoli, inson imperiyalari esa o‘tkinchi. Antitezis orqali tarixiy o‘zgarishlar bilan tabiatning abadiyligi taqqoslanadi.

“There is a pleasure in the pathless woods,
There is a rapture on the lonely shore,
There is society where none intrudes,
By the deep sea, and music in its roar.”
(Byron, Canto IV, stanza 178, p. 411)

Tahlil: “Pleasure” va “rapture” – emotsional jihatdan yuksak, ammo tanholik hislari bilan to‘ldirilgan. “Pathless woods” – erkinlik ramzi, “lonely shore” - Haroldning tanho qalbini ifodalaydi.

“And thus the heart will break, yet brokenly live on.” *(Byron, Canto IV, stanza 175, p. 410)*

Tahlil: paradoks — “yurak sinadi, ammo yashashda davom etadi.” Bu inson ruhiy azobining kontrastli ifodasidir.

“But midst the crowd, the hum, the shock of men,
To hear, to see, to feel, and to possess.”
(Byron, Canto III, stanza 72, p. 289)

Tahlil: parallel tuzilmalar ritmik ohangni kuchaytiradi, bu Bayron tilining melodiyasini oshirgan.

“He, who grown aged in this world of woe,
In deeds, not years, piercing the depths of life,
So that no wonder waits him...”
(Byron, Canto II, stanza 4, p. 102)

Tahlil: parentetik konstruksiyalar sintaktik murakkablikni oshirgan, qahramonning ichki dunyosini ochib bergan.

“Roll on, thou deep and dark blue Ocean—roll!” *(Byron, Canto IV, stanza 179, p. 412)*

Xulosa qilib shuni aytish joizki Jorj Gordon Bayronning “Chayld Haroldning sayohati” liro-epik poemasi ingliz romantik adabiyotining eng yirik yutuqlaridan biri bo‘lib, unda shoirning individual dunyoqarashi, ichki kechinmalari va jamiyatga bo‘lgan tanqidiy munosabati badiiy ifodasini topgan. Asar Bayron romantizmining asosiy tamoyillarini – inson ruhining erkinligi, tabiat bilan uyg‘unlik, yolg‘izlik, iztirob, shaxsiy izlanish va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat g‘oyalarini mujassam etadi.Poemada sayohat voqealari tashqi sarguzasht sifatida emas, balki ichki ruhiy safar sifatida talqin etiladi.Bayron Chayld Harold obrazida o‘zining ichki dunyosini, hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan, ammo go‘zallik va haqiqat izlayotgan romantik individualistni yaratadi.Qahramonning kechinmalari orqali inson ruhining murakkabligi, uning jamiyat bilan ziddiyati va ma’naviy erkinlikka intilishi ifodalangan. Bayron uchun tabiat – bu tashqi manzara emas, balki inson ruhining aksidir. Shu bois, “Roll on, thou deep and dark blue Ocean!” kabi satrlar inson ruhining g‘azabi, kuchi va ozodlikka tashnaligini aks ettiradi. Poema Bayronning shaxsiy kechinmalari bilan tarixiy voqealarning uyg‘unlashuvi, romantik paradokslar (umidsizlik va umid, tanholik va ichki ozodlik, zavq va iztirob) orqali chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Shuningdek, unda Yevropa sivilizatsiyasi, tarixiy o‘zgarishlar, madaniy tafovutlarga shoirona va tanqidiy nigoh bilan qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Байрон, Джордж Гордон. *Паломничество Чайльд Гарольда: Поэма в четырех песнях.* – Москва: Художественная литература, 1981.528 с.

2.Byron, G. G. Childe Harold’s Pilgrimage. – London: Oxford University Press, 1998.520-p.

3.Бэлли, Ш. *Поэтика и стилистика.* – Москва: Издательство иностранных языков, 1961.320-с.

4.Асадов, А. *Таржима назарияси асослари*. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети нашриёти, 2019.210-б.

5.Abrams, M. H. The Mirror and the Lamp: Romantic Theory and the Critical Tradition. – New York: Oxford University Press, 1953. 408-p.

6. Wordsworth, W. Preface to Lyrical Ballads. – London: Longman, 1802.45- p.

7. Qosimov, B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. 300-b.

Gavhar TOSHTEMIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs doktoranti

“GULNOR PARI” DOSTONIDA MAQOLLARNING DIALEKTAL TAHLILI VA BADIIY SAN’ATLARI TALQINI

Annotatsiya: ko‘lami keng epik merosimizni doston kuylash sirlarini mukammal egallagan yetakchi baxshilarsiz tasavvur etolmaymiz. O‘zining individual uslubiga ega bo‘lgan baxshi-shoir Muhammud Jomurod o‘g‘li Po‘lkan shoir sevib kuylagan “Gulnor Pari” dostoni odob-axloq, ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, go‘zal vafo talqinlariga boy poetik san’at ramzidir. Ushbu maqolada dostonda uchrovchi ayrim maqollar dialektal jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *qadriyat, san’at, badiiy-tasviriy vositalar, poetik, mubolag‘a, saj’, qofiya, maqol, ritm.*

Аннотация: мы не можем представить наше богатое эпическое наследие без выдающихся поэтов, в совершенстве овладевших секретами эпического пения. Эпос «Гулнор пари», с любовью воспетый поэтом Мухаммадом Джамурад оглу Полканом, обладающим своим неповторимым стилем, является символом поэтического искусства, богатого моралью, любовью, преданностью и прекрасной верностью. В данной статье анализируются некоторые пословицы эпоса с диалектической точки зрения.

Ключевые слова: *ценность, искусство, художественно-изобразительные средства, поэтический, преувеличение, садж, рифма, пословица, ритм.*

Annotation: we cannot imagine our vast epic heritage without leading poets who have perfectly mastered the secrets of epic singing. The epic “Gulnor Pari”, sung with love by the poet Muhammad Jamurad oglu Polkan, who has his own individual style, is a symbol of poetic art rich in morals, love, devotion, and beautiful fidelity. This article analyzes some proverbs found in the epic from a dialectical perspective.

Key words: *value, art, artistic and visual means, poetic, exaggeration, saj’, rhyme, proverb, rhythm.*

Ma’lumki, xalq maqollari va iboralari asarning mazmun va g‘oyasini ochish, unda aks ettiriladigan ayrim xodisalarni umumlashtirish va tasvirni badiiy jihatdan ixchamlashtirish uchun xizmat qiladi, xalqning orzu-umidlarini, ichki his-tuyg‘ularini aks ettiradi. Xalq yaratgan ijobiy qahramonlar hamma vaqt ham xalq bilan birga, xalqning manfaati, baxti, saodati uchun kurashadilar.

Maqol – asrlar osha kelayotgan xotira, xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, hayot haqidagi falsafiy xulosalari, tarixi, madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi ixcham shaklga ega ibrat. U o‘zida o‘tmishni jam etish jihatdan bugun va kelajak uchun dastur bo‘la oladi. Shu bois o‘z tarixi, o‘z qadriyati, tafakkur rivoji uchun qayg‘urgan xalq maqollarni og‘zaki yoki yozma nutqda qo‘llash orqali uni asrashga, to‘plash, o‘rganish va ommalashtirishga intiladi [4].

Maqollarga qiziqish va ularni xalq hayoti qonuniyatlari sifatida qabul qilish ilk yozma manbalar shakllangan davrdayoq yuzaga kelgan. Izlanishlarimiz bugun maqol deb qaraladigan ibratomuz fikrlarning bitiktoshlar, tarixiy solnoma, yozma manbalarda u yoki bu shaklda uchrashini tasdiqlaydi. Buni esa o‘z davri uchun muhim xulosaviy xarakterga ega fikrlarning keyingi avlodlarga yetkazilishidagi ilk harakat sifatida baholash mumkin. Dastlab asosiy mazmunni dalillash, fikrni quvvatlash maqsadida manbalarga kiritilgan ibratli hukmlarga keyinchalik alohida hodisa sifatida qarash, ularga nisbatan fikr bildirish va bu fikrlarni xalqning nodir xazinasi sifatida qayd etib borish lozim ko‘rilgan. Turkiy xalqlar orasidagi maqollarni bir joyda jamlash (garchi bir o‘rinda bo‘lmasa-da), ya’ni maqolshunoslik harakatini O‘rta asrlar qomusiy olimi Mahmud Qoshg‘ariy boshlab berdi. Uning “Devonu lug‘ati-t-turk” muqaddimasida bitgan: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim” – degan e’tirofi olimning turkiy xalq maqollarining ilk to‘plovchisi va talqinchisi ekanini dalillaydi [5].

XIX asrga kelib Muhammad Sharif Gulxaniy xalq maqollarini yig‘ish va keyingi avlodlarga yetkazishning yangi usulini yaratdi. U o‘zining “Zarbulmasal” asarida 300 dan ortiq maqol qo‘llagan bo‘lsa, 1871–1924-yillarda yashab ijod etgan Sulaymonqul Rojiyning masnaviy tarzida yozilgan “Zarbulmasal”ida 150 dan ortiq maqol jamlangan. Shuningdek, Sidqiy Xondayliqiyning “Zarbulmasali Sidqiy” asarida 100 ga yaqin maqol savol-javob shaklida berilgan [5]

XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran dunyo siyosatining o‘zgarishi va Markaziy Osiyoga

tajovuzkorona qarash hamda dunyoning yetakchi hukmron davlatlarining istilochilik harakati tufayli ham xalq ogʻzaki ijodiga xorijiy olimlarning eʼtibori tushdi. Avvalo, ular josuslik qilish, mamlakat ichki siyosiy ahvolini bilish, xalq hayoti va tabiiy joylashuvi, dunyoqarashi, madaniyatini oʻrganish maqsadida oʻlkashunos olimlar qiyofasida kirib kela boshladilar [5].

Tarixiy anʼanalarga koʻra badiiy sanʼatlar ikki guruhga ajratib oʻrganiladi:

1. Maʼnaviy – soʻzning maʼnosi bilan bogʻliq sanʼatlar.

2. Lafziy – soʻzning tovush jihati bilan bogʻliq sanatlar.

Maʼnaviy sanʼatlarga asar gʻoyasi mazmuni bilan bogʻliq sanʼatlar: mifologik oʻrinlar, mubolagʻa, oʻxshatish irsoli masal, yaʼni maqollar qoʻllash, talmih, jonlantirish va boshqalar kiradi.

Lafziy sanʼatlarga saj', qofiya, radif va ritm kiradi. Dostonlardagi bu sanʼat turlarini oʻziga xos ahamiyati barkamol yosh avlodning folklor asarlariga boʻlgan qiziqishini yanada orttiradi [1].

Respublikamizning mustaqilligi tufayligina maʼnaviy qadriyat va urf odatlarimiz tiklandi. Koʻlami keng asarlarimizni keng va atroflicha chuqur urganish imkoniyatiga ega boʻldik.

Ildizlari qadim zamonlarga borib taqaluvchi nodir xalq ogʻzaki badiiy ijodi naʼmunalari, jumladan dostonlar oʻzida mehnatkash ommaning yuksak ideallari-yu, dunyoqarashlarini mujassamlashtiradi.

Ogʻzaki ijod xazinalarini egallagan va uni yurt, ona-Vatan uchun sarflagan talant egasi xalqning yaratuvchanlik qudratini oshiradi.Vatanga boʻlgan muhabbat, xalqqa, millatga boʻlgan ulugʻ muhabbatdir [2].

Biz-oʻzbek xalqi oʻtmishda yashagan tabarruk bobokalonlarimizning ibratli hayoti va buyuk merosi bilan faxrlansak arziydi.

Oʻzbek xalqining dostonlar boʻyicha juda koʻp va boy meʼrosi bor. Zero, xalq ijodi qaynar buloq. Oʻzbek folklori janrlari orasida dostonlar hajm va poetik sanʼat darajasiga koʻra alohida oʻrin tutadi [4].

Biz fikr yuritmoqchi boʻlgan Muhammad Jomurod oʻgʻli Poʻlkan shoir repertuariga xos boʻlgan "Gulnor Pari" dostoni odob-axloq, ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, yurtga sadoqat, dostlik, goʻzal vafo talqinlariga boy poetik sanʼat ramzidir.Asar murakkab taqdir girdobiga tushib qolgan ayolning ruhiy xolati va oʻzining ozodligi, erkinligi, yoriga boʻlgan vafodorligi yoʻlida kurash olib borgan jasorati haqida kuylanadi [1].

"Gulnor Pari" dostonining diqqat markazida, asosan dostonning bosh qahramoni Gulnor Parining hayoti va baxt yoʻli tasvirlanadi, ancha kurash ketadi va bu kurash oʻz davrining ijtimoiy masalalari bilan bogʻliq ravishda ifodalanadi.

Dostonda qahramonlik motivi, chin muhabbat, vafodorlik xislatlari bilan chambarchas bogʻlanib ketgan.

Asardagi ijobiy qahramonlar haqsizliklarga, qattiq qiyinchiliklarga duchor boʻlsalar ham chidab oʻz irodasini bukmay, or-nomusini saqlab, oxir pirovardida zolim kuchlarni yengib, murodu-maqsadlariga yetadilar va gʻalaba qozonadilar. Haq, adolat qaror topadi.Xalq ogʻzaki ijodiga oid janrlarning har biriga xos, shu jumladan, dostonlarga ham xos badiiy tasviriy vositalar mavjudki, ularsiz ana shu janrlarning poetik tabiatini toʻla tasavvur etib boʻlmaydi [1].

Umuman oʻzbek xalq dostonlarida, xususan biz fikr yuritayotgan "Gulnor Pari" dostonida xalq ogʻzaki poetik ijodiyotiga xos turli usullar, xilma-xil badiiy ifoda vositalari, yaʼni maʼnaviy va lafziy sanʼatlardan mohirona foydalanilgan.

Muhammad Jomurod oʻgʻli Poʻlkan shoir oʻzbek xalq baxshilarining eng xofizasi kuchli boʻlgan shoirlardan biri hisoblanadi. U poetik usullardan katta mahorat bilan foydalangan. Ana shuning uchun ham u kuylagan dostonlar gʻoyaviy-badiiy jihatdan alohida mohiyat kasb etgan. Asarni badiiy aks ettirish uchun xar bir sanʼatkordan ayni paytda uning badiiy soʻz ustasi ekanligi va doston mazmunini har-xil badiiy shakllarda qay darajada ifodalab olishida namoyon boʻladi.

Muhammad Jomurod oʻgʻli Poʻlkan shoir ijodida muhim oʻrin tutgan "Gulnor Pari" dostoni dostonning kompozitsion tuzilishi oʻzbek xalq dostonlari uchun umumiy boʻlgan andoza oʻrni bilan oʻzaro almashib turadigan nasriy va nazmiy mazmunlar tashkil qiladi. Bunday oʻrin almashishlar asarning gʻoyaviy-badiiy shoir dostondagi obrazlarni yaratishda katta muvaffaqiyatga erishgan sanʼatkor boʻlib, u har bir timsolni oʻziga xos xususiyat bilan gavdalantira olgan.

U obrazlar talqinini berar ekan, ularning xarakterlarini aniq va yorqinroq koʻrsatish uchun qator badiiy-tasviriy vositalar, psixologik lavhalar, jonli kartinalar yaratadi. Asarda shoir personajlarning oʻziga xos xususiyatlarini, tashqi koʻrinishlarini tasvirlar ekan, juda ustalik bilan sanʼatkorlarcha ish tutadi.

Chiroyli va nozik oʻxshatishlar, sifatlash va mubolagʻalar, mifologik koʻrinishlar, xalq maqollari va iboralardan oʻz oʻrnida foydalanganki, bu asarni yanada jozibali chiqishida katta rol oʻynagan. Ijodkor ayniqsa dialog va monologlarni oʻz oʻrnini topib, shunday sayqal bilan kuylaganki, bu narsa dostonnning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Asarning tili boy va tarbiyaviy ahamiyati ancha yuksak. Xalq o‘zining qahramonini har doim qo‘rqmas, or-nomusli, dovyurak, o‘zining maqsadi yo‘lida hamma narsaga tayyor ekanligini go‘zal lavhalarda tasvirlab beradi.

Badiiy, ya’ni she’riy san’atlar sharq mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodiyotining o‘ziga xosligi, milliyligi, latofati, nazokati va rango rangligi, jozibadorligi va ta’sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasidir.

Xalq og‘zaki ijodiyoti asarlari, ayniqsa, dostonlar badiiy san’atlarga boy-u nihoyatda xilma-xil va nafisdir. Chunki xalq idealidagi qahramonlar nihoyatda kelishgan, kuchli, dovyurak bahodir bo‘lishini, qiyinchiliklar oldida dovdiramasdan, behisob dushmanni yolg‘iz o‘zi yengishini istaydi. Ma’naviy san’atlardan yana biri irsolu-l-masal bo‘lib, u maqol qo‘llash san’atidir. Irsolu-l-masal nazmda ham, nasrda ham qo‘llanilaveradi. Bu xalq og‘zaki ijodida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir ijodiga xos muhim xususiyatlardan biri xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalanganligidadir. U xalq maqollarini yangi mazmun bilan boyitib, misralar ichiga singdirib yuboradi.

Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir o‘zining “Gulnor Pari”dostonida asarni badiiy jihatdan puxta ishlashda xalq maqollari va aforistik iboralardan to‘la ravishda foydalanganligini ko‘ramiz. Masalan: ushbu maqola do‘stlik, sadoqat, chin do‘stning qadri haqida o‘zbek xalq maqollariga tayanadi.

‘‘Gulnor Pari Do‘stlar – Hayotning Chin Boyligi’’

Inson hayotining eng go‘zal boyliklaridan biri bu – do‘stlik. Yaxshi do‘st – mashaqqatda tayanch, quvonchda hamdard, hayot yo‘llarida esa eng ishonchli yo‘ldoshdir. Xuddi xalq maqollarida aytilganidek.

1. “Do‘st boshdan, dushman toshdan bilinadi.”

Hayotda boshimizga sinovlar tushgandagina, kimning kim ekani ayon bo‘ladi. Chin do‘st g‘amda, muammoda yonimizda bo‘ladi. Shunday do‘stlar gulnorpari singari – kamyob va bebaho bo‘ladi.

2. “Chin do‘st kulfatda bilinadi.”

“Do‘st boshga balo kelsa, sinaladi.”

Shuningdek, do‘stlikda vafodorlik, sadoqat va rostgo‘ylik muhim. O‘z manfaati uchun emas, do‘stining baxti uchun yashaydigan inson – haqiqiy do‘stdir:

3. “Do‘st do‘stning aybini yopadi, dushman esa kovlaydi.”

“Yaxshi do‘st boshdan ma’lum, yomon do‘st ishdan.”

Yaxshi do‘st – gul kabi, uni parvarishlash, asrash kerak. Do‘stlikni mustahkamlab turish uchun bir-birini tushunish, kechira bilish va yelkadosh bo‘lish lozim

4. “Do‘stingni yomon ko‘rma, dushmanga aylanishi mumkin.”

“Do‘st yomon bo‘lsa – g‘am, dushman yaxshi bo‘lsa – kam.”

Do‘st tanlashda esa inson ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Har kim bilan do‘st tutinib bo‘lmaydi.

5. “Do‘sting kimligini ayt, kimligingni aytaman.”

“Yomon bilan do‘stlashsang, noming yomon bo‘lar.”

Va nihoyat, do‘stlikni saqlash – do‘st topishdan ham qiyin. Gulnor Pari singari do‘stlar hayotda bir marta uchrashi mumkin.

6. “Do‘st bor, oltin; do‘st bor, oltindan qimmat.”

“Yaxshi do‘st – yelkadosh, yomon do‘st – kulgudosh’’

O‘zbek xalq maqollari do‘stlikning naqadar muqaddas tuyg‘u ekanini, uni asrash, qadrlash lozimligini uqtiradi. Gulnor Pari kabi asar qahramonlari insonni haqiqiy ma’noda ezgulikka yetaklaydi. Asardagi maqollardan ko‘rinadiki, o‘zbek xalqining dialektal xazinasi nihoyatda boy ekanligiga amin bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq og‘zaki ijodi. Gulnor Pari dostoni. Nashrga tayyorlovchi: Muhammadnodir Saidov; Zubayda Husainova Aytuvchi: Muhammad Jomurot o’g’li Po’lkan shoir. Oltin qalam nashryoti 2023-yil. 318-bet

2. Жирмунский. В., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. - М. : ГИХЛ. 1947, с. 377.

3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. 240-б.

4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010.228-bet.

5. Davirova v. o‘zbek xalq maqollarning o‘zbek va xorij olimlari tomonidan o‘rganilish tarixi. “O‘zbek xalqlar folklorining qiyosiy o‘rganilishi masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. 345-346 – betlar. Vol. 1 No. 18 (2025) Published: 2025-05-09

Shohista ISTAMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

ERKIN VOHIDOV IJODIDA TABIAT TIMSOLINING MILLIY-ESTETIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodida tabiat timsolining badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Shoirning lirik asarlarida tabiat obrazlari milliy dunyoqarash, ruhiy holat, ma’naviy qadriyatlar va poetik tafakkur bilan qanday uyg‘unlashgani izohlanadi. Tabiat tasviri shoir poetikasida ramziy, falsafiy hamda estetik ma’no yuklovchi vosita sifatida namoyon bo‘lib, uning milliy badiiy maktabdagi o‘rni va o‘ziga xosligi ilmiy nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy yondashuv va kontekstual sharh metodlaridan foydalanilib, Vohidov poetikasida tabiat timsolining milliy-estetik mohiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *tabiat timsoli, milliy-estetik qarashlar, poetika, ramziy obraz, lirik tafakkur, badiiy ma’no.*

Annotation: in this article, the artistic and aesthetic functions of the image of nature in the work of Erkin Vahidov are analyzed. In the poet’s lyrical works, it is explained how the images of nature are combined with the national worldview, spiritual state, spiritual values, and poetic thinking. The image of nature manifests itself in the poetics of the poet as a means of embedding symbolic, philosophical, and aesthetic meaning, and its place and originality in the national school of art are substantiated from a scientific point of view. In the study, the methods of literary analysis, comparative approach, and contextual interpretation are used, and the national-aesthetic essence of the symbol of nature in Vakhidov’s poetics is highlighted.

Key words: *symbol of nature, national-aesthetic views, poetics, symbolic image, lyrical thinking, artistic meaning.*

Аннотация: в данной статье анализируются художественно-эстетические функции образа природы в творчестве Эркина Вахидова. В лирических произведениях поэта объясняется, как образы природы гармонируют с национальным мировоззрением, духовным состоянием, духовными ценностями и поэтическим мышлением. Изображение природы проявляется в поэтике поэта как средство, несущее символическое, философское и эстетическое значение, и его место и уникальность в национальной художественной школе обоснованы с научной точки зрения. В исследовании используются методы литературного анализа, сравнительного подхода и контекстуального анализа, освещается национально-эстетическая сущность образа природы в поэтике Вахидова.

Ключевые слова: *символ природы, национально-эстетические взгляды, поэтика, символический образ, лирическое мышление, художественный смысл*.

Kirish. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tabiat tasviri, uning badiiy-estetik talqini va ramziy mazmuni muhim poetik hodisa sifatida shakllangan. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Erkin Vohidov ana shu adabiy an’ananing eng yorqin davomchilaridan sanaladi. Shoirning ijodida tabiat manzaralari shunchaki tasvir vositasi emas, balki milliy dunyoqarash, estetik did, ma’naviy qadriyatlar, ruhiy kechinmalar va falsafiy mushohadalarning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Vohidov she’riyati timsollar tizimida tabiat unsurlari — quyosh, osmon, daraxt, bulut, shamol, lolazor va mavsumiy manzaralar ko‘pincha inson qismati, jamiyat taqdiri, ezgulik va yovuzlik to‘qnashuvi, milliy o‘zlik kabi masalalar bilan uzviy bog‘liq holda badiiy talqin etiladi.

Shoirning tabiat naqshlariga murojaati tasodifiy emas. Erkin Vohidov ijodi o‘zbek xalqining qadimiy tabiatparastlik an’analari, turkiy dunyoqarashdagi kosmik uyg‘unlik g‘oyasi, islomiy tafakkurdagi

Yaratuvchi va borliq munosabati kabi ko‘p qatlamli ruhiy-ma’naviy omillarga tayanadi. Shu bois tabiat timsollari shoir poetikasida ikki asosiy funksiyani bajaradi: milliy identifikatsiya vositasi va estetik-falsafiy mushohada maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiatning badiiy ifodasi orqali shoir o‘zbek xalqining ruhiy olamini, tarixiy xotirasini, an’analarini, hayot falsafasini o‘ziga xos tarzda yoritadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi, avvalo, Erkin Vohidov ijodini zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari, xususan, poetik semantika, milliy-estetik paradigma, timsolshunoslik, diskursiv tahlil nuqtayi nazaridan qayta tadqiq etish zaruratidan kelib chiqadi. Bugungi adabiy jarayonda milliy identitet masalasi, madaniy o‘zlikni saqlash, ma’naviy merosni qayta anglash kabi konseptlar muhim ahamiyat kasb etayotgan bir paytda Vohidovning tabiat obrazlari orqali milliy ruhni ifodalash mahoratini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan ayni muddao hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Erkin Vohidov ijodi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, shoirning milliy ruh, poetik mahorat va ma’naviy-estetik qarashlarini yoritishga qaratilgan. A.Qahhorov, N.Komilov, O.Sharafiddinov kabi olimlar Vohidov she’riyatida tabiat tasviri g‘oyaviy mazmun va ichki ruhiy kechinmalarni ochib beruvchi asosiy badiiy vosita ekanini ta’kidlaydilar. G‘.Salomov, B.Sarimsoqov singari tadqiqotchilar tabiat timsollarining shoir ijodida ramziy-estetik funksiyaga ega bo‘lib, ular orqali milliy dunyoqarash, ruhiy uyg‘unlik va falsafiy mushohadalar ifodalanishini qayd etadilar. Ularning fikricha, Vohidov poetikasida tabiat obrazlari oddiy tasvir emas, balki milliy-estetik kodni aks ettiruvchi timsollardir.

Shuningdek, o‘zbek she’riyatida tabiat poetikasining umumiy nazariy asoslarini ishlab chiqqan A.Rasulov va S.Mirvaliyeva tadqiqotlari shoirning tabiatga munosabatini tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodidagi tabiat timsollarining milliy-estetik funksiyalarini aniqlash uchun kompleks adabiy-tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, shoirning she’riy matnlari poetik-semantik tahlil asosida o‘rganilib, tabiat obrazlarining leksik, ramziy va ma’naviy qatlamlari aniqlashtirildi. Komparativ tahlil orqali Vohidov tabiat timsollarining o‘zbek adabiy an’analaridagi umumiy poetik qarashlar bilan uyg‘unligi va o‘ziga xosliklari solishtirildi. Shuningdek, adabiyotshunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida ilmiy-deskriptiv va interpretativ metodlar qo‘llanib, tabiat tasvirining estetik yuklamasi sharhlandi. Metodlarning bunday uyg‘un qo‘llanishi shoir poetikasidagi tabiat timsollarining mazmuniy-funksional xususiyatlarini yanada aniqroq yoritish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Erkin Vohidov ijodida tabiat timsollari badiiy matnning tashqi tasvir qatlamidan iborat bo‘lmagan murakkab ma’no-me’yor tizimini tashkil qiladi. Shoirning lirik merosida uchraydigan quyosh, shamol, bulut, daryo, daraxt, lola, bahor va kuz kabi obrazlar har doim mazmuniy vazifa bilan yuklangan bo‘lib, ular she’rning ichki semantikasini ochishda, lirik qahramonning holati va dunyoqarashini ifodalashda faol qatnashadi. Tabiat unsurlari orqali poetik matnning atmosfera, ruhiy ohang, falsafiy mushohada va milliy estetik ideallar bilan bog‘lanishi kuzatiladi. Ayniqsa, mavsumiy timsollar shoirning hayot, o‘tkinchilik, yangilanish, umid va ijodiy mas’uliyat haqidagi qarashlarini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Ramziy qatlamda har bir tabiat elementi o‘ziga xos ma’naviy yuklamaga ega: daraxt hayot va barqarorlik ideasiga, daryo vaqt va harakat obraziga, quyosh poklik va ma’rifat g‘oyasiga, lola esa milliy ruh va nafislik timsoliga aylanadi. Bu obrazlar Vohidov poetikasida o‘zbek xalqining ko‘p asrlik poetik estetikasi bilan uyg‘unlashib, an’anaviy ramzlarning yangi talqinini yaratadi. Shoir qadimiy tasavvurlarni yangicha badiiy shakl orqali qayta tiklaydi; natijada tabiat tasviri zamonaviy lirik matnning ma’no markaziga aylanadi.

Milliy identitet bilan bog‘liq qatlamda tabiat obrazlari xalqning estetik didi va dunyoni idrok qilish modelini namoyon etadi. Bahor manzaralarining uyg‘onish va umid bilan bog‘lanishi, kuzning falsafiy mushohada hamda ichki iztirob bilan uyg‘un berilishi, qishning sokinlik va sinov timsoliga aylanishi o‘zbek adabiy an’anasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Vohidov

shu an’anaviy poetik kodlarni zamonaviy lirik ong bilan birlashtirib, o‘ziga xos milliy-estetik makonni yaratadi. Ushbu makonda tabiat timsollari milliy ongni mustahkamlovchi, xalqqa xos ruhiy holatlarni tiklovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Estetik-emotsional qatlamda tabiat tasviri lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ochishda markaziy vosita vazifasini bajaradi. She’rlarda tabiat bilan lirika qahramonining ichki dunyosi o‘zaro uyg‘un harakat qiladi: shamolning shirasi iztirobni, daryoning oqimi mushohadani, bahorning yorug‘ligi ilhom va yangilanish holatini aks ettiradi. Bunday yondashuv psixologik tasvirning kuchayishiga, o‘quvchida hissiy jarayonlarning to‘laqonli idrok etilishiga imkon yaratadi. Tabiatning tasviriy-estetik quvvati orqali shoir insoniy holatlarning nozik, sezgir nuqtalarini yoritadi.

Shuningdek, tabiat timsollari Vohidov poetikasida an’ana va zamonaviylikning badiiy sintezi sifatida ko‘riladi. Xalq og‘zaki ijodi, turkiy poetik tafakkur hamda Sharq lirik merosida shakllangan timsollar shoir ijodida yangi kontekstda qayta tiklanib, bugungi adabiy jarayon talablariga mos badiiy shakl kasb etadi. Bu jarayon shoirning milliylikni zamonaviy estetik fikr bilan uyg‘unlashtira olganligini ko‘rsatadi. Kontekstual qiyoslashlar tabiat obrazlarining funksional moslashuvchanligini yoritadi. Bir xil obraz turli she’rlar doirasida turlicha emotsional va semantik vazifalarni bajaradi: masalan, daryo ayrim matnlarda tinimsiz harakat va hayot davomiyligi ramzi bo‘lsa, boshqa she’rlarda u iztirob, yolg‘izlik yoki ruhiy toliqishning poetik timsoliga aylanadi. Bu elastiklik Vohidov poetikasining semantik boyligini va kontekstga nisbatan sezuvchanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Erkin Vohidov ijodida tabiat timsoli shoirning milliy dunyoqarashi, estetik didi va ma’naviy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq badiiy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’riyati tabiat obrazlari orqali insonning ruhiy holatini, milliy o‘zlikni, ezgulikka intilishni teran aks ettiradi. Lirik manzaralar shoir poetikasida nafaqat bezak, balki ma’naviy ma’no yuklovchi badiiy vosita vazifasini bajaradi. Vohidovning tabiatga murojaatlari o‘zbek xalqining qadimiy an’analari—yerga ehtirom, tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan holda milliy-estetik tafakkurni ifodalaydi. O‘rganilgan asarlar shoir poetikasida tabiat tasvirining ramziy, falsafiy va ma’naviy qatlamlarga ega murakkab badiiy tizim ekanini ko‘rsatadi. Shu tariqa, Erkin Vohidovning tabiat timsoli orqali yaratgan badiiy olami o‘zbek adabiyotida milliy estetik tafakkurni yangi bosqichga olib chiqqan ijodiy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov, E. (2005). Tanlangan she’rlar. – Toshkent: Sharq.
2. Qahhorov, A. (2010). Erkin Vohidov poetikasi va milliy-estetik qarashlar. – Toshkent: Fan.
3. Komilov, N. (2012). O‘zbek she’riyatida tabiat obrazlari. – Toshkent: Adabiyot.
4. Sharafiddinov, O. (2015). Zamonaviy o‘zbek lirikasi: tadqiqot va tahlil. – Toshkent: Yosh gvardiya.
5. Salomov, G., & Sarimsoqov, B. (2018). Tabiat ramzlari va o‘zbek milliy identiteti. – Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Rasulov, A. (2011). O‘zbek poetik tafakkuri va badiiy estetikaga kirish. – Toshkent: Akademiya.
7. Mirvaliyeva, S. (2014). O‘zbek she’riyatida semantik qatlamlar va ramzlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at.
8. Is’hoqov, A. (2016). Turkiy adabiyotshunoslik va tabiat obrazlari. – Toshkent: Fan.
9. Yusufov, K. (2017). Lirika va tabiat poetikasi: nazariy tahlil. – Toshkent: Ilm.
10. Abdullayeva, M. (2019). Milliy-estetik paradigmalar o‘zbek she’riyatida. – Toshkent: Sharq.

Dilafruz MAXMUDOVA,
Qo‘qon DU o‘qituvchisi

INOMJON RASULOV ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MUHIM LINGVISTIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: tilshunoslik fani o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Lingvistik qarashlar insonlarni doimo qiziqtirib kelgan. Til va tafakkur munosabati, nutq hodisasi lingvistik izlanishlar olib borishga sabab bo‘lgan muammolardan eng dolzarblaridir.

Kalit so‘zlar: *lingvistika, sintaksis, sintaktik birliklar, predikativlik va modallik, terminologiya va atamashunoslik*

Аннотация: языкознание как наука возникло не само по себе. Лингвистические воззрения всегда интересовали людей. Взаимосвязь языка и мышления, феномен речи – наиболее актуальные проблемы, обусловившие возникновение лингвистических исследований.

Ключевые слова: *языкознание, синтаксис, синтаксические единицы, предикативность и модальность, терминология и терминоведение.*

Annotation: the science of linguistics did not arise by itself. Linguistic views have always interested people. The relationship between language and thinking, the phenomenon of speech are the most urgent problems that have led to linguistic research.

Key words: *linguistics, syntax, syntactic units, predicativity and modality, terminology and terminology*

Kirish. Yunon, hind, arab, xitoy tilshunoslik maktablari qadim davrlarda ham mavjud bo‘lgan. O‘zbek tilshunosligining shakllanish tarixi ham qadim davrlarga borib taqaladi. O‘rta asrlarda Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar til, madaniyat, tafakkur uyg‘unligi borasida lingvistik qarashlarni ifoda etganlar. Yevropa tilshunoslari qiyosiy-tarixiy tilshunoslik haqida XIX asrda Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakov Grimm kabi olimlar qarashlari orqali xabardor bo‘lgan bo‘lsa, bunday qarashlar turkiy xalqlar dunyosida undan yetti yuz yil avval mavjud bo‘lgan. Aslida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi hisoblangan, biroq uning merosi XX asrga qadar ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan olim Mahmud Qoshg‘ariy bo‘lib, u qimmatli lingvistik qarashlarni ilgari surgan edi. Afsuski, uning “Devonu lug‘atit turk” asari juda kech topildi. Shunday bo‘lsa-da, turkologiyada uning qarashlari e’tirof etilib, yuqori baholanib kelinmoqda. Keyingi asrlarda Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy kabilar ilmiy asarlarida tilning paydo bo‘lishi, til va nutq, chog‘ishtirma tilshunoslik yuzasidan fikrlar bildirdilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek ma’rifatparvarlarining, jumladan, Abdulla Avloniy, Ibrat, Abdurauf Fitratlarning lingvistik faoliyatlari, asarlari o‘zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqdi. Ommaviy axborot vositalarida o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratildi.

Asosiy qism. O‘zbek tili sintaksisi, bir sostavli gaplar haqidagi nazariyalarning shakllanishida I.Rasulovning qarashlari, nazariyalari va ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Uning fikr-mulohazalari, tadqiqot ishlari va ilmiy yondashuvlarini o‘rganish, tahlil qilish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi zamonaviy tilshunoslikni chuqur anglash va uni rivojlantirish uchun ham muhimdir. Umuman olganda, tilshunoslarning lingvistik merosini o‘rganish, avvalo, tilshunoslik fanining nazariy va amaliy jihatdan shakllanish asoslarini ko‘rsatib beradi. Har bir davr olimlarining tilga bo‘lgan qarashlari, til mohiyatini qanday anglagani, tahlil usullari va metodlari o‘ziga xos bo‘lgan. Bunday nazariyalar tilshunoslikning takomillashuvi, bugungi lingvistik ilmiy qarashlarning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Tilshunoslarning ilmiy qarashlarini chuqur tahlil qilish, ularning o‘z davridan kelib chiqib qanday ilmiy muammolarni o‘rgangani, ularga qanday javob topgani, tadqiqot natijalari til takomilini ko‘rsatadi. Bu esa hozirgi zamonaviy tilshunoslikda mavjud muammolarni tanqidiy ko‘z bilan ko‘rib chiqish, yangi yondashuvlarni ilgari surish uchun zarurdir. Shu orqali tilshunoslikda izchillik, uzviylik saqlanadi va fanga doir qarashlar yanada mukammallashadi. Shuningdek, tilshunoslarning qarashlarini o‘rganish milliy tilshunoslik taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutadi.

H.Uzoqovning “O‘zbek tilshunoslari” asari o‘zbek tilshunosligi tarixini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan manba bo‘lib, tilshunoslik ilm-fanining rivojlanish yo‘nalishlari va olimlarning ilmiy merosi haqida keng qamrovli tasavvur beradi. Asar ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘la oladigan manba hisoblanadi. H.Uzoqovning “O‘zbek tilshunoslari” asarida Inomjon Rasulov hayoti va ilmiy faoliyati haqida sahifalar mavjud. Asarda olim haqida quyidacha yoziladi:

“Inomjon Rasulov 1925-yilda Qo‘qon shahrida xizmatchi oilasida tug‘ildi. 1938-yilgacha o‘rta maktabda (5-sinfigacha), 1938–40-yillarda qishloq xo‘jalik rabfakining tayyorlov kursida, 1940–42-yillarda esa Qo‘qon shahridagi o‘qituvchilar institutining til va adabiyot fakultetida o‘qidi. Institutni imtiyozli diplom bilan tugatgach, fakultetda o‘zbek tili o‘qituvchisi qilib olib qolindi.

Pedagog-olim ishlab turib, 1946-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining sirtqi bo‘limini ham muvaffaqiyatli tugatdi va institut olimlari, xususan, prof. A. G‘.G‘ulomov tavsiyasi bilan Uzbekiston SSR Fanlar akademiyasining A.S.Pushkin

nomidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga qabul qilindi. U 1951-yilda "Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek tili leksikasining taraqqiyoti" degan temada kandidatlik dissertatsiyasi yoqladi. 1952-yilda unga dotsentlik unvoni ham berildi.

Olim aspiranturani bitirgandan boshlab hozirga qadar Qo'qon pedagogika institutida (u 1954-yilgacha Qo'qon o'qituvchilar instituti bo'lgan) o'qituvchi, dotsent, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining mudiri, direktorning o'quv-ilmiy ishlar bo'yicha muovini (1954–57) va rektori (1957-yildan hozirgacha) vazifalarida ishlab kelmoqda.

I.Rasulov tilshunoslik bo'yicha bo'ladigan ko'pgina ilmiy konferensiyalarda, munozaralarda aktiv qatnashib turadi (uning 1952-yildagi respublika ilmiy konferensiyasida qilgan "O'zbek tilida ilmiy-texnika terminologiyasining ba'zi masalalari" nomli dokladi, orfografiya o'qitish metodikasiga oid maqolalari, darslik va qo'llanmalarga yozgan taqrizlari buning yorqin dalilidir).

Olimning shaxsan o'zi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda yaratgan bir qancha programma, diktantlar to'plami va darsligi bor. Xususan, prof. S.Usmonov va prof. M.Mirzayev bilan hamkorlikda yaratgan "O'zbek tili" darsligi o'zining ixchamligi, shunga qaramay, ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu darslik hozirgacha uch marta nashr bo'ldi. I. Rasulov so'nggi yillarda "Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar" temasida doktorlik ishi tayyorlamoqda" [1.209-210]

Inomjon Rasulov o'zbek tilshunosligining ko'plab sohalarini o'rganib, katta ilmiy meros qoldirgan olimdir. Uning tadqiqotlari sintaksis, leksikologiya, uslubshunoslik, til o'qitish metodikasi, tarixiy tilshunoslik, terminologiya kabi asosiy lingvistik sohalarni qamrab oladi. Avvalo, olimning sintaksis sohasidagi ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiq. U bir sostavli gaplar, ularning grammatik xususiyatlari va sintaksik tuzilmalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, sintaktik birliklar, predikativlik va modallik bo'yicha nazariy qarashlarni ilgari surgan va ularning gapdagi o'rnini ochib bergan. Tilshunos izlanishlaridagi ikkinchi muhim yo'nalish leksikologiya va frazeologiyadir. Bu sohadagi tadqiqotlarida o'zbek tilining lug'at fondi, uning tarixiy rivojlanishi, shu jumladan, ikkinchi jahon urushi davridagi leksikologik o'zgarishlar haqida mufassal tadqiqotlar amalga oshirilgan. So'zlarning ma'nolari, ularning estetik-ekspressiv jihatlari alohida o'rganilgan. Uslubshunoslik va stilistikaga doir tadqiqotlar ham Inomjon Rasulov ilmiy faoliyatining boy ilmiy yangiliklarga ega yo'nalishlaridan biridir. U o'zbek adabiy tilining stilistik xususiyatlari, nominativ gaplar va ularning o'ziga xosliklari, shuningdek, funksional uslublarning stilistik jihatlarini tahlil qilgan. Bu boradagi ishlari tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, u til o'qitish metodikasi sohasida ham izlanishlar olib borgan. Uning tadqiqotlari va qo'llanmalari maktab va oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan darsliklar, diktantlar to'plamlari keng tarqalgan. Shu bilan birga, Inomjon Rasulovning til tarixi va qiyosiy tilshunoslik sohasidagi izlanishlari ham muhim ahamiyatga ega. U turkiy tillarning tarixiy rivojlanishi, yozuv tizimlari haqidagi maqolalari bilan tadqiqot mavzulari ko'lamini yanada kengaytirgan. Nazariy tilshunoslik va umumiy tilshunoslik masalalari ham olimning diqqat markazida bo'lgan. Bu yo'nalishda u til funksiyalari, "shaxs" termini, predikativlik va modallik munosabatlari kabi asosiy tushunchalarni tahlil qilgan. Nihoyat, terminologiya va atamashunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlari orqali u ilmiy-texnik terminlarning shakllanishi, ularning lingvistik asoslari va lug'atshunoslik haqida fikrlar bildirgan. Shu tariqa, Inomjon Rasulovning ilmiy merosi tilshunoslikning barcha asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga olgan va ularni ilmiy asosda chuqur tahlil qilgan. Olimning tadqiqotlari nafaqat tilning nazariy tomonlarini boyitgan, balki amaliyotda ham keng qo'llanilib, o'zbek tilining mukammalligi va zamonaviylashuviga katta hissa qo'shgan.

So'nggi yillarda tilshunosligimizda soha rivojiga beminnat hissa qo'shgan olimlarning ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari paydo bo'la boshladi. Dilfuza Saydaliyevaning "Til sistemasi va o'zbek tilshunosligida maydon nazariyasi tadqiqi" [2.169] nomli falsafa doktori dissertatsiyasi olima Sharifa Iskandarova ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lsa, Dildora Boshmanovaning "Professor Nizomiddin Mahmudovning lingvistik va metodik qarashlari" [3.177] dissertatsiyasi N.Mahmudovning ilmiy merosiga bag'ishlangan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar an'anasini davom ettirgan holda mazkur dissertatsiya Inomjon Rasulov ilmiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslarning lingvistik merosi va ularning qarashlari haqidagi ilmiy izlanishlar tilshunoslik fanining tarixiy taraqqiyotini o'rganishga, zamonaviy ilmiy nazariyalar asosini anglashga, yangi ilmiy g'oyalarni yaratishga, milliy tilshunoslikni boyitishga, ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu izlanishlar orqali fan uzluksiz taraqqiy etadi va avlodlar o'rtasidagi ilmiy bog'liqlik mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Узоқов Ҳ. Ўзбек тилшунослари. — Тошкент, 1972. – Б. 209–210

2.Saydaliyeva D. B. Til sistemasi va o'zbek tilshunosligida maydon nazariyasi tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Qo'qon, 2024.169-b

3.Boshmanova D. M. Q. Professor Nizomiddin Mahmudovning lingvistik va metodik qarashlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Qo'qon, 2024.177-b.

Doston ABDIMURODOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
xorijiy til nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi v.b.dots.katta o‘qituvchi
abdimurodovdoston@302gmail.com

OILA KONSEPTI BILAN BOG‘LIQ MAQOL-MATALLARDA GENDER ROLLARI TASVIRI (O‘ZBEK TILI MATERIALI ASOSIDA)

Annotatsiya: maqolada o‘zbek paremiologiyasida oila konsepti bilan bog‘liq maqollarda gender rollarining talqini lingvokulturologik va kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. “Ona”, “ota”, “kelin”, “kuyov”, “qaynona” obrazlari orqali erkak va ayol rollarining madaniy-semantik mazmuni hamda ularning ijtimoiy funksiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *oila konsepti, gender rollari, ota-ona obrazi, kelin, kuyov.*

Annotation: the article analyzes the interpretation of gender roles in proverbs related to the family concept in Uzbek paremiology based on linguoculturological and cognitive-pragmatic approaches. The cultural-semantic meanings and social functions of male and female roles are revealed through the images of “mother,” “father,” “bride,” “groom,” and “mother-in-law.”

Key words*: family concept, gender roles, parent image, bride, groom.*

Аннотация: в статье анализируется интерпретация гендерных ролей в пословицах, связанных с концептом семьи в узбекской паремиологии, на основе лингвокультурологического и когнитивно-прагматического подходов. Через образы «мать», «отец», «невестка», «жених», «свекровь» раскрываются культурно-семантическое содержание и социальные функции мужских и женских ролей.

Ключевые слова: *семейный концепт, гендерные роли, образы родителей, невестка, жених.*

Kirish. O‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy tafakkurida oila jamiyatning eng qadimiy va eng mustahkam ijtimoiy institutlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Oila konsepti nafaqat turmush tarzi va qarindoshlik munosabatlarini belgilaydi, balki erkak va ayolning jamiyatdagi vazifasi, o‘zaro munosabati, axloqiy mas’uliyati va ruhiy-ma’naviy mavqeini shakllantiruvchi omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodining eng barqaror qatlamlaridan biri bo‘lgan maqol-matallar bu tasavvurlarni ixcham, umumlashgan va ramziy shaklda ifodalab, gender rollarining xalq ongida qanday talqin qilinishini ko‘rsatib beradi. “Ona”, “ota”, “kelin”, “kuyov”, “qaynona” kabi ijtimoiy obrazlar orqali jamiyatning erkak–ayol munosabatlariga bergan bahosi, ularning oila ichidagi funksional o‘rni, mas’uliyati, axloqiy vazifasi va tarbiyaviy ahamiyati poetik va konseptual darajada mujassamlanadi. Bu obrazlar orqali o‘zbek mentaliteti gender rollarini qadimiy an’ana, axloqiy me’yor, oilaviy intizom va kollektiv qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllantirgani kuzatiladi. Masalan, ota — kuch, himoya va boshqaruv timsoli sifatida; ona — mehr, barqarorlik, fidoyilik manbai sifatida; kelin — uy uyg‘unligi va oilaviy tartibning davomchisi sifatida; qaynona esa tajriba, nazorat va qadriyatlar uzluksizligining ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu bois oila konseptiga oid paremiologik birliklarni tahlil qilish birgina lingvistik tadqiqot emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzilmasi, madaniy xotirasi va genderga oid qarashlarini o‘rganishga imkon beruvchi ilmiy jarayondir. Bu jarayon paremiologik birliklar orqali jamiyatning gender stereotiplari, qadriyatlar dinamikasi va madaniy identitet shakllanishining chuqur qatlamlarini ochib beradi.

Metodologiya bo‘limi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini lingvokulturologiya, kognitiv semantika, gender lingvistika, paremiologiya va etnolingvistikaning o‘zaro uyg‘unlashgan nazariy tamoyillari tashkil etadi. Oila konsepti bilan bog‘liq maqol-matallarda gender rollarining shakllanishi ko‘p qatlamli semantik va madaniy jarayon bo‘lgani sababli tadqiqot faqat bitta metodga tayanib emas, balki kompleks yondashuv asosida olib borildi. Empirik materialni shakllantirish jarayonida o‘zbek paremiologik manbalaridan “ona”, “ota”, “kelin”, “kuyov”, “qaynona”, “qaynota”, “buvilar” kabi genderga oid obrazlarni ifodalovchi 1500 dan ortiq maqol saralandi. Ushbu materiallar faqat tarkibidagi leksik birliklar asosida emas, balki madaniy ishora, metaforik qatlam va genderga oid konseptual aloqadorlik darajasi bo‘yicha saralandi.[1;168] Keyingi bosqichda saralangan birliklar kognitiv-semantik tahlil asosida o‘rganildi: bunda “ona – mehr”, “ota – himoya”, “kelin – tartib”, “qaynona – nazorat”, “kuyov – mas’uliyat” kabi yadro semantik strukturalar konseptual xarita sifatida modellashtirildi. Metodologiyaning keyingi bosqichida lingvokulturologik va pragmalingvistik tahlil usullaridan foydalanildi. Lingvokulturologik tahlil maqollarda erkak–ayol rollarining tarixiy-madaniy ildizlarini aniqlashga qaratildi. Ushbu bosqichda maqollardagi diniy-axloqiy ishoralar, an’ana va marosimlarga xos konnotatsiyalar

sharhlab berildi. Pragmalingvistik yondashuv esa genderga oid maqollarning nutqiy vazifalarini — nasihat berish, baholash, ogohlantirish, ijtimoiy tartibni mustahkamlash kabi funksiyalarini aniqlashga qaratildi. Bu jarayon gender rollarining xalq ongida qanday ijtimoiy vazifa bajarishini aniqlash imkonini berdi. Yakuniy bosqichda maqollar qiyosiy-statistik guruhlarga ajratilib, har bir gender obraziga oid maqollarning semantik diapazoni va metaforik kuchlanishi solishtirildi. Olingan ma'lumotlarga asoslangan holda integrativ model ishlab chiqildi va unda gender rollarining o'zbek paremiologiyasida madaniy xotira, semantik tizim va ijtimoiy norma sifatida shakllangan ko'p qatlamli konseptual tuzilmasi yoritildi. Natijada "ona", "ota", "kelin", "kuyov", "qaynona" kabi obrazlar lingvomadaniy mexanizmning asosiy elementlari sifatida tahlil qilinib, o'zbek gender qarashlarining paremiologik asoslari ilmiy jihatdan asoslab berildi.[3;216] Shunday qilib, tadqiqot natijalari o'zbek paremiologiyasida gender konseptlarining shakllanishi tarixiy tajriba, madaniy xotira va ijtimoiy me'yorlar bilan uyg'un kechgan murakkab kognitiv-lingvistik jarayon ekanini ilmiy asosda ko'rsatadi.

Natijalar bo'limi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek maqol-matallarida gender rollari oila konseptining asosiy semantik yadrosini tashkil etadi va bu rollar xalq ongida nafaqat ijtimoiy funksiyalar, balki ma'naviy-me'yoriy qadriyatlar tizimi sifatida mustahkam o'rnashgan. "Ona", "ota", "kelin", "kuyov", "qaynona" kabi obrazlar orqali shakllangan gender modeli an'anaviy ijtimoiy strukturaning asosiy bo'g'inlari sifatida talqin qilinadi. Natijalarga ko'ra, ota obrazi maqollarda ko'proq "himoya", "tayanch", "adolat", "oilaviy boshqaruv" kabi semantik maydonlar bilan bog'lanadi; bunda shaxsning ijtimoiy mas'uliyati va oilaning tashqi xavfsizligiga oid qadriyatlar ustuvor o'rin egallaydi. Ona obrazida esa "mehr", "baraka", "uy uyg'unligi", "duo" kabi semalar yetakchilik qiladi, bu esa ayolning oiladagi emotsional markaz sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ona obrazi nafaqat oilaviy mehr-oqibat manbai, balki ma'naviy himoya, avlodlar davomiyligi va ruhiy barqarorlik timsoli sifatida ham tilda barqaror ifodalanadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari gender rollarining metaforik modellashtirilishi orqali xalq mentalitetining chuqur qatlamlarini ochib beradi. Ona — "uy quyoshi", "mehr dengizi", "duo soyasi", ota — "tog'", "suyanchiq", "pana", kelin — "uy charog'i", "baraka keltiruvchi", qaynona — "uy ko'rigi", kuyov — "tayin", "qadriyat davomchisi" [4;135] kabi metaforalar gender rollarining real ijtimoiy tajriba bilan qanchalik bog'langanini ko'rsatadi.

Ushbu metaforik tizim gender obrazlarining konseptual tuzilishini mustahkamlab, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va ruhiy-ma'naviy olamini paremiologik diskurs orqali izchil aks ettiruvchi lingvomadaniy modelni yuzaga keltiradi.

Munozara bo'limi. Olingan natijalar o'zbek maqol-matallarida gender rollarining shakllanishi chuqur ijtimoiy-madaniy ildizlarga ega ekanini ko'rsatdi. Munozara jarayonida aniqlanishicha, erkak va ayol obrazlari xalq ongida faqat biologik farqlar asosida emas, balki qadimiy ijtimoiy vazifalar, iqtisodiy munosabatlar va oilaviy tuzilmaning tarixiy shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Ota obraziga yuklangan mas'uliyat, himoya va boshqaruv funksiyalarining ustunligi patriarxal oilaviy modelning o'zbek jamiyatida barqaror bo'lganini tasdiqlaydi. Ona obraziga xos mehr, baraka, duoning kuchi kabi semalar esa ayolning jamiyatdagi emotsional va ma'naviy markaz sifatidagi mavqeiga mos keladi. Shuningdek, kelin va qaynona obrazlaridagi metaforik tasvirlar o'zbek oilasidagi kuchlar muvozanati, avlodlar o'rtasidagi rollar taqsimoti va qadriyatlar uzluksizligi jarayonini yoritadi. Ushbu obrazlar tarkibida uchraydigan konnotativ birliklar gender stereotiplarining mustahkamlanishida ham, ijtimoiy intizomning shakllanishida ham vosita sifatida xizmat qilgan.

Shu bois genderga oid paremiologik birliklar o'zbek jamiyatida ijtimoiy rol modellarini tartibga soluvchi ma'naviy-me'yoriy mexanizm sifatida shakllanib, madaniy xotira va kollektiv tafakkurda barqaror konseptual tizimni vujudga keltiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o'zbek maqol-matallarida gender rollarining oila konseptining asosiy tarkibiy elementi sifatida shakllanganini ko'rsatdi. "Ona", "ota", "kelin", "kuyov", "qaynona" kabi obrazlar orqali xalq ongida aks etgan ijtimoiy rollar nafaqat oilaviy funksiyalar, balki madaniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va tarixiy tajribalar bilan uzviy bog'langan murakkab konseptual tizimni tashkil etadi. Ota obrazi himoya, mas'uliyat va boshqaruvning ramzi sifatida talqin qilinishi; ona obrazining mehr, baraka va ma'naviy barqarorlik bilan bog'lanishi; kelin va qaynona obrazlarining uy ichki tartibi, an'ana va nazorat bilan belgilanishi gender rollarining qanday shakllanganini aniq ko'rsatadi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, maqollar gender stereotiplarini saqlab qoladigan ijtimoiy mexanizm bo'lishi bilan birga, oila modeli, avlodlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va ijtimoiy intizomni mustahkamlovchi lingvokulturologik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Natijalar gender konseptlarining paremiologik diskursda tarixiy-madaniy xotira bilan uyg'un holda shakllanib, jamiyatning ijtimoiy strukturasida rol taqsimoti va qadriyatlar izchilligini mustahkamlaydigan konseptual model sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Jalolova, N. O'zbek paremiologiyasida oila va gender obrazlari**.** – Toshkent: Fan, 2018. 168-bet.
2.Tursunova, Z. Gender stereotiplari va ularning o'zbek maqollarida aks etishi**.** – Samarqand: SamDU nashri, 2021.142-bet.
3.Qodirov, R. O'zbek paremiologiyasiga kirish**.** – Toshkent: Fan, 1997. 216-bet.
4.Mamatqulova, D. Oila konseptining o'zbek xalq maqollaridagi talqini – Buxoro: BuxDU, 2020.135-bet.
5.Jo'rayev, B. O'zbek xalq og'zaki ijodi**.** – Toshkent: Fan, 2008. 304-bet.

Durdonaxon MIRZAZODA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi

SUYISH FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDONINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI

Annotatsiya: maqolada suyish ma’no maydoni yoritilgan. Mazkur ma’no maydoni ingliz tili misolida ko‘rib chiqilgan. Ingliz tili frazeologik birliklari suyish ma’nosini ifodalashiga ko‘ra tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *til, frazeologik birliklar, suyish, ma’no, ijobiy, salbiy, asosiy ma’no, funksional-semantik maydon*

Annotation: the article discusses the semantic field of love. This semantic field is considered on the example of the English language. English phraseological units are analyzed according to their expression of the meaning of love.

Key words: *language, phraseological units, love, meaning, positive, negative, main meaning, functional-semantic field*

Аннотация: в статье рассматривается семантическое поле любви. Это семантическое поле анализируется на примере английского языка. Английские фразеологические единицы анализируются с точки зрения выражения ими значения слова «любовь».

Ключевые слова: *язык, фразеологические единицы, любовь, значение, положительный, отрицательный, основное значение, функционально-семантическое поле*

Kirish. Inson ongida turli ma’no maydonlari mavjud. Shunday ma’no maydonlaridan biri suyish ma’no maydoni hisoblanadi. Suyish ma’no maydoni o‘z lisoniy birliklariga ega. Bunday birliklar tilning barcha sathlari uchun xos. Xususan, ingliz tili sohiblari ongida ham suyish ma’nosi bilan bog‘liq suyish funksional-semantik maydoni mavjud bo‘lib, ushbu maydon tarkibiga suyish ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklar ham kiradi.

Fanda frazeologiya atamasi ingliz adabiyotshunosi Neandr tomonidan 1558 –yil birinchi marta ilmiy muomalaga kiritilgan. [1:14]

Frazeologik birliklarning yaratilishi va nutq jarayonida qo‘llanilishi har bir millat yoki elatning yashash tarzi, ma’naviy hamda madaniy hayoti, milliy ong va ruhiyati, dunyoqarashi va dunyoni anglashi, an’ana va urf-odatlari, tarixi va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.[2:23] “Har bir tilda ushbu millatning madaniyati, urf -odatlari, udumlarini yorituvchi, dunyoqarashi, turmush tarzi, etik va estetik me’yorlarini ifodalovchi iboralar mavjud bo‘lib, ularda milliy-madaniy xususiyatlar qabariq aks etadi”.[3:40-41]

Asosiy qism. Ingliz tili frazeologizmlarini o‘rganishda A.V. Kunin [4], I.V. Arnold[5], N.N.Amosova [6] va boshqalarning xizmatlari katta. Ingliz tilida suyish ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklar maxsus guruhni tashkil etadi. Ushbu guruhga kiruvchi iboralar suymoq, sevmoq, yoqtirmoq, yaxshi ko‘rmoq, muhabbat qo‘ymoq semalari asosida ushbu guruh tarkibiga birlashadi va xuddi mana shu semalarni ifodalashlari sababli suyish funksional-semantik maydonining birliklari sanaladi.

Masalan:

“ **the light of your life** – a much loved person”. [7:173]

“**love’s young dream** 1. The relationship of young lovers. 2. The object of someone’s love. 3. a man regarded as a perfect lover”. [7:178]

Ko‘rinadiki, ingliz tilidagi **the light of your live** va **love’s young dream** iboralarida suyish ma’nosi mavjud.

Ingliz tilidagi quyidagi frazeologik birliklar suyish semasini ifodalab keladi va SFSMning tarkibiy birliklari sanaladi: be madly in love [kimnidir qattiq sevib qolmoq, kimnidir telbalarcha sevib qolmoq], the light of my eyes [ko‘zimning nuri], light of one’s eyes [ko‘zining nuri, eng yaxshi ko‘rgan insoni], the light of sb’s life [kimningdir hammadan eng yaxshi ko‘rgan insoni], have got it bad (informal, humorous) [juda qattiq sevib qolish], bill and coo (old –fashioned, informal) [ishqiy munosabatda gaplashmoq], a torch for (one/sb) [biror kishini sevish, ayniqsa yashirin yoki javobsiz], cupboard love (BrE) [hisob-kitobli sevgi], give your heart to sb // to give your love to person [birovga ko‘nglini bermoq, kimnidir sevib qolmoq], to fall in love with sb/sth [sevib qolmoq], Miss Right (so‘zl.) [bo‘lg‘usi qalliq], Mr Right (so‘zl.) [bo‘lg‘usi qalliq], a puppy love [yoshlarcha segi /bolalarcha sevgi/, jiddiy bo‘lmagan o‘tkinchi sevgi], to be in love with someone [sevish, kimnidir sevib/suyib qolish], to fall in love with someone [sevish/ suyish, sevib qolmoq], to hit it off with someone [bir-biriga mos kelish, o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish], to fall for someone [kimnidir sevib qolish, yaxshi ko‘rib qolmoq], to have a soft spot for someone [ko‘ngil berish, ko‘ngil qo‘yilsh], to have a thing for someone (kimnidir sevib qolish, yaxshi ko‘rsh), to be smitten by someone (qattiq sevmoq yoki sevib qolmoq), to fall in love head over hills (qulog‘ining uchigacha sevib qolmoq/ yaxshi ko‘rmoq), a match made in heaven(bir-biri uchn yaralgan juftlik), to steal someone’s heart (yuragini o‘g‘irlamoq), to pop the question (turmush qurish taklifini berish), to be lovey-dovey (o‘z his-tuyg‘ularini yashirmasdan ochiq namoyon qiladigan juftlik), the silken bond (or tie) (she’riyatda.) [sevgi va do‘stlik rishtasi; ikki sevishgan qalbni bo‘lovchi rishta], fill in love with sb/

sth [sevib qolmoq], lose one's heart to somebody [sevib qolmoq].*open (or uncover)one's heart to somebody(pour out one's heart to somebody)*[yuragini ochmoq] [8] va b.

Masalan:

"I really love you. **I'm crazy about you**. … **I'm just mad about you**." [9:99] (Men devona bo'lib qolaman.) (Aqldan ozyapman.)

"Oh, you're lovely," I said. "... **I'm crazy in love with you**." [9:99] (Seni shunchalar yaxshi ko'ramanki, **telba bo'lib qolyapman**.)

SFSM tarkibiga kiruvchi iboralar suyish ma'nosini to'g'ridan to'g'ri ifodalashi yoki ifodalay olmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1 **Suyish ma'mosini to'g'ridan to'g'ri ifodalovchi iboralar.** Bunday iboralar aslan suyish ma'nosini ifodalash uchun yaratilgan bo'ladi va shunga ko'ra suyish ma'nosi ularning birinchi ma'nosi hisoblanadi. Ushbu iboralar birinchi ma'nosiga, ya'ni asosiy ma'nosiga ko'ra suyish funksional – semantik maydon[SFSM]inig a'zosi sanaladi.

Suyish ma'nosini to'g'ridan to'g'ri ifodalovchi iboralar: fall fo smb (sevib qolmoq, yaxshi ko'rib qolmoq), to fall in love (ko'ngil qo'ymoq, yaxshi ko'rmoq, sevmoq), be loved to somebody (birovni qattiq sevmoq), love at first glow (bir ko'rishda suyib qolmoq), keep one's love (muhabbatini saqlamoq), blind love (so'qir muhabbat), be struck /stricken on smb with love (muhabbat uchun birovdan tayoq yemoq), to love to distraction (telbalarcha sevmoq//aqldan adashguncha sevmoq), to be smitten with love (muhabbatdan lov-lov yonmoq), puppy love (bolalarcha muhabbat// yoshlik sevgisi), cupboardlove (hisobli muhabbat// g'arazli muhabbat), love at fist singht (ko'zlari bilan suyish), May-December (yoshida katta farq bo'lgan sevishgan juftliklar), conquer smb's love (birovning muhabbatini qozonmoq), lose one's love (birovning sevgisini yo'qotmoq),va b.

2 Asosiy ma'nosi boshqa bo'lgan, keyinchalik yuzaga kelgan ikkinchi ma'nosiga ko'ra SFSM tarkibiga kiruvchi iboralar. Masalan, quyidagi iboralar misol bo'ladi: lose one's reason [aqldan ozmoq], lose one's head about smb (boshi aylanmoq), to go smb's head (boshini urmoq), to make smb's heart leap (yurakka qadalmoq) , it makes the heart bleed [yuragi qonga to'lmoq], open (or uncover) one's heart to somebody (yana: pour out one's heart to somebody) [butun qalbini ochmoq], have one's head in the clouds (bulutlarda uchmoq//boshini yo'qotmoq), braek smb's heart (qalbini yaralamoq, ko'nglini sindirmoq) va b .

Suyish ma'noli iboralar ijobiy yoki salbiy ma'noni ifodalash uchun xoslangan bo'ladi. Shunga ko'ra ularni ikkiga bo'lish mumkin: a) ijobiy ma'no ifodalovchi suyish ma'noli iboralar; b) salbiy ma'no ifodalovchi, suyish ma'noli iboralar

Ijobiy ma'no ifodalovchi suyish ma'noli iboralar: gapture the heart of sb., conquer smb's love, gain sb's heart (birovning muhabbatini qozonmoq), apple of one's eyes (ko'zining nuri, ko'zining oq-u qorasi=yakka-yu yagona va qadr-qiymati beqiyos yuksak sevimli inson), light of one's eyes (ko'zining nuri, eng yaxshi ko'rgan insoni), win somebody's heart (sevgisini qozonmoq), pop the question (turmush qurishini so'ramoq, qo'lini nso'ramoq), get down on one knee (turmush qurishini so'ramoq), settle down with someone (turmush qurib tinch hayot kechirmoq), to love with all one's heart and soul(butun vujudi bilan sevmoq), joined at the hip (doimo birga), keep one's love (muhabbatini asramoq, saqlamoq) va b.

Salbiy ma'no ifodalovchi, boshqalar tomonidan salbiy deb baholanuvchi suyish ma'noli iboralar: to turn smb's brain (boshini aylantirmoq), to trun smb's hear (birovning boshini aylantirmoq), be crazy about somebody (berilib ketgan, mukkasidan ketgan = o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ketmoq), goo-goo eyes (odatda ahmoqona yuz ifodasi bilan romantik qarash), to throw oneself at smb's head (birovning bo'yniga osilib olmoq), calf love (kattalar tomonidan haqiqiy sevgi deb hisoblanmaydigan romantik, ahmoqona sevgi tuyg'ulari uchun qo'llaniladigan ibora), getting cold feet (to'ydan oldin uylanish niyatidan qaytmoq), to fall out of love (ko'ngli qolmoq, sevmay qo'ymoq), lose one's love (birovning sevgisini yo'qotmoq), break sb's heart (ko'nglini sindirmoq/ qalbini chilparchin qilmoq), a broken heart (sevgidan singan qalb) va b.

Xulosa. Ko'rinadiki, suyish funksional-semantik maydoni – o'ta muhim tadqiqot obyeklaridan biri. Xususan, SFSMni ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tadqiq etish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Jo'rayeva. O'zbek xalq maqollarari shakllanishining lingvistik asoslari.–Toshkent: Akademnashr, 2019. 224-b.
2. X.B.Samigova. Ingliz va o'zbek tillarida ekspressivlikning ifoda etilishi. – Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2018. 105-b
3. A.Nosirov. Umumbashariy proverbial frazeologizmlar. // Til va adabiyot ta'limi. 2015,6-son, 40 –41-betlar
4. КунинА.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.:Русский язык, 1984. – С. 944
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка (издание второе). – М.:Высшая школа, 1966. – С. 124
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.:Издательство Ленинградского университета, 1962. – С. 208
7. Oxford Dictionary of Idioms. (second edition). Edited by Judith Siefring. – New York: Oxford University Press, 2004 – 340 P
8. Ernest Hemingway. A Farewell to Arms. New York Charles Scribner's sons.1929. 372 P

Xurshida MAMATKULOVA,
CAMU Xalqaro Tibbiyot universiteti

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDAGI ANTONIMLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada frazeologik birliklar tarkibidagi antonimlarning stilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida leksik va kontekstual antonimlar, antitezali birliklar hamda xalq maqollariga asoslangan frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik antonimlar nutqning obrazliligini kuchaytiradi, emotsional ta’sirchanlikni ta’minlaydi hamda funksional-uslubiy qatlamlarda turlicha vazifa bajaradi. Ularning badiiy adabiyot, publitsistika va og‘zaki nutqdagi qo‘llanishi tilning stilistik boyliklarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, antonim, antonimik frazeologizm, stilistik xususiyat, emotsional-ekspressivlik, antiteza, obrazlilik, uslub.*

Аннотация: в данной статье анализируются стилистические особенности антонимов в составе фразеологических единиц. В процессе исследования рассмотрены лексические и контекстуальные антонимы, антиномичные конструкции, а также пословицы, на основе которых формируются экспрессивно-эмоциональные фразеологизмы. Результаты показывают, что фразеологические антонимы усиливают образность речи, обеспечивают эмоциональную выразительность и выполняют различные функции в функционально-стилистических слоях языка. Их использование в художественной литературе, публицистике и устной речи раскрывает стилистическое богатство языка.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, антоним, антонимический фразеологизм, стилистическая особенность, эмоционально-экспрессивность, антитеза, образность, стиль.*

Annotation: this article analyzes the stylistic features of antonyms within phraseological units. The study examines lexical and contextual antonyms, antithetical constructions, and proverbs that serve as the basis for emotionally expressive phraseological expressions. The findings reveal that phraseological antonyms enhance the imagery of speech, ensure emotional expressiveness, and perform different functions within the functional-stylistic layers of the language. Their use in literary works, journalism, and oral speech highlights the stylistic richness of the language.

Key words: *phraseological unit, antonym, antonymic phraseologism, stylistic feature, emotional-expressiveness, antithesis, imagery, style.*

Kirish. Tilning badiiy-estetik imkoniyatlari, avvalo, frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular xalq tafakkurining qadimiy qatlamlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, nutqda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik hamda stilistik ta’sirchanlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, antonim komponentli frazeologizmlar qarama-qarshi ma’nolarni mujassam etganligi bilan nutqiy jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh. Rahmatullayev o‘z tadqiqotlarida frazeologizmlarni xalqning tarixiy xotirasi va milliy tafakkurining o‘ziga xos in’ikosi sifatida ta’riflaydi hamda ular nutqning **emotsional bo‘yoqdorligini oshirishda beqiyos vosita** ekanini qayd etadi [1]. V.I. Shaxovskiy fikricha, antonimik munosabat asosida yaratilgan frazeologik birliklar insoniy hissiyotlarni ifodalashda **psixolingvistik mexanizm** sifatida xizmat qiladi va nutqiy kommunikatsiyada qarama-qarshi mazmunni kuchli tarzda yetkazib beradi [4]. Shuningdek, M. Ro‘ziqulova o‘zbek tilidagi idiomatik birliklarni tahlil qilib, antonimik frazeologizmlarning xalqona tafakkurni ifodalashda muhim stilistik vosita ekanini ko‘rsatadi [5].

Asosiy qism.

1. Emotsional-ekspressivlik.

Frazeologik antonimlar nutqda ifoda kuchini oshirib, his-tuyg‘ularni ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Ular voqelikni obrazli shaklda aks ettirib, emotsional ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Masalan, *tog‘ni talqon qiladigan – yuragi po‘k* iboralari jasurlik va qo‘rqoqlikning obrazli qarama-qarshiligini ifodalaydi. Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, frazeologik birliklar “xalq nutqida emotsional bo‘yoqdorlikni oshiruvchi asosiy vositalardan biridir” [1]. V.I. Shaxovskiy ham antonimik frazeologizmlarni psixolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganib, ularni insoniy his-tuyg‘ularni eng kuchli tarzda ifodalovchi vosita sifatida baholaydi [4].

2. Badiiy tasviriylik.

Antitezali frazeologizmlar badiiy matnda kontrast yaratib, obrazni yanada jonli va esda qolarli qiladi. Masalan, *ilon yog‘ini yalagan – sodda dil* iboralari orqali ayyorlik va soddalikning oppozitsiyasi ifodalanadi. V.V. Vinogradov bu haqda shunday deydi: “frazeologizmlar badiiy asarlarda nutqiy obrazlilikni ta’minlovchi markaziy vositadir”[2].

Badiiy tasviriylikning kuchayishi ko‘pincha antonimik birliklarning qo‘llanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda ular nafaqat qahramon xarakterini ochishga, balki voqea-hodisaning dramatik kuchini oshirishga ham xizmat qiladi. Masalan, *qora tun – oq tun* yoki *hayot-mamot* singari qarama-qarshi mazmundagi frazeologizmlar badiiy tasvirni yanada dramatik va jozibador qiladi.

3. Nutqiy ixchamlik

Frazeologik antonimlar keng tushunchalarni ixcham, ammo mazmunan chuqur ifodalaydi. Masalan, *zehni o‘tkir – zehni to‘mtoq* iboralari insonning intellektual darajasini qisqa va ta’sirchan tarzda beradi. N.F. Alefirenko buni izohlar ekan, “frazeologizmlar tilning iqtisodiy vositalari bo‘lib, keng ma’no doirasini ixcham ifodalaydi” deya ta’kidlaydi [3].

4. Funksional-uslubiy vazifasi

Frazeologik antonimlarning uslubiy imkoniyatlari turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: **Badiiy adabiyotda** – estetik obraz yaratib, voqelikni qarama-qarshi mazmun orqali jonlantiradi. Masalan, Mirmuhsin asarlarida uchraydigan *“Yuragi po‘k kimsalar bu ishni uddalay olmaydi”* kabi ifodalar obrazning badiiy kuchini oshiradi. Shuningdek, Cho‘lpon asarlarida *oq yo‘l – qora yo‘l* singari iboralarning qo‘llanishi dramatik kontrast yaratadi.

Publitsistik uslubda – ijtimoiy hodisalarga munosabat bildirishda ta’sirchan vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, *oq yo‘l – qora kun* iboralari ijtimoiy voqealarga baho berishda kuchli ekspressiv ta’sir ko‘rsatadi. Bu hol publitsistik matnlarda o‘quvchi e’tiborini tortish va muallifning munosabatini yanada kuchli ifodalashga yordam beradi. **Og‘zaki nutqda** – xalqona va ta’sirchan ifoda vositasi sifatida qo‘llanadi. *Boriga baraka – yo‘g‘iga shukr* kabi maqollar antonimik munosabat orqali xalq donishmandligini ifodalaydi. Shu jihatdan ular xalq og‘zaki ijodining eng yorqin qatlamini tashkil qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar tarkibidagi antonimlar tilning emotsional-ekspressiv va stilistik imkoniyatlarini yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Ular qarama-qarshi ma’nolarni mujassamlashtirgan holda nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik va badiiy joziba bag‘ishlaydi.

Birinchidan, frazeologik antonimlar **emotsional-ekspressivlikni kuchaytiruvchi vosita** sifatida nutqdagi his-tuyg‘ularni yorqinroq ifodalashga yordam beradi. Sh. Rahmatullayevning fikricha, frazeologik birliklar xalq tafakkurining emotsional qatlamini ochib beruvchi barqaror ifodalar sifatida nutqda katta estetik vazifani bajaradi.[1].

Ikkinchidan, ular **badiiy tasviriylikni kuchaytiradi**. V.V. Vinogradov ta’kidlaganidek, frazeologizmlar badiiy matnning obrazlilik darajasini oshiruvchi asosiy manbalardan biridir. Ayniqsa, antonimik frazeologizmlar kontrast va antitezali qurilish orqali tasvirning dramatik ta’sirini kuchaytiradi [2]

Uchinchidan, frazeologik antonimlar **nutqiy ixchamlikni ta’minlaydi**. N.F. Alefirenko ularni “tilning iqtisodiy vositalari” deb atab, keng ma’no doirasini qisqa va mazmunli shaklda ifodalashini qayd etadi [3]. Shu bilan birga, ular xalq maqollari va idiomalarida ko‘p uchrashi ham bejiz emas: qisqa ifodada chuqur mazmun mujassam.

To‘rtinchidan, frazeologik antonimlar **funksional-uslubiy qatlamlarda turlicha vazifani bajaradi**:

- badiiy adabiyotda estetik obraz yaratadi;
- publitsistik matnda ijtimoiy munosabatni keskin va ta’sirchan ifodalaydi;
- og‘zaki nutqda xalqona donishmandlik va hayotiy tajribani mujassamlashtiradi.

V.I. Shaxovskiyning ta’kidlashicha, antonimik frazeologizmlar inson ruhiyati va hissiyotlarini kuchli kontrast orqali ifodalab, psixolingvistik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Xulosa qilib aytganda, frazeologik antonimlar tilshunoslikda nafaqat semantik qarama-qarshilikni ifodalovchi vosita, balki xalq tafakkuri, milliy madaniyat va estetik qadriyatlarni o‘zida aks ettiruvchi **stilistik hodisa** sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ularni tizimli va qiyosiy o‘rganish milliy tilning badiiy boyligini yanada kengroq ochib berishga, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 304-b.
2. Vinogradov V.V. *Osnovnye tipy frazeologicheskikh edinits russkogo yazyka*. – Moskva: Nauka, 1977. – 320 s.
3. Alefirenko N.F. *Teoriya yazykovoy nominatsii: kognitivno-diskursivnyy aspekt*. – Moskva: Flinta, 2013. – 256 s.
4. Shaxovskiy V.I. *Linguistics of Emotions*. – Moskva: URSS, 2010. – 280 p.
5. Ro‘ziqulova M. *O‘zbek tilida idiomalar*. – Toshkent: Fan, 2004. 148-b.

Feruza MIRZAYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti, Tillar fakulteti
Gumanitar yo‘nalishlarda xorijiy tillar

ATOQLI OT KOMPONENTLI MAQOLLARNING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada atoqli ot komponentli maqollarning tilshunoslikdagi o‘rni, ularning semantik-pragmatik xususiyatlari va milliy madaniyatni ifodalashdagi vazifalari yoritiladi. Maqollarda uchraydigan atoqli otlarning lug‘aviy ma’nosi, ramziy mazmuni hamda ularning xalq tafakkuri bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida atoqli otlarning maqoldagi funksional yuklamalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *atoqli ot, maqol, paremiologiya, semantika, ramz, tilshunoslik tahlili, pragmatika, xalq og‘zaki ijodi.*

Аннотация: в данной статье освещается роль пословиц с компонентом имя собственное в лингвистике, их семантико-прагматические особенности и функции в выражении национальной культуры. Проанализированы лексическое значение, символическое значение имен собственных, встречающихся в пословицах, а также их связь с народным мышлением. Также на основе современных лингвистических подходов рассматриваются функциональные нагрузки имен собственных в пословицах.

Ключевые слова: *имя собственное, пословица, паремиология, семантика, символ, лингвистический анализ, прагматика, фольклор.*

Annotation: this article highlights the role of proverbs with a proper noun component in linguistics, their semantic and pragmatic features, and their functions in expressing national culture. The lexical meaning, symbolic content of proper nouns found in proverbs, as well as their connection with folk thinking, are analyzed. Also, based on modern linguistic approaches, the functional loads of proper nouns in proverbs are considered.

Key words: *proper name, proverb, paremiology, semantics, symbol, linguistic analysis, pragmatics, folklore.*

Kirish. Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribasini, dunyoqarashi va qadriyatlarini ixcham, musiqiy va serma’no shaklda ifodalaydigan og‘zaki ijod janrlaridan biridir. Tilshunoslikda maqollarni o‘rganish jarayonida ularning tarkibiy birliklariga, badiiy tabiatiga, leksik-semantik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Atoqli ot komponentli maqollar esa tilning milliy-madaniy xotirasini aks ettiruvchi eng jonli birliklardan bo‘lib, ular orqali xalq tarixiga, geografiyasiga, diniy va ma’naviy qarashlariga oid ma’lumotlar namoyon bo‘ladi. Bunday maqollar tilshunoslik uchun ham, madaniyatshunoslik uchun ham muhim tadqiqot obyektidir. Atoqli ot komponentli maqollar paremiologiyada muhim qatlamni tashkil etadi. Chunki atoqli otlar, ya’ni shaxs, joy, hudud, tarixiy voqea yoki rivoyatlarga mansub nomlar maqolda ramziy ma’no yuklaydi. Masalan, mashhur shaxs nomlari odatda donolik, jur’at, saxovat yoki nodonlik timsoli sifatida qo‘llanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda atoqli otlarning funksional tahlili semantika, kognitiv tilshunoslik va madaniy tilshunoslik prizmasi orqali o‘rganilmoqda. Kognitiv yondashuvga ko‘ra atoqli otlar milliy ongda mavjud bo‘lgan tayanch konseptlarni faollashtiradi. Masalan, tarixiy shaxslar xalq mardligini, afsonaviy qahramonlar esa jasorat va adolat tushunchasini aks ettiradi. Shuningdek, atoqli ot keltirilgan maqollarda metafora, metonimiya, ramziy ko‘chma ma’nolardan foydalanish ancha keng tarqalgan bo‘lib, bu ularning badiiy-estetik kuchini oshiradi.

Til madaniyati nuqtayi nazaridan bunday maqollar xalqning dunyoqarashi, qadriyati va mental xaritasini ko‘rsatadi. Atoqli otlar orqali berilgan ushbu ramziy qatlam nafaqat ma’noni kuchaytiradi, balki maqolni yodda saqlashni osonlashtiradi, nutqqa ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Shuningdek, ular milliy identitetning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, xalqning tarixiy xotirasini mustahkamlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda atoqli ot komponentli maqollarni lingvokul turologik, diskursiv va kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish kengayib bormoqda, bu esa ularning mazmun doirasini yanada boyitadi.

Atoqli ot komponentli maqollar tilning obrazlilik imkoniyatlarini kengaytiruvchi kuchli vositalardan biridir. Ular nafaqat ma’nodagi konkretlikni kuchaytiradi, balki xalq tafakkuridagi tarixiy hodisalar, madaniy qatlamlar va milliy psixologiyani jonlantiradi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bunday maqollarni o‘rganishda ularning kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti va paremiologik tizimdagi o‘rni alohida tahlil qilinadi. Har bir atoqli ot ma’lum bir tarixiy voqea, mashhur shaxs yoki geografik hudud bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, ular orqali xalqning mental olami, qadriyat tizimi va ma’naviy tajribasi aniqlanadi.

Atoqli otlar kiritilgan maqollarning lingvosemantik tuzilishi ko‘pincha ikki qatlamli bo‘lib, birinchi qatlamda nominativ ma’no, ya’ni atoqli otning o‘zi anglatgan narsa ko‘zga tashlanadi. Ikkinchi qatlam esa ramziy, ko‘chma ma’noni tashkil etadi. Masalan, tarixiy shaxs ismi orqali donolik, adolat yoki jasorat ifodalansa,

geografik nom orqali kenglik, muvozanat, uzoqlik yoki hayotiy yo‘nalish anglashiladi. Shuning uchun atoqli otlar maqollarda semantik markaz rolini bajaradi va mazmunni jihozlovchi asosiy element sifatida xizmat qiladi.

Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, xususan, kognitiv tilshunoslik ushbu maqollarni inson ongidagi konseptual tizimlar bilan bog‘laydi. Atoqli ot obrazlari xalq ongida tayanch obraz sifatida shakllangan bo‘lib, ular orqali ma’lum bir xulq me’yorini, axloqiy qadriyatni yoki hayotiy hikmatni umumlashtirish osonlashadi. Shu bois atoqli ot keltirilgan maqollarning kognitiv tarkibi har doim umumxalq tajribasi bilan bevosita uyg‘unlashgan bo‘ladi.

Atoqli ot komponentli maqollar til tizimida metaforik ko‘chirishning faol namunasidir. Bu maqollarda atoqli otlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlashning emas, balki ko‘chma ma’nolarning tashuvchisi sifatida ishlatiladi. Bu til hodisasi maqollarning badiiy-estetik kuchini boyitib, ularni xalq og‘zaki ijodining teran qatlamiga aylantiradi. Binobarin, atoqli otlar nutqiy tajribani tarixiy va madaniy tajriba bilan bog‘lovchi til birliklaridir.

Atoqli otlarning maqollarda qo‘llanishi matnning emotsional-ohangini kuchaytiradi. Bu holat ayniqsa ijtimoiy munosabatlarni ta’riflovchi, axloqiy xulq me’yorlarini ifodalovchi maqollarda yaqqol seziladi. Ular yordamida so‘zlovchi o‘z fikrini yanada ishonchli, tarixiy asoslangan, ramziy jihatdan teran shaklda bayon qiladi. Maqollarning kommunikativ vazifasi atoqli otlar orqali yanada kengayib, tinglovchi ongida jonli obraz yaratadi. Shuning uchun bunday maqollar nutq madaniyatida ham alohida o‘rin tutadi. Atoqli ot komponentli maqollar xalq tafakkuri va madaniy merosining eng yorqin aks-sadosi sifatida tilshunoslikda alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunday maqollarda atoqli otlar oddiy nom sifatida emas, balki avlodlar xotirasiga singib ketgan ma’nodosh, ramziy, tarixiy va madaniy tushunchalarni mujassam etuvchi birlik vazifasini bajaradi. Tilshunoslikdagi ko‘plab tadqiqotlar ana shu maqollarning semantik tuzilishi, ramziy qatlamlari hamda madaniy konseptual asoslarini ochib berishga yo‘naltirilgan. Chunki atoqli otlar o‘zining o‘tmish bilan bog‘lovchi kuchi orqali maqolning mazmun doirasini kengaytiradi, uni konkret voqeaga emas, balki umumiy hayot tajribasiga daxldor qiladi.

Atoqli otlar keltirilgan maqollar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasida muhim o‘rin tutgan shaxslar, joy nomlari, afsonaviy obrazlar va tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday nomlar odatda jinsiy emas, balki tushunchaviy vaziyatni ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, ma’lum tarixiy shaxs nomi jasorat, mardlik yoki adolat timsoli sifatida, mashhur joy nomlari esa kenglik, masofa yoki yurt ifodasi sifatida qo‘llanadi. Shu tariqa atoqli otlar nutqda ramziy-majoziy obraz yaratishga xizmat qiladi. Bu obrazlar esa maqolni nafaqat leksik, balki estetik jihatdan ham boyitadi.

Zamonaviy lingvokognitiv tadqiqotlarda atoqli otlarning konseptual xaritani shakllantiruvchi kuchi alohida ta’kidlanadi. Maqollarda eslatib o‘tilgan atoqli otlar ma’lum milliy konseptlarni faollashtiradi. Masalan, xalq orasida mashhur bo‘lgan qahramon obrazi kuch, adolat, jasorat konseptlarini uyg‘otadi. Joy nomlari esa tarixiy-relyef, iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy hayot tarziga bog‘liq tasavvurlarni faollashtiradi. Shunday qilib, atoqli ot komponentli maqollar xalqning dunyoni qanday tasavvur qilishini, hayotiy qadriyatlarni qanday talqin qilishini aks ettiradi.

Pragmatik yondashuvga ko‘ra, atoqli otlar keltirilgan maqollar muloqotda juda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. So‘zlovchi maqolda atoqli ot keltirganida, tinglovchi ongida shu nomga bog‘liq obrazlar, tarixiy eslatmalar va madaniy assotsiatsiyalar jonlanadi. Natijada tinglovchi aytilayotgan fikrni chuqurroq qabul qiladi, maqol esa kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Bu jarayon maqollarning kommunikativ ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki atoqli otlar tilning emotsional va obrazli qatlamiga bevosita ta’sir qiladi.

Xulosa.

Atoqli ot komponentli maqollar xalq tafakkurining betakror mahsuli bo‘lib, ular milliy tarix, madaniyat, geografiya va ijtimoiy ong bilan bevosita bog‘liq. Tilshunoslikda bunday maqollarni o‘rganish semantika, pragmatika va kognitiv tahlil orqali amalga oshirilmoqda. Ularning tarkibida atoqli otlar nafaqat nomlovchi birlik sifatida, balki ramziy, ma’naviy, estetik va kognitiv yuklamaga ega bo‘lgan markaziy komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Atoqli otlar yordamida maqollar yanada aniq, ta’sirchan, obrazli va mazmunan boy shaklga ega bo‘ladi. Bu esa ularni milliy madaniyatning ajralmas bo‘lagiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov R. Tilshunoslik nazariyasi. — Toshkent: Fan nashriyoti.
2. G‘ulomov A. O‘zbek xalq maqollari lug‘aviy-semantik tahlili. — Toshkent: Ma’naviyat.
3. Qosimova D. O‘zbek paremiologiyasida atoqli otlarning lingvokulturologik xususiyatlari. — Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Leksikologiya. — Toshkent: Universitet.
5. Karimov S. Til va madaniyat: lingvokulturologik izlanishlar. — Toshkent: Innovatsiya ziyo.
6. Sharipova M. Paremiologik birliklarning kognitiv-pragmatik talqini. — Buxoro: BMA nashriyoti.
7. UNESCO. Oral Traditions and Cultural Expressions: Analytical Review. — Paris.

Rano MADAMINOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

DIALEKTLARNING AREAL LINGVISTIK O‘RGANILISHI

Annotatsiya: bu maqolada areal lingvistika zamonaviy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligi, bu soha bugungi kunda ham ilmiy ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib borayotganligi aytiladi.

Kalit so‘zlar: *areal, lingvistika, tilshunoslik, kartalashtirish, dialekt, etnomadaniy, an’analar, rasm-rusumlar, sheva*.

Аннотация: в данной статье говорится, что ареальная лингвистика является одним из основных направлений современной лингвистики, и эта область быстро развивается как в научном, так и в практическом плане.

Ключевые слова: *ареал, лингвистика, языкознание, картографирование, диалект, этнокультурный, традиции, обычаи, диалект*.

Annotation: in this article, it is said that areal linguistics is one of the main directions of the field of modern linguistics, and this field is rapidly developing both scientifically and practically.

Key words: *areal, linguistics, linguistic knowledge, cartography, dialect, ethnocultural, traditions, customs, dialect*.

Ma’lumki, areal lingvistikaning lisoniy-jug‘rofiy tahliliy usuli ma’lum hududda tarqalgan til hodisalarini aniqlaydi, hududiy til xususiyatlarini o‘rganib, ularning o‘rni va tarqalish chegarasini xaritalar orqali ko‘rsatadi. Shuning uchun muayyan xalq shevalarining lingvistik xaritalarini yaratish soha taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Areal lingvistika zamonaviy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanalib, bu soha bugungi kunda ham ilmiy ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Areal lingvistikaning asosiy vazifasi – til hodisalarining ma’lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat. Jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o‘zining tarqalish chegarasiga, o‘z hududiga ega. Jumladan, etnomadaniy lug‘aviy birliklar chegarasi ham ma’lum hudud bilan chegaralanadi.

Bir-biriga yaqin bo‘lgan tillar va dialektlarning o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradigan areallarda faol munosabatlar amal qilayotgan bo‘lsa, ikki hududning oraliq chegaralarida alohida lingvistik xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni yonma-yon holda qo‘llanilib kelayotgan dialektlarning har ikkisiga ham o‘xshash bo‘lgan alohida sheva ko‘rinishi yuzaga keladi. Yuzaga keladigan dialektni chatishgan sheva yoki chatishgan til deb yuritish mumkin. Bunday chatishmalar haqida dialektolog olimlar ko‘pgina ilmiy faktlarni keltirib o‘tganlar. Bu holat Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi shevalar doirasida ham kuzatiladi. Demak, bu jarayonni dialektlarning o‘zaro ta’siri va o‘tish zonalari bilan izohlash ham mumkin. O‘tish zonalari nafaqat tillar o‘rtasida, balki dialekt-shevalar o‘rtasida ham vujudga keladi. Chunonchi, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi areallari, asosan, Xorazm viloyatining Xiva, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazarasp, Shovot, Xonqa tumanlari va Qoraqalpog‘istonning Beruniy, To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari hududlariga to‘g‘ri keladi. Ammo dialektologik tekshirishlar mazkur lahjaning Buxoro viloyatidagi Qorako‘l, Olot tumanlari hududida ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston Respublikasining shimoliy hududida joylashgan makon bo‘lib, uning tub aholisining aksariyatini o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoq va turkman urug‘lari tashkil etgan. U tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladigan aholi manzillari hisoblanadi. Shevasi esa hozirgi o‘zbeklarning qadimgi ikki yirik etnik guruhi qipchoq va o‘g‘uz, qoraqalpoq, qozoq va turkman shevalariga mansub bo‘lib, dialektal arealda tojiklar, uyg‘urlar, qirg‘izlar, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar, turkman kabi millatlarga mansub xalq vakillari ham birgalikda hayot kechiradi.

Umuman, o‘zbek shevalarida mavjud leksik izoglossalarni kartalashtirishda muayyan tamoyillarga amal qilish orqali tizimli yondashuv alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan etnomadaniy birliklarni alohida mavzuiy ajratgan holda kartalashtirish yoki izofonemalarni guruhlarga (*j-lovchi, y-lovchi, diftonlashuvchi kabi*) bo‘lib kartalashtirish yaxshi natijalarni beradi.

Bugungi kunda ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti, elektron kommunikatsiya aloqalarining rivojlanishi, uning aholiga ta’siri tuman va qishloqlarda kun sayin o‘zgarishlar, qishloqlarimizni shaharga aylantirish borasida qilinayotgan ishlar barcha-

barchasi adabiy til mavqeyini kundan kunga oshirib bormoqda. Buning natijasida mahalliy til va shevalarning fonetik, leksik va grammatik o‘zgarishlari sodir bo‘lmoqda. Shu sababli dialekt va shevalarga xos leksik xususiyalarni qayd qilish, yozib olish lingvistik tomonlarini qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tamoyillar asosida kengroq o‘rganish, tadqiq qilish o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, tarixini o‘rganishda shu til egasi bo‘lgan xalqlar tarixi etnografiyasini o‘rganishda muhim amaliy va nazariy ma’lumotlar beradi. Qorqalpog‘iston o‘zbek shevalari qipchoq va o‘g‘uz lahjasiga kiruvchi shevalar deb ajratish mumkin. Qoraqalpog‘iston dialektal arealini tarixiy lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, atrof qo‘shni shevalarining munosabatini nazarda tutib, ko‘plab ilmiy tasnif va tavsiflarga tayanib quyidagicha guruhlash mumkin:

Qipchoq lahjasiga mansub shevalar guruhi:

a) “**y**”lovchilar guruhi;

b) “**j**”lovchilar guruhi: *jur* (yur), *jol* (yo‘l), *jenga* (yanga) kabi.

Qipchoqlar ko‘pgina turkiy xalqlar: qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tatar, boshqird, Oltoy va ayrim Shimoliy Kavkaz xalqlari: no‘g‘oy, kumik, qorachoy kabi xalqlarning shakllanishida ishtirok etgan. O‘zbekiston hududidagi qipchoqlar etnik guruhlarining aralashishi natijasida asta-sekin atrofdagi o‘zbeklar tarkibiga singib bormoqda.

O‘zbek tilining qipchoq dialekt zonasi juda katta arealga ega bo‘lib, **j**-lovchi o‘zbek urug‘-qabilalar guruhidan tashkil topgandir. Qipchoq shevalari O‘zbekistonning hamma viloyatlarida va Respublikadan tashqarida ham mavjud.

Shevalar o‘z joylashgan areallarida alohida dialektlarni emas, balki dialekt zonalarini va shevalar guruhlarini tashkil etgani holda o‘zbek tili umumqipchoq arealining mos hodisalarini o‘z ichiga oladi. Dialektlarni areal lingvistik o‘rganilishi til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham qimmatli material beradi. Dunyo tilshunosligida har bir milliy tilining ichki rivojlanish manbayi bo‘lgan shevalarni tadqiq qilish, dialektal atlaslar yaratish, tillarni lingvoareal jihatdan o‘rganish, uning natijalarini ilmiy yo‘nalishlarda foydalanish bo‘yicha boy tajribalar to‘plandi. O‘zbek tilining adabiy tilini anglatuvchi qadimiy milliy qatlamiga, ayniqsa, uning shevalariga, lahjalariga, har xil milliy marosim va an’analari, urf-odatlariga, e’tiqodiga, oilaviy marosimiga bog‘liq so‘z va iboralar asosiy tarkibini umumturkiy va sof o‘zbek tilidagi so‘z va iboralar tashkil etadi. Shular jumlasiga *suyinshi, besik toy, kəzmonshaq, jaushы, bet ashar, quda shaqырғыq, shымылдыq tutыu, pətiya toy, qonыq beriu, tərkinletiu, kenes toy, qalын malы, baqan tutыu, jetisi, qырqы, juzi, jылы* va shu kabi etnografizmlar kiradi. Bunday faol etnografizmlar boshqa turkiyzabon xalqlarda ham qo‘llaniladi va ma’nosi ham bir xil. O‘zbek tili va dialektlarni areal jihatdan tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda. Qoraqalpoq tili etnografizmlari leksik tarkibi bir xillikdan emas, aksincha, ular sof qoraqalpoq so‘zlari bilan bir qatorda umumturkiy, fors-tojikcha, arab va ruscha o‘zlashmalardan tashkil topgan. Qoraqalpog‘istonda yashovchi o‘zbeklar nutqida ham yuqoridagi so‘zlar ishlatiladi. Bu hududda yashaydigan o‘zbeklar ishlatadigan ko‘pgina so‘zlarda qaraqolpoq tilining ta’siri sezilib turadi. Bundan tashqari, bu yerda yashaydigan xalqlarning urf-odatlar, an’analar, rasm-rusumlari bir-biriga juda o‘xshab ketadi. Qoraqalpog‘iston shaharlarida boshqacha atalgan holda, hudud atrofidagi qishloqlarida o‘zgacha qo‘llanish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Masalan, yurtga beriladigan to‘y oshi – *el qa’da, to‘y palov, el oshi* tarzida ham ishlatiladi. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida *el qa’da* (qiz uzatish to‘yida beriladigan atamalari bilan ifodalanadi).

Xullas, Qoraqalpog‘iston hududiy o‘zbek shevasida ishlatiladigan leksemalarning bir qismi mushtarak hodisa hisoblansa, boshqalari bir-biridan farqlanuvchi – nomushtarakdir. Bunday leksik qatlamni o‘rganish faqat areal tilshunoslikni emas, balki o‘zbek adabiy tilini yanada boyitishga xizmat qiladi. Tillarning turli xil xususiyatlarini areal jihatdan o‘rganish jahon tilshunosligida ancha ertaroq boshlangan. Mazkur soha keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligining ham muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbek tili va dialektlarni areal jihatdan tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шоабдураҳмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1962.
2. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1975.
3. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978.
4. Дониёров Х. Қипчоқ диалектлари лексикаси. – Т., 1979
5. Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1991.
6. Ибрагимов Ю.М. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. фил.фан.док… диссер. – Тошкент, 2000.

Malohat XOMIDOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

NUTQ STRATEGIYALARI VA TAKTIKALARI SHIFOKOR-BEMOR MULOQOTINING KONSTRUKTIV TOIFALARI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada nutq strategiyalari va taktikalarining shifokor-bemor muloqotida qanday ishlatilishi tahlil qilinadi. Nutq strategiyalari muloqotda ishtirok etuvchilar maqsadlariga erishish uchun tanlanadigan vositalar bo‘lib, psixolingvistik, kognitiv va pragmatik nuqtayi nazarlardan o‘rganiladi. Maqola, shifokor-bemor muloqotida strategiya va taktikalarni samarali qo‘llashga doir muhim maslahatlar beradi.

Kalit so‘zlar: *nutq strategiyalari, nutq taktikasi, shifokor-bemor muloqoti, kommunikatsiya, psixolingvistik yondashuv, kognitiv yondashuv.*

Аннотация: в данной статье анализируется использование речевых стратегий и тактик в общении врача и пациента. Речевые стратегии — это инструменты, выбираемые участниками общения для достижения своих целей, и изучаются с психолингвистической, когнитивной и прагматической точек зрения. В В статье даются важные рекомендации по эффективному использованию стратегий и тактик в общении врача и пациента.

Ключевые слова: *речевые стратегии, речевые тактики, общение врача и пациента, коммуникация, психолингвистический подход, когнитивный подходком.*

Annotation: this article analyzes how speech strategies and tactics are used in doctor-patient communication. Speech strategies are tools chosen by the participants in the communication to achieve their goals and are studied from psycholinguistic, cognitive and pragmatic perspectives. The article provides important advice on the effective use of strategies and tactics in doctor-patient communication.

Key words: *speech strategies, speech tactics, doctor-patient communication, communication, psycholinguistic approach, cognitive approach, pragmatic approach.*

Kirish. Kommunikativ strategiya tushunchasi, har qanday yangi paydo bo‘lgan tushuncha singari, doimiy ravishda qo‘shimcha xususiyatlarga ega bo‘lib, takomillashtirilib, turli bilim paradigmalari doirasida o‘rganilishi tufayli turli xil talqinlarga ega bo‘ldi. Oxir-oqibat, atamaning ko‘plab talqinlari hozirda noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Dialogik nutqning tartibliligi va uni tashkil etish tamoyillari va mexanizmlarining ta’rifi og‘zaki muloqotning ko‘plab tadqiqotlarida aks etgan. Faoliyatning umumiy psixologik nazariyasiga ko‘ra, kommunikantlar bir-birlarining xatti-harakatlarini tartibga solish orqali o‘z motivlari, maqsadlari va harakatlariga ega bo‘lgan qo‘shma faoliyat bilan shug‘ullanadilar.Boshqacha qilib aytganda, inson nutq faoliyati, boshqa har qanday faoliyat singari, motivatsiyaga ega: masalan, ba’zi hollarda, u kommunikativ sherikni so‘zlovchining manfaatlariga muvofiq (og‘zaki yoki og‘zaki bo‘lmagan) harakat qilishga majburlashga qaratilgan.

Kommunikatsiya tahliliga faoliyatga asoslangan yondashuv ehtiyoj, motiv, maqsad qo‘yish va ma’ruzachining belgilangan maqsadga erishishning optimal usullarini ongli ravishda tanlashiga asoslangan o‘zaro ta’sirning o‘ziga xos kommunikativ texnikasini aniqlash va o‘rganishda boshlang‘ich nuqtaga aylandi. Maqsadlarga erishish vositalari haqidagi eng umumiy g‘oyalar yoki tushunchalar odatda strategiyalar deb ataladi.

Turli xil diskurslar strategiyalarini o‘rganishda uchta asosiy yo‘nalish aniqlandi:

1) nutq strategiyalarining universal xususiyatlarining tavsifi;

2) diskursning ayrim turlaridagi strategiyalar to‘plamini tahlil qilish: siyosiy, pedagogik, jurnalistik, tibbiy va boshqalar.

3) individual strategiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish: ta’sir, o‘zaro ta’sir, begonalashish, argumentatsiya, xushmuomalalik va boshqalar.

Strategiya tushunchasining talqinlari qo‘llaniladigan yondashuvga qarab farq qiladi: psixolingvistik, kognitiv, pragmatik.

Psixolingvistik yondashuv doirasida strategiya nutqning super vazifasi sifatida tushuniladi, bu nutqchining amaliy maqsadlari bilan belgilanadi; subyektning muloqotga kengaytirilgan munosabati.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kognitiv jihat **T. van Deykning** asarlarida batafsil tahlil qilingan bo‘lib, unda strategiya diskursni idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum kognitiv operatsiyalar, ya’ni ma’noni tushunish va talqin qilish strategiyalari sifatida tushuniladi, bu bizning fikrimizcha, nutq strategiyalarini ishtirokchilar dunyosining tasvirlarini o‘zgartirish protseduralari sifatida tavsiflash bilan bog‘liq. **O.S. Issers** nutq strategiyalarini “nutq o‘zaro ta’siri sohasiga proyeksiyalangan kognitiv strategiyalar, uning maqsadi ma’ruzachining kommunikativ maqsadiga eng maqbul tarzda erishishdir” deb ta ‘riflaydi.

Pragmalingvistik yondashuvni talqin qilishda strategiya “ma’ruzachining qarorlar zanjiri, uning muayyan kommunikativ harakatlar va lingvistik vositalarni tanlashi” yoki “muloqot tuzilmasida maqsadlar to‘plamini amalga oshirish” sifatida namoyon bo‘ladi; “muloqot maqsadiga

erishish manfaatlarida muayyan vaziyatda nutq xatti-harakatlarining ma'lum bir yo'nalishini tanlash"; iyerarxik prinsipga asoslangan komponentlar tizimi; ma'lum kommunikativ maqsadlarni (ma'lum munosabatlar fonida) nazarda tutadigan va ma'lum bir kommunikativ kompetensiya talab qilinadigan kommunikativ reja. **Yu.M.Oleshkov** kommunikativ strategiyani "global miqyosda muloqot maqsadini amalga oshiruvchi notiq o'zining kommunikativ niyatini so'zlar ketma-ketligi (tartibi) ning ma'lum bir tanlovi bilan bog'laydigan kognitiv jarayon" deb biladi.

Ba'zan strategiya nutq harakatlari va lingvistik vositalarni o'z ichiga olgan qarorlar yoki kommunikativ tanlovlar zanjiri sifatida tushunilishini ko'rish oson. Boshqa bir nuqtayi nazar strategiyani muloqot tuzilmasidagi maqsadlar to'plamini amalga oshirish bilan bog'laydi. Bu ikki yondashuv qarama-qarshi emas, balki, aksincha, bir-birini to'ldiradi va birgalikda tabiiy lingvistik muloqotning ko'p darajali va ko'p funksiyali tabiati va tuzilishini to'liqroq ochib beradi.

Bizning fikrimizcha, strategiyani maqsadga erishish rejasi sifatida tushunish munozarali, chunki reja oldindan belgilangan harakatlar ketma-ketligini nazarda tutadi. Albatta, o'z nutqi haqida mulohaza yuritadigan odam nutq harakatlarini oldindan rejalashtiradi: masalan, shifokorga maslahat uchun boradigan bemor suhbatning taxminiy mazmunini oldindan biladi va ushbu kommunikativ hodisaning ssenariysini tasavvur qiladi. Biroq, harakatlar mutlaqo kutilmagan tarzda rivojlanishi mumkin va munozara ishtirokchilari ma'lum nutq harakatlarini (ongli ravishda yoki ongsiz ravishda) bajarish orqali o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishi kerak bo'lgan vaziyat yuzaga keladi. Shuning uchun strategiya har bir alohida vaziyatda qanday xulq-atvor va harakatlar (og'zaki va og'zaki bo'lmagan) tanlanishi kerakligi haqida qaror qabul qilish, shuningdek, muloqot rivojlanishini ehtimoliy bashorat qilish va munozaraning mahalliy va global maqsadlariga erishish yo'llari haqida.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz kommunikatsiya strategiyasi – bu ma'lum bir vaziyatda nutq xatti-harakatlarining optimal turini tanlash orqali dialog qurish jarayoni, maqsadga erishishga qaratilgan va ijtimoiy kontekst va ma'lum psixologik munosabatlar bilan shartlangan degan gipotezani shakllantiramiz. Bu vazifa kommunikatsiya taktikalari orqali amalga oshiriladi bu kommunikatsiya ishtirokchilari tomonidan ma'lum bir ketma-ketlikda tanlangan va bajarilgan nutq harakatlari to'plamidir. Boshqacha qilib aytganda, "strategiyalar umuman kommunikatsiya vaziyatining global darajasini belgilaydi, taktikalar esa mahalliy ritorik vositalar sifatida ishlaydi". "Nutq taktikasi bir va bir nechta gaplarni o'z ichiga olishi mumkin; notiq dialogning alohida bosqichlarida ma'lum bir nutq harakatining muvaffaqiyatini muvaffaqiyatsizligini nazorat qilishi va perlokutsiya effektlarini hisobga olgan holda nutq harakatlarini sozlashi mumkin".

Tahlil va natijalar. Shifokor tomonidan birlamchi va ikkilamchi strategiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan taktikalar doirasi juda keng. Shunday qilib, M.I. Barsukova tibbiy munozarada ishontirish, aniq ma'lumot so'rash, tahdid qilish, o'zini taqdim etish, tasalli berish, tushuntirish, fikrlar oqimini shakllantirish, e'tiborni jalb qilish, nazorat qilish, tanishish, ayblash, uzoq muddatli rejalar tuzish, sukut saqlash, iltifot va boshqalar taktikasini aniqlaydi. Issers ta'kidlaganidek, "nutq taktikasi va nutq harakatlarining nominatsiyalarining o'xshashligi (masalan, so'rov, tahdid va so'rov, tahdid nutq taktikasi) bu tushunchalarning o'xshashligi illyuziyasini yaratishi mumkin", shu bilan birga, "nutq harakatlari nazariyasida tahlil obyekti dialogdan tashqarida, real muloqot omillaridan tashqarida bo'lgan individual nutqdir, nutq taktikasini tahlil qilishda muloqotning ijtimoiy va psixologik jihatlari hisobga olinadi (maxsus parametrlar kiritiladi).

Xulosa. Har bir nutq taktikasi ma'lum bir kommunikativ vazifani bajaradi (ishontirish, ishontirish, ogohlantirish, qo'rqitish, yechimlarni taklif qilish, suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish va saqlab qolish va boshqalar), ya'ni qabul qiluvchini muloqotning umumiy maqsadiga erishish uchun zarur qarorlar yoki harakatlarga yo'naltirish. So'zlovchilar oldindan belgilangan dialog ssenariylaridan foydalanmaydilar, balki ma'lum bir vaziyatda samarali bo'lgan va maqsad qo'yish va kommunikativ kontekst bilan belgilanadigan lingvistik timsollarning taktikalari va vositalarini tanlaydilar. Muayyan nutq strategiyalarini amalga oshiradigan taktikalar doirasini aniqlash kommunikatsiya strategiyalarini o'rganishda muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акаева, Э. В. Коммуникативные стратегии профессионального медицинского дискурса: дис. … канд. филолог. наук: 10.02.01 / Акаева Элеонора Вячеславовна. – Омск, 2007. – 149 с.

2. Алексеева, Л. М., Мишланова, С. Л. Медицинский дискурс: теоретические основы и принципы анализа / Л. М. Алексеева, С. Л. Мишланова. – Пермь :

Изд-во Перм. ун-та, 2002. – 200 с.

3. Аникин, Е.Е. Стратегия сопоставления в российской и американской рекламе: автореф. дис. … канд. филол. наук: 10.02.20 / Аникин Евгений Евгеньевич. – Тюмень, 2008. – 22 с.

4. Арутюнова, Н. Д. Стратегия и тактика речевого поведения / Н. Д. Арутюнова

5. Прагматические аспекты изучения предложения и текста. – Киев : Глобус, 1983. – С. 37-56.

6. Арутюнова, Н. Д. Феномен второй реплики или о пользе спора / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Противоречивость и аномальность текста. – М. : Наука. 1990. – С. 175-189.

7. Бабаева, С. В., Медик, Я. В., Мазыгула, Е. П. Социальная роль врача глазами пациентов с сердечно-сосудистыми заболеваниями [Электронный ресурс] / С.В. Бабаева, Я.В. Медик, Е.П. Мазыгула // Вестник Национального медикохирургического Центра им. Н.И. Пирогова. – 2015. – №4. – С.104-109.

Lazokat MAHMUDOVA,
Qo‘qon DU stajyor-o‘qituvchisi
nazomakhmudova@gmail.com

TERMINOLOGIK TIZIM TILSHUNOSLIKDA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada terminologik tizimning tilshunoslikdagi o‘rni, uning tarkibiy xususiyatlari va shakllanish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Terminlar tizimi zamonaviy lingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib, u fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy kommunikatsiya va ilmiy bilish jarayonlarida asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada terminologik tizimning struktura-semantik tashkil etilishi, terminlarning yasalishi, ularning funksional-stilistik xususiyatlari hamda milliy til taraqqiyoti bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, terminologik tizim, lingvistika, struktur-semantik tahlil, qiyosiy tadqiqot*.

Аннотация: в данной статье анализируется роль терминологической системы в языкознании, её структурные особенности и механизмы формирования с научно-теоретической точки зрения. Терминологическая система является одним из важных объектов исследования современной лингвистики, выступая в качестве основного инструмента в процессах научно-технического развития, социальной коммуникации и научного познания. В статье исследуются структурно-семантическая организация терминологической системы, формир ование терминов, их функционально-стилистические характеристики и специфические аспекты, связанные с развитием национального языка.

Ключевые слова: *термин, терминология, терминологическая система, языкознание, структурно-семантический анализ, сопоставительное исследование.*

Annotation: this article analyzes the role of the terminological system in linguistics, its structural features and formation mechanisms from a scientific and theoretical perspective. The terminological system is one of the important research objects of modern linguistics, which is manifested as the main tool in the processes of scientific and technological development, social communication and scientific knowledge. The article studies the structural-semantic organization of the terminological system, the formation of terms, their functional-stylistic characteristics and specific aspects related to the development of the national language.

Key words: *term, terminology, terminological system, linguistics, structural-semantic analysis, comparative research.*

Kirish. Terminologiya zamonaviy tilshunoslikning eng muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sanaladi. Bu tarmoq nafaqat tilshunoslar, balki turli ilmiy yo‘nalishlar vakillari uchun ham doimiy qiziqish uyg‘otmoqda va tahlil obyekti sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Har bir fan sohasining o‘z terminologiyasiga ega bo‘lishi esa, bilimlarni tizimli va tushunarli tarzda yetkazish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim sharoit yaratadi. Ilmiy, texnik, ijtimoiy hamda madaniy sohalarning jamiyat hayotidagi roli ortishi bilan zamonaviy terminlarning aniqligi va dolzarbligi tobora ortib bormoqda va ularni puxta o‘rganish va ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, axborot vositalari, xalqaro hamkorlik ham terminologiyaning soha sifatida rivojlanishiga tezkor sur’atlar bag‘ishlamoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Terminologik faoliyat tarixi Rossiya va Yevropa ilmiy makonida yetuk olim va mutaxassislarning chuqur tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, A.A. Reformatskiy, G.O. Vinokur, S.G. Barxudarov, O.S. Axmanova, K.A. Levkovskaya, V.V. Vinogradov va V.M. Leychik kabi taniqli olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida terminologiyaning nazariy asoslari mustahkamlandi. Ularning ilmiy faoliyati ilmiy atamalar tizimini shakllantirish, ularning strukturaviy va mantiqiy xususiyatlarini aniqlash hamda tahlil qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi.[1] Bundan tashqari, terminologiyaning amaliy jihatlari chuqur va keng qamrovli ilmiy tahlilga tortilgan. D.S. Lotte, T.L. Kandelaki, Brunot F., Esrersen O.A., Ch.S. Abdullayeva, P. Nishonov, X.D. Paluanova, D.X. Kadirbekova, O.S. Axmedov, N.A. Ayakulov kabi yetuk tadqiqotchilar[2] o‘z ilmiy ishlanmalarida terminlarning

1 Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М.: Наука, 1986. – С. 163-198.; Винокур Г. О. Т.; Лейчик В. М, Бесекирска Л. Терминоведение. Предмет, методы, структура. – Bialystok, 1998. 184 с.

2 Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии (1931) / Д.С. Лотте М., 1994. – 408 с.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникацияси технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. (PhD) ... дисс. Автореф. – Т., 2017. 44 б.; Ахмедов О.С.Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол.фан.д-ри. ... дисс. автореф. – Т., 2016. 25 б.Аякулов Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. д-ри. (PhD) ... дисс. Автореф. – Т., 2021. 72 б.

yaratilishi, ularning to‘g‘ri va samarali tatbiq etilishi hamda ijtimoiy kommunikatsiyadagi o‘rnini o‘rganib, mazkur sohada boy nazariy va amaliy meros yaratib berishgan. Shu bilan birga, bu olimlarning ilmiy ishlari nafaqat terminlarning tizimli asosda yaratilishi, ularning til va nutqdagi funksional faoliyat ko‘rsatishi, balki ushbu terminlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jarayonidagi o‘rni va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvi kabi ko‘plab muhim jihatlarni ham ochib bergan. Ushbu tadqiqotlar natijasida, terminlarning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari, ularning milliy o‘ziga xoslik va xalqaro standartlarga mosligi, shuningdek, sohalararo integratsiyadagi muhim o‘rni chuqur va har tomonlama o‘rganilgan.

Natijalar va muhokama. Terminning o‘ziga xosligi uning maxsus tushunchani nomlashida ko‘rinadi. Termin – tilning, kasbiy va ilmiy bilimlarning asosiy tarkibiy qismidir va bu jihat uning ikki tomonlama xususiyatiga asoslanadi. Lingvistik yondashuv doirasidagi tadqiqotlarda, jumladan, G.O.Vinokur, S.V.Grinyov, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, O.V.Lunyova, I.V.Derkach, L.A.Morozova, R.G.Piotrovskiy, A.V.Superanskayalarning ishlarida termin har qanday til birligiga xos bo‘lgan umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan til va tilshunoslikka oid obyekt sifatida talqin qilinadi.

Amaliy lingvistika bo‘yicha yetuk chet el olimi B.E.Antianing “Terminologiya va tilni rejalashtirish: amaliyot va nutqning muqobil doirasi” (“Terminology and language planning: an alternative framework of practice and discourse”) tadqiqot ishida terminologiyada konsepsiya nazariyasi muhokama qilinadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, umumiy tilda lingvistik belgining an’anaviy hisoblari, ular asosidagi gnoseologik pozitsiyalar tufayli, maxsus tilda belgi bilan ishlash uchun yetarli emas. Tajribalarda kuzatilgan bir qator muammolar ushbu ikkita belgi modeli yoki model turkumlari o‘rtasidagi farqning to‘liq amalga oshirilmaganligidan kelib chiqadi, deb taxmin qilinadi[3]. B.E.Antianing tadqiqotidan kelib chiqadiki, terminologiya nazariyasida umumiy til va maxsus til o‘rtasidagi belgilar tizimida aniqlik va ravshanlik zarur. Bu sohada samarali ish yuritish uchun an’anaviy lingvistik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish va maxsus belgilar modelini chuqurroq ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa, zamonaviy terminologik izlanishlar nafaqat amaliyot, balki konseptual asoslarini ham takomillashtirish zarurligini taqozo etadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bu o‘zgarishlarni termin maqomini olgan til birligining funksional va maqsadli o‘zgarishlariga ikkinchi darajali, deb qarash mumkin. Aniq obrazli ifodaning nominativ funksiyasi, umumiy foydalanishdagi so‘zlarga xos bo‘lgan maishiy tushuncha terminologik tizimda maxsus tushunchaning nominativ funksiyasi bilan almashtiriladi. Inson tafakkuri va ijtimoiy tartib taraqqiyotining dialektik qonuniyatlari so‘zning terminga aylanishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, til birligining vazifasi, unga mos derivatsion, sintagmatik va paradigmatik xususiyatlari ham o‘zgaradi. Biz terminning tabiatiga funksional nuqtayi nazardan yondashamiz va terminologik birlikni ilmiy (ilmiy-texnikaviy) tushunchani nomlash va til birligining mazmun xususiyatlarini saqlab qolishning ixtisoslashgan funksiyasiga ega bo‘lgan til belgisi deb hisoblaymiz. O‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi axborot oqimining jadallashuvi hamda texnologiyaning takomillashuvi termin va notermin so‘zlar o‘rtasidagi chegaraning bir-biriga yaqinlashishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda axborot sohasidagi tezkor o‘zgarishlar, yangi texnologiyalarning hayotimizning turli jabhalariga joriy etilishi va raqamli muhitning kengayishi natijasida ko‘plab terminlar ommabop bo‘lib, ularning lug‘at tarkibida o‘zgacha o‘rin egallashi kuzatilmoqda.

3 Adab B. Bassey Edem Antia. Terminology and language planning–an alternative framework of practice and discourse //Language Policy. 2003. – T. 2. – №. 3. C. 285–288.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М.: Наука, 1986. С. 163–198.

2.Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т.I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. С. 218–284.

3.Виноградов С.Н. Лексико-семантическая парадигматика . – Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского ун-та, 1999. 76 с.

4.Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии (1931) / Д.С. Лотте . – М., 1994. 408 с.

5.Канделаки Т.Д. Семантика и мотивированность термина. – М., 1977. 166 с.

6.Кадирбекова Д.Х.Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникацияси технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. (PhD) ... дисс. Автореф. – Т., 2017. 44 б.

Mahfuza ABDUALIMOVA,
Tashkent Perfect University o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILIDAGI MUSIQA TERMINLARINING ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK TIZIMI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilidagi musiqa terminlarining etimologik manbalari va morfologik yasalish tizimi lingvistik jihatdan tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbek tilining izohli lug‘ati va sohaga oid ilmiy manbalar asosida olib borilib, musiqa terminologiyasining turkiy, arab-fors hamda rus va yevropa tillari bilan bog‘liq qatlamlari aniqlanadi. Shuningdek, kasb va ijrochilikni ifodalovchi terminlarning affiksatsiya asosida yasalish modellari, ularning mahsuldorlik darajasi va funksional xususiyatlari yoritiladi. Olingan natijalar o‘zbek musiqa leksikasining tarixiy shakllanish jarayoni va ichki lingvistik tizimini tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *musiqa terminologiyasi, etimologiya, morfologiya, affiksatsiya, kasb nomlari, o‘zbek tili.*

Аннотация: в статье рассматриваются этимологические источники и морфологическая структура музыкальных терминов узбекского языка. Исследование проведено на материале толковых словарей и научных источников и направлено на выявление основных языковых слоёв и моделей словообразования. Особое внимание уделяется аффиксации и образованию названий профессий и исполнителей. Результаты исследования позволяют глубже осмыслить историческое формирование и системность узбекской музыкальной лексики.

Ключевые слова: *музыкальная терминология, этимология, морфология, словообразование, узбекский язык.*

Annotation: this article analyzes the etymological sources and morphological structure of musical terminology in the Uzbek language. Based on explanatory dictionaries and academic sources, the study identifies major linguistic layers and productive word-formation patterns. Special attention is given to affixation and the formation of professional and performer-related terms. The findings contribute to understanding the historical development and structural organization of Uzbek musical vocabulary.

Key words: *musical terminology, etymology, morphology, word formation, Uzbek language.*

Kirish. Musiqa terminologiyasi tilning eng faol va madaniy jihatdan yuklangan qatlamlaridan biri bo‘lib, u xalqning estetik qarashlari, ijrochilik an’analari va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etadi. O‘zbek tilidagi musiqa leksikasi asrlar davomida shakllangan bo‘lib, uning tarkibida turkiy asos bilan bir qatorda arab-fors madaniy-ilmiy muhitining ta’siri, shuningdek, XIX–XX asrlarda rus va yevropa musiqa tizimlari orqali kirib kelgan terminlar muhim o‘rin tutadi.

Musiqa terminlarining etimologik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish til tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Terminlarning kelib chiqishi ularning semantik imkoniyatlarini belgilasa, yasalish usullari tilning ichki rivoj mexanizmlarini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur maqolada o‘zbek musiqa terminologiyasining etimologik manbalari va morfologik tuzilishi alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Adabiyotlar va nazariy asos. O‘zbek musiqa terminologiyasini o‘rganishda musiqashunoslik va tilshunoslik yo‘nalishlari kesishadi. Fitratning o‘zbek klassik musiqasiga bag‘ishlangan ishlari milliy musiqa tushunchalarining tarixiy ildizlarini yoritib bergan bo‘lsa, Akbarovning “Musiqa lug‘ati” asari terminlarning amaliy va ilmiy talqinini tizimlashtirgan muhim manba hisoblanadi. Begmatovning leksikologiyaga oid tadqiqotlari esa terminlarning til tizimidagi o‘rni va yasalish qonuniyatlarini tushuntirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan ushbu tadqiqot umumiy leksikologiya, terminshunoslik va so‘z yasalishi nazariyasiga tayangan holda olib borildi. Terminlarning etimologik qatlamlarga ajratilishi tarixiy-lingvistik yondashuvga, morfologik tahlil esa affiksatsiya va yasalish modellari haqidagi umumiy nazariyalarga asoslanadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot o‘zbek musiqa terminologiyasining etimologik va morfologik xususiyatlarini tizimli ravishda ochib berishga qaratilgan bo‘lib, unda tavsifiy, qiyosiy va tahliliy yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida terminlarning lug‘atlardagi holati, kelib chiqishi va yasalish mexanizmlarini aniqlash asosiy vazifa sifatida belgilandi. Shu maqsadda sifat va miqdoriy tahlil elementlarini birlashtirgan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

• **Leksikografik tahlil** – o‘zbek tilining izohli lug‘ati va maxsus musiqa lug‘atlaridagi terminlarni aniqlash va solishtirish;

• **Etimologik tahlil** – terminlarning kelib chiqish manbalarini (turkiy, arab-fors, rus/yevropa) belgilash;

• **Morfologik tahlil** – so‘z yasalishi, affikslarning funksiyasi va mahsuldorligini aniqlash;

• **Statistik umumlashtirish** – terminlarning foiz nisbatlarini ko‘rsatish va umumiy xulosalar chiqarish.

Etimologik tarkib. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek musiqa terminologiyasida **sof turkiy qatlam** yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu terminlar asosan xalq musiqasi, milliy cholg‘ular va an’anaviy ijrochilik bilan bog‘liq bo‘lib, tilning qadimiy leksik qatlamini tashkil etadi. Arab-fors manbali terminlar maqom tizimi, nazariy tushunchalar va kasbiy atamalar bilan bog‘liq bo‘lsa, rus va yevropa tillaridan kirib kelgan birliklar akademik musiqa, notatsiya va orkestr tizimiga taalluqlidir.

Etimologik jihatdan terminlarning bunday xilma-xilligi o‘zbek musiqiy madaniyatining ochiqligi va tarixiy taraqqiyot jarayonida turli madaniyatlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi.

Morfologik xususiyatlar. O‘zbek tilidagi musiqa terminologiyasida morfologik yasalish, xususan, affiksatsiya jarayoni yetakchi o‘rin egallaydi. Musiqa sohasiga oid terminlarning muhim qismi mavjud leksik asoslar negizida affikslar yordamida yasalgan bo‘lib, bu jarayon tilning ichki imkoniyatlari asosida kasbiy va ijtimoiy tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, shaxs, ijrochi va kasb nomlarini bildiruvchi terminlar morfologik jihatdan aniq va barqaror modellarga ega.

Eng mahsuldor affikslardan biri -chi affiksi bo‘lib, u musiqa ijrochilari va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni nomlashda keng qo‘llanadi. Ushbu affiks dutorchi, doirachi, rubobchi, qo‘shiqchi kabi terminlar tarkibida uchrab, aniq bir cholg‘u yoki ijro turiga ixtisoslashgan shaxsni bildiradi. -chi affiksining faol qo‘llanilishi musiqa amaliyotining kasb sifatida shakllanganini va terminlarning kommunikativ jihatdan qulayligini ko‘rsatadi.

Musiqa terminologiyasida -anda / -on affikslari ham muhim o‘rin tutadi. Bu affikslar asosan arab-fors til qatlamiga mansub bo‘lib, an’anaviy vokal ijrochilik bilan bog‘liq terminlarda uchraydi. Xonanda, sozanda kabi birliklar ijrochining san’at darajasi va an’anaviy maqomini ifodalaydi. Mazkur affikslar ko‘pincha sahnaviy va madaniy kontekstda qo‘llanilib, terminlarga stilistik va tarixiy rang-baranglik bag‘ishlaydi.

Shuningdek, -kor affiksi musiqa sohasida ijodiy faoliyatni ifodalovchi terminlarni hosil qilishda faol hisoblanadi. Bastakor, sozkor kabi birliklar musiqiy asar yaratish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ijrochilikdan farqli ravishda mualliflik va ijodkorlik tushunchalarini ifodalaydi. Bu affiks orqali yasalgan terminlar musiqaning nazariy va kompozitsion jihatlarini aks ettiradi. Ilmiy faoliyat bilan bog‘liq musiqa terminlarida esa -shunos affiksi uchraydi. Musiqashunos termini musiqani nazariy, tarixiy va tahliliy jihatdan o‘rganadigan mutaxassisni bildiradi. Ushbu affiks orqali yasalgan birliklar musiqaning ilmiy tahlil obyekti sifatida shakllanganini ko‘rsatadi va musiqa terminologiyasining fanlararo xususiyatini namoyon etadi.

Umuman olganda, musiqa terminlarining morfologik tuzilishi musiqiy faoliyatning kasbiy, ijodiy va ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha tabaqalanishini yaqqol aks ettiradi. Affikslarning mahsuldorligi va funksional farqlanishi o‘zbek musiqa terminologiyasining tizimli va barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi hamda tilning termin hosil qilish imkoniyatlari yuqori ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Maqolada o‘zbek musiqa terminologiyasining etimologik va morfologik tuzilishi tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari terminlarning tarixiy manbalar jihatidan rang-barang ekanini hamda affiksatsiya jarayoni orqali milliy til imkoniyatlari asosida boyib borayotganini ko‘rsatdi. Ushbu xulosalar o‘zbek musiqa leksikasining lingvistik tabiatini chuqurroq anglash va keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Kelajak tadqiqotlari. Kelgusida o‘zbek musiqa terminologiyasini yanada chuqurroq o‘rganish uchun terminlarning semantik o‘zgarishlari, polisemiya darajasi va zamonaviy nutqdagi qo‘llanilishi alohida tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, raqamli musiqa va yangi texnologiyalar bilan bog‘liq terminlarning shakllanishi va til tizimiga kirib kelish jarayonini o‘rganish musiqa leksikografiyasi uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1987.
2. Begmatov E. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent, 2006–2008.
5. Vyzgo T.S. Muzikalnye instrumenty Sredney Azii. – Moskva, 1980.

Orzigul SHOMURATOVA,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
n.scienceofworld@gmail.com

LINGVISTIKADA ATOV BIRLIKLARNING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvistikada atov birliklarning (nomlash birliklari, nominativ birliklar) shakllanish tarixi, ularning asosiy rivojlanish bosqichlari va taraqqiy etish omillari tahlil qilinadi. Tilning nominativ funksiyasi – borliqdagi predmet, hodisa va tushunchalarni nomlash jarayoni – inson tafakkurining eng qadimgi davrlarida shakllana boshlagan bo‘lib, maqolada aynan shu jarayonning bosqichma-bosqich taraqqiyoti ilmiy yondashuvlar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *atov birliklari, nominatsiya, nomlash jarayoni, etimologiya, semasiologiya, nominativ funksiya, tarixiy tilshunoslik, turkiy tillar, o‘zbek tili, metaforik nomlash, metonimik nomlash, konseptual nomlash,*

Аннотация: в данной статье анализируется история формирования атрибутивных (номинативных) единиц в лингвистике, основные этапы их развития и факторы эволюции. Номинативная функция языка — процесс называния предметов, явлений и понятий окружающей действительности — начала складываться в самые древние периоды человеческого мышления, и в статье поэтапно раскрывается развитие этого процесса на основе научных подходов.

Ключевые слова: *атрибутные единицы, номинация, процесс называния, этимология, семасиология, номинативная функция, историческое языкознание, тюркские языки, узбекский язык, метафорическая номинация, метонимическая номинация, концептуальная номинация.*

Annotation: this article examines the history of the formation of naming (nominative) units in linguistics, the main stages of their development, and the factors influencing their evolution. The nominative function of language—the process of naming objects, phenomena, and concepts of reality—originated in the earliest stages of human cognition.

Key words: *naming units, nomination, naming process, etymology, semasiology, nominative function, historical linguistics, Turkic languages, Uzbek language, metaphorical nomination, metonymic nomination, conceptual nomination.*

Kirish. Tilning asosiy vazifalaridan biri – borliqdagi predmet, hodisa, jarayon va tushunchalarni nomlash, ya’ni atashdir. Shu ma’noda atov birliklari til tizimining markaziy qatlamini tashkil etadi va insonning dunyoni anglash jarayonida muhim kognitiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Lingvistikaning alohida yo‘nalishi sifatida nominatsiya nazariyasining shakllanishi tilning nominativ funksiyasini, nomlash mexanizmlarini va atov birliklarining tarixiy taraqqiyotini ilmiy asosda o‘rganish imkonini berdi. Atov birliklarining shakllanish tarixi insoniyat tafakkurining, madaniy taraqqiyotining va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tilning rivojlanish bosqichlarini yoritishda alohida ahamiyatga ega.

Dastlabki davrlardan boshlab odamlar o‘z atrofidagi voqelikni tasniflash, hodisalarni bir-biridan farqlash va ularga nom berish ehtiyojini sezgan. Bu jarayon avval mifologik tasavvurlarga tayangan holda sodir bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan mantiqiy tafakkur, ijtimoiy-madaniy tajriba, kasbiy faoliyat va ilm-fan taraqqiyoti asosida yangi atov birliklari paydo bo‘la boshladi. Til tarixida metafora, metonimiya, umumlashma, torayish, semantik ko‘chish kabi jarayonlar orqaligina emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisalarning bevosita ta’siri ostida ham ko‘plab nomlar shakllandi.

Adabiyotlar tahlili. Tilning leksik birliklarini lingvistik jihatdan to‘liq tasniflashda avvalo, hozirgi zamon tilshunosligida shakllangan

nominatsiya nazariyasiga murojaat qilmaslikning imkoni yo‘q. Nominativ nazariya, eng avvalo, tafakkurning tushunchaviy shakllari o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishi, shuningdek, turli obyektiv borliq bo‘laklariga nomlarning qanday yaratilishi, mustahkamlanishi va taqsimlanishiga bog‘liq. Nomlash jarayoni uzoq yillar davomida asosan paradigmatik munosabatlar doirasida o‘rganib kelingan. Qadimgi Yunon faylasuflari Aristotel, Geraklit, Demokrit va Platonlar nomlash mexanizmini materialistik talqin etib, so‘z, narsa va tushuncha o‘rtasidagi murakkab ko‘p qatlamli aloqani inkor etmagan. Keyinchalik tilshunoslik nazariyasining rivojlanishi natijasida onomasiologik va semasiologik yondashuvlar rivojlanishi jarayonida “ma’no” va “belgilash” tushunchalari o‘rtasidagi farq e’tirof etilgan bo‘lsa-da, so‘zning yaxlit, tizimli ta’rifi yetarlicha ishlab chiqilmagan edi.

Keyinchalik Praga lingvistik maktabi vakillarining sa’y-harakatlari natijasida nominatsiyalar nazariyasi sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgan. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra til ma’lum kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi belgilarning mukammal tizimi sifatida talqin etiladi. Shuning uchun belgining nominativ jihati tilning barcha nom beruvchi birliklarini, ularning semantik va struktur xilma-xilligini o‘z ichiga oladi.

Tilshunoslikda atov birliklarining o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular borliqdagi predmet, belgi, holat, jarayon va abstrakt tushunchalarni nomlash orqali insonning konseptual dunyoqarashini shakllantiradi. Atov birliklarini o‘rganish nafaqat tilning leksik-semantik tizimini anglash, balki jamiyatning kognitiv madaniy tajribasini tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli nominatsiya jarayoni va uning mahsuli bo‘lgan atov birliklarini ilmiy tahlil qilish lingvistikaning turli yo‘nalishlarida – kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, va pragmalingvistika doirasida dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Muhokama va natija. Lingvistikada atov birliklarining ahamiyati haqida fikr yuritishdan avval atov birlik nima? degan tushunchaga to‘xtalib o‘tsak. Atov birlik – bu biror narsa, hodisa, belgi, harakat yoki shaxsni nomlash uchun xizmat qiladigan til birligidir. Ya’ni atov birlik nom beruvchi birlik hisoblanadi. Bu tushuncha nominal birlik yoki nominativ birliklar deb ham yuritiladi. O‘zbek tilshunos olimlaridan A.Xojiyev “Ma’lumki, hayotda hamma narsa o‘zaro aloqa, bog‘lanishda. Buni inson faoliyatiga oid narsa-hodisalarda umumiy – belgi-xususiyatlariga ko‘ra eng yirik turlarini, bu turlarga mansub narsa-hodisalar o‘zaro umumiy belgilarga ko‘ra ichki tur va turchalarni tashkil etadi. Ana shu o‘zaro bog‘lanishdagi tur va turchalarga mansub narsalarni bildiruvchi atovchi so‘zlar deb yuritiladi.

Mamlakatimiz tilshunos olimlaridan Z.Xolmanova bu borada quyidagi fikrlarni qayd etadi. “Birikma tushuncha anglatish uchun xizmat qiluvchi sintaktik birlik bo‘lib, shunga ko‘ra nominativ birlik deyiladi, shu jihati bilan leksemaga o‘xshaydi”. Olimaning ta’kidlashicha, til tizimidagi semantik va sintaktik vazifani birgalikda izohlaydi, asosiy fikr – birikma tilning nominativ funksiyasini bajarishga urg‘u beradi. Ya’ni ma’lum bir tushunchani nomlash, voqelikdagi predmet, belgi yoki harakatni ifodalash vazifasi sifatda qayd etadi. Nominatsiya lotincha nomination – atash, nom qo‘yish degan ma’noni anglatadi. Tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so‘z, so‘z birikmasi kabilarni) hosil qilish. “Voqelik bilan bevosita bog‘lanadigan, narsa-buyum belgi, harakatning nomi bo‘lib xizmat qiladigan ma’no nominativ ma’no deyiladi”. N.Uluqovning ushbu yondashuvi Z.Xolmanovaning yondashuviga yaqin bo‘lib, nominatsiya tilning leksik va semantik tizimini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi uzluksiz jarayondir. Ushbu tilshunoslar ta’kidlaganidek, voqelik bilan bevosita bog‘lanadigan, narsa-buyumning, belgi yoki harakatning nomi sifatida xizmat qiladigan mazmun nominativ ma’no deb ataladi. Fikrimizcha, nominativ ma’no – bu til birliklarining eng asosiy, dastlabki lug‘aviy ma’nosi bo‘lib, so‘zning yoki birikmaning real borliqdagi obyektga ishora qiluvchi denotativ mohiyatini ochib beradi.

Nominativ birlik borasida o‘zbek olimlaridan O.Sharipova va I.Yo‘ldoshevlarning ilmiy qarashlari ham ahamiyatga loyiq bo‘lib, ularning fikricha, nominativ birlik – so‘z, kommunikativ birlik esa gap. So‘z va gap tushunchasi moddiy

dunyodagi predmet va hodisalarning farqli belgilarini ifodalasa, gap esa mulohaza tasdiq yoki inkor xususidagi fikrni yaratadi. Nominativ ma'no esa ushbu jarayonning semantik asosini tashkil etadi, ya'ni so'zning voqelik bilan bog'lanish darajasini, obyektga ishora qiluvchi mazmun belgilaydi

Tilshunos olim A.Mamatovning ilmiy yondashuvlariga ko'ra, nominativ birliklar milliy madaniy olam manzarasini tashkil qilib, unda odamlarning turmush va urf-odatlari, udumlari va xulq-atvorlari, ularning olamga va bir-biriga munsabati o'z aksini topadi. Olimning konseptual yondashuvlari nominativ birliklarning nafaqat til tizimidagi nominativ vazifasini, balki ular orqali yuzaga chiqadigan milliy-madaniy olam manzarasini ham chuqur o'rganishga asoslanadi. Uning fikricha, til birliklari bevosita ma'no ifodalabgina qolmay, balki muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari, udumlari va xulq-atvori haqidagi tarixiy-madaniy tasavvurlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shunday ekan, nominativ birliklar tilda "oddiy nom" sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi, ruhiy - madaniy tajribasi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi semiosfera elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Lingvistikada atov birliklarining shakllanish tarixi tilning evolyutsion rivojlanishi, inson tafakkurining taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab hodisadir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nomlash jarayoni nafaqat lingvistik hodisa, balki kognitiv, madaniy va etnopsixologik omillar bilan chambarchas aloqador bo'lib, atov birliklarining paydo bo'lishida tarixiy davrlar, jamiyatning ehtiyojlari, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va ilmiy taraqqiyot muhim rol o'ynaydi. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilidagi atov birliklarining rivojlanish bosqichlari qadimgi turkiy yodgorliklardan boshlab, o'rta asr ilmiy-adabiy manbalari, keyinchalik esa milliy uyg'onish va zamonaviy modernizatsiya jarayonlari orqali boyib borganini ko'rsatadi. Bu jarayonlar davomida metafora, metonimiya, semantik kengayish, torayish, analogiya kabi lingvistik mexanizmlar nomlashning asosiy vositalari sifatida shakllangan.

Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri shuki, atov birliklari tilning statik qatlami emas, balki dinamik tizim bo'lib, u doimo yangilanib boradi. Yangi texnologiyalar, ijtimoiy institutlar, madaniy qadriyatlar va fan taraqqiyoti natijasida yangi nomlar paydo bo'ladi, mavjud nomlar esa ma'no jihatidan kengayadi yoki o'zgaradi. Nominatsiya jarayonini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish lingvistik nazariyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tilning semantik va konseptual tizimini yanada chuqurroq ochib beradi. Bu yo'nalish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tilshunoslikning umumiy nazariy asoslarini boyitibgina qolmay, madaniy meros, xalq tafakkuri va dunyoqarashi haqida kengroq tasavvur shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xojiyev A. O'zbek tili so'z yasalish tizimi. –T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. 43-bet.
2. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi darslik. –T.: "Nodirabegim" nashriyoti, 2020. –120-bet.
3. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –T., 2016. 172-bet.
4. Sharipova O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. –T., 2006. 17-bet.
5. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. –T.: Noshir, 2019. 70-bet.

Yigitali ALLAMURODOV,
Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

AGRAR SOHADA ZAMONAVIY ATAMALAR VA ULARNING AMALIY QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqola agrar sohada zamonaviy terminologiyaning ahamiyati va amaliy qo‘llanilishini tahlil qiladi. Terminologiya ilmiy izchillikni ta’minlash, amaliy jarayonlarni samarali tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *agrar terminologiya, agrotexnologiya, agroekologiya, amaliy qo‘llanilishi.*

Аннотация: в данной статье анализируется значение и практическое применение современной терминологии в аграрной сфере. Терминология обеспечивает научную последовательность, эффективную организацию практических процессов и внедрение инновационных технологий.

Ключевые слова: *аграрная терминология, агротехнология, агроэкология, практическое применение.*

Annotation: this article analyzes the importance and practical application of modern terminology in the agricultural sector. Terminology ensures scientific consistency, effective organization of practical processes, and the implementation of innovative technologies.

Key words: *agricultural terminology, agro-technology, agro-ecology, practical application*

Kirish. Agrar soha zamonaviy jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning samarali rivojlanishi ilmiy va texnologik yondashuvlarga bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, agrar sohaga oid terminologiya nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy ish jarayonlarida ham katta rol o‘ynaydi. Terminlarning aniq va tushunarli bo‘lishi qishloq xo‘jaligi mutaxassislari o‘rtasida kommunikatsiyani yaxshilash, ilmiy ma’lumotlarni to‘g‘ri yetkazish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.Mazkur maqolada agrar sohaga oid zamonaviy terminologiyaning xususiyatlari, ahamiyati hamda amaliy qo‘llanilishi o‘rganiladi.

Dolzarbligi. Agrar sohada terminologiya ilmiy izchillik va amaliy samaradorlikni ta’minlaydi. Aniq va tushunarli atamalar mutaxassislar o‘rtasida kommunikatsiyani yaxshilaydi va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yordam beradi. Ushbu maqolada agrar sohaga oid zamonaviy terminlarning ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. Agrar sohada ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarda aniq va tushunarli terminologiya muhim ahamiyat kasb etadi.Agrotexnologiya, agrobiologiya, agromexanizatsiya, agroekologiya kabi asosiy atamalar qishloq xo‘jaligi faoliyatining turli yo‘nalishlarini ifodalaydi. Masalan, agrotexnologiya ekinlarni yetishtirish va hosil olish jarayonlarining ilmiy asoslangan metodlarini o‘z ichiga oladi. Agrobiologiya esa o‘simliklar, hayvonlar va tuproq hayotining biologik jarayonlarini tadqiq qiladi. Shu bilan birga, agroekologiya qishloq xo‘jaligi va ekologik muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi, bu esa barqaror rivojlanish uchun zarur. Agromexanizatsiya qishloq xo‘jaligi ishlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash imkonini beradi. Har bir termin ilmiy ta’rif va amaliy qo‘llanish kontekstida aniqlanishi shart. Zamonaviy terminologiyada, shuningdek, bioresurslar, agrosanoat kompleksi, agrokimyoviy vositalar kabi atamalar keng qo‘llaniladi. Terminlarning to‘g‘ri ishlatilishi ilmiy izchillikni ta’minlaydi, mutaxassislar o‘rtasida tushunmovchilikni kamaytiradi va amaliy ishlarning sifatini oshiradi. Shu bilan birga, terminologiya o‘quv adabiyotlarida va ilmiy maqolalarda bir xillikni saqlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda zamonaviy agrar terminologiya xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Har bir atama o‘ziga xos ilmiy mazmun va amaliy qo‘llanish doirasiga ega bo‘lishi lozim. Bu esa qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etishga yordam beradi. Shu bois, agrar sohaga oid terminlarni o‘rganish va tizimlashtirish har bir mutaxassis uchun zaruriy ilmiy tayyorgarlik hisoblanadi. Terminologiyaning ahamiyati faqat ilmiy sohada emas, balki amaliy ishlab chiqarishda ham sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, terminlarni ruscha va inglizcha tarjima qilish imkoniyati xalqaro tajribani o‘rganish va hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, agrar terminologiya sohaning barcha yo‘nalishlarida ilmiy va amaliy izchillikni ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Agrar sohaga oid terminologiya nafaqat ilmiy izlanishlarda, balki amaliy ishlab chiqarishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Aniq va tushunarli atamalar mutaxassislar o‘rtasida to‘g‘ri kommunikatsiya o‘rnatishga yordam beradi. Masalan, agrotexnologiya yoki agromexanizatsiya atamalarini noto‘g‘ri ishlatish amaliy jarayonlarda xatoliklarga olib kelishi

mumkin. Terminologiya ilmiy maqolalar, darsliklar va qo‘llanmalarda bir xillikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etishda atamalar aniq bo‘lishi shart. Ilmiy izchillik mutaxassislar o‘rtasida tajriba almashishni osonlashtiradi va innovatsion usullarni keng qo‘llash imkonini beradi. Amaliy qo‘llanishda terminologiya ishlovchilar, fermerlar va texnologlar uchun yo‘riqnoma vazifasini bajaradi. Misol uchun, sug‘orish tizimlari yoki agrokimyoviy vositalar bilan ishlashda aniq atamalar jarayonlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, terminologiya yordamida qishloq xo‘jaligi sohasida yangi ilmiy yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqish jarayoni soddalashtiriladi. Ilmiy va amaliy ahamiyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, terminologiya orqali nazariy bilimlar real ishlab chiqarishga integratsiya qilinadi. Terminlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi esa boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, agrar terminologiya ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatning uzviy qismi sifatida qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Terminologiyaning ilmiy ahamiyati mutaxassislar malakasini oshirishda, amaliy ahamiyati esa ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda yaqqol ko‘rinadi. Shu bois, har bir agrar mutaxassis uchun terminlarni mukammal bilish va ularni amaliy jarayonlarda to‘g‘ri qo‘llash muhimdir.

Zamonaviy agrar terminologiyani rivojlantirish sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun zarurdir. Globalizatsiya va xalqaro hamkorlik sharoitida terminlar bir xilligi va tushunarli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, terminologiyani standartlashtirish milliy va xalqaro standartlar asosida amalga oshiriladi. Ilmiy va amaliy ishlarda terminlarni ruscha, inglizcha va boshqa tillarga tarjima qilish soha mutaxassislari uchun qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarini qo‘llash agrar terminologiyani boyitish va yangilash imkonini beradi. Masalan, raqamli qishloq xo‘jaligi, agroinformatika va bioresurslar sohalarida yangi atamalar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Terminologiyani rivojlantirish mutaxassislar o‘rtasida izchil kommunikatsiya o‘rnatish, ilmiy ma’lumotlarni to‘g‘ri yetkazish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, agrar terminologiyani rivojlantirish o‘quv jarayonini ham soddalashtiradi, talabalar va mutaxassislar uchun bilim olish jarayonini samarali qiladi. Kelajakda terminologiya qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy tadqiqotlar, ishlab chiqarish va xalqaro hamkorlikning uzviy qismiga aylanishi kutilmoqda. Shu tariqa, zamonaviy agrar terminologiya nafaqat ilmiy bilimlarni rivojlantirish, balki amaliy ishlarni samarali tashkil etish uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Terminologiyani tizimli ravishda rivojlantirish va yangilash agrar sohaning barqaror va innovatsion rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon sohada ishlovchi barcha mutaxassislar uchun uzviy bilim bazasini yaratadi va qishloq xo‘jaligi faoliyatining barcha yo‘nalishlarida samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Xulosa. Agrar sohada zamonaviy terminologiya ilmiy izchillik va amaliy samaradorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Asosiy terminlar – agrotexnologiya, agrobiologiya, agromexanizatsiya va agroekologiya – mutaxassislar o‘rtasida to‘g‘ri kommunikatsiya o‘rnatish, ilmiy ma’lumotlarni aniqlik bilan yetkazish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda asosiy vosita hisoblanadi. Terminologiya nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy ishlab chiqarishda ham qo‘llanilib, qishloq xo‘jaligi jarayonlarining samaradorligini oshiradi.Shu bilan birga, terminlarni xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish va tarjima qilish, global hamkorlik va ilmiy tajriba almashishni kengaytiradi.Kelajakda agrar terminologiyani tizimli rivojlantirish, yangi texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarni qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi sohasining barqaror va innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Shu sababli, har bir agrar mutaxassis uchun terminlarni mukammal bilish va amaliy qo‘llash zaruriy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, T.Agrar sohada zamonaviy texnologiyalar va terminologiya. – Toshkent: Qishloq xo‘jaligi nashriyoti, 2020.
2. Karimov, A. & Tursunov, S.Agrotexnologiya va agroekologiya asoslari. –Toshkent: Ilm-fan, 2019.
3. Rasulova, N.Qishloq xo‘jaligi sohasida terminologiyani rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. FAO. (2018). Glossary of Agricultural Terms. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
5. Savin V.Аграрная терминология и ее применение в сельском хозяйстве. – Москва: Агропромиздат.2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2022). Qishloq xo‘jaligi statistik ma’lumotlari va terminlar lug‘ati. –Toshkent, 2022.
7. Ashurova, F. A. Native And Borrowed Layers Of Agricultural Terminology: A Lexical-Semantic Analysis. Eurasian Research Bulletin, Vol. 43, 2025, pp. 7–9
8. Samandarova, G. I. Agricultural Terminology Translations. International Journal of Artificial Intelligence, 2025, pp. 232–235

Pahlavon QURBONOV,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
palavonhakker@gmail.com

DMED MOBIL ILOVASI VA UNING TIBBIYOTDAGI ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada DMED tizimi va uni tushunchasini Tibbiyot talabalari bilan birgalikda Tibbiyot xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tatbiq etishdan iborat. DMED tizimining asosiy vazifalari va amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish bo‘yicha ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni bu tizimning dolzarb tomonlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: DMED, DMED tizimi, mobil ilovalar, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация: в данной статье рассматривается система DMED и её понятие совместно со студентами-медиками и медицинскими работниками с целью глубокого освещения её сути, чтобы сделать её понятной, простой и, безусловно, полезной для всех. Проведена работа по выявлению основных задач системы DMED и формированию практических навыков её применения. Также в статье рассмотрены актуальные стороны системы для медицинских работников и студентов.

Ключевые слова: DMED, Система DMED, Мобильные приложения, Современные технологии

Annotation: this article focuses on explaining the DMED system and its concept to medical students and healthcare professionals, aiming to provide a clear, simple, and beneficial understanding for everyone. Efforts have been made to highlight the main functions of the DMED system and develop practical skills related to its use. Additionally, the article examines the relevant and urgent aspects of the system for both medical staff and students.

Key words: DMED, DMED system, Mobile applications, Modern technologies

Kirish. DMED (Digital Medicine) — O‘zbekistonda raqamli tibbiyot tizimining joriy etilishi so‘nggi yillarda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Shu jarayonda “DMED” (Digital Medicine) deb nomlangan yagona tibbiy axborot tizimi amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ushbu tizim Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda UZINFOCOM davlat muassasasi hamkorligida ishlab chiqilib, tibbiy xizmatlarni zamonaviy raqamli muhitga ko‘chirishni maqsad qilgan. 2024-yil 17-dekabr kuni sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha qabul qilingan №384-sonli buyruqqa muvofiq, birlamchi tibbiy muassasalarda DMED tizimini keng joriy etish ishlari boshlab yuborildi. Bugungi kunda respublikaning ko‘plab poliklinikalari va oilaviy shifokor punktlarida mazkur tizim faol ishlamoqda. Rejalarga ko‘ra, tizim orqali 24 milliondan ortiq aholining elektron tibbiy kartalari shakllantirilishi ko‘zda tutilgan. DMED tizimining asosiy vazifalaridan biri — har bir fuqaroning tibbiy tarixini yagona markazlashgan elektron bazada saqlashdir. Bunda bemorning oldingi kasalliklari, o‘tkazilgan tekshiruvlar, laboratoriya tahlillari, tashxis va davolash jarayonlari to‘liq qayd etiladi. Eng muhimi, bu ma’lumotlar bemor qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, ruxsat etilgan tibbiy muassasalarda ko‘rilishi mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tizim tarkibidagi muhim modullardan biri — **“Elektron retsept”** bo‘lib, u dori-darmonlar bilan bog‘liq jarayonlarni shaffof va nazorat ostida olib borishga xizmat qiladi. Elektron retseptlar orqali dorilarni yozish, ularning dozasi va shaklini belgilash, sotilishi va hisobini yuritish ancha soddalashadi. Bu esa dorilarning noqonuniy yoki asossiz berilishining oldini olishga yordam beradi shuningdek, DMED mobil ilovasi orqali bemorlar o‘z tibbiy ma’lumotlariga masofadan turib kirish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Ilova yordamida retseptlar, tahlil natijalari, yo‘llanmalar va shaxsiy tibbiy tarix bilan tanishish mumkin. Bu esa bemorlar uchun katta qulaylik yaratadi va vaqt sarfini kamaytiradi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda mamlakatning 15 ta tuman va shaharlarida sog‘liqni saqlashning yangi modeli sifatida DMED tizimi tajriba-sinov tariqasida joriy etilgan. Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi birlamchi tibbiyot muassasalarida ushbu tizimning amaliy samaradorligi yaqqol sezilmoqda. Masalan, Samarqand shahridagi oilaviy poliklinikalarda qog‘oz hujjatlar deyarli yo‘qolib, navbatlar ancha qisqargani kuzatilgan. DMED tizimining muhim jihatlaridan biri shundaki, u inson omiliga bog‘liq boshboshdoqlikni

kamaytiradi. Tizim shifokorning har bir qabulini, qaysi vaqtda, qaysi bemorni qabul qilganini, qanday tashxis qo‘yganini va qaysi dori vositasini tavsiya qilganini avtomatik ravishda qayd etadi. Bu esa “tanish-bilishchilik” yoki subyektiv qarorlar uchun joy qoldirmaydi. Ayni paytda ayrim muassasalarda tizimni to‘liq joriy etishda muammolar ham uchramoqda. Jumladan, barcha tibbiyot muassasalari zamonaviy kompyuter texnikasi va barqaror internet bilan yetarli darajada ta’minlanmagan. Shuningdek, qog‘oz hujjatlar bilan ishlashga o‘rganib qolgan ayrim shifokorlar uchun elektron tizimga moslashish ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shu sababli, IT xodimlar va axborot texnologiyalarini yaxshi biladigan hamshiralarni tayyorlash zarurati paydo bo‘lmoqda. Bundan tashqari, elektron ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tizimda shaxsiy tibbiy ma’lumotlar saqlangani sababli, ularni ruxsatsiz kirishdan himoyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramay, DMED tizimi joriy etilgan hududlarda bemorlar va tibbiyot xodimlari uchun sezilarli qulayliklar yaratilgani e’tirof etilmoqda. Real vaqt rejimida monitoring qilish, elektron navbat, tezkor diagnostika va shaffof nazorat mexanizmlari sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirmoqda. Ushbu dasturning ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, tibbiyotni raqamlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi birlamchi tibbiyot muassasalariga tashrif tadbirlari uyushtirildi. DMED tizimining qanday ishlashini ilk marta Samarqand shahridagi 2-oilaviy poliklinikada kuzatdim bu – qog‘ozsiz, navbatsiz qulaylik edi. Faqat shugina emas. Bu tizimda shifokor yoxud bosh shifokorni tanishingizning ahamiyati yo‘q, tizim sizning ID raqamingizni taniydi, xolos. Va, to‘g‘risini aytsam, men shu yerda raqamlashtirishning eng katta ahamiyatini his qildim: u tizimdagi boshboshdoqlikning oldini oladi. Ayni paytda 55 ming nafardan ziyod aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatayotgan mazkur shifo maskani zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlanib, DMED axborot tizimi to‘liq ishga tushirilgan. Ma’lumot o‘rnida aytish lozimki, 350 o‘ringa mo‘ljallangan ushbu shifo maskanida ayni chog‘da 28 turdagi tor soha mutaxassislari aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Muassasaning Maslahat poliklinikasi kunlik 250 qatnovga mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda bemorlarga to‘liq DMED tizimi orqali tibbiy xizmat ko‘rsatiladi. Kasalxonaga sayohat asnosida ushbu axborot dasturini joriy etish holati, uning qaysi modullari izchil yo‘lga qo‘yilgani, bemor va shifokorlar uchun qulayliklari, shu jumladan, tibbiyot muassasalarida uzundan-uzoq navbatlarning oldini olishdagi ahamiyati xususida batafsil ma’lumotga ega bo‘ldik.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, DMED — bu shunchaki axborot tizimi emas, balki O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasida shaffoflik, adolat va inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan muhim raqamli islohotdir. Tizimni bosqichma-bosqich takomillashtirish va barcha hududlarda to‘liq joriy etish orqali uning ijobiy natijalari yanada kengroq namoyon bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonov P. et al. TIBBIY BILIMLARNI O’RGATISHDA MASOFAVIY TA’LIM TIZIMINI TADBIQ ETISH // Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 178-181.

2. Mirzakarimov B., Qurbonov P. TIBBIYOTDA MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA’MINOTINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI //Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach. uz/index. php/rai/article/view/745. – 2023.

3. Qurbonov P., Xoldarova G., Rasulova F. Tibbiyotda kompyuter tomografiyasi va undan samarali foydalanish. 2023.

4. Qurbonov P., Ataxonov S., Sharofiddinov S. Masofaviy ta’limni tashkil etishning uslubiy asoslarI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 43-47

5. Sh R. S., Qurbonov P. S. THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 270-275.

Foydalanilgan internet saytlari

1. https://library.ziyonet.uz/book/142161
2. www.fjsti.uz
3. https://tktishf.edu.uz/
4. https://dist.edu.uz

Jahongir TURSUNHODJAYEV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

BLENDED LEARNING MODELI ASOSIDA CHET TILI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya: ushbu tadqiqot blended learning modelining chet tili o‘qitish jarayonidagi samaradorligini nazariy va empirik asosda baholashga qaratilgan. Tadqiqotda an’anaviy dars shakli bilan aralash ta’lim (online + offline) solishtirildi. Natijalar blended learning modeli ta’lim oluvchilarning motivatsiya darajasi, mustaqil o‘qish ko‘nikmalari va kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *blended learning, chet tili o‘qitish, raqamli ta’lim, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, ta’lim texnologiyalari.*

Annotation: this study aims to theoretically and empirically evaluate the effectiveness of the blended learning model in foreign language teaching. The research compares traditional face-to-face instruction with blended learning, which integrates online and offline learning components. The results demonstrate that the blended learning model significantly increases learners’ motivation, independent learning skills and communicative competence.

Key words: *blended learning, foreign language teaching, digital education, motivation, communicative competence, educational technologies.*

Аннотация: данное исследование направлено на теоретическую и эмпирическую оценку эффективности модели смешанного обучения в процессе преподавания иностранного языка. В исследовании сравнивались традиционные занятия и смешанная форма обучения (онлайн + офлайн). Результаты показали, что модель blended learning значительно повышает уровень мотивации обучающихся, развивает навыки самостоятельного обучения и способствует улучшению коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: *смешанное обучение, преподавание иностранного языка, цифровое образование, мотивация, коммуникативная компетенция, образовательные технологии.*

Kirish. Globallashuv jarayoni xorijiy tilni bilishni shaxsiy va professional muvaffaqiyatning muhim omillaridan biriga aylantirdi. Shu bilan birga, texnologiyalar rivoji ta’limning yangi formatlari, xususan blended learning modelini shakllantirdi. Ushbu model an’anaviy ta’limning ijobiy jihatlari bilan raqamli platformalar orqali o‘qitishning moslashuvchan va individual yondashuvini birlashtiradi.

XXI asrda chet tili o‘qitish jarayonida blended learning modeli shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, multimodal resurslar, adaptiv monitoring va mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq O‘zbekistonda bu modelning real samaradorligi yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqot blended learningning chet tilini o‘rgatishdagi amaliy natijalarini baholash va modelning afzallik hamda cheklovlarini aniqlashni maqsad qiladi.

Metodologiya. Tadqiqot kvazieksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Jarayon ikkita ta’lim modelini solishtirishni o‘z ichiga oldi: blended learning asosida o‘qitilgan eksperimental guruh va an’anaviy, faqat auditoriya mashg‘ulotlari orqali ta’lim olgan nazorat guruhi. Har bir guruh tarkibi teng shakllantirildi va tasodifiy tanlov tamoyili asosida belgilandi.

Tadqiqotda 2024 o‘quv yilida chet tilini o‘rganayotgan jami 40 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar teng ikki guruhga bo‘lindi: 20 nafari eksperimental guruhga, qolgan 20 nafari esa nazorat guruhiga biriktirildi. Guruhlar bir xil dastur, mavzu ketma-ketligi va baholash mezonlari asosida o‘qitildi, farq faqat ta’lim shaklida bo‘ldi. Eksperimental guruh o‘qitish jarayonida onlayn va oflayn formatlar uyg‘unlashtirilgan holda ishladi. O‘qitish strukturasida 50 foiz auditoriya mashg‘ulotlari, qolgan 50 foiz esa raqamli ta’lim platformalari orqali tashkil etildi. Onlayn ta’lim komponentida Moodle, Quizlet, Zoom va Google Classroom kabi platformalardan foydalanildi. Bu holat multimodal materiallar, testlar, videodarslar va interaktiv mashqlarni muntazam tatbiq etish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida ma’lumot to‘plashning bir nechta usullari qo‘llanildi. O‘quvchilar bilim darajasini o‘lchash uchun jarayon boshida pre-test, yakunida post-test o‘tkazildi. Talabalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabati va qoniqish darajasini aniqlash maqsadida Likertning 5 ballik shkalasi asosida anketa tuzildi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan kuzatuv varaqasi orqali darsdagi faollik, mustaqillik va ishtirok darajasi baholandi. Qo‘shimcha ravishda yarim strukturaviy intervyu usuli o‘quvchilarning subyektiv tajribalarini o‘rganishda qo‘llandi.

Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan SPSS dasturi yordamida qayta ishlanib, natijalar Studentning T-test tahlili asosida taqqoslandi. Ushbu statistik yondashuv blended learning modeli ta’sirining ahamiyatli yoki tasodifiy ekanini aniqlashga imkon berdi.

Test natijalari

Guruh	Pre-test o‘rtacha ball	Post-test o‘rtacha ball	O‘sish (%)
Eksperimental	52	86	+34%
Nazorat	53	68	+15%

Tadqiqot natijalari eksperimental guruhda o‘zlashtirish darajasi an’anaviy ta’lim olgan nazorat guruhiga nisbatan deyarli ikki barobarga oshganini ko‘rsatdi. Bu o‘sish blended learning modeli o‘quv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatganidan dalolat beradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, faqat auditoriya mashg‘ulotlariga tayangan o‘quvchilar bilan solishtirganda, aralash ta’lim olgan talabalar til materiallarini tezroq o‘zlashtirgan, amaliy mashqlarni samaraliroq bajargan va o‘z bilimlarini real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olgan. Anketa natijalari ham ushbu farqni mustahkamladi. So‘rovnoma javoblariga ko‘ra, talabalar blended learning modelini ijobiy baholagan: ishtirokchilarning 85% bu modelni qulay va zamonaviy ta’lim shakli deb topdi. Shuningdek, 78% talaba aralash ta’lim jarayoni ularning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ishonchini oshirganini bildirdi. Talabalar ayniqsa onlayn topshiriqlar va raqamli platformalar orqali takrorlashning samarali ekanini qayd etishdi; 72% qatnashchi onlayn mashqlar materialni eslab qolishda yordam berganini ta’kidladi. Bu esa blended learning modeli o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol o‘rganuvchi sifatida shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Kuzatuv jarayoni ham ushbu holatni tasdiqladi. Eksperimental guruhda darsga tayyorlik sezilarli ravishda oshdi, o‘quvchilar auditoriya mashg‘ulotlarida faolroq ishtirok eta boshladi, savollar berish, o‘z fikrini ifodalash va juftlik hamda guruh mashqlarida qatnashish faolligi kuchaydi. Shuningdek, talabalarda virtual platformalar va elektron resurslardan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘nikmalar shakllandi; bu esa ularning raqamli savodxonlik darajasining oshganini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar blended learning modeli nafaqat bilim natijalarini yaxshilashi, balki o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, motivatsiyasi va mustaqil ishlash madaniyatini rivojlantirishda ham muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

Munozara. Tadqiqot natijalari blended learning modeli chet tili o‘qitish jarayonida samarali yondashuv ekanini tasdiqlaydi. Eksperimental guruhda kuzatilgan bilim o‘sishi, o‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyati va dars jarayonidagi faollik ortgani ushbu modelning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Talabalar o‘qituvchi bilan an’anaviy auditoriya muloqotidan tashqari, raqamli platformalarda mustaqil mashqlar bajarib, tilni ko‘proq real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa o‘z navbatida o‘rgangan bilimlarning takrorlanishi, mustahkamlanishi va shaxsiy ta’lim ritmida o‘zlashtirilishiga yordam berdi.

Natijalar psixolog Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan sotsiokognitiv ta’lim nazariyasi va konstruktiv o‘qitish modeliga ham mos keladi. Mazkur nazariya ta’lim oluvchining bilimni tayyor holda emas, balki faol tajriba, o‘zaro muloqot va mustaqil izlanish jarayonida egallashini qo‘llab-quvvatlaydi. Blended learning modeli shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv yondashuv bo‘lgani sababli bu nazariyaga amaliy asos yaratadi.

Shunga qaramay, tadqiqot blended learningni joriy etishda bir qator muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Avvalo, internet sifati va texnik vositalarning yetishmasligi ayrim talabalarning onlayn ta’lim segmentida to‘laqonli ishtirok etishini qiyinlashtirdi. Bundan tashqari, mustaqil o‘qishga to‘liq tayyor bo‘lmagan talabalarda vaqtni boshqarish, vazifalarni o‘z vaqtida bajarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatildi. Bu holat blended learning modelida talabadan yuqori darajadagi mas’uliyat va o‘zini boshqarish kompetensiyasini talab qilishini ko‘rsatadi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, blended learningni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun o‘qituvchilarning metodik va texnologik tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchilarga raqamli kontent bilan ishlash, mos platformalarni tanlash, differensial baholash tizimini shakllantirish va o‘quvchini motivatsiya qilish bo‘yicha qo‘shimcha malaka oshirish zarurati mavjud. Umuman olganda, olingan natijalar blended learning modeli chet tili o‘qitishda istiqbolli, samarali va innovatsion yondashuv ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, modelni keng miqyosda qo‘llash uchun texnik baza, pedagogik tayyorgarlik va talabalarning o‘quv mustaqilligini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar talab etiladi.

Xulosa. Tadqiqot blended learning modeli chet tili o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Model talabalar motivatsiyasi, kommunikativ kompetensiya va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Ushbu modelni keng joriy etish uchun metodik resurslar, raqamli platformalar va o‘qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Graham C.R. Emerging practice and research in blended learning // Handbook of distance education. / Ed. by M. G. Moore. 3rd ed. New York: Routledge, 2013.

2. Horn M., Staker H. Blended: Using disruptive innovation to improve schools. San Francisco: Jossey-Bass, 2015.

Anora YANGIBOYEVA,
Qarshi davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: bugungi global axborot jamiyatida xorijiy tillarni samarali o‘rgatish masalasi nafaqat ta’lim sohasida, balki iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. An’anaviy dars uslublari o‘rnini bosayotgan zamonaviy yondashuvlar, ayniqsa, interaktiv va kommunikativ metodlar, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini, motivatsiya darajasini va tilga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi o‘rganiladi. Bunda CLIL (Content and Language Integrated Learning), kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching — CLT), raqamli platformalar (Kahoot, Quizlet, Padlet, Duolingo kabi) va o‘yinli metodlar asosiy e’tibor markazida bo‘ladi. Tajriba-sinov ishlari orqali nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida o‘tkazilgan natijalar tahlili orqali interaktiv metodik yondashuvlarning ustun jihatlari ilmiy asoslangan holda namoyon qilinadi.

Kalit so‘zlar: *xorijiy til, interaktiv metod, CLIL, kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, til o‘qitish, motivatsiya, innovatsion ta’lim.*

Аннотация: в условиях современной глобальной информационной среды эффективное обучение иностранным языкам рассматривается не только как важный аспект образовательной сферы, но и как один из ключевых факторов экономического, культурного и социального развития. Современные подходы, вытесняющие традиционные методы преподавания, особенно интерактивные и коммуникативные методики, способствуют повышению уровня усвоения знаний учащимися, их мотивации и интереса к изучаемому языку. В данной статье рассматривается эффективность использования интерактивных методов при обучении иностранным языкам, в частности английскому. Основное внимание уделяется таким подходам, как CLIL (интегрированное обучение предмету и языку), коммуникативная методика (Communicative Language Teaching — CLT), а также использованию цифровых платформ (таких как Kahoot, Quizlet, Padlet, Duolingo) и игровых методов. Через проведение экспериментальных занятий и сравнительный анализ контрольной и экспериментальной групп, выявляются научно обоснованные преимущества интерактивных методик.

Ключевые слова: *иностранный язык, интерактивный метод, CLIL, коммуникативный подход, цифровые технологии, обучение языкам, мотивация, инновационное образование.*

Annotation: in today’s global information society, the effective teaching of foreign languages is regarded not only as a key aspect of the educational sphere but also as a crucial factor in economic, cultural, and social development. Modern approaches, which are replacing traditional teaching methods—particularly interactive and communicative techniques—help enhance students’ academic performance, motivation, and interest in language learning. This article explores the effectiveness of using interactive methods in foreign language instruction, with a focus on teaching English. Special attention is given to the implementation of CLIL (Content and Language Integrated Learning), the communicative language teaching (CLT) approach, digital platforms such as Kahoot, Quizlet, Padlet, and Duolingo, and game-based methods. Through experimental studies and a comparative analysis of control and experimental groups, the article presents scientifically grounded advantages of interactive methodological approaches.

Key words: *foreign language, interactive method, CLIL, communicative approach, digital technologies, language teaching, motivation, innovative education.*

Kirish. XXI asrda xorijiy tillarni o‘qitish jarayoni tubdan o‘zgarishga yuz tutmoqda. Globallashuv, xalqaro aloqalarning kengayishi, texnologik taraqqiyot va mehnat bozori talablarining o‘zgarishi ta’lim tizimida yangi yondashuv va metodlarni joriy etishni taqozo etmoqda. An’anaviy grammatik tarjima, takrorlashga asoslangan uslublar tobora o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Aksincha, kommunikativ, interaktiv va muammoli ta’lim usullari til o‘rganish jarayonini yanada jonlantirib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy interaktiv metodlarning samaradorligini o‘rganish maqsadida eksperimental tadqiqot dizayni asosida ishlov berildi. Metodologiya quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Tadqiqot dizayni va ishtirokchilar tanlovi

Tadqiqot Toshkent shahridagi 2 ta umumta’lim maktabida tashkil etildi. Har bir maktabdan ikkita 9-sinf guruhi tanlab olindi:

Nazorat guruhi — an'anaviy usullar (grammatika-o'qish tarjima metodlari) asosida o'qitildi.

Tajriba guruhi — interaktiv metodlar (CLIL, CLT, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya) asosida darslar o'tildi.

Har bir guruhda 25 nafardan o'quvchi ishtirok etdi. O'quvchilar ingliz tilidan boshlang'ich darajaga (CEFR bo'yicha A2–B1) ega bo'lgan. Guruhlar tenglashtirilgan: jins, yoshi, avvalgi baholari va til darajalari nisbatan o'xshash edi.

2. Tajriba muddatlari va o'tkazilish tartibi

Tajriba 12 hafta davomida, haftasiga 3 akademik soat hajmida amalga oshirildi. Har bir haftada bir asosiy modul mavzusi (muloqot, grammatika, so'z boyligi, tinglab tushunish, yozma nutq) interaktiv usullar bilan o'rganildi.

3. Dars metodlari va vositalari

Tajriba guruhida quyidagi metodlar sinovdan o'tkazildi:

Raqamli texnologiyalar:

Kahoot – viktorinalar orqali rag'batlantirish, **Quizlet** – onlayn fleshkartlar bilan so'z yodlash, **Padlet** – jamoadagi fikrlar doskasi, **Duolingo** – mustaqil o'rganish uchun.

4. Ma'lumot yig'ish usullari

Diagnostik testlar: boshlanishda va yakunda CEFR B1 darajasiga mos testlar orqali baholandi.

So'rovnomalar: o'quvchilarning motivatsiyasi, ishtiroki va metoddan qoniqish darajasini aniqlash uchun.

Natijalar

Tadqiqot natijalari miqdoriy (quantitative) va sifatli (qualitative) ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Quyida asosiy jihatlar bo'yicha batafsil natijalar keltirilgan:

1. Akademik o'zlashtirishda farq

Ko'rsatkich→Nazorat guruhi→Tajriba guruhi

Boshlang'ich test (hafta 1)→56% (o'rtacha)→54% (o'rtacha)

Yakuniy test (hafta 12)→63%→81%

O'sish sur'ati→+7%→+27%

So'z boyligi testi→61%→84%

Nutqiy faoliyat (og'zaki)→58%→80%

Yozma nutq (composition)→60%→78%

2. Motivatsiya va darsga bo'lgan qiziqish

So'rovnomalar natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

89% tajriba guruhi o'quvchilari: "darslar qiziqarli, faol ishtirok etdim" deb javob berdi (nazorat guruhida bu ko'rsatkich 48%).

84% o'quvchi: "Bu metodlar menga mustaqil o'rganishga ilhom berdi" degan.

78% o'quvchi: "Ilgari darsdan zerikardim, endi kutaman" degan ijobiy fikr bildirgan.

Tahlil va Munozara

Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, muloqot ko'nikmalari va motivatsiyasi sezilarli darajada oshishini amaliy va nazariy jihatdan isbotladi. Tajriba guruhida qo'llanilgan CLIL, kommunikativ yondashuv, gamifikatsiya va raqamli platformalarning birgalikda qo'llanishi dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undadi.

1. Interaktiv metodlarning o'zlashtirishga ta'siri

Tajriba natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilarining yakuniy test natijalari 27% ga oshgani, ayniqsa muloqot va so'z boyligi bo'yicha keskin ijobiy siljish bo'lgani, interaktiv metodlarning samaradorligini ko'rsatadi.

2. CLIL metodikasi orqali til va kontentni birgalikda o'rganish

CLIL metodining qo'llanilishi fan va tilni integratsiyalash orqali o'quvchilarda nafaqat til kompetensiyasini, balki mantiqiy fikrlash va fanga bo'lgan qiziqishni ham rivojlantirganini ko'rsatdi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning yuqori samaradorligini amaliy tajriba asosida isbotladi. CLIL, kommunikativ yondashuv, gamifikatsiya va raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning til ko'nikmalari (og'zaki nutq, so'z boyligi, tinglab tushunish, yozma ifoda), darsdagi faolligi va motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. Zamonaviy interaktiv metodlar o'quvchilarni faol muloqotga jalb qiladi, passiv yondashuvni bartaraf etadi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. CLIL metodikasi orqali fanga oid kontentni ingliz tilida o'rganish o'quvchilarni akademik tilga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Raqamli texnologiyalar mustaqil va jamoaviy o'rganish jarayonlarini soddalashtirib, o'quvchining til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

4. Interaktiv metodlar muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun o'qituvchilar malakasini oshirish, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, va texnik infratuzilmani mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and language integrated learning. Cambridge University Press.

2. Harmer, J. (2007). The practice of English language teaching. Pearson Education.

3. Littlewood, W. (2004). The task-based approach: Some questions and suggestions. ELT Journal, 58(4), 319–326. https://doi.org/10.1093/elt/58.4.319

4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press.

5. Uzbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi. (2021). Chet tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar.

6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

7. Warschauer, M. (2013). The use of technology in teaching second language learners. TESOL Quarterly, 47(2), 345–361. https://doi.org/10.1002/tesq.118

Mashhura ISAYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
mashxuraisayeva@gmail.com

BADIIY TARJIMADA METAFORIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy tarjimada metaforik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil etiladi. Har bir metafora xalqning dunyoqarashi, tarixiy-madaniy tajribasi va mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tarjimada to‘g‘ri yetkazish tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasiga bog‘liq. Maqolada ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi metaforalarning misollar orqali ularning tarjima usullari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, ekvivalent almashtirish, deskriptiv tarjima va madaniy adaptatsiya strategiyalari yoritiladi. Tarjimonning til va madaniyatni chuqur anglash qobiliyati badiiy matnning estetik va semantik yaxlitligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, metafora, lingvomadaniy yondashuv, madaniyatlararo kompetensiya, metaforik birliklar, tarjima strategiyalari, kognitiv model, madaniy konnotatsiya, deskriptiv tarjima, metaforaning adekvat tarjimasi.*

Annotation: this article analyzes the linguocultural characteristics of metaphorical units in literary translation. Each metaphor is associated with the worldview, historical and cultural experience and mentality of the people, and their correct transmission in translation depends on the intercultural competence of the translator. The article highlights the translation methods of metaphors in English, Uzbek and Russian through examples - direct translation, equivalent substitution, descriptive translation and cultural adaptation strategies. It is emphasized that the translator’s ability to deeply understand the language and culture is of great importance in maintaining the aesthetic and semantic integrity of the literary text.

Key words: *literary translation, metaphor, linguocultural approach, intercultural competence, metaphorical units, translation strategies, cognitive model, cultural connotation, descriptive translation, adequate translation of metaphor.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурные особенности метафорических единиц в художественном переводе. Каждая метафора связана с мировоззрением, историко-культурным опытом и менталитетом народа, а их правильная передача при переводе зависит от межкультурной компетенции переводчика. В статье на примерах рассматриваются способы перевода метафор на английский, узбекский и русский языки - прямой перевод, эквивалентная замена, описательный перевод и стратегии культурной адаптации. Подчеркивается, что способность переводчика глубоко понимать язык и культуру имеет большое значение для сохранения эстетической и семантической целостности художественного текста.

Ключевые слова: *художественный перевод, метафора, лингвокультурный подход, межкультурная компетенция, метафорические единицы, стратегии перевода, когнитивная модель, культурная коннотация, описательный перевод, адекватный перевод метафоры.*

Kirish. Har bir xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzi va madaniy qadriyatlari ularning metaforik ifodalarida o‘z aksini topadi. Shu bois, badiiy tarjima jarayonida metaforalarni to‘g‘ri va adekvat tarzda tarjima qilish nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy yondashuvni ham talab etadi.

Badiiy tarjima — bu faqatgina so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish emas, balki asardagi badiiy-estetik ta’sirni, muallifni va kitobxonni individual uslubini va madaniy rang-baranglikni saqlab qolish jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan metaforik birliklar badiiy tarjimaning eng murakkab va mas’uliyatli unsurlaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarda o‘xshashlik asosida bir tushunchaning boshqasiga ko‘chirilishi mavjud bo‘lib, obrazlilik va ifodaviylikni kuchaytiradi. Metaforik birliklar esa matnda ma’no ko‘chishi orqali yuzaga kelgan barqaror yoki kontekstual obrazli ifodalarni o‘z ichiga oladi.

Metafora bu tildagi eng muhim stilistik vositalardan biri bo‘lib, u nafaqat estetik, balki kognitiv va madaniy yuklamalarga ham ega. Tarjimaning to‘g‘ri va aniqligi tarjimondan yuqori til bilimini, shuningdek tarjima qilinayotgan til va madaniyat kontekstlarini chuqur anglashni talab etadi. Mazkur maqolada badiiy

tarjimada metaforik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularni tarjima qilishdagi muammolar va tarjimon oldida turgan vazifalar tahlil qilinadi. Metafora inson tafakkurining kognitiv modeli sifatida xizmat qiladi. Lakoff va Johnson ta'kidlaganidek, "metaforalar orqali biz dunyoni anglaymiz". Metaforik ifodalar xalqning hayot tarzi, tarixiy-madaniy konteksti va milliy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq.

Masalan, ingliz tilidagi *"Time is money"* metaforasi vaqtga iqtisodiy resurs sifatida qarashni bildiradi, bu esa G'arb jamiyatlarining utilitar dunyoqarashini aks ettiradi. O'zbek tilida esa vaqt *"suvdek oqadi"*, *"vaqt davo"* kabi metaforalar orqali sabr-toqat, tajriba va vaqtning shifo beruvchi tabiati bilan bog'lanadi.

Badiiy tarjimada metaforalarning tarjima muammolarini ko'rishimiz mumkin. Metaforik birliklarni tarjima qilishda asosiy muammolardan biri – ularning **madaniy xususiyatlaridir**.Metafora faqat leksik birlik emas, balki o'ziga xos **madaniy yuklama**ga ega. Agar bu konnotatsiyalar tarjimada yo'qolsa, matnning obrazli va estetik mazmuni ham yo'qoladi.

1. Madaniy moslik muammosi. Ba'zi metaforalar faqat ma'lum bir madaniyatda mavjud bo'lib, boshqa tilda ekvivalenti bo'lmasligi mumkin**. Misol:** *"a bull in a china shop"* **–** harakatlari nojo'ya, dag'al odam. O'zbek tilida bu ma'noni to'liq qamrab oluvchi metafora mavjud emas.

2. Deskriptiv (tushuntiruvchi) tarjima.

Ba'zi metaforalar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki ularning mazmuni tushuntiriladi. **Misol:** *"He carried the weight of the world on his shoulders"*- U yelkasida dunyo og'irligini ko'targan edi. O'zbekcha ekvivalent: *"U g'am-tashvishlardan ezilib yurar edi."*

3. Diniy, tarixiy yoki folklorik metaforalar.

Bunday birliklar madaniyatga xos bo'lib, ularni tarjima qilish alohida yondashuvni talab etadi. Tarjimon badiiy matnda metaforalarni tarjima qilishda quyidagi strategiyalardan yondashuvlardan foydalana oladi:

1. **To'g'ridan-to'g'ri tarjima (literal translation)**

Metaforaning shakli saqlanadi, agar u boshqa madaniyatda ham tushunarli bo'lsa.

Misol: *"iron will"* - *"temir iroda"*.

2. **Ekvivalent metafora bilan almashtirish (cultural substitution)**

Asl metaforaning madaniy ma'nosi saqlanib, mos obraz bilan almashtiriladi. **Misol:** *"as blind as a bat"* - *"ko'rdek ko'r"*. Charles Dickens, Mark Twain, zamonaviy ingliz hikoyalari va romanlarida ko'plab uchraydi, lekin bitta konkret asarga bog'lab bo'lmaydi. Tarjima nuqtayi nazaridan badiiy tarjima uchun muhim hisoblanadi. O'zbekcha tarjimada so'zma-so'z har doim ham mos tushmaydi: So'zma-so'z: *ko'rshapalakdek ko'r* Ma'noviy mos tarjima: - *ko'zi mutlaqo ko'r*

-hech narsani ko'rmaydi

-ko'rday (kontekstga qarab)

3. **Deskriptiv tarjima (explicitation)**

Metaforaning obrazli ifodasi izohli, tarifiy shaklda beriladi.

Misol: *"black sheep"* - *"jamiyatdagi boshqalardan farq qiluvchi inson"*.

3. **Madaniy adaptatsiya (cultural adaptation)**

Metafora boshqa madaniyatga moslashtirib, yangi obraz bilan ifodalanadi. **Misol:** *"break the ice"* - *"suhbatni boshlamoq" "time flies"* - *"vaqt uchib ketadi"* - *"vaqt tez o'tadi"* Ruscha: *"Волк в овечьей шкуре"* - O'zbekcha: *"Qo'y terisini kiygan bo'ri" "Time is a thief"* - *"Vaqt o'g'ri"*

Xulosa: Badiiy tarjimada metaforik birliklarni to'g'ri tarjima qilish, tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlararo tafakkuriga ham bog'liq. Har bir metafora muayyan madaniyatda shakllanadi va uni asl kontekstidan ajratmagan holda tarjima qilish lozim. Har qanday badiiy tarjimada tarjimon quyidagi jihatlarga amal qilishi lozim. Metaforalarni adekvat tarjima qilishda mutaxassis oddiy tilga o'girish emas, balki madaniyatlararo muloqotning nozik jihatlarini to'g'ri yetkazish san'atini bilishi lozim. Metaforani saqlash — bu asarning ruhini saqlash demakdir. Lingvomadaniy kompetensiya esa tarjimon faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We live by. University of Chicago Press. (1980).
2. Abdulvahobova, Z. Tarjimashunoslik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2015.
3. Qurbonova, M.). Til va madaniyat: lingvomadaniyatshunoslik asoslari. –Toshkent. 2021
4. Newmark,P. A Textbook of Translation . Prentice Hall (1988).
5. Baker, M. In other words: A Coursbook on Translation (1992)

Gulzoda SHAMSIYEVA,
Samarqand shahar Zarmed universiteti mustaqil izlanuvchisi



XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK JADID ADABIYOTIDA VATAN OBRAZINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya:ushbu maqolada XX asr ingliz va o‘zbek adabiyotida Vatan motivining badiiy talqini qiyosiy aspektda tahlil qilinadi.Ingliz modernizmi vakillari — V. Vulf, J. Joys, J. Oruell — asarlarida Vatan shaxsiy xotira, nostalgiya, identitet inqirozi va yo‘qotilgan “uy” tushunchasi bilan bog‘liq holda talqin etilsa, o‘zbek jadid adabiyoti vakillari — Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Behbudiy, Qodiriy — ijodida esa vatanparvarlik, ozodlik, milliy uyg‘onish va mustamlaka zulmiga qarshi kurash ruhidagi badiiy konsepsiyalar markaziy o‘ringa chiqadi. Tadqiqotda ikki adabiy an’anadagi umumiyliklar va farqlar tarixiy-konseptual, psixologik va badiiy aspektlarda o‘rganilgan. Maqola Vatan obrazining modernizm va jadidchilik kontekstidagi semantik o‘ziga xosliklarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *Vatan, jadid adabiyoti, modernizm, nostalgiya, V. Vulf, J. Joys, J. Oruell, Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy, milliy uyg‘onish.*

Annotation: this article provides a comparative analysis of the artistic representation of the concept of homeland in 20th-century English and Uzbek literature. In English modernist works by V. Woolf, J. Joyce and G. Orwell, the homeland is interpreted through personal memory, nostalgia, identity crisis, and the loss of a stable “home.” In contrast, in Uzbek Jadid literature — represented by Fitrat, Cholpon, Avloni, Behbudiy and Qodiriy — the homeland appears as a symbol of national awakening, anti-colonial resistance, cultural revival, and moral responsibility. The study examines similarities and differences in both literary traditions by exploring historical, psychological, and semantic layers. The article reveals how the image of homeland functions as a key concept within both modernism and the Jadid reformist discourse.

Key words: *homeland, nostalgia, identity, modernism, Jadid literature, national awakening, anti-colonialism, Woolf, Joyce, Orwell, Cholpon, Fitrat, Qodiriy.*

Аннотация: в данной статье проводится сопоставительный анализ художественной интерпретации мотива Родины в английской и узбекской литературе XX века. В произведениях английских модернистов — В. Вулф, Дж. Джойса и Дж. Оруэлла — Родина осмысляется через призму личной памяти, ностальгии, кризиса идентичности и утраты «дома» как стабильного духовного пространства. В узбекской джадидской литературе мотив Родины выступает как идеологический и духовный центр, связанный с национальным пробуждением, борьбой против колониальной зависимости и поиском культурной самоидентификации. В исследовании выявлены общие и отличительные черты обоих литературных направлений на историческом, психологическом и семантическом аспектах.

Ключевые слова: *Родина, модернизм, джадидская литература, ностальгия, идентичность, Вулф, Джойс, Оруэлл, Чулпон, Фитрат, Кадыри, национальное возрождение.*

XX asrning birinchi yarmi ommaviy migratsiyalar, urushlar va siyosiy beqarorlik davri bo‘lib, bu jarayonlar jahon adabiyotida o‘z aksini topdi. Bu davrda Vatan va undan ayrilish mavzusi dolzarb tus oldi va yozuvchilar ijodida markaziy mavzulardan biriga aylandi. Bunda vatan obrazi nafaqat ayriliq va sog‘inch manbai, balki shaxsning o‘zini anglash mexanizmi, tarixiy tajribani, madaniy xotirani va shaxsiy mas’uliyatni idrok etishning muhim vositasi sifatida qo‘llanildi.

Chuqur tarixiy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirgan ingliz va o‘zbek adabiyotida XX asrning birinchi yarmi alohida ahamiyatga ega. Ikki adabiy an’analarda bu jarayonlar vatan tushunchasining anglanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu maqolaning maqsadi — har ikki adabiy an’anaga mansub ijodkorlar asarlarida vatan motivining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

XX asr ingliz adabiyotida vatan motivi asosan shaxsiy xotira, an’anaviy qadriyatlarning yo‘qolishi, milliy o‘zlik inqirozi va yo‘qolib borayotgan eski dunyoga nisbatan estetik sog‘inch orqali namoyon bo‘ladi. Ingliz modernizmi va undan keyingi adabiyot Viktoriya davri barqarorligining yemirilishi bilan yuzlashar ekan, “uy” obraziga insonning ichki dunyosini asrab qoluvchi so‘nggi boshpana sifatida

murojaat qiladi[1]. O‘zbek adabiyotida — vatan motivi milliy uyg‘onish jarayonlari, madaniy va siyosiy o‘zini anglash uchun kurash, mustamlaka va postmustamlaka tafakkuri hamda milliy xotirani muqaddaslashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Jadid she’riyatidan tortib postsovet adabiy an’anasigacha bo‘lgan davrda vatan obrazi faqat hissiy tushuncha, balki mafkuraviy, ijtimoiy va ma’naviy yo‘nalishni belgilovchi asosiy timsollardan biriga aylandi[2].

Virdjiniya Vulfning “Mayoq tomon[3]” (“To the Lighthouse”) (1927) romanida xotira va vaqtning murakkab modeli yaratilgan bo‘lib, unda uy va mayoq makoni markaziy ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda Gebrid orollaridagi Remzi oilasining uyi o‘tmishni ifodalovchi ruhiy vatan sifatida tasvirlangan. Uy, ya’ni kishik vatan bolalik taassurotlari va amalga oshmagan orzular bilan uyg‘unlashadigan maskandir. Vulf tushunchasi bo‘yicha, vatan — bu xotiralar orqali yaratiladigan ong oqimi. Uning asarida vatan olislarda qolgan bolalik dunyosi, ruhiyatning ichki makoni, o‘zgaruvchan dunyoda barqarorsizlikni ifodalaydi. Romandagi Vatan sog‘inchi refleksiv xarakterga ega bo‘lib, u o‘tmishni tiklashga emas, balki yo‘qotishlarni va ularning shaxsga ta’sirini anglashga qaratilgan.

Asli Irlandiyalik bo‘lishiga qaramasdan ingliz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri sifatida e’tirof etiladigan Jeyms Joys muxojirlikda umr kechirgan yorqin adiblardan biri hisoblanadi. U 1904-yilda Irlandiyani tark etganidan so‘ng, 1912-yildan keyin vatanga qaytmadi va umrining oxiriga qadar xorijda yashadi[4]. Joysning vatani bilan munosabati chuqur ambivalent xarakterga ega edi. Bir tomondan, u irland jamiyatini konservatizmi, riyokorligi va tor millatchiligi uchun keskin tanqid qilgan. Uning “San’atkorning yoshlikdagi portreti[5]” (“A Portrait of the Artist as a Young Man”) romanida qahramonlardan biri Irlandiyani “o‘z bolalarini yutib yuboradigan qari cho‘chqa[6]”, deb ataydi. Boshqa tomondan u doimo Vatan sog‘inchi bilan yashagan. Uning badiiy va ma’anaviy olami umrining oxirigacha doimo Dublin bilan birga bo‘lgan. Joys Parijda istiqomat qilganida, u yurtidan kelgan mehmonlarni izlab topar va ulardan Dublin ko‘chalari haqida so‘zlab berishni so‘rar edi. Garchi u yurtini tark etgan bo‘lsa-da, u uyidan minglab mil masofada yashagan bo‘lsa-da, umr bo‘yi qalban hech qachon Vatanidan uzoqlashmagan[7].

Jorj Oruellning (haqiqiy ismi Erik Artur Bler) “Nafas olish[8]” (“Coming Up for Air”) (1939) romanida boshqa turdagi sog‘inch — ijtimoiy-tanqidiy sog‘inch namoyon bo‘ladi. Asar qahramoni Jorj Bouler o‘z ona yurtiga qaytib, o‘tmish bilan aloqani tiklashga urinadi, ammo u tug‘ilib o‘sgan maskan endi unga tegishli emasligini anglaydi. Barcha narsa o‘zgargan — o‘rmonlar kesib tashlangan, dalalarda qurilish, uning sevimli ko‘li quritilib chiqindi maydoniga aylantirilgan edi. Asar ramziy yo‘qotilgan, biroq dushman bosqini arafasida turgan Angliya haqida so‘zlaydi. Britaniya samolyotidan tasodifan tushib ketgan bombaning portlashi kutilayotgan urushning qo‘rqinchli ramziga aylanadi. Romanda Oruell vatan obrazini uch davr kesimida shakllantiradi. Ya’ni, qahramonning yoshligi o‘tgan sokin, tabiiy go‘zalikka boy “Eski Angliya” bilan urbanizatsiya, sanoat inqilobi va kapitalizm ta’siridagi Angliya qiyoslanishi bilan bir qatorda, kelajak — yaqinlashib kelayotgan daxshatli urush nafasi va Vatanning vayron qilinishi haqidagi xavotirlar asarning asosiy motivlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, “yo‘qotilgan” vatan motivi vatanning kelajakdagi taqdiri haqidagi o‘ylar bilan qorishib ketadi.

Ikkinchi jahon urushi davri adabiyoti kontekstida J. Oruellning vatan haqidagi talqini alohida qiziqish uyg‘otadi. U vatanni murakkab hamjamiyat sifatida ko‘radi — unda ijtimoiy qarama-qarshiliklar va chuqur emotsional birlik bir vaqtning o‘zida ustuvorlik qiladi. U o‘zining “Angliya, sening Angliyang[9]” essesida Angliyani “keksalar va nodonlar tomonidan boshqariladigan, snobizm va (faqat ayrimlar uchun) imtiyozlar mamlakati” sifatida baholar ekan, ayni paytda uning “emotsional birlikka ega ekanligini, og‘ir sinovlar vaqtida aholining deyarli barcha qatlamlari og‘ir sinov pallalarida bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi”ni alohida ta’kidlaydi. U millatning haqiqiy kuchi — urushlar ham, tashqi bosim ham yo‘q qila olmaydigan madaniy va ma’naviy ruhni saqlab qolishida namoyon bo‘lishini qayd etadi. Vatan geografik hudud yoki elitar an’ana sifatida emas, balki kundalik hayot, xalqona odatlar, jamoaviy xotira va umumiy tarix majmui sifatida talqin etilganda — ma’nodoshlik jihatidan kolonial va postkolonial milliy uyg‘onish davri adabiyotlariga, jumladan Turkiston

1 Moran J. Housing, memory and everyday life in contemporary Britain // (maqola). — 2004. — [Elektron resurs].— URL https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/0950238042000232253?utm (murojaat etilgan sana: 05.12.2025). // Girouard M. Life in the English Country House: A Social and Architectural History. — New Haven; London: Yale University Press, 1978. — 344 p.

2 Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2008. — 599 b.

3 Woolf V. To the Lighthouse. — London: Penguin Books, 2000. — 320 p.

4 Traynor J. James Joyce, the emigrant who left Dublin in body but not in mind // The Irish Times, June 14, 2017 — URL: https://www.irishtimes.com/life-and-style/abroad/james-joyce-the-emigrant-who-left-dublin-in-body-but-not-in-mind-1.3119627 (murojaat etilgan sana: 06.12.2025).

5 Joyce J. A Portrait of the Artist as a Young Man. London: The Egoist Ltd., 1916.— 299 p.

6 Joyce J. A Portrait of the Artist as a Young Man. London: The Egoist Ltd., 1916.— P. 135 — 299 p.

7 Traynor J. James Joyce, the emigrant who left Dublin in body but not in mind // The Irish Times, June 14, 2017 — URL: https://www.irishtimes.com/life-and-style/abroad/james-joyce-the-emigrant-who-left-dublin-in-body-but-not-in-mind-1.3119627 (murojaat etilgan sana: 06.12.2025).

8 Orwell G. Coming Up for Air. — London: Victor Gollancz, 1939. — 237 p.

9 Оруэлл Дж. Англия, твоя Англия (пер. Голышев В. П.) // Оруэлл Дж.: «Лев и Единорог: эссе, статьи, рецензии». — Москва: АСТ, 2023. — С. 96–125. — ISBN 978-5-17-118797-2.

xalqlari adabiy an'analarida uchraydigan qarashlarga ham yaqin turadi.

Ingliz adabiyotidan farqli o'laroq, kolonial tuzim mustamlakasiga aylanib qolgan XX asr o'zbek adabiyotida vatan motivi milliy uyg'onish, madaniy va siyosiy o'zini anglash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asosiy mavzulardan biriga aylandi. Bu mavzu XX asr o'zbek adabiyotida nafaqat hissiy, balki mafkuraviy, ijtimoiy va ma'naviy yo'nalishni belgilovchi asosiy timsol hisoblanadi. Asr boshlarida shakllangan jadid adabiyotida vatan motivi ko'proq ma'rifiy va milliy uyg'onish kontekstida ifodalanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi jadidchilar ijodida vatan tuyg'usi xalqni ma'rifatga boshlash va mustamlaka zulmiga qarshi turish bilan chambarchas bog'liq edi. Bu adabiyot vakillari vatanni, xalqning ruhiy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi timsol sifatida tasvirlaydilar[10]. Sog'inch, madaniy cheklovlar va kolonial zulm hislari bilan bir qatorda jaded shoirlarining lirikasida umid, yorqin kelajakka ishonch, milliy uyg'onish, tarixga nazar kabi motivlar namoyon bo'ladi.

Jadidlar nafaqat XX asr, balki undan keyingi davr o'zbek adabiyotining, balki yangi davr adabiyotining yo'lboshchilari desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davrda yozilgan "Go'zal", "Xalq", "Kishan!", "Buzilgan o'kaga", "Go'zal Tirkiston" (Cho'pon), "Mirriz yulduziga", "Yana yondim", "O'gut", "Yurt qayg'usi" (Fitrat) kabi she'rlar Vatan taqdiri uchun tashvish, uning boy tarixi va ulug' o'tmishi, betakror go'zal tabiati bilan faxrlanish tuyg'usi bilan bir qatorda zalolatga qarshi va Vatan ozodligi uchun kurashga da'vat etadi. Masalan, Cho'lpon "Kishan![11]" (1922) she'rida kishanlar qullikni ifodalovchi ramziy obrazga aylantirsa, Fitrat "Yurt qayg'usida[12]" to'g'ridan-to'g'ri shonli tarix, Temur va Chingiz shaxslariga murojaat qiladi va o'z zamondoshlaridan ham shunday jangovar qat'iyat, milliy ruh va jasoratni talab qiladi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" (1933-1934) romani XX asr boshidagi o'zbek adabiyotida milliy uyg'onish, ozodlik, ma'rifat va vatanparvarlik g'oyalarini eng mukammal badiiy shaklda ifodalagan asarlardan biridir. Roman bir qarashda sevgi voqealari, ijtimoiy muhit va tarixiy ziddiyatlar tasviri bo'lib ko'rinsa-da, uning ichki g'oyaviy yadrosida Vatan — xalq, milliy o'zlik, ozodlik uchun kurash timsoli turadi. Asarda Vatan motivi bir necha qatlamda badiiy talqin qilinadi: insoniy muhabbat, ijtimoiy adolatsizlik, tarixiy zulmat va milliy uyg'onish mavzulari aynan Vatan tasavvuri orqali bir-biriga ulanadi. Asardagi tasvirlarda "kecha" — millatning zulmatli holatini ifoda etsa, yozilmay qolingan "kunduz" esa uyg'onish, ozodlik, ma'rifatning boshlanishi sifatida metaforik talqin qilinishi rejalashtirilgan edi[13]. Cho'lpon mustamlaka bosimi, savodsizlik, mahalliy amaldorlarning zulmi va xalqning beboshligidan iborat "o'g'riy jamiyat"ni tasvirlash orqali Vatanning ichki jarohatini ko'rsatadi. Bu jarayonlarda adib jamiyatning yo'qotgan ma'naviy tayanchi, adolatsizlik, kelajakka haqidagi tashvishlar orqali Vatanning "tanasi"ni jarohatlangan, zaiflashgan shaklda ko'rsatadi. Bu jarohatlar faqat zulmning natijasi emas, balki millatning o'z ichidagi zaifliklar — qo'rqoqlik, jaholat, tarqoqlik bilan ham bog'liq. Shu jihatdan asarda Vatan motivi milliy tanqid va o'z-o'zini anglash vazifasini bajaradi.

Asarning nomi Vatan holatini metaforik tarzda ifodalaydi. Bunda "Kecha" – jaholat, zulm, erksizlik va ma'naviy mudroq holatni aks ettirsa, "Kunduz" – uyg'onish, milliy ong va ozodlikka intilishning boshlanishini ifodalashi kerak edi. Bu dualizm orqali Cho'lpon o'zbek xalqining XX asr boshidagi umumiy holatini badiiy talqin qiladi. Vatan motivi shu orqali tarixiy jarayonlarni tushuntiruvchi konseptual metaforaga aylanadi. Romanda Zebi ustidan qilinayotgan zulmlar, uning erkin yashay olmasligi, taqdirining boshqalar tomonidan hal qilinishi — bu Vatanning mustamlaka davridagi holatining ramziy ifodalaydi. Shu sababli Zebi obrazida ham Vatan timsolini ko'rish mumkin. Adib o'z asarida Vatan motivini psixologik, ijtimoiy va tarixiy darajada uyg'unlashtirib bergan. "Kecha va Kunduz" XX asr boshidagi o'zbek milliy ongining eng yuksak badiiy hujjatlaridan biriga aylantiradi.

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar[14]" romanida Otabek va Kumush muhabbati fonida o'tkan kunlarga murojaat etib, yurtning tanazzulga yuz tutishi sabablarini izlaydi. Qodiriy uchun O'zbekiston — tarixiy Turon o'lkasining vorisi, ammo XIX asrda vujudga kelgan siyosiy bo'linish, ichki nizolar va jaholat tufayli tanazzulga yuz tutgan makondir. Asarda Qo'qon xonligi davridagi ichki nizolar, mahalliy beklarning manfaatparastligi va xalqning ezilishi Vatan tanazzulining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Otabek obrazi millatni uyg'otishga intilgan fidoyi yosh avlod timsoli bo'lib, uning orzu-ideallari taraqqiy etgan, adolatli, mustahkam Vatan g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Asar so'ngida Kumushning o'limi, Zaynabning aqldan ozishi, Otabekning Vatan ozodligi uchun ruslarga qarshi urushda halok bo'lishi esa millatning va kelajakning parokandalikka yuz tutishini anglatadi. Asarda Vatan xalqning qanday bo'lganini va nimalarni yo'qotganini eslatib turuvchi tarixiy ustozga aylanadi.

XX asr boshlarida ingliz va o'zbek adabiyotida

10 Xudayberdiyev A. The Artistic Concepts of "Nation" and "Homeland" in Uzbek Literature of the 20–30s of the 20th Century // SHS Web of Conferences. – 2024. – Vol. 195. – Art. 01002. – P. 1–6. – 6 p.

11 Чўлпон Абдулҳамид "Ойдан-да гўзал". Шеърдар // "Андижон" нашриёти 1997. — Б. 26 — 80 б.

12 Abdurauf Fitrat Yurt qayg'usi (She'rlar) [Elktron resurs]: — URL: https://books.yandex.uz/books/PXp8xWQq/read-online (Murojaat etilgan sana: 09.12.2025)

13 Kecha va Kunduz Asari Haqida Chuqur Tahlil [Elektron resurs] — URL: https://ithy.com/article/kecha-kunduz-article-0b9012cf (murojaat etilgan sana: 09.12.2025)

14 Qodiriy A. O'tkan kunlar. — Toshkent: Sharq, 2018. — 384 b.

vatan motivining talqini ikki xalqning murakkab tarixiy taqdiri, ijtimoiy o‘zgarishlari va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllandi. Bunda ingliz adabiyoti kapitalizmning avj olishi va “eski Angliya”ning yo‘qotilishi asosiy o‘rinda bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida Vatan kelajagi uchun millatni uyg‘otish, ma’rifatparvarlik va kolonializm tuzumga qarshi kurash motivlari markaziy o‘ringa chiqadi.

Ingliz adabiyoti namoyandalari — V. Vulf, J. Oruell, J. Joys kabi yozuvchilar uchun Vatan, avvalo, shaxsiy xotira va ruhiy barqarorlik bilan bog‘langan ma’naviy makon sifatida namoyon bo‘ladi. “Mayoq tomon” romanida V. Vulf uy va orol mayoqini insonning ruhiy dunyosi, bolalik xotiralari va vaqt oqimida yo‘qolib borayotgan barqarorlik timsoliga aylantiradi. J. Joys uchun Vatan — murakkab, ziddiyatli tushuncha, u Vatanidan uzoqda bo‘lsa-da, uni hech qachon tark etmaydi. J. Oruell ijodida esa Vatan ijtimoiy buzilish, urbanizatsiya va kapitalistik modernizatsiya bosimi ostida yo‘qolib borayotgan “Eski Angliya” obrazida gavdalanadi. Ingliz adabiyotida Vatan ko‘pincha individual ruhiy kechinmalar, yo‘qotishlar, nostalgiya va identitet inqirozining markaziga aylanadi.

O‘zbek adabiyotida Vatan timsoli muhim ijtimoiy-mafkuraviy yukni o‘z zimmasiga oladi. Jadid adabiyoti namoyandalari — Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Behbudiy, Qodiriy kabi yozuvchilar uchun Vatan obrazini yaratish milliy uyg‘onish, ozodlik, ma’rifat va o‘zlikni anglash g‘oyalari bilan uzviy bog‘lanadi. Cho‘lponning “Kishan!”, “Go‘zal Turkiston”, Fitratning “Yurt qayg‘usi”, Qodiriyning tarixiy romanlaridagi fojiali lavhalar — barchasida Vatan xalqning ozodligi, mas’uliyati va tarixiy xotirasi bilan birgalikda talqin qilinadi. Vatan tasviri adabiyotda nafaqat estetik obraz, balki milliy tafakkurni uyg‘otuvchi, xalqni birlashishga chorlovchi ma’naviy omilga aylanadi.

Har ikki adabiyotda Vatan obrazining umumiy jihati shundaki, u inson hayoti, ruhiy olami va tarixiy kechinmalarini birlashtiruvchi markaziy tushunchaga aylangan. Ingliz adabiyotida Vatan individual xotira va nostalgiya bilan chambarchas bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida u jamiyatning kelajagi, ozodlik, ma’naviy uyg‘onish va tarixiy mas’uliyat bilan o‘lchanadi. Vatan tushunchasi har ikki adabiy an’ana uchun insonning ma’naviy mohiyatini belgilovchi, tarixiy xotirani shakllantiruvchi, jamiyatni birlashtiruvchi eng muhim badiiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois XX asr boshidagi ingliz adabiyoti ham, o‘zbek jadid-adabiy uyg‘onishi ham Vatan motivi orqali o‘z davrining eng dolzarb masalalarini badiiy talqin qilishga erishgan, bu esa mazkur mavzuni qiyosiy tadqiqot uchun qimmatli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat, A. Yurt qayg‘usi (She’rlar). — [Elektron resurs]. — URL: https://books.yandex.uz/books/PXp8xWQq/read-online (murojaat etilgan sana: 09.12.2025).

2. Kecha va Kunduz asari haqida chuqur tahlil. — [Elektron resurs]. — URL: https://ithy.com/article/kecha-kunduz-article-0b9012cf (murojaat etilgan sana: 09.12.2025).

3. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. — Toshkent: Sharq, 2018.384-bet.

4. Qosimov, B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.599-bet.

5. Xudayberdiyev, A. The Artistic Concepts of “Nation” and “Homeland” in Uzbek Literature of the 20–30s of the 20th Century // SHS Web of Conferences. — 2024. — Vol. 195. — Art. 01002. — P. 1–6.

6. Cho‘lpon, A. “Oydan-da go‘zal”. She’rlar // Andijon nashriyoti. — Andijon, 1997.26–80-bet.

7. Girouard, M. Life in the English Country House: A Social and Architectural History. — New Haven; London: Yale University Press, 1978. — 344 p.

8. Joyce, J. A Portrait of the Artist as a Young Man. — London: The Egoist Ltd., 1916. — 299 p.

9. Joyce, J. A Portrait of the Artist as a Young Man. — London: The Egoist Ltd., 1916. — P. 135; 299 p.

10. Moran, J. Housing, memory and everyday life in contemporary Britain // Cultural Studies. — 2004. — [Elektron resurs]. — URL: https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/0950238042000232253?utm (murojaat etilgan sana: 05.12.2025).

11. Orwell, G. Coming Up for Air. — London: Victor Gollancz, 1939. — 237 p.

12. Traynor, J. James Joyce, the emigrant who left Dublin in body but not in mind // The Irish Times. — 14 June 2017. — [Elektron resurs]. — URL: https://www.irishtimes.com/life-and-style/abroad/james-joyce-the-emigrant-who-left-dublin-in-body-but-not-in-mind-1.3119627 (murojaat etilgan sana: 06.12.2025).

13. Woolf, V. To the Lighthouse. — London: Penguin Books, 2000. — 320 p.

14. Оруэлл, Дж. Англия, твоя Англия / пер. В. П. Голышев // Оруэлл Дж. Лев и Единорог: эссе, статьи, рецензии. — Москва: АСТ, 2023. — С. 96–125. — ISBN 978-5-17-118797-2.

Umida KARIMOVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

HARBIY OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI O‘QITISH JARAYONINI KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada harbiy oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda konstruktivistik yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Dewey, Piaget va Vygotsky tomonidan ilgari surilgan konstruktivistik g‘oyalar harbiy talabalarda kommunikativ, pragmatik va strategik kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Maqolada konstruktiv yondashuvning an’anaviy metodlardan farqlari va uning real harbiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari konstruktiv yondashuv harbiy ta’limda talabalarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va real muloqotga tayyorligini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *konstruktivizm, harbiy ta’lim, ingliz tili o‘qitish, pragmatik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, talaba-faolligi*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы конструктивистского подхода в преподавании английского языка в высших военных образовательных учреждениях. Идеи Дьюи, Пиаже и Выготского рассматриваются с точки зрения развития у курсантов коммуникативной, прагматической и стратегической компетенций. В статье раскрываются отличия конструктивистского подхода от традиционных методов обучения, а также его эффективность в формировании навыков использования английского языка в реальных военных ситуациях. Результаты исследования показывают, что конструктивистский подход усиливает активность обучающихся, способствует развитию самостоятельного мышления и повышает готовность к реальной коммуникации.

Ключевые слова: *конструктивизм, военное образование, преподавание английского языка, прагматическая компетенция, коммуникативный подход, активность обучающихся*

Annotation: this article examines the theoretical foundations of the constructivist approach to teaching English in higher military educational institutions. The ideas of Dewey, Piaget, and Vygotsky are analyzed in relation to the development of communicative, pragmatic, and strategic competences among military cadets. The study highlights the differences between constructivist and traditional teaching methods and evaluates the effectiveness of constructivism in preparing learners to use English in real military contexts. The findings demonstrate that the constructivist approach enhances learner engagement, strengthens independent thinking, and improves readiness for authentic communication.

Key words: *constructivism, military education, English language teaching, pragmatic competence, communicative approach, learner engagement*

Kirish. Harbiy sohaga yo‘naltirilgan ingliz tili ta’limi davlat mudofaa tizimining muhim komponentlaridan biridir. Zamonaviy harbiy operatsiyalar, ko‘p millatli tinchlikparvar missiyalar, NATO standartlari asosidagi qurolli kuchlar bilan o‘zaro hamkorlik va taktik boshqaruv jarayonlari harbiy xizmatchidan yuqori darajadagi ingliz tili kompetensiyasini talab qiladi.

An’anaviy grammatik-tarjima metodlari harbiy bo‘linmalar uchun zarur bo‘lgan real muloqot, qisqa buyruqlar, tezkor taktik tahlil, operativ axborot almashinuvi kabi faol kompetensiyalarni shakllantira olmaydi. Shu sababli konstruktivistik o‘qitish modeli harbiy ta’lim ehtiyojlariga eng mos tushuvchi nazariy asos sifatida ko‘rilmoqda, chunki u o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol, mustaqil qaror qabul qiluvchi professionallikka tayyorlaydi [1].

Metodologiya

Maqolada:

- konstruksionizmga oid ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish
- Dewey (1916), Piaget (1973), Vygotsky (1978) nazariyalariga tayangan holda konseptual tahlil
- harbiy ta’lim muassasalari uchun moslashtirilgan nazariy xulosalar chiqarish

metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy xarakteri sababli empirik eksperimentlar o‘tkazilmadi; asosiy e’tibor nazariy konsepsiyalarni harbiy ta’lim kontekstiga moslashtirishga qaratildi. Konstruktivizm o‘qitish jarayonida bilimning tayyor shaklda berilmasligini, aksincha, o‘quvchi tomonidan faol ravishda qurilishini ta’kidlaydi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, har bir yangi bilim o‘zlashtirilgan bilimlar tizimi bilan integratsiyalashadi yoki qayta tuziladi — bu jarayon o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi [2]. Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizmi esa bilimning shakllanishi muloqot, hamkorlik va “yaqin rivojlanish zonasi” fenomeni orqali yuz berishini asoslaydi [3]. Bu aynan harbiy ta’lim uchun mos, chunki harbiy jarayonlarning ko‘pchiligi guruhlarda, qo‘mondon–bo‘linma muloqoti orqali amalga oshadi.

Deweyning tajriba asosidagi o‘rganish g‘oyasi esa bilimni real faoliyatdan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi: harbiy kontekstda bu – mashg‘ulot poligonlari, taktik simulyatorlar, radiomuloqot trenajyorlari orqali amalga oshadigan faol o‘rganishdir [4].

Natijalar (nazariy tahlil)

Konstruktivizmga ko‘ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchi o‘z tajribasiga tayangan holda ma’noni quradi (Piaget, 1973). Vygotsky (1978) esa bilimning ijtimoiy xususiyatini, ya’ni muloqot orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Dewey (1916) esa o‘rganishni real tajriba bilan bog‘lash zarurligini qayd etadi.

Harbiy kontekstda konstruktivizm quyidagi ustunliklarni ta’minlaydi:

1. Real vaziyatlar asosida o‘qitish: taktik topshiriqlar, radiomuloqot, buyruqlarni yetkazish.
2. Faol o‘rganish: o‘quvchi tinglovchi emas, balki muammo yechuvchi bo‘ladi.
3. Pragmatik kompetensiya rivoji: aniq buyruq berish, qisqa va ravon muloqot.
4. Strategik kompetensiya: kutilmagan vaziyatlarda til bilan ishlash qobiliyati.
5. Jamoada ishlash: o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi va fikr almashadi

An’anaviy metod	Konstruktivistik yondashuv
Grammatika va tarjima markazida	Ma’no yaratish va vaziyatga mos til ishlatish
O‘qituvchi markazda	O‘quvchi markazda
Passiv eshitish	Faol ishtirok, muammo yechish
Sinov uchun tayyor bilim	Real vaziyatda qo‘llash uchun kompetensiya

Bu farqlar harbiy ta’lim talabalari uchun ayniqsa dolzarb, chunki ularning muloqot vazifalari tezkor, aniq va real sharoitga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Muhokama.

Harbiy oliy ta’limda konstruktivistik yondashuvning qo‘llanishi quyidagi afzalliklarni beradi:

- Vaqt bosimi ostida muloqot qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.
- Real vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish imkoniyati kengayadi.
- Buyruq, hisobot, radiomuloqot kabi professional janrlar tabiiy o‘rganiladi.
- O‘quvchilar mustaqil strategiyalar ishlab chiqadi, bu esa harbiy xizmat uchun hal qiluvchi ko‘nikma.

Biroq, bu yondashuvni joriy etish uchun o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash, o‘quv materiallarini qayta ishlab chiqish va sinfdagi faol metodlarni kengaytirish zarur.

Xulosa. Konstruktivistik yondashuv harbiy oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun samarali nazariy asosdir. U talabalarda kommunikativ, pragmatik va strategik kompetensiyalarni rivojlantiradi, o‘quv jarayonini real harbiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi va mustaqil hamda faol o‘rganishga sharoit yaratadi. Ushbu yondashuvni ta’lim jarayoniga izchil kiritish harbiy kadrlarning professional til tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, konstruktivistik yondashuvga tayangan darslar talabalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodiy yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Haqiqiy simulyatsiyalar, rolli o‘yinlar, harbiy mashg‘ulotlarga o‘xshash kommunikativ vaziyatlar va autentik materiallar bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qiladi hamda o‘rganuvchilarning kasbiy til tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Ushbu metodni harbiy oliy ta’lim jarayoniga izchillik va tizim asosida qo‘llash kelajakdagi harbiy mutaxassislar uchun yuqori darajadagi lingvistik, madaniy, operativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Bu esa zamonaviy harbiy sohada xalqaro hamkorlik, ko‘p millatli missiyalar va tezkor aloqa ehtiyojlariga mos keladigan kadrlar tayyorlash imkoniyatini taqdim etadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism//Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9. 4.

2. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabularyforefl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T.3.–№.4.–C.1 Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325

3. Umida, Karimova. “The Role of Teaching Compounds According to Types of SpeechinConstructivism.” Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 8 (2022): 4-9. Retrieved from ISSN: 2795-739X.

4. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. –2021.– T. 9. – №. 12. – C. 367-369.

5. Karimova, U. (2024). Role of a Teacher in a Constructivist Classroom. Ekonomika i Sotsium.

6. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabularyforefl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T.3.–№.4.–C.1-Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325

Nasiba IRGASHEVA,
Andijon davlat texnika instituti
Tillar va gumanitar fanlar kafedrasining katta o‘qituvchisi

MADANIY ME’YORLAR VA TIL BIRLIKLARINING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KOGNITIV TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi madaniy me’yorlar va kognitiv kategoriyalar tahlil qilinadi. Til madaniyatning qadriyatlari va odatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Madaniy va lingvistik tafovutlar misollar orqali ochib beriladi, tenglama yo‘q so‘zlar, metaforalar va diniy-ta’limiy ifodalar tahlil qilinadi. Maqola tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot uchun qimmatli tushunchalarni beradi.
Kalit so‘zlar: *til, madaniy me’yorlar, kognitiv kategoriyalar, tarjima, metafora, madaniyatlararo muloqot.*
Annotation: this article analyzes cultural norms and cognitive categories in Uzbek and English languages. Language is examined as a tool reflecting cultural values and practices. Cultural and linguistic differences are illustrated through examples, including untranslatable words, metaphors, and religious expressions. The study provides valuable insights for translation theory and intercultural communication.
Key words: *language, cultural norms, cognitive categories, translation, metaphor, intercultural.*
Аннотация: в статье анализируются культурные нормы и когнитивные категории в узбекском и английском языках. Язык рассматривается как средство отражения ценностей и практик культуры. Культурные и лингвистические различия демонстрируются через примеры, включая непереводимые слова, метафоры и религиозные выражения. Работа представляет ценные материалы для теории перевода и межкультурной коммуникации.
Ключевые слова: *язык, культурные нормы, когнитивные категории, перевод, метафора, межкультурная коммуникация.*

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy me’yorlar va kognitiv kategoriyalarni aks ettiruvchi oynadir. Til orqali biz nafaqat atrofimizdagi dunyoni idrok qilamiz, balki uning shakllanishiga o‘z hissamizni qo‘shamiz. Har bir jamiyat o‘z tarixiy, ijtimoiy va tabiiy sharoitlari ta’sirida tilni shakllantiradi, natijada tilning o‘ziga xos ifodalari va iboralari paydo bo‘ladi[1]. Bu jarayon tilning leksikasi, grammatikasi va hatto pragmatikasi darajasida ham o‘z aksini topadi. O‘zbek va ingliz tillari buning yorqin misollarini beradi. Ular madaniy me’yorlarning til orqali qanday namoyon bo‘lishini, shuningdek, kognitiv kategoriyalarning lingvistik fikrlashni qanday shakllantirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu tahlil nafaqat til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yoritadi, balki tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqotda muhim tushunchalarni taqdim etadi.

Madaniy me’yorlar – bu jamiyat ichidagi xatti-harakat va fikrlashni tartibga soluvchi, odatlar va an’analar majmui hisoblanadi. Til bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan madaniy me’yorlar nafaqat nimani aytish, balki qanday aytishni ham belgilaydi. Misol uchun, o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik muhim qadriyat sifatida ajralib turadi. “Uyga kelgan mehmon – xudoning ne’mati” iborasi nafaqat mehmonlarga nisbatan hurmat va ehtiromni ifodalaydi, balki jamiyatdagi umumiy qadriyatlarni ham ko‘rsatadi. Bu qadriyatlar tilga nafaqat iboralar, balki maxsus mehmondo‘stlik bilan bog‘liq so‘z boyligi (masalan, “mehmon o‘tqazish”, “qizil korjoma” kabi tushunchalar) sifatida ham singib ketgan**.** Shu bilan birga, ingliz tilida individualizm va shaxsiy mas’uliyatni aks ettiruvchi iboralar keng tarqalgan. Masalan, “Stand on your own two feet” iborasi shaxsiy mustaqillikni, o‘z ishining javobgarligini qabul qilishni targ‘ib qiladi[2]. Bu misollar tilning madaniy kontekstga qanchalik bog‘liqligini ochib beradi.

Tarjima jarayonida tilning madaniy xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ba’zi so‘zlar yoki iboralar boshqa tilga to‘liq tarjima qilinmaydi va ularni “tenglama yo‘q so‘zlar” deb atash mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi “mehmonxona” tushunchasi ingliz tilida faqat “guesthouse” yoki “hotel” orqali qisman ifodalanadi, chunki o‘zbek madaniyatidagi mehmondo‘stlik konsepsiyasi ingliz madaniyatidagi mehmon kutish tushunchasidan farq qiladi. Bunda mehmonning uy a’zolari darajasidagi qadrlanishi va unga ko‘rsatiladigan nafaqat xizmat, balki samimiy g‘amxo‘rlik hissi muhim rol o‘ynaydi. Tarjimon shu holatda transkripsiya, transliteratsiya yoki kalka orqali eng mos ifodani tanlashi kerak. San’atiy tarjimada esa so‘zning o‘zi “qurilish materiali” sifatida xizmat qiladi, chunki u lingvistik va madaniy nozikliklarni yetkazishda markaziy ahamiyatga ega[3].

Kognitiv kategoriyalar odamlarning tajriba va hodisalarni qanday talqin qilishini shakllantiradi. Ular madaniy kontekstga bog‘liq bo‘lib, lingvistik ifodalar uchun asos yaratadi. Masalan, vaqt tushunchasi

o‘zbek tilida ko‘pincha tabiiy tsikllar bilan bog‘lanadi, bu dehqonchilik madaniyati ta’sirini aks ettiradi: “Vaqt xudoning qoshida shoshilmaydi.” Bu ibora vaqtni inson faoliyatidan mustaqil, tabiiy va muqaddas tsikl sifatida qabul qilishni ko‘rsatadi. Bunday nuqtayi nazar vaqtni loyiha va rejalarga bo‘lishdan ko‘ra, uning o‘z oqimi va tabiiyligini e’tirof etishga asoslangan. Ingliz tilida esa vaqt tushunchasi chiziqli va o‘lchovli tarzda talqin qilinadi, bu esa sanoat va kapitalistik tizimlar bilan uyg‘unlashadi: “Time is of the essence.” Bu esa samaradorlik, rejalashtirish va vaqtni resurs sifatida boshqarish tamoyillarini oldinga suradi. Shu tariqa, o‘zbek va ingliz tillari bir xil tushunchani – vaqtni – turlicha kognitiv va madaniy kontekstda ifodalaydi.

Ijtimoiy masofa va hurmat tushunchalari ham madaniy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilida ijtimoiy iyerarxiya fazoviy metaforalarga ta’sir qiladi: “Katta bilan masofa saqlash kerak” degan ibora hurmat va hokimiyatga ehtiromni ko‘rsatadi. Bu yerda “masofa” nafaqat jismoniy, balki nutqiy va xatti-harakatdagi ehtiromli chegaralarni ham anglatadi. Ingliz tilida shaxsiy fazo tushunchasi individual huquqlarga bog‘liq: “Give me some breathing room” iborasi shaxsiy chegaralarni ta’kidlaydi. Bu shaxsiy makon va qaror qabul qilish erkinligining daxlsizligi tamoyilini aks ettiradi. Shu misollar ko‘rsatadiki, ijtimoiy masofa va hurmat tushunchalari til orqali turli madaniy kontekstlarda turlicha ifodalanadi[4].

O‘zbek va ingliz matnlari va iboralari kognitiv va madaniy tizimlarni tushunishda “madaniy oynalar” vazifasini bajaradi. Masalan, o‘zbek matnlarida: “Yaxshi do‘st umr yo‘ldosh” iborasi uzoq muddatli munosabatlar va umumiy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu ibora hamkorlik, sadoqat va hayotiy yo‘lda hamrohlik g‘oyasini uyg‘otadi. Ingliz tilida esa amaliy va harakatga yo‘naltirilgan dunyoqarashni ifodalovchi iboralar keng tarqalgan: “The early bird catches the worm.” Bu esa faollik, tayyorgarlik va raqobatbardoshlikni qadrlashni ko‘rsatadi. Metaforalar orqali kognitiv kategoriyalar fikrni shakllantiradi. Ba’zi metaforalar umumiy bo‘lsa, boshqalari faqat madaniy o‘ziga xosdir: o‘zbek tilidagi “Oltin til, misli dildan chiqadi” iborasi samimiyat va halollikni ifodalaydi, ingliz tilidagi “The ball is in your court” esa shaxsiy mas’uliyat va individualizmni ko‘rsatadi.

Din va an’analar ham lingvistik ifodalar shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida ko‘plab ifodalar Islom ta’limotlari va an’analariga asoslangan: “Allohning irodasi bilan” iborasi insonning harakati va irodasi bilan birga oliy kuchning tasdiqlanishini anglatadi. Bu ifoda taslimkorlik, tavakkal va hayotdagi har qanday natijaning ilohiy maqsadga bog‘liqligi haqidagi chuqur e’tiqodni aks ettiradi. Ingliz tilida esa diniy ifodalar ko‘pincha dunyoviylashtiriladi: “God helps those who help themselves.” Bu esa ishonch va ilohiy yordamni faol harakat bilan uyg‘unlashtirishga, shaxsiy harakatning ustuvorligiga ishora qiladi. Tarjima jarayonida bunday kontekstlarni hisobga olish madaniyatlararo muloqotning samaradorligini oshiradi[5].

Xulosa qilib aytganda, madaniy me’yorlar va kognitiv kategoriyalar tilning lingvistik ifodalarini shakllantiruvchi muhim elementlar hisoblanadi. O‘zbek va ingliz tillarida umumiy mavzular mavjud bo‘lsa-da, har bir tilning madaniy va tabiiy muhitga bog‘liq o‘ziga xos ifodalari mavjud. Ushbu o‘ziga xoslik tarjimada diqqatga sazovor ahamiyatga ega, chunki u madaniyatlararo tushunishni va kommunikatsiya samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, til o‘quvchiga yoki tinglovchiga nafaqat axborot yetkazadi, balki ularning dunyoqarashini, ijtimoiy qadriyatlarini va madaniy identifikatsiyasini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova, S. The role of linguoculturology in English, Uzbek linguistics and the formation of modern research in the field. *“Herald” (Qo‘qon universiteti Xabarnomasi)*, 2024. – №3. – B. 45-51.
2. Tukhtakhodjaeva, Z.T. Linguistic aspects of the translation of national cultural vocabulary. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2024. – Vol. 2, No. 3. – P. 112-119.
3. Tojiboyeva, M.Sh. The concept of “intelligence” in Uzbek and English linguistic culture and lexical means of concept formation. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2023. – Vol. 4, No. 2. – P. 88-97.
4. Turakulova, D.M. The linguacultural concept of doubt: a comparative analysis of English and Uzbek languages. *Journal of Language and Linguistics*, 2024. – Vol. 8, No. 1. – P. 34-42.
5. Tursunboyeva, D. Linguocultural study of anthroponyms in English and Uzbek. *IJODKOR O’QITUVCHI*, 2023. – №5. – B. 124-130.
6. Vafoyev, B. *Lingvokulturologiya: til, madaniyat, tafakkur*. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022. 208-b.
7. Kadirova, N.R. O‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli ifodalarning madaniy xususiyatlari. *“Filologiya masalalari” ilmiy jurnali*, 2023. – №5. 78-85-b.

Gulbaxor MIRZAYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti,
Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi o‘qituvchisi, PhD

O‘ZBEK ADABIYOTI VA MADANIYATI KONTEKSTIDA INGLIZ REALIYALARINING KENG QAMROVLI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola leksikaning madaniy yo‘naltirilganligi kontekstida konsept, konnotatsiya va lingvokulturema kabi kognitiv lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda metafora (M. Jonson bo‘yicha) hamda madaniy-konnotativ komponentning nazariy asoslari o‘rganiladi. A.E.Mamatov va V.G.Gak tomonidan berilgan lingvokulturema ta’riflariga, shuningdek, lingvokulturema va realiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratiladi. Matnni milliy-madaniy qadriyatlar tashuvchisi sifatida o‘rganishda antroposentrik yondashuvning ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, konsept, konnotatsiya, metafora, lingvokulturema, realiya, madaniy komponent, antroposentrik yondashuv.*

Аннотация: данная статья посвящена комплексному анализу ключевых понятий когнитивной лингвокультурологии, таких как **концепт, коннотация** и **лингвокультурема**, в контексте культурологической направленности лексики. Исследуются теоретические основы метафоры (по М. Джонсону) и культурно-коннотативного компонента. Особое внимание уделяется дефинициям лингвокультуремы, данным А.Э.Маматовым и В.Г.Гаком, а также взаимосвязи лингвокультуремы и реалии. Подчеркивается роль антропоцентрического подхода в изучении текста как носителя национально-культурных ценностей.

Ключевые слова: лингвокультурология*, концепт, коннотация, метафора,* лингвокультурема*, реалия, культурный компонент, антропоцентрический подход.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the core concepts of cognitive linguoculturology—concept, connotation, and linguocultureme—in the context of the cultural orientation of lexicon. The study explores the theoretical foundations of metaphor (M. Johnson) and the cultural-connotative component (R. Lado, E. Nida). Particular attention is given to the definitions of the linguocultureme provided by A.E.Mamatov and V.G.Gak, and the close relationship between the linguocultureme and cultural realia. The paper highlights the role of the anthropocentric approach in examining text as a carrier of national and cultural values.

Key words: *linguoculturology, concept, connotation, metaphor, linguocultureme, realia, cultural component, anthropocentric approach.*

Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, lisoniy birliklar, xususan, leksika, muayyan xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi. Ushbu maqola leksikaning madaniyatga yo‘naltirilganligi jihatidan kelib chiqib, konsept, so‘z konnotatsiyasi va lingvokulturema kabi asosiy tushunchalarning kognitiv lingvokulturologiyadagi nazariy asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Leksikaning madaniyatga yo‘naltirilganligi nuqtayi nazaridan, konseptning so‘z konnotatsiyasi ko‘lamiga mansubligi to‘g‘risidagi qarashlar M.Jonson tomonidan taqdim etilgan. Olimning fikricha, mazmun jihatdan, metafora har qanday sathda inson tajribasini bir sohadan boshqa sohaga uyg‘unlashtiradi hamda amalda tatbiq qiladi.

Bu qarash amerikalik lingvist R.Ladoning konnotatsiyaning madaniy va ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqidagi g‘oyalarini yuzaga chiqardi. R.Lado ispan madaniyati va Amerika madaniyatidagi o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rib chiqib, E.Sepirning “til – ijtimoiy voqelikka yo‘l ko‘rsatuvchi” degan qarashlariga asoslanadi. Tilshunos olim o‘z tadqiqotlarida, tillar bir-

biridan sezilarli darajada farq qilganligi sababli, madaniyatlararo aloqada muhim va yengib bo‘lmaydigan to‘siqlar mavjudligi hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq etish zarurligini ta’kidlagan [1]. Uning asarida ommaviy migratsiya va gibrid madaniyatlarga aloqador eng muammoli milliy-madaniy masalalar, shuningdek, jamiyatda mavjud insonlarning til ko‘nikmalari va ikki til egalarining so‘zlarni ishlatishdagi kamchiliklari haqida tizimli tahlillar olib borilgan. Keyinchalik, amerikalik olim E.Naida so‘zning ma’nosidan “emotsional-konnotativ komponent”ni ajratib oldi [2]. Shu tariqa, kognitiv lingvokulturologiyada keyinchalik ko‘plab ilmiy tadqiqotlar manbayi bo‘lgan “madaniy komponent” atamasi paydo bo‘ldi. Shuningdek, E.Naida tarjimashunoslik sohasida turg‘un va erkin ekvivalentlik haqida fikr yuritib, ularning ifodalanishini matnlarning komponent tahlilida ko‘rsatib o‘tadi.

O‘zbekistonlik olima D.Xudoyberganova o‘z tadqiqotida lingvomadaniy so‘zlarni o‘rganish va tahlil qilishda insonning tafakkur olami hamda verbal aloqada bayon etilgan har bir fikr, so‘z va matnni tadqiq etgan. Tadqiqot diqqat markaziga uni idrok etuvchi shaxsni (antroposentrik yondashuv) qo‘yadi hamda madaniyat va so‘zning o‘zaro ta’siriga quyidagicha ta’rif beradi: “Lingvokulturologik yondashuvlarga ko‘ra, matn – muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy birliklarni avloddan avlodga olib o‘tuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tarkibida o‘xshatishlar, metaforalar, maqol va frazeologik birliklar, nutqiy etiketlar bo‘lgan matnlar o‘zida milliy-madaniy qadriyatlarni tajassum etgan lisoniy-madaniy hodisa sifatida qayd etiladi” [3].

Bu nuqtayi nazardan, har bir so‘z yoki birikma o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi, balki o‘sha millat mentaliteti, qadr-qiymatini va ruhiyatini ochib beradi. O‘zbek tilshunosligining lingvokulturologiya yo‘nalishida sermahsul ijod qilib, kognitiv tilshunoslikka oid dolzarb muammolarni tadqiq etgan A.Mamatov, Sh.Safarov, G‘.Hoshimov kabi olimlarning hissalari bu yo‘nalish ravnaqida muhimdir [4, 5].

A.E.Mamatovning “Zamonaviy lingvistika” o‘quv qo‘llanmasida lingvokulturema tushunchasiga aniq ta’rif berilgan: “Lingvokulturema ham o‘z til tasavvurini (“fikr shaklini”), ham u bilan uzviy bog‘langan “tildan tashqari, madaniy muhitni” (vaziyatni, realiyani) hamda chegaralari beqaror va barqaror assotsiatsiyalar tarmog‘ini o‘z ichiga oladi, o‘zida to‘playdi” [4]. Lingvokulturema asosan lakuna, mifologema, metafora, ramz, stereotiplar kabi birliklar bilan ifodalanadi. Shakl nuqtayi nazaridan esa, bu birliklar frazeologik birlik, maqol, pretsedent hodisa va grammatik birliklarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilidagi ilmiy nazariyaga ko‘ra realiya va lingvokulturema bir-birini taqozo qiluvchi tushunchalardir.

Rus olimi V.G.Gak realiyani “moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘z ichiga olgan madaniy makonning ajralmas tarkibiy qismi” deb hisoblaydi va uni “muayyan xususiyatlar (madaniyatlar) majmui” sifatida ahamiyatga molik deb biladi [6]. Shuningdek, V.G.Gak madaniyatga xos so‘zlarni kulturemalar yig‘indisi sifatida e’tirof etib, ularning vazifasini quyidagicha izohlaydi: “Tilga oid ifodaga ega bo‘lgan kulturemalar ba’zi bir realiyalarni – predmetlarni, vaziyatni, vazifani, urf-odatni, fe’l-atvor faktini va hokazolarni ifodalash va belgilash uchun borliqning ma’lum elementi bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladilar” [7]. Masalan, ingliz tilidagi “hulk” so‘zining lug‘atdagi semantik mundarijasi madaniy-tarixiy realiyani aks ettiradi: *“Hulk – refers to a ship that is no longer seaworthy and has been permanently moored or anchored in the realm of maritime history. These vessels are often stripped of their masts and rigging, and they are typically used as floating platforms for various purposes, such as storage, workshops, or even as prisons. Hulks were commonly used during the 18th and 19th centuries”* [8]. Bu ta’rif “hulk”so‘zining nafaqat leksik ma’nosini, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan dengizchilik tarixi, ijtimoiy amaliyot (qamoqxona sifatida foydalanish) kabi madaniy realiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Tilning madaniy-konseptual ma’nolarini to‘liq ochib berish uchun tilshunos va lingvokulturolog olimlarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlari zarur. Shundagina lingvomadaniy semantikaning aniq va atroflicha tadqiqi amalga oshirilishi mumkin. Shunga asoslangan holda, “wooden-head” so‘zini madaniy birlik, ya’ni lingvokulturema

sifatida ko‘rib chiqamiz. Insonlarni o‘rab turgan tevarak-atrof bevosita inson ongiga va madaniyatiga ta’sir qilmasdan qolmaydi va bunday so‘zlar aynan inson nutqida shakllanadi. Mazkur leksema daraxtlardan xom ashyo sifatida olinadigan yog‘och yoki taxtaga nisbatan madaniy konnotativ asosda yuzaga kelgan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjimada “taxta bosh” deb talqin qilinadi. Bu ifoda o‘zbek tilida bevosita ma’no anglashilmasligi bilan birga, ingliz madaniyatidagi inson xususiyatlariga ishora qiladi. “Wooden-head” lingvokulturemasi – o‘jar, zerikarli, tushunish yoki muloqot qilishda sust bo‘lgan insonni tasvirlashda qo‘llaniladi. U ko‘pincha odamning aql-zakovati yo‘qligini, yangi g‘oyalar yoki ma’lumotlarga ochiq emasligini ifodalashda xizmat qiladi. Bu odatda, kimningdir xatti-harakati yoki fikrlash uslubini tanqid qilish uchun yengil kamsituvchi so‘z sifatida ishlatiladi. Ushbu lingvokulturemani o‘zbek tiliga tarjima qilishda madaniy adaptatsiya usulidan foydalanib, adekvat tarjimada aynan shu ma’noga yaqin keluvchi o‘zbekcha lingvokulturemani qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida og‘zaki nutqda bunga yaqin ma’noli ifoda sifatida “Xom (yoki qovoq) kalla” keltirilgan [9].

Bilmasang, nega, urdi deb qo‘l qo‘yasan, majbur qildi deb guvohlikka o‘tasan, qovoq kalla?! (O. Yoqubov, Larza 8-b).

Bu misol “wooden-head” ifodasining o‘zbek tilidagi “qovoq kalla” yoki “xom kalla” kabi realiya-madaniy ekvivalentlari orqali tarjimada madaniy-konnotativ ma’noni saqlab qolish mumkinligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, leksikaning madaniy jihatdan yo‘naltirilganligi tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir. M.Jonsonning metafora nazariyasi, R.Lado va E.Naidaning konnotativ komponentni ajratib olishi orqali shakllangan g‘oyalar zamonaviy kognitiv lingvokulturologiyaning asosini tashkil etadi. A.Mamatov va V.G.Gak tomonidan ta’riflangan lingvokulturema tushunchasi esa, til birliklarining madaniy muhit va realiya bilan uzviy bog‘liqligini isbotlaydi. Milliy mentalitet va qadriyatlarni o‘rganishda tilni antroposentrik jihatdan tahlil qilish, shu jumladan, D.Xudoyberganovaning tadqiqotlaridagi yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kramsch C. Re-reading Robert Lado, 1957, Linguistics across Cultures // Applied linguistics for language teachers. Classic book review. – USA: Blackwell Publishing Ltd., 2007. – № 2. – P. 242.

2.Nida E.A. Language and Culture // Entreculturas. Número 1. ISSN: 1989-5097. Fecha de publicación, 2009. – № 27. – P. 25–32.

3.Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 36.

4.Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. 81–82-b.

5.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – Б. 17-18.

6.Юнкова Е.П. Передача лингвокультурем в художественном переводе повести “Питер Пэн” // Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 2019. Vol. 10. – No 1. – C. 213-224.

7.Gak V.G. Translation and Relevance: Cognition and Context. – Oxford: Blackwell, 1991. – 278 p.

8.Oxford Learner’s Dictionaries. Hulk. (Murojaat sanasi: 23.01.2024).

9.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. “К”- ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. – Б. 299.

Nigina ZIYABAYEVA,
Samarqand tuman 21-umumta'lim maktabi
ingliz tili o'qituvchisi
Email: nigina121485@gmail.com

ANTROPONIMLARNING IJTIMOIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI: INGLIZ VA O'ZBEK TILINING QIYOSIY ASPEKTI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning ijtimoiy-pragmatik mohiyati, ularning madaniy kodlar bilan bog'liqligi hamda nutq jarayonida bajaradigan kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Har ikki til tizimida ismlar nafaqat nominativ birlik, balki ijtimoiy mavqe, muloqot maromlari, etiket qoidalari va milliy mentalitetni ifodalovchi kuchli pragmatik vosita sifatida talqin etiladi. Qiyosiy tahlil ingliz tilidagi rasmiylik darajasiga asoslangan murojaat shakllari bilan o'zbek tilidagi hurmat tamoyillariga tayanadigan antroponimik qo'llanish o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari antroponimlarning lingvokulturologik ahamiyati va ijtimoiy muloqotdagi rolini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: *antroponim, pragmatika, lingvokulturologiya, ingliz tili, o'zbek tili, nominatsiya, muloqot madaniyati, etiket, madaniy kod*

Annotation: this article analyzes the socio-pragmatic essence of anthroponyms in English and Uzbek, their connection with cultural codes, and their communicative functions in the speech process. In both language systems, names are interpreted not only as a nominative unit, but also as a powerful pragmatic tool expressing social status, communication norms, rules of etiquette, and national mentality. Comparative analysis shows the differences and similarities between forms of address based on the level of formality in the English language and anthroponymic use based on the principles of politeness in the Uzbek language. The research results highlight the linguocultural significance of anthroponyms and their role in social communication.

Key words: *anthroponym, pragmatics, linguoculturology, English, Uzbek, nomination, culture of communication, etiquette, cultural code*

Аннотация: в данной статье анализируется социально-прагматическая сущность антропонимов в английском и узбекском языках, их связь с культурными кодами, а также коммуникативные функции, выполняемые в процессе речи. В обеих языковых системах имена интерпретируются не только как номинативная единица, но и как мощный прагматический инструмент, выражающий социальный статус, нормы общения, правила этикета и национальный менталитет. Сравнительный анализ показывает различия и сходства между формами обращения, основанными на уровне официальности в английском языке, и антропонимическим употреблением, основанным на принципах вежливости в узбекском языке. Результаты исследования раскрывают лингвокультурологическое значение антропонимов и их роль в социальном общении.

Ключевые слова: *антропоним, прагматика, лингвокультурология, английский язык, узбекский язык, номинация, культура общения, этикет, культурный код*

Kirish.Inson nomi har qanday til tizimida muhim lingvokulturologik birlik bo'lib, u jamiyat, tarix, mentalitet va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Antroponimlar orqali nafaqat shaxs identifikatsiya qilinadi, balki jamiyatning dunyoqarashi, sotsial strukturasidagi munosabatlar, hurmat va yaqinlik darajasi, kommunikativ vaziyatning rasmiy yoki norasmiyligi ham aks etadi. Ingliz va o'zbek tillari o'ziga xos madaniy modelga ega bo'lib, bu hol antroponimlarning qo'llanishida yaqqol seziladi. Ingliz tilidagi ismlarning rasmiylikka asoslangan qat'iy murojaat normalari bilan o'zbek tilidagi yoshi, jinsiy mansubligi, qarindoshlik aloqalari va ijtimoiy mavqeni inobatga oluvchi murakkab murojaat tizimi antroponimlarning pragmatik rolini yanada boyitadi.

O‘zbek tilida esa antroponimlar qo‘llanishi ijtimoiy yosh, jins, mavqe va oila munosabatlariga bog‘liq holda murakkab tizim yaratadi. O‘g‘il bolalar va erkaklarga nisbatan aka, aka-jon, amaki, tog‘a kabi murojaatlar ko‘pincha ism o‘rnini bosadi. Ayollarga nisbatan opa, xola, amma kabi murojaat birliklari ishlatiladi. Muloqotda familiyalar kamdan-kam qo‘llanib, ko‘proq ismga qo‘shimcha hurmat ifodalovchi affikslar yoki murojaat so‘zlari qo‘shib ishlatiladi.Ingliz tilidagi antroponimlar asosan semantik jihatdan neytral bo‘lsa, o‘zbek ismlarining katta qismi ma’no ifodalaydi. Masalan, Umid, Dilshod, Zuhra kabi ismlar ma’lum ijobiy ma’noga ega bo‘lib, ota-ona orzu-umidlarini ifodalaydi. Ingliz ismlarining ko‘pchiligi esa tarixiy-diniy manbalarga yoki qadimgi german, lotin, yunon ildizlariga borib taqaladi, biroq zamonaviy ingliz jamiyatida ma’no ko‘pincha pragmatik ahamiyat kasb etmaydi. Murojaatning pragmatik jihatdan to‘g‘ri tanlanishi har ikki til uchun muhim bo‘lib, noto‘g‘ri qo‘llanish kommunikativ noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin. Ingliz tilida familiya orqali murojaat qilish hurmatni bildirsa, o‘zbek muhitida familiya bilan chaqirish ko‘pincha sovuqqonlik yoki rasmiylikning haddan tashqari ortishiga ishora qiladi.

Antroponimlar lingvokulturologik jihatdan ham ikki xil madaniy modelni namoyon etadi. Ingliz madaniyatida shaxsning individual qadriyat sifatida namoyon bo‘lishi muhim bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida shaxs oilaviy, ijtimoiy va jamoaviy tizimning bir bo‘lagi sifatida talqin etiladi.Shu bois ingliz antroponimlari individuallikka moyil bo‘lsa, o‘zbek ismlarida esa kollektivlik va an’anaviylik belgilari ko‘proq uchraydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlardan foydalanish jarayonida ijtimoiy rol, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi masofa va nutqning maqsadga yo‘naltirilganligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz jamiyatida shaxsning mustaqilligi va xususiy hayotiga hurmat kuchli bo‘lgani uchun ism bilan murojaat qilishda ruxsat va kasbiy-ijtimoiy masofani saqlash talab qilinadi. Masalan, ingliz tilida o‘qituvchini faqat first name bilan chaqirish nomaqbul hisoblanadi, ayniqsa o‘quvchilar tomonidan. Bunda unvon va familiyaning qo‘llanishi muloqot maromining rasmiyligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, professional sohalarda yaqin jamoa ichida birinchi ism bilan murojaat qilish jipslik va tenglik tamoyilini ifodalashi mumkin. Bu jarayonda antroponimlar sotsial rolga moslashadi va kommunikativ strategiyaning bir qismiga aylanadi.

O‘zbek tilida antroponimlar orqali ijtimoiy rol va mavqeni ifodalash an’anaviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq.Katta-kichikka munosabatni nutq etiketi orqali belgilovchi qoidalar o‘zbek antroponimik tizimining pragmatik asosini tashkil etadi. Shaxsning yoshi, jinsiy mansubligi, qarindoshlik darajasi va ijtimoiy maqomi unga qanday murojaat qilish mumkinligini belgilaydi.Masalan, biror kishiga ism bilan emas, balki aka, opa, dadajon, amaki kabi murojaatlar orqali murojaat qilish ko‘p hollarda hurmatning asosiy belgisi sanaladi. Bu esa antroponimning nominativ vazifasidan ham ustun bo‘lgan sotsial-pragmatik rolga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu jihat ingliz tilidan keskin farq qiladi, chunki ingliz tilida qarindoshlik atamalari shaxs nomi o‘rnida juda kam ishlatiladi.

Har ikki tilning antroponimik tizimida metaforik qo‘llanishlar ham uchraydi. Ingliz tilida ba’zan personaj nomlari yoki mashhur shaxslarning ismlariga ishora qilish orqali qiyosiy tavsif beriladi. Masalan, someone is a real Einstein iborasi shaxsning aqlli ekanini bildiradi. O‘zbek tilida esa Alpomishday yigit yoki Layliday go‘zal kabi etnomadaniy konnotatsiyaga ega antroponimlar vositasida xarakteristika berish keng tarqalgan. Bu hol antroponimlarning semantik va assotsiativ xususiyatlari milliy madaniyatga qanchalik singib ketganini ko‘rsatadi.

Ingliz va o‘zbek antroponimlaridagi farqning yana bir muhim qatlami rasmiy hujjatlar, ijtimoiy xizmatlar va ta’lim tizimidagi foydalanish xususiyatlari bilan bog‘liq. Ingliz muhitida familiya va ism tartibi qat’iy huquqiy me’yorlarga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek muhitida familiya, ism va otaning ismi uchligi hamon keng qo‘llanadi. Bu tizim oila tuzilmasining tarixiy-diniy ildizlariga borib taqaladi. Ingliz tilida esa otaning ismiga asoslangan patronimik tizim deyarli yo‘qolgan va shaxs identifikatsiyasi familiya orqali belgilanadi. Mazkur farqlar antroponimlar jamiyatda qanday ijtimoiy vazifa bajarishini, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi turlicha shakllanishini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tilidagi antroponimlarning ijtimoiy-pragmatik istiqboli ularning tarixiy shakllanishi bilan ham bog‘liq. Ingliz ismlarining aksariyati qadimgi german, anglo-sakson, lotin va yunon ildizlariga ega

bo‘lib, ular asosan diniy mazmun, nasab, jismoniy yoki axloqiy sifatlarni ifodalagan. Tarix davomida ulardan ko‘pi semantik ma’nosidan ajralib, faqat nominativ funksiyada qo‘llanadigan bo‘lib qolgan. O‘zbek ismlari esa ko‘pincha o‘z ma’nosini hozirgacha saqlab qolgan bo‘lib, ularda ezgulikka, baxt-saodatga, go‘zallikka, qudrat va fazilatga oid semantik yuk kuchli. Shu sababli o‘zbek jamiyatida ism tanlash jarayoni shaxsning kelajakdagi taqdiriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin degan ijtimoiy ishonchlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu lingvokulturologik jarayon antroponimlarning qadriyatlar tizimidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Antroponimlarning yana bir muhim ijtimoiy-pragmatik jihati gender bilan bog‘liq. Ingliz jamiyatida gender tengligi tamoyillari kuchayganligi bois gender neytral murojaatlar tobora keng tarqalmoqda. Misol tariqasida an’anaviy Mr va Missis o‘rniga Mx shakli taklif qilingan. Ko‘plab professional sohalarda ism orqali murojaat qilishdan ko‘ra unvondan foydalanish muhim emas, balki shaxsning martabasi va kompetensiyasiga urg‘u beriladi. O‘zbek tilida esa genderga oid murojaatlar an’anaviy ko‘rinishda saqlanib qolgan. Ayollarga nisbatan opa, xola, singil kabi murojaatlar, erkaklarga esa aka, amaki, tog‘a kabi murojaatlar til tizimida mustahkam o‘rnini saqlab kelmoqda. Bu hol o‘zbek jamiyatida avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa va hurmat kategoriyasi hali ham muhim ijtimoiy institut ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek antroponimlarida laqab (nickname) larning qo‘llanish darajasi ham turlicha. Ingliz tilida laqab odatda shaxsning o‘zi tomonidan qabul qilingan bo‘ladi va jamiyatda ijobiy qabul qilinadi. Professional sportchilar, san’atkorlar, blogerlar o‘z sahna ismlarini osonlik bilan ishlatadilar. O‘zbek muhitida esa laqablar ko‘proq norasmiy, ba’zida kulgili yoki ijtimoiy xususiyatni aks ettiruvchi bo‘lib, rasmiy muloqotga mos emas deb qaraladi. Biroq oilaviy yoki yaqin do‘stlar davrasida laqab orqali muloqot samimiylikni oshiruvchi pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy global madaniyatning ta’siri natijasida ikki tilda ham yangi antroponimik tendensiyalar vujudga kelmoqda. Inglizcha nomlarning o‘zbek muhitida keng qo‘llanila boshlashi (Milan, Elina, Mark, Sofia kabi) va aksincha Markaziy Osiyo nomlarining ingliz tilida qo‘llanishi ortib borayotgani madaniy almashinuvning pragmatik ifodasi hisoblanadi. Bu jarayon madaniyatlararo muloqotda antroponimlarning o‘zgaruvchanligini, til foydalanuvchilarining ijtimoiy identifikatsiya mezonlari global jarayonlarga qanday moslashayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek antroponimlarini qiyosiy tahlil qilish ularning nafaqat nomlash birligi sifatidagi, balki ijtimoiy muloqot jarayonini tartibga soluvchi pragmatik vosita sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Har ikki tilda ismlarning qo‘llanishi madaniy normalar, muloqot etiketlari va ijtimoiy qadriyatlarga tayanadi. Ingliz tilida rasmiylik-daraja tamoyili yetakchi bo‘lsa, o‘zbek tilida hurmat kategoriyasi va ijtimoiy rolning ustuvorligi asosiy o‘ringa ega. Antroponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari ushbu tizimlar orqali shakllanadi va har bir jamiyatning madaniy ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ism faqat identifikatsiya vositasi bo‘lib qolmay, balki shaxslararo munosabatlarni boshqaruvchi semantik-pragmatik signaldir. Bu esa antroponimik birliklarni tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiolingvistika sohalarida chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. O‘zbek antroponimikasi va uning lingvokulturologik asoslari. –Toshkent: Fan nashriyoti.
2.Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
3.Nurmonov A. Til va madaniyat: lingvokulturologiyaga kirish. –Toshkent: Akademnashr.
4. Hough C. The Oxford Handbook of Names and Naming. Oxford University Press.
5.Safarov Sh. Pragmatik tilshunoslik asoslari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

Asliddin USMONOV,
Xalqaro innovatsion universiteti Xorijiy filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
usmonov.a198993@gmail.com



LINGVOKULTUROLOGIYA VA STILISTIK SINONIMIK QATORLAR (O‘ZBEK VA INGLIZ TILI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi stilistik sinonimik qatorlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida sinonimlarning milliy madaniyat, estetik qadriyat va xalq tafakkuridagi o‘rni yoritilgan. O‘zbek tilidagi sinonimlar asosan axloqiy, ruhiy va ma’naviy qadriyatlarni ifodalasa, ingliz tilidagi sinonimlar individual idrok va tashqi estetik tavsifni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, sinonimiya, stilistik sinonimlar, madaniy kod, milliy tafakkur, estetik qadriyat, o‘zbek tili, ingliz tili.*

Annotation: this article analyzes stylistic synonymic rows in the Uzbek and English languages from a linguocultural perspective. Based on the interrelation between language and culture, the study highlights the role of synonyms in reflecting national culture, aesthetic values, and worldview. Uzbek synonyms primarily express moral, spiritual, and ethical values, while English synonyms reflect individual perception and external aesthetic characteristics.

Key words: *linguoculturology, synonymy, stylistic synonyms, cultural code, national worldview, aesthetic value, Uzbek language, English language.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются стилистические синонимические ряды узбекского и английского языков с лингвокульту-рологической точки зрения. На основе взаимосвязи языка и культуры раскрывается роль синонимов в отражении национальной культуры, эстетических ценностей и мировоззрения народа. Синонимы узбекского языка в основном выражают нравственные, духовные и моральные ценности, тогда как синонимы английского языка отражают индивидуальное восприятие и внешнюю эстетическую характеристику.

Ключевые слова: *лингвокультурология, синонимия, стилистические синонимы, культурный код, национальное мышление, эстетические ценности, узбекский язык, английский язык.*

Kirish. Til – har bir xalqning madaniy hayotini, tafakkur tarzini, tarixiy xotirasini va dunyoqarashini aks ettiruvchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Til orqali millat o‘z ruhiyatini, qadriyatlarini, ma’naviyatini va estetik didini namoyon etadi. Shu bois til madaniyatning ko‘zgusi, xalqning “ichki olami”ni ochuvchi vosita sifatida qaraladi. [1: 124]

Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri – lingvokulturologiya ana shu o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadi. Lingvokulturologiya tilda mujassam bo‘lgan madaniy ma’nolarni, xalqning milliy tafakkurini, e’tiqodini, qadriyatlar tizimini tahlil qiladi. U so‘z va iboralarning semantik, emotsional, ramziy qatlamida yashiringan madaniy axborotni ochib beradi.

Tilning estetik boyligi va ifoda imkoniyatlari, avvalo, sinonimiya hodisasi orqali namoyon bo‘ladi. Sinonimlar tilning leksik tizimini boyitadi, uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi va nutqni obrazli, ta’sirchan qiladi. Ayniqsa, stilistik sinonimik qatorlar tildagi madaniy-estetik tafakkurni ifodalovchi muhim vositalardir. Ular xalqning go‘zallik haqidagi qarashlari, his-tuyg‘ularini ifodalashdagi noziklik va ruhiy boylikni aks ettiradi. [2: 93]

Shunday qilib, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganishda sinonimlarning

o‘rni beqiyosdir. Har bir xalqda sinonimik tizim uning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va estetik ideallarini ifodalovchi madaniy ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. [3: 87]

Kirish bo‘limi maqolaning umumiy yo‘nalishini, muammo doirasini va maqsadini belgilab beradi. Shu asosda keyingi bo‘lim – Materiallar va metodlar – tilshunoslikda ikki tildagi sinonimik qatlamni qanday o‘rganish, qanday metodlar orqali solishtirish va tahlil qilish yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Materiallar va metodlar. Mazkur maqolaning obyekti – o‘zbek va ingliz tillaridagi stilistik sinonimik qatorlar bo‘lib, ular o‘zaro yaqin ma’noga ega, ammo uslubiy, semantik va madaniy jihatdan farqlanuvchi leksik birliklardan tashkil topgan.

Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy sinonimik qatorlar tahlil uchun tanlab olindi:

O‘zbek tilida:

go‘zal – chiroyli – dilbar,
jasur – botir – mard,
pok – musaffo – toza.

Ingliz tilida:

beautiful – pretty – lovely,
brave – bold – courageous,
clean – pure – spotless.

Ushbu sinonimik qatorda joylashgan birliklar tildagi estetik qadriyatlarni ifodalash**,** madaniy mazmunni yetkazish va xalq tafakkuridagi hissiy tushunchalarni aks ettirish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Maqolaning obyekti sifatida tanlangan sinonimlar har ikki tildagi milliy o‘ziga xoslikni, madaniyatga xos semantik o‘zgarishlarni namoyon etishga xizmat qiladi.

Maqola dizayni taqqoslama, tavsifiy, komponent va lingvokulturologik metodlarga tayangan.

1. Taqqoslama tahlil (Comparative analysis). Bu metod yordamida o‘zbek va ingliz tillarida sinonimlarning semantik va adabiy farqlari solishtirildi.

Masalan, o‘zbekcha *pok – musaffo – toza* qatori bilan inglizcha *clean – pure – spotless* sinonimlarining ma’no tafovutlari va madaniy konnotatsiyasi aniqlangan. Natijada o‘zbek tilidagi so‘zlar ko‘proq ma’naviy poklik, inglizcha so‘zlar esa fizik tozalik bilan bog‘liq ekanligi kuzatildi.

2. Tavsifiy metod (Descriptive method). Har bir sinonimik birlikning leksik, uslubiy va konnotativ xususiyatlari tavsiflab berildi. Bu yondashuv so‘zlarning nutqdagi roli, emotsional bo‘yoqlari va ifodaviy kuchini aniqlashga yordam berdi.

3. Komponent tahlil (Component analysis). Sinonimlarning ma’nosini tashkil etuvchi asosiy semantik komponentlar ajratildi.

Masalan, *jasur – botir – mard* qatorida “qo‘rquvni yengish” umumiy semasi, ammo “axloqiy jasorat” (mard), “jismoniy kuch” (botir), “ruhiy bardamlik” (jasur) kabi qo‘shimcha semalar aniqlangan.

4. Lingvokulturologik metod (Linguoculturological approach). Har bir sinonimning madaniy mazmuni, milliy konnotatsiyasi va xalq tafakkuridagi ramziy ma’nosi ochib berildi.

Masalan, o‘zbek tilida “ona zamin” iborasidagi *ona* so‘zi — mehr, hayot manbai, ilohiylik ramzi; ingliz tilidagi *motherland* esa “tug‘ilgan joy”, “vatan” ma’nosida ko‘proq ratsional-emotsional yuklamaga ega.

5. Korpus tahlili va statistik yondashuv. Tanlangan o‘zbek va ingliz matnlari asosida sinonimlarning qo‘llanish chastotasi aniqlanib, ularning foydalanish uslubi**,** emotsional yuk va stilistik faoliyat darajasi miqdoriy jihatdan baholandi.

Masalan, o‘zbek badiiy matnlarda *dilbar* so‘zi *go‘zal* so‘ziga nisbatan 2,3 barobar kamroq ishlatilgani, ammo poetik kontekstdagi hissiy kuchi yuqori ekani qayd etildi.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, stilistik sinonimik qatorlar har ikki tilda xalqning milliy madaniyatini, estetik didini va dunyoqarashini ifodalovchi asosiy lingvokulturologik ko‘rsatkichlardan biridir.

O‘zbek va ingliz tillarida sinonimlar o‘xshash semantik maydonda shakllangan bo‘lsa-da, ularning madaniy ma’nolari va tasviriy yo‘nalishi bir-biridan farq qiladi.

Masalan, o‘zbek tilidagi *pok – musaffo – beg‘ubor* sinonimik qatori faqat jismoniy tozalikni emas, balki ma’naviy poklik**,** ruhiy beg‘uborlik va axloqiy halollikni bildiradi. Bu xalq tafakkurida

“poklik — iymonning yarmi” degan qadriyat bilan bevosita bog‘liq.

Ingliz tilidagi *clean – pure – spotless* sinonimik qatori esa, asosan, tashqi tozalik, aniqlik va soddalik bilan bog‘liq bo‘lib, ularning semantik markazi ratsional-estetik qarashga asoslanadi. Demak, o‘zbek sinonimlari axloqiy-ruhiy qadriyatlarni, ingliz sinonimlari esa individualistik va tashqi estetik tasavvurlarni aks ettiradi.

Shuningdek, o‘zbek tilida sinonimlar ko‘pincha kollektiv ruh, milliy qadriyatlar, diniy va axloqiy ideallarni, ingliz tilida esa shaxsiy his-tuyg‘ular, estetik zavq va individuallikni ifoda etadi.

Har ikki til sinonimlari orqali xalqning estetik ideallari va qadriyat tizimi tildagi ramzlar orqali namoyon bo‘ladi. Til birliklari shu tarzda xalqning madaniy xotirasi va estetik dunyoqarashini ifodalaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida sinonimlarning madaniy-semantik asoslari turlicha shakllangan. Har ikki til sinonimlari xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlar tizimi va estetik ideallarning mahsuli bo‘lsa-da, ularning mazmuniy yo‘nalishi farqlidir.

O‘zbek tilida sinonimlarning shakllanishida kollektiv ruh, ma’naviyat va e’tiqod muhim rol o‘ynaydi. So‘zlarning madaniy konnotatsiyasi ko‘pincha diniy va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq. Masalan, *pok – musaffo – beg‘ubor* qatoridagi so‘zlar faqat tashqi tozalikni emas, balki ruhiy tiniqlik, vijdoniy poklik va ma’naviy halollikni ifoda etadi. Shu jihatdan o‘zbek sinonimlari milliy tafakkurdagi iymon, e’tiqod, sadoqat va axloqiylik kabi qadriyatlarni aks ettiradi.

Ingliz tilida esa sinonimlarning ma’nosi individuallik, estetik idrok va shaxsiy his-tuyg‘ular asosida shakllanadi. Masalan, *beautiful – pretty – lovely* qatori asosan tashqi go‘zallikni, shaxsiy estetik bahoni ifodalaydi. Ingliz madaniyatida “beauty” tushunchasi ko‘proq shaxsiy did va subyektiv zavq bilan bog‘liq bo‘lib, u umumiy axloqiy yoki diniy qadriyat bilan kamroq aloqador.

Demak, o‘zbek sinonimlari kollektiv tafakkurga, ingliz sinonimlari esa individual idrokka tayangan holda shakllanadi. Bu esa har ikki tildagi madaniy tafakkur modelining tubdan farqlanishini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosaviy ilmiy natijalar e’tirof etildi:

1.O‘zbek va ingliz tillaridagi sinonimik tizim tildagi madaniy tafakkurning o‘ziga xosligini ifodalaydi.

2.O‘zbek tilida sinonimlar axloqiy, ruhiy va diniy qadriyatlarga tayansa, ingliz tilida ular shaxsiy his-tuyg‘u va estetik bahoga asoslanadi.

3.Sinonimlarning lingvokulturologik tahlili tilshunoslikda yangi istiqbolni ochadi.Bu tahlil orqali har bir xalqning madaniy kodlari, tarixiy tajribalari va ruhiy dunyosi tildan anglanadi. Sinonimlar xalq tafakkurining so‘zdagi “izlari”ni saqlovchi madaniy vositadir.

4.Til – bu nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning madaniy xotirasi va estetik tafakkurining mahsuli.

5.Har bir sinonimik qator tilning madaniy kodini ochib, milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Shu bois sinonimiyani lingvokulturologik asosda o‘rganish tilning ma’naviy va estetik qatlamini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6.Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sinonimlar orqali eng ravshan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

7.O‘zbek tilidagi “dil”, “vatan”, “ona” kabi so‘zlarning ramziy ma’nosi xalq tafakkurida muqaddas tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilidagi “heart”, “home”, “beauty” so‘zlari individual idrokning timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirtojiyev M. O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2005.

2.Abdurahmonova G. O‘zbek tilida sinonimlarning stilistik xususiyatlari. – Toshkent, 2017.

3.Rasulova N. Til va madaniyat uzviyligi: lingvokulturologik qarashlar. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020.

4.Musurmanova Sh.K. Problems of recreating phraseological units in translation. Scientific bulletin of Bukhara international university 1(10), 315–318. 2025.

Go‘zal HAZRATQULOVA,
Turon universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
guzal91@kakao.com

YOSHLAR SLENGINING O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA PRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va koreys yoshlar nutqida qo‘llaniladigan sleng birliklari qiyosiy tahlil qilindi. Slengning shakllanish omillari, lingvistik xususiyatlari hamda sotsiolingvistik vazifalari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, globalizatsiya va internetning tez rivojlanishi har ikki til slengida umumiylikni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, milliy madaniy kontekst ularning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: *yoshlar slengi, koreys tili, o‘zbek tili, qisqartma so‘zlar, sotsiolingvistika, internet tili, pragmatik tahlil.*

Аннотация: в данной статье проведен сопоставительный анализ сленговых единиц, используемых в речи узбекской и корейской молодежи. Изучены факторы формирования сленга, его лингвистические особенности и социолингвистические функции. Результаты показывают, что, хотя глобализация и быстрое развитие интернета создали общие черты в сленге обоих языков, национальный культурный контекст определяет их специфические особенности.

Ключевые слова: *молодежный сленг, корейский язык, узбекский язык, сокращенные слова, социолингвистика, интернет-язык, прагматический анализ.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of slang expressions used in the speech of Uzbek and Korean youth. The factors influencing the formation of slang, its linguistic features, and sociolinguistic functions are examined. The findings show that although globalization and the rapid development of the Internet have led to certain similarities in the slang of both languages, the national cultural context plays a decisive role in shaping their distinctive characteristics.

Key words: *youth slang, Korean language, Uzbek language, abbreviated words, sociolinguistics, Internet language, pragmatic analysis.*

Kirish. Til jamiyat bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisa sanalib, unda eng dinamik qatlamlardan biri yoshlar slengi hisoblanadi. Til taraqqiyotida “...og‘zaki va yozma nutqda har xil leksik me’yor buzilishlari va undan chetga chiqishlar sodir bo‘lib turadi[1]”. Ushbu hodisa yoshlar nutqida doimiy yangilanishi va jadal tarqalishi bilan ahamiyatlidir. So‘nggi yillarda koreys va o‘zbek yoshlar nutqida slengning keng qo‘llanishi kuzatilmoqda. Bu jarayon internet, ijtimoiy tarmoqlar, pop-madaniyat (K-pop, rap, kino) va global tendensiyalar bilan uzviy bog‘liq. Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek va koreys yoshlar slengini lingvistik va sotsiolingvistik jihatdan qiyosiy o‘rganishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: deskriptiv tahlil orqali sleng birliklarining shakl va mazmuni ochib berildi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil yordamida o‘zbek va koreys yoshlar slengidagi o‘xshash hamda farqlarni ochib berish, shuningdek, slengning ijtimoiy guruh identifikatsiyasi, madaniy ta’siri va kommunikativ funksiyalari sotsiolingvistik yondashuv nuqtayi nazardan izohlab berilgan. Yoshlar nutqi bilan bog‘liq jarayonlar jahon tilshunosligining turli prizmalari sanalgan lingvokognitiv tadqiqot, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya kabi tilshunoslik aspektlarida izchil o‘rganib kelinmoqda.

Ma’lumot manbalari sifatida koreys va o‘zbek yoshlarining nutqi, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalari hamda avvalgi lingvistika va sotsiolingvistik tadqiqotlar asos qilib olindi. Jumladan, Allan Burridge asarida tilning ijtimoiy va norasmiy qatlamlari keng yoritilgan bo‘lsa[2], Kim Jung-Seop tadqiqotlarida koreys tilidagi yangi so‘zlar va sleng birliklari yoritib berilgan[3]. Shuningdek, A.Abduazizov o‘zbek tili ijtimoiy lingvistikasida yoshlar nutqining o‘rni[4] haqida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tgan.

Natijalar. O‘zbek va koreys yoshlari nutqida faol qo‘llaniladigan sleng birliklarini pragmatik tahlil qilish

1 Маматов А.Э. Ҳозирги замон тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан академияси, 1991. 67-б.

2 Allan, K., Burridge, KForbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – New York: Cambridge University Press, 2006. 314-p.

3 김중섭. 한국어 신조어 연구. –서울: 한국문화사, 2013.

4 Abduazizov A. O‘zbek tilining ijtimoiy lingvistikasi.–Toshkent: Fan, 1986. 72-bet.

jarayonida amin bo‘ldikki, ushbu birliklar ta’kidlangan tillarga xos nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi norasmiylikni ta’minlash, ijtimoiy yaqinlikni kuchaytirish hamda kommunikativ muhitda “o‘ziga xoslik”ni namoyon etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har ikkala til slengida qo‘llaniladigan maxsus abbreviaturalar, fonetik qisqarishlar va grafik yangilanishlar kommunikativ tezkorlik hamda emotsional-ekspressivlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Koreys yoshlar slengida hurmat darajasi (politeness) va iyerarxik munosabatlar yashirin yoki bilvosita tarzda saqlanib qoladi. O‘zbek yoshlar slengida esa bu holat tenglik va bevosita muloqot ustuvorligi pragmatik farqlovchi belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllangan sleng birliklar har ikki tilda ham kommunikativ vaziyatga moslashuvchan bo‘lib, kinoya, hazil, baholash va emotsional munosabat bildirish kabi pragmatik funksiyalarni bajaradi.N.N.Kazayeva ham sleng bilan bog‘liq sanalgan subkollokvial leksikaning asosiy vazifalarini tahlil qilar ekan, ularni quyidagicha umumlashtiradi: 1) hazil; 2) kinoya; 3) istehzo; 4) kamsitish; 5) obro‘sizlantirish[5].

O‘zbek va koreys yoshlar slengining pragmatik xususiyatlari milliy-madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til birliklarining qo‘llanilishida mentalitet, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar muhim rol o‘ynashi ilmiy asosda yoritildi. Izlanishlar natijasida ko‘rish mumkinki, yoshlar slengini pragmatik jihatdan o‘rganish sotsiolingvistika, pragmalingvistika va madaniyataro muloqot nazariyalarini boyitishga imkon beradi.

5 Казаева Н.Н. Некоторые вопросы изучения субколлоквиального слоя английский лексики // Теория и практика лингвистического описания разговорной речи. – Горький, 1979. 28-с.

Ushbu jarayonning qiyosidagi lingvistik farqlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Til	Xususiyatlar	Misollar
Koreys tili	Fonetik qisqartmalar, tovush o‘yinlari, inglizcha o‘zlashmalar.	불금 (yonayotgan juma), 꿀잼 (juda qiziqarli), ㅋㅋㅋ (kulgi), 스포 (spoiler)
O‘zbek tili	Yozma chat qisqartmalari, metaforik ifodalar, rus va ingliz tili ta’siri.	qlsn (qalesan), nmgap (nima gap), bomba (zo‘r), trend, otmetka qilmoq, like bosmoq, GRWM qilmoq, Hi, Hi guys

Har ikkala til slengida globalizatsiya va internet asosiy omil sifatida ta’sir ko‘rsatmoqda. Koreys yoshlar slengi xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek yoshlar slengi ko‘proq mahalliy va mintaqaviy xarakterga ega. Lingvistik jihatdan koreys slengida qisqartmalar va fonetik o‘yinlar ustun bo‘lsa, o‘zbek slengida metaforik ifodalar va yozma qisqartmalar ko‘p uchraydi. Bu natijalar yoshlar tilining milliy va global unsurlar sintezida shakllanishini ko‘rsatadi. Ushbu tillarda sleng yoshlar orasida guruh identifikatsiyasi vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Kommunikativ tejamkorlik tamoyili asosida muloqotni tezlashtiradi. Koreys slengi ko‘proq pop-madaniyat (K-pop, drama), o‘zbek slengi esa ijtimoiy tarmoqlar va rus, ingliz tilining ta’siri bilan bog‘liq.

Quyidagi jadvalda koreys yoshlar kundalik muloqotida ko‘p qo‘llanilib kelayotgan ayrim slenglar va ularning o‘zbekcha izohi keltirilgan:

Koreyscha sleng (표현)	O‘zbekcha sleng (ifoda)	Ma’nosi / Izoh
ㅋㅋ (kk)	“xaxa”	Kulgi, hazilni ifodalash.
ㅎㅎ (hh)	“hehe”	Yengil kulgi, tabassum.
ㄹㅇ (real)	“rost”, “haqiqat”	Rostdan, chin ma’noda.
ㅇㅈ (injeung)	“ha”, “zo‘r gap”	Rozilik, tasdiqlash.
멘붕 (menbung)	“nerv chiqdi”, “shok”	Asabiylashish, tushkunlik.
개많아 (kae mana)	“zo‘rroq ko‘p”, “rosa ko‘p”	Juda ko‘pligini ifodalash (sal qo‘pol).
ㄱㅊ (gwenchana)	“okey”, “xavotir yo‘q”	Muammo yo‘q, hammasi joyida
굿굿 (good good)	“gap yo‘q”, “zo‘r”	Maqtov, zo‘rligini tasdiqlash.

텐션 (tension)	“kayfiyat”	Kayfiyat/energiya darajasi.
쩐다 (jjŏnda)	“bomba”	Juda zo‘r, qoyilmaqom.
빡세다 (ppakseda)	“o‘ta qiyin”, “zo‘r og‘ir”	Qattiq, og‘ir bosimli vaziyat.
노잼 (no jem)	“zerikarli”, “mazasi yo‘q”	Qiziq emas, zerikarli.
꿀잼 (kkul jam)	“mazza”	Juda qiziqarli, yoqimli.
핵인싸 (haek inssa)	“trendchi”, “drajni bola”	Jamiyat markazida bo‘lgan, hamma bilan chiqishadigan odam.
아싸 (assa)	“yakka”, “tinch bola”	Ko‘pchilikka qo‘shilmaydigan, yolg‘iz odam.
빡치다 (ppakchida)	“g‘ashim keldi”, “jahl chiqdi”	Asabiylashish, jahl qilish.
눈팅 (nunting)	“faqat o‘qish”, “ko‘rib qo‘yish”	Chatda yozmay, faqat kuzatib turish.
존맛 (jon mat)	“zo‘r taom”, “bomba”	Juda mazali ovqat.
ㅊㅋ (chukha)	“tabrik”, “gratz”	Tabriklash uchun qisqartma (축하).
ㄴㄴ (no no)	“yo‘q”, “noto‘g‘ri”	Rad etish, inkor qilish.

Xulosa. Ushbu fikrlarni xulosalar ekanmiz, o‘zbek va koreys yoshlar slengi global omillar va mahalliy madaniyat uyg‘unlashuvi mahsuli hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek va koreys yoshlari nutqida faol qo‘llaniladigan slenglar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rish mumkin:

Mezon	O‘xshashliklar	Farqlar
Manba va tarqalish	Ikkala tilda ham internet va ijtimoiy tarmoqlar asosiy manba hisoblanadi.	Koreys slengi pop-madaniyat bilan bog‘liq, o‘zbek slengi ko‘proq rus va ingliz tilidan o‘zlashmalarga asoslanadi.
So‘z yasalishi	Har ikkala tilda qisqartmalar keng qo‘llanadi.	Koreys tilida fonetik qisqartmalar, o‘zbek tilida yozma chat qisqartmalari va metaforalar ustun.
Global ta’sir	Ingliz tili asosiy global manba sifatida sezilarli ta’sirga ega.	Koreys slengi xalqaro miqyosda keng tarqalgan, o‘zbek slengi esa mahalliy darajada faol.

Har ikkala til slengida internet va ijtimoiy tarmoqlar asosiy manba vazifasini bajaradi. Koreys slengi ommaviy madaniyat asosida global ta’sirga ega bo‘lsa, o‘zbek slengi ko‘proq mahalliy kontekstdan oziqlanadi. Tadqiqot slengni chuqur o‘rganish yoshlarning ijtimoiy-madaniy identitetini anglash va tilshunoslik nazariyasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allan K, Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – New York: Cambridge University Press, 2006. – 314 p.

2. Eble C. Slang and Sociability: In-group Language among College Students. University of North Carolina Press. (1996).

3. Mattiello, E. (2008). An Introduction to English Slang: A Description of its Morphology, Semantics and Sociology. Polimetrica.

4. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. Penguin.

5. Abduazizov A. (1986). O‘zbek tilining ijtimoiy lingvistikasi.–Toshkent: Fan.

Jumaniyozova N. (2020). “O‘zbek tilida yangi so‘zlar va ularning yoshlar nutqidagi o‘rni.” O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.

6. 권순희. (2000). 한국어 속어 연구.–서울: 태학사.

7. 김중섭. (2013). 한국어 신조어 연구. –서울: 한국문화사.

8. Маматов А.Э. Ҳозирги замон тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан академияси, 1991. 67- б.

9. Казаева Н.Н. Некоторые вопросы изучения субколлоквиального слоя английский лексики // Теория и практика лингвистического описания разговорной речи. – Горький, 1979. 28-с.

Farxod GISAROV,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

UYG‘UR TABOBATI ATAMALARINI XITOY IYEROGLIFLARI VOSITASIDA IFODALASHGA OID O‘ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya:ushbu maqolada uyg‘ur tabobatida dorivor sifatida qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar nomlarini xitoy tiliga iyerogliflar vositasida transkripsiya qilish masalasiga e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, uyg‘ur xalq an’anaviy tabobati o‘zining uzoq davolash tarixiga ega. Va bu davolash tizimida qo‘llaniladigan o‘simlik hamda ma’danlarning nomlari uyg‘ur tilida va uyg‘ur yozuvida ifoda etib kelinadi. Uyg‘ur xalqi Xitoy Xalq Respublikasi hududida istiqomat qilib kelayotganligi sababli bu atamalarni ham davlat tili va yozuviga o‘girish ehtiyoji yuzaga keladi. Iyerogliflar asosida o‘qiydigan xitoy o‘quvchilari bu tabobat atamalarining uyg‘urcha talaffuzini bilishlari uchun “Uyg‘ur tabobati xom dorilari ensiklopediyasi” qo‘llanmasi mualliflari bu nomlarni uyg‘urcha talaffuz asosida xitoy iyerogliflari vositasida ifodalashga uringanlar.

Kalit so‘zlar: *yozuv ko‘rinishi, tovush yozuvi, Bo‘g‘inli (sillabik) yozuv, Iyeroglifik yozuv, Grafik shakl, grafik belgi, xitoy tili putunxua sistemasi, tabobat terminlari, atoqli otlar, transkripsiya, unli tovushlar, undosh tovushlar, uyg‘urcha talaffuz etish me’yorlari.*

Annotation:this article focuses on the issue of transcribing the names of medicinal plants used in Uyghur medicine into Chinese using Chinese characters. It is well known that the Uyghur traditional medical system has a long history of healing practices. In this medical system, the names of plants and minerals used for treatment are expressed in the Uyghur language and script. Since the Uyghur people live within the territory of the People’s Republic of China, there arises a need to translate these terms into the state language and script. To help Chinese readers, who read using hieroglyphs, understand the Uyghur pronunciation of these medical terms, the authors of the *“Encyclopedia of Uyghur Raw Medicinal Materials”* attempted to represent the Uyghur pronunciations using Chinese characters.

Key words: *writing system, phonetic script, syllabic writing, hieroglyphic writing, graphic form, graphic sign, Chinese Pinyin system, medical terminology, proper nouns, transcription, vowel sounds, consonant sounds, Uyghur pronunciation norms.*

Аннотация:в данной статье рассматривается проблема транскрипции на китайский язык с помощью иероглифов названий лекарственных растений, используемых в уйгурской традиционной медицине. Как известно, уйгурская народная медицина обладает многовековой историей лечения. Названия растений и минералов, применяемых в данной системе лечения, традиционно выражаются на уйгурском языке и в уйгурской письменности. В связи с тем, что уйгурский народ проживает на территории Китайской Народной Республики, возникает необходимость передачи данных терминов на государственный язык и в государственном письме. С целью ознакомления китайских читателей, использующих иероглифическое письмо, с уйгурским произношением данных медицинских терминов авторы пособия «Энциклопедия сырьевых лекарственных средств уйгурской медицины» предприняли попытку передачи этих наименований посредством китайских иероглифов на основе уйгурского произношения.

Ключевые слова: *вид письменности, звуковая письменность, слоговая (силлабическая) письменность, иероглифическая письменность, графическая форма, графический знак, система китайского языка путунхуа, медицинские термины, имена собственные, транскрипция, гласные звуки, согласные звуки, нормы уйгурского произношения.*

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan biri bu — yozuvning paydo bo‘lishi va rivojlanishidir.Ilmiy adabiyotlarda yozuv insoniyatning buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.Yozuv nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatning ma’naviy, madaniy va ilmiy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Yozuv orqali inson o‘z fikrini, tuyg‘ularini, bilim va tajribasini boshqalarga yetkazish imkoniga ega bo‘ldi. Shu ma’noda, yozuv madaniyatning ildizi, sivilizatsiyaning poydevori sifatida qaraladi.

Yozuvning ahamiyati haqida gap ketganda, uning jamiyat tarixi, adabiyoti, san’ati va yozma yodgorliklarni o‘rganishdagi o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlash zarur. Yozuv orqali biz qadimgi sivilizatsiyalarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi va turmush tarzini bilib olamiz. Masalan, Misr iyerogliflari, Shumer klinopislari, xitoy yozuvi yoki turkiy xalqlarning ruhiy bitiklari orqali o‘tmish avlodlar hayoti haqida bebaho ma’lumotlarga egamiz. Tilshunoslik sohasida ham yozuv muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi, chunki til tarixi va uning taraqqiyotini o‘rganishda aynan yozma manbalar asosiy dalil vazifasini bajaradi.

1. Tovush yozuvi (fonemografik yozuv) — bu turdagi yozuvda har bir belgi (harf) muayyan bir tovushni ifodalaydi.Masalan, lotin, kirill yoki arab alifbolari shular jumlasidandir.Bu tizimda yozuv va talaffuz o‘rtasida nisbatan yaqinlik mavjud bo‘ladi.

2. Bo‘g‘inli yozuv (sillabik yozuv) — bu shaklda har bir grafik belgi ma’lum bir bo‘g‘inni anglatadi. Masalan, yapon tilidagi “kana” tizimida har bir belgi bir bo‘g‘inni ifoda etadi. Bu tizim tilning fonetik tabiatiga mos holda rivojlanadi.

3. Iyeroglifik yozuv — bu yozuv turida bitta belgi butun bir so‘z yoki ma’noni ifoda etadi. Ya’ni, grafik belgi shundoq so‘zning mazmunini belgilaydi. Qadimgi Misr, Xitoy va mayya sivilizatsiyalari iyeroglif yozuvidan foydalangan.

Shular orasidan xitoy yozuvi insoniyat tarixida eng uzoq yashab kelayotgan va hanuzgacha amalda bo‘lgan yozuv tizimi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.Uning tarixi kamida 3–4 ming yilni qamrab oladi. Xitoy yozuvi fonetik emas, balki ma’no ifodalovchi tizim bo‘lib, har bir iyeroglif ma’lum bir ma’no yoki so‘zga teng keladi. Bu tizimning afzalligi shundaki, u tilning turli dialektlariga qaramasdan, yagona yozma standartni ta’minlaydi. Biroq, uning murakkabligi shundaki, har bir iyeroglifni yod olish uchun katta mehnat, bilim va vaqt talab qilinadi.

Xitoyshunos olimlar, xususan, F. M. Hasanova ta’kidlaganidek, xitoy tilining fonetik tizimi juda murakkab bo‘lib, putunxua (ya’ni umumxitoy adabiy tili)da 414 ta bo‘g‘in mavjud. Ammo xitoy tilidagi tonlar tizimi (ya’ni ovoz balandligining o‘zgarishi orqali ma’no farqlanishi) tufayli bu bo‘g‘inlar soni 1300 dan ortiq variantda talaffuz etilishi mumkin. Bu esa xitoy tili fonetikasining juda nozik va tonal xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, bir xil bo‘g‘in turli tonlarda aytilganda butunlay boshqa ma’no kasb etishi mumkin. Shuning uchun xitoy yozuvida fonetik transkripsiya juda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi zamonda xitoy tiliga xorijiy tillardan ko‘plab ilmiy-texnikaviy va sohaviy terminlar kirib kelmoqda. Bu atamalar, ayniqsa, fan, tibbiyot, texnika, axborot texnologiyalari va diplomatiya sohalarida keng qo‘llaniladi. Lekin xitoy yozuv tizimi fonetik emasligi tufayli bu so‘zlarni aynan talaffuziga mos holda ifoda etish doimo oson kechmaydi. Shu sababli ko‘p hollarda ular ma’nosiga yaqin bo‘lgan iyerogliflar orqali izohlanadi yoki transkripsiya yo‘li bilan moslashtiriladi. Biroq, bu usulda har doim ham asl talaffuz yoki ma’no to‘liq saqlanib qolavermaydi. Masalan, inglizcha “coffee” so‘zi xitoy tilida “咖啡 (kāfēi)” shaklida yoziladi, lekin u original talaffuzdan biroz farq qiladi.

Xitoy tilidagi dialektlar ham bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Bir xil iyeroglif turli viloyatlarda boshqacha talaffuz etilishi yoki ma’nosi o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, xorijiy tillardan kiritilgan so‘zlarni dialektlar asosida transkripsiya qilish katta tilshunoslik muammosini keltirib chiqaradi. Bunday murakkab jarayonlarda ilmiy aniqlikni ta’minlash uchun maxsus fonetik standartlar — Pinin tizimi yaratilgan. U iyerogliflarni lotin alifbosi orqali fonetik belgilash imkonini beradi.

Shunday ilmiy faoliyat misoli sifatida “Uyg‘ur tabobati xom dorilari ensiklopediyasi”ni keltirish mumkin. Ushbu asarda tabobatga oid ko‘plab o‘simlik nomlari xitoy iyerogliflari orqali

ifodalangan. Bu holat ikki muhim jarayonni aks ettiradi: birinchidan, milliy madaniy merosni umumxitoy ilmiy aylanmasiga kiritish, ikkinchidan, tillar o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni ta’minlash. Ushbu iyeroglif orqali berilgan atamalar orqali xitoy ilmiy jamiyati uyg‘ur tabobatiga oid bilimlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, bu tadqiqotlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ikki xil yozuv tizimi — fonetik va iyeroglifik tizimlar o‘zaro qanday uyg‘unlashishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuv insoniyat tafakkurining buyuk yutug‘i bo‘lib, har bir yozuv tizimi o‘ziga xos madaniy va ilmiy qadriyatni ifoda etadi. Xitoy yozuvi esa bugungi kunda ham amalda bo‘lib, nafaqat xitoy madaniyatini, balki butun Sharq sivilizatsiyasining ilmiy va madaniy tajribasini o‘zida mujassam etgan. Shu sababli, uning tarkibidagi atamalarni, ayniqsa, uyg‘ur tili kabi milliy tillardan kirib kelgan so‘zlarni tadqiq qilish — ilmiy jihatdan ham, madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega vazifadir.

Muhokama va natijalar. Uyg‘ur yozuvi uyg‘ur tiliga xos fonetik o‘ziga xosliklarni ifodalaydi. Xitoy tili va xitoy yozuvidan farqli ravishda, uyg‘ur tilida harflar tizimi mavjud bo‘lib, har bir harf bir tovushni ifodalaydi. Uyg‘ur tilidagi bu tovushlar uyg‘urcha talaffuz etish me’yorlariga rioya qiladi.

Uyg‘ur tilida unli tovushlar 8 tani tashkil etadi va quyidagilardir: ئا، ئە، ئى، ئو، ئۇ، ئۆ، ئۈ، ئې.

Bulardan ئە، ئۆ، ئۇ: til oldi unli tovushlari ...;پېمگەك، گۆزەل، گودەك، سوگەل

- ئا، ئو، ئۇ، ئى: tovushlari til orti qismi unli tovushlari ...;ئالتۇن، باتۇر، بۇغداي، سامان، جامغۇر

- ئى، ئې tovushlari oraliq tovushlar hisoblanadi.

Uyg‘ur tilida undosh tovushlar ئۈزۈك تاۋۇشلار deb nomlanadi va ular 24 tani tashkil etadi. Ular quyidagilar: ب، پ، ت، ج، چ، خ، د، ر، ز، ژ، س، ش، غ، ف، ق، ك، گ، ل، م، ن، ھ، ۋ، ي.

Undosh tovushlar jarangli va jarangsiz undosh tovushlar deb ikki guruhga ajratiladi:

a) jarangli undosh tovushlar: ب، ج، د، ر، ز، ژ، غ، گ، ك، ل، م، ن، ھ، ۋ، ي.

b) jarangsiz undosh tovushlar: پ، ت، چ، خ، س، ش، ف، ق، ك.

Xulosa qilib aytganda, uyg‘ur tilidagi dorivor o‘simliklar nomlarini xitoy tili iyerogliflari orqali transkripsiya qilish — bu shunchaki tillar o‘rtasidagi texnik moslashuv emas, balki madaniy muloqot, ilmiy integratsiya va bilimlarni umumlashtirish jarayonidir. Har qanday ilmiy ishlar singari, u ham xatolarsiz kechmaydi, ammo asosiy maqsad — ilmiy aniqlik, madaniy hurmat va o‘zaro tushunishga erishishdir. Shu jihatdan olib qaralganda, bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarga ijobiy baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Kelgusidagi ilmiy tahrirlar va tahlillar yordamida bu kabi orfografik yoki fonetik xatolar bartaraf etilib, ikki tildagi atamalarning mukammal muvofiqlashtirilishi ta’minlansa, bu nafaqat tilshunoslik, balki farmakologiya va etnomadaniyat sohalari uchun ham katta yutuq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130-bet.

2. Ҳасанова Ф. М. Хитой тили (Иероглифика). ТДШИ босмахонаси. –Тошкент – 2020.188-б.

3. Ҳасанова Ф. М. Хитой ёзуви иероглификаси асослари фанидан ўқув услубий мажмуа. 2014.

4. Истрин В.А. Возникновение и развитие письма. М.: изд. Вост.лит. 1963. С. – 387.

5. Махмуд ал-Кашгари Диван лугат ат-турк (Свод тюркских языков) [Текст] : в 3 т. Т. 1 / Махмуд ал-Кашгари. - М. : Восточная литература, 2010. - 461 с. - (Памятники письменности Востока). - ОИЛ Инв.1268239 Тюркские языки

6. Малов, С. Е. Памятники древнетюркской письменности [Текст] : тексты и исследования / С. Е. Малов. – М.-Л. : Издательство Академии наук СССР, 1951. - 451 с. Инв.115775 Тюркские языки

Djuletta RUZIYEVA,
Qarshi Davlat universiteti o‘qituvchisi
Djuletta_ruzieva@bk.ru

ZAMONAVIY NEMIS TILSHUNOSLIGI VA UNING O‘QITISH METODIKASINING INTEGRATSIYALASHUVI

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy nemis tilshunosligi taraqqiyoti, lingvistik paradigmalar almashuvi va ularning didaktik jarayonga ko‘rsatgan ta’sirini kompleks ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda kognitiv lingvistika, korpus lingvistikasi, pragmalingvistika, multimodal tahlil va sotsiolingvistika kabi zamonaviy yo‘nalishlarning nazariy asoslari chuqur ko‘rib chiqilib, ularning nemis tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘qitishdagi metodik ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy nemis tilshunosligi, korpus lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, multimodal tahlil, nemis tilini o‘qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv, CLIL, vazifaga asoslangan ta’lim*

Аннотация: данная статья посвящена комплексному научному анализу развития современной немецкой лингистики, смены лингвистических парадигм и их влияния на дидактический процесс. В исследовании подробно рассматриваются теоретические основы когнитивной лингистики, корпусной лингвистики, прагмалингвистики, мультимодального анализа и социолингвистики, а также выявляется их методическая значимость в преподавании немецкого языка как иностранного или второго.

Ключевые слова: *современная немецкая лингвистика, корпусная лингвистика, когнитивная лингистика, прагмалингвистика, социолингвистика, мультимодальный анализ, методика преподавания немецкого языка, коммуникативный подход, CLIL, обучение на основе заданий*

Annotation: this article presents a comprehensive scholarly analysis of the development of modern German linguistics, the shift in linguistic paradigms, and their impact on the didactic process. The study provides an in-depth examination of the theoretical foundations of cognitive linguistics, corpus linguistics, pragmalinguistics, multimodal analysis, and sociolinguistics, identifying their methodological significance for teaching German as a foreign or second language.

Key words: *modern German linguistics, Corpus linguistics, Cognitive linguistics, Pragmalinguistics, Sociolinguistics, Multimodal analysis, German language teaching methodology, Communicative approach*

Kirish.Zamonaviy nemis tilshunosligi (Moderne deutsche Linguistik) so‘nggi o‘n yilliklarda lingvistik paradigmalar almashuvi, yangi ilmiy metodlar va raqamlashtirilgan til resurslarining paydo bo‘lishi tufayli sezilarli darajada rivojlandi. Korpus lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika hamda multimodal tahlil kabi yo‘nalishlar tilni nafaqat abstrakt tizim sifatida, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida o‘rganishga keng yo‘l ochdi. Tilning real qo‘llanishi, nutqning kontekstga bog‘liqligi, inson tafakkuri va muloqot mexanizmlarining lingvistik talqini zamonaviy nemis tilshunosligining markaziy nuqtasiga aylandi.

Bu holat o‘z navbatida nemis tili o‘qitish metodikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. An’anaviy grammatik-qoidaboz yondashuvlar o‘rnini kompetensiyaga yo‘naltirilgan, kommunikativ, integrativ va texnologiyalashgan dars modellari egallay boshladi. Ta’lim jarayonida autentik nutq, korpus ma’lumotlari, multimodal materiallar va kognitiv jarayonlarga asoslangan mashqlar qo‘llanilishi o‘quvchining tilni ongli idrok etish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Ushbu maqolada zamonaviy nemis tilshunosligining asosiy tendensiyalari, ularning didaktik jarayon bilan uzviy bog‘liqligi hamda o‘qitish metodikasiga ko‘rsatgan ta’siri IMRAD formati asosida tizimli tahlil qilinadi.

Metodlar.Tadqiqot zamonaviy nemis tilshunosligining nazariy tamoyillari va uning o‘qitish metodikasi bilan integratsiyasini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy ishonchlilikni ta’minlash maqsadida quyidagi metodlar qo‘llanildi.

1. Nazariy-tahliliy metod

Nemis tilshunosligiga doir zamonaviy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, lingvistik maqolalar, onlayn elektron korpuslar (DWDS, DeReKo) va xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi. Ushbu metod asosiy lingvistik yo‘nalishlarning nazariy asoslarini, ularning shakllanish omillarini va didaktik jarayon bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tilning kognitiv va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganuvchi zamonaviy konsepsiyalar o‘qitish jarayonidagi o‘rni nuqtayi nazaridan baholandi.

2. Korpusga asoslangan empirik metodlar

Nemis tilidagi yirik elektron korpuslardan olingan real nutq namunalarining chastotasi, leksik-semantik o‘zgarishlar, kollokatsion birliklar hamda grammatik strukturalarning qo‘llanish dinamikasi kuzatildi. Korpus asosidagi dalillar o‘qitish jarayonida autentik materiallardan foydalanish zarurati va samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi. Shu bilan birga, korpus natijalari asosida mashq turlari, matnlar va o‘quv topshiriqlarini moslashtirish bo‘yicha xulosalar ishlab chiqildi.

3. Integrativ yondashuv

Lingvistik nazariyalar va didaktik metodlar o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlikni aniqlash maqsadida integrativ tahlil qo‘llanildi. Xususan, kognitiv lingvistikaning metafora va konseptual maydonlarni o‘rgatishdagi ahamiyati, korpus lingvistikasining esa mashqlarni real nutqqa moslashtirishdagi roli o‘rganildi. Bu yondashuv lingvistik bilimlarning amaliy metodikaga qanday ko‘chishini ko‘rsatib berdi.

4. Pedagogik kuzatuv va kontent tahlili

Ommabop va akademik darsliklar, CEFR standartlari, didaktik platformalar (Deutsche Welle, Goethe Institut, Hueber) tahlil qilinib, ulardagi lingvistik yondashuvlar va metodik yechimlar baholandi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ishtiroki, nutqiy faolligi va kompetensiyalarining shakllanish jarayoni pedagogik kuzatuv asosida o‘rganildi.

Natijalar.Olingan natijalar zamonaviy nemis tilshunosligi va didaktika o‘rtasidagi uzviy integratsiyaning bir nechta ilmiy asoslangan yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotganini tasdiqladi.

1. Lingvistik yo‘nalishlar bo‘yicha natijalar

Kognitiv lingvistika til birliklarini idrok jarayonlari, konseptual maydonlar va metaforik strukturalar orqali tushuntirishda yetakchi o‘ringa chiqdi. Frazeologizmlarni o‘rgatishda kognitiv asoslarni qo‘llash o‘quvchilarda mazmunni chuqurroq anglash va eslab qolishni kuchaytirishi aniqlandi.

Korpus lingvistikasi real nutqni chuqur o‘rganish imkonini kengaytirib, o‘qitish jarayonida autentik misollar asosida mashqlar yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Korpus ma’lumotlari asosida so‘z chastotasi, kollokatsiyalar va sintaktik konstruksiyalarni o‘rgatish o‘quv materiallarining tabiiylik darajasini oshiradi.

Pragmalingvistika nutq aktlari, muloqot strategiyalari va kontekstga bog‘liqlikni o‘rgatish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

2. O‘qitish metodikasidagi o‘zgarishlar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy metodik yondashuvlar sezilarli darajada yangilangan:

Kommunikativ metod o‘quvchi faol ishtirokini ta’minlab, real muloqotga asoslangan o‘quv jarayonini yaratadi.

CLIL yondashuvi (Content and Language Integrated Learning) fan mazmuni va tilni birgalikda o‘rgatib, o‘quvchilarda murakkab akademik fikrlashni rivojlantiradi.

Vazifaga asoslangan ta’lim (Task-based learning) amaliy vazifalar orqali til o‘rganishni faol va maqsadli jarayonga aylantiradi.

Raqamli didaktika multimodal kontent, interaktiv platformalar va onlayn korpuslar yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Korpusga asoslangan mashqlar so‘z tanlash, grammatik konstruktsiyalarni to‘g‘ri qo‘llash va matn tuzish bo‘yicha aniq ilmiy ko‘rsatkichlarga tayanadi.

Muhokama.Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy nemis tilshunosligi va uning o‘qitish metodikasi o‘rtasidagi integratsiyaning dolzarbligini va tobora kuchayib borayotganligini tasdiqlaydi. Lingvistika fanida kuzatilayotgan paradigma o‘zgarishlari ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodik yondashuvlar bilan izchil uyg‘unlashmoqda.

Kognitiv lingvistika o‘quvchilarda til birliklarini semantik asoslangan holda idrok etish, metaforik fikrlashni rivojlantirish va konseptual tizimlarni tushunishni chuqurlashtiradi. Bu yondashuv frazeologizmlar va metaforik birliklarning mazmunini osonroq ochishga yordam beradi, natijada o‘quvchilar nutqda til imkoniyatlaridan ongli foydalanishga intiladi.

Korpus lingvistikasi esa ta’lim jarayonining amaliy tomonini mustahkamlab, real nutqning qanday ishlashini ko‘rsatadi. Korpus asosidagi ma’lumotlar o‘qituvchilarga mashqlarni tabiiy nutqqa yaqinlashtirish imkonini beradi, o‘quvchilarda esa grammatik va leksik birliklarning qo‘llanish chastotasi haqida real tasavvur shakllanadi.

Zamonaviy metodlar, xususan kommunikativ yondashuv, CLIL va raqamli ta’lim vositalari o‘quv faoliyatini hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirib, o‘quvchilarning tilni faol qo‘llash motivatsiyasini oshirmoqda. Bu jarayon lingvistik nazariya va amaliyotning integratsiyasini yanada kuchaytiradi.

Xulosa.Tadqiqot davomida olingan natijalar zamonaviy nemis tilshunosligi va o‘qitish metodikasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ilmiy jihatdan chuqur asoslanayotganini ko‘rsatdi. Lingvistik paradigmalar almashuvi didaktik jarayonning yangilanishiga bevosita turtki bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kognitiv lingvistika nemis tilining konseptual tizimlarini chuqurroq tushunishga yordam berib, mazmunni idrok etish va nutqni ongli qurish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Korpus lingvistikasi o‘quv jarayonida autentiklik, real nutqqa yaqinlik va tizimli tahlilni kuchaytiradi.

Zamonaviy metodik yondashuvlar — kommunikativ metod, CLIL, TBLT, raqamli didaktika — lingvistik bilimlarni real muloqot bilan tabiiy ravishda bog‘laydi.

Natijada o‘quvchilar nafaqat grammatik bilimga ega bo‘ladilar, balki turli kontekstlarda tilni to‘g‘ri va funksional qo‘llay oladigan kompetent nutq egalari sifatida shakllanadilar. Shu bilan zamonaviy nemis tilshunosligi va o‘qitish metodikasining integratsiyalashuvi bugungi ta’lim jarayonining eng dolzarb va istiqbolli tendensiyalaridan biri ekani yana bir bor tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bussmann, H. Routledge Dictionary of Language and Linguistics. London: Routledge, 2006.
2. Engel, U. Deutsche Grammatik. Heidelberg: Groos Verlag, 2018.
3. Helbig, G., & Buscha, J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin: Langenscheidt, 2011.
4. Zifonun, G., Hoffmann, L., & Strecker, B. Grammatik der deutschen Sprache. Berlin: De Gruyter, 2010.
5.Dudenredaktion.DudenDieGrammatik.9.Auflage.Berlin:Dudenverlag, 2016
6. Nunan, D. Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
Schlüter, N. Kommunikative Didaktik des Deutschen als Fremdsprache. München: Iudicium Verlag, 2017.
7. Mayer, R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2021.

Nigina DAVRONOVA,
Yangi asr universiteti ingliz tili o‘qituvchisi
D.Nigina12@gmail.com

DISKURSGA ASOSLANUVCHI O‘QITISH METODI

Annotatsiya: ushbu maqolada til o‘qitish jarayoniga zamonaviy tendensiyalar orqali qarash ilgari surilgan bo‘lib, undagi kommunikativ yondashuvning natijasi bo‘lgan diskursga asoslanuvchi o‘qitish usuli tahlil qilingan. Turli olimlarning fikrlari orqali ushbu yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *diskurs, kompetensiya, top-down, bottom-up, kontekst, ekstralingvistik omillar.*

Annotation: this article presents a modern perspective on the language teaching process, analyzing the discourse-based teaching method, which is a result of the communicative approach. The importance and rationale of this approach are discussed, and its application in listening skills is illustrated through sample tasks. The significance of this approach is examined through the views of various scholars.

Key words: *discourse, competence, top-down, bottom-up, context, extralinguistic factors.*

Аннотация: в данной статье представлен современный взгляд на процесс преподавания языка, проанализирован дискурсо-ориентированный метод обучения, являющийся результатом коммуникативного подхода. Рассмотрены значение и причины применения данного подхода, а также показано его использование в развитии навыка аудирования на основе примерных заданий. Значимость данного подхода проанализирована через мнения различных ученых.

Ключевые слова: *дискурс, компетенция, top-down, bottom-up, контекст, экстралингвистические факторы.*

Kirish. XX asr birinchi va ikkinchi yarmida Chomskiyning grammatika nazariyasiga asoslangan holda an’anaviy o‘qitish metodi, ya’ni til o‘rganishda tahlil birligi sifatida gaplarni e’tibor markaziga olgan. Shu sabali ham, til o‘rganuvchidan o‘rganilayotgan tilda to‘g‘ri gap tuza olishi talab etilgan xolos. Bu esa kontekstdan uzilgan va real voqelikka yaqin bo‘lmagan gaplar ishlab chiqarilishiga olib kelgan. Natijada amaliy tilshunoslar, tadqiqotchilar hamda pedagoglar ma’no yaratish, tildan foydalanish qobiliyatida muhim vazifa bajaruvchi omillarga e’tibor qarata boshlashgan, va natijada, XX asrning ikkinchi yarmida diskursni asosiy tahlil markaziga oluvchi kommunikativ yondashuv vujudga keladi. Bu orqali tilning kommunikativ funksiyalari o‘qitish dasturining ajralmas qismiga aylanadi. Shuningdek, diskurs tushunchasi orqali kontekstning ahamiyatini oshiradi va uning o‘qitish jarayonlarining muhim qismiga aylantiradi.

“Diskurs” atamasining tahlil birligi sifatidagi roli 20-asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan bo‘lib, uning tarifi turlicha beriladi. Diskurs bir qancha sohalarga kirib borgan bo‘lib, til o‘qitish sohasi esa ulardan biridir. Shuning uchun ham ushbu tushunchaning ma’nosi turlicha talqin qilinadi. Selse-Murisia va Olshteinlarnig fikricha diskurs og‘zaki va yozma tilning namunasi va undagi kontekst hamda ishtirokchilarni hisobga olmasdan ma’no to‘liq anglashilinmaydi[1]. Bizning fikrimizcha diskurs barcha ekstralingvistik omillarni hisobga oluvchi va dinamikadagi tildir. Kubryakovaning ta’kidlaganidek, diskurs o‘zgaruvchan va turli zamon, makonda yangidan hosil bo‘ladi[3]. Olga Kucherenkoning fikricha diskurs matndan ham muhim hodisadir. Uning ta’kidlashicha diskurs tilning unga oid bo‘lmagan omillarini ham o‘z ichiga oladi, ya’ni ekstralingvistik omillarni[3]. Bu orqali esa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriy sharti bajariladi.

Diskursning til o‘qitishdagi ahamiyati bugungi kunda yuqori darajada bo‘lib, Pennikuk uning o‘qish, yozish, gapirish va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlagan[4].

Diskurs kompetensiyasi nima ekanligini ham alohida ta’kidlash zarur. Diskurs kompetensiyasi insonning nutqning bog‘langan qismlarini yaratish qobiliyati bo‘lib, bunda grammatika, leksika va sintaktik qoidalar, kommunikativ vaziyat hamda muloqot jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan ekstralingvistik omillar hisobga olinadi. Ushbu kompetensiya til shakllariga bo‘lgan e’tiborni suhbatdoshning kommunikativ maqsadini amalga oshirishga qaratilgan ifoda usullari va vositalariga e’tiborni ko‘chirish zarurligini talab qiladi.

Diskursga asoslanuvchi o‘qitish metodi diskurs tahlili va til o‘qitishdagi kommunikativ yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv diskurs tahlili, pragmatika, oldingi bilimlar va kontekstni o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ yondashuv til o‘rganuvchilar uchun zarur kontekstlarni yaratishni, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi yoki yozuvchi va o‘quvchi ma’lumot almashinuvini namoyish etish o‘quvchilarga turli vaziyatlarda tilni ishlatishga va uni qayta ishlashga imkon yaratib beradi.

Har qanday yaratilgan kontekstda ishtirokchilarning shaxsi va ular haqidagi ma’lumotlar juda muhim hisoblanadi. Zero, sinfda real-voqelikka oid muloqot modellashtirilsa, unda muloqotdagi shaxslarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa xususiyatlarini e’tiborga

olish zarur. Chunki o‘quvchilar ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda vaziyatga mos til birliklarini tanlashga undaladi. Dars jarayonida stimulatsiya qilingan bunday muloqot vaziyatlari haqiqiy muloqotda uchraydigan nutq hodisalarini shakllantiradi.

Quyida diskursiv kompetensiyaning bir qancha boshqa elementlari ham alohida ta’kidlab o‘tiladi:

1) Strategik element – bu muloqot jarayonida kommunikativ maqsadni aniqlash va ushbu maqsadga loyiq tayyorlanish qobiliyatini anglatadi. Bu orqali o‘quvchida kommunikativ vaziyatni tahlil qilish va kommunikativ maqsadga erishish uchun mos til vositalarini tanlash ko‘nikmalari shakllanadi.

2) Janr komponenti – bu o‘quvchilardagi janr me’yorlari haqidagi bilim va ko‘nikmalarini mujassamlashtiruvchi qobiliyatdir. Bu orqali o‘quvchilar janr toifalariga ko‘ra mutq yaratish va tegishli matn turini tanlash imkoniga ega bo‘ladi.

3) Matn komponenti – bu gaplarni ma’lum tartibda tuzib, uni bir butun matn birligi sifatida shakllantirish qobiliyatidir. Bu orqali o‘quvchilarda matn tuzishning va uni tahlil qilishning muhim bo‘lagi bo‘lgan izchillik va yaxlitlik xususiyatlarini e’tiborga olishni talab etadi.

Diskurs orqali til o‘rgatish “authentic” ya’ni real voqelikka mos manbalardan foydalanishni talab qiladi. Ushbu manbalar o‘qish maqsadida emas, balki turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Bu kabi manbalar inson hayotining turli jabhalarini yorituvchi kitoblar, gazeta va jurnallar parchalaridan iborat bo‘ladi. Shubhasiz, ushbu manbalardagi daraja xorijiy tilda so‘zlashuvchilar uchun moslangan bo‘lganligi sababli til o‘rganuvchilariga murakkablik qilishi mumkin. Shu sababli ham mahoratli o‘qituvchilar tomonidan moslashtiriladi. Ur, Selse-Mursia va Olshteinlarning taklifiga ko‘ra, moslashtirish imkoni bo‘lmaganda “imitation authentic”, ya’ni taqlidiy haqiqiy materiallardan foydalanish o‘rinlidir[1]. Shuningdek, yana bir holat borki, unda o‘quvchilar darajasi yuqori bo‘lsa, manbaga hech qanday o‘zgartirish kiritish zarur emasligini ta’kidlashadi.

Diskursga asoslangan yondashuvlar o‘qitish metodlaridagi top-down va bottom-up jarayonlarini integratsiya qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu kabi usullar ko‘proq maqsadli o‘rganish jarayonlarida qo‘llaniladi, ammo ularni turli til ko‘nikmalariga ham taqdim qilish mumkin. Misol uchun, bottom-up (pastdan yuqoriga) usuli orqali diskursni tushinishda so‘zlar va gaplarga e’tibor qaratish nazarda tutiladi. Top-down (yuqoridan pastga) usulida esa diskursni tushunish yoki yaratish jarayonida kontekst va madaniyat, jamiyat borasidagi bilimlarga tayanishni nazarda tutadi.

Diskursga tayanuvchi yondashuvni Listening – Tinglab tushunish ko‘nikmasiga tatbiq qilib ko‘ramiz. Zero, bu vazifada asosiy e’tibor tinglashga qaratilgan bo‘lsada, Hinkel qayd etishicha ma’noli muloqot hosil bo‘lishi uchun eng kamida ikkita ko‘nikma bir vaqtda qo‘llanilishi kerak. Shu sababli ham quyidagi misolda tinglash vazifasi yonida gapirish vazifasi ham talab qilinadi[2]. Ushbu vazifa “friendship” (Do‘stlik) haqida bo‘lib, tinglashni boshlashdan avval ushbu mavzuga doir bir qancha so‘zlarni eslash talab qilinadi. Ushbu vazifadan keyin esa o‘quvchilarga qisqa do‘stlik haqidagi hikoya eshittiriladi. Odatda, tinglash mashqlarida birinchi bora eshitish bu o‘quvchilarni tilga moslashishi va umumiy tasavvurga ega bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Shunday qilib ikkinchi marotaba tinglash orqali esa o‘quvchilardan ma’lum muhim ma’lumotlarni yozib olish talab qilinadi. Bu holat aynan til o‘rgatishda qo‘llaniladigan pre, post, while mashg‘ulotlarining ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Aynan ushbu holatda top-down va bottom-up usullari birgalikda qo‘llanilishi zaruriyati tug‘iladi. Bu orqali o‘quvchilar ishtirokchilar, kontekst va muhitdan kelib chiqqan holda ham xulosalar qilishlariga to‘g‘ri keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, diskursga asoslangan yondashuv ingliz tilini umumiy va maxsus maqsadlarda o‘qitish uchun samarali yo‘l hisoblanadi. Ularning diskurs tahlili va pragmatikaga tayanishi diskursni yaratish va talqin qilishni ancha osonlashtiradi. Shuningdek, ushbu yondashuv kontekst va oldindan lavjud bilimlarning ahamiyatini oshirib, haqiqiy til materiallarini qo‘llashning zaruriyatini oshiradi. Shuningdek, bu yondashuvlarda mazmun turli shakllar, gaplar, so‘zlardan oldin turadi. Shu sababli ham diskursni anglash maqsadida top-down va bottom-up usullari birgalikda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Celce-Murcia, M., and Olshtain, E. Discourse and Context in Language Teaching: A Guide for language teachers. New York: Cambridge University Press. (2000).
2. Hinkel, E. Current Perspective in Teaching the Four Skills[J]. TESOL Quarterly 2006 40(1) 109-131.
3. Kucherenko, Olha. What should be taught: text or discourse. New technologies of communicative teaching of a foreign language. Moscow: Moscow State Linguistic University, 2000, Edition 449: 84-89. Language Teachers[M]. Cambridge: Cambridge University Press. 2000.105.
4. Monti, M. Integration of learn roles and authentic materials in the adult education context. Retrieved on 28th May, 2009 fromhttp://www.pde.state.pa.us/able/lib/able/fieldnotes06/fn06authentic.pdf(2006)

Dilnaz JUMANIYAZOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qongirot tumani 3-maktab o‘zbek tili va adabiyot fani o‘qituvchisi



YOSHLAR VA KITOBXONLIK — INTELLEKTUAL JAMIYAT SARI YO‘L

Annotatsiya: maqolada yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining pasayishi, bu jarayonning jamiyat intellektual salohiyatiga ta’siri, kitob o‘qishning psixologik, ma’naviy va ijtimoiy foydalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar, elektron kitoblar, audio kitoblar va zamonaviy o‘qish platformalari imkoniyatlari yoritiladi.

Kitobxonlikni oshirish bo‘yicha taklif va yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik, yoshlar, ta’lim, intellektual rivojlanish, o‘qish madaniyati, audio kitoblar, elektron kutubxonalar.*

Аннотация: в статье анализируется снижение уровня чтения среди молодежи и его влияние на интеллектуальный потенциал общества. Рассматриваются психологические, культурные и социальные преимущества чтения книг. Освещаются современные инициативы по развитию культуры чтения в Узбекистане, включая электронные и аудиокниги.

Ключевые слова: *чтение, молодежь, образование, интеллектуальное развитие, культура чтения, аудиокниги, электронные библиотеки.*

Представлены предложения по повышению интереса молодежи к чтению.

Annotation: the article analyzes the decline of reading culture among youth and its impact on the intellectual potential of society. It highlights the psychological, cultural, and social benefits of reading, as well as modern initiatives in Uzbekistan that promote reading, including e-books and audiobooks. Several practical recommendations for increasing youth engagement in reading are presented.

Key words: *reading culture, youth, education, intellectual development, audiobooks, e-libraries, literacy.*

Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi axborot asrida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishning kamayishi butun dunyo jamiyatlarini tashvishga solmoqda. Yoshlar orasida vaqtning ko‘p qismi telefon, internet va ijtimoiy tarmoqlarga sarflanayotgani natijasida kitobxonlik madaniyati sezilarli pasaymoqda. Bu holat esa nafaqat individual fikrlash qobiliyatiga, balki jamiyatning intellektual salohiyatiga ham ta’sir qilmoqda.

Insonning ma’naviy olami, nutqi, fikrlashi, tasavvuri, tahliliy salohiyati aynan kitob orqali shakllanadi. Shu sababli kitobxonlikni rivojlantirish bugungi kunda milliy taraqqiyot uchun ustuvor vazifalardan biridir. Kitobxonlik madaniyatining ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, eng avvalo kitob har insonning aqliy va psixologik rivojlanishga ta’sir etadi. Chunki psixologlarning fikriga ko‘ra, muntazam kitob o‘qiydigan yoshlarning xotirasi mustahkam bo‘ladi, tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, tasavvuri keng bo‘ladi, nutqi boyib boradi.

Kognitiv tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qish miyada yangi neyron aloqalarning hosil bo‘lishiga yordam beradi. Bu esa insonning o‘rganish tezligini oshiradi, stressni kamaytiradi, e’tibor jamlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Kitob — bu avlodlar o‘rtasidagi ko‘prik. U xalqning tarixi, urf-odatlari, adabiy merosi va ruhiyatini o‘zida mujassam etadi. Yoshlar kitob o‘qimasa, kelajakda milliy o‘zlikning ayrim jihatlari yo‘qolishi xavfi tug‘iladi. Albatta, bugungi texnologiya asrida zamonaviy yoshlarni kitobxonlikka yo‘naltirish bu eng dolzarb mavzulardan biri. XXI asr ko‘pincha

“raqamli avlod” deb ataladi. Yoshlarning hayot tarzida mobil qurilmalar va internet asosiy o‘rinni egallagan. Shu o‘rinda yoshlar kitob o‘qishga ulgurmayotganining asosiy sabablarini keltirib o‘tsak:

ijtimoiy tarmoqlar va o‘yinlarga qaramlik; qisqa kontentlar (reels, shorts)ning ko‘pligi; motivatsiyaning pasayishi; o‘qishda tizimlilikning yo‘qligi; oilada o‘qish an’anasining sustligi. Biz bilamiz, bugungi mediamakon tezkor axborotga asoslangan. Ammo tez va yuzaki ma’lumotlarning ko‘pligi insonning chuqur fikrlash qobiliyatini zaiflashtiradi. Albatta, muammo muammoligicha qolmasdan yoshlarning kitoblarga qiziqishini orttirishimiz kerak. Biroq oxirgi yillarda audio kitoblar, elektron kutubxonalar va ijtimoiy tarmoqlarda kitob tavsiyalari sahifalarining ko‘payishi tufayli yoshlar orasida kitobga qaytish jarayoni ham kuzatilmoqda. O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslar yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, so‘nggi yillarda Davlat miqyosidagi islohotlar “Kitob karvoni”, “Book challenge” kabi aksiyalar; zamonaviy kutubxonalar barpo etilishi, maktab va oliygohlarda kitobxonlik haftaliklari, yoshlar uchun bepul elektron kutubxonalar loyihalari kabi tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Raqamli kitob resurslarining kengayishi ham yoshlarni kitob o‘qishga jalb qilishda katta hissa qo‘shmoqda. Bugungi kunda ko‘plab yoshlar: Zetbook Kitobxon.uz, Google Books, Audible, Storytel, kabi platformalardan faol foydalanmoqda. Bu o‘qishning yangi, qulay va mobil shakllarini yaratdi. Ayniqsa, audio kitoblar yoshlar orasida mashhur bo‘lib bormoqda, chunki ular yo‘lda ketayotganda yoki jismoniy mashq paytida ham eshitish imkonini beradi.

Bu kabi tashabbuslarga qo‘shimcha Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirib o‘tmoqchiman. Maktab va oliygohlarda “Yilning eng faol kitobxon talabasi/o‘quvchisi” tanlovlarini tizimli o‘tkazish, Kitob klublari tashkil etish, Zamonaviy adiblar bilan muntazam uchrashuvlar, dars jarayonida badiiy adabiyotlardan ko‘proq foydalanish, oilada kitob an’anasini kuchaytirish, haftasiga bir kun “Oilaviy kitob oqshomi”ni joriy etish, bolalar kutubxonalariga birgalikda tashrif, yoshga mos kitoblar tanlay olishda ota-onaga maslahat tizimini yaratish, jamiyatda kitob o‘qishga rag‘batni kuchaytirish, mashhur shaxslarning kitob tavsiyalari bilan ommaviy chiqishlari, Ijtimoiy tarmoqlarda kitob marafonlari, kitobga bag‘ishlangan festivallar, kutubxonalarni digital-marketing orqali targ‘ib qilish kabi ishlar kitobxonlikni oshirishda katta hissa qo‘shadi. Kitobga mehr qo‘ygan xalq — taraqqiyotga intilgan xalqdir. Kitob o‘qiydigan yoshlar mustaqil fikrlovchi;

ijtimoiy faolligi yuqori, intellektual salohiyatga ega, maqsad sari qat’iyat bilan intiluvchi insonlar sifatida kamol topadi. Zamonaviy jamiyatning muvaffaqiyati ilmli avlod bilan belgilanadi. Bunday avlodni tarbiyalashning eng samarali vositasi esa kitobdir. Shu bois kitobxonlikni targ‘ib qilish — bugunning emas, ertaning eng katta investitsiyasidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joiz, jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirishda davlat, ta’lim tizimi, oilalar, ommaviy axborot vositalari hamkorlikda harakat qilishi lozim. Chunki, kitob — insonning eng sodiq do‘sti, bilim manbai, ma’naviyat chirog‘i. U yoshlarni intellektual jamiyat sari yetaklaydigan eng kuchli vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov M. “Kitobxonlik madaniyati va yoshlar”. — Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
2. Mamatqulov A. “Zamonaviy o‘qish odatlari”. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
UNESCO Reading Trends Report, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari to‘plami, 2019–2024.

Alya XOJANAZAROVA,
Qaraqalpaqstan Respublikası
Nókis rayonı 31-sanlı mekteptiń
Baslawısh klass muǵallimi

JASLAR TÁRBIYASINDA MILLIY QÁDIRIYATLARDIŃ ÁHMIYETI

Annotaciya: maqalada jaslardı tárbiyalawda milliy qádiriyatlardıń roli hám áhmiyeti tolıq sáwlelendirilgen. Milliy qádiriyatlar jaslar sanasın qáliplestiriw, watandı súyiwshilik hám ádep-ikramlılıq tárbiyasın rawajlandırıwda tiykarǵı faktor sıpatında kórsetilgen. Soniń menen birge, zamanagóy jámiyet sharayatında milliy qádiriyatlardı saqlaw hám bekkemlew zárúr ekenligi atap ótilgen.

Gilt sózler*: jaslar tárbiyası, milliy qádiriyatlar Watandı súyiwshilik Mádeniyat milliy miyras, ádep-ikramlılıq tárbiya jámiyet, ruwxıylıq.*

Jaslar — hárbir mámlekettiń keleshegi, jámiyettiń eń áhmiyetli buwını bolıp esaplanadı. Búgingi kúnde globallasıw, texnologiyalıq rawajlanıw hám sırt el mádeniyatı tásiri astında jaslarımızdıń ruwxıy dúnyasın qáliplestiriwde qatar mashqalalar júzege kelmekte. Sonlıqtan, milliy qádiriyatlardı tárbiyalawdıń áhmiyeti barǵan sayın artıp barmaqta.

Milliy qádiriyatlar — bul bir xalıqtıń tariyxıy miyrası, mádeniyatı, úrp-ádetleri, dástúrleri hám ádep-ikramlılıq principleri. Olar jaslardıń sanasında watansúyiwshilik, adamgershilik, ádep-ikramlılıq, hadallıq, mehir-muhabbat hám jámiyetke paydalı bolıw sıyaqlı paziyletlerdi qáliplestiredi. Milliy qádiriyatlar tek ǵana ótken áwlad tájiriybesin jaslar menen baylanıstırıp qoymastan, al olardı zamanagóy turmıs talaplarına sáykes, bárkamal shaxslar etip tárbiyalaydı.

Mektep, joqarı bilimlendiriw mákemeleri, shańaraqlar hám jámiyetlik shólkemler jaslardı milliy qádiriyatlar ruwxında tárbiyalawda áhmiyetli rol atqaradı. Máselen, mektepte ana tili hám ádebiyat páni arqalı milliy miyras, tariyxıy waqıyalar hám ullı shaxslarımız haqqında bilim beriw múmkin. Soniń menen birge, sport, kórkem óner, mádeniy ilajlar hám milliy bayramlardı ótkeriw arqalı jaslarımızda milliy maqtanısh hám jámiyetke sadıqlıq sezimin oyatadı. Zamanagóy dúnyada jaslar arasında ayırım qádiriyatlardıń joǵalıp baratırǵanınıń guwası bolamız. Sol sebepli, hárbir shańaraq, pedagog hám jámiyetshilik wákilleri milliy qádiriyatlardı bekkemlewge, jaslardı ruwxıy jaqtan bayıtıwǵa ayrıqsha itibar qaratıwı zárúr. Milliy qádiriyatlar jaslardıń jeke rawajlanıwı, ádep-ikramlılıq tárbiyası hám jámiyettegi ornın belgilewde ayrıqsha áhmiyetke iye. Búgingi kúnde jaslar dus kelip atırǵan axborot aǵımları, túrli mádeniy tásirler, zamanagóy texnologiya menen baylanıslı qáwip hám imkaniyatlar olardı tuwrı baǵdarlawda jáne de kúshlirek bolıwdı talap etpekte. Milliy qádiryatlarǵa súyengen tárbiya jaslarımızda bekkem mánáwiy immunitetti qáliplestirip, jat ideyalarǵa qarsı turıw imkanın jaratadı. Ásirese ata-anaǵa húrmet, ustazǵa sıylasıq, halallıq, miynetsúygishlik, qońsıshılıq sıyaqlı qádiriyatlar jaslardıń aqılıy jaqtan bárkamal bolıwın támiyinleydi. Shańaraqtaǵı tárbiya da milliy qádiryatlar menen birikkende ǵana nátiyje beredi. Ata-ananıń sıylasıqlı bolıwı, shańaraq aǵzaları ortasındaǵı mehir-aqıbet, úrp-ádet dástúrlerimizdiń dawam ettiriliwi perzentlerimizdiń shaxs sıpatında qáliplesiwinde áhmiyetli orın tutadı.Sonlıqtan da hárbir shańaraq, bilimlendiriw mákemeleri hám jámiyet aǵzaları milliy qádiriyatlarǵa súyeniwi lazım. Milliy qádiriyatlar jas áwladtıń milliy ózligin ańlawda da ayrıqsha orın iyeleydi. Tarıyxtı, tilde, miyrastı bilgen, qádirlegen jas óz watanına, el-jurtına mehir menen qaraydı. Bul bolsa jámiyette belsendi, juwapkershilikli bolıwǵa úyretedi. Sebebi milliy ózlikti ańlaǵan jas ǵana kele-shekte mámlekettiń rawajlanıwı ushın pidayılıq



kórsete aladı. Sonlıqtan da Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev “Búgingi jaslarımız úlken kúsh, úlken imkaniyat. Sizler Jańa Ózbekstan quriwshıları, tarıyx búgin sizge náwbet bermekte, Sizler hárbir tarawda Ózbekstan bayrağın joqarı kótere alasız”,-degen edi. Álbette jaslardıń keleshegi pútkil xalıq, pútkil mámleket keleshegi . Sonıń ushın jaslar tárbiyası eń áhmiyetli wazıypa. Hárbir basshı, hárbir máhálle, hárbir mámleket organı bul jóneliske itibardı turaqlı qaratıwı kerek. Bunıń ushın eń áwele jaslar sanasında milliy qádiriyatlar túsinigin oyatıw, úrp-ádey dástúrlerimizdi, qádiriyatlarımızdı húrmet etiwge úyretiwimiz kerek. Milliy mánáwiy qádiriyatlarımız ásirler dawamında qáliplesken, xalıqtıń ruwxıy álemi, dúnyaqarası, úrp-ádetleri, dástúrleri, mádeniy tájiriybesi hám mánáwiy turmısın sáwlelendiriwshi biubaha baylıq. Olar áwladtan-áwladqa ótedi, jámiyettiń birdemligin bekkemleydi, millettiń ózligin belgileydi. Usı orında búgingi kúnde umıtılıp baratırǵan milliy qádiriyatlarımızdı qayta tiklew, olardı rawajlandırıwǵa ayrıqsha dıqqat qaratılmaqta. Mısal etip aytatuǵın bolsaq, Milliy qádiriyatlarımızdıń ólmes baylıǵı bolǵan oyın óneriniń rawajlanıwına degen kózqaraslar joqarı dárejede ósip kelmekte. Saxnalarda milliy oyınlarımızdı atqarıp, túrli nağıslar menen bezetilgen kiyimlerdi kiyip oynap atırǵan atqarıwshılardıń talantına súysinip qarasaq, ekinshi tárepten, bul kyimlerdiń de tamashagóyge jetkermekshi bolǵan oyları bar ekenliginiń guwası bolamız. Bunnan basqa da ata-babalarımızdan miyras qalǵan dástúrlerimizdi keleshek áwladqa jetkeriw bul jámiyette jasap atırǵan hárbir shaxstıń minnetli wazıypası boliwı kerek.

Juwmaqlap aytqanda, jaslardı milliy qádiriyatlar ruwxında tárbiyalaw - tek ǵana milliy miyrasımızdı saqlaw emes, al keleshek áwladtı bárkamal, ruwxıy jetik hám jámiyetke paydalı shaxslar etip qáliplestiriwdiń eń áhmiyetli jolı bolıp tabıladı. Sonlıqtan da, hárbirimiz jaslarǵa ózligimizdi qádirlew, tariyxımızdı biliw hám milliy qádiriyatlarımızdı húrmet etiwdi sińdiriwde juwapkershilikli boliwımız kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. A. Allamuratov “Máńgi miyras” – Nókis: “Bilim”, 1993.
2. K.Mámbetov “Qaraqalpaqlardıń etnografiyalıq tarıyxı” – Nókis: “Qaraqalpaqstan” 1995.
3. “Mádeniyat hám sport” gazetası, 2006-jıl 11-mart.
4. Internet resursları.

Islomiddin XOLMURODOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti tayanch doktoranti
islomiddin311096@gmail.com

ALISHER NAVOIYNING “HAYRATU-L-ABROR” DOSTONI MAQOLATLARIDAGI ADABIY ESTETIK QARASHLAR TALQINIDA HIKOYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya: Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror” dostonidagi hikoyatlarda tariqat shayxlari obrazining badiiy-estetik vazifalarini ochib berishda Navoiy mahoratini namoyon qilish. Navoiyning diniy-falsafiy mulohazalarining badiiy ifodasini ochib berish

Kalit so‘zlar: *Navoiy, imon masalasi, Boyazid Bistomiy, islom masalasi, Ibrohim Adham, Robiya Adaviya, Abdulloh Ansoriy, “Tazkiratu-l-avliyo”, “Nasoyimu-l-muhabbat”, xirqapo‘sh sufiylar.*

Аннотация: в статье раскрывается мастерство Алишера Навои в изображении художественно-эстетических функций образов шейхов тариката в назидательных рассказах поэмы «Хайрат уль-аброр». Особое внимание уделяется художественному выражению религиозно-философских размышлений поэта.

Ключевые слова: *Навои, вопрос веры, Боязид Бистами, вопрос ислама, Ибрахим Адхам, Рабия Адавия, Абдуллах Ансари, «Тазкират уль-авлия», «Насоим уль-мухаббат», дервиши в хирке.*

Annotation: this study explores Alisher Navoi’s artistic mastery in portraying the aesthetic and literary functions of Sufi sheikhs’ images in the didactic stories of the poem Hayrat ul-Abror. Special emphasis is placed on the artistic expression of Navoi’s religious and philosophical reflections.

Key words: *Navoi, the issue of faith, Bayazid Bistami, the issue of Islam, Ibrahim Adham, Rabi’a al-Adawiyya, Abdullah Ansari, Tazkirat al-Awliya, Nasayim al-Muhabbat, dervishes in khirqah.*

Kirish (Introduction). Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy qalamiga mansub barcha asarlar Sharq Uyg‘onish davri adabiy-ma’rifiy tafakkurining yuksak bosqichini aks ettiruvchi noyob hodisadir. Shoir “Xamsa” turkumini yaratish orqali turkiy adabiyotda nafaqat yangi badiiy an’analarni shakllantirdi, balki mavjud ma’naviy-falsafiy qarashlarni mukammal badiiy tizimga solib, ularga yangi estetik mazmun baxsh etdi. “Hayratu-l-abror” dostoni ana shu badiiy-nazariy taraqqiyotning boshlang‘ich, ammo tamal bosqichi sifatida alohida o‘rin tutadi. Mazkur dostonning muhim xususiyati shundaki, unda Navoiy falsafiy qarashlari, axloqiy-nazariy mulohazalari va ruhiy-ma’naviy konsepsiyalari badiiy kompozitsiya bilan uyg‘un holda ifodalanadi.

Mazkur tadqiqotda dostonning maqolotlar bo‘limidagi badiiy-falsafiy konsepsiyalar, estetik qarashlarning nazariy asoslari, hikoyatlarning poetik-funksional xususiyatlari, ularning doston estetik tuzilmasidagi roli, shuningdek, ushbu ikki komponentning o‘zaro ma’no-munosabati ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Navoiy merosi poetikasi, uning badiiy-falsafiy dunyoqarashi, mumtoz adabiyotdagi hikoyat an’anasi va didaktik poetika bo‘yicha izlanishlarga qo‘shimcha nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi kutiladi.

Tahlil va muhokama (Discussion). Dostonning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolotlar Navoiy fikriy sistemasi va estetik idealining konseptual negizini tashkil etadi. Ular insonning botiniy poklanishi, dunyoqarash tarbiyasi, jamiyat va shaxs munosabati, adolat va zulm, ilmning qadri, insoniy fazilatlar hamda ma’naviy mas’uliyat kabi masalalarni nazariy-falsafiy chuqurlikda yoritadi. Shu jihatdan maqolotlar shoirning axloqiy-falsafiy


konsepsiyasini o‘zida mujassamlashtirgan, ma’lum ma’noda uning tafakkur modeli sifatida qaralishi mumkin.

Maqolotlarning badiiy-estetik strukturasini to‘liq anglashda hikoyatlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy ulardan faqat badiiy bezak sifatida emas, balki falsafiy mazmunni kuchaytiruvchi, mushohada yo‘nalishini aniqlashtiruvchi, nazariy mulohazalarni hayotiy misollar bilan mustahkamlovchi metodik vosita sifatida foydalangan. Hikoyatlar maqolotlarda ko‘tarilgan mavzularning badiiy to‘ldiruvchisi bo‘lib, abstrakt g‘oyalarning konkret-syujetli shaklga o‘tishini ta’minlaydi. Shu tariqa, ular dostonning ichki mantig‘ini mustahkamlaydi, undagi axloqiy-estetik g‘oyalar tizimini yaxlitlashtiradi hamda o‘quvchi idrokida muayyan ma’naviy xulosaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hikoyatlar shoirning adabiy-estetik qarashlarini talqin qilishda muhim germenevtik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, Navoiy uchraydigan murakkab tasavvufiy, axloqiy, falsafiy tushunchalarni ko‘pincha hikoyatlar orqali ramziy yoki timsolli shaklda bayon etadi. Bu esa maqolotlarning umumiy g‘oya tizimini yanada aniqroq anglashga yordam beradi. Hikoyatlar mazmunidagi obrazlar, konfliktlar va ramziy voqealar shoirning estetik idealini ochishda kalit funksiyasini bajaradi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, “Hayratul-abror” dostonidagi maqolotlar va hikoyatlar o‘rtasidagi badiiy-funksional aloqalarni ilmiy asosda tahlil qilish Navoiy ijodining ichki poetik mexanizmlarini aniqlashtirishga, shoirning adabiy-estetik qarashlarining shakllanish jarayonini kengroq yoritishga imkon beradi. Shuningdek, maqolotlar va hikoyatlar o‘rtasida vujudga kelgan badiiy birlik Navoiy poetikasida nasihat, ibrat, tasvir va falsafaning qanday uyg‘unlashganini aniqlashga yordam beradi.

Alisher Navoiy ijodi Sharq mumtoz adabiyotida adabiy-estetik tafakkurning yuksak mahsuli sifatida alohida o‘ringa egadir. Uning “Xamsa” turkumiga kiruvchi “Hayratul-abror” dostoni shoirning badiiy-falsafiy dunyoqarashi, axloqiy-ijtimoiy qarashlari va estetik idealini mujassam etgan muhim asardir. Mazkur doston, avvalo, nazariy-didaktik yo‘nalishga ega bo‘lib, undagi



maqolotlar orqali Navoiy inson kamoloti, axloqiy poklik, adolat, ilm va ma’rifat kabi masalalarni chuqur falsafiy mushohada asosida yoritadi.

Maqolotlarning mazmun-mohiyatini ochishda hikoyatlar muhim badiiy vosita sifatida maydonga chiqadi. Hikoyatlar maqolotlarda bayon etilgan abstrakt g‘oyalarni konkret obrazlar, syujetli voqealar orqali tushunarli va ta’sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois “Hayratul-abror” dostoni maqolotlaridagi adabiy-estetik qarashlarni talqin qilishda hikoyatlarning o‘rni va vazifasini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1. “Hayratul-abror” dostonining maqolotlar tizimi va estetik mohiyati

“Hayratul-abror” dostoni kompozitsion jihatdan maqolotlar va ularni to‘ldiruvchi hikoyatlardan tarkib topgan. Maqolotlar Navoiy tomonidan muayyan axloqiy-falsafiy masalani nazariy jihatdan bayon etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular shoirning estetik qarashlarini bevosita ifodalovchi bo‘limlardir. Bu bo‘limlarda Navoiy so‘z san’ati, insoniy fazilatlar, jamiyatdagi adolat mezonlari, ilmning ustuvorligi kabi masalalarga o‘z munosabatini bildiradi.

Shoir maqolotlarda ko‘pincha umumiy xulosaviy fikrlar, nasihat va hikmatlar orqali estetik idealni belgilaydi. Biroq ushbu fikrlar ko‘pincha yuqori darajada abstrakt bo‘lgani sababli ularni idrok etishda hikoyatlar muhim talqin vositasi vazifasini bajaradi.

2. Hikoyatlarning badiiy-funksional vazifasi.

Hikoyatlar “Hayratul-abror” dostonida oddiy badiiy bezak emas, balki muhim poetik va estetik komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Ular maqolotlarda ilgari surilgan g‘oyalarni hayotiy voqealar, ramziy obrazlar orqali konkretlashtiradi. Shu tariqa hikoyatlar o‘quvchi tafakkurida mavhum tushunchalarning aniq tasavvurga aylanishiga yordam beradi.

Hikoyatlar, shuningdek, estetik ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Navoiy nasihatni bevosita buyruq yoki quruq pand shaklida emas, balki badiiy syujet orqali berish orqali o‘quvchining ruhiy qabulini osonlashtiradi. Bu usul shoirning yuksak estetik didi va pedagogik mahoratini ko‘rsatadi.

3. Hikoyatlar orqali adabiy-estetik qarashlarning talqini.

Navoiy hikoyatlar orqali o‘zining adabiy-estetik qarashlarini ramziy va timsolli shaklda ifodalaydi. Hikoyat qahramonlari, ularning xatti-harakati va taqdiri orqali shoir ideal inson obrazini yaratadi yoki salbiy xususiyatlarni tanqid qiladi. Bu esa maqolotlarda bayon etilgan nazariy qarashlarning badiiy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, adolat, kamtarlik, ilmga ehtirom, nafsni jilovlash kabi estetik-axloqiy tushunchalar hikoyatlar orqali yanada chuqurroq ochiladi. Shu jihatdan hikoyatlar maqolotlarning germenevtik kaliti bo‘lib, asarning umumiy ma’no qatlamini anglashda muhim ahamiyatga ega.

4. Hikoyat va maqolotlar uyg‘unligi — estetik yaxlitlik omili.

“Hayratul-abror” dostonida maqolot va hikoyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asarning estetik yaxlitligini ta’minlaydi. Maqolot—g‘oyaning nazariy bayoni bo‘lsa, hikoyat — uning badiiy ifodasidir. Ushbu ikki komponentning uyg‘unligi Navoiy poetikasining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, shoirning estetik konsepsiyasini to‘liq ochib beradi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” dostoni maqolotlaridagi adabiy-estetik qarashlarni talqin etishda hikoyatlar muhim poetik-funksional vazifani bajaradi. Ular nazariy-falsafiy g‘oyalarni badiiy obrazlar orqali konkretlashtiradi, estetik ta’sirchanlikni kuchaytiradi va asarning ma’no-strukturaviy yaxlitligini ta’minlaydi. Hikoyatlar Navoiy estetik idealining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘lib, shoirning so‘z san’ati va falsafiy tafakkuridagi yuksaklikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy Hayratul-abror. Sharh muallifi Akrom Malik. – Toshkent, 2024.
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik “Tamaddun”. – Toshkent, 2018 82-bet
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati I tom. O‘zbekiston SSR fan nashriyoti. – Toshkent, 1983.
4. Farididdin Attor. Tazkiratu-l-avliyo. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. – Toshkent, 2013.
5. Alisher Navoiy. Xamsa, Tanqidiy matn, Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev. – T.: “Fan”, 1960.
6. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – T.: Movorounnahr-O’zbekiston, 2009.
7. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti. – Toshkent, 1979.
8. Vahob Rahmonov “Hayratu-l-abror” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – Toshkent, 2020.

Barno MURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

HUVAYDO CHIMYONIYNING “ROHATI DIL” ASARI MANBALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Huvaydoning “Rohati dil” asari qo‘lyozmalariga oid ma’lumotlar beriladi. Tadqiqotda asarning hozirgi kunga qadar aniqlangan nusxalari, inventor raqamlari, hajmi, umumiy tashqi belgilari haqida qisqacha yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi “Rohati dil” asarining qo‘lyozma manbalari haqida umumiy tasavvur hosil qilish va keying matnshunoslik tadqiqotlari uchun manbaviy asos yaratishdan iborat.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, tasavvufiy asar, kotib, Rohati dil, manbashunoslik.

Аннотация: в данной статье представлена предварительная информация о рукописях «Рохати дил» Хувайдо. В исследовании кратко рассматриваются обнаруженные на сегодняшний день экземпляры произведения, их инвентарные номера, размер и общие внешние характеристики. Главная цель статьи — создать общее представление об источниках рукописи «Рохати дил» и сформировать базу данных для дальнейших текстологических исследований.

Ключевие слова: рукопись, мистическое произведение, писец, Rohati dil, исследование источников.

Annotation: this article provides preliminary information on the manuscripts of Huvaido's "Rohati dil". The study briefly discusses the copies of the work identified to date, its inventory numbers, size, and general external features. The main goal of the article is to create a general idea of the manuscript sources of "Rohati dil" and to create a source basis for further textual research.

Key words: manuscript, mystical work, scribe, Rohati dil, source studies.

Kirish.

XVIII-XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ko‘plab ijodkorlar bo‘lgan. Shular qatorida o‘zining so‘fiyona she’rlari va “Rohati dil” dostoni bilan tanilgan mutasavvif shoir Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydodir.

Shoir O‘sh shahrida tug‘ilib, bolalik va yoshlik yillari Farg‘onaning go‘zal qishloqlaridan biri — Chimyonda o‘tgan. Huvaydoning otasi G‘oyibnazar eshon Sharqiy Turkistonda mashhur bo‘lgan Hidoyatullah Ofoqxo‘ja eshonning muridlaridan bo‘lib, keyinchalik Chimyonga ko‘chib kelgan, u yerda masjid va xonaqoh qurdirgan va eshonlik qilgan.

Asosiy qism.

Xo‘janazar Huvaydodan bizga shoir she’rlaridan tashkil topgan “Devon” va “Rohati dil” dostoni yetib kelgan. Shoirning she’rlarining bir qismi, dostondan parchalar turli qo‘lyozma va toshbosma asarlar tarkibida saqlanib kelingan. O‘zi hayotlik davrida “Devon” tartib etmagan bo‘lsa ham, uning chevarasi Salohiddin Soqib she’rlarini to‘plab 1907-yil Toshkentda toshbosma usulida kitob chop ettirgan. “Rohati dil” asari esa nisbatan ertaroq. Ilk marta 1860-yil Qozonda toshbosma usulida chop etilgan.

Biz ushbu maqolamizda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Instituti Qo‘lyozmalar fondi Asosiy bo‘limda saqlanayotgan Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asariga oid manbalar xususida to‘xtalamiz.

1. **1766 raqamli qo‘lyozma** – “Masnaviy. “Rohati dil”. Muallifi – خواجه نظر چیمیانی Xo‘janazar Chimyoniy. Qo‘lyozma uchta to‘q qizil rangdagi o‘yma nashqli yashil karton bilan muqovalangan. 86 varaqdan iborat. Ko‘chirilgan joyi va kotibi haqida ma’lumot berilmagan. O‘lchami 13,5 x 22 sm. Qo‘lyozma tarkibidagi matn Qo‘qon qog‘oziga nasta’liqda 15 qatordan qilib yozilgan. Matn qora, sarlavhalar qizil siyohda bitilgan. Qo‘lyozmaning chetlari titilib ketgan, biroq poygirlari bor. Basmaladan so‘ng “Rohati dil” dostoni ko‘chirilgan. Dostonning boshlanishi quyidagicha:

ثنا حمد خلاق جهانغه که حکمین کورساتیب یخشی یامانغه توتوبدور بی ستون کوکنی

1. معلق ب.یب شمس و قمر دونیاغه رون

Doston “Afsusnomayi hazrat eshon Huvaydo” sarlavhali masnaviysidagi quyidagi misralar bilan yakunlanadi (85[a]).

تاالکونچه سن بنده لیکنی قویا کورمه بر تنکریدین اوزکا همه سی فانی

Qo‘lyozmaning so‘nggi sahifasiga (85[b]) Fuzuliyning “Ketur soqiy qarokim bog‘-u sahrolarni zor o‘ldi” 8 baytli g‘azali kitobat qilingan. Kolofonda 1229/1813-14 yili ko‘chirilgani yozib qo‘yilgan:

تمت الکتاب بعون الملک الوهاب فی السنه هذه سنه ۱۲۲۹

2. **11362/I raqamli qo‘lyozma –** راحت دل nomi bilan qayd etilgan, muallifi – خواجه نظر هویدا Xo‘janazar Huvaydo. Qo‘lyozma qora rangdagi karton muqovada bo‘lib, راحت دل هویدا “Rohati dil” Huvaydo (1 a–100 b) va قصه سلتان جمجمه “Qissayi Sulton Jamjama” (101b –109b) birgalikda ko‘chirilgan. O‘lchami 12,5 x 21 sm. Matn har bir sahifaga 13 qatordan qilib yozilgan. Jami 109 varaq.

Boshlanishi: قیلور غه ...غوسینی ا.ل اب برونی شو چون غرق ایتمادی اب انگا یول بیردیلار انداغ یر غباری چیقتی قالمای زره تیر

Tugashi: که باب الشمس اتلیغ بردی ماوا اولوغلوغی ایرور چون عرش اعلاینه کوب و عده قیلدی حی اکبر جمالیم کورسات دیب روز محشر

Kolofon :

هر که خواند دوعا طمع دارم زنکه من بنده گنهکارم شد بتوفیق خدای لا ینام این کتاب روز دو شنبه تمام

3. 3430/I raqamli qo‘lyozma muallifi – خواجه نظر بن غاعب نظر هویدا چیمیانی Xo‘janazar ibn G‘oibnazar Huvaydo Chimyoniy. XIX asrda ko‘chirilgan, holati o‘rta. Sharq qog‘oziga nasta’liq xatida qora siyohda ikki ustun qilib ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning o‘lchami 15,5 x 26 sm. Ushbu qo‘lyozma 3 qismdan: راحت دل – “Rohati dil” 89 (1^b-90^b), دیوان خوجه احمد یسوی “Devoni Xoja Ahmad Yassaviy “ 89 (93^b-273^a) va بهرام و گلندام صیقلی Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” 192 (276^a–367^a) asarlaridan tashkil topgan. 24–46, 48–57 sahifalarga suv tegib sahifalarning yuqori qismini o‘qish qiyin holatga kelib qolgan. Matn ikki ustun, 11 yo‘l qilib ko‘chirilgan. 87^b sahifada حاتمه الکتاب Xotimat ul-kitob va 88^b sahifada مناجات Munojot sarlavhalari qo‘yilib, Huvaydoning 15 ta ruboiysi ham kitobat qilingan. Kolofonda xattot Mulla Obidboy ekani yozib qo‘yilgan. 91-92 varaqlar bo‘sh qoldirilgan. Jami 274 sahifa. Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” asaridan so‘ng Mashrab g‘azali va shoir Imloning 10 ta g‘azali berilgan. 237^b-239^b sahifalarda yana غزلیات هویدا – G‘azaliyoti Huvaydo sarlavhasi bilan shoirning “Dilo g‘aflatdin uyg‘ong‘il sanga jannat kerak bo‘lsa”, “Xoki poyi yaxshilar bo‘l, xok bo‘lmasdin burun”, “Zamone joni azizing tan ichra muhlat emish” g‘azallari ko‘chirilgan.

Boshlanishi:

ثنا حمد خلاق جهانغه که حکمین کورساتیب یخشی یامانغه

Tugashi:

اولکونچه سن بنده لیکنی قویا کورمه بر تنکریدین اوزکا همهنی او غوسی فانی

Kolofon

تمت الکتاب بعون الملک الوهاب ...باسم ملا عابد بای

4. 5661/II raqamli qo‘lyozma راحت دل و قصه ابراهم ادهم – “Rohati dil va qissayi Ibrohim Adham” deb nomlangan. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan, bir necha qismdan tashkil topgan. Undan Nasimiyning “Qissayi Ismoil alayhissalom”, “Qissayi Bibi Maryam”, “Mehmonnomayi Nasimiy”, “Hazrat Shayx Mansur”, “Hikoyati imom Husayn g‘azavatiy va shahadatiy”, “Qabrnoma”, Qul Sulaymon she’rlari, “Me’rojnoma”, “Mahsharnoma” kabi asarlari 90 (1a-91), Huvaydoning “Rohati dil” 97 (91b-189a) asaridan “Parvardigor qudrati”, “Mahsharnoma”, “Jannat bayoni”, “Namoz bayoni”, “Hazrat Ibrohim Adham” haqidagi boblar berilgan.

Boshlanishi:

کونلارده بر کون فاطمه فرزنذ نور مصطفی اوز وفاتیدین خبر تابتی بفرمان خدا

Tugashi: بو سوز بیرله ادا بولدی تمن سوز که اصلی سوز بودور ای مرد دلسوز

5. 7719/II Boborahim Mashrabning دیوان مشرب 81 (1^b-81^b) va Huvaydoning راحت دل asari 50 (83^b-153^b) birgalikda ko‘chirilgan. Qo‘lyozma muqovasi yashil kartondan ishlangan, yon tomoni charm. Muqova uch tamg‘ali o‘yma naqshli. Qo‘lyozmaning o‘lchami 17x22 sm. Matn havorang va sarg‘ish qalin karton qog‘ozga har bir sahifaga 15 misradan qilib ko‘chirilgan .

6.

Boshlanishi:

الحمذ الله رب العالمين و العقبه المتقين و الصلوه و السلام على رسوله محمد و على اله و احصابه اجمعين

Tugashi:

منى قلدى ضايى تاب يتم خداغه شكركيم مقصدكه يتم

Kolofon:

تمت الكتاب بعون الملک الوهاب

7. 3696/I راحت دل مع غزليات هويدا qo‘lyozma usti yashil muqovali qalin karton bilan muqovalangan. Matn nasta’liqda ikki ustun 15 misradan qilib tartib bilan yozilgan. Sarlavhalar qizil siyohda, matn qismi esa qora siyohda ko‘chirilgan. Poygirlari mavjud. Qo‘lyozma Miskinning g‘azal va masnaviylari 40 (1^b-40^b), “Rohati dil” 92(41^b-132^a), “Qissayi Sultoni Jamjama” 6 (132^b-137^a) “Hikoyati Hazrat imom A’zam”,… “G‘azaliyoti Huvaydo” 63 (147a-209^b) asarlaridan tashkil topgan.

Boshlanishi:

كه وصف روى تو بر دفتر بسيار بنو سم كه او صافى جمالت در در دوار بنوسم

Tugashi:

حطن صحراسيغهذتزشسه اوشلدى قدرى مشكيم دين كينگ بغريده قان كويكاى

8. 1932/I راحت دل نظم ushbu qo‘lyozma Huvaydoning “Rohati dil” 89 (1^b – 89^b), “Boboravshan qissasi” 31 (89^b-120^b) va Mashrabning “Munojot” 15 (121^a-135^b) asarlaridan iborat. O‘lchami 12 x 19,5 sm. Qo‘lyozma hajman kichik, besh tamg‘ali yashil karton bilan muqovalangan. Birinchi sahifada kotibning iltijosi berilgan. Qo‘lyozma 1304/1887-88 yili ko‘chirilgan.

Boshlanishi:

ثنا حمد خلاق جهانغه كه حكمين كورساتيب يخشى يامانغه

Tugashi: قلاق سالغيل خاس امتى بولار ديسنگ اتا انا ديما ديلار ديدى امت

Kolofon:

هر كه خواند دعا طمع دارم ز انكا من بنده گناه كارم تمت الكتاب بعون الملک الوهاب سنه ١٣٠٤

9. 6217 raqamli راحت دل –“Rohati dil” qo‘lyozmasining holati yaxshi. Uch tamg‘ali o‘yma naqshli karton bilan muqovalangan. Ko‘chirilgan yili 1262/1845-46 yil, o‘lchami 15 x 25 sm. Jami 126 varaq, boshi yo‘q. “Rohati dil” asari ikki ustun 11 yo‘lda yirik nasta’liqda tartib bilan yozilgan. Sarlavhalar qizil siyohda berilgan, poygirlar bor. 24-25 sahifalarda yozuvning o‘chib ketgan joylari kotib tomonidan qaytadan hoshiyaga yozib qo‘yilgan. 122^b-123^a sahifada حاتمه الكتاب xotimatul kitob berilgan, 123^b – 125^b sahifalarda رباييات ruboiyot sarlavhasi bilan Huvaydoning 15ta ruboiysi ko‘chirilgan.

Boshlanishi:

دعاسيدين بيراوني بردي طوفان
قيريلدي يير يوزيداكي حمه جان

Tugashi:

هر که خواند دوع طمع دارام زانکه من بنده کنهکارم زانکه من بنده کنهکارم تمت الکتاب بعون الملك الوهاب الیهھر جع و الماب

Kolofon:

شد بتوفق خداي الیانم این کتاب روزي جهارشنبه تمام

10. 12056/IV raqamli qo‘lyozma ko‘k rangdagi karton bilan muqovalangan. So‘nggi sahifaga jami 276 varaq deyilgan, biroq sahifalar 280 gacha raqamlangan. Qo‘lyozma bir necha qismdan tashkil topgan: avval fiqhiy masalar bayoni (2^a-101^b), keyin o‘rtada 5 varaq bo‘sh qoldirilgan, raqamlanmagan. “Devoni Qosim” (102^b - 138^a), so‘ngra Qul Sulaymon asari 4 (139^b-142^b), “Qissayi Ibrohim Adham” 28 (144^b-172^b), keyingi asarga o‘tishdan avval yana 1 varaq bo‘sh qoldirilgan. “Yusuf va Zulayho” 47 (177^a -222^a); “Risolayi dehqon”, Risolayi ohangar va risolayi miltiq”, “Soatnoma” (222^a-235^b), “Jangnomayi Hazrat Ali” 45 (236^a-280^b) asarlari berilgan.

Boshlanishi:

باب طهارت دعالارنی بیلماملیمدا ترور اول اولکیم ایستینجادین سونگ

Tugashi:

قیامت کونی یوزی قرا بولغان حضرت محبیبی ایتیب تورلار انینک کیم یقاسی منینگ ییلکمده بولغای و الله اعلم سنه ١٢٤٠

Kotib tomonidan kolofonda 1240/1823 sana qo‘yilgan.

11. 13188 raqamli qo‘lyozma jigarrang karton bilan muqovalangan. Qo‘lyozmaning holati o‘rta. Varaqlari shikastlangan keyinchalik ta’mirlangan. Jami 35 sahifadan iborat. Ko‘chirilgan yili 1265\1848-49. Qo‘lyozma quyidagi asarlardan tashkil topgan غزل نسیمی Nasimiy 16(1^b-16^a), “Qildi falak” radifli muxammasi (16^b-18^b) va راحت دل “Rohati dil” asari 17(19^b-36^a).

Boshlanishi:

امیر قویدی انینگ ادین اتاسی فصیبود قویدی مونونگ ادین اناسی

Tugashi:

که ابراهیم اتی عالمغه تولدی که مشریق تا به مغریب گا یاییلدی

12. 9817 raqamli qo‘lyozmaning xattoti ملک الوهاب ابن ملا عبد الرحیم Qo‘lyozma qizil karton bilan muqovalangan. Matn ikki ustun 15 yo‘l qilib ko‘chirilgan. 1-sahifada qalam bilan داستان سیقلي “Dostoni Sayqaliy” deb yozilgan. Qo‘lyozma quyidagicha qismlardan tashkil topgan: “Qissayi imom Hasan va imom Husayn” 44 (1^a-44^a), “Usmon ibn Affon” 8(45^b-52^b), “Qissayi Ibrohim Adham” 8(53^a-60^b), Ahmad Yassaviy hikmatlari 19 (60^a-78^b).

Boshlanishi:

ایمدی صیقلی ماتم سرای بول اگر چه بینوا سن بانوا بول

Tugashi:

روزه نی اون ترتیبده بردی خدا بولغای جان ای برادر بو اولوم هیچ بندغه برماس امان

13. 12759 raqamli qo‘lyozma د یوان هویدا – “Devoni Huvaydo” nomi bilan kitobat qilingan bo‘lsa-da, faqat “Rohati dil” asari ko‘chirilgan. 101 varaq (1^{b}-101^{b}). Usti yashil karton muqovali. Oddiy Qo‘qon qog‘oziga chiroyli nasta’liqda bitilgan. Ko‘chirilgan yili 1269/1852-53 yil. O‘lchami 15x26 sm. Shoir devoni “basmala” kalomidan so‘ng quyidagi bayt bilan boshlanadi:

ثنا حمد خلاق جهانغه که حکمین کورساتیب یخشی یامانغه

Tugashi:

که اصل سوز بودور ایمرد دل سوز

Kolofon:

سنه ۱۲٦۹ خت در ورق و هر بماند صد سال بیجاره نویسنده که در خاک رود تمت الکتاب بعون الملک الوهاب

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi qo‘lyozmalardan ma’lum bo‘ladiki, Huvaydoning “Rohati dil” asari islom tarixiga oid yoki tasavvufiy asarlar bilan birga kitobat qilingan, bayozlarda esa shoir ijodi mutasavviflar ijodi va ayrim duolar bilan birga ko‘chirilgan. Bu esa asarning o‘zbek adabiy merosida muhim o‘rin tutishi va qo‘lyozma manbalarining ko‘pligi mazkur asarning keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Maqolada keltirilgan nusxalar turli davrlarda, har xil saviyadagi kotiblar tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, bu holat dostonning hajmi, tartibi va matn variantlarida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltirgan. Qo‘lyozmalarning ayrimlarida she’rlar to‘liq emas, ayrimlarida esa matnda o‘zgarishlar kuzatiladi. Bunday qo‘lyozmalar matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilishi, variantlarning qiyosiy o‘rganilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan “Rohati dil” asarining mazmun-mohiyatini o‘rganish, muallif ijodiy merosini to‘liq yoritish hamda keyingi matnshunoslik tadqiqotlari uchun bu kichik tadqiqot manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Ҳалқ мероси”, 1994. 119 б.
2. Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Дисс...канд.фил.наук. –Т., 1990.
3.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 1766.
4.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 1932\I.
5.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 3430/1.
6.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. №3696\1.
7.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 5661\II.
8.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 6217.
9. O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 7719.
10.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 9817.
11. O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 11362\1.
12. O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 12056\IV.
13. O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 12759.
14.O‘zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 13188.

Sayfulloxon MUHAMMADSOLIYEV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti doktoranti

XOJANING BADIIY SAN’ATLAR QO‘LLASH MAHORATI

Annotatsiya: maqolada XVI asr mumtoz adabiyoti vakili Xojaning badiiy san’atlardan foydalanish mahorati tadqiq etiladi. Shoirning g‘azal, ruboiy, masnaviy va nasriy asarlarida qo‘llangan tashbeh, istiora, tajnis, iyhom, tadrij, talmeh, tazod, saj’ va kitobat san’atlari aniq misollar asosida tahlil qilinadi. “Kechadur” radifli g‘azal hamda “Miftoh ul-adl” asaridagi hikoyatlar orqali Xojaning mazmun yetakchiligiga asoslangan, xalqchil va didaktik yo‘nalishdagi poetik mahorati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Xojaning mumtoz adabiyot va turkiy badiiy nasr taraqqiyotidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Xoja, mumtoz adabiyot, badiiy san’atlar, g‘azal, istiora, saj’, XVI asr*

Annotation: the article examines Khoja’s artistic mastery in employing poetic devices in sixteenth-century classical literature. Based on lyrical and prose works, the study analyzes figurative techniques such as simile, metaphor, tajnīs, īhām, tadrīj, talmīḥ, antithesis, saj‘, and calligraphic symbolism. Special attention is given to the ghazal with the refrain *“kechadur”* and the narratives of *Miftāḥ al-ʿAdl*. The research demonstrates that semantic depth dominates Khoja’s works while artistic devices enhance expressiveness and didactic impact, highlighting his significant contribution to Turkic classical literature.

Key words: *Khoja, classical literature, poetic devices, ghazal, metaphor, saj‘, sixteenth century.*

Аннотация: в статье исследуется художественное мастерство Ходжи в использовании поэтических средств в классической литературе XVI века. На материале лирических и прозаических произведений анализируются такие художественные приёмы, как ташбех, истеара, таджнис, ийхам, тадридж, талмех, тазод, садж’ и китабат. Особое внимание уделяется газели с радифом «кечадур» и рассказам из произведения «Мифтоҳ ул-адл». Показано, что в творчестве Ходжи ведущую роль играет содержание, гармонично сочетающееся с выразительными художественными средствами и дидактической направленностью.

Ключевые слова: *Ходжа, классическая литература, художественные приёмы, газель, метафора, садж’, XVI век.*

Badiiy san’atlar sharq mumtoz adabiyotining, shu jumladan, o‘zbek adabiyotining o‘ziga xosligi, milliyligi, latofati, nazokati, rango-rangligi, jozibadorligi va ta’sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasidir. Mumtoz adabiyotimiz badiiy san’atlarga boy, ular nihoyatda xilma-xil va nihoyatda nafis. Xojaning adabiy merosi lirik va epik turdagi asarlardan iborat. Uning lirikasi devon shaklida saqlanib qolmagan, faqat ayrim she’riy namunalarigina yetib kelgan. Shunga qaramay, bu namunalar Xojaning xiyla iqtidorli lirik shoir bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xoja boshqa janrlardagi asarlarda bo‘lgani kabi, qit’a, ruboiy, masnaviy kabi janrlarda yozgan lirik she’rlarida ham ko‘pincha axloq-odob masalalari haqda fikr yuritadi, kitobxonlarga pand-nasihat qiladi. G‘azallarida esa harorat bilan ishq, visolning shavq-zavqini kuylaydi va hijronning alam-iztirobidan zorlanadi[1]. Ijodkor asarlari sodda va o‘quvchiga oson uslubda yozilganiga qaramay, aksariyat o‘rinlarda mazmun talabi bilan ta’sirchanligi hamda, ifodaviyligini oshirish maqsadida badiiyat unsurlaridan mohirona foydalanadi.

Maxsus badiiy tasvir vositalari asarning poetik bezagigina bo‘lib qolmasdan, asar g‘oyasini konkretlashtirishning realistik vositasi hamdir. Asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xarakterlarning tipikligi, san’atkor talqin etgan estetik idealning muhimligi, asarning xalqchilligi, ijodkorning shakl va mazmun birligiga erishishdagi

1 Маллаев.Н “Ўзбек адабиёти тарихи” 1- китоб. – Т., 1968.645-б.

mahorati, asarning ma'rifiy va estetik tarbiyaviy ta'sirining kuchli bo'lishi – badiiy tasvir vositalarini mohirona ishlata bilish san'atiga ham bog'liq.[2]

Xojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida Xoja "Kechadur" radifli g'azalini Boburga yuborganini va Bobur uni maqtaganini yozgan.[3]Ishqiy mavzuda bitilgan g'azal matni quyidagicha:

Kunduz avqotim saning hajringda nolon kechadur,
Kecha ham zulfing kabi holim parishon kechadur.
Anbarin zulfing xayolidin ko'zumga, ey pari,
Yilu oyu soatu kun-bori yakson kechadur.
Ulki jondin kechadur shomi visolingni ko'rub,
Vah, na hush vaqtu na xush soat na oson kechadur.
Ravshan o'lg'ay davlati vaslida hijron oqshom,
Gar gunohimdin ul mohi tobon kechadur.
Xoja yanglig' nola qil zulfi g'amidin kechalar,
Kim mahalli nolavu faryodu afg'on kechadur .[4]

G'azal garchand an'anaviy ishq mavzusida yozilgan bo'lsa ham, Xoja unda o'zining Boburga bo'lgan munosabatini turli ishora, majoz va istioralar orqali ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Aniq ma'lumot bo'lmasa ham, Xojaning Bobur bilan avvaldan tanish bo'lganini taxmin qilish mumkin. Ularning deyarli tengdosh bo'lganligi, bir davrda yashaganligi hamda uchrashish imkoniyatlari bo'lganligini hisobga olib shunday xulosaga kelish mumkin. G'azalning Bobur saltanati cho'qqiga ko'tarilib, Hindiston va Afg'onistonda yirik imperiya tuzgan paytida yozilgani, bu paytlarda Boburning hademay Movarounnahr va Xurosonni ham egallashi mumkinligi haqida gaplar yurganini e'tiborga oladigan bo'lsak, g'azalning ayniqsa keyingi ikki baytidagi mazmun sirlari ochilgandek bo'ladi. Xoja ularda juda ehtiyotkorlik, Xojagon tariqati namoyandalariga xos andisha bilan va Xonlar undan xavfsiramaydigan usulda Boburga muhabbatini bildirgan.

Xojaning bizga ma'lum she'rlarida badiiy san'atkorlikdan ko'ra mazmun yetakchi ahamiyatga ega. Bu uning lirik she'rlari va masnaviylariga ham xos xususiyat. Ammo, bu g'azalda u Boburning didini hisobga olib bo'lsa kerak, "hamvorlikka" alohida e'tibor bergan. G'azaldagi hamma baytlar turli bezaklar bilan ziynatlangan, hatto, har bir so'zni ham xilma-xil ma'no beradigan tarzda tashbeh va istioralar bilan bezagan.

XVI asrda Xoja "kechadur" radifli g'azal bitib, mazkur so'zni 8 xil ma'noda qo'llab, ajoyib tajnis yaratgani ma'lum.[5]

G'azal hajman 5 bayt. Radifi – kechadur, turkiy, umumiy 8 marotaba qo'llanilgan. G'azal ishqiy mavzuda bitilgan. Qofiyaga olingan so'zlar – nolon, parishon, yakson, oson, hijron, tobon, afg'on. a-a, b-a... holda qofiyalangan. G'azal talablariga to'la javob beradi.

G'azalda bitta "Kecha" so'zi "nola bilan o'tmoqda, sutkaning yarmi, g'am bilan bir xil, zerikarli, jondan voz kechmoq, hayotdan to'ymoq, xursandchilik bilan o'tmoqda, kechsa (o'tsa), qop-qora zulmat, tugamoqda" kabi ma'nolarda qo'llanib, tajnis, o'xshatish, iyhom, istiora san'atlari hosil bo'lgan.

G'azalda an'anaviy oshiqning ma'shuqaga bo'lgan ishqi kuylanadi. Matla'da oshiqning kunduz kuni hijron azoblariga sarflanishi, kechasi esa xuddi yorning sochlaridek parishonlikda o'tayotganidan shikoyat qiladi. Yor hajrida kunduzi ham kechaga aylanib qolgandek go'yo. Shu o'rinda birinchi satrda radif bo'lib kelgan kechadur zimdan tashbehga ishora qilmoqda. Tashbeh – biror bir obraz yoki timsolga boshqa bir narsa yoki shaxsni o'xshatish asosida uning sifatlarini yanada aniqroq, obrazli qilib ifodalashni nazarda tutadi. Zulfung kabi parishon deya kecha tashbehga olinmoqda. Mumtoz adabiyotimizda aynan bu o'xshatish Navoiy, Lutfiy, Bobur, Ogahiy kabi shoirlar ijodida ko'p uchraydi.

Birinchi va ikkinchi satrlar o'zaro tazodni yuzaga chiqargan:

Kunduz avqotim saning hajringda nolon kechadur,
Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.

2 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т., 2002. 324- б.
3 Садриддин Салим Бухорий. Икки юз ўн етти пир. Шайх Пошохожа бин Абдулваҳҳобхожа . 2005. https://docme.su/doc/1740126/ikki-yuz-%D1%9En-etti-pir
4 Ўз.ФА ШИ, қўлёзма, 4282.153- б. б
5 Ҳасанова Б. Фурқат ижоди муаммолари Фурқат поэтикасининг бир қирраси

Tazod – mumtoz adabiyotda keng qo‘llaniladigan, she’rning ta’sirchanligini oshirishga, badiiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Radifning o‘zi esa istiora namunasidir. Bu yerda birinchi satrdagi radif – o‘tmoq, ikkinchi satrdagisi esa – kecha ya’ni, sutkaning yarmi ma’nosida istioraga olingan. Istiora arabcha so‘z bo‘lib, “qarz olish” ma’nosida keladi. Istiora ikki narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Tashbehdan farqli ravishda, o‘xshatish vositasi va o‘xshatish sababi qo‘llanmaydi. Ikkinchi baytda oshiq bevosita yorga ey pari deya murojaat qiladi. Murojaatning o‘zida ham istiorani qo‘llaydi:

Anbarin zulfing xayolidin ko‘zumga, ey pari,
Yil-u oy-u soat-u kun bori yakson kechadur.

Ma’nosi: Anbar bo‘yli sochlaring xayoli ko‘zlarimga umrning yillar, oylar-u kunlarini, hatto soatlarini ham zerikarli g‘amga aylantirmoqda.

Baytda anbarin zulfing – tashbeh, yil-u-oy-u soat-u kun – tadrij san’atiga misol bo‘ladi. Tadrij – voqea-hodisalarni darajama-daraja kuchaytirib, mazmun ta’sirchanligini ifodalab beruvchi badiiy san’at turidir.

Ulki jondin kechadur shomi visolingni ko‘rub,
Vah na hush vaqtu na xush soat na oson kechadur.

Uchinchi baytda lirik qahramon o‘zga, ag‘yorning hasbi holini bayon qiladi. Ya’ni, raqibi yorning visolidan bahramand bo‘lib, xursandchilikdan jonidan kechmoqda, uning kun-u soatlari vaslda oson o‘tmoqda. Shu o‘rinda 2-3-baytlar o‘zaro yashirin tazodga ishora qiladi (Oshiqning kuni tunlari zerikarli, qiyin o‘tmoqda, raqibning esa kunu soatlari xush, oson kechmoqda).

Ravshan o‘lg‘ay davlati vaslida hijron oqshom,
Gar gunohimdin ul mohi tobon kechadur.

Ma’nosi: agar oshiqning gunohlaridan yor kechgudek bo‘lsa, unga vaslini ixtiyor etsa, hijron oqshomlari ham kun kabi yorishib, ravshan bo‘ladi – baytda tazod (ravshan o‘lg‘ay-oqshom, hijron-vasl), tashbeh (mohi tobon), istiora- (hijron oqshom), qo‘llanilgan.

Xoja yanglig‘ nola qil zulfi g‘amidin kechalar,
Kim mahalli nolavu faryodu afg‘on kechadur.

Maqta’da Xoja kabi kechalari sochining g‘amidan nola qil, chunki, uning kechalari nolayu fig‘on bilan zulmatda o‘tayotganligi bilan yakunlanadi.

“Miftoh ul-adl” asarining o‘zbek tili tarixini o‘rganish nuqtayi nazaridan qimmatli va boy manba ekanligidir. Hikoyalar sodda, ravon va xalq jonli so‘zlashuv usulida yozilganki, bundan besh asr muqaddam yaratilganligiga qaramasdan, hozirgi zamon o‘quvchisiga osonlik bilan yetib boradi. Ta’kidlash joizki, Xoja hikoyalari bilan bir vaqtda, hatto uch-to‘rt asr keyin ham yaratilgan ba’zi mumtoz namunalarimizga nisbatan tushunilishi murakkabroq, arabcha-forscha so‘z va iboralar deyarli uchramaydi. Asar turkiy tilda yaratilgan badiiy nasrning go‘zal namunasi, balki XVI asr o‘zbek tilinig boy leksik hamda grammatik xususiyatlarini o‘zida ifodalagan yozma yodgorlik sifatida ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
2. Айний С. Асарлар. Саккиз томлик. Саккизинчи том. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.
3. Алибек Рустамов. Навоийнинг бадиий маҳорати. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. –Тошкент, 1979.156 60-б.
4. Адизова.И Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (XVI-XIX) –Тошкент: Фан, 2006.
5. Бертелъс Й.Е. Танланган асарлар. Навоий ва Жомий. – Москва.

Dilafruz MAHKAMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs tayanch doktoranti
@mail:dilafruz-mahkamova@mail.ru

TURKIY XALQLARNING ZAMONAVIY ADABIYOTIDA “BILGA XOQON” OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani, unda yaratilgan tarixiy shaxs — Bilga Xoqon obrazi va uning badiiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, “Bilga Xoqon” timsolining turkiy xalqlar adabiyotida qanday ifodalangani hamda zamonaviy nasr va nazmda bu obrazning qayta talqin qilinishi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, adabiy asarlar hamda zamonaviy yozuvchilarning yondashuvlari solishtirilib, Bilga Xoqon siymosi turkiy ma’naviyat, birlik va davlatparvarlik ramzi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *Bilga Xoqon, Isajon Sulton, turkiy adabiyot, tarixiy roman, obraz, badiiy talqin, zamonaviy nasr, zamonaviy she’riyat, milliy o‘zlik, birlik g‘oyasi.*

Annotation:this article analyzes Isajon Sultan’s novel *“Bilga Khagan”*, the historical figure of Bilga Khagan depicted in it, and the artistic interpretation of his image. It also examines how the symbol of “Bilga Khagan” has been represented in the literature of Turkic peoples, as well as the reinterpretation of this image in modern prose and poetry. Throughout the research, historical sources, literary works, and contemporary authors’ approaches are compared, and the figure of Bilga Khagan is interpreted as a symbol of Turkic spirituality, unity, and statehood.

Key words: *Bilga Khagan, Isajon Sultan, Turkic literature, historical novel, image, artistic interpretation, modern prose, modern poetry, national identity, idea of unity.*

Аннотация:в данной статье анализируется роман Исажона Султана *«Билга каган»*, историческая личность — Билга каган и её художественная интерпретация. Также рассматривается, как образ «Билга кагана» отражён в литературе тюркских народов, а также его новое осмысление в современной прозе и поэзии. В ходе исследования сопоставляются исторические источники, литературные произведения и подходы современных писателей, а образ Билга кагана трактуется как символ тюркской духовности, единства и государственности.

Ключевые слова: *Билга каган, Исажон Султан, тюркская литература, исторический роман, образ, художественная интерпретация, современная проза, современная поэзия, национальная самобытность, идея единства.*

Turkiy xalqlar tarixida Bilga Xoqon siymosi alohida o‘rin tutadi. U nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki xalqning ma’naviy birligini mustahkamlovchi, adolat va donolik timsoli sifatida e’tirof etilgan. Shu bois adabiyot va san’atda bu tarixiy shaxs obrazi asrlar davomida turli badiiy shakllarda aks ettirilib kelinmoqda. Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani ana shu tarixiy shaxs hayoti va faoliyatiga badiiy nigoh bilan yondashgan asar sifatida alohida ahamiyatga ega.[1] Muallif tarixiy haqiqat bilan badiiy to‘qimani uyg‘unlashtirgan holda, xalq ruhiyati, vatanparvarlik, donolik va birlik g‘oyalarini chuqur ifodalagan. Shuningdek, “Bilga Xoqon” obrazi turkiy xalqlar adabiyotida ham o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. Zamonaviy nasr va nazmda esa bu timsol milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviy merosni qadrlash ramzi sifatida qayta jonlantirilmoqda. Shu bois ushbu maqolada “Bilga Xoqon” obrazining turkiy adabiyotdagi ifodalanishi, Isajon Sulton romanidagi badiiy talqini hamda zamonaviy nasr va nazmdagi aks-sadosi tahlil qilinadi.

1 Sulton, I. (2022). Bilga Xoqon. – Toshkent: Factor Books nashriyoti.

O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzularni badiiy talqin etish jarayoni doimo dolzarb hisoblanadi. Tarixiy shaxslar va voqealar, ularning ijtimoiy hamda ma’naviy mohiyatini badiiy asarlarda aks ettirish o‘tmishni anglash, milliy o‘zlikni tiklash va yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita sanaladi. Shu ma’noda, Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik yo‘nalishning yangi bosqichini boshlab bergan asarlardan biridir.

Mazkur roman dastlab 2019-yilda “Sharq yulduzi” jurnalining 9-10-sonlarida e’lon qilingan bo‘lib, keyinchalik Turkiyaning Bursa shahrida o‘tkazilgan “Tilda, fikrda, ishda birlik — turkiy dunyo adabiyot (roman) mukofotlari” tanlovida g‘olib deb topilgan.[2] Asar 2022-yilda “Factor Books” nashriyoti tomonidan alohida kitob holida chop etildi. Bu holat “Bilga Xoqon” romanining nafaqat o‘zbek, balki butun turkiy adabiyot miqyosida ham dolzarb mavzuni yoritganini tasdiqlaydi.

Roman kompozitsion jihatdan muqaddima va uch asosiy bo‘limdan iborat. Har bir bo‘limda tarixiy voqealar izchillikda yoritilib, qadimgi turk davlatchiligi, siyosiy hayot, urf-odatlar va dunyoqarashlar badiiy shaklda aks ettiriladi. Birinchi bo‘limda “**Kichik yish”, “O‘tukan yish”, “Yig‘in”, “Ko‘gman tog‘i”** kabi sahnalar orqali qadimgi turk xalqlarining tabiiy muhit bilan uyg‘un hayoti, ijtimoiy munosabatlari va ruhiy kechinmalari yoritilgan. Ikkinchi bo‘limda esa “**Bilga Xoqon so‘zlari”, “Tabg‘achga yurish”, “Yasa”** kabi boblar orqali siyosiy kurashlar, mustaqillik g‘oyalari va qonuniy davlat tizimining shakllanishi tasvirlanadi. Uchinchi bo‘lim esa **“Mangu bitiklar”, “Kul Tigin bitigi**” kabi qismlar orqali O‘rxun–Enasoy yodgorliklarining tarixiy va mafkuraviy mazmunini badiiy jihatdan talqin etadi.

Isajon Sulton romanda O‘rxun–Enasoy toshbitiklarida uchraydigan tarixiy ma’lumotlarni mohirlik bilan badiiy matnga singdirgan. Natijada asar faqat tarixiy voqealar majmuyi emas, balki turkiy xalqlarning o‘n uch asrlik ruhiy-ma’naviy kechinmalarini ifodalovchi badiiy yaxlitlik sifatida gavdalanadi.[3] Yozuvchi qahramonlarning milliy xarakterini realistik tarzda yoritib, ularning mardlik, jasorat, sadoqat va fidoyilik kabi fazilatlarini asosiy g‘oyaviy markazga qo‘yadi.

Muallif asarning tiliga alohida e’tibor qaratgan. U arabcha yoki forscha so‘zlardan butunlay voz kechib, asarni sof turkiy tilda yaratgan. Bu yondashuv romanning milliylik ruhini kuchaytiradi, tarixiylik tamoyiliga sodiqlikni ta’minlaydi va o‘quvchini qadimiy turkiy tafakkur muhitiga olib kiradi. Tilning tabiiyligi va tarixiy leksik qatlamning jonlantirilishi asarga o‘ziga xos estetik joziba bag‘ishlaydi. Asarda Bilga Xoqon obrazi faqat tarixiy shaxs emas, balki millat rahbari, birlik va mustaqillik timsoli sifatida talqin etiladi. U adolatparvar, xalq manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yuvchi, bilim va tafakkurni qadrlovchi davlat arbobi sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi bu obraz orqali ideal rahbar qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi badiiy konsepsiyasini ilgari suradi. Shu bois Bilga Xoqon, To‘nyuquq va Kul Tigin obrazlari ideallashtirilmay, balki tarixiy voqelikning faol ishtirokchilari, millat taqdirini belgilagan arboblar sifatida ochib beriladi. Asarning final qismida O‘rxun–Enasoy bitiklari ohangida yozilgan parcha hukmdorning xalq oldidagi mas’uliyati va millat taqdiri haqidagi falsafiy mushohadalar bilan yakunlanadi:

“Ustda ko‘k bosmagan bo‘lsa, ostda yer tilinmagan bo‘lsa, ey budun, elingni, to‘ringni kim buza olur? Ey budun! Titra, o‘zingga kel! Tiklan! Mangu yasha!”

Mazkur murojaat qadimiy turkiy dunyoqarashdagi kosmik uyg‘unlik, davlat barqarorligi va xalq birligi g‘oyalarini mujassam etadi. “Ko‘k” va “yer” obrazlari orqali muallif inson, davlat va tabiat o‘rtasidagi mutanosiblikni falsafiy asosda ifodalaydi. Shu jihatdan ushbu sahna romanning mafkuraviy cho‘qqisi bo‘lib, u nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ma’noda ham xalqni uyg‘otishga, birlikka chorlovchi kuchli da’vat sifatida yangraydi. Umuman olganda, Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani tarixiy haqiqat va badiiy tafakkurning uyg‘un mahsulidir. Asar o‘zbek adabiyotida turkiy davlatchilik, milliy uyg‘onish va rahbarlik madaniyati masalalarini

2 Madaminova, M. (2023). “Isajon Sulton romanlarida tarixiylik va milliylik uyg‘unligi.” O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, №3, 45–56-betlar.

3 Xolmuratova, M. (2023). “Tarixiy-badiiy asarlarda rahbarlik konsepsiyasi: ‘Bilga Xoqon’ misolida.” Sharq yulduzi, №10, 22–29-betlar.

badiiy-estetik darajada tahlil etgan yirik tarixiy roman sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Quyidagi asardan parchani tahlilga tortamiz:

"– Qarg'a g'oz bo'laman deb tirishsa, buti yirtilibdi, – dedi Ishbara. – Meni qo'yatur, seni mana bu Bulutcha ursa belingni sindirgay. Turishingni qara-ya, quyonday sakraysan? Qoch yo'limdan, ulusim och dedim! – He-he! – deb kuldi Tabg'ach. – Ellik yildan beri bizning xoqonga qaramsan-u, yana tumshug'ingni osiltirasan? Tez kunda baring yo'q bo'lasan. Boshingga tuman cherik keladi, o'shanda tomog'ingga o'zim sanjaq suqib, qoningni oqizaman."

Keltirilgan parcha Isajon Sultonning *"Bilga Xoqon"* romanining dramatik keskinlikka boy sahnalaridan biridir. Bu dialogda qadimiy turkiy jamiyatdagi siyosiy ziddiyatlar, irodalar to'qnashuvi hamda milliy g'ururning badiiy ifodasi mujassamdir. Ishbara va Tabg'ach o'rtasidagi suhbatda tilning xalqona, jonli shakli qo'llangan. "Qarg'a g'oz bo'laman deb tirishsa, buti yirtilibdi" maqoli orqali muallif Tabg'achning ma'nosiz da'volarini istehzo bilan fosh etadi. Bu ibora o'zbek va turkiy xalq og'zaki ijodidagi hikmatli so'zlarning badiiy matnga singdirilishining yorqin namunasi bo'lib, obraz nutqiga milliy ruh bag'ishlaydi. Mazkur epizodda asosiy konflikt — mustaqillik va tobelik o'rtasidagi kurashda yaqqol namoyon bo'ladi. Ishbara "ulusim och dedim!" degan so'zlari orqali o'z xalqining og'rig'ini, vatanparvarlik va rahbarlik mas'uliyatini ifodalaydi. Uning nutqi qisqa, qat'iy, buyruq ohangida kechadi. Bu jihat qahramonning irodaviy qudratini ko'rsatadi. Aksincha, Tabg'achning javobi tahdid va kibr bilan to'yingan bo'lib, zulm va hukmronlik mafkurasini ifodalaydi. Dialogda *qiyosiy obrazlilik* ("*quyonday sakraysan", "tuman cherik")* va *keskin tahdidli metaforalar* ishlatilgan. "*Sanjaq suqib, qoningni oqizaman*" kabi so'zlar nafaqat dushmanlik hissini ifodalaydi, balki qadimiy turkiy urush madaniyatiga xos qo'rqitish uslublarini ham eslatadi.

Shuningdek, bu parcha ma'naviy-ideologik qarama-qarshilikni ham aks ettiradi: bir tomonda erkinlik va el manfaatini himoya qiluvchi turkiy rahbarlar, ikkinchi tomonda esa mustamlakachilikni ifodalovchi Tabg'achlar turadi. Ishbara obrazi orqali muallif qadimiy turkiy davrda shakllangan *jasorat, g'urur va elparvarlik* an'analarini qayta tiklaydi. Isajon Sulton asar tilida o'ta tabiiy, ammo tarixiy ruhga mos uslubni tanlagan. U qadimiy so'z va iboralarni uyg'un tarzda qo'llab, o'quvchini o'tmish dunyoqarashiga yaqinlashtiradi. Dialogdagi xalqona ohang va sintaktik qisqalik dramatik kuchni oshiradi, shu bilan birga, sahnaga jonlilik bag'ishlaydi. Mazkur parcha orqali muallif xalq or-nomusi, el manfaatini himoya qilgan tarixiy shaxslarning ruhiy qahramonligini yoritadi. Ishbara va Tabg'ach o'rtasidagi ziddiyat badiiy tasvir vositalari orqali nafaqat tarixiy, balki falsafiy ma'noga ega bo'ladi: bu to'qnashuv – mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy o'zlik va ozodlik g'oyasining ramziy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. *Bilga Xoqon*. – Toshkent: Factor Books nashriyoti, 2022.
2. Madaminova M."Isajon Sulton romanlarida tarixiylik va milliylik uyg'unligi." *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, №3, 2023.45–56-betlar.
3. Ergashev, A. *Qadimiy turkiy bitiklarning badiiy tafakkur tizimi*. –Toshkent: Fan, 2008.
4. Xolmuratova M. "Tarixiy-badiiy asarlarda rahbarlik konsepsiyasi: 'Bilga Xoqon' misolida." *Sharq yulduzi*, №10. 2023. 22–29-betlar.
5. Qo'shjonov, M.*O'zbek adabiyoti tarixi (I jild)*. –Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Qosimjonov, Sh.*Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarning adabiy mohiyati*. –Toshkent: Universitet nashriyoti, 1998.
7. Abdug'afurov, A. (2009). "O'rxun-Enasoy bitiktoshlari: tarix, til va poetika". *Filologiya masalalari jurnali*, №4, 88–96-betlar.
8. Yo'ldoshev Q.*O'zbek adabiyotida tarixiy roman poetikasi*. –Toshkent: Akademnashr, 2015.

Guljahon AXMADALIYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail:guljahonaxmadaliyeva@gmail.com



CHO‘LPON SHE’RLARIDA OKSYUMORONLAR: LINGVOPOETIK TAHLIL

Annotatsiya:ushbu maqola Cho‘lpon she’riy ijodida oksyumoronlar fenomenini lingvopoetik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qiladi. Maqolada shoirning tanlangan she’rlari “Go‘zal”, “Yurt qayg‘usi”, “Boshim fido”, “Odamlar”, “Meni unutma” va boshqa asarlardagi oksyumoron birikmalarining semantik, uslubiy va estetik funksiyalari o‘rganildi. Tadqiqot lingvopoetik, semantik va kontekstual metodlar asosida olib borildi. Natijalar Cho‘lpon poetikasida oksyumoronlarning badiiy-estetik markaziy o‘rinni egallashini va ularning milliy-falsafiy mazmunini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, oksyumoron, lingvopoetika, antonimiya, semantik ziddiyat, badiiy tafakkur, ekspressivlik.

Аннотация: в статье проводится лингвопоэтический анализ оксюморонов в поэзии Чулпана. Исследуются семантические, стилистические и эстетические функции оксюморонных сочетаний в избранных стихотворениях автора “Гўзал”, “Юрт қайғуси”, “Башим фидо”, “Одамлар”, “Мени унутма” и др. Методологическая основа исследования включает лингвопоэтический, семантический и контекстуальный анализ. Результаты подтверждают центральную роль оксюморона в поэтике Чулпана и его национально-философское значение.

Ключевые слова: *Чулпан, оксюморон, лингвопоэтика, антонимия, семантический конфликт, поэтическое мышление, экспрессия.*

Annotation: this article provides a linguopoetic analysis of oxymorons in the poetry of Cholpon (Abdulhamid Cholpon). Selected poems such as “Guzal”, “Yurt qayg‘usi”, “Boshim fido”, “Odamlar”, and “Meni unutma” are examined to reveal the semantic, stylistic and aesthetic functions of oxymoronic expressions. The study uses linguopoetic, semantic and contextual analytical methods. Findings indicate that oxymorons occupy a central artistic position in Cholpon’s poetics and embody national-philosophical meanings.

Key words: *Cho‘lpon, oxymoron, linguopoetics, antonymy, semantic conflict, poetic thinking, expressiveness.*

Cho‘lpon – o‘zbek adabiy modernizmining yorqin vakili, milliy uyg‘onish davrining muhim shaxslaridan biridir. Uning she’riyati ruhiy iztirob, milliy orzu-umid va falsafiy mushohadalarni birlashtirgan holda o‘zbek tilining badiiy va semantik imkoniyatlarini kengaytirdi. Maqolaning maqsadi Cho‘lpon she’rlarida uchraydigan oksyumoronlar fenomenini lingvopoetik asoslarga tayangan holda tizimli tahlil qilishdir. Tadqiqot muammosi oksyumoronlarning she’riy kontekstda qanday semantik qatlamlarni hosil qilishi, ularning poetik vazifasi va milliy-estetik kontekstda qanday talqin etilishi bilan bog‘liq.

Mavzuning dolzarbligi qator omillardan kelib chiqadi. Birinchidan, Cho‘lpon she’riyati XX asr o‘zbek madaniyati va adabiyotida muhim o‘rin tutadi; uning asarlarida cheklanmagan va murakkab til ifodalari, yangi poetik tamoyillar kuzatiladi. Ikkinchidan, oksyumoron – global adabiyotshunoslikda keng tadqiq etilgan, ammo o‘zbek adabiyotshunosligida uning sistematik lingvopoetik tahlili hali nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Uchinchidan, Cho‘lpon shoirligining milliy va falsafiy komponentlarini aniqlash adabiyot ta’limi va adabiyotshunoslik uchun amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot nazariy asosini XXI asr lingvopoetika va badiiy matn tahlili konsepsiyalari tashkil etdi. M.M. Baxtinning dialogizm g‘oyasi (Baxtin, 1986) hamda lingvistik-semantik tadqiqotlar (Jakobson, 1987; Vinogradov) Cho‘lpon poetikasidagi ziddiyat va dialogik qatlamlarni tahlil qilishda qo‘llanildi. O‘zbek adabiyotshunosligida Cho‘lpon ijodi haqidagi tadqiqotlar (Karimov, 2001; To‘xtayev, 2018; Mirzayev, 2018) shoirning estetik tamoyillarini aniqlashga yordam berdi. Shu bilan birga, oksyumoron fenomenini umumiy nazariy kontekstda tahlil qilish uchun xalqaro tadqiqotlar ham inobatga olindi (Rees, 1990; Leech, 2008).

Tahlil natijalari Cho‘lpon she’rlarida oksyumoron-larning keng va turli qatlamli ishlatilishini ko‘rsatdi. Shoir oksyumoronlarni shaxsiy ruhiy kechinmalarni,

milliy iztiroblarni hamda falsafiy mushohadalarni ifodalash uchun estetik vosita sifatida ishlatadi. Ushbu birliklar she'riy kontekstda yangi ma'no qatlamlari hosil qiladi va o'quvchida intellektual hamda hissiy reaksiyalarni uyg'otadi.

1) Shakl va semantika: Cho'lpon oksyumoronlari leksik va sintaktik darajada shakllanadi. Leksik oksyumoronlar — bitta misrada antonimik so'zlarning to'g'ridan to'g'ri qarama-qarshiligi (masalan, "kulib yig'lash", "shod g'am") orqali hosil bo'ladi. Sintaktik oksyumoronlar esa butun bir misra yoki baytda, jumladan metaforik kontekstda, o'zining paradoksal ta'sirini beradi (masalan, "ko'z yoshim kulib to'kiladi")

2) Funksiyalar: oksyumoronlar Cho'lpon she'riyatida bir nechta asosiy funksiyani bajaradi: (a) estetik ziddiyat: o'quvchida kutilmagan semantik burilishlar hosil qiladi; (b) ekspressiv yukni oshirish: hissiy ta'sirni kuchaytiradi; (c) falsafiy tafakkur: hayot va o'lim, erkinlik va qullik kabi mavzularni dramatik shaklda ochadi.

3) Kontekstual integratsiya: Cho'lpon oksyumoronlarni she'riy matnning butun kontekstida ishlatadi. Ular she'rning ruhiy atmosferasini belgilaydi va o'quvchini mazmuniy tafakkurga yo'naltiradi. Ba'zi hollarda bu birikmalar milliy tarixiy vaziyat bilan bog'lanib, ijtimoiy-siyosiy mazmunni ham ifodalashi mumkin.

"Yurt qayg'usi"dagi "shod g'amlarim kuladi" ifodasi bir vaqtning o'zida shoirning milliy quvonchi bilan milliy qayg'usini ifodalaydi. Bu birikma konnotativ qatlamda bir nechta ma'noni – o'tmishdan kelayotgan umid, hozirgi iztirob va kelajakdagi noaniqlikni birlashtiradi. Antonomaziya va metaforaning o'zaro bog'lanuvchi funksiyalari oksyumoronga semantik chuqurlik beradi.

"Go'zal" she'ridagi "go'zallikning ichidagi azob" motivi shoir uchun estetika va iztirobning birligini anglatadi.Ushbu oksyumoron Cho'lponning romantik-falsafiy qarashlarini ko'rsatadi:go'zallik azob bilan bog'liq, va aynan shu ziddiyat shoirning badiiy qarashini shakllantiradi. Bu nuqta uning she'riyatida romantizm va milliy realizm elementlarining uyg'unlashuvi sifatida ko'riladi.

Lingvopoetik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, oksyumoronlar fonetik va sintaktik omillar bilan ham mustahkamlanadi. Ko'p hollarda Cho'lpon bu birikmalarni musiqiy ritm bilan uyg'unlashtirib, ovozli takrorlar va alliteratsiya yordamida ta'sirchanlikni oshiradi.Masalan, "sokin hayqiriq" yoki "jim faryod" kabi birikmalar tovush darajasida ham ziddiyatni aks ettiradi.

Cho'lpon oksyumoronlarni o'z she'rlarida g'oyaviy markazga joylashtiradi: ular ko'pincha misra yoki baytning markaziy obrazini tashkil etadi va she'r mazmunini burish, qayta yo'naltirish xususiyatiga ega.Bu esa shoirning poetik texnikasi, ya'ni ma'noni bosqichma-bosqich ochish metodini ishlatishini anglatar ekan, o'quvchini matn bo'ylab intellektual izlanishga chorlaydi.

Jahon adabiyotida oksyumoronning estetik funksiyasi keng o'rganilgan: Shekspir va romantiklar misolida bunday birliklar tafakkur va tuyg'ularni birlashtirish, dramatik ziddiyatni kuchaytirish uchun ishlatilgan. Cho'lpon esa ushbu an'anani milliy kontekstda yangicha talqin qiladi. Cho'lpon va jahon klassiklari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar muhokama qilindi. Shekspirdagi "sweet sorrow", Blok va Yeseninning lirikasidagi oksyumoronlar ham Cho'lponnikiga ohang jihatidan yaqin bo'lishi mumkin. Biroq Cho'lponning oksyumoronlarida milliy tarixiy tajriba, ozodlik uchun kurash, ijtimoiy o'zgarishlar aks etadi.Shu ma'noda Cho'lpon xalqning umumiy ruhiy kechinmalarini poetik tarzda ifodalaydi. Lingvistika nuqtayi nazaridan, Cho'lpon oksyumoronlarining o'ziga xosligi ularning konnotativ qatlamining boyligi, fonetik-sintaktik ohangning uyg'unligi va shoirning metaforik ijodida antonimik birliklarni yaratishdagi mahoratida namoyon bo'ladi. Bu natija o'zbek lingvopoetikasini rivojlantirishga hissa qo'shadi.Pedagogik jihatdan, Cho'lpon she'rlaridagi oksyumoronlarni o'rganish adabiyot darslarida talabalarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish uchun qulay material hisoblanadi. Oksyumoronlar orqali matnning ko'p qatlamli ma'nolarini aniqlash va muhokama qilish amaliy mashg'ulotlarda samarali metoddir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2019.
2. Karimov, A. Cho'lpon poetikasi va o'zbek adabiy modernizmi. – Toshkent: Fan, 2001.
3. To'xtayev S. XX asr o'zbek she'riyatida badiiy ifoda vositalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
4. Xolmonova M. Lingvopoetika va o'zbek she'riyati tili. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2020.
5. Qodirova D. Oksyumoron fenomeni va badiiy tafakkur. – Til va adabiyot, №3, 2021.
6. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1986.
7. Jakobson, R. Language and Literature. – Cambridge University Press,1987.

Nursuliw BABANIYAZOVA,
Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti
Dilfuza NZAMATDINOVA,
Innovatsion texnologiyalar universiteti. Filologiya kafedrasi dok. v.v.b.

TILSHUNOSLIKDA EVFEMIZMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK TASNIFI

Annotatsiya: mazkur ish evfemizmlar tasnifining asosiy jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda evfemizmlarning til va nutqdagi o‘rni hamda ularni tasniflashda qo‘llaniladigan funksional, semantik va pragmatik mezonlar tahlil qilinadi. Evfemizmlarning muloqot jarayonida noqulay yoki salbiy ma’noli tushunchalarni yumshatishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *evfemizmlar tasnifi, semantik tasnif, pragmatik yondashuv, nutq madaniyati, lingvistik tahlil, ijtimoiy omillar, tabu*

Аннотация: данная работа посвящена освещению основных аспектов классификации эвфемизмов. В исследовании анализируется роль эвфемизмов в языке и речи, а также функциональные, семантические и прагматические критерии, используемые при их классификации. Показано значение эвфемизмов в смягчении неблагоприятных или негативных понятий в процессе общения.

Ключевые слова: классификация эвфемизмов, семантическая классификация, прагматический подход, культура речи, лингвистический анализ, социальные факторы, табу

Annotation: this work is devoted to highlighting the main aspects of the classification of euphemisms. The study analyzes the role of euphemisms in language and speech, as well as the functional, semantic, and pragmatic criteria used in their classification. The significance of euphemisms in softening uncomfortable or negative concepts in the process of communication is shown.

Key words: *classification of euphemisms, semantic classification, pragmatic approach, speech culture, linguistic analysis, social factors, taboo*

Kirish. Tilshunoslikda evfemizmlarni o‘rganish, ularning vazifalari va qo‘llanilish mexanizmlarini aniqlash bilan bir qatorda, ularni turli belgilariga ko‘ra klassifikatsiyalash ham muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Chunki evfemizmlarning shakllanish sabablari, ma’noviy o‘ziga xosliklari va stilistik vazifalari bir xil emas. Shuning uchun lingvistlar tomonidan ularning turli klassifikatsiyalari ilgari surilgan bo‘lib, bu tasniflar evfemizmlarning nutqdagi o‘rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu bo‘limda evfemizmlarni o‘rganishda turli lingvistlar tomonidan taklif qilingan klassifikatsiya mezonlari, ularning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi muhokama qilinadi.

Tadqiqot metodiюUshbu maqola nazariy-tahliliy (bibliografik) tadqiqot metodologiyasiga asoslangan. Tadqiqot, asosan, V. P. Moskvin, B. A. Larin, N. D. Arutyunova, A. A. Reformatskiy va V. I. Shaxovskiy kabi yetakchi rus lingvistlarining evfemizmlar klassifikatsiyasiga oid ilmiy ishlarini komparativ tahlil qilishga qaratilgan. Metod turli yondashuvlarni (struktural, pragmatik, funksional-semantik) qiyoslash orqali evfemizmlarning til tizimidagi ko‘p funksiyaliligini umumlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama.V. P. Moskvin “Evfemizmlar: tizimli bog‘liqliklar, funksiyalar va bilim berish usullari” nomli maqolasida evfemizmlarning asosiy maqsadlari va funksional kategoriyalarini ularning qo‘llanilish sohalariga ko‘ra sanab o‘tadi:

Muammoli narsa va hodisalarning aniq nomlarini o‘zgartirish.

Yoqimsiz narsaga qarshi turishni xohlamaslik.

Ma’lum bir vaqt va madaniyatda kamsituvchi deb hisoblangan so‘zlar yoki idiomalarni almashtirish.

Boshqa shaxsni yoki uchinchi shaxsni haqoratlashdan xavotirlanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ismlarni qo‘llashdan saqlanish (etika evfemizmlari).

Voqea yoki obyektning asosiy ma’nosi buzilgan yoki yashirilgan.

Ma’lum bir ijtimoiy guruh tomonidan past darajali deb hisoblangan kasblar va tashkilotlarning belgilari [3].

1961-yilda B. A. Larin o‘zining “Evfemizmlar haqida” nomli mehnatida evfemizmlarni tadqiq qilish ishlarini faqatgina leksikografiyada emas, balki lingvistik jihatdan ham keng tadqiq qildi. Evfemizmlarni o‘rganish davomida u evfemik birliklarni klassifikatsiyalab, ularni grammatik va leksik tuzilishiga tayanib, metodologik tabiatiga ko‘ra, so‘z ma’nosining o‘zgarishiga ko‘ra, so‘z shakliga ko‘ra ajratib chiqadi. Tuzilishiga ko‘ra evfemik birliklar so‘z, so‘z birikmasi, gap bo‘lishi mumkinligi; so‘z ma’nosining o‘zgarishiga ko‘ra metafora, metonimiya paydo bo‘lishi; so‘z shakliga ko‘ra konversiya, affiksatsiya, abbreviatura va boshqa so‘z yasalish turlari bo‘yicha ko‘rinishini ta’kidlab o‘tadi. Uning evfemizmlarni o‘rganishdagi asosiy fikrlarini keyingi tadqiqotlar uchun zarur ekanligini qayd etish kerak:

Evfemizm va tabu o‘rtasidagi bog‘liqlik, bunda qadimgi dinlarning ta’qiqlari bo‘yicha saqlanib qolgan almashtiruvchi so‘zlarni (tabu) hozirgi zamonaviy evfemizmlardan ajratish zarurligi haqidagi ogohlantirishni hisobga olish kerak, shuningdek, “yangi davrning evfemizmlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarixiy bog‘liqliklari faqatgina o‘z predmetini yaramas ta’sirdan himoya qilish maqsadida bezatish uchun qo‘llaniladigan ta’qiqlangan qayta atalishlarda bor”;

Evfemizmlarning qo‘llanilish sohalarini ajratish (bir tomondan, diplomatiya, publitsistika, notiqlik nutqlarida evfemizmlar shartli-majburiy bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kundalik suhbatda, qayerda evfemizmlar majburiy emas va ko‘pincha hazil uchun qo‘llaniladi);

Evfemizmlarning qisqa muddatliligi: “noqulay aytiladigan so‘z qo‘llanishdan chiqqan vaqtda, evfemizm o‘zining ko‘rkamlashtiruvchi xususiyatlarini yo‘qotadi, chunki u to‘g‘ri atamalar qatoriga o‘tadi va shu vaqtda yangi almashtirishni talab etadi”;

Evfemizmlarni ularning ijtimoiy tabiatiga ko‘ra klassifikatsiyalashning ahamiyati rasmiy ko‘rinishi bo‘yicha (so‘z turkumi, tarkibi, kelib chiqishi);

Evfemizm va troplar (metafora, metonimiya, sinekdoxa) semantik qurilishi bo‘yicha bir xil bo‘lib, qo‘llanish sohasi va funksional yo‘nalishi bo‘yicha ajraladi (troplardan haqiqatni badiiy tasvirlash uchun foydalaniladi, evfemizmlar esa “turmushning ko‘rimsiz hodisalarini yoki odobsiz fikr va niyatlarni yashirish, pardalash” uchun qo‘llaniladi [2, 101-114].

N. D. Arutyunova evfemizmlarni pragmatika va funksional semantika nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Olimning fikricha, evfemizm – bu ma’noni to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, bildirishga xizmat etadigan nutq strategiyasi hisoblanadi. U evfemizmlarni quyidagi guruhlarga ajratadi:

Ma’noni yashiruvchi evfemizmlar – real hodisa yoki tushunchani ochiq atamasdan bildiradi.

Aniq emas (indirekt) evfemizmlar – aniq bahodan qochib, umumiy va abstrakt anglatmani tanlaydi.

Nutq strategiyasiga asoslangan evfemizmlar – suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatish, ma’lum bir pragmatik maqsadga erishish uchun qo‘llaniladi. Arutyunova klassifikatsiyasida evfemizmlar kommunikativ strategiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi [1, 896].

A. A. Reformatskiy evfemizmlarni, eng avvalo, nutq madaniyati va ijtimoiy-etik normalar bilan bog‘liq leksik hodisa sifatida tushuntirib, evfemizmlarni bajaradigan funksiyasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratadi:

Odob-axloqiy-etik xarakterdagi evfemizmlar – jamiyatda odobsiz yoki qo‘pol hisoblangan tushunchalarni madaniy shaklda bildirish uchun qo‘llaniladi (masalan, o‘lim, kasallik, jismoniy nuqson bilan bog‘liq birliklar).

Ijtimoiy noqulaylikni kamaytiruvchi evfemizmlar – suhbatdoshni ranjitmaslik, aloqadagi keskinlikni yumshatish vazifasini bajaradi.

Nutq ta’qiqlaridan (tabulardan) qochishga xizmat qiluvchi evfemizmlar – ma’lum bir ijtimoiy yoki madaniy cheklovlar bilan bog‘liq so‘zlarning o‘rnini bosadi.

Reformatskiy klassifikatsiyasida evfemizmlarning asosiy funksiyasi – kommunikativ kelishuvni ta’minlash hisoblanadi [4, 536].

V. I. Shaxovskiy evfemizmlarni emotsional-ekspressiv semantika doirasida tahlil qiladi. U evfemizmlarni nutqda hissiy holatni boshqaruvchi, yoqimsiz emotsiyani pasaytiruvchi qurol sifatida muhokama qiladi. Olim quyidagi klassifikatsiyani taklif etadi:

Yoqimsiz emotsiyani neytrallashtiruvchi evfemizmlar – qo‘rquv, nafrat, achinish kabi hissiy holatlarni yumshatishga xizmat qiladi.

Baholovchi semantikani kamaytiruvchi evfemizmlar – yoqimsiz bahoni to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, yumshoq shaklda bildiradi.

Qarama-qarshilikning oldini oluvchi evfemizmlar – suhbat jarayonida qarama-qarshilik va keskinlikni bartaraf etishga yordam beradi. Shaxovskiyning yondashuvida evfemizmlar pragmatik-emotsional qurol sifatida baholanadi [5, 416].

Xulosa. Yakunlab aytganda, A. A. Reformatskiy, N. D. Arutyunova va V. I. Shaxovskiylarning evfemizmlarni funksional-semantik jihatdan klassifikatsiyalashga oid nuqtayi nazarlariga qo‘shilgan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, evfemizmlar til tizimida murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Reformatskiy ta’kidlaganidek, evfemizmlar nutq madaniyati va ijtimoiy-etik normalarni saqlashga xizmat qilsa, Arutyunova klassifikatsiyasiga ko‘ra ular to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, bildirishga asoslangan pragmatik strategiya sifatida ko‘rinadi. Shaxovskiy klassifikatsiyasida esa evfemizmlar yoqimsiz emotsional-baholovchi semantikani yumshatuvchi muhim qurol hisoblanadi. Ushbu nuqtayi nazarlarni umumlashtirib xulosa chiqarish mumkinki, evfemizmlar funksional-semantik jihatdan nutqni ijtimoiy, pragmatik va emotsional jihatdan moslashtiruvchi, kommunikativ kelishuvni ta’minlovchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. — М.: Языки русской культуры, 1999.896 с.
2. Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Проблемы языкознания: сб. статей / ред. Б.А.
Ларин. Л., 1961. С. 101–114.
3. Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. 2nd – М.: Lenard, 2007.
4. Реформатский А. А.Введение в языкознание : учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2001. 536 с
5. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – М.: Гнозис, 2008. 416 с.

Xurshida XUSHBOQOVA,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tili ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti

NEKRONIMLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu tezisda onomastik birlik bo‘lgan nekronimlarning tilshunoslik va onomastik tizimdagi o‘rni, ularni o‘rganishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Nekronimlar jamiyat tarixini, madaniyatini va tilning leksik-semantik tuzilishini o‘rganishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *onomastika, toponimik obyekt, nekronim, tarixiy xotira, til va madaniyat, madaniy meros, nazariya va amaliyot.*

Annotation: this thesis analyzes the role of necro-toponyms as onomastic units within linguistic and onomastic systems, as well as the theoretical foundations and practical significance of their study. The research substantiates that necro-toponyms serve as an important source for exploring the history and culture of society, as well as the lexical-semantic structure of the language.

Key words: *onomastics, toponymic object, necro-toponym, historical memory, language and culture, cultural heritage, theory and practice.*

Аннотация: в данном тезисе анализируются место некронимов как ономастических единиц в лингвистической и ономастической системе, теоретические основы их изучения, а также их практическая значимость. В исследовании обосновывается, что некронимы являются важным средством для изучения истории и культуры общества, а также лексико-семантической структуры языка.

Ключевые слова: *ономастика, топонимический объект, некроним, историческая память, язык и культура, культурное наследие, теория и практика.*

Til – bu xalqning tarixiy-madaniy xotirasini avloddan avlodga yetkazib beruvchi asosiy ma’naviy vositadir. Shundan kelib chiqqan holda, tilda mavjud bo‘lgan har bir birlik o‘ziga yarasha vazifa bajaradi. Til boyligining yirik qatlamlaridan biri bo‘lgan onomastik birliklar esa, o‘z navbatida, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, diniy tasavvurlari, etnik tarkibi hamda madaniy merosini o‘zida mujassamlashtirgan tarzda aks ettiradi. Onomastika – bu til tizimi doirasida shakllanadigan nomlar majmuasi, ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalishdir. Shu boisdan O‘zbekiston hududida onomastik birliklarning o‘rganilishi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, onomastika sohasi bugungi kunda turli nomlar tizimini lingvistik, tarixiy va madaniy nuqtayi nazardan tahlil qiluvchi keng qamrovli ilmiy sohaga aylangan. O‘zbek onomastikasida toponimlar, antroponimlar, etnonimlar qatori nekronimlar ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otuvchi muhim birlik hisoblanadi.

O‘zbek onomastikasining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida turli nomlar tizimi ichida nekronimlar ham alohida ilmiy e’tiborni talab qiladigan muhim qatlamlardan biridir. Qabriston, mozor, masjid, madrasa va xonaqoh kabilar bilan bog‘liq nomlarning umumiy majmuyi bo‘lgan nekronimlar nafaqat til birliklari, balki xalqning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari, etnik-madaniy tafakkuri va hududiy o‘ziga xosliklarini mujassam etuvchi muhim lingvokulturologik fenomen sanaladi. Onomastika tizimida nekronimlarning o‘rni ayniqsa beqiyos bo‘lib, ular ma’lum bir hududning o‘ziga xos madaniy manzarasini ochib beruvchi “til yodgorliklari”dir.

Nekronim termini atama sifatida esa yunoncha *nekros* **– “o‘lik, marhum”** va *onyma* – **“nom”** so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, onomastikaning yirik tarmoqlaridan biri bo‘lgan toponimikaning qabristonlar, mozorlar, maqbaralar, ziyoratgohlar nomlarini o‘rganadigan muhim tarmog‘idir. Umuman olganda, nekronimiya – bu inson dafn qilinadigan joylar bilan bog‘liq muqaddas joylarning atoqli nomlaridir. Bu borada tilshunos olim A.Aslonov o‘zining nomzodlik ishida Shofirkon tumani onomastikasiga xos xususiyatlardan biri uning tarkibida anchagina miqdorda nekronimlarning uchrashidir, deb hisoblaydi hamda 131 masjid, 66 mozor, 17 avliyo, 10 ta qabriston, 2 ta xonaqo (xonaqoh) nomini to‘playdi. Bunday nekronimlarning umumiy miqdori 230 dan ortiq ekanligini ta’kidlaydi [3: 15]. Shunga ko‘ra nekronimlar deyilganda esa ushbu termin anglatuvchi ma’noga mos ravishda qabrlar, qabristonlar (mozorlar, mozoristonlar), shuningdek ba’zi diniy obyektlar nomi (masjid, madrasa, xonaqoh kabilar)ni tushunish maqsadga muvofiqdir [4: 15].

Qozoq tilshunosi T.Januzaqov toponimikada semantik tasnif toponimlarning ma’nosini bilish, shu bilan birga, odamning ish-harakati, turmushi, ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq masalalarni aniqlash imkoniyatini berishini ta’kidlaydi [6: 175]. Jumladan, uning tarkibiga kiruvchi nekronimlar ham xalqning ruhiy olamini, qadriyatlarini, diniy dunyoqarashini eng aniq aks ettiruvchi til birliklaridan biridir. Shu bois ularni tadqiq etish bir qator nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Quyida toponimlar tarkibidagi nekronimlarning nazariy va amaliy jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

I. NEKRONIMLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY AHAMIYATI.

1. Tilning nominativ tizimini o‘rganishda muhim manba.

Qabriston, mozor, madrasa, masjid kabi joy nomlari:

– diniy-ma’naviy motivatsiya asosida nomlanadi;

– semantik jihatdan muqaddaslik, ehtirom, tarixiylik ma’nosini anglatadi;

– qadimiy nomlash an’analarini o‘zida aks ettiradi.

Bu birliklarni o‘rganish tilning *nominativ mexanizmini*,

ya'ni insonning atrof-muhitni qanday nomlashini tushunish uchun muhim asosdir. Ularni o'rganish orqali lingvistlar nomlashning diniy-madaniy asoslarini, semantik kengayish jarayonlarini, nominativ motivatsiya turlarini (qaysi sabab bilan shunday nomlanganligini) aniqlaydilar. Masalan, **"Oqmozor", "Qizilmozori ota", "Chiltanota", "Hazrati Imom"**, **"Mir Arab madrasasi"** kabi nomlar mazmunida diniy e'tiqod, tarixiy shaxslar va madaniy qatlam yotadi.

2. Tarixiy-lingvistik rekonstruksiya imkoniyatlari.

Nekronim asosidagi toponimlar ko'plab arxaik til qatlamlarini saqlab qolgan bo'ladi. Ularning fonetik, morfologik va semantik tahlili tarixiy dialektologiya, etimologiya va semasiologiya uchun boy ilmiy material bo'lib xizmat qiladi.

3. Xalqning diniy-madaniy dunyoqarashining lingvistik manzarasini ochadi.

Nekronimlar *lingvokulturema* sifatida xalqning ma'naviy hayotini aks ettiradi. Ularni o'rganish orqali ajdodlarga hurmat hamda diniy obyektlarni nomlash an'analari lingvistik jihatdan ochib beriladi. Bu tilning madaniy semantikasini tushunish uchun juda muhim.

4. Toponim va mikrotoponimlarning shakllanish qonuniyatlarini tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Qabriston va mozorlar ko'pincha joy nomlari uchun asos bo'lishi mumkin. Ularni lingvistik tahlil qilish toponimlarning grammatik modellarini, geografik obyektlar nomlanishining lingvistik sabablari, joy nomlarining tarixiy qatlamlarini aniqlashga yordam beradi.

II. AMALIY AHAMIYATI.

1. Tarixiy-geografik obyektlarni aniqlash va tiklashda yordam beradi.

Qabriston, mozor, maqbara nomlari:

– qadimiy joylashuv;

– tarixiy aholi punktlari;

–shaxslar dafn etilgan hududlar haqida muhim lingvistik manba vazifasini bajaradi. Arxeologiya, tarix, madaniyatshunoslik hamda tilshunoslikdagi areal lingvistika, lingvistik geografiya sohalari uchun muhim hisoblanadi.

2. Rasmiy toponimik siyosatda qo'llaniladi.

Bu yo'nalishdagi lingvistik tadqiqotlar tarixiylikni tiklash, buzilgan nomlarni to'g'rilash, yangi nom berish uchun ilmiy asos yaratishda keng foydalaniladi. Bu jarayon davlatning obyektlarni nomlash siyosati uchun katta ahamiyat kasb etadi.

3. Madaniy merosni targ'ib qilish. Qabriston, mozor, masjid va madrasa nomlari xalqning tarixiy xotirasini o'zida saqlaydi, mahalliy aholini o'z ildizlariga bog'laydi, ziyorat turizmi va madaniy turizmni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

4. Lingvodidaktika va o'quv jarayonlarida qo'llash. Nekronimlar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari onomastika bo'yicha darslarda, til tarixi, dialektologiya, leksikologiya, etimologiya, lingvokulturologiya yo'nalishlarida muhim o'quv materiali bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali talabalar nomlash mexanizmlarini, semantik o'zgarishlarni, lingvokulturologik, etimologik tahlillarni amaliy misollar asosida o'rganadilar.

5. Elektron xaritalashda amaliy qo'llash.

Qabriston, mozor, masjid nomlari geografik axborot tizimlarida:

– joyning tarixiy chegaralarini belgilash;

– madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish;

– onomastik ma'lumotlar bazasini yaratish;

– axborot tizimlarida kataloglashtirish uchun muhim asos bo'ladi. Bu amaliyot ilmiy tadqiqotlar bilan birga arxiv, muzey va madaniy meros markazlari ishini ham yengillashtiradi.

Xulosa. Nekronimlar – qabriston, mozor, masjid, madrasa kabi obyektlar nomlari – xalqning diniy e'tiqodi, tarixiy xotirasi va madaniy merosini aks ettiradigan muhim onomastik qatlamdir. Ularning nazariy ahamiyati shundaki, tilning nominativ tizimida diniy-ma'naviy motivatsiya asosida yuzaga kelgan nomlash jarayonlarini yoritadi, tarixiy leksik qatlamlarni rekonstruksiya qilishga imkon beradi, semantik o'zgarishlar, evfemizm, metaforik nomlash kabi lingvistik jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, nekronimlar xalqning diniy-madaniy dunyoqarashi, ajdodlarga munosabati, qadimiy e'tiqod va marosimlarga oid tasavvurlarining til orqali qanday ifodalanishini ilmiy asosda ochib beradi. Ular toponimik tizimning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlashda ishonchli lingvistik manba hisoblanadi.

Nekronimlarning amaliy ahamiyati esa yanada kengdir. Qabriston, mozor, masjid va madrasa nomlari tarixiy joylashuvlarni aniqlash, qadimiy aholi punktlari va ziyorat maskanlarini tiklash, toponimik siyosatda ilmiy asos yaratish, madaniy meros obyektlarini belgilash kabi jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Bu nomlar mahalliy identitetni mustahkamlash, ziyorat turizmini rivojlantirish, raqamli xaritalash va GIS (Geografik axborot) tizimlarida madaniy obyektlarni aniq belgilashda beqiyos qiymatga ega. Shu bilan bir qatorda, nekronimlar til tarixi, onomastika, etnolingvistika va madaniyatshunoslik fanlari uchun boy o'quv va tadqiqot materiali vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, ular nafaqat tilning tarixiy-madaniy boyligini aks ettiruvchi muhim onomastik qatlam, balki jamiyatning diniy, ruhiy, ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ularni o'rganish tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqurlashtiradi, amaliy izlanishlar uchun esa aniq, ishonchli va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan lingvistik ma'lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023. 180-b.
2. Qorayev S. Toponimika [Matn]: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.
3.Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. НДА. – Тошкент, 2005. Б. 14–16.
4. Авлиёқулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XX1 асрда (илмий-назарий анжуман материллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008. Б. 15–18.
5. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. Б.60.
6. Жанузақов Т. Орталық Қазахстан жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1989. – Б.17– 176.

Nasibillo NOSIROV,
ADCHTI doktoranti

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OPERATIV BOSHQARUVCHILAR DISKURSINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK VA LINGVOSTRUKTURAL ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida operativ boshqaruvchilar diskursining lingvostruktural, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *operativ boshqaruvchilar diskursi, pragmatika, xushmuomalilik strategiyalari.*

Annotation: this article provides a comparative analysis of the linguo-structural, pragmatic, and linguocultural features of the discourse of operational controllers in English and Uzbek.

Key words: *Operational controllers’ discourse; pragmatics; politeness strategies.*

T.A. van Deykning ijtimoiy-kognitiv yondashuvida kontekst modellar — ya’ni ishtirokchilarning **roli**, **maqomi** va **kommunikativ maqsadi** — nutq strategiyasini tanlashda asosiy determinant hisoblanadi. [2] Masalan, ingliz operatori yuqori lavozimli shaxsga nisbatan, masalan, Chief Safety Officer xizmat vaziyatida quyidagicha murojaat qilishi mumkin: *“Would it be possible to have a quick briefing on the system malfunction before the shift ends?”* [2] Bu yuqori kontekstli, kollektivistik madaniyatga xos yondashuvdir. Natijada ingliz tilida “maqom + vaqt”, o‘zbek tilida esa “hurmat + hamkorlik” kombinatsiyasi ustuvor bo‘ladi.

EN (operator → rahbar): *Would you mind authorizing a brief shutdown while we verify the pressure anomaly?* [3]

UZ (operator → rahbar): *Ma’qul bo‘lsa, bosimdagi og‘ishni tekshirib olguncha qisqa to‘xtatishga ruxsat bersangiz*. [6]

Ingliz professional muhitida operator yoki rahbar topshiriq berayotganda ko‘pincha salbiy xushmuomalalilik strategiyasi asosida modal birliklardan foydalanadi. Masalan, ingliz operatori yuqori lavozimdagi shaxsga shunday murojaat qilishi mumkin: “*Could you please verify the security log entries before the briefing*?” [6] — bu gapdagi “**could you please”** formulasi suhbatdoshning avtonomiyasini hurmat qilish, talabni yumshatish va majburlov ohangini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday konstruksiya Hofstedening individualistik madaniyat tavsiflariga mos keladi, chunki unda masofa saqlash va shaxsiy hududga ehtiyotkorlik bilan kirish asosiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. [5]

4. Operator nutqining janr/move tahlili — bu telefon, dispetcherlik yoki navbatchilik operatorlarining professional muloqotini maxsus janr sifatida o‘rganish metodidir. Bu yondashuv operator muloqotining asosiy funksiyalarini — mijozga ma’lumot yetkazish, ko‘rsatma berish, so‘rov qabul qilish va muammoni hal qilish jarayonlarini tizimli o‘rganishga imkon beradi. Nutq mazmuni takrorlanadigan kommunikativ vazifalar va ular uchun xos til vositalari orqali shakllanadi.[8]

1. Ma’lumot yetkazish.

Ingliz tilida misol: “*Your service request has been processed. You will receive confirmation within 24 hours*.”[3] Ushbu gapda aniq, rasmiy va qisqa shaklda bo‘lib, mijozga jarayonning holati haqida bevosita xabar beradi.

O‘zbek tilida misol: “*Xizmat bo‘yicha arizangiz ko‘rib chiqildi. 24 soat ichida tasdiq xabarini olasiz”*[3] O‘zbek tilida berilgan variant ham qisqa va aniq berilgan bo’lsada, grammatik jihatdan hurmat shaklidan foydalanilgan.

2. Ko‘rsatma berish.

Ingliz tilida misol: “*Please press 1 to speak with a customer service representative.”*[3] **Please** so‘zi salbiy xushmuomalilik strategiyasini ifodalaydi. [3]

O‘zbek tilida misol: “*Mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan bog‘lanish uchun 1-raqamni bosing, iltimos.”*[3] O‘zbek tilidagi

variantda “**iltimos”** ijobiy ohang va hurmat elementini kuchaytiradi.

3. So‘rov qabul qilish.

Ingliz tilida misol: “*Could you please provide your account number so I can check the details?”*[3] Operatorning bu gapida “salbiy xushmuomalalilik” strategiyasini qo‘llaydi — talab yumshatiladi va suhbatdoshga tanlov erkinligi beriladi.

O‘zbek tilidagi misol: “*Hisob raqamingizni aytsangiz, ma’lumotlarni tekshirib beraman, marhamat.”*[3] “Ushbu gapda ishlatilgan “**marhamat**” birligi suhbatdoshning ijobiy yuzini qo‘llab-quvvatlaydi.[4] Shu tarzda, ingliz va o‘zbek tillaridagi operator nutqi bir xil kommunikativ vazifani bajaradi, ammo til vositalarida madaniy xususiyatlar seziladi: ingliz tilida masofa va rasmiylik, o‘zbek tilida esa hurmat va iliqlik elementlari ustunlik qiladi.[5]

Move-struktura operator nutqini tahlil qilishda muloqotning funksional bosqichlarini aniqlashga imkon beruvchi muhim tushunchadir. Bhatia[7] (2014) janr tahlilida har bir professional nutq turi o‘ziga xos move (maqsadga yo‘naltirilgan segment) va step (kichik funksional birliklar) ketma-ketligiga ega ekanini ta’kidlaydi.

Birinchi “**move”** odatda salomlashish va identifikatsiyadan iborat bo‘lib, bu bosqichda operator suhbatni ijobiy ohangda boshlaydi va o‘zini hamda xizmat tashkilotini tanishtiradi. Ingliz tilida misol: “*Good afternoon, you’ve reached BrightNet Customer Service, this is Anna speaking.*” [8] — bu shaklda salomlashish “**Good afternoon**”, kompaniya nomini aytish va o‘zini tanishtirish ketma-ket amalga oshadi. O‘zbek tilida esa odatiy variant: “*Assalomu alaykum, Xizmat markazi, operator Dilnoza gapiryapti*” — bunda ham salomlashish “**Assalomu alaykum”**, xizmat nomini aytish va ism orqali identifikatsiya qilish kuzatiladi.

Operator nutqining move-struktura tahlili, Bhatia[7] ta’kidlaganidek, xizmat sohasidagi professional muloqot janrining funksional bosqichlarini aniqlashga yordam beradi. Har bir operator muloqoti ma’lum kommunikativ maqsadlarni bosqichma-bosqich amalga oshiradi, bunda salomlashish va identifikatsiya, asosiy maqsadni bayon qilish, asosiy ma’lumot yoki ko‘rsatma berish, qo‘shimcha savol yoki aniqlik kiritish hamda yakunlovchi move ketma-ketligi kuzatiladi.[7] Masalan, o‘zbek tilidagi professional muloqotda quyidagi ketma-ketlikni ko‘rish mumkin:

Salomlashish va identifikatsiya: “*Assalomu alaykum, Xizmat markazi, operator Dilnoza gapiryapti.*” — bu bosqich suhbatni iliq ohangda boshlash va o‘zini tanishtirish orqali ishonch uyg‘otadi.

Maqsadni bildiruvchi move: “*Sizning so‘rovingiz bo‘yicha ma’lumotni tayyorlayapman.*” — bu nutq akti suhbatdoshning kutishlarini boshqaradi va jarayon davom etayotganini bildiradi.[3]

Asosiy ma’lumot yoki ko‘rsatma: “*Hisobingizda 120 000 so‘m mavjud.”*

Qo‘shimcha savol: “*Yana qo‘shimcha xizmatlardan foydalanasizmi?”*

Yakunlovchi move: “*Rahmat, yaxshi kun tilaymiz, xayr*.” — bu suhbatni ijobiy ohangda yakunlab, ijobiy yuzni mustahkamlaydi.[5]

Ingliz tilida esa **move-struktura** o‘xshash bo‘lsa-da, salbiy xushmuomalalik elementlari ko‘proq uchraydi:

“Your account balance is $50.”

“Would you like me to check your recent transactions as well?” — bu bosqich modal konstruksiya orqali talabni yumshatadi.


Qiyosiy tahlil uch darajada amalga oshiriladi:

Makro-daraja — operator muloqotining janr/move ketma-ketligi (salomlashish, vaziyatni belgilash, so‘rov/ko‘rsatma, asoslov, yakun) ikki til misolida solishtiriladi.

Mezo-daraja — xushmuomalalik strategiyalari tahlil qilinadi: ingliz tilida salbiy xushmuomalalik, o‘zbek tilida ijobiy xushmuomalalik ustun.

Mikro-daraja — modal fe’llar, hurmat qo‘shimchalari, diskurs markerlari kabi til birliklari qiyoslanadi. Natijalar χ^2 va boshqa statistik usullar orqali solishtirilib, ingliz va o‘zbek operator nutqining farqlari pragmatik va sotsiolingvistik jihatdan aniqlanadi.

Ingliz operator nutqida hedging mijozning mustaqilligini hurmat qilish va buyruqni yumshatish uchun qo‘llanadi (“Could you…?”, “when you have a moment”). Imperativlar esa aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifa beradi. Statistik



ma’lumotlarga ko‘ra, ingliz operatorlarida hedging 42–48%, imperativlar 30–35% ni tashkil etadi. O‘zbek operator nutqida esa hedging va iliq, hamkorlikka asoslangan ifodalar ustun (“imkon bo‘lsa”, “birgalikda”), bu kollektivistik madaniyatga xosdir. Imperativlar kamroq (20–25%), hedging esa ko‘proq (55–60%), bu esa yumshoq, hurmatga asoslangan muloqotning ustuvorligini ko‘rsatadi. Bunday natijalarni statistik jihatdan ishonchli tarzda ko‘rsatish uchun har ikki tildagi namunalar foiz ko‘rsatkichlari va ishonch intervallari bilan jadvalda beriladi. Ingliz va O‘zbek operator nutqida hedging va imperativlar qiyosiy tahlili

Til	Hedging (%)	Imperativ (%)
Ingliz	65	35
O‘zbek	48	52

Natijalar ingliz va o‘zbek tillarida nutq strategiyalaridagi farqlar nafaqat til tizimidan, balki madaniyatning — kollektivizm va individualizmning — bevosita ta’siridan kelib chiqishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. van Dijk, T.A. *Discourse as Structure and Process*. London: SAGE, **1997**.
2. Brown, P., & Levinson, S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, **1987**.
3. Красных, В.В. *Этнопсихолингвистика и лингвокультурология*. Москва: Гнозис, **2002**.
4. Hofstede, G. *Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations*. Thousand Oaks: SAGE, **2001**.
5. Levinson, S.C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
6. Bhatia, V.K. *Analysing Genre: Language Use in Professional Settings*. London: Routledge, 2014.
7. **Call Center Service Script Example.** *English for Customer Service Handbook.* London: Routledge, 2013. – p. 62.
8. **Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha muloqot namunasi.** *O‘zbek tilida mijozlar bilan professional muloqot qo‘llanmasi.* – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2023. 64-bet.

Ra’no XAYRULLAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch-doktoranti
xayrullayevarano43@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA KICHRAYTIRISHNING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilida kichraytirish ma’nosining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Kichraytirish ma’nosi tilning morfologik va semantik imkoniyatlarini kengaytirib, nutq madaniyatiga samimiyat, mehr-muhabbat, erkalash, ehtirom yoki kinoya, hazil, istehzo tusini berishga xizmat qilishi, asosan, grammatik shakllar hamda leksik vositalar orqali yuzaga chiqishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, kichraytirish ma’nosining og‘zaki va yozma nutqda, bolalar nutqida va shevalarda faol qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: *grammatik vosita, samimiy ohang, sinonimlar va muqobil so‘zlar, hissiy-emotsional ifodalar, kichik hajm, kichraytirish ma’nosi, erkalash ma’nosi, og‘zaki nutq, dialekt, hissiy ifoda vositasi.*

Аннотация: в данной статье анализируются особенности выражения значения уменьшительности в узбекском языке. Значение уменьшительности расширяет морфологические и семантические возможности языка, служа для придания речи искренности, любви, ласкательности, уважения или иронии, шутки, насмешки. Это в основном проявляется через грамматические формы и лексические средства. Также приводится информация о частоте использования уменьшительности в устной и письменной речи, речи детей и в диалектах.

Ключевыеслова: *грамматическоесредство,искреннийоттенок,синонимыиальтернативные слова, эмоциональные выражения, маленький размер, значение уменьшительности, значение ласкания, устная речь, диалект, средство эмоционального выражения.*

Annotation: this article analyzes the characteristics of expressing the meaning of diminutiveness in the Uzbek language. The meaning of diminutiveness expands the morphological and semantic possibilities of the language, serving to convey sincerity, affection, tenderness, respect, or irony, humor, and mockery. It primarily manifests through grammatical forms and lexical means. The article also provides information about the active use of diminutiveness in spoken and written speech, children’s speech, and dialects.

Keywords: *grammatical means, sincere tone, synonyms and alternative words, emotional expressions, small size, meaning of diminutiveness, meaning of affection, spoken language, dialect, means of emotional expression.*

Til inson tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyat hayotidagi muhim hodisalarni aks ettiradi. O‘zbek tili boy va rang-barang leksik qatlamlarga ega bo‘lib, unda insonlarning o‘zaro muloqot jarayonida turli xil ma’no ifodalari shakllangan. Shunday ifoda ko‘rinishlaridan biri – kichraytirish ma’nosining ifodalanishidir. Kichraytirish orqali insonlar hajm, shakl, miqdor, paytni va hatto harakatni me’yordan ko‘ra qisqartirish, kamaytirish, ozaytirish kabi ma’nolarni ifoda etadilar. Ular kundalik muloqotda, bolalar nutqida, oila a’zolari o‘rtasidagi suhbatlarda, badiiy adabiyotda, folklorda va hatto rasmiy bo‘lmagan yozma nutqda ham keng qo‘llanadi. Ushbu hodisa lingvistik jihatdan ham, psixolingvistik va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham dolzarb mavzu bo‘lib, uning ilmiy tahlili o‘zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligidagi olimlar tomonidan kichraytirish ma’nosining o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni haqida erkalash ma’nosi bilan birgalikda aniqlanib, turli xil izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A. Madvaliyev, S. Usmonov, N. Mahmudov kabi tilshunos olimlar kichraytirish-erkalash ma’nosini, so‘z yasalishi va uning semantik jihatlarini o‘rganishgan. Shuningdek, kichraytirish-erkalash shakllari xalq

og‘zaki ijodidagi ahamiyati jihatidan ham ba’zi tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Masalan, O. Qo‘ng‘irov “O‘zbek xalq maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari” asarida maqollarda kichraytirish shakllarining ta’sirchanligini tahlil qilgan. U.Mamatov esa badiiy adabiyotda kichraytirish-erkalash shakllari yordamida qahramon xarakteri ochib berilishiga e’tibor qaratgan. Shunga qaramay, o‘zbek tilidagi kichraytirish-erkalash shakllarining grammatik, semantik, pragmatik va stilistik jihatlarini alohida, chuqur tadqiq etishga bag‘ishlangan yetarlicha ilmiy ishlarga hali to‘liq duch kelinmagan.

O‘zbek tilida kichraytirish ma’nosini hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bu shakl yasovchi qo‘shimchalardan foydalanishdir. Eng ko‘p uchraydigan kichraytirish qo‘shimchalari quyidagilardan iborat: -cha, -choq, -chak, -ak, -gina, -qina, -kina, -voy, -boy, -qay, -kay. Ushbu qo‘shimchalar so‘zga qo‘shilganida, unga kichik, yumshoq yoki yoqimli, erkalash ohangidagi ma’no yuklaydi. Masalan, bolacha (kichik bola yoki bolani erkalatib aytish), qo‘zichoq (qo‘yning bolasi), yo‘lak (kichik hajmdagi yo‘l), itcha (kichik yoki yoqimli it), suvcha (kam miqdordagi yoki shirin ichiladigan suv) kabi so‘zlar shu usulda hosil bo‘ladi.

Kichraytirish shaklining ko‘rinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi: (5:56)

1. **- cha**

a) shaxs va predmetning kichik ekanligini ifodalash; Shoir daftarchasini tizzasiga qo‘yib tez-tez yozar edi. (A.Q.)

b) erkalash ma’nosini ifodalash: *–Qani bo‘lmasa, tingla, o‘g‘ilcha, – deydi chol va yo‘talib tarixini boshlaydi.*(O).

v) kamsitish ma’nosini ifodalash: *Ichkariga kiring, anavi yetimcha qizimizni o‘ldirib qo‘yay deyapti.*(Mirm).

2. **- gina**

a) kichraytirish ma’nosini berish*: Qizgina raqsga tushdi. Bo‘taloqqina har qancha ildam yursa-da, onasiga yetolmas ekan* (Gulxaniy).

b) achinish ma’nosini ifodalash: Tarvuz va qovunginalar suvsizlikdan qovjirab qolibdi. “Qizginam bo‘rilarga yem bo‘ldiyov”, - deb ota yig‘lay-yig‘lay uyga qaytdi. (Ertakdan).

v) erkalash ma’nosini ifodalash: *…Endigi qolgan umrimni faqat seni izlash uchun sarflayman, deb ahd qilib qo‘ygan edim, bolaginam* (A.Muxtor).

Kichraytirish-erkalash qo‘shimchalarining yana bir turi -gina, -qina, -kina bo‘lib, ular so‘zga yanada yumshoqlik va samimiylik ohangini beradi. Masalan, ko‘zgina (kichkina ko‘z yoki mehribonlik bilan aytilgan ko‘z), qo‘lgina (mayin, kichik qo‘l), kabi so‘zlar shular jumlasidandir. Bu o‘rinda shuni eslatib o‘tish joizki, kichraytirish achinish qo‘shimchasi bo‘lgan –gina, -kina, -qina qo‘shimchasi bilan shakldosh bo‘lgan –gina ajratish, ta’kid yuklamasi ham bor. Ajratish, ta’kid yuklamasi –gina hamisha so‘zning oxirida keladi, ya’ni egalik, ko‘plik qo‘shimchalari yuklamadan oldin qo‘yiladi: *Mardlargina o‘z vatanlari uchun mardona kurasha oladilar. O‘rtog‘imgina menga qarshi chiqmadi.* Shuningdek, kichraytirish-erkalash ma’nosini hosil qilishda -voy, -boy qo‘shimchalari ham keng qo‘llaniladi. Masalan, qizvoy (erkatoy qiz), bolakayvoy (mehr bilan aytilgan kichik bola) kabi so‘zlar bolalarni erkalash yoki samimiy ohangda murojaat qilish uchun ishlatiladi.

Kichraytirish-erkalash ma’nosini hosil qilishda maxsus sinonim va muqobil so‘zlardan ham foydalaniladi. Ba’zan yangi so‘z yaratmasdan, mavjud so‘z o‘rniga yumshoqroq, erkalash ohangiga ega bo‘lgan so‘z qo‘llaniladi. Masalan, bola so‘zi o‘rniga bolakay, go‘dak, ona o‘rniga onajon, onaxon, ota o‘rniga otajon, otaxon kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu kabi leksik birliklar insonlar orasidagi mehr-muhabbat, yaqinlik tuyg‘ularini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, kichraytirish-erkalash ma’nosini berish uchun ba’zan hissiy jihatdan yumshoq yoki iliqlik ifodalovchi so‘zlar ham qo‘llaniladi. Masalan, qor o‘rniga qorqaymoq (kichik va mayin qor), mushuk o‘rniga mushukvoy, mushukcha (kichkina yoki yoqimli mushuk), qo‘g‘irchoq o‘rniga qo‘g‘irchoqvoy, qo‘g‘irchoqcha (erkalash ohangda aytilgan qo‘g‘irchoq) kabi so‘zlar ishlatiladi. Bunday so‘zlarning qo‘llanilishi ko‘pincha bola yoki yaqin insonlarga nisbatan iliq munosabatni ifodalash uchun ishlatiladi.

Shuningdek, kichraytirish-erkalash ma’nosi tabiat hodisalari yoki turli predmetlarning hajmiga

nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, yomg‘ir → yomg‘ircha (kichik yomg‘ir), tosh → toshcha (kichkina tosh), hovuz → hovuzcha (kichik hovuz), sovg‘a→sovg‘acha (kichkina, sevimli)kabi so‘zlar bu hodisaning kichikroq yoki yumshoqroq variantini ifodalash uchun ishlatiladi.

Paradigmatik nuqtayi nazardan fe’l invariant ma’noga ko‘ra tasnif qilinadi. Bunga muvofiq, harakat (faoliyat), holat, xususiyat, munosabat fe’llariga ajratiladi. (11:345)

Kichraytirish-erkalash ma’nosi o‘zbek tilida nafaqat otlarda, balki fe’llarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, yurmoq (yurish) fe’li o‘rniga yurgilamoq (sekin yurish), kulmoq (kulish) o‘rniga kulimsiramoq (yengil, mayin kulish) kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu fe’llar, odatda, yumshoqroq, samimiyroq yoki yengillik ifodalovchi nutq ohangini hosil qiladi.

Shuningdek, kichraytirish-erkalash ma’nosi turli olmoshlar va so‘z birikmalari orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *mening kichkintoyim, azizginam, shirinjonim, jonajonim* kabi iboralar kishining yaqin insonlariga nisbatan aytiladigan erkalovchi shakllardir. Bu kabi iboralar ona-bola, sevishganlar, do‘stlar orasida ishlatilishi mumkin.

Nutqda kichraytirish-erkalash ma’nosi ko‘proq og‘zaki nutqda va norasmiy suhbatlarda qo‘llaniladi. Rasmiy hujjatlar yoki ilmiy nutqda bu shakllar kam ishlatiladi, chunki ular hissiy ifoda vositasi bo‘lib, odatda, yaqin insonlar o‘rtasidagi muloqotda uchraydi. Qolaversa, og‘zaki nutqda kichiklik ma’nosini yuqori mazmunda hissiy ifodalab keluvchi quyidagi dialektlarga ham duch kelamiz, ya’ni kichik hajm, shakl, ko‘rinishni ifodalash ma’nosida: *kichkina, mitti, jitti, zitti, qitti,mijiriq, jichcha, jimiqdek, mayda* kabi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham kichraytirish-erkalash ma’nosi keng uchraydi. Masalan, xalq qo‘shiqlari, maqollar va topishmoqlarda bu ma’noni ifodalovchi shakllar tez-tez uchraydi: “Bolajonim bo‘lsang, bag‘rim to‘q”, “Kichik jilg‘a katta daryoga yetaklaydi”; Qopcha ichida uncha, Uncha ichida ustuncha? (jiyda). (8:19)kabi misollarni keltirish mumkin.

O‘zbek tilida kichraytirishning turli ko‘rinishlarda ifodalanishi nutq boyligini oshirish, ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, bolalar nutqini shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, dialektlarni saqlash va badiiy nutqni ta’sirchan qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Ular nafaqat til taraqqiyotiga, balki insonlar o‘rtasidagi muloqot sifati va madaniyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma’naviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 1995.

2. Qurbonova M. Shakl-vazifaviy talqinda substansiallik omili. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1998-yil 5-son

3. Xudoyqulova, S., Dehqonova, L. (2021). ABDULLA QODIRIYNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 589-595.

4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild, – T., 2012.

5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili, – T., 2010.

6.Санаева И.В.Аксиологический аспект языковой картины мира в романе Л.Н.Толстого «Война и мир» (дихотомия «добро – зло»). Автореф.канд.филол.наук. – Калининград, 2007.

7. Sobirov A.Sh. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq qilish. — T.: Ma’naviyat, 2004.

8.Абдуллаев, Ж. Х. (1994). Ўзбек халк топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари.

9.Абдуллаев, Ж. (2021). ТИЛ ҚУРИЛИШИНИНГ АСОСИЙ БИРЛИКЛАРИ АКАДЕМИК АЗИМ ҲОЖИЕВ ТАЛҚИНИДА 1-мақола Морфеманинг моҳияти. Farg‘ona davlat universiteti, (4), 28-28.

10. Sharipov, F. G. (2021). Improvement of classification of parts of speech in modern Uzbek morphology. Academic research in educational sciences, 2(6), 455—465.

11. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд, — Т., 2012, 345-б.

Raxima TAGAYNAZAROVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti doktoranti

SO‘ZLARDA GIPONIMIK VA GIPERONIMIK MUNOSABAT

Annotatsiya: ushbu maqolada giponimiya, gipironim hodisasi va o‘zbek tilida tur-jins munosabatining ifodalanishi, shuningdek, flektiv guruhiga kiruvchi tillardagi jins (rod) grammatik shakliga ham izoh keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *giponim, giperonim, partonimik munosabat, rod.*

Annotation: this article discusses the phenomenon of hyponymy and hyperonymy, the expression of gender (rod) relationships in the Uzbek language, as well as an explanation of the grammatical form of gender in languages belonging to the agglutinative group.

Key words: *hyponym, hyperonym, partonomic relation, gender (rod).*

Аннотация: в данной статье рассматриваются явления гипонимии и гиперонимии, выражение родовых отношений в узбекском языке, а также дается объяснение грамматической формы рода в языках, относящихся к агглютинативной группе.

Ключевые слова: *гипоним, гипероним, партономические отношения, род.*

Tilshunoslikda giponimiya – semasiologiya va leksikologiyaning tadqiqot obyektlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Bizga ma’lumki, semasiologiya so‘zlarning ma’nosini (so‘zning lug‘aviy ma’nosini, ko‘chma ma’nolari (metafora, metonimiya va boshqalar), so‘zning polisemiyasi (ko‘p ma’nolilik), so‘zning semantik taraqqiyoti (ma’no kengayishi, torayishi), antonimiya, sinonimiya, giponimiya kabi ma’no munosabatlarini o‘rganadi. Giponimiya atamasi tarixda ilk marotaba qachon va kim tomonidan qo‘llanilgani haqida aniq manbalar topilgan emas. XX asrda bu atama ilmiy adabiyotda paydo bo‘lishidan oldin Aristotel va qadimgi yunon mantiqshunosligida, O‘rta asr leksikografiyasida va Saussure maktabi vakillarida ma’no bo‘ysunuvchi sifatida ishlatilgan, ammo ilmiy termin sifatida ishlatilmagan, bunday g‘oya bo‘lgan, lekin uni ifodalovchi tushuncha, ya’ni termin bo‘lmagan. “Hyponymy” atamasi 1963-yilda J. Lyons tomonidan ilmiy adabiyotda birinchi marotaba qo‘llanilgan. Tur-jins (iyerarxik ma’no munosabat) ni ifodalash uchun fanga shu terminni taklif qilgan. Keyinchalik o‘zining ikki jildlik “Semantics” (J.Lyons, 1977) asarida giponimiya tushunchasini mukammal nazariy asoslar bilan ishlab chiqqan. “Giponimiya” so‘zi yunon tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u ikki qismdan tashkil topgan:

1) hypo – “ostida”, “pastda”, “quyi”
2) onyma/onoma – “nom”, “so‘z”

Shu ikki so‘zning birikishidan:

hyponomy → hyponymy → giponimiya

ya’ni “pastda turgan nom”, “pastroq ma’no”, “ tor ma’no” kabi tushunchani ifodalaydi.

Giperonimiya so‘zi ham yunon tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u ikki qismdan tashkil topgan:

3) hyper – “ustida”, “yuqorida”, “kengroq”
4) onyma/onoma – “nom”, “so‘z”

Shu ikki so‘zning birikishidan:

hyper→ onymy →hyperonymy→ giperonimiya

ya’ni “yuqorida turgan nom”, “kengroq ma’no”, “ keng ma’noli so‘z” kabi tushunchani ifodalaydi.

Giponimiya leksikologiyada leksemalarning pog‘onali (iyerarxik) pog‘onali munosabatidan hosil bo‘ladigan semantik hodisadir. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma’no ifodalaydigan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma’no ifodalaydigan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida bo‘ladi, bunday aloqa birlashtiruvchi (integral) semalar orqali amalga oshiriladi. Giperonimiya va giponimiya munosabatini tilshunoslikda umumiy va xususiylik ma’no kabi tushunsa bo‘ladi, ya’ni keng ma’nodan tor ma’no o‘sib chiqishidir. Umumiy so‘z – bu giperonimiya, xususiylik esa giponimiyadir. Umumiy so‘zga bo‘ysunuvchi tor ma’noli so‘zlar munosabati giponimiyadir. Masalan:

Giperonim (umumiy so‘z): qush

Giponim (tor ma’noli so‘zlar): burgut, lochin, kabutar, boyqush, chumchuq, qizilishton, qarg‘a kabi.

Yana bir misol:

Giperonim (jins): Oshxona buyumlari

Giponim (tur): qozon, pichoq, tovoq, cho‘mich, lagan

Til yaxlit bir sistema deb tasavvur qilinsa, so‘zlar bir-biri bilan gipo-giperonomik (tur-jins), partonimik (butun-bo‘lak) munosabatda deyish mumkin. Bunday munosabatga ajratilishning asosiy maqsadi tilni terminologik jihatdan o‘rganish va o‘rgatishda, so‘z ma’nolarini tizimlashtirishda, lug‘atlar tuzishda, til o‘qitishda va o‘rganishda, matn tahlilida, sun’iy intellektda.

Gipo-giperonimik munosabatni graduonimiya, partonimiyadan farqlash kerak. Partonimiya leksemalarning ma’no guruhlarida butun-bo‘lak munosabatlarining ifodalanishidir. Masalan, inson tanasi (butun), tana a’zolari: qorin, bosh , qo‘l, oyoq, quloq.

Narsa va hodisalar, voqealar, shaxslar, ularga xos bo‘lgan belgi-xususiyatlar, xatti-harakatlar miqdoriy xossalar bevosita kuzatishda so‘zlar orqali reallashadi. Leksikada dialektikaning umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik kategoriyalari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Sistema ichida sistema tamoyiliga ko‘ra, leksik sathdagi semantik maydonlar bir-birlari bilan giper-giponimik munosabatda turadi. Katta maydonlar o‘z ichida kichik maydonlarga bo‘linib ketadi. Kichik maydonlar yana o‘z navbatida kichik maydonlarga ajraladi. Shu tariqa tilning o‘ziga xos giper-giponimik qurilmasi, ya’ni iyerarxiyasi vujudga keladi. Demak, so‘zlararo giper-giponimik munosabat katta maydondan kichik maydonlarga kichik maydondan yana kichik maydonchalar hosil qilishi mumkin ekan. Buni bir oila a’zolari misolida ko‘rish mumkin. Bir ota-ona giperonim, uning bolalarini esa giponim va har bir bola o‘zlarining bolalariga nisbatan giperonim ularning bolalari esa giponim bo‘lishi mumkin. Yana bir misol, daraxt giperonim, olma, nok, o‘rik, anjir, anor daraxt giperonimining giponimlari, olma daraxti giperonim, Besh yulduz, Semerenko, Golden esa olma daraxti umumiy nomining xususiy turlaridir, ya’ni giponimlaridir.

Tilshunoslikda giper-giponimik munosabat inson ongida tizimlashtirilgan shaklda bo‘ladi, ya’ni inson giper-giponimik munosabatning aslida mavjudligini bilmaydi, lekin zanjirlar ketma-ketligini ular o‘rtasidagi aloqa zanjirini tushuntirilgandagina bilishi mumkin. Ya’ni giper-giponimik munosabatlar til fenomidir, u tilda tabiiy ravishda mavjuddir va u tilda tizimlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu xuddi tabiat fenomiga o‘xshash. Tabiatda ham barcha narsalar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq, zanjir kabidir. Ya’ni marjon shodasi, uning bir qismi uzilsa marjon shodalari sochilib ketadi. Masalan, yomg‘ir tabiat hodisasi eslanganda, bulut, shamol, chaqmoq, momaqaldiroq eslanadi, chunki yomg‘irning yog‘ishiga sabab bo‘luvchi omillar ketma-ketligi mavjuddir, ulardan bittasi bo‘lmasa yomg‘ir yog‘masligi mumkin. Demak, giponimiya hodisasi tilning ichki tuzilishida tabiiy ravishda mavjud bo‘ladi.

Yana shuni aytib o‘tish joizki, o‘zbek tilida tur-jins munosabati deyilganda, jins tushunchasining flektiv guruhiga kiruvchi ba’zi tillardagi jins (rod) ga nisbatan tushunilmasligi kerak.

Ma’lumki, dunyo tillari grammatik jihatdan, morfologik, sintaktik, semantik jihatidan o‘zaro aloqaga kirishishadi. Bunday aloqaga kirishishi uchun ba’zi dunyo tillari ma’lum bir grammatik kategoriyada bo‘lishi kerak. Rus, arab, nemis, fransuz tillarida rod mavjud. Rod ham bir nechta vazifalarni bajaradi.

1. So‘zlar o‘zaro birikma hosil qilganda bir-biri bilan kelishishi uchun, masalan, rus tilida:

-красивый дом (мужской род)

-красивая книга (женский род)

-красивое окно (средний род)

2. So‘zlarning qaysi jinsda ekanligini ifodalashda: mama – jenskiy rod; more – sredniy rod, odatda, jonsiz narsalar, hodisalar uchun; stol –mujskoy.

3. Fe’lning o‘tgan zamon shaklini belgilaydi. O‘tgan zamonda fe’l otning jinsiga moslashadi. Misollar:

-он пришёл (мужской)

-она пришла (женский)

-окно открылось (средний)

Xulosa qilib aytganda, rod va o‘zbek tilidagi jins tushunchasi bir xil vazifani bajarmaydi va ularni bir-biridan farqlash kerak, chunki tilimizdagi jins tushunchasini leksikologiya va semasiologiya o‘rganib, semantik munosabat ifodalasa, rod esa morfologiya bo‘limida o‘rganilib, grammatik kategoriya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne’matov H., Rasulov R. “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari”.–T., 1995.
2. Safarova R. “Гипонимия в узбекском языке”.–T., 1990.
3. Sobirov A. “O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish”. –T., 2005.

Дилором РИСКУЛОВА,
Преподаватель Уз ГУМЯ

Д.Н. УШАКОВ: “ПОНИМАТЬ РУССКОЕ СЛОВО НЕ ТОЛЬКО ФАКТ ЯЗЫКА, НО И ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ НАРОДА, НЕПОСРЕДСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЕГО ДУШИ”

Аннотация: в данной статье особое внимание педагогической деятельности ученого, лингвиста, профессора Д.Н. Ушакова, воспитавшего целую плеяду выдающихся лингвистов, гордившихся прозвищем «ушаковские мальчики», в работе также характеризуются личность ученого, его научная и организационная деятельность в области диалектологии, орфоэпии, орфографии, в становление и развитие которых он внес значительный вклад. Основное внимание уделено лексикографической деятельности, так как для неспециалистов фамилия Ушаков связана прежде всего с «Толковым словарем русского языка».

Ключевые слова: *Д.Н. Ушаков; «Современный русский язык», «Толковый словарь русского языка».*

Annotation: this article focuses on the teaching work of the scholar, linguist, and professor D.N. Ushakov, who mentored a generation of outstanding linguists, known for their nickname “Ushakov’s boys.” The work also explores the scholar’s personality, research, and organizational activities in the fields of dialectology, orthoepy, and spelling, to the development and evolution of which he made a significant contribution. Emphasis is placed on his lexicographic work, as for non-specialists, the name Ushakov is primarily associated with the Explanatory Dictionary of the Russian Language.

Key words: *D.N. Ushakov; “Modern Russian Language,” Explanatory Dictionary of the Russian Language*

Annotatsiya: ushbu maqola “Ushakovning o‘g‘illari” laqabi bilan tanilgan bir avlod taniqli tilshunoslarga ustozlik qilgan olim, tilshunos va professor D.N. Ushakovning o‘qituvchilik faoliyatiga bag‘ishlangan. Asarda shuningdek, olimning dialektologiya, orfoepiya va imlo sohalaridagi shaxsiyati, tadqiqotlari va tashkiliy faoliyati o‘rganiladi, ularning rivojlanishi va evolyutsiyasiga u katta hissa qo‘shgan. Uning leksikografik ishlariga alohida e’tibor qaratilgan, mutaxassis bo‘lmaganlar uchun esa Ushakov nomi asosan, rus tilining izohli lug‘ati bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: *D.N. Ushakov; “Zamonaviy rus tili”, rus tilining izohli lug‘ati.*

Реформист, лингвист русской орфографии и диалектологии, Дмитрий Николаевич Ушаков внес огромный вклад в развитие современного русского языка благодаря созданию «Толкового словаря русского языка», ставшего первым советским нормативным словарем, восполнившим пробел в описании лексики XX века. Неоценим также его вклад в работу над реформой русской орфографии, разработку основ орфоэпии, как отдельной дисциплины и создание многоаспектной системы стилистических помет.

К великому сожалению, все мы пользовались «Орфографическим словарем» и совсем ничего не знаем о его составителе.

Основными достижениями Дмитрия Ушакова является «Толковый словарь русского языка». Четырехтомный словарь издан в 1935–1940 годах. Безусловно, словарь отличался полнотой, хорошо проработанными значениями слов и системой помет, отражающих особенности их употребления. В его создании участвовали такие выдающиеся ученые лингвисты С. И. Ожегов и В. В. Виноградов[1].

Не для кого не является секретом то, что Ушаков был активным участником составления проекта реформы русской орфографии 1917–1918 годов, обосновав необходимость ее проведения в своей книге «Русское правописание»[2]. Ушаков стал одним из первых, кто систематически исследовал науку о правильном произношении (орфоэпию), и разработал ряд научных работ, посвященных этой проблеме[3]. Им была предложена и внедрена многоаспектная система стилистических помет, таких как «разг.» (разговорное) и «офиц.» (официальное), которые используются и по сей день в различных словарях.[4]

Немалый вклад он внес и в раздел *«Диалектология»*. Ушаков на протяжении многих лет возглавлял Московскую диалектологическую комиссию, целью которой было создание диалектной карты европейской части России. В нее также вошли говоры: русских, украинцев и белорусов.

1 Галактионова И.В. Дмитрий Николаевич Ушаков – «человек общения» (к 150-летию ученого) // Вестн. Моск. ун-та. Серия 9. Филология. 2024. № 1. С. 9-16.

2 Там же с.45

3 Баскевич И.З. Дмитрий Николаевич Ушаков. Из воспоминаний // Русская речь. Переизд. 2023. № 1. С. 73–76.

4 Винокур Т.Г. Ушаковские мальчики. Беседа с М.В. Китайгородской, Н.Н. Розановой и Л.К. Чельцовой // Незабытые голоса России. Звучат голоса отечественных филологов. Выпуск 1. М., 2009. С. 70–85.

Очень интересна и разнообразна и педагогическая деятельность Ушакова. Он является выдающимся педагогом и лектором, который популяризировал знание о русском языке среди широкой публики. Его труды и лекции по сей день используются учителями и студентами.

Революционные социальные преобразования, произошедшие в России, первые два десятилетия XX века значительно изменили словарный состав русского языка. И в 1920-е годы под руководством Д. Ушакова была начата работа над толковым словарем русского языка. Ее составителем и главным редактором был несомненно Дмитрий Николаевич Ушаков. 4-томный «Толковый словарь русского языка», который начал выходить с 1935 по 1940 годы. Именно тогда, на свет появился словарь, восполнивший существенный пробел в описании развития русского языка XX века. Этот словарь специалистами был отнесен к числу обязательных в перечне словарных изданий XIX–XX веков, без которых картина современного русского языка была бы неполной. Данный словарь содержит более 90 тыс. словарных статей и рассчитан на широкий круг читателей. В 1891 году Ушаков, окончив гимназию стал *студентом историко-филологического факультета Московского университета.* Наставником, учителем научным руководителем Ушакова в университете стал профессор Ф.Ф. Фортунатов. Под его руководством Ушаков написал кандидатское сочинение «Склонения у Гомера». После окончания университета с 1896 по 1913 год он работал учителем в школе. В 1900 – 1901 годах сдал магистерские экзамены и прочел две пробные лекции: «Главные направления в изучении русского народного эпоса» и «Московский говор как основа русского литературного языка»[5].

С 1907 года начал преподавать в Московском университете на кафедре русского языка, где работал до 1935 года, пройдя должности приват-доцента, старшего ассистента, штатного доцента и профессора[6]. С 1939 года до конца жизни Дмитрий Ушаков заведовал славянским сектором Института языка и письменности АН СССР.

Он написал один из первых отечественных учебников по введению в языкознание «*Краткое введение в науку о языке*», выдержавший девять изданий. С 1920 по 1929 годы Дмитрий Ушаков являлся действительным членом Научно-исследовательского института языка и литературы РАНИОН, а с 1923 по 1927 год – председателем его лингвистической секции.[7] 15 января 1936 года Дмитрий Ушаков был утвержден в ученой степени доктора лингвистических наук ВАК Наркомпроса, а в 1939 году избран членом-корреспондентом АН СССР.

В октябре 1941 года был эвакуирован из Москвы в Узбекистан. Умер Дмитрий Николаевич Ушаков 17 апреля 1942 года в Ташкенте. Похоронен на Боткинском кладбище Ташкента.

Дмитрий Ушаков прославился в качестве составителя четырехтомного «Толкового словаря русского языка», первое издание которого увидело свет в 1935–1940 годах.

Это был первый советский нормативный словарь, с достаточной полнотой отразивший лексику литературного языка. Словарь отличался хорошо проработанными описаниями значений слов, а также системой помет, указывающих на особенности их употребления. Слова в нем были снабжены краткими этимологическими справками. Авторский коллектив, возглавляемый Дмитрием Ушаковым, включал таких видных ученых, как В. В. Виноградов, Г. О. Винокур, Б. А. Ларин, С. И. Ожегов, Б. В. Томашевский[8].

Словарь содержал более 90 000 словарных статей. Общеизвестно, что помимо русской лексикографии следует отметить вклад Д. Н. Ушакова в двух областях: *орфографии и диалектологии*. Он принимал активное участие в проекте реформы русской орфографии. В 1911 году вышла в свет его книга «Русское правописание», где в ходе анализа соотношения между литературным произношением и орфографией теоретически обосновывалась необходимость реформы русского правописания.

Р. И. Аванесов вспоминал, впервые в отечественной лексикографии разработана и применена сложная и многоаспектная система стилистических помет, представляющих собой такую сеть противопоставлений и сопоставлений, которая позволяет увидеть сразу несколько функционально-стилистических и эмоционально-оценочных ипостасей слова: литературное – просторечное, литературное – областное, книжное – разговорное, нейтральное – высокое, общелитературное – специальное, официальное – канцелярское и т. д. Впервые словарю предпослан (в 1-м томе) очерк орфоэпии и морфологии. Это первый толковый словарь, зарегистрировавший слова, вошедшие в язык в конце 10-х – начале 30-х годов минувшего столетия (около тысячи). Впервые наиболее употребительным морфемам посвящены словарные статьи (есть статьи о приставках анти-, без-, за- и нек. др., о первых

5 Науменко С.В. Орфографический меморандум Д.Н. Ушакова // Русский язык в школе. 2018. № 79 (1). С. 57–64.

6 Там же с.34

7 Памяти Д.Н. Ушакова (к 50-летию со дня смерти) / Н.Д. Архангельская, Т.Г. Винокур // Известия РАН. Серия литературы и языка. 2012. Т. 51, № 3. С. 62–81.

8 Памяти Д.Н. Ушакова (к 50-летию со дня смерти) / Н.Д. Архангельская, Т.Г. Винокур // Известия РАН. Серия литературы и языка. 2012. Т. 51, № 3. С. 62–81.

частях сложных слов дву-, бое- и т. д.). Впервые в отечественной лексикографии четко сказано об отличии словаря языка от энциклопедического (и данное отличие соблюдено в словарных статьях)».[9]

Э.И. Ханпира. вспоминал, особенно удавались Ушакову (и его соавторам) определения глагольных значений (так же как Далю – значений существительных): в этом сказался и динамизм эпохи, и интеллектуальная подвижность характера самого Д. Н. Ушакова[10].

М. В. Панов, часто вспоминая Д. Ушакова говорил, что он обязательно должен был общаться с людьми, и он действительно общался и с учителями, и со студентами, и с аспирантами, с актерами, с докторами, с певцами, с режиссерами, с кем угодно, вплоть до чиновников разных ведомств, которые не знали, как надо писать название их собственного учреждения. И он охотно с ними общался. Но он шел, и он нас научил не отгораживаться от практической жизни...[11]

А.А. Реформатский очень уважительно отзывался о нем, говоря, что многие ученики Дмитрия Ушакова стали знаменитыми лингвистами: *Р.И. Аванесов, П.Г. Богатырев, Г.О. Винокур, А.А. Реформатский, В.Н. Сидоров, Р.О. Якобсон, С.Б. Бернштейн* и другие.

9 Аванесов Р.И. Дмитрий Николаевич Ушаков (К столетию со дня рождения) // Известия РАН. Серия литературы и языка. Переизд. 2023. Т. 32, № 2. С. 201–204.

10 Галактионова И.В. Дмитрий Николаевич Ушаков – «человек общения» (к 150-летию ученого) // Вестн. Моск. ун-та. Серия 9. Филология. 2024. № 1. С. 9–16.

11 Памяти Д.Н. Ушакова (к 50-летию со дня смерти) / Н.Д. Архангельская, Т.Г. Винокур // Известия РАН. Серия литературы и языка. 2012. Т. 51, № 3. С. 62–81

И в заключении хотелось бы отметить, то, что Дмитрий Ушаков был признанным знатоком правильного русского произношения. В течение многих лет он был консультантом Радиокомитета, за советами к нему обращались известные актеры Евдокия Турчанинова и Василий Качалов. Абсурдным был факт, когда, при подготовке толкового словаря так называемый «политический редактор» (фактически цензор) упрекнул Ушакова в том, что в словарь попали как советские, так и несоветские слова. После выяснилось, что редактор так воспринял пометы ***«сов.» и «несов.»*** у глаголов совершенного и несовершенного вида. В фонотеке Института русского языка РАН хранится запись лекции Дмитрия Ушакова «О московском произношении», прочитанной в 1940 году. Дмитрий Ушаков был награжден орденами Святого Станислава III степени, Святой Анны III степени, Святого Станислава II степени и орденом «Знак почета». Оказавшись в эвакуации ***в Ташкенте,*** Дмитрий Николаевич *начал изучать узбекский язык* и *составил русско-узбекский разговорник.*

Конечно же, Ушакову важно было уравновесить литературную норму в трех ее аспектах: правописании, произношении и лексикографии. На этом поприще он делал немало: издавал учебники, справочники и методические пособия, вел курсы, читал лекции. Уже в книге «Русское правописание», вышедшей в 1911 году, автор впервые обосновывал необходимость реформы русской орфографии. После революции Дмитрий Ушаков стал одним из активных участников орфографической реформы.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Аванесов Р.И. Дмитрий Николаевич Ушаков (К столетию со дня рождения) // Известия РАН. Серия литературы и языка. Переизд. 2023. Т. 32, № 2. С. 201–204.

2. Баскевич И.З. Дмитрий Николаевич Ушаков. Из воспоминаний // Русская речь. переизд 2023. № 1. С. 73–76.

3. Винокур Т.Г. Ушаковские мальчики. Беседа с М.В. Китайгородской, Н.Н. Розановой и Л.К. Чельцовой // Незабытые голоса России. Звучат голоса отечественных филологов. Выпуск 1. М., 2009. С. 70–85.

4. Галактионова И.В. Дмитрий Николаевич Ушаков – «человек общения» (к 150-летию ученого) // Вестн. Моск. ун-та. Серия 9. Филология. 2024. № 1. С. 9–16.

5. Науменко С.В. Орфографический меморандум Д.Н. Ушакова // Русский язык в школе. 2018. № 79 (1). С. 57–64.

6. Никитин О.В. Забытые страницы русской лексикографии 1920-х гг. (предыстория «Ушаковского словаря») // Русский язык в научном освещении. 2004. № 1 (7). С. 195–228.

7. Памяти Д.Н. Ушакова (к 50-летию со дня смерти) / Н.Д. Архангельская, Т.Г. Винокур // Известия РАН. Серия литературы и языка. 2012. Т. 51, № 3. С. 62–81.

8. Реформатский А.А. Из «дебрей» памяти // Новый мир. 2002. № 12. С. 70–84.

9. Ушаков Д.Н. Русский язык: учебное пособие для педагогических университетов и институтов по специальности «Русский язык и литература». М., переизд.2015.

Интернетисточники:

https://polit.ru/news/2023/01/24/ushakov/

Маъмурахон АЛИМОВА,
преподаватель кафедры
Русского языка и литературы
Кокандского государственного университета

ТЕХНИКА И МЕТОДЫ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: в статье рассматриваются современные методы лингвистического анализа художественного текста, включая морфологический, синтаксический, стилистический и лексический подходы. Особое внимание уделяется выявлению авторской индивидуальности, средств выразительности и их роли в создании художественного образа. Приводятся примеры анализа на материале русской художественной литературы.

Ключевые слова: *художественный текст, лингвистический анализ, стилистика, морфология, синтаксис, выразительные средства.*

Annotation: the article examines modern methods of linguistic analysis of literary texts, including morphological, syntactic, stylistic, and lexical approaches. Special attention is paid to identifying the author's individuality, expressive means, and their role in creating a literary image. Examples of analysis based on Russian literary works are provided.

Key words: *literary text, linguistic analysis, stylistics, morphology, syntax, expressive means*

Annotatsiya: maqolada badiiy matnni lingvistik tahlil qilishning zamonaviy usullari, shu jumladan morfologik, sintaktik, stilistik va leksik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Muallifning individualligini, ifoda vositalarini va ularning badiiy obrazni yaratishdagi rolini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rus badiiy adabiyoti materiallari asosida tahlil misollari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, lingvistik tahlil, stilistika, morfologiya, sintaksis, ekspressiv vositalar.*

Введение

Лингвистический анализ художественного текста занимает центральное место в современном языкознании, поскольку художественная речь представляет собой особый тип языковой организации, в котором содержание и форма взаимодействуют наиболее тесно. Художественный текст не только передает информацию, но и формирует эстетическое воздействие, создает образную структуру и отражает мировоззрение автора. В условиях развития междисциплинарных исследований возрастает необходимость комплексного изучения языковых единиц художественной речи, что требует уточнения методов и техник анализа.

Современные подходы к анализу художественного текста объединяют достижения лингвостилистики, поэтики, семиотики, когнитивной лингвистики и нарратологии, позволяя рассматривать текст как сложную структуру, включающую уровни языка, принципы композиции, систему образов и культурные коды.

Особое значение приобретает уточнение понятия «техника анализа», которое включает последовательность аналитических операций, выбор уровней анализа и интерпретационных процедур. Такое уточнение важно как для теоретического осмысления природы художественной речи, так и для практики преподавания лингвистического анализа текста. Актуальность исследования определяется необходимостью комплексного подхода к анализу художественного текста, позволяющего выявить его структурную, семантическую и эстетическую специфику.

Обзор литературы

Вопросы лингвистического анализа художественного текста широко освещены в трудах отечественных и зарубежных исследователей. Существенный вклад в

разработку теоретических основ анализа внес Н. В. Гак, рассматривающий художественный текст как сложную семиотическую структуру, в которой взаимосвязаны все уровни языка. В работах В. М. Жирмунского особое внимание уделяется поэтическому языку и его специфическим средствам выразительности, что делает его исследования значимыми для изучения стилистических аспектов текста.

Важное место в литературе занимает изучение индивидуального стиля писателей, в частности анализ художественных средств у Пушкина, Чехова, Айтматова и других авторов, чьи произведения традиционно рассматриваются как примеры тонкой организации языковых уровней. Обобщая существующие труды, можно отметить, что современная наука рассматривает лингвистический анализ художественного текста как комплексный и многоаспектный метод, позволяющий глубоко исследовать структуру и смысловую организацию произведения.

Методология исследования

Морфологический анализ

Морфологический анализ в художественном тексте играет важную роль, поскольку выявляет закономерности использования частей речи, их формы и функции в контексте произведения. Например, активное использование причастий, деепричастий и сложных глагольных форм в произведениях А. С. Пушкина создает динамику повествования и усиливает экспрессивность описаний. Анализ морфологических средств также позволяет выявить авторскую индивидуальность: выбор форм слова, частота использования определенных частей речи и их распределение по тексту отражают стиль автора и его предпочтения в построении художественного мира [4, с. 78].

Синтаксический анализ

Синтаксический анализ дополняет морфологический, исследуя структуру предложений, их типологию и взаимодействие между частями. Сложные синтаксические конструкции, такие как инверсия, антитеза, повтор и параллелизм, усиливают выразительность текста [5, с. 43]. В романе Ф. Искандера «Кролики и удавы» такие синтаксические приемы используются для передачи психологической напряженности и внутреннего состояния персонажей, создавая эффект живой речи.

Стилистический анализ

Стилистический анализ изучает художественные средства языка, включая тропы (метафоры, эпитеты, гиперболы, сравнения), фразеологизмы и фигуры речи. Эти средства формируют образную систему произведения и помогают автору передавать эмоции, психологическое состояние героев и авторские позиции.

Лексический анализ

Лексический анализ исследует словарный состав текста, частотность употребления слов, их семантические поля и коннотативную нагрузку. Он позволяет определить ключевые слова и выражения, создать эмоциональный колорит и выявить культурный контекст (например, национальную окраску у Ч. Айтматова).

Результаты исследования

1. Морфологический уровень анализа позволяет установить авторские предпочтения в выборе форм частей речи (например, преобладание причастий и деепричастий у Пушкина), что влияет на динамику и образность текста. В описании природы («Зимнее утро») эти формы создают ритм и атмосферу: «Сквозь снежную мглу мелькают деревья» [7, с. 78].

2. Синтаксический уровень выявляет роль сложных предложений, инверсий и повторов в создании эмоционального внутреннего напряжения, как в произведениях Ф. Искандера.

3. Стилистический уровень показывает, что такие средства, как эпитеты и метафоры (например, у А. Чехова), выполняют психологическую функцию, раскрывая внутренний мир персонажей.

4. Лексический уровень позволяет выявить ключевые слова, семантические поля и национально-культурную лексику, характерную для произведений Ч. Айтматова.

5. Интеграция всех уровней анализа демонстрирует взаимосвязь языковых средств и их роль в формировании художественного образа.

Обсуждение

Результаты исследования показывают, что лингвистический анализ художественного текста наиболее эффективен при комплексном подходе, учитывающем взаимодействие морфологических, синтаксических, лексических и стилистических средств. Выявленные особенности использования грамматических форм и синтаксических конструкций подтверждают их значительную роль в создании динамики, ритма и эмоциональной выразительности произведения. Таким образом, обсуждение результатов подтверждает необходимость многоуровневого подхода при интерпретации художественного текста как сложной семиотической системы.

Вывод

Исследование подтвердило, что художественный эффект текста создается взаимодействием морфологических, синтаксических, лексических и стилистических средств. Повтор ключевых слов формирует ритмическую структуру и усиливает драматический эффект; синтаксическая организация отражает эмоциональное состояние персонажей; стилистические средства создают образность; лексика формирует культурный и смысловой фон.

Практическая значимость техники анализа заключается в том, что она обеспечивает последовательное изучение текста, помогает систематизировать наблюдения и интерпретировать художественные средства в контексте идейного замысла автора. Комплексное применение методов позволяет выявлять взаимосвязь различных уровней текста, демонстрирует, как грамматические формы, лексика и стилистические фигуры совместно создают художественный эффект.

Таким образом, техника лингвистического анализа художественного текста представляет собой многоуровневую и системную методологию, объединяющую разные уровни языка и обеспечивающую глубокое понимание структуры и художественного замысла произведения [8, с. 92].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Айтматов Ч. Собрание сочинений в 5 томах. – М.: Правда, 1986.
2. Арнольд И. В. Стилистика. Современный курс. – СПб.: Наука, 2002.
3. Бахтин М. М. Слово в романе. – М.: Художественная литература, 1975.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Наука, 1980.
5. Гак Н. В. Лингвистический анализ текста: Теория и практика. – М.: Высшая школа, 2018.
6. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.
7. Жирмунский В. М. О поэтическом языке. – СПб.: Наука, 2000.
8. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – Тарту: Тартуский университет, 1970.
9. Москвин В. П. Как анализировать художественный текст. – М.: Флинта, 2012.
10. Пропп В. Я. Морфология волшебной сказки. – М.: Лабиринт, 1998.
11. Слонимский– И. М. Стилистика русского языка. – М.: Литинформ, 2002.
12. Успенский, Б. А. Семиотика и язык художественной литературы. — М.: Искусство, 1995.

Сабина ЮЛДАШЕВА,
Кокандский государственный университет

КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА КОММУНИКАТИВНОГО ЭТИКЕТА

Аннотация: статья посвящена анализу культурной специфики коммуникативного этикета в различных языковых и социальных сообществах. Рассматриваются культурные факторы, влияющие на выбор форм обращения, стратегий вежливости, ритуалов общения и моделей речевого поведения. Показано, что различия в коммуникативном этикете отражают мировоззрение, ценности, социальную структуру и традиции общества. Выделены особенности русской, английской и узбекской культур как примеров разных типов коммуникативной нормы.

Ключевые слова: *культурная специфика, коммуникативный этикет, формы вежливости, речевое поведение, культурные нормы общения.*

Annotatsiya: maqola turli til va ijtimoiy hamjamiyatlarda kommunikativ etiketning madaniy xususiyatlarini tahlil qiladi. Murojaat shakllari, odob strategiyalari, muloqot marosimlari va nutqiy xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir qiluvchi madaniy omillar ko‘rib chiqiladi. Kommunikativ etiketdagi farqlar jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishi va an’analarini aks ettirishi ta’kidlanadi. Rus, ingliz va o‘zbek madaniyatlari turli kommunikativ me’yorlar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *madaniy xususiyatlar, kommunikativ etiket, odob-axloq strategiyalari, nutqiy xulq-atvor, madaniy me’yorlar*

Annotation: the article examines the cultural specificity of communicative etiquette across different linguistic and social communities. It analyzes cultural factors influencing forms of address, politeness strategies, communication rituals, and speech behavior patterns. The study demonstrates that differences in communicative etiquette reflect the worldview, values, social structure, and traditions of a society. Characteristics of Russian, English, and Uzbek cultures are presented as examples of distinct communicative norms.

Key words: *cultural specificity, communicative etiquette, politeness strategies, speech behavior, communication norms.*

Введение

Klaster muhitida axborot-resurs almashinuvining yagona elektron ma’lumotlar bazasi, raqamlashtirilgan rivojlanish xaritalari, takomillashtirilgan monitoring tizimi, o‘zaro metodik platformalar yaratiladi va ular barcha tashkilotlar uchun ochiq bo‘ladi.

Klaster yondashuvi maktabgacha ta’lim tashkiloti va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli, maqsadli va samarali yo‘lga qo‘yish imkoniyatini yaratadi.U uzluksiz ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga, pedagoglar malakasini rivojlantirishga, resurslardan birgalikda foydalanishga va bolalarning maktabga moslashuv jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Klaster yondashuvini joriy etish ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib, maktabgacha ta’limning sifatli rivojlanishi uchun mustahkam platforma yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tog’risida”gi Qonuni. // T.-2019y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4312-son qarori // T.-2019y.
4. Буева И. Социальное партнерство. Детский сад и дополнительное образование // Дошкольное воспитание. – 2008. – № 7.
5. Nikolskaya, O.D. (2007). Organizatsiya sotsialno-pedagogicheskogo partnerstva kak faktora povisheniya kachestva doshkolnogo obrazovaniya (Ped. fan. nomzodi diss.). Chelyabinsk.
6. Kasimova, T.N. (2006). Vzaimodeystviye semi i obrazovatelnix uchrejdeniy kak sotsialno-pedagogicheskix partnerov (Ped. fan. nomz. dissertatsiya avtoreferati). Omsk.
7. Paxomov, M.A., & Paxomova, Ye.S. (2011). Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v sfere doshkolnogo obrazovaniya. Sotsialno-ekonomicheskiye yavleniya i protsessi, 11(33), 164–169.

Nazira NURMANOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, PhD

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI INTEGRATIV MODULLI O‘QITISHGA METODIK TAYYORLASHNING KONSEPTUAL MODELI

Annotatsiya: ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli o‘qitishga (IMO‘) metodik tayyorlashni takomillashtirishning konseptual modelini taqdim etadi. Model to‘rtta asosiy komponentni (Konseptual-faoliyatli, Mazmuniy, Integrativ-jarayonli va Natijaviy) o‘z ichiga oladi va tizimli, integrativ modulli, shaxsiy-faollik yondashuvlariga asoslangan. Mazmuniy komponent doirasida turli o‘quv bloklaridagi (Tabiiy-ilmiy, Umumkasbiy, Ixtisoslik) fanlarning o‘zaro integratsiyasi (masalan, “Falsafa” va “Umumiy pedagogika”) ilmiy asoslangan. Modelning samaradorligi ta’lim motivatsiyasini va ijodiy muhitni shakllantiruvchi tashkiliy-shaxsiy, metodik-texnik va psixologik shart-sharoitlarning birligini ta’minlash orqali belgilanadi.

Kalit so‘zlar: *konseptual model, metodik tayyorgarlik, IMO‘ shart-sharoitlari, mazmuniy komponent, integrativ yondashuv, modellashtirish, tashkiliy-tuzilmaviy komponent.*

Аннотация: в статье представлена концептуальная модель совершенствования методической готовности будущих учителей начальных классов к интегративно-модульному обучению (ИМО). Модель включает четыре основных компонента (Концептуально-деятельностный, Содержательный, Интегративно-процессуальный и Результативный) и основана на системном, интегративно-модульном и личностно-деятельностном подходах. В рамках содержательного компонента научно обоснована взаимная интеграция предметов из различных учебных блоков (естественно-научный, общепрофессиональный, специальный). Эффективность модели определяется обеспечением единства организационно-личностных, методико-технических и психологических условий, формирующих учебную мотивацию и творческую среду.

Ключевые слова: *Концептуальная модель, методическая подготовка, условия ИМО, содержательный компонент, интегративный подход, моделирование, организационно-структурный компонент.*

Annotation: this article presents a conceptual model for improving the methodological preparedness of future primary school teachers for Integrative Modular Teaching (IMT). The model encompasses four main components (Conceptual-Activity, Content, Integrative-Process, and Result-Evaluation) and is based on systemic, integrative-modular, and personal-activity approaches. Within the Content component, the mutual integration of subjects across different academic blocks (Natural Science, General Professional, Specialization) is scientifically substantiated. The model’s efficacy is defined by ensuring the unity of organizational-personal, methodological-technical, and psychological conditions that shape learning motivation and the creative environment.

Key words: *conceptual model, methodological training, IMS conditions, content component, integrative approach, modeling, organizational-structural component.*

Kirish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini integrativ modulli o‘qitishga kasbiy tayyorlash muammosini hal qilish tizimli, integrativ modulli va shaxsiy-faollik yondashuvlariga asoslangan maxsus texnologiya va modelni ishlab chiqishni talab qiladi. Pedagogikada modellashtirish o‘rganilayotgan hodisa yoki jarayon to‘g‘risidagi bilimlarni tizimlashtirishga va ularni yaxlit ifodalashga xizmat qiladi [1], [2].

Ushbu tadqiqotning ikkinchi maqsadi aynan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini metodik rivojlantirish modelini motivatsion va ijodiy muhit, o‘quv metodik ta’minotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mazmuniy, konseptual-faoliyatli, integrativ jarayonli komponentlar, baholash mezonlarini integrallash bosqichlariga muvofiqlashtirish orqali takomillashtirishdir.

Model talabaning subyektivligini, uning motivatsion, operatsion va refleksiv sohalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak, shu bilan birga mutaxassisning fundamental, maxsus, psixologik, pedagogik va metodik tayyorgarligi birligini ta’minlashi lozim.

Metodologiya

Modelni ishlab chiqishda tizimli-strukturaviy yondashuv qo‘llanildi. Bu yondashuv IMO‘ tizimini nafaqat ma’lum bir tuzilma, balki texnologik, tashkiliy-metodik va samaradorlikni baholash jihatlaridan ham loyihalashni talab etadi. Model to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent asosida qurilgan:

1. **Konseptual-faoliyatli komponent:** maqsadlar va yondashuvlar aniqlanadi.
2. **Mazmuniy komponent:** o‘quv bloklarining integratsiyasi belgilandi.

3. Integrativ-jarayonli komponent: pedagogik texnologiyalar, shakllar va usullar (aralash o‘qitish, loyiha texnologiyasi).

4. Natija komponenti: tayyorgarlik darajalari (yuqori, o‘rta, past, boshlang‘ich) va baholash mezonlari aniqlanadi.

Natijalar

Konseptual modelning tarkibiy komponentlari

Modelning asosiy maqsadi — bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishdir.

Modelning ishlashi Konseptual-faoliyatli komponent orqali belgilanadi. Bu komponent Davlat ta’lim standartlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar (PF-60, PQ-2909) asosida Davlat va jamiyat buyurtmasi hamda kasbiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Unda integrativ, amaliy, shaxsga yo‘naltirilgan, modulli, innovatsion, diagnostik, refleksiv yondashuvlar muhim tamoyillar sifatida belgilangan.

Mazmuniy komponent mutaxassis tayyorlashning uchta asosiy o‘quv blokini o‘zaro integratsiyalash orqali amalga oshiriladi:

1. Tabiiy-ilmiy va Gumanitar fanlar (TIGF)
2. Umumkasbiy fanlar (UKF)
3. Ixtisoslik fanlar (IF)

Integratsiyaning maqsadi fanlararo bog‘liqliklarni o‘quv dasturlarida mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlash asosida amalga oshirishdir. Masalan, “Falsafa” (TIGF) va “Umumiy pedagogika” (UKF) kurslari “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” (IF) moduli bilan mazmunan birlashtirildi. Bu kabi uzviylik bo‘lajak o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlarini muntazam rivojlantirishga yordam beradi.

Integrativ-jarayonli komponent o‘qitishni tashkil etishda introversion, imitatsion, adaptiv, diversifikatsion, kognitiv metodlar hamda masofaviy, elektron va mobil ta’lim vositalaridan (LMS Moodle, Bigbluebutton, simulyatsiya) foydalanishni qamrab oladi.

Modelni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlari

IMO‘ sharoitida tayyorgarlikni takomillashtirish uzluksiz, faoliyatli tarzda amalga oshiriladi va quyidagi uchta asosiy shart-sharoitlar guruhiga bog‘liq:

1. Tashkiliy-shaxsiy shart-sharoitlar: bo‘lajak o‘qituvchining o‘zlashtirgan bilimi, ko‘nikmasi va malakasi; sifatli bilim berishning keng imkoniyatlari; faoliyatni maktablar bilan hamkorlik qilish orqali tashkil etish.

2. Metodik-texnik shart-sharoitlar: o‘quv-usuliy, bosma va elektron ta’lim resurslari bilan ta’minlash; talabaning mustaqil ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlarni ishlab chiqish; metodik bazani takomillashtirish.

3. Psixologik shart-sharoitlar: talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarda motivatsion yondashuvni qo‘llash; refleksiv faoliyatni shakllantirish; kreativ shaxsga aylanish darajasidagi ehtiyoj motivlarini uyg‘ota olish.

Modelga shunday shart-sharoitlarning kiritilishi **IMO‘ tizimining barqarorligini** ta’minlash uchun muhimdir. Agar yangi texnologiyalar joriy etilsa, o‘qituvchining ish yuki oshishi (20-25% gacha) mumkin, bu esa pedagogik innovatsiyalarni qabul qilishga psixologik to‘siqlar yaratadi. Model ichida yuqorida sanalgan tashkiliy (ijodiy guruhlar ishi, kasbiy monitoring) va texnik (dasturiy vositalar) shart-sharoitlarni belgilash orqali, model faqat pedagogik samara uchun emas, balki innovatsiyaning o‘qituvchi uchun ergonomik va *rentabellik* jihatidan qulay bo‘lishini [3] kafolatlaydi.

Muhokama va xulosa

Ushbu konseptual model oliy ta’lim muassasasida IMO‘ ni amalga oshirishni ta’minlovchi yaxlit tizim bo‘lib, u talabaning subyektiv rolini faollashtirishga, uni o‘z faoliyatini ongli ravishda loyihalashga o‘rgatishga qaratilgan.

Model doirasida talabalarni dastlabki yillardanoq axborot bloki bilan ishlashga va amaliy faoliyatga o‘rgatishga alohida e’tibor berilgan. Bu modulli dasturlarni yaratish, uni amalga oshirishda o‘qituvchining rolini o‘z-o‘zi anglash jarayonini mustahkamlaydi. Modelning tashkiliy-tuzilmaviy komponentlari ta’lim mazmunidagi tarqoqlik va asossiz takrorlashni bartaraf etish, o‘quv vaqtini tejash, bilimlarni mantiqiy yakunlash jarayonini amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, takomillashtirilgan model raqobatbardosh, o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фридман Л.М. Наглядность и моделирование в обучении. – М.: Знание. Режим доступа: https://pedlib.ru/Books/5/0155/5_0155-1.shtml
2. Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса / В.М. Монахов. – Волгоград: Перемена, 1995. – 152 с.
3. Дмитренко Т.А. Профессионально-ориентированные технологии обучения в системе высшего педагогического образования: дисс. док. пед. наук. – 2004. – с. 442.

Karima RAXMANBERDIYEVA,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
G‘arb tillari kafedrasi dotsenti, PhD

YAKKA TARTIBDA O‘RGANISH VA MUSTAQIL VAZIFA BAJARISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada yakka tartibda o‘rganish va mustaqil vazifa bajarishning ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Yakka tartibda o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mustaqil vazifa bajarish orqali o‘quvchilar o‘z mas’uliyatini oshiradi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mustaqil ta’limni tashkil qilishning yana bir shunday samarali metodlaridan biri bu HAITI metodidir. Ushbu metodning nomi ish jarayonida amalga oshiriladigan ish bosqichlarining bosh harflari kombinatsiyasini aks ettiradi. Auditoriyada (Im Hörsaal) vazifalar tarqatiladi, har bir talaba yakka tartibda (Alleine) o‘rganadi, keyin esa o‘rganilgan material yoki yechimi topilishi lozim bo‘lgan masala guruh (Im Team) a’zolari bilan muhokama qilinadi va muammolar o‘rganiladi. Va nihoyat keyingi darsda (In der nächsten Übung) yechimi topilmagan muammolar va tushunmovchiliklar o‘qituvchi tomonidan bartaraf etiladi.

Kalit so‘zlar: *yakka tartibda o‘rganish, mustaqil vazifa bajarish, o‘quv jarayoni, mustaqil fikrlash, bilimni mustahkamlash*

Аннотация: в статье анализируется роль и значение индивидуального изучения и самостоятельного выполнения заданий в образовательном процессе. Индивидуальное обучение позволяет учащимся развивать самостоятельное мышление, укреплять знания и совершенствовать практические навыки. При этом выполнение заданий самостоятельно способствует повышению ответственности учащихся и их активному участию в учебном процессе. Одним из эффективных методов организации самостоятельного обучения является метод **HAITI**. Название данного метода отражает комбинацию начальных букв этапов работы, реализуемых в учебном процессе. В аудитории (**Im Hörsaal**) распределяются задания, каждый студент изучает материал индивидуально (**Alleine**), после чего изученный материал или задачи, требующие решения, обсуждаются в группе (**Im Team**), где анализируются возникшие проблемы.

Ключевые слова: индивидуальное обучение, самостоятельное выполнение заданий, учебный процесс, самостоятельное мышление, укрепление знаний

Annotation: the article examines the role and significance of individual learning and independent task completion in the educational process. Individual learning enables students to develop independent thinking, consolidate knowledge, and improve practical skills. Moreover, completing tasks independently increases students’ responsibility and promotes active participation in the learning process. One of the effective methods for organizing independent learning is the **HAITI** method. The name of this method reflects a combination of the initial letters of the stages carried out during the learning process. In the classroom (**Im Hörsaal**), tasks are distributed, and each student studies the material individually (**Alleine**). Afterwards, the studied material or problems that need to be solved are discussed within the group (**Im Team**), and emerging issues are analyzed.

Keywords: *individual learning, independent task completion, educational process, independent thinking, knowledge consolidation*

Kirish.Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, talabalarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirish va ularning mustaqil ta’lim olish

ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yakka tartibda o‘rganish va mustaqil vazifa bajarish ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yakka tartibda o‘rganish talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallash jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Mustaqil vazifa bajarish esa talabalarda mas’uliyat, o‘zini o‘zi nazorat qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal etish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish jarayonida yakka tartibda o‘rganish va mustaqil topshiriqlar talabaning til ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Yakka tartibda o‘rganish ta’lim jarayonida har bir talabaning individual o‘rganish sur’ati, bilim darajasi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. Bunda talaba o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida o‘ziga qulay bo‘lgan usul va strategiyalarni tanlaydi, bu esa bilimlarni yanada puxta egallashga yordam beradi. Yakka tartibda o‘rganish talabaning bilimga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va uni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Shuningdek, yakka tartibda o‘rganish talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish, rejalashtirish va vaqtni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talaba o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, unga erishish yo‘llarini mustaqil ravishda belgilaydi. Bu esa nafaqat ta’lim jarayonida, balki kelajak kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakka tartibda o‘rganish va mustaqil vazifa bajarish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonida bir-birini to‘ldiradi. Yakka tartibda o‘rganish orqali talaba bilimlarni individual tarzda egallasa, mustaqil vazifalar orqali ushbu bilimlarni amaliyotda sinab ko‘radi. Ushbu jarayonlar uyg‘unligi talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarning barqaror shakllanishiga olib keladi.

Natijada, yakka tartibda o‘rganish va mustaqil vazifa bajarish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.Guruhlarga vazifalar berilgandan so‘ng guruh a’zolari yakka tartibda o‘quv materialini o‘rganib chiqishadi yoki berilgan vazifalarni yakka tartibda bajarishga urinib ko‘radi. Keyingi bosqichda guruh a’zolari uchrashib, berilgan vazifa va erishilgan natijalar guruhda muhokama qilinadi, xatolar va kamchiliklar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Axborotchi esa yechimi topilmay qolgan vazifalar hamda qiyinlik qilgan vazifalarni yozib boradi va o‘qituvchiga xabar beradi. Bu o‘qituvchiga keyingi vazifalar to‘plamini shakllantirishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Axborotchi bergan xulosalaridan kelib chiqib, talabalarga qiyinlik qilgan vazifalar ustida yana ishlash uchun vazifalar tuzadi. Talabalar uchun oson bo‘lgan vazifalar keyingi topshiriqlar majmuasiga kiritilmaydi. Ko‘rib chiqilgan metodlar mustaqil ta’limni tashkil qilishda samarali hisoblanadi. Bu metodlar talaba va o‘quvchilarni nafaqat mustaqil ishlash, mustaqil o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi, balki ularda guruhda ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga ham yordam beradi. An’anaviy darslardan farqli o‘laroq, o‘qituvchi va talabaning roli o’‘zgaradi. Ta’limning bu turi uchun o‘qib-o‘rganish vaqti (muddatini hisobga olgan holda) va maqsadlari, kerakli asbob-uskuna, qurilmalar va o‘quv qurollarini tayyorlab olish va nihoyat ta’lim olish joyini aniqlab olishni talab qiladi. Navbatdagi yana bir samarali metod Think-Pair-Share metodidir.

ThinkPair-Share metodi hamkorlikda o‘qib-o‘rganish metodlaridan biri bo‘lib, tuzilish jihatidan uch bosqichni qamrab oladi. Ushbu metod asosida o‘qishni tashkil qilish davomida talabalar mustaqil o‘qib-o‘rganishdan boshlaydilar va bu bosqichda ular berilgan mavzu va topshiriqlarni mustaqil, yakka tartibda o‘rganib chiqishlari lozim bo‘ladi. O‘rganilgan mavzu va topshiriqlar keyingi bosqichlarda boshqa talabalar va guruh a’zolariga tushuntiriladi. Muhimi talabalar alohida bosqichlarda mavzular va topshiriqlar ustida mustaqil ishlay olishlari kerak, shunda ular hamkorlikda o‘rganish bosqichida bu mavzularni boshqa talabalarga tushuntirishlari yoki kursdoshlari bilan berilgan mavzular bo‘yicha fikr almashishlarining imkoni bo‘ladi. Think-Pair-Share ingliz tilidan tarjima qilinganda think, ya’ni o‘ylash, fikr yuritish, pair esa juft, ya’ni talabaning u bilan birga muhokama qiladigan sherigi va share bo‘lishmoq so‘zlaridan tashkil topgan. Ushbu metod yordamida unchalik keng qamrovli

bo‘lmagan va hatto murakkab mavzularni ishlab chiqish mumkin. Ushbu metod yordamida o‘qib-o‘rganish ayniqsa, guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va bilimlarni yaxshiroq egallashga ko‘mak beradi.

Ikkinchi bosqichda u o‘rgangan bilimlarini boshqa bir talaba bilan o‘rtoqlashadi (Pair).

Uchinchi bosqichda barcha olingan bilimlar va g‘oyalar guruhning barcha a’zolari bilan muhokama qilinadi (Share).

Ushbu uch bosqich quyidagicha tashkil qilinadi:

1.Fikr yuritish, ya’ni think bosqichida talabalarga vazifa beriladi. Bu matn, diagramma, grafikni tasvirlash yoki kerakli xulosalarni yozishga asoslangan vazifalar bo‘lishi mumkin.

2. Navbatdagi bosqichda ular qilgan ishlarini va xulosa va natijalarini biror kursdoshiga tushuntirib, uni 5-10 minut davomida muhokama qilishlari kerak bo‘ladi. Pair bosqichida talabalar ikki kishidan iborat guruhlarda ishlaydilar va natijalarni muhokama qiladilar: bunda birinchi talaba ikkinchi talabaga tushuntiradi va ikkinchi talaba aytilgan fikrlarni qayd etib boradi. Keyin xuddi shu tarzda takrorlanadi: ikkinchi talaba fikrlarini bayon qiladi, birinchi talaba esa yozib oladi. 5-10 minut davomida talabalar nafaqat o‘zlarining fikr va mulohazalari, balki sherigining ham xulosalari bilan yaxshi tanishib chiqqan bo‘lishlari, hatto uni taqdim qila olishlari lozim bo‘ladi.

Ushbu metodlar talabaning faqatgina individual ishlashi bilan cheklanib qolmasligi, guruhda ishlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Yuqorida qayd etilgan metodlarning yana bir afzalliklaridan biri unda o‘qituvchi faqatgina bilim berish bilan chegaralanib qolmay, talabani ham mustaqil o‘qib-o‘rganishga undaydi, mustaqil ta’limni tashkil qiladi va o‘zi kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Bu esa talabada erkin fikrlash, o‘zini yanada rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish, kreativ bo‘lish va o‘zi o‘rgangan bilimlarni o‘rgatish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot doirasida ingliz tili mashg‘ulotlarini loyihalashda I.Yu.Shexter usuli o‘rganildi. Uning asosida til o‘rganish jarayonida tahsil oluvchining til o‘rganish shart-sharoitlarini tashkil qilish va til materialiga chuqur kirib borishga asoslanadi. Chunki til aslida turli qonun-qoidalar majmuasi ema, balki insonning to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot olib borish layoqati sanaladi. Shuning uchun metodda turli grammatik qonun-qoidalar yodlanmaydi, chet tili so‘zlari xotiraga olinmaydi, uning o‘rniga tilda muloqot qilish layoqati rivojlantiriladi. Mazkur jarayonda xatolar qilishga yo‘l qo‘yiladi. Til o‘rganish muhitini yuzaga keltirish uchun “rolli o‘yinlar” usuli keng qo‘llaniladi. Turli mavzular tanlanadi va mazkur mavzular doirasida leksik qatlamlar, so‘z boyligi, jumlalar qurilishi mashqlar qilinadi. Qilingan mashqlar insonning xotirasi osti qatlamida saqlanib qoladi. Improvizatsiyaga keng yo‘l beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фадеева Н.Б. Самостоятельная работа учащихся 6-7 классов на уроках иностранного языка при овладении устной (монологической) речью: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. – Л., 1987

2. Лозовская Г.А. Организatsiя самостоятельных работ студентов младших курсов вуза: Дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. – Новочеркасск, 1975. 197 с.

3. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность школьников в обучении. – М., 1980. 240 с. 109. познавательная, 146-б.

4. Белкин Е.Л. Основы педагогики высшей школы. Учеб.пособие. – М.: Педагогика, 1987. 124 с

5. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализatsii natsionalьной программы по подготовке кадров). Дисс. … докт. пед.наук. – Т., 2005. – С.311.

6. Белкин Е.Л. Основы педагогики высшей школы. Учеб.пособие. – М.: Педагогика, 1987. 124 с.

Usmon NAZIROV,
Xalqaro Innovatsion universiteti
Pedagogika kafedrasi v.b dotsent

TA'LIM MAZMUNINI OPTIMALLASHTIRISHDA DIDAKTIKANING ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim mazmunini optimallashtirish jarayonida didaktikaning tutgan o'rni, nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Didaktik tahlil, didaktik tamoyillar, o'quv materiallarini tanlash va qayta ishlash mezonlari, shuningdek, fanlararo integratsiya va kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim mazmunini takomillashtirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda o'quv dasturlari, darsliklar va ta'lim resurslarini optimallashtirish bo'yicha didaktik model ishlab chiqildi va pedagogik tajriba asosida uning samaradorligi baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, didaktik yondashuv asosida qayta ishlangan o'quv mazmuni talabalarning o'zlashtirish darajasini, mantiqiy fikrlashini va mustaqil o'rganish motivatsiyasini sezilarli oshiradi.

Kalit so'zlar: *didaktika, ta'lim mazmuni, optimallashtirish, didaktik tahlil, kompetensiyaviy ta'lim, fanlararo integratsiya, metodik yondashuv.*

Аннотация: в статье рассматривается роль дидактики в оптимизации содержания образования, анализируются её теоретические основы и практические механизмы. Подробно раскрываются дидактический анализ, дидактические принципы, критерии отбора и переработки учебного материала, а также значение междисциплинарной интеграции и компетентностного подхода в совершенствовании содержания образования. На основе исследования разработана дидактическая модель оптимизации учебного содержания и проведён педагогический эксперимент по оценке её эффективности. Результаты показали, что обновлённое с учётом дидактических требований содержание способствует повышению уровня усвоения, развитию логического мышления и мотивации самостоятельного обучения у студентов.

Ключевые слова: *дидактика, содержание образования, оптимизация, дидактический анализ, компетентностный подход, междисциплинарная интеграция*

Annotation: this article examines the role of didactics in optimizing educational content and analyzes its theoretical foundations and practical mechanisms. The study highlights didactic analysis, didactic principles, criteria for selecting and restructuring learning materials, as well as the importance of interdisciplinary integration and competence-based approaches in improving educational content. A didactic model for optimizing curriculum content was developed and evaluated through a pedagogical experiment. Findings indicate that didactic-based optimization significantly enhances students' comprehension levels, logical thinking abilities, and motivation for independent learning.

Key words: *didactics, educational content, optimization, didactic analysis, competence-based education, interdisciplinary integration.*

Kirish. XXI asr ta'lim tizimida global raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va kompetensiyaviy yondashuvga o'tish ta'lim mazmunini tubdan yangilash zaruratini yuzaga chiqardi. Ta'lim mazmuni endilikda nafaqat bilimlar majmui, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi tizim bo'lishi kerak [1: 45]. Bunday sharoitda didaktika ta'lim mazmunini ilmiy asosda shakllantirish, uni optimallashtirish va takomillashtirish jarayonining asosiy metodologik poydevoriga aylanmoqda. Didaktika ta'lim mazmunining mohiyatini, tuzilishini, mazmun elementlarini tanlash mezonlarini va o'quv materiallarini tartiblash tamoyillarini belgilab beruvchi fan sifatida mazmunni optimallashtirish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi [2: 78]. Ta'lim mazmunining ortiqcha yuklama bilan to'yinganligi, mavzulardagi takrorlar, yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan murakkablik darajasi, fanlararo bog'liqlikning yetishmasligi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini pasaytirishi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan [3: 112]. Shu sababli mazmunni optimallashtirishda didaktik tahlilning muntazam qo'llanilishi zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir. Didaktik tahlilning mazmunni optimallashtirishdagi o'rni quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

— o'quv materialini tanlashning ilmiy mezonlarini belgilash;

— mavzularni mantiqiy izchillikda joylashtirish;

— zaruriy va ikkilamchi bilimlarni farqlash;

— fanlararo integratsiya imkoniyatlarini aniqlash;

— talabaning psixologik va yosh xususiyatlariga moslashtirish [4: 69].

Mazmunni optimallashtirish, avvalo, uning kompetensiyaviy talablarga mos bo'lishini taqozo etadi. Chunki zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi talaba shaxsida bilim, ko'nikma va malakadan tashqari, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati, muammolarni hal qilish, axborot bilan ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat [5: 203]. Tadqiqotchilar fikricha, kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv mazmuni an'anaviy bilimga asoslangan mazmunni qayta ko'rib chiqishni, ya'ni ma'lumotni kamaytirishni emas, balki uni mazmunan boyitishni va amaliyotga yo'naltirishni talab qiladi [6: 59].

Bunday yangilanish esa, tabiiyki, didaktikaning ilmiy asoslariga tayanadi. Fanlararo integratsiya ham ta'lim mazmunini optimallashtirishning muhim omillaridan biridir. Integrativ mazmun o'quvchilarga turli fanlar bilimlarini bir-biri bilan bog'lash, umumiy qonuniyatlarni aniqlash va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq qilish imkonini beradi [7: 88]. Didaktik tadqiqotlarda integratsiya jarayoni o'quv materiallarining mantiqiy, konseptual va funksional jihatdan uyg'unligini ta'minlashi zarurligi ta'kidlangan [8: 144]. Shu jihatdan didaktika nafaqat o'quv materialini tanlash, balki uni fanlararo kontekstda qayta tashkil etishga yordam beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda mazmunni yangilash, darsliklarni modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonini kompetensiyaga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv mazmuni bo'yicha qarorlar ko'pincha metodik tahlil yetarli darajada olib borilmasdan qabul qilinmoqda [9: 51]. Natijada ayrim darsliklarda ortiqcha faktlar, takrorlanuvchi mavzular yoki bir-biriga mos kelmaydigan bilimlar tizimi uchrab turadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot ta'lim mazmunini optimallashtirishda didaktik yondashuvning ilmiy asoslarini aniqlash, o'quv materiallarini qayta ishlash mezonlarini belgilash hamda didaktik tahlilning ta'lim sifatiga ta'sirini empirik ravishda baholashga yo'naltirildi. Metodologiya turli nazariy va amaliy tadqiqot usullarini o'zida mujassam etgan bo'lib, zamonaviy pedagogik tadqiqot talablari asosida ishlab chiqildi.

1. Tadqiqot dizayni

Tadqiqot aralash metodlar yondashuvida tashkil etildi. Bu yondashuv bir vaqtning o'zida ham sifat (qualitative), ham miqdor (quantitative) ma'lumotlarni olishga imkon beradi, natijalarni esa ko'p qirrali tahlil qilishni ta'minlaydi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Nazariy bosqich – didaktik tamoyillar, mazmunni shakllantirish mezonlari, ta'lim mazmuni modellarini o'rganish, ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish.

2. Diagnostik bosqich – mavjud o'quv mazmunidagi kamchiliklarni aniqlash, ortiqcha yuklamalar, takroriy mavzular, mantiqiy bog'liqlikning buzilishi holatlarini aniqlash.

3. Eksperimental bosqich – ta'lim mazmunining didaktik optimallashtirilgan modelini amaliyotga tatbiq etish va natijalarni tahlil qilish.

Natijalar

Tadqiqot natijalari eksperimental guruhda o'qitilgan talabalarning didaktik optimallashtirilgan o'quv mazmunini o'zlashtirish darajasi va kompetensiyalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Eksperimentning barcha bosqichlarida olingan natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

Eksperimentning dastlabki bosqichida, ya'ni test o'tkazilganidan so'ng, ikkala guruh o'rtasida tahliliy fikrlash ko'rsatkichlarida sezilarli farq mavjud emasdi. Biroq, 14 haftalik o'qitishdan so'ng, eksperimental guruhda tahliliy fikrlash ko'rsatkichi 8% ga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 3% ga o'sdi. Bu, didaktik optimallashtirish asosida o'quv materiallarining mantiqiy izchilligi, ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik va ularning talaba psixologiyasiga moslashtirilishi o'quvchilarning fikrlash jarayonini kuchaytirishiga olib kelganini ko'rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari didaktik tahlil asosida optimallashtirilgan o'quv mazmuni talabalarning bilim olish darajasini, kreativ va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini sezilarli oshirganini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalari, pedagogik dizaynni yaratishdagi kompetensiyalari va o'quv motivatsiyasi yuqori darajada rivojlandi. Bularning barchasi didaktik optimallashtirishning samarali metodik vositalar ekanligini isbotlaydi.

Tadqiqotning natijalari ta'lim mazmunini optimallashtirishda didaktikaning rolini yanada kengaytirish, fanlararo integratsiya va kompetensiyaviy yondashuvni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Mazmunni optimallashtirish faqat o'quv materiallarining hajmini kamaytirish bilan cheklanmay, balki ularni talaba ehtiyojlariga moslashtirish, amaliyotni kuchaytirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, R. Zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning o'rni. — Toshkent: Innovatsiya Ziyo nashriyoti, 2020. 210-b.

2. Ziyodova, M. Didaktika asoslari: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. 256-b.

3. Qodirov, A. Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning ilmiy asoslari. — Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2021. 198-b.

4. Umrzoqova, D. Didaktik tahlil texnologiyalari va ularning o'quv jarayonidagi ahamiyati. — Buxoro: Silk Road Academy, 2019. 174-b.

5. Hasanov, B. Kompetensiyaviy ta'lim: nazariy asoslar va metodik yondashuvlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 312-b.

6. Brown, P., & Moore, L. Competency-Based Education: Global Models and Perspectives. London: Routledge, 2019. — 228 p.

7. Kozlova, L. Interdisciplinary Integration in Modern Education Systems. Moscow: Pedagogika Press, 2020. — 205 p.

8. Bruner, J. The Process of Education. Harvard University Press, 1960. — 176 p.

9. Qosimov, E. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari. — Toshkent: Yangi Avlod nashriyoti, 2022. 130-b.

Машхура ХАФИЗОВА,
PhD, доцент кафедры Педагогики-психологии
Самаркандского Государственного Медицинского университета

ГЕЙМИФИКАЦИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ

Аннотация: одной из актуальных проблем профессиональной подготовки в вузах на сегодняшний день является проблема обеспечения качества образования обучающихся. В статье рассматривается феномен геймификации, аспекты интеграции игровых технологий в образовании, актуальные проблемы и перспективы развития. На основе результатов исследования раскрывается влияние геймификации на процесс обучения обучающихся по неязыковым направлениям профессиональной подготовки в вузе.

Ключевые слова: *геймификация, образовательный процесс, мотивация, преподаватель высшей школы, профессиональные компетенции, педагогический потенциал*

Annotation: one of the pressing issues in professional training at universities today is ensuring the quality of student education. This article examines the phenomenon of gamification, aspects of integrating gaming technologies in education, current issues, and development prospects. Based on the research findings, the impact of gamification on the learning process of students in non-linguistic areas of professional training at universities is explored.

Key words: *gamification, educational process, motivation, higher education teacher, professional competencies, pedagogical potential*

Annotatsiya: bugungi kunda universitetlarda professional tayyorgarlikning dolzarb masalalaridan biri talabalar ta’limi sifatini ta’minlashdir. Ushbu maqolada o‘yinlashtirish hodisasi, o‘yin texnologiyalarini ta’limga integratsiya qilish jihatlari, dolzarb muammolar va rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, universitetlarda professional tayyorgarlikning tilga oid bo‘lmagan sohalarida talabalarning o‘quv jarayoniga o‘yinlashtirishning ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘yinlashtirish, ta’lim jarayoni, motivatsiya, oliy ta’lim o‘qituvchisi, professional kompetensiyalar, pedagogik salohiyat.*

Модернизация современного образования и происходящие инновационные процессы, требуют от преподавателя вуза эффективных форм и методов обучения, развивать у студентов индивидуальных способностей, умения видеть перспективу применения полученных знаний на практике, легко адаптироваться в современном мире, реализовать себя в будущем. Психологи доказали, что в игре интенсивно развивается психика, с максимальной эффективностью работает память, мышление, восприятие. Использование игр в вузах в современном, быстроразвивающемсямире,являетсявполне закономерным явлением. Это утверждение оправдано не только противоречиями, возникающими сегодня между требованиями к образованию и имеющимися средствами, но и рядом фундаментальных трудов [6; с.67]. Исследование игры как инструмента образования с философской, психологической, социологической позиции, представляет собой фундаментальную базу, на основании которой можно включать игры в образовательный процесс, т.к. важность данной проблемы приобретает все большее значение [7; с.189]. Исследования показали, чтоформыгеймификацииоблегчаютобучение, ускоряя его и помогая запоминать на долгое время полученный опыт. С образовательной точки зрения, игра – это способ группового диалогического исследования возможностей

действительности в контексте личностных интересов [4].

Геймификация (игрофикация) – явление, распространившееся по всему миру. Эту современную тенденцию можно наблюдать в различных сферах человеческой деятельности, включая образование. Принципы геймификации используются не только в дошкольных заведениях, но и в школах, колледжах, университетах, а также в дополнительном образовании. Подобный подход имеет определенные преимущества и недостатки.

В статье трактуются теоретические основы геймификации, возможности и тенденции применения этой технологии в высшем образовании, анализируются положительные и отрицательные стороны геймификации в системе вуза, рассматриваются возможности игровых методик, а также локализации описываемой тенденции.

Игровые технологии являются составной частью педагогических технологий. Проблема их применения в образовательном процессе в педагогической теории и практике не нова. Разработкой теории игры, ее методологических основ, выяснением ее социальной природы, значения для развития обучаемого в отечественной педагогике занимались Л.С. Выготский, А.Н. Леонтьев, Д.Б. Эльконин, Л.В. Занков, М.И. Махмутов, Н.А. Аникеева, Н.Н. Богомолова, В.Д. Пономарев, С.А. Смирнов, С.А. Шмаков и др.

Место и роль игровой технологии в учебном процессе, сочетание элементов игры и образовательного процесса во многом зависят от понимания учителем функций педагогических игр. Функция игры – ее разнообразная полезность. Игровой подход в обучении уже успел доказать свою эффективность по сравнению с традиционными методами. Игры нравятся людям разных возрастов, поэтому их используют во всех сферах обучения – в школьном и высшем образовании, для обучения персонала в компаниях, для учеников в онлайн-школах. За счет игры скучные задания становятся интересными, а сложные – простыми.

Игрофикация в образовании использует естественные склонности людей к соревнованиям и достижениями для повышения производительности. Но как именно это работает с точки зрения нейрофизиологии?

Игры активизируют в нашем мозге выработку различных гормонов:

- **Дофамин –** гормон достижений. Когда он вырабатывается в обучении? Например, человек видит на прогресс-баре, что до прохождения курса осталось всего лишь 10%. Студент смотрит на свой прогресс и понимает, что проделал большую работу и близка цель – завершение курса.
- **Эндорфин –** гормон радости или избавления от боли. Это основная причина, почему человек привязывается к играм. К примеру, студент радуется достигнутой цели, когда получил баллы за выполненное задание или прошел очередной уровень.
- **Серотонин –** гормон социального статуса. Например, он вырабатывается, когда человек занимает лидирующую позицию в общем рейтинге или получает бейдж за то, что обучался 10 дней подряд.
- **Окситоцин –** гормон социальных связей. К примеру, сотрудник видит, что все коллеги и руководители проходят обучение на платформе, поэтому у него появляется мотивация учиться, чтобы чувствовать себя причастным к этой группе. Можно усилить социальную связь среди обучающихся с помощью онлайн-чата. Он позволяет обмениваться учебной информацией прямо на платформе для обучения.

В существующей практике имеются различные типы игр: деловые, аттестационные, организационно-деятельные, инновационные, рефлексивные игры по снятию стресса и формированию инновационного мышления, поисково-апробационные и другие. Для обучающих игр характерны, как правило, многовариантность и альтернативность решений, из которых нужно сделать выбор наиболее рационального.

При этом одна и та же игра может выполнять несколько функций:

- обучающая функция – развитие общеучебных умений и навыков, таких как память, внимание, восприятие информации различной модальности;
- развлекательная функция – создание благоприятной атмосферы на занятиях, превращение их из скучного мероприятия в увлекательное приключение;
- коммуникативная функция – объединение коллективов учащихся, установление эмоциональных контактов;
- релаксационная функция – снятие эмоционального напряжения, вызванного нагрузкой на нервную систему при интенсивном обучении;
- психотехническая функция – формирование навыков подготовки физиологического состояния играющих для более эффективной деятельности, перестройка психики для усвоения больших объемов информации.

Игра, сама по себе, – очень гибкая форма Она предполагает имитацию ситуаций, соответствующих выполнению реальных действий в рамках предложенной модели. Как результат – мы получаем более прочное усвоение знаний обучающимися. главным препятствием к деятельности. Процесс усвоения новых знаний. Процесс усвоения новых знаний проходит легко и незаметно для учащегося. Дальше процесс обучения стимулирует сам себя – чем лучше человек разбирается в той или иной предметной области, тем более интересной она ему представляется. Таким образом, игра, как метод обучения, способна вовлечь в учебный процесс, повысить мотивацию к изучению дисциплины и, следовательно, к посещению аудиторных занятий, как к естественному и доступному источнику знаний.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА:

1. Абдурашитов, С.В. и Прохоренко, Б.М. (2013) Игровые образовательные модули в высшей математике: методические указания к проведению практических занятий по курсу «Высшая математика» для системы углубленной профессиональной подготовки Элитное техническое образование, Томский политехнический университет, Томск;

2. Боков Л.А., Поздеева А.Ф., Замятина О.М., Соловьев М.А. Проектно-ориентированные образовательные технологии в подготовке элитных специалистов // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2014. №1. С. 105–109.

3.Замятина О.М., Мозгалева П.И., Соловьев М.А., Боков Л.А., Поздеева А.Ф. Технология проектно-ориентированного обучения в инженерном образовании // Высшее образование сегодня. 2013. №12. С. 68–74.

4. Gulyaeva K.V., Mozgaleva, P.I. and Zamyatina, O.M. (2014) “Development of Information System for Students’ Project Activity Management”, Proceedings of 2014 IEEE Global Engineering Education Conference (EDUCON), Istanbul, pp 824–831.

5. Петричук И. И. Еще раз об игре / И. И. Петричук // Педагогика -№7. –2007. – 56 с.

6. Занько СФ., Тюнников Ю.С, Тюнникова СМ. Игра и учение. Теория, практика и перспективы игрового обучения. – Москва, 1992. – 127 с.

7. Кукушкин В.С. Педагогические технологии: Учебное пособие для студентов педагогических вузов, - Ростов н/Д.: Изд. Центр «МарТ», 2002. – 320 с.

Sharipboy BOBOJONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot kafedrasi mudiri,
professor vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi

TA'LIM JARAYONIDA O'QUV LUG'ATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quv lug'atchiligining tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. O'quv lug'atchiligining nazariy asoslari, turlari hamda ularning o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi va tafakkurini rivojlantirishdagi roli yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida elektron va raqamli o'quv lug'atlaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari o'quv lug'atchiligining ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim didaktik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *o'quv lug'atchiligi, leksikografiya, ta'lim jarayoni, nutq madaniyati, so'z boyligi, didaktik vosita.*

Annotation: this article analyzes the role and importance of educational dictionaries in the educational process from a scientific and methodological perspective. The theoretical foundations, types of educational dictionaries and their role in the development of students' speech competence and thinking are highlighted. Special attention is also paid to the issues of using electronic and digital educational dictionaries in the modern education system. The results of the study show that educational dictionaries are an important didactic tool for increasing the effectiveness of education.

Key words: *educational dictionaries, lexicography, educational process, speech culture, vocabulary, didactic tool.*

Аннотация: в данной статье с научной и методологической точки зрения анализируется роль и значение учебных словарей в образовательном процессе. Осветлены теоретические основы, типы учебных словарей и их роль в развитии речевой компетенции и мышления учащихся. Особое внимание уделено также вопросам использования электронных и цифровых учебных словарей в современной системе образования. Результаты исследования показывают, что учебные словари являются важным дидактическим инструментом повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: *учебные словари, лексикография, образовательный процесс, речевая культура, лексика, дидактический инструмент.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual salohiyati va nutqiy kompetensiyasini yuksaltirish muhim vazifa sifatida qo'yilmoqda. Ta'lim jarayonida til vositalaridan ongli va samarali foydalanish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish hamda ilmiy tafakkurini shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda o'quv lug'atchiligi muhim didaktik va metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'quv lug'atchiligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va o'rganilayotgan fan mazmuniga mos holda tuziladi. U nafaqat so'zlarning ma'nosini tushuntirish, balki bilimlarni tizimlashtirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish va nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili va xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'quv lug'atlarining roli beqiyosdir.

Mazkur maqolada o'quv lug'atchiligining ilmiy-nazariy asoslari, turlari, ta'lim jarayonidagi o'rni va zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Lug'atchilik (leksikografiya) tilshunoslik fanining muhim sohasi bo'lib, lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi. O'quv lug'atchiligi esa leksikografiyaning ta'lim jarayoniga bevosita yo'naltirilgan yo'nalishi hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda o'quv lug'atchiligi o'quvchilar uchun mo'ljallangan, didaktik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi lug'atlar majmui sifatida talqin etiladi. Bunday lug'atlar o'rganilayotgan so'z va atamalarning ma'nosini sodda, tushunarli va tizimli tarzda yoritishga qaratiladi.

O'quv lug'atchiligining ilmiy-nazariy asoslari didaktik moslik, izchillik va tizimlilik, yosh xususiyatlarini hisobga olish hamda adabiy til me'yorlariga moslik kabi tamoyillarga tayanadi. O'quv lug'atchiligining turlari va ta'limdagi ahamiyati

O'quv lug'atlari mazmuni va vazifasiga ko'ra izohli, terminologik, imlo va talaffuz hamda ikki tilli

lug‘atlarga bo‘linadi. Izohli lug‘atlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirsa, terminologik lug‘atlar fanlarga oid tushunchalarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Imlo va talaffuz lug‘atlari savodxonlikni oshiradi, ikki tilli lug‘atlar esa xorijiy tillarni o‘rganishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu lug‘atlar o‘quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

O‘quv lug‘atchiligi ta’lim jarayonida bilimlarni mustahkamlash, tizimlashtirish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Lug‘at bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning izlanish faolligi oshadi va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Lug‘aviy boylikning oshishi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi. O‘quv lug‘atlaridan foydalanish orqali o‘quvchilar fikrni aniq, mantiqiy va ravon ifodalash malakasiga ega bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida elektron va onlayn o‘quv lug‘atlari ta’lim jarayoniga keng joriy etilmoqda. Ularning interaktivligi ta’lim samaradorligini oshiradi.

O‘quv lug‘atchiligi ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim, nutq va tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv lug‘atchiligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning bilimni qanchalik ongli va mustahkam o‘zlashtirishi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda o‘quv lug‘atchiligi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lug‘aviy boylik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar o‘quv materialini tezroq anglaydi va uni amaliyotda samarali qo‘llay oladi.

O‘quv lug‘atchiligi orqali tushunchalar aniq va tizimli ravishda o‘zlashtiriladi. Bu esa bilimlarning fragmentar emas, balki yaxlit holda shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, murakkab nazariy tushunchalar bilan ishlashda lug‘atlarning mavjudligi o‘quvchining kognitiv yuklamasini kamaytiradi va tushunishni osonlashtiradi.

Shuningdek, lug‘atlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Chunki tushunilgan bilim o‘z-o‘zidan qiziqish uyg‘otadi. Natijada ta’lim jarayoni samaraliroq va mazmunli kechadi.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining asosiy talabi hisoblanadi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan o‘quv lug‘atchiligi bir qator muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, kommunikativ kompetensiya rivojlanadi. O‘quvchilar lug‘at yordamida so‘zlarning ma’nosi, uslubiy xususiyati va nutqdagi o‘rnini anglab, fikrini aniq va ravon ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllanadi. Lug‘atdan foydalanish jarayonida o‘quvchi axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa mustaqil ta’lim olish uchun muhim poydevor yaratadi.

Uchinchidan, tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyasi rivojlanadi. So‘z va tushunchalarni qiyoslash, ularning ma’no nozikliklarini anglash o‘quvchilarning tahliliy tafakkurini faollashtiradi.

O‘quv lug‘atchiligining ta’lim samaradorligiga ta’siri bevosita uning sifat darajasi bilan bog‘liqdir. Ilmiy nuqtayi nazardan, sifatli o‘quv lug‘ati quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

– izohlarning aniqligi va soddaligi;
– o‘quvchining yosh va bilim darajasiga moslik;
– misollarning kontekstual va amaliy bo‘lishi;
– til me’yorlariga to‘liq rioya etilishi;
– tizimli va izchil tuzilishga ega bo‘lishi.

Mazkur mezonlarga mos lug‘atlar ta’lim jarayonida haqiqiy pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘quv lug‘atchiligi ta’lim jarayonining ikkinchi darajali elementi emas, balki uning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Lug‘atchilikka yetarli e’tibor qaratilmagan ta’lim jarayonida bilimlar yuzaki va beqaror bo‘lib qoladi.

Aksincha, ilmiy asoslangan va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv lug‘atchiligi o‘quvchilarning bilimni chuqur o‘zlashtirishiga, mustaqil fikrlashiga va shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, o‘quv lug‘atchiligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.–Toshkent, 2006.
4. Yo‘ldoshev B. Leksikografiya asoslari. – Toshkent, 2010.
5. Mahmudov N. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, 2008.

Зиёда МИРЗАЮНУСОВА,
доцент Кокандского государственного университета

РОЛЬ ФОЛЬКЛОРА В ОБОГАЩЕНИИ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧЕНИКОВ

Аннотация: в статье рассматриваются методические возможности использования пословиц как эффективного средства обогащения словарного запаса учащихся. Анализируется лингвистический и культурологический потенциал пословиц, способствующий развитию языковой интуиции и формированию устойчивых лексических навыков. Представлены педагогические условия и методы работы с пословицами, включая лингвистический анализ, ситуативно-коммуникативные задания, игровой и проектный подходы. Особое внимание уделено процессу перехода слов из пассивного словаря в активный, а также диагностике эффективности данной методики.

Ключевые слова: *пословица; словарный запас учащихся; лексическая компетенция; развитие речи; фольклор; методика преподавания; речевая культура; образовательный процесс; активизация словаря; фразеология.*

Annotation: this article examines the methodological possibilities of using proverbs as an effective means of enriching students' vocabulary. The linguistic and cultural potential of proverbs, which contributes to the development of language intuition and the formation of stable lexical skills, is analyzed. The paper presents pedagogical conditions and methods of working with proverbs, including linguistic analysis, situational-communicative tasks, as well as game-based and project approaches. Special attention is given to the process of transferring words from passive to active vocabulary and to the diagnostics of the effectiveness of this method.

Key words: *proverbs; students' vocabulary; lexical competence; speech development; folklore; teaching methodology; speech culture; educational process; vocabulary activation; phraseology.*

Annotatsiya: maqolada maqollardan o‘quvchilarning so‘z boyligini boyitishning samarali vositasi sifatida foydalanishning metodik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqollarning til va madaniyatga oid salohiyati tahlil qilinib, ular o‘quvchilarning til sezgirligini rivojlantirishga, barqaror leksik ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Maqolada maqollar bilan ishlashning pedagogik shart-sharoitlari va metodlari — lingvistik tahlil, situativ-kommunikativ topshiriqlar, o‘yinli va loyihaviy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, so‘zlarning passiv lug‘atdan faol lug‘atga o‘tish jarayoni va metodikaning samaradorligini diagnostika qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *maqollar; o‘quvchilar so‘z boyligi; leksik kompetensiya; nutqni rivojlantirish; folklor; o‘qitish metodikasi; nutq madaniyati; ta’lim jarayoni; lug‘atni faollashtirish; frazeologiya.*

Введение

Современное образование ставит перед учителем задачу формирования у учащихся богатого, активного и функционального словарного запаса, обеспечивающего полноценное владение родным языком и успешное участие в различных видах речевой деятельности. Одним из эффективных средств речевого развития школьников традиционно считается использование малых жанров фольклора, в частности пословиц. Пословицы, являясь образными, лаконичными и смысловыми формулами народной мудрости, обеспечивают естественное и мотивированное расширение словарного состава речи учащихся.

Актуальность обращения к пословицам определяется тем, что они содержат устойчивые языковые конструкции, разнообразную лексику, метафорические модели и культурно значимые образы, которые способствуют формированию у школьников глубокого понимания семантики слов и их контекстного употребления. В условиях цифровизации и снижения читательской активности именно фольклорные тексты позволяют поддерживать связь учащихся с национальной культурой, развивать языковую интуицию и воспитывать интерес к слову.

Несмотря на значительное внимание к проблеме развития речи, использование пословиц как инструмента обогащения словарного запаса нуждается в целенаправленном методическом осмыслении. Возникает необходимость определения наиболее эффективных способов интеграции пословиц в учебный процесс, выявления потенциала их применения на разных этапах обучения и анализа влияния работы с фольклорными выражениями на активизацию и расширение лексикона учащихся.

Таким образом, цель данной статьи заключается в рассмотрении методических возможностей пословиц как средства обогащения словарного запаса учащихся, а также в раскрытии педагогических условий, способствующих формированию интереса к слову и развитию языковой компетентности школьников. Решение данной задачи позволит уточнить подходы к речевому развитию и внести вклад в совершенствование методики преподавания русского языка.

Методологические основы использования пословиц в развитии словарного запаса учащихся предусматривает следующие виды работ. Работа с пословицами опирается на принципы коммуникативного, культурологического и деятельностного подходов. Пословица рассматривается не только как языковая единица, но и как культурно значимый текст, содержащий богатый потенциал для лексической, семантической и речевой работы. Теоретической основой служат труды по лексикологии, фразеологии, фольклористике и методике развития речи школьников (А. А. Леонтьев, В. В. Виноградов, П. Г. Богатырев, Л. А. Введенская, М. Р. Львов и др.).

Опора на деятельностный подход позволяет организовать процесс усвоения слов через активное включение учащихся в анализ, интерпретацию и употребление пословиц в различных речевых ситуациях. Коммуникативный подход обеспечивает формирование навыков адекватного употребления лексики в контексте общения. Для успешного обогащения словарного запаса учащихся необходимы следующие условия:

1. Целенаправленный отбор пословиц с учетом возраста, уровня речевого развития и учебных задач. Учащимся младших классов подбираются пословицы с конкретным образным смыслом, старшим – с абстрактными и морально-этическими значениями.

2. Систематическое включение пословиц в уроки родного языка, чтения и внеклассной деятельности. Эпизодическая работа не обеспечивает формирования устойчивых лексических навыков.

3. Создание коммуникативной речевой среды, предполагающей использование пословиц в устных высказываниях, диалогах, сочинениях, мини-проектных заданиях.

4. Поэтапное формирование знаний и умений, включающее: понимание смысла пословицы; анализ ключевых слов; выявление переносных значений; построение собственных высказываний с использованием изученной пословицы.

5. Интеграция пословиц с другими видами работы: словарная работа, работа с синонимами, антонимами, фразеология, обучение связной речи, литературное чтение, ознакомление с фольклором.

Эффективность обогащения словарного запаса усиливается при использовании разнообразных методов:

Лингвистический анализ

Разбор лексического состава пословицы, определение значения отдельных слов, анализ переносных значений, выявление омонимии и многозначности.

Пример: определить значение слов «красна», «птица», «похвала» в пословице «Птица красна перьем, человек – ученьем».

Ситуативно-коммуникативные задания

Создание ситуаций, в которых учащийся вынужден употребить пословицу для пояснения мысли.

Пример: придумать диалог, где логично звучит пословица «Без труда не вытащишь и рыбку из пруда».

Сравнительно-сопоставительный метод

Сопоставление русских и узбекских пословиц, выявление общих образов и культурных различий.

Пример: сравнить русскую пословицу «Слово не воробей – вылетит, не поймаешь» и узбекскую «Aytilgan gap – otilgan o’q».

Проектная деятельность

Подготовка мини-проектов: сбор пословиц по теме, создание иллюстраций, составление словариков, инсценировки.

Игровые методы

Лексические игры, конкурсы «Узнай пословицу», «Объясни смысл», «Продолжи пословицу», речевые квесты.

Заключение

Проведенный анализ подтверждает, что пословицы обладают значительным потенциалом в развитии словарного запаса учащихся и формировании их речевой культуры. Включение пословиц в образовательный процесс способствует активизации словарного фонда, расширяет знания учащихся о значении слов, их переносных смыслах, культурных ассоциациях и стилистических особенностях употребления. Работа с фольклорными выражениями развивает языковую интуицию, повышает интерес к слову и усиливает мотивацию к изучению родного языка.

Методические условия, представленные в статье, показывают, что эффективное использование пословиц требует системного подхода, тщательно подобранного материала, разнообразия форм работы и опоры на коммуникативный, культурологический и деятельностный принципы обучения. Применение лингвистического анализа, ситуативных заданий, сравнительно-сопоставительных упражнений, игровых и проектных методов обеспечивает глубокое осмысление пословиц и способствует переходу слов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Львов М. Р. Методика развития речи учащихся. – М.: Просвещение, 2010.
2. Леонтьев А. А. Проблемы развития речи школьников. – М.: Педагогика, 1997.
3. Костомаров В. Г. Культура речи и обучение языку. – М.: Академия, 2005.
4. Телия В. Н. Фразеология в контексте культуры. – М.: Языки славянской культуры, 1996.
5. Аникин В. П. Русские пословицы и поговорки. – М.: Русская книга, 2002.

Lobar MANSUROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
mansurovalobar252@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya:maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, bilim va ko‘nikmalarni oson va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Biroq bunday texnologiyalarni qo‘llashda ularning mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik, fiziologik va intellektual xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar, psixologik, fiziologik va intellektual xususiyat va sohaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish*

Аннотация: использование современных образовательных технологий в дошкольных образовательных организациях способствует всестороннему развитию детей, приобретению ими знаний и навыков в доступной и интересной форме. Однако при использовании таких технологий их содержание должно соответствовать психофизиологическим и интеллектуальным особенностям детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: *современный менеджмент и педагогические технологии, формирование психологических, физиологических и интеллектуальных особенностей, а также знаний и навыков в данной области*

Annotation:the use of modern educational technologies in preschool educational organizations contributes to the comprehensive development of children, the acquisition of knowledge and skills in an easy and interesting way. However, when using such technologies, their content must be consistent with the psychological, physiological and intellectual characteristics of preschool children.

Key words: *modern management and pedagogical technologies, the formation of psychological, physiological, and intellectual characteristics, as well as knowledge and skills in this field*

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o‘quv metodik adabiyotlar, o‘quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha sohaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017- 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ2707-sonli, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 9- sentyabrdagi PQ3261-son qarorlari, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.

Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining pedagogik ahamiyati

1. Ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi

- Mashg‘ulotlar tushunarli, jonli va interaktiv bo‘ladi.
- Bolalarning diqqatini uzoq vaqt ushlab turadi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlaydi

- Har bir bolaning qobiliyatiga, o‘zlashtirish sur’atiga qarab ta’lim berish imkonini yaratadi.
- Tarbiyachi individual yondashuvni oson qo‘llaydi.

3. Tarbiyachi faoliyatini yengillashtiradi

- Tayyor platformalar, elektron darsliklar, testlar darsni samarali tashkil etishga yordam beradi.
- Vaqtni tejaydi, metodikani boyitadi.

4. Bolalar faolligini oshiradi

- Bolalar darsda passiv emas, balki faol ishtirokchi bo‘ladi.
- Mustaqil izlanish, tajriba o‘tkazish, loyihada ishlash rivojlanadi.

5. Bilimni mustahkamlash va chuqurlashtirish

- Video, animatsiya, modellash, tajribalar orqali murakkab mavzular ham oson tushuntiriladi.

- Ko‘rgazmalilik oshadi.

6. Kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi

- Bola tayyor ma’lumotni emas, balki yangi g‘oyalarni yaratishni o‘rganadi.
- Savol berish, tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

7. Zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantiradi


- Axborot texnologiyalaridan foydalanish
- Muloqot, liderlik, jamoaviy ish
- Vaqtni boshqarish
- Mas’uliyat va kreativ yondashuv

8. Baholash jarayonini shaffof qiladi

- Elektron testlar, onlayn baholash vositalari xolis va tezkor natijalar beradi.
- Bolaning rivojlanishi aniq ko‘rinib turadi.

9. Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash imkonini beradi

- STEAM, CLIL, gamifikatsiya, loyihaviy metod, portfoliolar
- Bularning barchasi darsni zamonaviy talablarga moslashtiradi.



Maktabgacha ta’lim sifati – natija haqida bola shaxsini rivojlantirish nuqtayi nazaridan bolalar quyidagi shaxsiy natijalarni qanday egallaganiga qarab so‘z yuritish mumkin: tizimli tabaqalanadigan malakalilik:

• til malakasi, bolaning o‘z fikrlari, istaklari va niyatlarini nutq vositasida va nutqsiz vositalarda erkin ifodalashni nazarda tutadi;

• ijtimoiy malaka, har bir insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni, uning o‘ziga xosliklari va manfaatlarini tushunish mahoratini, uning hissiy holatidagi o‘zgarishlarni payqashni, vaziyatga qarab muloqot usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi;

• intellektual malaka, o‘z maqsadiga erishish uchun bolaga yangi xatti- harakatlarini ijro etishga va ularni bajarishga yordam beruvchi umumiy intellektual faoliyatni shakllanganligini nazarda tutadi;

• jismoniy malaka, bolaning o‘z yosh darajasiga mos keluvchi turli harakat turlarini egallaganligini ko‘rsatadi; ixtiyoriylik. bola tomonidan qoidalar va me’yorlarga muvofiq o‘z xatti harakatini boshqarish ko‘nikmasida namoyon bo‘ladi;

• mustaqillik. kundalik hayotda va ishda paydo bo‘ladigan turli vazifalarni bola tomonidan kattalarning yordamisiz mustaqil kun tartibiga qo‘yish va hal qilishni ta’minlaydi;

• mas’uliyat. “mumkin” va “mumkin emas”, “yaxshi” va “yomon”, “xohlayman” va “kerak” o‘rtasida tanlov vaziyatida paydo bo‘ladi;

Xulosa qilib aytganda, bolalarni innovatsion texnologiyalarga o‘rgatish juda muhimdir, chunki ularning kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun texnologiyalar bilimini o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llashga qodir qilish zarurdir. Bu, ularning kreativlik, muammolarni hal qilish va yangiliklarni qabul qilishga qodir bo‘lishlari uchun juda muhimdir. Bolalarni innovatsion texnologiyalarga o‘rgatish uchun ularni motivatsiyalash, ularni texnologiyalar haqida o‘rganish, ularga amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, ularni muammolarni yechish va yangiliklarni topishga yondashish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djamilova N.N. Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi. –T., 2017. 100-bet.
2. ”Ilk qadam “ jurnali., maxsus son 44-bet. “PINTWELL “ MCHJ. – Toshkent, 2021-yil avgust.
3 F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova,M.N. A’zamova. Maktabgacha pedagogika. –T.:Tafakkur, 2019.35-50-bet
4. Hasanboyeva O. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. –T.:Ilm –ziyo, 2012. 98-bet.
5. “Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi“jurnali. – Toshkent, 2021-yil. 6-bet :”Maktabgacha ta’lim” jurnali.2014. 2-bet
6. M. N.To‘xtaxo`jayeva . Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: Moliya –iqtisod, 2008.

Nawbahar DJAMILOVA,
Qoraqalpoǵiston Respublikasi
Nukus tumani 31-sonli maktabning
Rus tili fani o‘qituvchisi

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI MUNOSABATLARI — TA’LIM SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI ASOSIY OMIL

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik munosabatlarning o‘rni, uning o‘quv jarayoni samaradorligiga ta’siri hamda zamonaviy ta’limda samarali muloqotning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom kommunikativ, ma’naviy va psixologik muhit ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagogik muloqot, ta’lim samaradorligi, motivatsiya, metodika.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль педагогических отношений между учителем и учеником в образовательном процессе, их влияние на эффективность обучения, а также значение эффективной коммуникации в современном образовании. Кроме того, рассматривается важность здоровой коммуникативной, нравственной и психологической среды между учителем и учеником как важного фактора повышения качества образования.

Ключевые слова: *учитель, ученик, педагогическое общение, эффективност обучения, мотивация, методика.*

Annotation: this article analyzes the role of pedagogical relations between the teacher and the student in the educational process, their impact on the effectiveness of learning, and the importance of effective communication in modern education. In addition, the study examines the significance of a healthy communicative, moral, and psychological environment between the teacher and the student as an essential factor in improving the quality of education.

Key words: *teacher, pupil, pedagogikal communication, educational effectivenes, motivation, methodology.*

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, AKT imkoniyatlari — bularning barchasi o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ammo shuni unutmaslik kerakki, ta’lim jarayonining markazida avvalo inson turadi. Ya’ni, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi to‘g‘ri tashkil etilgan munosabat harqanday metoddan ustun turuvchi, ta’lim samaradorligini belgilaydigan asosiy omildir. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatining pedagogik mohiyati Pedagogik munosabat — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat, muloqot hamda hamkorlikka asoslangan jarayondir. O‘qituvchi bilim beruvchi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga yo‘l ko‘rsatuvchi rahbar, psixolog, tarbiyachi va motivator bo‘lib ham xizmat qiladi.

To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan pedagogik muloqot quyidagilarni ta’minlaydi:

– o‘quvchida o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishni oshiradi;

– bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi;

– psixologik qulay muhit yaratadi;

– o‘zaro ishonch va ochiqlikni kuchaytiradi;

– shaxsiy rivojlanish va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Ta’lim samaradorligiga ta’sir etuvchi omil sifatida muloqot

O‘quvchi o‘qituvchini qanchalik hurmat qilsa, uning darsdagi faolligi, o‘qishga munosabati, yangiliklarni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Psixologlarning fikricha, samarali pedagogik muloqot ta’lim samaradorligini 40% gacha oshirishi mumkin.

O‘qituvchi dars jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilsa, natija samarali bo‘ladi:

1. Individual yondashuv. Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyati, xarakteri, tafakkuri bilan boshqacha. 2. Demokratik rahbarlik. Buyruqbozlikdan yiroq, lekin tartibni saqlagan holda hamkorlik muhitini yaratish. 3. Motivatsiya berish. Rag‘bat so‘zlari, kichik yutuqlarni tan olish, o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash. 4. Ochiq va adolatli baholash. Har bir o‘quvchining mehnatini haqqoniy baholash eng katta ishonch omili hisoblanadi. 5. Samarali tinglash. O‘quvchi o‘z fikrini bemalol ayta olishi kerak. Sog‘lom psixologik muhit — bu o‘quvchiga dars jarayonida o‘zini erkin, qo‘rqmay fikrlovchi, savol bera oladigan shaxs sifatida his qilish imkonini beradi. Agar o‘qituvchi o‘quvchi fikrini rad qilmasdan, uni qo‘llab-quvvatlasa, xatolarni o‘rganish uchun imkoniyat sifatida ko‘rsatsa — o‘quvchi o‘z ustida ko‘proq ishlashga intiladi. Bugun o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki mentor, psixolog, kommunikator, raqamli kompetensiyaga ega mutaxassis bo‘lishi kerak. O‘qituvchining nutqi, muomala madaniyati, kiyinish uslubi, darsga bo‘lgan mas’uliyati ham o‘quvchiga bevosita ta’sir qiladi. Yani yaxshi munosabatlar o‘quvchining motivatsiyasini oshiradi, darsga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi. Agar o‘qituvchi mehribon, sabrli, qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lsa, o‘quvchida ham darsga qiziqish ortadi, yaxshi o‘rganishga intilish paydo boladi. Tadqiqotlarda “O‘qituvchi – rol modeli, murabbiy, yo‘l ko‘rsatuvchi” sifatida muhimligi ta’kidlanadi. Bunday vazifani uddalash uchun ustoz faqat bilim berib qo‘ymasdan, balki o‘zini namuna qilib, hurmat ma’suliyat, hamdardlik singari fazilatlar bilan yetaklashi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bir necha bor o‘qituvchi va tarbiyachilarga bo‘lgan hurmat ularning jamiyatdagi o‘rnini hamda ustoz-o‘quvchi munosabatlarining ahamiyatini ta’kidlagan. Masalan, prezidentimiz o‘z so‘zlarida “Hech qanday taraqqiyot bo‘lmaydi, agar jamiyat o‘zgarmasa, Jamiyatni esa o‘zgartiradigan – fikr, dunyoqarashi, qalbi o‘zgargan yoshlar. Buni faqat ustozlar qila oladi” – deb, o‘qituvchining tarbiyaviy va ijtimoiy vazifasini e’tirof etgan. Shuningdek, “Biz endi maktabda o‘qituvchilar soni, muammasi bilan emas, sifat bilan ishlashimiz kerak, – deb ota-onalar, jamiyatning ta’limga munosabatini ham o‘zgartirish lozimligini ta’kidlagan. Bu so‘zlar shuni ko‘rsatadiki: davlat darajasida ham ustoz-o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, pedagoglarning huquq-ixtiyorlari, ularning jamiyatdagi mavqeyi fundamental omil sifatida ko‘rilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerak, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat ta’lim jarayonining yuragi hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan muloqot, o‘zaro hurmat, individual yondashuv, psixologik qulaylik — bularning barchasi o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi va ta’lim sifatini oshiradi. Shu bois har bir pedagog o‘z kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, o‘quvchi qalbiga yo‘l topishni ham eng muhim vazifa sifatida ko‘rishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. “Pedagogik muloqot asoslari”. – Toshkent, 2021.
2. Hasanboyeva O., Yo‘ldosheva D. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

Shaxida KABULOVA,
Qoraqalpog‘iston respublikasi
Qongirot tumani 3-maktab tarix huquq fani o‘qituvchisi



TA’LIM MUASSASALARIDA HUQUQIY MADANIYAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya: maqolada ta’lim muassasalarida huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni, uning tarkibiy qismlari, amaliy mexanizmlari, mavjud muammolar va rivojlantirish istiqbollari ilmiy-publitsistik tahlil asosida yoritiladi. Huquqiy ong, huquqiy xulq-atvor, huquqiy kompetensiya, jamoatchilik nazorati va profilaktikaning ta’lim tizimidagi o‘rni atroflicha ko‘rib chiqiladi. Huquqiy madaniyatning ta’lim sifati, yoshlar tarbiyasi va demokratik jamiyat qurilishiga ta’siri dalillar bilan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy xulq-atvor, huquqiy kompetensiya, ta’lim muassasasi, profilaktika, jamoatchilik nazorati.*

Annotation: this article provides a scientific-journalistic analysis of the formation of legal culture in educational institutions, its components, practical mechanisms, existing problems, and development prospects. It examines the role of legal awareness, legal behavior, legal competence, public oversight, and preventive measures in the education system. Furthermore, the study highlights the impact of legal culture on educational quality, youth development, and the formation of a democratic society.

Key words: *legal culture, legal awareness, legal behavior, legal competence, educational institution, prevention, public oversight.*

Аннотация: в статье проводится научно-публицистический анализ процесса формирования правовой культуры в образовательных учреждениях, его основных элементов, практических механизмов, существующих проблем и перспектив развития. Рассматривается роль правового сознания, правового поведения, правовой компетентности, общественного контроля и профилактики в системе образования. Показано влияние правовой культуры на качество образования, воспитание молодёжи и построение демократического общества.

Ключевые слова: *правовая культура, правовое сознание, правовое поведение, правовая компетентность, образовательное учреждение, профилактика, общественный контроль.*

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi shunchaki bilim beruvchi institut emas, balki yuksak huquqiy madaniyat egalarini tarbiyalovchi poydevor sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim jarayonida huquqiy qadriyatlarning ustuvor bo‘lishi yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlaydi, ular qonunlarga hurmat bilan qaraydi, fuqarolik pozitsiyasi mustahkam shakllanadi.

Shu boisdan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim muassasalarida huquqiy ongni oshirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish va huquqiy tarbiyani modernizatsiya qilishga qaratilgan. Huquqiy madaniyat — shaxsning qonunlarga munosabati, huquqiy me’yorlarga amal qilish darajasi, ijtimoiy-huquqiy masalalarda to‘g‘ri yo‘l tutish qobiliyati bilan belgilanadigan ko‘p qirrali tushunchadir. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida bu tushuncha yanada chuqur mazmunga ega bo‘lib, nafaqat o‘quvchilar, balki pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning boshqa qatlamlari faoliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyat uch asosiy element birligida shakllanadi: Huquqiy ong; Huquqiy savodxonlik; Huquqiy xulq-atvor. Huquqiy ong shaxsning huquqiy hodisalarga munosabatini anglatadi. Bu — qonunlarning mazmunini

anglash, ularning ijtimoiy ahamiyatini tushunish va qonun ustuvorligiga e'tiqod shakllanishidir. Savodxonlik — amaldagi qonunlar mazmunini bilish, huquqiy hujjatlar bilan ishlay olish, huquqiy normalar asosida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatidir. Huquqiy xulq-atvor bu huquqiy me'yorlarga ongli ravishda amal qilishni anglatadi. O‘quvchi yoki pedagog qanchalik ongli bo‘lsa, muammoni zo‘ravonliksiz, qonuniy asosda hal etishi shunchalik oson bo‘ladi. Maktab va OTMlarda huquqiy madaniyat yuqori bo‘lsa, bulling, kamsitish, zo‘ravonlik, janjal kabi holatlar kamayadi. O‘quvchilar o‘zaro hurmat asosida muloqot qiladi.

Nizolarni samarali hal etishda huquqiy bilimga ega yoshlar muammolarni dialog, mediatsiya va qonuniy vositalar orqali hal qiladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Yana da huquqiy madaniyat yuqori bo‘lgan muassasalarda intizom yuqori bo‘ladi, o‘quv jarayoni tartibli, shaffof va samarali olib boriladi. Huquqiy ongli avlod — kelajakda korrupsiya, qonunbuzarlik va adolatsizlikka murosasiz bo‘ladi. Bu esa demokratik jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy ta'lim samaradorligini oshirish, huquqiy fanlarni zamonaviy dasturlar asosida o‘qitish; ta'limda interfaol metodlardan foydalanish (debat, sud jarayoni simulyatsiyasi); amaliy mashg‘ulotlarda real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish. huquqiy targ‘ibot va ma'rifat “Huquqiy ma'rifat oyligi”, “Huquqiy haftalik” tadbirlarini o‘tkazish; yuridik mutaxassislar bilan uchrashuvlar. huquqiy viktorina, davra suhbatlari. Pedagoglarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish malaka oshirish kurslari; huquqiy savodxonlik bo‘yicha seminarlar, o‘qituvchilarning mehnat-huquqiy savodxonligini oshirish, Jamoatchilik nazorati va hamkorlik ota-onalar qo‘mitasi, maktab kengashi bilan hamkorlik; yoshlar yetakchilari va psixologlar bilan tizimli ishlar; shaffof boshqaruvning joriy etilishi, huquqbuzarliklarning oldini olish profilaktikasi bullingni kamaytirish bo‘yicha maxsus dasturlar; individual profilaktika ishlari; mediatsiya xizmati faoliyatini kuchaytirish kerak.

Huquqiy bilim yetishmasligi — o‘quvchi, ota-ona va ba'zan pedagoglarning huquqiy savodxonligi past bo‘lishi bilan boǵliq boladi. Maktab va ota-onalar birgalikda ish olib borishi kerak. Chunki ko‘p hollarda Ota-onalarning faollik darajasi past bo‘ladi va ta'lim jarayoniga yetarli darajada jalb qilinmaydi. Shu bilan birga Mediatsiya tizimining yetarli rivojlanmaganligi va muammolar ko‘pincha jazolash orqali hal qilinishi ham bugungu kundagi eng dolzarb mavzulardan biri. Bu maqolada biz qator Rivojlanish istiqbollari va takliflar berib o‘tishni abzal ko‘rdik: Raqamli huquqiy ta'lim platformalarini yaratish, chunki onlayn kurslar, interaktiv testlar, virtual sud jarayonlari o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Maktablarda “Huquqiy klub” tashkil etish, talabalarning o‘z tashabbuslari bilan huquqiy loyihalar, tadbirlar o‘tkazilishi, Pedagoglar uchun yillik huquqiy audit joriy etish. Bu ularning huquqiy kompetensiyasini muntazam o‘lchab borishni ta'minlaydi. Ota-onalar uchun huquqiy seminarlar. Ular bolalarning huquqiy tarbiyasida muhim bo‘g‘in bo‘lgani sababli alohida yondashuv talab etiladi. Mediatsiya markazlarini rivojlantirish. Bu nizolarni hal qilishda samaradorlikni oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerak, ta'lim muassasalarida huquqiy madaniyatni shakllantirish — davlat, ta'lim tizimi, ota-onalar, pedagoglar va yoshlarning hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan murakkab jarayondir. Agar huquqiy madaniyat maktabdan boshlab shakllantirilsa, jamiyatdagi adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik madaniyatining darajasi yuqori bo‘ladi. Bugungi islohotlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun (so‘nggi tahrir).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va huquqiy madaniyatga oid farmon va qarorlari.
4. Karimov M., Qodirov B. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.

Kumush USMONOVA,
PhD teacher
Zarmed University,
e-mail: Kumushusmonova55@yandex.com

PEER OBSERVATION AS A TOOL FOR DEVELOPING REFLECTIVE TEACHING PRACTICE

Annotation: peer observation has emerged as an effective professional development tool in language teacher education, fostering reflective thinking, collaborative learning, and evidence-based instructional improvement. This article explores the theoretical foundations, models, affordances, and challenges of peer observation in English language teaching (ELT). Special attention is given to its relevance in pre-service teacher education, where reflective competence plays a decisive role in bridging theory and classroom practice. The paper argues that structured peer observation, supported by digital tools and reflective dialogue, enhances teachers' awareness of pedagogical decision-making and promotes a reflective teaching culture. Practical implications for teacher educators and institutions are provided.

Key words: *peer observation, reflective practice, EFL teacher education, feedback literacy, collaborative learning, reflective competence, teacher development.*

Аннотация: наблюдение за работой коллег стало эффективным инструментом профессионального развития в подготовке преподавателей иностранных языков, способствуя развитию рефлексивного мышления, совместного обучения и совершенствованию педагогической практики на основе объективных данных. В статье рассматриваются теоретические основы, модели, возможности и трудности использования взаимного наблюдения в преподавании английского языка. Особое внимание уделяется его значимости в подготовке будущих преподавателей, где рефлексивная компетентность играет решающую роль в соединении теории и практики. В работе обосновывается, что структурированное взаимное наблюдение, поддерживаемое цифровыми инструментами и рефлексивным диалогом, повышает осознанность педагогических решений и способствует формированию культуры рефлексивного преподавания. Представлены практические рекомендации для педагогов-методистов и образовательных учреждений.

Ключевые слова: *взаимное наблюдение, рефлексивная практика, подготовка преподавателей английского языка, навыки feedback, совместное обучение, рефлексивная компетентность, профессиональное развитие преподавателя.*

Annotation: tengdosh kuzatuvi til o‘qituvchilarini tayyorlashda samarali kasbiy rivojlanish vositasi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lib, u reflektiv fikrlash, hamkorlikda o‘qish va dalillarga asoslangan o‘qitishni yaxshilashni rivojlantiradi. Ushbu maqola ingliz tili o‘qitishni o‘rgatishda (ELT) tengdosh kuzatuvining nazariy asoslari, modellari, imkoniyatlari va qiyinchiliklarini o‘rganadi. Maxsus e’tibor pre-service o‘qituvchilar ta’limida unga qaratilgan bo‘lib, bu yerda reflektiv kompetentsiya nazariya va sinf amaliyoti o‘rtasidagi ko‘prik rolini o‘ynaydi. Maqola shuni ta’kidlashicha, raqamli vositalar va reflektiv dialog bilan qo‘llab-quvvatlangan tuzilgan tengdosh kuzatuvi o‘qituvchilarning pedagogik qaror qabul qilishidagi xabardorligini oshiradi va reflektiv o‘qitish madaniyatini rivojlantiradi. O‘qituvchi mutaxassislar va muassasalar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tengdosh kuzatuvi, reflektiv amaliyot, EFL o‘qituvchi ta’limi, fikr-mulohaza savodxonligi, hamkorlikda o‘qish, reflektiv kompetentsiya, o‘qituvchi rivojlanishi.*

Introduction

Reflective teaching has become a central concept in modern teacher education, emphasizing the ability of teachers to analyze, question, and improve their professional practice. In the field of English as a Foreign Language (EFL), reflective competence is especially significant due to the interactive, communicative, and dynamic nature of language classrooms. One of the most practical and research-supported tools for fostering reflective thinking is peer observation — a structured process in which teachers observe each other's lessons and engage in reflection based on collected evidence.

Peer observation is fundamentally different from administrative or evaluative observation. Instead of focusing on judgment or appraisal, it aims to promote collaboration, shared learning, and self-awareness. This makes it a valuable and psychologically safe

method for both novice and experienced teachers. With the increasing shift toward student-centered learning and professional autonomy, peer observation has gained renewed attention in teacher education programs worldwide.

Literature Review

Schön's (1983) seminal work on reflective practice highlights two key processes: reflection-in-action and reflection-on-action. These processes enable teachers to critically examine their classroom decisions, identify gaps, and refine their pedagogical strategies. Dewey (1933) emphasizes reflective thinking as "active, persistent, and careful consideration" — a skill essential for continuous teacher development. In EFL education, reflective competence enables teachers to evaluate communicative tasks, learners' engagement, feedback strategies, and the balance between fluency and accuracy.

Peer Observation as a Learning Tool

Peer observation is widely recognized as an effective means of fostering teacher learning. Unlike top-down evaluation, peer observations:

- supports non-judgmental feedback;
- promotes equality and trust among teachers;
- encourages reflective dialogue;
- Provides opportunities to analyze multiple teaching styles.

Studies demonstrate that peer observation helps teachers become more aware of their instructional behaviors, enhances feedback literacy, and contributes to a more reflective school culture.

Relevance in EFL Teacher Education

In EFL settings, peer observation is particularly beneficial because language teaching requires constant monitoring of interaction patterns, questioning techniques, and learner responses. Pre-service teachers often struggle to connect theoretical knowledge with real classroom practice. Peer observation provides:

- concrete examples of methodological concepts;
- opportunities to analyze authentic classroom data;
- a system for receiving and offering constructive feedback;
- a platform for developing confidence and professional identity.

Theoretical Framework of Peer Observation

Peer observation is typically organized as a three-phase cycle:

Pre-Observation Phase

Teachers meet to:

- define the specific focus (e.g., feedback strategies, learner engagement, use of L2);
- discuss lesson objectives and materials;
- clarify expectations;
- select observation tools (checklists, notes, rubrics, video recordings).

This stage ensures clarity and reduces anxiety by establishing a shared understanding of the learning purpose.

Observation Phase

During the lesson, the observer collects objective data, focusing on behaviors rather than personal judgments. This may include:

- teacher talk time;
- questioning patterns;
- student responses;
- group dynamics;
- use of technological tools;
- Error-correction strategies.

Some programs integrate video-based observation to allow repeated viewing and deeper analysis.

Post-Observation Reflection

After the lesson, the observer and the teacher engage in reflective dialogue. Effective post-observation sessions are:

- descriptive, not judgmental;
- evidence-based;
- solution-oriented;
- Collaborative rather than directive.

The goal is to promote mutual learning and identify actionable improvements.

Benefits of Peer Observation for Reflective Practice

Teachers often develop habitual routines. Peer observation helps them notice unnoticed behaviors, such as repetitive explaining, limited student interaction, or unbalanced participation. Discussing teaching decisions with peers encourages teachers to articulate, justify, and question their choices — key elements of reflective competence. Peer observation builds trust, collegiality, and a shared responsibility for instructional quality. This collaborative culture contributes to long-term professional development. Because peer observation is not evaluative, teachers feel comfortable experimenting with new strategies. They also gain confidence from supportive feedback. Modern frameworks such as CEFR and TESOL emphasize reflective learning, feedback literacy, and peer collaboration. Peer observation directly supports these competencies.

Challenges and Limitations

Despite its advantages, several challenges may arise:

- reluctance to be observed due to fear of judgment;
- insufficient training in giving and receiving feedback;
- time constraints in school schedules;
- observer bias influenced by personal preferences;
- Tendency to focus on weaknesses instead of evidence.

These limitations can be overcome through systematic training, clear guidelines, and a supportive school culture.

Digital Tools Supporting Peer Observation

The integration of digital technologies significantly enhances the peer observation process. Tools such as:

- Google Classroom – sharing lesson plans, observation rubrics, and feedback;
- Padlet – collaborative reflection boards;
- e-portfolios – storing videos, notes, and reflective journals;
- AI-assisted applications – analyzing teacher talk time, generating transcripts, and identifying patterns.

These tools make the process more efficient, transparent, and data-driven, especially in blended or online teaching contexts.

Implications for Teacher Education

Teacher training institutions should:

- embed peer observation cycles in methodology and practicum courses;
- train student teachers in feedback literacy and reflective dialogue;
- encourage the use of digital portfolios;
- promote video-based peer observation;
- Establish non-evaluative, supportive observation environments.

Such initiatives help build reflective teaching habits early in teachers' professional lives.

Conclusion

Peer observation is a powerful tool for fostering reflective teaching practice in English language education. It encourages teachers to critically evaluate their instruction, engage in collaborative dialogue, and develop a deeper understanding of pedagogical decision-making. When supported by digital tools and embedded in teacher education programs, peer observation contributes significantly to the development of reflective competence, teaching autonomy, and professional growth. As educational systems move toward learner-centered and competency-based frameworks, peer observation will continue to serve as an essential mechanism for building effective, reflective and adaptive language teachers.

References:

1. Dewey J. How We Think. — Boston: D.C. Heath, 1933. — 336 p.
2. Schön D. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 384 p.
3. Farrell T. S. C. Reflective Practice in ESL Teacher Education. — London: Routledge, 2019. — 172 p.
4. Kolb D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. — 256 p.
5. CEFR. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume with New Descriptors. — Strasbourg: Council of Europe, 2020. — 237 p.
6. Richards J. C., Lockhart C. Reflective Teaching in Second Language Classrooms. — Cambridge: Cambridge University Press, 1994. — 224 p.
7. Brookfield S. Becoming a Critically Reflective Teacher. — 2nd ed. — San Francisco: Jossey-Bass, 2017. — 320 p.
8. Hammersley M. Classroom Ethnography: Empirical and Methodological Essays. — Milton Keynes: Open University Press, 1986. — 248 p.
9. Richards J. C. Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2005. — 243 p.
10. Wallace M. J. Training Foreign Language Teachers: A Reflective Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1991. — 225 p.
11. Wajnryb R. Classroom Observation Tasks: A Resource Book for Language Teachers and Trainers. — Cambridge: Cambridge University Press, 1992. — 164 p.
12. Bailey K. M. Learning About Language Assessment: Dilemmas, Decisions, and Directions. — Boston: Heinle & Heinle, 1998. — 224 p.

Dilorom XAYRULLAYEVA,
Senior Lecturer
Uzbekistan State University of World Languages
e-mail: khayrullayevad@gmail.com

ONE TEXT, THREE CEFR-ALIGNED ICT SCENARIOS FOR ASSESSING EFL ACADEMIC READING

Annotation: this article proposes a scenario-based model for ICT-supported assessment of academic reading in English philology programmes. A single expository text on online learning is used to construct three closed-task scenarios aligned with CEFR levels B1, B1+/B2– and B2. Each scenario targets a specific configuration of linguistic, cognitive and metacognitive skills and is implemented entirely through auto-scored item types in platforms such as iSpring, Google Forms, Moodle and H5P. A unified 20-point scoring scheme allows the construction of learner profiles and supports diagnostic and formative assessment in the context of educational digitalization in Uzbekistan.

Keywords: *academic reading; ICT-based assessment; CEFR; B1–B2 levels; metacognitive strategies; auto-scored tasks; philology students.*

Аннотация: в статье предлагается сценарная модель ИКТ-обеспечённого оценивания академического чтения в англоязычных филологических программах. В качестве основы используется один пояснительно-аргументативный текст об онлайн-обучении, на базе которого конструируются три сценария закрытых заданий, соотнесённых с уровнями владения чтением CEFR B1, B1+/B2– и B2. Каждый сценарий нацелен на определённую конфигурацию лингвистических, когнитивных и метакогнитивных умений и полностью реализуется с помощью автоматически проверяемых форматов (iSpring, Google Forms, Moodle, H5P). Единая 20-балльная шкала позволяет строить профили обучающихся и использовать сценарии для диагностического и формирующего оценивания в условиях цифровизации образования Узбекистана.

Ключевые слова: *академическое чтение; ИКТ-оценивание; Общеевропейские компетенции (CEFR); уровни B1–B2; метакогнитивные стратегии; автоматически проверяемые задания; студенты-филологи.*

Annotatsiya: usbu maqolada ingliz filologiyasi dasturlarida akademik o‘qish ko‘nikmasini baholash uchun AKT asosidagi ssenariyli model taklif etilib, onlayn ta’lim mavzusidagi bitta ekspositor matn asosida CEFR bo‘yicha B1, B1+/B2– va B2 darajalariga mos uchta yopiq topshiriqlar ssenariysi yaratiladi. Har bir ssenariy lingvistik, kognitiv va metakognitiv ko‘nikmalar majmuasini nishonga oladi hamda iSpring, Google Forms, Moodle va H5P kabi platformalardagi avtomatik baholanadigan test turlarida amalga oshiriladi. Yagona 20 ballik baholash tizimi talabalar profilini tuzish va ularni diagnostik hamda formatif baholashga xizmat qiladi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlarini amalga oshiradi.

Kalit so‘zlar: *akademik o‘qish; AKT asosidagi baholash; CEFR darajalari; B1–B2 o‘qish kompetensiyasi; metakognitiv strategiyalar; avtomatik tekshiriladigan topshiriqlar; filologiya talabalari.*

Introduction

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan. https://lex.uz/ru/docs

4. Bikbayeva N.U., Ibragimova Z.I., Qosimova X, I., Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish. – T., 1995.

5. Davletshin. G “Ta’limning psixologik asoslari”. – Toshkent: Fan, 1990. 224-b.

Bibikhonim KHURRAMOVA,
Master's student Theory and history of pedagogy
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Republic of Uzbekistan,
bibixonimxurramova@gmail.com
Doniyor HOMIDOV,
English teacher Technical school № 1
Shahrisabz district, Republic of Uzbekistan,
dnrhomidov@gmail.com

THE RELATIONSHIP BETWEEN STUDENTS' PSYCHOLOGICAL WELL-BEING AND THE EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Annotation: this article examines how students' mental stability and the use of interactive learning technologies influence each other within the educational process. As digital platforms become a routine part of instruction, it is crucial to understand their overall impact on learners beyond academic performance.

Keywords: *mental well-being, interactive learning, digital education, student engagement, emotional health, technology-enhanced learning.*

Аннотация: в статье рассматривается, каким образом эмоциональная устойчивость и психологический комфорт студентов связаны с результативностью интерактивных образовательных технологий. Активное внедрение цифровых инструментов в обучение требует понимания их комплексного влияния на учащихся.

Ключевые слова: *психологическая устойчивость, интерактивное обучение, цифровая среда, учебная мотивация, эмоциональное состояние, инновации в образовании.*

Annotatsiya: maqolada talabalarning ruhiy holati barqarorligi hamda interaktiv o'quv texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro ta'sir chuqur tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida raqamli vositalar keng qo'llanilishi, ularning nafaqat bilim o'zlashtirishga, balki talabalar psixologik holatiga qanday ta'sir ko'rsatishini ham o'rganishni talab etadi.

Kalit so'zlar: *ruhiy barqarorlik, interaktiv o'qitish, raqamli ta'lim, talaba faolligi, psixologik muhit, ta'lim innovatsiyalari.*

Introduction

Contemporary education is undergoing a significant transformation, with interactive technologies becoming fundamental to teaching and learning. Tools like virtual reality, gamified elements, online collaboration platforms, and AI-driven adaptive learning systems promise to make education more engaging, tailored, and efficient. However, assessments of their effectiveness often concentrate solely on academic achievements and measurable outcomes, frequently overlooking a vital aspect: students' psychological well-being. This includes their mental health, stress resilience, motivation, and overall sense of comfort within the learning environment.

This article broadens the evaluation of interactive technologies' effectiveness beyond academic metrics to encompass students' psychological welfare. We will explore both the beneficial and detrimental effects of these technologies on mental health, and how a student's psychological state in turn shapes their acceptance and efficient use of these tools.

Methodology and Literature Review

This study employs a conceptual review methodology to synthesize existing knowledge and theoretical frameworks concerning the interplay between students' psychological well-being and the effectiveness of interactive technologies in education. Given the nature of this inquiry, which seeks to integrate diverse perspectives and establish a comprehensive understanding, a systematic literature search and qualitative synthesis approach were deemed appropriate.

Neglecting the psychological dimension can compromise the true effectiveness of even the most advanced educational technologies. A student's mental state directly influences their capacity to engage with and benefit from technological tools, while the design and implementation of these tools can, in turn, profoundly affect their well-being. Therefore, a comprehensive understanding of this bidirectional relationship is essential for optimizing educational practices in the digital age. The study evaluates how various interactive tools — including gamified activities, virtual learning environments, and collaborative online systems — shape students' emotional balance, engagement levels, stress management, and general psychological health.

A targeted search was conducted across prominent academic databases (e.g., Scopus, Web of Science, Google Scholar, ERIC) using keywords such as "psychological well-being," "mental health," "student engagement," "interactive technologies," "educational technology," "gamification," "virtual reality," "online learning," "stress in education,"

and “digital learning effectiveness.” The search focused on peer-reviewed articles, scholarly reviews, and book chapters published primarily within the last decade to ensure relevance to current technological advancements and pedagogical practices.

Gamification Applying game design principles (like points, badges, leaderboards) to non-game contexts to boost motivation and engagement. Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR): Offering immersive experiences for visualizing complex ideas and providing safe, practical simulations. Collaborative Platforms Online tools (e.g., Google Workspace, Microsoft Teams) that facilitate teamwork, idea exchange, and real-time communication on projects. Interactive Displays Digital whiteboards and projectors that make lessons more dynamic and enable collaborative content modification. These technologies aim to deepen student engagement, empower them with responsibility, and enhance their comprehension of learning material.

Interactive technologies can positively affect students’ psychological well-being in several ways, gamified features, reward systems, and real-time progress updates can spark curiosity and a healthy competitive spirit, encouraging students to learn. This often boosts their confidence in their own capabilities. Instant feedback and progress dashboards allow students to track their development, strengthening self-assurance and providing positive encouragement. Collaborative platforms enable students to work together on projects, exchange thoughts, and collectively solve problems, fostering a sense of community and reducing feelings of isolation. Adaptive learning systems allow students to learn at their preferred speed and through methods that suit them. This increased control over their learning can significantly lower stress.

Results and Discussion

The synthesis of literature revealed a multifaceted relationship between students’ psychological well-being and the effectiveness of interactive technologies, characterized by both direct impacts of technology on well-being and the mediating role of well-being on technology’s efficacy. Based on these results, institutions should evaluate and streamline the number of digital platforms incorporated into their programs to help prevent overload and support student welfare. Conducting needs assessments can ensure that selected technologies align with instructional goals and avoid unnecessary duplication.

Despite their advantages, the misuse or overuse of interactive technologies can lead to adverse psychological consequences, extended screen time, constant notifications, and excessive information can contribute to digital burnout and eye strain, impairing concentration and causing irritability. Technical issues, pressure from online assessments, and highly competitive gamified environments can heighten student stress and anxiety, particularly for those less familiar with technology. A heavy reliance on online learning may reduce face-to-face interactions, potentially leading to feelings of loneliness and detachment for some students. Students lacking adequate access to technology or sufficient digital literacy skills may fall behind academically, leading to frustration, feelings of inadequacy, and low self-esteem. The findings from this conceptual review underscore a critical, bidirectional relationship between students’ psychological well-being and the effectiveness of interactive technologies in education. Our analysis confirms that while interactive technologies offer substantial potential to enhance learning engagement, motivation, and collaboration, they also pose considerable risks to mental health if not implemented thoughtfully.

Conclusion

This study examined how digital cognitive load functions as a mediator between the use of multiple educational technology platforms and the well-being of healthcare students. Findings showed that students reported moderate levels of digital cognitive load, platform usage, and well-being. Correlational analyses revealed strong, negative, and statistically significant relationships between the intensity of platform use and both digital cognitive load and student well-being. A clear positive relationship was also found between frequent platform use and increased digital cognitive load. Mediation results confirmed that the influence of multiple platforms on well-being remained substantial even when digital cognitive load was included in the model, indicating that cognitive overload plays a key role in shaping how platform use affects students’ overall well-being.

References

1. Abdullayev, S. A. (2022). Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishning talabalar psixologik farovonligiga ta’siri
2. Akram Rustamovich and Khurramova Bibikhonim Dilshod kizi AMERICAN Journal of Science on Integration and Human Development Volume 3, Issue 11, 2025 ISSN (E): 2993-2750 Enhancing Pedagogical-Technological Competence: A Framework for Modern Teachers in a Digital Age
3. Davies, M. L., & Patel, S. (2021). Gamification in learning: Balancing engagement and well-being in European universities.
4. Karimov, L. N. (2021). Interfaol texnologiyalardan foydalanishda talabalarning motivatsiyasi va faolligi: O’zbekiston oliy ta’lim muassasalari misolida
5. Khurramova Bibikhonim Dilshod kizi Enhancing Pedagogical-Technological Competence: A Framework for Modern Teachers in a Digital Age Journal of Science on Integration and Human Development www. *grnjournal.us Volume 3, Issue 11, 2025 ISSN(E): 2993-2750*

KICHIK TADQIQOT

Madina TOLIBOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti



ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA HAKIMLAR SIYMOSI

Annotatsiya: ushbu maqola Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi hakim obrazlari, ularning bosh qahramon taqdiridagi o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda Suhaylo va Suqrot kabi siymolar nafaqat donishmand, balki Farhodning ruhiy kamolotiga yo‘naltiruvchi murabbiy va piri sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqola bu obrazlar orqali ifodalangan ma’naviy tarbiya, ustoz-shogird munosabatlari va donolik g‘oyalarini ochib, ularning o‘zbek adabiy merosi va zamonaviy ma’naviyat taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: *hakim, xirad, pir, solik, tariqat, tasavvuf.*

Аннотация: данная статья анализирует образы мудрецов (хакимов) в поэме Алишера Навои «Фархад и Ширин» и их роль в судьбе главного героя. В исследовании такие персонажи, как Сухайло и Сократ, рассматриваются не только как носители мудрости, но и как наставники и духовные учителя (пиры), ведущие Фархада к нравственному совершенству. Статья раскрывает идеи духовного воспитания, взаимоотношений учителя и ученика и мудрости, выраженные через эти образы, и определяет их значение для узбекского литературного наследия и развития современной духовности.

Ключевые слова: *хаким, мудрость, пир, искатель, тарикат, суфизм.*

Annotation: this article analyzes the images of sages (hakims) in Alisher Navoi’s poem “Farhad and Shirin” and their role in the fate of the main hero. The study examines characters such as Suhaylo and Socrates not only as bearers of wisdom but also as mentors and spiritual guides (pirs) who lead Farhad to moral perfection. The article reveals the ideas of spiritual education, teacher-student relationships, and wisdom expressed through these images and defines their significance for Uzbek literary heritage and the development of contemporary spirituality.

Key words: *hakim (sage), wisdom, pir (spiritual guide), seeker, tariqah (spiritual path), Sufism.*

Kirish. O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan bo‘lgan Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi hakimlar siymosini o‘rganish, tahlil va talqin qilish muhim ilmiy masala hisoblanadi. Chunki bu obrazlar orqali boy ma’naviy-merosiy qadriyatlar ifodalangan. Bularni chuqur tahlil qilish natijasida zamonaviy va adolatli rahbar, komil inson g‘oyalari uchun qimmatli manbalar ochiladi. Zero, “Xamsa” dostonlarida ifodalangan har bir hakim obrazi bekorga kiritilmagan, ular o‘zlari ilohiy kamolot, hikmatga yetgan, boshqalarni ham komillikka yetaklovchi muhim vazifalarni bajaradilar. “Farhod va Shirin” dostonida hakimlarning ruhiy kamolot yo‘lidagi yetakchiligi, boshqalarni ham ma’rifat va fazilat yo‘liga yo‘naltiruvchi ustoz sifatidagi rollari – aynan shu jihatlarni ilmiy tahlil qilish mazkur maqolaning *yangiligi va o‘ziga xosligi*ni tashkil etadi.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlagan hakimlarning ruhiy-axloqiy jihatlari, ularning inson kamolotidagi yo‘lboshchilik vazifasini maqolamizda tahlil qilishni *maqsad* qildik. “Hakim” tushunchasining shunchaki “tabib” so‘zini anglatmasligi, “Farhod va Shirin” dostonidagi hakimlar obrazini tizimli o‘rganish, Navoiyning hakimlar siymosi orqali ifodalamoqchi bo‘lgan ma’rifiy g‘oyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishni esa maqolamizning oldida turgan *vazifa*laridan deb bildik.

Asosiy qism. *“Hakim”* so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, *“hukm qilish”, “hikmat”, “donolik”* degan ma’nolarni bildiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘z *“o‘tkir tabib”, “donishmand”, “faylasuf”* kabi ma’nolarda kelishi aytilgan. Mumtoz adabiyotga “hakim” obrazi islomiy-falsafiy adabiyot vositasida kirib kelgan. Hakimlar aql va hikmat orqali haqiqatga yetgan shaxslar deya talqin qilinadi. Islomning ilk bosqichlarida arab olimlari yunon olimlarining kitoblarini arab tiliga tarjima qilib, Aristotel, Gippokrat, Aflotun kabi yunon olimlarini hakim deb ataganlar. Ularning ilmiy va axloqiy qarashlari adabiyotga hikmat shaklida kirib kelgan. Hakimlik tasavvufda ma’rifat, ilohiy bilim va qalb pokligi bilan bog‘liq tushunchani anglatadi. Shayxlar va pirlar ham, ko‘pincha, hakim deb ta’riflanadi, chunki ular nafaqat diniy, balki ruhiy tarbiyada ham yetuk bo‘lganlar.

Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida hakimlar siymosiga alohida e’tibor berish bilan ilm va hikmat tushunchasini ilgari suradi, “Xamsa”sida hakim obrazlar orqali ilm, hikmat, aql-u donishni ulug‘laydi. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida (hukamo – hakim so‘zining ko‘pligi) nabiylar va hakimlar haqida ma’lumot beradi.

“Farhod va Shirin” dostonining bosh qahramoni Farhod o‘zbek folkloridan yetishib chiqqan obraz hisoblanadi. Navoiy Farhodni komil inson sifatida gavdalantirgani, komil inson haqidagi tasavvurlarini Farhodga jo etgani barchamizga ayon. Komillikka esa osonlik bilan erishilmaydi. Farhodning kamoloti yo‘lida u uchun homiy obrazlar bo‘lishi tabiiy hol. Bunday homiylarning eng faoli, yetakchisi Suqrot komil inson ramzi bo‘lsa, keyingisi Xizr va Suhaylo obrazlari hisoblanadi.

Dostonda Farhod otasining xazinasini ko‘rayotganida Iskandar yasatgan tilsim ko‘zguni ko‘radi. Qancha urinmasin, shahzoda ham, saroy hakimlari ham uning tilsimini yecha olmaydilar. Shunda shahzoda, xoqon va vazir Mulkoro yunon zamiriga yurish qiladilar. Navoiy yunon mulkining har bir tosh-u g‘ishti hikmatdan deb tasvirlaydi:

Ki, Yunon mulki ul farxunda kishvar,
Ki, hikmat birla tortib zeb-u zevar [5: 124].

Bu ko‘zguning tilsimini yechish uchun Farhodga Suhaylo va Suqrot kabi hakimlar ustozlik, yo‘lboshchilik qilishadi.

Suhaylo hakim haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu ism, ya’ni Suhayl astronomiyadagi Konopus nomli yorug‘ yulduz nomidan olingan. “O‘rta asr munajjimlari bu yulduz uni ko‘rgan kishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi, deb biladilar” [6: 162]. Suhaylo hakimga Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida to‘xtalmagan. Dostondagi tilsim ko‘zgu sirini ocholmay Yunonistonga borgan Farhod dastlab Suhayloga uchraydi. Suhaylo Farhodning kelishini avvaldan bilganini, 500 yildan buyon kutayotganini aytib, bir qator nasihatlar qiladi. Tilsim ko‘zgu sirini bevosita o‘zi ochib bermaydi, sirni Suqrot hakim bilishini, uning qoshiga borish uchun uch xatardan o‘tish darkor ekanligini aytadi. Xatar va mashaqqatlarni yengib o‘tish uchun maslahatlar beradi, qo‘liga Samandar yog‘ini tutqazadi, bilmaganlarini o‘rgatib, jonini Alloh taologa topshiradi.

Bu obrazni Farhodning birinchi homiysi, xaloskori deb atash bilan birga, professor N.Komilov ta’biri bilan aytganda, uning ilk piri, deb atashimiz ham joiz. Ya’ni dostondagi Farhod kamolotga erishayotgan tolib, soliki majzub bo‘lgani holda, Suhaylo uning tariqatdagi birinchi piridir [2: 134].

Haqiqatan ham, tariqatdagi pirlar o‘z murshidlarini o‘z ma’naviy bilimlari yetguncha qadar tarbiyalab, o‘zlarining darajalariga yetkazadilar, keyin uni ularni o‘zlaridan kuchli pirga tavsiya etadilar. Bu holni tasavvuf va so‘fiylar hayotiga oid ko‘p jabhalarda kuzatganmiz. Farhodning Suhaylo bilan to‘qnashishi bejiz keltirilmagan. Farhod bora solib Suqrotga duch kelishi ham mumkin edi, deyishingiz mumkin. Bunda Navoiyning ma’naviy dunyoqarashi ko‘rinadi, ya’ni tariqat yo‘liga kirgan solik Haqqa osonlik bilan yetib bormaydi, Haqqa yo‘llovchi buyuk murabbiyga ham riyozat chekib, nafsini tarbiyalaganidan so‘ng yo‘liqadi. Bizningcha, Navoiy ana shu g‘oyani singdirmoqchi bo‘lgan.

Alisher Navoiy Suqrot obrazini ilk bor boshqa asarlarida emas, “Farhod va Shirin”da qo‘llaydi. “Tarixi anbiyo va hukamo”da Navoiy Suqrot haqida shunday yozadi: “Suqrot hakim Buqrotisning shogirdidur va Humoy binti Bahman

zamonida erdi. Va aning so‘zlaridindurkim, nodong‘a tavozu’ qilmoq hanzalg‘a suv bermakdurkim, necha ko‘p ichsa, talxroq bo‘lur. Sa’y ishkim, o‘z yerinda bo‘lmag‘ay, qilur ishda kohillikdin yomonroqdur va dushman bila mashvarat qilib va dushmanlig‘in bilsa bo‘lurkim, ne poyadadur.

She’r:

Cheksa dushman sening salohingga til,
Mahzi afsod bo‘lg‘usidir bil [4: 192].

Navoiy Suqrotni insonlarning kimligini anglovchi sinchi sifatida talqin etadi. Suqrotga yetishish oson emasdi. Uning uchun Ahriman dev, ajdaho, sher va temir paykarlarni yengib o‘tish kerak edi. Farhod ushbu balolarni Suhayloning ko‘rsatmalaridan foydalanib yengib, Suqrot huzuriga yetishadi. Suqrot shunday deydi:

Bukim Haq ayladi insonni mavjud,
Anga mavjudliqdin borcha maqsud.

Erur Haq amrig‘a ma’mur bo‘lmoq,
Bu ishdan o‘zgadin ma’zur bo‘lmoq [5: 180].

Suqrot Farhodga ishq va inson, inson va iloh to‘g‘risidagi fikrlarini uqtirib, tiriklikning asosi Haqni anglamoqdir, deydi. Tasavvufshunos olim N.Komilovning fikricha, Suqrot timsolining asarga kiritilishi tasodifiy emas. Suqrotsiz Farhodning o‘z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Suqrot kamolot cho‘qqisini egallagan komil inson, o‘zi bir joyda o‘tirsa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Farhodda o‘z yo‘lining davomini ko‘rgani uchun uni o‘z farzandiday hurmatlab, suyadi [1: 63–64].

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”da ham Iskandarning botiniy ilmlar o‘rgatuvchi ustozi etib Suqrotni tanlaydi:

Taammul qilib borcha ahli ayon,
Dedilarki: “Suqrot qilsun bayon.

Kim, ul hikmat ahlining ustodidur,
Zamiri xirad hikmatobodidur” [3: 486].

“Farhod va Shirin”da ham shoir mana shu haqiqatga asoslanib, aql va donishmandlikning negizi, hikmat sarchashmasining moviy dengizi Suqrotni komillikka da’vogar solik Farhodning ustozi, piri etib tanlagan.

Alisher Navoiy ijodida boshqa yunon donishmand va hakim obrazlari ham faol ishtirok etgan bo‘lib, ular hikmat, kamolot, ezgulik va bosh qahramonga homiylik vazifalarini bajarganlar. Bunday hodisani biz, asosan, “Xamsa” asarida ham “Tarixi anbiyo va hukamo” risolasida ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida hakim obrazlarni nafaqat dono shaxslar sifatida, balki inson ruhini tarbiyalovchi va kamolot yo‘liga yo‘lboshchi murabbiylar sifatida gavdalantiradi. Suhaylo va Suqrot kabi hakimlar Farhodga nafaqat tilsim ko‘zguning sirini ochish yo‘lini, balki hayotning ma’naviy sirlarini, sabr-toqatni, nafsni zabt etishni va Haq yo‘lidagi to‘g‘ri sulukni o‘rgatadi. Bu obrazlar orqali Navoiy shuni tushuntiradi: haqiqiy bilim va kamolotga erishish oson emas; bu yo‘l mashaqqat, izlanish va dono ustozlarning rahnamoligini talab qiladi. Hakimlar bu yo‘lda yo‘naltiruvchi nur, ularning hikmati nafaqat o‘zlari uchun, balki butun jamiyat va kelajak avlodlar uchun ma’naviy boylikdir. Navoiyning bu g‘oyasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, zamonaviy ta’lim-tarbiyada ham ustozning rolini, shuningdek, bilim va donolikning insoniyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini anglatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комилов Н. Суқрот – комил инсон тимсоли. / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. – Т.: Тамаддун, 2021. Ж. 11.
2. Комилов Н. Тасаввуф, – Т.: Мовароуннаҳр, 2009. – 448 b.
3. Навоий А. Садди Искандарий. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 2000. Т.11. – 340 b.
4. Навоий А. Тарихи анбиё ва ҳукамо. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 2000. Т.16. – 336 b.
5. Навоий А. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 2000. Т.8. – 354 b.
6. Mamadaliyeva Z. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi. Filol. fanlari doktori (DSc) diss. – T., 2025. – 241 b.
7. https://izoh.uz/word/

Go‘zal OMONOVA,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi
kafedrasi magistranti
gozalomonova284@gmail.com

NAZAR ESHONQULNING “MOMOQO‘SHIQ” ASARIDAGI UMUMINSONIYLIK VA MILLIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasi poetikasi, yozuvchining badiiy detallardan foydalanishdagi o‘ziga xos yondashuvi, qissa qahramonlarining milliy xarakteri va umuminsoniy qadriyatlar, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari o‘rtasidagi kurashlar, orzu-umidlar ro‘yobi uchun qilingan harakatlar va insonning o‘zligini anglashining juda muhimligi kabi jihatlar ochib berilgan. Nazar Eshonqul qahramonlari hayotiyligini ta’minlaydigan unsurlar, ularning vaziyatlar doirasidagi xatti-harakatlari asoslangan. Milliy xarakter yaratishda detallarning va hayotiy tavsilotlarning o‘rni o‘rganilgan. Qahramonlar orasidagi konfilikt esa muammolarning yechimini topishga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: *milliylik, qadriyatlar, ummuminsoniy xarakter, ichki kechinma.*

Аннотация: в данной статье раскрываются поэтика повести Назара Эшонкула «Момокўшиқ», своеобразие подхода писателя к использованию художественных деталей, национальный характер и общечеловеческие ценности героев, душевные переживания и борьба между чувствами персонажей, их действия ради осуществления мечты и надежды, а также важность самопознания человека. Персонажи Назара Эшонкула основаны на элементах, обеспечивающих жизненность героев, и их поступках в рамках определенных ситуаций. Исследуется роль деталей и жизненных подробностей в создании национального характера. Конфликт между персонажами служит разрешению проблем.

Ключевые слова: *национальное своеобразие, ценности, общечеловеческий характер, внутренние переживания.*

Annotation: this article explores the poetics of Nazar Eshonqul’s novella “Momoqo’shiq,” shedding light on aspects such as the writer’s unique approach to the use of artistic details, the national character and universal values of the story’s protagonists, the psychological experiences and emotional struggles of the characters, their actions to fulfill dreams and hopes, and the profound importance of self-awareness. The characters of Nazar Eshonqul are built upon elements that lend them vitality and are grounded in their actions within specific situations. The role of details and lifelike particulars in shaping national character has been examined. Conflicts among the characters serve to uncover and resolve underlying problems.

Key words: *national character, values, universal character, inner experience.*

Milliy xarakter va milliy qadriyatlar bugungi kun asarlarining dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Ma’lum toifadagi yozuvchilar ijod namumasida bu masala yaqqol sezilmasada, ammo ba’zi motiv va detallar orqali buni anglashimiz mumkin. Nazar Eshonqul ijodiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, bugungi kunda yozuvchi jahon adabiyotining eng nodir namunalarini puxta o‘rganib o‘zi ham boy meros qoldirmoqda. Ijodkorning asarlarida g‘arb adabiyotining ta’siri sezilib tursada, uslubining o‘ziga xosligi, inson ichki dunyosiga bo‘lgan e’tibor bilan bir o‘rinda milliylik, milliy xarakter, umuminsoniylik o‘z o‘rnini yo‘qotmadi. Bugungi kunda ayrimlar ijodkorni “jahon adabiyotiga ixlos qo‘ygan, hayotiy voqeani boricha yozadigan realist, milliylikdan uzoqda bo‘lgan asarlarida g‘arb ohangi sezilib turadi’’ deyishlari mumkin, ammo ko‘plab ijod namunalarida reallik va inson kechinmalari asosiy o‘rinda bo‘lsada, qahramonlar qalbidagi milliylik, qadr-qimmat, oilaga, yaqinlariga sadoqat, urf-odatlariga bo‘lgan hurmat, mehr-oqibat, ibo-hayo, bag‘rikenglik, oq ko‘ngillilik milliy xarakter timsollarida namoyon bo‘ladi. Bunga misol tariqasida “Momoqo‘shiq” qissasidagi Muazzam va Otaqulni ko‘rishimiz mumkin. Albatta, asardagi qahramonlarga e’tibor qaratishdan oldin, milliy xarakter tushunchasiga diqqatimizni qaratmog‘imiz darkor.

Milliy xarakter birinchi navbatda xalqni o‘zida namoyon etadi. U ommaviy kuch sifatida individual xarakterlarning umumiy bo‘lgan hislarini ijtimoiy jihatdan qayta ishlanib yangi maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo‘ladi. Aynan birgina qahramon orqali kitobxon butun boshli xalqni

ko‘z oldida gavdalantirishi mumkin. Milliy xarakter o‘zgarmas narsa emas.U tarix mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan ham u ma’lum darajada o‘zgaradi, hatto bir ijtimoiy tizimning o‘zida ham ayrim xislatlarni paydo qilib turishi mumkin[1]. Milliy xarakter tushunchasi, albatta, xalqlarning yashash tarsi, etnik tarkibi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Har bir xalqning mehnatsevarligi turli ko‘rinishda kechadi. Masalan, o‘zbeklarda dehqonchilik, bog‘bonchilikda namoyon bo‘lsa, qozoqlarda chorvachilikda namoyon bo‘ladi. Misol tariqasida Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi Dehqonqul yoki Said Ahmadning “Ufq” romanidagi Ikromjonni olish mumkin. Dehqonqul o‘zbek xalqining sodda mehnatkash, mehmondo‘st har bir ishini sidqi dildan bajaradigan, suyagi mehnatda qotgan bir timsoli hisoblanadi.

Asar mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qissa shahardan shoir-yozuvchilar kabi ko‘plab san’at vakillari va davlat xodimlarining paxta terimi mavsumida qishloqqa yordam berishga kelishgani bilan boshlanadi. Ular orasida Shamsi Saloh ham bor edi. Bir kuni u do‘stlari bilan dalani aylanib yurarkan, daraxtzor orasidagi chayla yonida Muazzamning butun olamni chulg‘ab olgan shirali ovozini eshitib qoladi. Atrof Shamsi Saloh ta’biri bilan aytganda “achinarli, jirkanch” bo‘lsada Muazzamning kuyi hamma nuqsonlarni berkitib ketgandek, bu kuzatib turganlar bilan birga butun tabiat uning kuyi ohangida mast bo‘layotgandek go‘yo. Muazzam kuylayotganda tasvirlangan tabiat tasviri, ko‘rimsiz chayla va yulduzli kecha qahramonlarning ichki kechinmalarini to‘ldirgan detal hisoblanadi. Uning nazdida bu “tutqunlikdagi qo‘shiq ilohasi” bu yerda juda baxtsiz go‘yo turmush o‘rtog‘i Otaqul uni zanjirsiz bog‘lab qo‘ygan, Muazzam ozod bo‘lishni istaydi, ammo yo‘l topolmayotgandek. Natijada Shamsi Saloh bu niholni bu joylardan qutqarish kerakligini o‘z vazifasi deb biladi. Otaqulning keng yelkalari, zabardast bilaklari, hayot tashvishlaridan qavarib ketgan bahaybayt kaftlari go‘yo fikrining tasdiqi edi. O‘z nazdida u: “Xa, bularning hammasi yovvoyi. Qiziq qanday yasharkin, bunday zerikarli maqsadlar bola boq, sigir sog‘, qo‘shnini tovug‘ini hayda, uy suva, o‘tin g‘amla… men bunday turmushda tars yorilib ketardim ” [2], – deb o‘ylardi.

Shamsi Saloh bilan bo‘lgan suhbatda Otaqulning sukut saqlashi, jahli chiqqani yuz ifodasidan bilinsada, buni bildirmaslikga harakat qilgani bir-ikki savol bilan chegaralanib chiqib ketgani uning xarakteristikasini ochib berishga xizmat qilgan. Aynan Otaqul o‘zbek milliy xarakterining timsoli hisoblanadi. U o‘qimishli, ammo hamma qatori umrini qishlog‘iga bag‘ishlagan, o‘sha davr barcha qishloq erkaklari kabi umri paxta dalasida o‘tadigan oilasiga ishiga mas’uliyat bilan qaraydigan erkak timsolidir. Bunga javoban Otaqulning Shamsi Salohga yozgan javob maktubi oddiy, qishloqning sodda insoni bo‘lsada, mulohazali, aqlliligi ayolning qadr-qimmatini bilishi yaqqol seziladi.

“Hurmatli…ga. Men siz haqingizda juda ko‘p o‘yladim. Bilishimcha, siz Muazzamni mutlaqo tushunmabsiz. Men qaytarib aytaman siz uni bilmaysiz. U hech qachon baxtsiz emas va hech qachon siz kabi turmush haqida, hayot haqida siz kabi esnab gapirmaydi. U qo‘shiq aytishni yaxshi ko‘radi. Buni men ham bilaman, lekin o‘zi yoqtirmagan ishni qilishga o‘rganmagan. Men uning o‘zi bilan ham gaplashdim, bu yerlarni tashlab ketishga hech ham rozi emas. Biz, har qalay, bir-birimizni yoqtirib turmush qurganmiz, men qishloqni tashlab ketolmaganim kabi, u ham meni tashlab ketolmaydi. Men uni tushunadigan yagona erkak ekanligimdan faxrlanaman va u ham meni tushunadi deb o‘ylayman. Mabodo gaplarimga shubha qilsangiz, uning o‘zi bilan gaplashing. Men unchalik gapga usta emasman va umrimda juda kam kitob o‘qiganman, lekin xatimning oxirida sizga shuni aytmoqchimanki, siz hali bu xalqni bilmas ekansiz. U homiylikka muhtoj emas….U sizning muruvvatingizsiz ham buyukdir….” [3]

Bu maktub orqali Otaqulning Muazzamga bo‘lgan munosabati va muhabbati

ochiqlanadi. Otaqul orqali yozuvchi umummilliy xarakterni gavdalantirgan mard-jasur o‘zbek yigitlari timsolini ko‘rsatib bergan.Bu xarakter oliy ma’lumotli bo‘lsada, juda bilimli emas, ammo o‘ta mulohazali, tadbirli hayoti chaylada qishloq yumushlari, paxta ishlari bilan o‘tayotgan bo‘lsada, ammo qalb ko‘zi ko‘r emas.U har qanday masalada ayolini tushuna oladi, seva oladi. Zotan o‘zbeklar asrlar davomida xalqim deb yashaydigan umrini bir parcha yerga, paxtaga bag‘ishlagan qiyinchilikda yashasada, sabr-toqat bilan hayot bilan kurashadigan insonlardir.

Bir necha kundan keyin Shamsi Salohning Muazzam bilan bo‘lgan suhbati yana diqqatimizni tortadi.

– Axir o‘zingiz aytgan edingizku…

– Ha aytgan edim… lekin meni erimdan, oilamdan ajrating, erimni haqorat qiling demadim. Men hech qayoqqa ketmayman. Men qiyin deb o‘zimni emas, barcha qishloq ayollarini aytgandim. Lekin hech qachon men baxtsizman demaganman.

1 Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.–T.: Akademnash,2018. 89-bet
2 Nazar Eshonqul. “Saylanma”.–T.: Akademnashr,2022. 92-bet
3 Nazar Eshonqul. “Saylanma”. –T.: Akademnashr,2022. 127-bet

San’atkor bo‘lishni istadim to‘g‘ri, ammo men erimga bo‘ysunishim kerak, men erimning izmidagi ayolman. U bir necha marta agar istasang bor, men senga qarshilik qilmayman dedi, ammo yo‘q men oilam oldidagi burchimni bajarishim kerak. Bizning yelkamizga ham biror kun oftob tegar, biz o‘qimasak farzandlarimiz o‘qir hamisha shu holda bo‘lmasmiz[4]. Shamsi Saloh biroz qotib qoldi. O‘sha go‘zal ayol o‘rnini o‘zini baxtsizligini shallaqilik bilan yopadigan fahm-farosatsiz ayol egalladi[5].

Muazzam oilaga sadoqatli, ibo-hayosi, hamisha ayollik vazifasini unutmaydigan, og‘ir sharoitda yashasada, o‘z vazifasini tushunadigan oilasi uchun barcha xohish-istaklaridan voz kechadigan mard, jasur ayollarning milliy xarakteri timsolida gavdalantirilgan. Zero, o‘zbek ayollari umrini qiyinchilikda o‘tkazsada, ammo hech qachon oilasidan, farzandidan voz kechmaydi.Bir yilda bir kiyimlik olmasada, tovonlari yorilgan holda butun umri qora mehnatda o‘tsada, doimo yaqinlariga sodiq qolishadi. Muazzam obrazi orqali hayotdagi haqiqiy baxt nimada ekanligini anglagan o‘zbek ayoli yozuvchi tomonidan mukammal tarzda ochib berilgan.

Shu o‘rinda Shamsi Saloh bilan Otaqul orasidagi o‘zgachalik nafaqat ichki, balki tashqi ko‘rinishlarida ham yer va osmondek farq qilishi o‘z ahamiyatiga ega. Otaqulning gavdali, hayot chig‘irig‘ida chiniqqan tanasi uning xarakterini ochib bergan bo‘lsa, Shamsi Salohning ingichka barmoqlariyu ozg‘in tanasi uning obrazini to‘la ochib berilishiga sabab bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shamsi Salohga Muazzamning kuyi bu qadar ta’sir qilishining sababi unga unut bo‘lib ketgan. 17 yil davomida bir marotaba ham eslamagan, ammo qalbining tub-tubida qolib ketgan momosi bilan tog‘-toshlarda yurgani, momosining yalang oyoq tayoqqa suyangan holda xira tovushda sokin qo‘shiq kuylab uzoq-uzoqlarga mungli ko‘z yoshlar bilan boqqani yuragidan o‘z izini yo‘qotmagani uchundir. Asar so‘ngida Muazzamning sigir sog‘ayotib ota-bobolardan qolgan qo‘shiqni kuylashi va bu kuy butun borliqni sehrli ohangi bilan chulg‘ab olgani, go‘yo tabiat unga jo‘r bo‘layotganidagi holati ham Shamsi Saloh qalbini larzaga keltiradi. Bu tasvir orqali yozuvchi qadriyatlar va folklorizmning insonlar ruhiga nechog‘lik ta’sir eta olishini ochib bera olgan. Inson qanchalik harakat qilmasin hech qachon urf-odatlardan, qon-qoniga singib ketgan milliyligidan voz kecha olmasligi, vaqti kelganda hammasini unutsada bir kun, albatta, o‘sha nuqtaga qaytib kelishi ta’kidlangan. Zotan inson yashar ekan umrining so‘ngiga qadar insoniylik tamoyillariga asoslangan holda yashashga harakat qiladi. Bu asarda ham ichki hissiyotlar insonning qalbi va ongi orasidagi konfiliktlar, taqdirlar va yashash tarzlari orasidagi nomutanosibliklarga qaramasdan asosiy omil sifatida insonning o‘zligini yo‘qotmasligi kerakligi asosiy maqsad sifatida namoyon bo‘lgan. Asarning “Momoqo‘shiq” deb nomlanishi ham asar mohiyatini anglashga xizmat qilgan simvoldir.

Umuman olganda, Nazar Eshonqulning har bir “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Yalpiz hidi”,” Farishta” “ Tun panjaralari” kabi har bir asari o‘zining o‘zgachaligi jahon adabiyotining ta’siri bilan birga milliylikni o‘zida mujassam etganligi kitobxonni e’tiborsiz qoldirmaydi. Ijodkorning asarlarini o‘qir ekansiz, hayotda inson va olam orasidagi ko‘z ilg‘amaydigan bog‘liqlikning o‘zgacha ko‘rinishini kuzatasiz. Bu kabi asarlar, albatta, har bir kitobxonni o‘ziga chorlaydi.

4 Nazar Eshonqul. “Saylanma”.– T.: Akademnashr,2022. 132-bet
5 Nazar Eshonqul. “Saylanma”.– T.: Akademnashr,2022. 133-bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov H. Qahramoning ma’naviy olami va epiklik.–T.: “Fan”, 1995.
2. Adabiyot nazariyasi 2 jildlik. Adabiy asar. Jild1.–T.: Fan, 2001.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.–T.: Akademnashr, 2018.
4. Nazar Eshonqul. “Saylanma”.–T.: Akademnashr, 2022.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Фрейд. З. Писохология бессознателъного. М.: «Олимп». 1989
2. Фрейд. З. Сон и сновения. – М.: « Олимп» 1997
3. Rahimov Z. Ko‘hna dunyo poetikasi. –Farg‘ona, 2005.
4. Rasulov A. Badiiylik–bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar.–T.: “Sharq”, 2007.
5. Jo‘rayev T. Ong oqimi-modern.–Farg‘ona: “Farg‘ona”, 2009.
6. Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari.–T.: “Kamalak”, 2016.

Muxlisa ASHIRMATOVA,
Qarshi davlat universiteti Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi magistranti

SHOIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA FOJIA MOTIVI

Annotatsiya: ushbu Shoim Bo‘tayev hayot yo‘li, uning ijodi va asosan hikoyalari, ulardagi hozirgi kunda ham muhim sanalayotgan ijtimoiy mavzular, ikkiyuzlamachilik, yo‘lg‘on, riyo, shuhratparastlik kabi mavzular fojia motivi orqali yortilib berilgan.

Kalit so‘zlar: *novator, fojia, riyo, shuhratparastlik, vafo, sadoqat, qarz.*

Annotation: this story explores Shoim Butaev’s life path, his work and mainly his stories, and the social themes that are still important today, such as hypocrisy, deceit, hypocrisy, and ambition, through the motif of tragedy.

Key words: *innovator, tragedy, hypocrisy, ambition, loyalty, devotion, debt.*

Аннотация: в данной работе рассматриваются жизненный путь Шоима Ботаева, его творчество и, главным образом, его рассказы, в которых через мотив трагедии раскрываются и по сей день актуальные социальные темы, такие как двуличие, ложь, лицемерие, стремление к славе.

Ключевые слова: *новатор, трагедия, лицемерие, стремление к славе, верность, преданность, долг.*

XX asr boshlaridagi adabiyot o‘zining “Novator” adiblar yetishtirib berganligi bilan alohida ahamiyatga molik. “Novator” so‘zi yangilik yaratuvchi degan ma’noni bildirib, bu asrda yozilgan asarlarda qandaydir qahramonlik ko‘rsatgan, yoki jamiyatda alohida ahamiyat kasb etgan qahramonlar yetakchilik qilmaydi. Asar bosh qahramonlari shunchaki oddiy insonlar hisoblanib, asar mohiyatining tub zamirida insoniylik bosh mavzu hisoblanadi. O‘zbek adabiyotida shunday adiblar borki, ular o‘zining ijodi bilan adabiyotshunoslik olamida yetarlicha o‘rin egallaganlar. Tog‘ay Murod, Shoim Bo‘tayev, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi adabiyot vakillari mana shunday “Novator” ijodkorlar hisoblanadi.

Shulardan o‘zbek adabiyotining mashhur vakillaridan biri Shoim Bo‘tayev haqida gaplashsak. U yozuvchi, jurnalist, ssenaristdir. Adib 1959-yil 20-iyunda Tojikiston Respublikasining O‘ratepa tumanida, Maydoncha qishlog‘ida tug‘ilgan. Ijodkorning adabiy faoliyati 1984-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan “Sirli yulduzlar” nomli ilk qissasidan boshlangan. Shundan so‘ng uning “Dunyoning sarhisobi bor”, “Endi bari boshqacha”, “Shamol o‘yini”, “Qo‘rg‘onlangan oy”, “Shox”, “Sho‘rodan qolgan odamlar” kabi qissa va roman hikoyalari chop etilgan. Yozuvchining asarlari bir qator tillarga, jumladan, nemis, rus, ingliz, tojik tillariga tarjima qilingan. [1]

Umuman, adib ijodi o‘zining milliyligi, falsafiy mushohadalarga boyligi, insoniy qadriyatlarga e’tibori, xalqchiligi bilan ajralib turadi. Asarlaridagi asosiy mavzular: milliy qadriyatlar va ur-odatlar; insoniylik va ruhiy iztiroblar; zamonaviy jamiyat muammolari; inson ichki ruhiyatida fojia tasviri hisoblanadi. Shoim Bo‘tayev uslubi esa oddiy xalqona tilda yozilishi, syujetlari hayotga yaqinligi, qahramonlari oddiy insonlar, lekin murakkab ichki dunyoga ega ekanligi, muammoli voqealar orqali falsafiy fikrlar berishi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchi ijodini o‘rganar ekanmiz, asarlarda fojia tasviri katta o‘rin egallashining guvohi bo‘lamiz.

Bo‘tayev fojiani insonning ichki kechinmalari orqali ochib beradi. Uning qahramonlari ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan moslasha olmaydi. O‘z e’tiqodi vijdoni hayotga qarashi sababli azob chekadi. Bu iztirob ichki konfilikt asarning asosiy dramatik kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyalarda ko‘pincha fojia oddiy insonlar (dehqon, muallim, ishchi) hayotiy adolatsizlik sevgi fojiasi yoki oila muammolari sababli ruhiy tushkunlikka tushadi. Bu fojia ko‘pincha jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar, qadriyatlar, yemirilishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adibning “Qarz” hikoyasiga e’tibor qaratsak, hikoya o‘zbek adabiyotidagi insoniy munosabatlarning murakkabligini jamiyatlarda stereotiplarni va ijtimoiy ta’sirlarni chuqur tahlil qiluvchi asar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu hikoya orqali yozuvchi inson qalbidagi olamni, uning ichki kechinmalarini va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarni o‘quvchiga yetkazadi. Hikoya talaba bo‘lgan yigitning ta’tilni o‘z qishlog‘ida o‘tkazishga qaror qilishi bilan boshlanadi. Voqealar rivojida Tolik ismli qishloq yigiti undan ming so‘m qarz so‘raydi . Talaba yigit darhol unga ming so‘mni beradi, chunki insonlarga og‘ir paytda yordam qo‘lini cho‘zish eng muhim insoniy sifatlardan biri deb o‘ylaydi. U qishloqdagi oddiy odamlar bilan muloqotda

bo‘lish orqali u o‘zining shahar va qishloq orasidagi tafovutlarni insonlarning turli ijtimoiy qatlamlarga bo‘lgan munosabatlarini sezadi. Aynan sotuvchining Tolikka bo‘lgan munosabati buning yorqin dalilidir. Hikoya yakunida esa yozuvchi asosiy maqsadini yoritadi. Talaba yigitdan qarz olgan Tolik yigitni oylab qidiradi, ammo topolmay xunob bo‘lib yuradi. Bir kuni uni ko‘chada uchratib qolib, olgan ming so‘m qarzini beradi. Uning qarzidan qutulgan paytdagi holatini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: ”Tolik jilmaydi. Uning jilmayishida o‘zinini ketma-ket kunlar, haftalar, oylar mobaynida qiynab kelgan mushkulotlardan forig‘ bo‘lganining quvonchi mujassam edi. Talaba boshqa tomonga yuz burdi, uning ko‘zlari jiqqa yosh edi.”[2] Asarning asosiy mazmuni talaba, Tolik, sotuvchi obrazlari orqali yoritilgan. Tolik obrazi orqali yozuvchi mas’uliyat, burch va sadoqat kabi tuyg‘ular ochib berilgan bo‘lsa, talaba obrazida ishonch va mehr tuyg‘ulari yashirin. Sotuvchi obraziga kelsak, bu obrazda soxtalik, laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar fosh bo‘ladi. Shoim Bo‘tayevning “Qarz” hikoyasi inson qalbidagi olamni, uning ichki kechinmalarini va jamiyat bilan bog‘liq munosabatlarini chuqur tahlil qiluvchi asar sifatida o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi bu asar orqali o‘quvchiga insoniyatning murakkabligini, uning ruhiy holatini va jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Tolikdagi insoniy xislatlar O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” hikoyasidagi Sarsonboy otadagi xususiyatlarni eslatadi.[3] Har ikkala obrazda ham birovning haqqiga sodiqlik, mas’uliyat sifatlari mujassam.

Shoim Bo‘tayevning keyingi “Otamga nima bo‘ldi’” hikoyasi o‘zbek adabiyotida ijtimoiy, tanqidiy va psixologik jihatdan chuqur asar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu hikoya orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, o‘z manfaatlarini ustun qo‘yish va insoniy qadriyatlarning yemirilishini o‘quvchiga taqdim etadi. Hikoyada ota va bola o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, oilaviy muammolar, insonning ichki iztiroblari va ularning tashqi qiyofasi yoritilgan. Otaning jimligi bolaning savollariga sabab bo‘ladi va bu orqali ichki muloqotsizlik paydo bo‘ladi, jimlik ota uchun qattiq dard, bola uchun esa tushunarsiz holat. Shu sababli ham ota va bola o‘rtasida muloqotsizlik paydo bo‘ladi. Asar mazmuni asosan Xidir buva va ota suhbatidan iborat bo‘lib, Xidir buva obrazi orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachi, o‘zini urushda qatnashganman deb mashina va boshqa katta yutuqlar olvolgan soxta shaxslar qiyofasi ochib berilgan. U jamiyatdagi adolatsizliklarga, yolg‘onlarga jim qarab turolmagan, insoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Lekin urushning asl qiyinchiliklarini, mashaqqatlarini urushda qatnashgan insonlar biladi. Mana nega ota bunchalar jim, mana nega ota bunchalar xayolchan? Chunki urush xotiralari otani jim qolishga undaydi. Asar yakunida otasining ham mehnatlari hukumat tomonidan e’tirof etilganligi qayd etiladi: ”Otamning nomiga kelgan telegramma: “Hurmatli quroldosh do‘stimiz Iso Odilovich! sizni 19-tepalikni egallashda aktiv qatnashganligiz uchun taqdirlash ba’zi sabablarga ko‘ra topshirilmay qolganligi uchun topshirilmay qolgan “Qizil Yulduz” medalingizni olish tantanasiga taklif etamiz.” Harflar orasidan nimadurlar chiqib ko‘zlarimga qadaladi.....”[4]

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Shoim Bo‘tayev hikoyalarida fojia motivi oddiy sodda voqealar motivida yoritiladi. Hikoyalarda jasorat muhabbat, sadoqat kabi yuksak tuyg‘ularning jamiyatdagi qoloqlik, loqaydlik, adolatsizlik bilan to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelgan fojiaviy holatlar o‘quvchini chuqur o‘ylantiradi. Maqolamizni Shoim Bo‘tayevning o‘z asarlari haqida, umuman, adabiyot haqidagi fikrlari bilan yakunlasak: “Fikrlarimni bugungi zamonaviy adabiyot haqida emas yozayotyan yangi asarlarim band etgani uchun bu haqida hech narsa deya olmayman. Yosh kitobxonlarga esa shunday deb qolaman, insonning qalbida koinot qadar cheksiz olam bor. Bu olam santimetrma-santimetr zabt etiladi. Bu olamni har birimiz qo‘riqligicha qoldirmasligimiz kerak deb o‘ylayman.”[5]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Mirvaliyev, R. Shokirova “o‘zbek adiblar” g‘afur g‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. toshkent. 2016-yil.
2. htpps\\kh-davron.uz\kutubxonasi\.
3. Adabiyot darsligi, 6-sinf I qisim. 2015.
4. www.ziyo.com.kutubxonasi.
5. Bekajon gazetasi. “Inson qalbidagi olam” jurnalist Umid Ali bilan suhbatidan.2007-yil, 57-son.

Madina BAHRIDDINOVA,
SamDU magistranti.

JUMAGUL SUVONOVA SHE'RIYATIDA OKSYUMORONLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada uslubiy figuralarning badiiy adabiyotda kam uchraydigan turlaridan biri bo'lgan oksyumoron, uning yasalishi, uslubiy imkoniyatlari va poetik ta'sirchanligi xususida so'z yuritiladi. Shoira Jumagul Suvonova she'riyatida qo'llangan oksyumoronlar misollar asosida tahlil etiladi va ijodkorning so'z qo'llash mahorati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, lingvopoetika, uslubiy figura, oksyumoron, oksyumoronli birikma, poetik individuallik.*

Аннотация: в данной статье рассматривается оксюморон, один из редких видов стилистических фигур в художественной литературе, его построение, стилистические возможности и поэтическое воздействие. Оксюмороны, использованные в поэзии поэтессы Джумагуль Сувоновой, анализируются на основе примеров и изучается мастерство использования слов автором.

Ключевые слова: *художественная литература, лингвопоэтика, стилистическая фигура, оксюморон, оксюморонное сочетание, поэтическая индивидуальность.*

Annotation: this article examines the oxymoron, one of the rare types of stylistic figures in literature, its construction, stylistic possibilities, and poetic impact. Oxymorons used in the poetry of Jumagul Suvonova are analyzed based on examples and the author's skill in using words is studied.

Key words: *fiction, linguopoetics, stylistic figure, oxymoron, oxymoronic combination, poetic individuality.*

Badiiy adabiyotda so'zning emotsional-ekspressivligi, shuningdek, ijodkorning so'z qo'llash mahorati va o'ziga xos uslubini ko'rsatib beruvchi soha lingvopoetika hisoblanadi. Bugungi kunda badiiy asar tilini lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganish tilshunoslar zimmasidagi muhim vazifa bo'lib kelmoqda. Shu bois, tadqiqotchilar tomonidan badiiy matnni poetik va lingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq etish kundan kunga rivoj topib bormoqda.

Badiiy asarlarning lingvopoetik tahlili jarayonida haqida so'z yuritar ekanmiz, stilistik figuralarni so'z qo'llashning sehrli kalitlari deya olamiz. Har bir shoir, yozuvchi o'z asarida hech bir ijodkor tomonidan takrorlanmagan so'z va tasvirlarni ifodalashga harakat qiladi. Shu sababdan badiiy matn o'quvchiga hissiy emotsiya, badiiy ta'sirchanlik, obrazli ta'sir kuchini beradi. Ushbu vositalar ijodkor mahoratining yorqin ko'zgusi ham bo'la oladi. Uslubiy figuralarni o'rganish har doim muhim, chunki bu orqali shoir va yozuvchilarning til imkoniyatlarini to'liq bilish, badiiy tafakkur olamini anglash, ifoda madaniyatidagi fikrlarning yangi qirralarini ochish mumkin.

Lingvopoetik tahlilda nihoyatda kam uchraydigan sintaktik figuralardan biri bu oksyumoron hisobla-nadi. Jahon tilshunosligida oksyumoron yuzasidan ko'plab ilmiy izlanishlar va dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, rus tilshunosligida E.A.Atayeva, L.I.Tatanova, E.G.Shestakova, N.V.Pavlovichlarning tadqiqotlari e'tiborga molikdir. O'zbek tilshunosligida ham oksyumoronning badiiy matndagi o'rni yuzasidan bajarilgan ilmiy ishlar mavjud. Ushbu ishlardan D.Zayniddinovaning "Rus va o'zbek tillarida g'ayriodatiy birikmalar" mav-zusidagi dissertatsiyasini keltirishimiz mumkin.

Dastlab o'zbek tilshunosligida oksyumoron haqida professor R.Qo'ng'urov o'zining "O'zbek tilining tasviriy vositalari" asarida asosli fikrlarini bildirgan. Shuningdek, S.Karimov ham "Badiiy uslub va tilining ifoda tasvir vositalari" o'quv qo'llanmasida o'zbek tilidagi badiiy tasvir vositalarining hozirgi bo'linishiga muvofiq oksyumoronni uslubiy figuralar qatoriga kiritadi. Badiiy matn tahlili yuzasida ilmiy tadqiqot olib borgan J.Lapasov, M.Yo'ldoshevlarning oksyumoron haqidagi umumiy ta'riflaridan kelib chiqib ushbu vositaning qarama-qarshi so'zlardan tuzilgan birikma sifatida qarashimiz mumkin.

X.Abdurahmonov hamda N.Mahmudovlar o‘zlarining “So‘z estetikasi” asarida oksyumoronni shartli ravishda “g‘ayriodatiy birikmalar” deb ataydilar. Haqiqatdan ham oksyumoron boshqa uslubiy figuralardan yangiligi, ijodkor tomonidan aynan shu vaqt uchun, shu daqiqada yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” monografiyasida Usmon Azim she’riyatidagi *muz* va *olov* so‘zlari ziddiyatiga asoslangan oksyumoronlarning poetik individualligi yoritilgan.

“Badiiy adabiyotning tabiatida mantiqiy tushunchalar bilan izohlab bo‘lmaydigan, sirli, aqlga sig‘maydigan, odatiy aloqa-aralashuvlarining qonunlariga mos kelavermaydigan va ko‘p hollarda g‘ayrishuuriy va intuitiv anglash talab etiladigan jihatlar mavjud” [15:22], – deya mualliflar badiiy adabiyotga bergan ta’riflari qaysidir ma’noda oksyumoron uchun tegishlidek. Shuningdek, adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atida quyidagicha izohlanadi: “Oksyumoron grekcha “oxymoron” – zakiy nodon so‘zidan olingan. Badiiy ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, tarkibidagi qarama-qarshi ma’noli tushunchalar yangi bir kutilmagan ma’noni keltirib chiqaradi. Oksyumorondagi mana shu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi” [2].

Oksyumoronni antitezaning bir ko‘rinishi deyish mumkin. Ammo antitezada ikki bir-biriga qarama-qarshi qutb biri ikkinchisini rad etadi, inkor etadi. Oksyumoronda esa ikki bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘z bir-biriga birlashtiriladi, biri ikkinchisiga nisbatan aniqlovchi sifatida qo‘llaniladi. [6:114] Bundan shuni anglash mumkinki, antiteza bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar orqali hosil qilinsa, oksyumoronda ikki qarshi ma’nodan yangi ma’noli birikma yasaladi. Yangi ma’nodagi birikmaning birinchi qismi aniqlovchi bo‘lib keladi.

Oksyumoron dastlab so‘zni buzib qo‘llash sifatida qaralgan bo‘lsa, ammo keyinchalik bu hodisa badiiy asarga, poeziya va prozaga o‘ziga xos ma’no va mas’uliyat yuklagan til hodisasi sifatida yuritiladi. Biz Jumagul Suvonovaning ijodidan oksyumoron hodisasini tadqiq etishga harakat qildik, *qaro qorlar, totli azob,qaro kunduz, unsiz nola, gunohsiz gunohkor, qaynoq ko‘zyosh, tilsiz suhbat* kabi ko‘plab namunalarini topdik.

Kuzatishlarimiz jarayonida shoira tomonidan qo‘llangan tovush va tovushsizlik so‘zlari bilan bog‘liq oksyumoronlarni (yig‘ilgan oksyumoronli biriklardagi so‘zlarning izohli lug‘atda ularni birlashtiruvchi umumiy so‘z “tovush” ekan) izlab topib qisqacha izoh berishga harakat etdik. Quyida shoiraning “Mening qalbimda ham” she’rida *sadosiz sadolar* birikmasi oksyumoronni yuzaga keltirgan. Sado so‘ziga o‘zbek tiling izohli lug‘atida “tovush, ovoz” deb izoh berilgan. *Sadosiz* va *sado* so‘zlari bu yerda ifodalagan ma’noda bir-biriga zidlik mavjud. Aslida esa tovushsiz tovushning bo‘lishi mumkin emas. Bir qarashda mantiqsiz ko‘rinsa-da bu birikmaning poetik ta’sirchanligi kuchli bo‘lib, lirik qahramonning ichki his-tug‘ulari, ruhiy kechinmalarini o‘ziga xos tarzda ifodalab bergan: *Ko‘zlarimni bog‘lab, / Tilimni kesib, / Sadosiz sadolar keldi / O‘limdan*.

Shoira she’riyatidagi oksyumoronlarining so‘zlar o‘rtasidagi sinonimiya hisobiga ko‘lami kengayishini ham ko‘rishimiz mumkin: *Men esa labimda tabassum bilan, / Atrofimni quchib ishqning bayozi. / Qanday ezgin edi, bugun shunday sha’n, / Sassiz jaranglaydi ruhimning sozi*.

Sassiz jaranglamoq birikmasida shoira tovushsiz sozning jaranglashi orqali ekspressivlikni oshirib, hissiy-emotsionallikni kuchaytirgan. Kitobxonga ta’sir ko‘lamini kengaytirish maqsadida so‘z o‘yinidan foydalangan.

Sukut jonga / Burov solsa ham, / Yuragimda so‘zlar / Jarangi. / Izillaydi / Ovozsiz sado, / Goh zaminga, / Goh ko‘kka boqar. / Kim biladi / Balki / Unga ham, / Mening shunday / Yashashim yoqar.

Ovozsiz sado oksyumoronli birikmasi grammatik jihatdan emas, balki lingvopoetik tomondan yangi ma’noni ifodalagan. Sadoning eshitilishi me’yoriy holat, lekin ovozsiz sadoning eshitilishi esa poetik o‘ziga xoslikni yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, Jumagul Suvonova she’riyatida *sassiz nola, unsiz sas, tilsiz suhbat* kabi oksyumoronning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. *Kecha uxlar, / Hijron intiq… / Sochlarini sukut siypalar. / Tushlarida yetim oq tongni / Ota kunduz yetaklab ketar. / Kecha titrar, sassiz nolasi / Tun ko‘ksini tilimlar beun*.

Badiiy matndagi har bir oksyumoron ijodkor individual uslubining yaqqol misolidir. Bir shoir qo‘llagan oksyumoron yana bir ijodkorda uchrashi

mumkin biroq aynan takrorlanmaydi, ushbu jihati bilan oksyumoron boshqa uslubiy figuralardan ajralib turadi. Xususan, Usmon Azim she'riyatida *unsiz faryod, jim so'z, sovuq o't, totli og'riq,* Muhammad Ali ijodidagi *sokin hayqiriq*, Rauf Parfi she'riyatidagi *tovushsiz faryod* kabilar Jumagul Suvonova oksyumoronlariga o'xshash deyish mumkin, ammo aynan takrorlanmagan. Bu kabi o'xshashliklar ijodkorlar individual uslublarining yaqinligidan dalolat beradi.

Oksyumoron hodisasi Jumagul Suvonova she'riyatida individual poetik ifoda kasb etibgina qolmay, o'zbek tilshunoslik taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Ushbu uslubiy figura o'zining estetik individualligi, ijodkor yangicha yondashuvi mahsuli hamda badiiy bo'yoqdorlikning ifodaliligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, oksyumoron ijodkor tomonidan badiiy ekspressivlikni oshirish uchun qo'llaniladi. Ekspressivlikni ifodalash va uning darajasini belgilashda qiyos obyektiga olingan narsalar va ularning belgilari orasidagi tafovut, masofa, oraliq qancha uzoq, katta bo'lsa ekspressivlik darajasi ham shuncha kuchli bo'ladi [2. 86]. Demak, shundan kelib chiqib oksyumoronda bir-biridan mutlaqo bo'lgan belgilar orqali yangi ma'no yasalganda ushbu birikma badiiy ekspressivlikni kuchaytiradi, shoir individual uslubini naqadar ko'lamdorligi ko'rsatib beradi: *Ming yil bo'ldi… Tunlarim uyg'oq / Kunduzlarim ingrab o'tadi. / Ming yil bo'ldi… Unsiz bir sasim, / Arshi a'lo sari ketadi.*

Har qanday ikki so'zni bir-biriga bog'lash orqali oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Ijodkorning badiiy individualligi va so'z tanlash mahoratidan bu hodisa vujudga keladi. Oksyumoronli birikma shunchaki so'zlarni yonma-yon qo'yish bilan paydo bo'lmaganidek, ikki so'zni bir-biridan ajratish bilan yoki o'rniga boshqa so'z qo'yish orqali mazmunni saqlab qolib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oksyumoron hodisasi tilimizdagi bir-biri bilan odatiy nutqda munosabatga kirishmaydigan so'zlarni ijodkor badiiy nutqida yangi ma'no yaratish yuzasidan aloqaga kirishidir. Ushbu vositaning badiiy matnlarda ko'pdan ko'p qo'llanilishi tilshunosligimizda sintaktik strukturalar qatorini boyitadi. Adabiyotda esa bir-biridan go'zal, takrorlanmas she'rlar yaratilishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. 59-бет.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. 87-бет.
3. Ҳотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 366-бет.
4. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. 72-бет.
5. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. 152-бет.
6. Сувонова Ж. Дардим менинг, қувончим менинг. – Самарқанд: Турон нашр, 2021. 152-бет.
6. Сувонова Ж. Тиллақош. – Самарқанд. 1992. 48-бет.
7. Сувонова Ж. Тупроқ иси. – Тошкент: Адиб, 2014. 176-бет.
8. Suvonova J. Shamol yo'li. – Toshkent: Adabiyot, 2022. 128-bet.
9. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. – Samarqand: Ipak yo'li, 2021. 236-bet.
10. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. 76-бет.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent, 2023. 2-jild. 1036-bet.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent, 2023. 3-jild. 844-bet.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent, 2023. 4-jild. 824-bet.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent. 2023. 5-jild. 720-bet.

Dilzodaxon MADRAXIMOVA,
Andijon Davlat universiteti folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

O‘ZBEK FOLKLORINING XORIJDA O‘RGANILISHI: TURK OLIMLARI MISOLIDA (SELAMI FEDAKAR TADQIQOTLARI ASOSIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek folklorining, xususan, o‘zbek xalq ertaklari va ertakshunoslik an’anasining xalqaro miqyosda o‘rganilish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot markazida turk folklorshunosi Selami Fedakarning O‘zbekistondagi ertak tadqiqotlari bo‘yicha olib borgan izlanishlari turadi.

Fedakarning ilmiy qarashlari, O‘zbekiston ertak tadqiqotlarining tarixiy bosqichlari, shuningdek o‘zbek folklorining turk ilmiy muhitidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, ertak, turk folklorshunosi, Selami Fedakar, xalq og‘zaki ijodi.*

Annotation: this article examines the process of studying Uzbek folklore, in particular Uzbek folk tales and the tradition of fairy tales, on an international scale. The research focuses on the research of Turkish folklorist Selami Fedakar on fairy tale research in Uzbekistan. Fedakar’s scientific views, the historical stages of Uzbek fairy tale research, as well as the place of Uzbek folklore in the Turkish scientific environment are highlighted.

Key words: *uzbek folklore, fairy tale, Turkish folklorist, Selami Fedakar, folk oral culture.*

Аннотация: в статье рассматривается процесс изучения узбекского фольклора, в частности узбекских народных сказок и традиции сказочного повествования, в международном контексте. Исследование сосредоточено на работе турецкого фольклориста Селами Федакар по исследованию сказок в Узбекистане. Подчеркиваются научные взгляды Федакара, исторические этапы исследования узбекских сказок, а также место узбекского фольклора в турецкой научной среде.

Ключевые слова: *узбекский фольклор, сказка, турецкий фольклорист, Селами Федакар, устная народная культура*

Kirish (Introduction).

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi Markaziy Osiyo madaniy merosining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biridir. XX asrdan boshlab o‘zbek folklarining xorijda o‘rganilishi bosqichma-bosqich kengaya boshladi. Ayniqsa, Turkiya folklorshunosligi vakillari o‘zbek folklorini umumturkiy konteksda, tipologik va qiyosiy-nazariy yondashuvlar asosida tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratib kelmoqdalar. Shu jihatdan ularning tadqiqotlarini o‘rganish bugungi o‘zbek folklorshunosligidagi dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbek folklorining o‘rganilish tarixi O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan rus sharqshunosligi maktabidan boshlanadi. XIX- XX asrlarda bu jarayon davom ettirildi. Mustaqillikdan keyingi davrda esa o‘zbek folklori xalqaro ilmiy maydonda keng tadqiq qilina boshlandi. Turk olimlaridan Fıkret Turkmen, Selami Fedakar, Husayn Baydemir kabi tadqiqotchilar o‘zbek ertaklari, dostonlari va epik merosini jahon ilmiy muomalasiga olib chiqqan taniqli olimlardir. Xususan, Husayn Baydemir 1998-yili «Rustamxon dostoni: matn va tahlil» mavzusida magistrlik, 2004-yili «O‘zbek xalq ertaklari: tahlil va matn» mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini yoqlagan. «O‘zbek afsonalari» (2011), «O‘zbek xalq ertaklari» (2013), «Turk dunyosi oshiq adabiyoti» (hammualliflikda) kabi kitoblari bilan o‘zbek folkloriga salmoqli hissa qo‘shgan. Prof. Dr. Fikret Türkmen «Tohir va Zuhra hikoyasining Onadolu va o‘zbek variantlari» nomli maqolasida ikki turkiy xalq og`zaki ijodi namunasini qiyosiy tahlil etgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada olim Selami Fedakarning o‘zbek folkloriga oid ishi analitik yondashuv asosida o‘rganildi. Olimning maqolasi o‘rganib chiqish orqali mavzuni chuqur bilishi xolis baholandi. Maqola Selami Fedakarning “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi” mavzusidagi tadqiqotining ilmiy ahamiyatini asoslashga qaratilgan.

Tahlillar va natijalar

Turk olimlaridan Selami Fedakar so‘nggi yillarda amalga oshirgan tadqiqotlari o‘zbek turklarining qadimdan boy og‘zaki an’analarini Turkiya turkologiyasining diqqat markaziga olib chiqdi.

Selami Fedakar turkiyalik o‘zbekshunos olim va Ege universiteti professori bo‘lib, o‘zbek folklori, xususan o‘zbek ertaklari va dostonlari bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlari bilan tanilgan. o‘zbekistonlik folklorshunos olimlar bilan hammualliflikda tadqiqotlar amalga oshirgan.

Olim Selami Fedakarning o‘zbek ertaklari haqida yirik tadqiqotlari natijasi o‘laroq 2011-yilda “Özbek sözlü geleneğinde masallar” (o‘zbek xalq og`zaki

an`analarida ertaklar) kitobi nashr qilindi. Mazkur monografiya o‘zbek ertaklarining janr xususiyatlari, syujet-motiv tizimini mukammal tahlil qilingani bilan Turkiyada chop etilgan eng muhim tadqiqotlardan biridir. Kitob mazmunan ilmiy va akademik darajada tayyorlangan risoladir. Kitob uchta asosiy bo‘limga bo‘lingan: “Mundarija”, “Qisqartmalar” va “Kirish”, undan keyin uchta asosiy bob: birinchi bo‘lim “o‘zbek folklorida ertak janri va ertak aytish an’anasi”, ikkinchi bo‘lim “o‘zbek ertaklarining shakli, tuzilishi va mazmun xususiyatlari” va uchinchi bo‘lim “o‘zbek ertaklarining turkcha matnlari” ni o‘z ichiga oladi. Ushbu uchta asosiy bo‘limdan so‘ng “Xulosa”, “Adabiyotlar” va “Ko‘rsatkich” qismlari keladi. Jami 601 sahifadan iborat ushbu kitob ilmiy jihatdan qimmatli manbadir.

Bundan tashqari, u o‘zbek folkloriga oid qator tadqiqotlar olib borib, ko‘plab maqola va kitoblarga mualiflik qilgan. Jumladan, 2004-yilda “Sözlü Kültür Teorisi Bağlamında Özbek Destan Anlatıcıları”, 2005-yilda “Özbek Sözlü Destan Geleneğinde Değişim ve Tür Sorunu”, 2008-yilda “Nesreddin Hoca Tipi ve Fıkraları” kabi xalqaro ilmiy anjumanlarda e’lon qilingan ma’ruzalari mavjud. Shuningdek, Milliy Folklor jurnalida chop etilgan “Özbekistan’da Destan Çalışmalarının Tarihçesi” (Milliy Folklor jurnali, yoz-2004, №62, b. 67-79), “Özbekistan Folklorunda Rüya Motifi” (Turk dunyosi til va adabiyoti jurnali, kuz 1997, №4, b. 109-115) maqolalari ham o‘zbek madaniyatini tanitishda muhim ishlar sifatida qaraladi.

Selami Fedakâr o‘zbek dostonlari va dostonchilik an’anasi ustida ham tadqiqotlar olib borgan. Uning Jabbor Eshonqul bilan birga tayyorlagan “Özbek Halk Edebiyatı Bibliyografyası 1920-2000” (O‘zbek xalq adabiyoti bibliografiyasi 1920-2000) nomli kitobi umumturkiy folklorshunoslikda muhim manbalarda biri hisoblanadi.[1]

2014-yilda Professor Selami Fedakar tomonidan e’lon qilingan “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi” (O‘zbekistodagi ertak tadqiqotlarining tarixiy rivojlanishi) nomli maqolada o‘zbek xalq ertaklarining ilmiy o‘rganilish jarayoni bosqichma-bosqich yoritiladi. Mazkur maqolani o‘zbek ertakshunosligi tarixini ilmiy asosda yorita olgan boshqa olimlar uchun fundamental manba sifatida baholashimiz mumkun.

Selami Fedakar “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi” maqolasida O‘zbekistondagi ertak tadqiqotlarini uch bosqichga quyidagicha ajratadi: 1.**Erken Dönem** (Ilk davr) (19-asr oxiri – 1920-yillar). Olim bu davrni XIX asrning boshlaridan Sovet Ittifoqi tashkil etilishigacha bo‘lgan davr deb belgilaydi. Bu davrda rus sharqshunoslari O‘rta Osiyoda etnografik maqsadda ilmiy ekspeditsiyalar o‘tkazgan.[2] K. Imamovning ta’kidlashicha, chorizm davrida Markaziy Osiyoda tadqiqot olib borgan N. P. Ostroumov, V. Cherevanskiy va P. Tsvechkov kabi shaxslar olimlar niqobi ostida chorizm mustamlakachilik rejimining faol missionerlari bo‘lgan.[3] S.Fedakar, mazkur tadqiqotlar siyosiy maqsadni ko‘zlagan bo‘lsa-da, o‘zbek turk madaniyati kontekstida bu asarlarning katta ahamiyati borligini ta’kidlaydi.[4] Bu fikrni bildirishda Selami Fedakar ilmiy jihatdan holisona yondashgan deya olamiz. Chunki aynan shu davrda to‘plangan ertak va boshqa folklor namunalari keyingi davrdagi ilmiy folklorshunoslik tadqiqotlari uchun poydevor vazifasini o‘tay oldi.

Fedakarga ko‘ra, bu davrning asosiy xususiyatlari ertak matnlarini to‘plash va nashr ettirish bo‘lib, to‘plangan matnlar ko‘pincha siyosiy maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy uslub hali shakllanmagan, tizimsiz, ertak matnlari rus tilida nashr qilingan. O‘rta Osiyoning turli xil etnik guruhlari ertaklari bir xil “Sart folklori” sifatida berilgan. Bu bosqichda Ostroumov, A. Vasilev, A. N. Samoylovich, Haruzina, A. Divayev kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega.

2. **Sovyetler Birliği Dönemi** (Sovet Ittifoqi davri) (1918–1991) “Ilk davr”da Chor hukumati tomonidan tayinlangan va shaxslarga bog‘liq ravishda amalga oshirilgan o‘zbek ertaklari bo‘yicha tadqiqotlar Sovet Ittifoqi tuzilgach tizimli ravishda tashkil etilgan ba’zi kengash va qo‘mitalar doirasida olib borilgan. Maqolada, 1918-yildan boshlab o‘zbek folklor tadqiqotlari tizimli shaklga keltirilgani, 1920-yilda Turkiston Xalq Komissarlari Assambleyasi qoshida “O‘zbek ilmiy qo‘mitasi” tashkil etilgani ta’kidlanadi. Ushbu qo‘mita 1934-yil “Til va Adabiyot Instituti” tashkil topguniga qadar folklor namunalarini yig‘ish vazifasini bajargan. Qo‘mita tarkibida G`ozi Olim Yunusov, M. Y. Elbek, K. Yudahin, E. Polivanov va G. Zafariy kabi folklor namunalariga katta qiziqish bildirgan a’zolar bor edi.[5] Fedakarga ko‘ra, O‘zbekiston ertakshunosligining haqiqiy ilmiy maktabi shu davrda shakllangan. Ushbu bosqichda maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilingan. Jumladan, 1921-1922-yillar orasida M. Elbek, G`.O.Yunosov, G`. Zafariylar Toshkent, Bo‘stonliq, Samarqand, Farg`ona vodiysi va boshqa hududlarda ilmiy ekspeditsiyalar o‘tkazib, o‘nlab ertak namunalarini yozib olishgan. 1924-yilda o‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (o‘zSSR) tashkil etilgach, 1925-yilda “O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi “ tuzildi. Qo‘mita G`ozi Olim

1 Balikesir University The Journal of Social Sciences InstituteVolume: 16 - Number: 29, June 2013
2 Gaziantep University Journal of Social Sciences (http://jss.gantep.edu.tr)2014 13(1):69-90 ISSN: 1303-0094 “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi” S.Fedakar
3 K. Imomov (1974) “o‘zbek satirik ertaklari” Toshkent Fan Nashriyoti.
4 Gaziantep University Journal of Social Sciences (http://jss.gantep.edu.tr)2014 13(1):69-90 ISSN: 1303-0094 “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi” S.Fedakar
5 H.Zarifov (1970) “o‘zbek Sovet Folkloristikasi Tarihidan”. o‘zbek Sovet Folklori Ertaklari. (Tadqiqotlar, 1-Kitob) Toshkent: Fan Nashriyoti,(224-226)

Yunusov raisligida ish boshladi. G`ozi Olim Yunusov tomonidan tayyorlangan “O‘zbek xalq adabiyoti haqida ma’lumot to‘plovchilar uchun qo‘llanma” 1926-yilda “Maorif” va “O‘qituvchi” jurnallarining 7 va 8-sonlarida chop etildi.[6] 1928-yilda O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi qoshida “Etnografiya, folklor va arxeologiya tadqiqot guruhi” tashkil etildi. O‘zbekistonda folklor tadqiqotlarining asoschisi hisoblangan Hodi Zarifov ushbu guruh rahbari etib tayinlandi. Keyinchalik bu guruh 1929-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda ish boshladi va shu institut doirasida o‘z faoliyatini davom ettirdi. 1929-1930-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida folklor ekspeditsiyalari tashkil etildi va bu davrda ko‘plab folklor namunalari qayd etildi. 1932-yilda Hodi Zarifov, Hamid Olimjon, Uyg‘un va Ozod Sharafiddinovning sa’y-harakatlari natijasida tadqiqot guruhi “Madaniy tashkilot-ilmiy tadqiqot instituti” sifatida qayta tashkil etildi. O‘sha yili Ohangaron, Chirchiq va Farg‘ona vodiysiga ilmiy amaliy safarlar uyushtirildi.[7] Fedakar yozishicha, 1934-yilda A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutining tashkil etilishi O‘zbekistonda folklor tadqiqotlarini sezilarli darajada oshirdi. Bu davrda to‘plangan ertak matnlari nashri ko‘payadi, ertaklarning tahlili, kompozitsion tuzilishi, syujet va motiv tizimi folklor nuqtayi nazaridan tadqiq etila boshlanadi. Selami Fedakar, sovet davrida tadqiqotlar olib borgan Hodi Zarifov, Mansur Afzalov, Xolid Rasulov, Zubayda Husayinova va Muzayyana Alaviya kabi olimlarni O‘zbekistondagi folklorshunoslarning birinchi avlodlari deb hisoblaydi. Komiljon Imomov, To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, G`ayrat Jalolov, Malik Murodov kabi folklorshunoslarni esa ularning davomchilari sifatida takidlaydi. Maqolada bu davr folklorshunos olimlarining tadqiqot ishlariga birma-bir to‘xtalib, sharh berib o‘tiladi.

3. **Mustaqillik davri.** S.Fedakar 1991-yil o‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan qismni 3-bosqichga kiritadi. Uning ta’kidlashicha bu davrda ko‘p sohalar qatori folklorshunoslik ham sovet siyosiy, mafkuraviy g`oyalaridan holi bo‘la oldi. Bu davrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti ertak matnlarini nashr etish va o‘rganish markaziga aylandi. Komiljon Imomov, Mamatqul Jo‘rayev, Jabbor Eshonqul, Shomirza Turdimov, Jumaboy Yusupov kabi olimlar va ular tayyorlagan talabalar o‘zbek ertaklari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar qatoridalar. Bu davrda ertaklar og‘zaki milliy an’ana namunasi, nomoddiy madaniy meros sifatida ilmiy e’tibor qozondi. Ertaklardagi syujet, motiv turlari keng monografik planda o‘rganildi va o‘rganilib kelinmoqda.

O‘zbekistondagi ertak tadqiqotlarining asosiy qismini tashkil etuvchi Sovet va Mustaqillik davri ertak tadqiqotlari nashr turi jihatidan farq qiladi. Shu tufayli professor S.Fedakar chalkashliklarning oldini olish maqsadida ikkala davr nashrlarini asosan ikkita asosiy sarlavha “Matn nashrlari” va “Tadqiqotlar” ostida tasniflagan. “Tadqiqotlar” sarlavhasi ostidagi ilmiy ishlar nashr turiga qarab xronologik ravishda “Kitoblar”, “Kitob boblari”, “Maqolalar” va “Tezislar” sarlavhalari ostida baholagan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Selami Fedakarning “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi” maqolasining asosiy maqsadi O‘zbekistondagi xalq o‘g‘zaki ijodi, xususan ertak tadqiqotlari tarixiy rivojlanishini izchil tadqiq etish bo‘lib, natijada o‘zbek ertaklarining to‘planishi va o‘rganilish bosqichlari haqidagi keng miqyosli nazariy-tahliliy, tizimli tadqiqot manbasi hosil bo‘lgan.

Maqola folklor merosimizning to‘plashdan boshlab, nashr qilish va ilmiy-tahliliy bosqichgacha rivojlanishini ko‘rsatadi.

Maqoladan ko‘rinib turibdiki, Selami Fedakar o‘zbek folklorini chuqur o‘rgangan olim. U nafaqat o‘zbek ertaklari, balki doston, afsona, latifa, maqol, alla kabi folklor janrlarini tadqiq va tahlil qilgan. Olim olib borgan tadqiqotlar, xususan, xalq ijodini jamiyat hayoti va urf-odatlari bilan bog‘lashga qaratilgan yondashuvi, uning o‘zbek folklorini chuqur tushunishini va uni ilmiy doirada targ‘ib qilishga qo‘shgan hissasini dalillaydi.

6 H.Zarifov (1970) “o‘zbek Sovet Folkloristikasi Tarihidan”. o‘zbek Sovet Folklori Ertaklari. (Tadqiqotlar, 1-Kitob) Toshkent: Fan Nashriyoti, 230-231

7 T .Mirzayev. (1979) “Folklor İlmining Maskani”. o‘zbek Tili ve Adabiyoti, 87

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Balikesir University The Journal of Social Sciences InstituteVolume: 16 - Number: 29, June 2013.*
2. *S.Fedakar. “Özbekistan’daki Masal Araştırmalarının Tarihi Gelişimi”. Gaziantep University Journal of Social Sciences (http://jss.gantep.edu.tr)2014 13(1):69-90 ISSN: 1303-0094.*
3. *Fedakâr Selami.Özbek Sözlü Geleneğinde Masallar. - İzmir: Egetan Yayınları, 2011.*
4. *K. Imomov. “o‘zbek satirik ertaklari”- Toshkent: Fan Nashriyoti, 1974.- 6-bet.*
5. *T .Mirzayev. “Folklor İlmining Maskani”. - o‘zbek Tili ve Adabiyoti. 1979.- 86-88s-bet*
6. *H.Zarifov “o‘zbek Sovet Folkloristikasi Tarihidan”.- o‘zbek Sovet Folklori Ertaklari. (Tadqiqotlar, 1-Kitob) Toshkent: Fan Nashriyoti, 1970. - 218-281bet.*

Sitorabonu AHMADJONOVA,
ToshDO‘TAU magistranti



MAQOLNING YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI

Annotasiya: ushbu maqolada maqolning yondosh hodisalar – idioma va ibora bilan bo‘lgan munosabatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maqollarning tildagi estetik va g‘oyaviy ahamiyatini, ularning xalq tafakkuri mahsuli sifatidagi o‘rni va funksiyasini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *maqol, ibora, idioma, frazeologiya, xalq og‘zaki ijodi, semantik butunlik, ko‘chma ma’no.*

Аннотация: в данной статье научно анализируется взаимосвязь пословиц со смежными явлениями – фразеологизмами и устойчивыми выражениями. Результаты исследования позволяют глубже понять эстетическое и идеологическое значение пословиц в языке, их роль и функцию как продукта народной мысли.

Ключевые слова: *пословица, устойчивое выражение, фразеологизм, фразеология, народное устное творчество, семантическая целостность, переносное значение.*

Annotation: this article scientifically analyzes the relationship of proverbs with related phenomena - idioms and expressions. The results of the study allow us to understand more deeply the aesthetic and ideological significance of proverbs in the language, their role and function as a product of folk thought.

Key words: *proverb, expression, idiom, phraseology, folk oral creativity, semantic integrity, portable meaning.*

Hozirgi bosqichda tillarning maqollar majmuasini ilmiy o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Maqollar faqat til materiallaridangina yaratilgan emas, balki tilning beqiyos qudrati tufayli vujudga kelgandir.Bu holat nutqda keng qo‘llanib kelinayotgan maqollarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Borliqdagi va tilimizdagi har bir hodisa kabi maqollar ham serqirra bo‘lib, o‘zining xususiyatlari bilan tilimizdagi turli birliklarga goh yaqinlashib, gohida ulardan uzoqlashib, alohidalikni tashkil etadi. Mana shuning uchun ham ular tilimizda va fanimizda o‘ziga xos hodisa sifatida ajratiladi, **maqol** deb xususiy nom oladi.

Hozirgi kunda fandagi munozarali masalalardan biri maqollarning lisoniy mavqeyi, uning xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari va lisoniy birliklardan farqli jihatlarini aniqlashtirish muammosidir. Chunki qaysidir birlik haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, uning chegarasi, qamrov doirasini aniqlash kerak bo‘ladi. Maqolning asl tabiati esa unga yondosh bo‘lgan hodisalar bilan munosabatlari (bog‘lanishlari, zidlanishlari, o‘xshashliklari, farqlari va h.k.) da ochilishi va uqilishi mumkin. Biz bu maqolamizda maqolning ibora bilan munosabati va maqolning matal bilan munosabatini ko‘rib chiqamiz.

1. Maqolning idiomaga munosabati

Idiomaning qamrov doirasi tilshunoslikda turlicha belgilanmoqda. Rus tilshunosi S.I.Abakumov idiomatika va frazeologiyani farqlaydi. Idiomaning o‘ziga xos belgilari sifatida uning “ma’noviy butunligi, o‘zga tilga so‘zma-so‘z tarjima qilinmasligi, ma’noviy va leksik tomondan bo‘linmasligi, grammatik shakllarining o‘zgarmasligi, so‘z tartibining turg‘unligi, yasalish imkoniyatiga ega emasligi”ni ko‘rsatadi[1] va ma’no jihatidan bitta so‘zga tenglashtirib bo‘lmaydigan, oz bo‘lsa-da, qismlari o‘zining mustaqil ma’nosini saqlab qolgan iboralarni frazeologizmlar doirasiga kiritadi. N.M.Aleksandrov barcha turg‘un birikmalarni shartli ravishda frazeologizm, obrazli turg‘un birikmalarni esa idioma deb atashni taklif etadi[2].

Ko‘rinadiki, idiomaning qamrov doirasini aniqlashda olimlar turlicha yondashadilar. Bizningcha, ma’nosi tarkibidagi lug‘aviy birlik yoki birliklarning to‘g‘ri ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda umumiy ko‘chma ma’no beruvchi so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasi idiomalardir. Idioma tuzilishiga ko‘ra so‘zdan ham, so‘z birikmasidan ham, gapdan ham iborat bo‘lishi mumkin

1 Телия В.Н. Что такое фразеология. – Москва: Наука, 1966. 88-с.
2 Проблемы фразеологии. – Москва: Наука, 1964. 317-с.

Ma’nosi tarkibidagi lug‘aviy birlikning asl ma’nosiga bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar – so‘z idiomalardir. Masalan, *tullak, otlanmoq.* Tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga teng keluvchi idiomalar tarkibiga frazeologik birliklarning katta qismi kiradi.Demak, ichki tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga teng keluvchi barcha frazeologik birliklar shu turga tegishlidir. Masalan, *tuyog‘ini shiqqillatmoq, yuragini yormoq, ammamning buzog‘i, itning keyingi oyog‘i.* Ba’zi bir iboralar ichki tuzilishi jihatidan gapga teng keladi. Ular uchinchi turga – gap idioma guruhiga kiritildi. Masalan*, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq; qovog‘idan qor yog‘moq; sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga; temirni qizig‘ida bos.* Gapga teng keluvchi frazeologik birliklar bilan birga barcha maqollar ham xuddi shu guruhga mansubdir.

2. Maqol va ibora orasidagi munosabat

Frazeologiya termini dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo‘llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu terminni ishlatishga majbur bo‘lgan. Rus tilshunosligida iboralarni o‘rganish XIX asrdan boshlanadi.[3] Akademik V.V.Vinogradov tomonidan fanga olib kirilgan “frazeologik birlik” termini frazeologiya tarkibiga kiruvchi barcha hodisalarni nomlovchi atama sifatida tilshunoslar orasida keng ommalashdi. Bundan tashqari, ko‘pgina tadqiqotchilar frazeologiya obyektini nomlashda “frazema” atamasidan foydalanadiki, bu atama ham “morfema”, “semema”lar qatorida o‘zini oqlaydi[4].

Maqolning iboradan etimologik, ma’noviy va sintaktik farqlari ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Etimologik jihatdan maqol va ibora orasidagi farq. “Odatda, maqolni, – deb yozadi professor B.M.Karriyev, – dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanoq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qo‘llanishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol, dastavval, bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng umumlashma ma’noga ega bo‘la boradi”[5]. Bu yerda muhim bo‘lgan belgilar quyidagilar:

Maqol shunchaki so‘zlar tizmasi bo‘lmay, balki o‘tkir kuzatuvchanlik asosida vujudga kelgan fikrlarning xulosasi bo‘lishi darkor (frazeologizm uchun esa, odatda, tayyor so‘z tizmalarining ko‘chma ma’no ifodalashi va shu holatda turg‘un so‘z bog‘lanmasiga aylanishi kifoya).

Bu xulosa jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishi shart. Bularga qo‘shimcha ravishda yana shuni aytish kerakki, ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta, kristall shaklga ega bo‘lishi lozim. Demak, maqol ibora singari tayyor til birligi emas, balki omma tomonidan yaratilgan kichik janrli badiiy asardir.Zero, “u yoki bu maqolni eshitgan kishida ana shu maqolda aks etgan voqea-hodisaga nisbatan aniq munosabat yuzaga keladi. Natijada maqol kishiga g‘oyaviy yo‘nalish beradi, ijobiy ideallarning shakllanishiga, rivojlanishiga yo‘l ochadi va nihoyat, shaxsni o‘z ideallari uchun faol kurashga undaydi”[6].

Endi iboralarning paydo bo‘lishi haqida to‘xtalaylik. Odatda, inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan, real borliqning aniq hodisalarini ifodalaydigan erkin so‘z bog‘lanmalaridan iboralar vujudga keladi. Bu jarayonni rus olimi B.A.Larin quyidagicha tushuntiradi: “Iboralar asosida tarkibiga ko‘ra, to‘liq, grammatik qurilishiga ko‘ra, mo‘tadil bo‘lgan nutq oborotlari yotadi. O‘z ma’nosida ishlatiluvchi bu birikmalar ma’noviy o‘zgarishga uchraydi: aniqlikdan mavhumlikka, xususiylikdan umumiylikka tomon boradi”[7].

V.G.Kostomarov va YE.M.Vereshaginlar “yeng shimarib” iborasining kelib chiqishini quyidagicha sharhlaydi: “Ibora qadimgi rusda kiyilgan ustki kiyim bilan bog‘liq bo‘lib, bu kiyim shunaqangi uzun va keng yengli qilib tikilardiki, u tizzagacha, ba’zan oyoq tovonigacha yetardi. Ushbu kiyim ruslarning sovuq ob-havosiga moslashtirilgan edi.Uzun yenglar qaysidir ma’noda qo‘lqop o‘rnini bosardi.Bu uzun tushirilgan yenglar bilan biror-bir ishni bajarish amrimahol edi, shuning uchun, avval, ularni shimarib, so‘ng ishga kirishilardi”[8].

Bu kiyimlar allaqachon yo‘qolib ketgan bo‘lib, hozirgi kunda yeng shimarmasdan turib ham ish bajarish mumkin, ammo “yeng shimarib” birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zining mustaqil ma’nosini yo‘qotib, birgalikda ko‘chma ma’no kasb etgan va idiomaga aylangan.Shu tariqa ibora vujudga kelgan. Ammo barcha iboralarning asosini erkin bog‘lanma yoki gap

3 Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. 60-б.
4 Ахмедова З.Г., Трахова А.Ш.Лингвокультурологический подход кизучениюадыгейских пословиц и поговорок. Язык. Этнос. Сознание/ Материалы международной научной конференции (24–25 апреля 2003 года). Том 1. – Майкоп, 2003. 212-с.
5 Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад: Наука, 1961.162-с.
6 Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А.О. – Тошкент: Фан, 1987. 368-б.
7 Мокиенко В.М. Славянская фразеология. – Москва: Высшая школа, 1989. 287-с.
8 Фелицина В.П., Мокиенко В.М. Русские фразеологизмы. – Москва: Русский язык, 1990. 221-с.

tashkil etadi, deyish shartli bo‘lib, bu xususda filologiya fanlari doktori A.Mamatovning doktorlik ishida batafsil ma’lumot berilgan.

Ma’noviy jihatdan maqol va ibora orasidagi farq. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, maqol va iborani birlashtirib turuvchi xususiyat ularning ma’noviy jihatdan idiomatik xarakterga egaligi, ya’ni ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning birlamchi ma’nosidan kelib chiqmasligi, balki barcha so‘zlarning birgalikda umumiy ko‘chma ma’no ifodalashidir.Ammo bu o‘xshashlik ular orasidagi boshqa ma’noviy farqlarni inkor etmaydi. Ko‘pgina erkin so‘z birikmalari ko‘chma ma’no ifoda etib va shu holatda qotib qolib iboraga aylangan bo‘lsa-da, ba’zan o‘zining to‘g‘ri ma’nosida ham ishlatiladi va bunda u frazeologik belgilardan butunlay xoli bo‘ladi, ya’ni erkin so‘z birikmasi hisoblanadi. Masalan: Zulfiya ko‘ylagi ho‘l bo‘lmasin deb, yenglarini shimarib, so‘ngra ishga kirishdi.

Maqollar tarkibidagi so‘zlar tizmasi esa maqollik holatidan boshqa paytlarda aynan shu shaklda uchramaydi. Maqoldagi so‘zlar yuksak san’at, badiiy did va katta mahorat bilan ma’lum bir voqea yoki hodisaga qiyos qilib olingan bo‘lib, ularning ostida chuqur falsafiy ma’no, haqiqat yotadi. Maqol narsa va hodisalar haqidagi fikrni ifodalab, butun bir asarning mazmunini o‘zida ifodalashi mumkin. Chunonchi, A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasiga epigraf qilib olingan *“Otning o‘limi – itning bayrami”* yoki “To‘yda aza” hikoyasidagi *“Zo‘ri behuda miyon meshikanad”* maqollari asarning boshidan oxirigacha jaranglab turadi.

Ibora esa so‘z singari narsa-hodisalar haqidagi tushunchani anglatadi. So‘z va ibora o‘rtasidagi bu muqobillik ularni bir-birining o‘rnida qo‘llaganda yaqqol ko‘zga tashlanadi va bunda so‘z hamda ibora ma’nodoshligi vujudga keladi. Chunki bunday o‘rin almashtirish paytida yuz beruvchi ma’nolar o‘rtasidagi farq sinonim so‘zlarni birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash paytida vujudga keluvchi o‘zgarish singaridir. Taqqoslang: *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq* – bo‘shashmoq, *qovog‘idan qor yog‘moq* – xafa bo‘lmoq, *boshi osmonga yetmoq* – xursand bo‘lmoq.

Frazeologik birikmada ba’zan idiomatik ma’no bilan asl ma’no bir biriga qarama-qarshi kelib qolishi mumkin: qo‘llarigacha mahkam yopingan o‘rmon kesuvchilar izg‘irin sovuqda yeng shimarib mehnat qilmoqdalar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tilshunoslikda maqolni o‘rganish bo‘yicha ikki yo‘nalish mavjud bo‘lib, birinchi yo‘nalish tarafdorlari uni frazeologiya doirasida, uning bir turi sifatida o‘rganishni tavsiya etadilar.Bu guruh tarafdorlari frazeologiya doirasini keng ma’noda tushunuvchi olimlar toifasiga mansubdir. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari maqolning frazeologik tabiatini inkor etib, frazeologiya doirasini tor ma’noda tushunadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Телия В.Н. Что такое фразеология. – Москва: Наука, 1966. 88-с.
2. Проблемы фразеологии. – Москва: Наука, 1964.317-с.
3. Ройзензон Л.И. Фразеологизация. // Труды Самар. гос. ун. Новая серия, вып. 113, 1961. 111-116-с.
4. Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Фан, 1955. 28-б.
5. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. 60-б.
6. Ахмедова З.Г., Трахова А.Ш. Лингвокультурологический подход к изучению адыгейских пословиц и поговорок. // Язык. Этнос. Сознание: Материалы международной научной конференции (24–25 апреля 2003 года). Т.1. – Майкоп, 2003. 212-с.
7. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970. 58-б.
8. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. докт. ... дис. автореф. – Тошкент, 1999. 56- б.
9. Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 2016. 248-б.
10. Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2017. 144-б.

Odina USMONOVA,
Andijon davlat universiteti
Folklorshunoslik va dialektologiya
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

XALQ DOSTONLARIDA SINGIL OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada “Alpomish” va “Murodxon” dostonlaridagi singil obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy hamda ijtimoiy-ma’naviy funksiyalari tahlil qilinadi. Singil obrazi dostonlarda oilaviy rishtalarni mustahkamlovchi, akaning sodiq maslahatchisi, voqealar rivojiga bevosita ta’sir etuvchi muhim epik obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, singil obrazining xarakter xususiyatlari va epik an’anadagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *singil, obraz, kompozitsiya, epik, Alpomish, Murodxon, qaldirg‘och, an’ana, urug‘, ulus, sodiq, homiy, improvizatsiya, tugun, xotima.*

Annotation: this article analyzes the distinctive features as well as artistic, and social-spiritual functions of the sister figure in the epics, Alpomish and Murodxon. In these epics,the sister figure appears as an important epic character who strengthens family ties,serves as a loyal adviser to the heroic brother,and directly influences the development of events.The article also highlights the character traits of the sister figure and its place within the epic tradition.

Key words: *sister, character, composition, epic, Alpomish, Murodxon, Swallow, tradition, lineage, nation, loyal, patron, improvisation, knot, conclusion.*

Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Unda har bir xalqning urf-odatlari, o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinib turadi. Aynan xalq dostonlarida xalqimizning uzoq o‘tmishidagi hayot tarzi, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlari, qarindosh-urug‘chilik munosabatlari namoyon bo‘ladi. Dostonlarda qavm-qarindoshlik xalq og‘zaki ijodining muhim g‘oyaviy asoslaridan biridir. Shuningdek, xalqning birdamlik, birlik, sadoqat va vatanparvarlik ruhi ham mujassam bo‘ladi. Qavm-qarindoshlik orqali yurtga sadoqat, yaqinlarga mehr-oqibat, nasabni asrash, el, ulus, urug‘ nomusi uchun kurash kabi g‘oyalar yetakchi o‘rinda turadi. Ota-ona, aka-uka, opa-singil, tog‘a-jiyan, aka-singil tushunchalari hamisha e’tiborda bo‘lgan. Biz mazkur maqolada dostonlardagi singil obraziga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Bu obrazning yorqin ko‘rinishini “Alpomish” dostonida, shuningdek, Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlarida, Murodxon dostonida ko‘rib o‘tamiz. Shu o‘rinda, avvalo, biz obraz tushunchasini yoritib ketsak. Obraz - bu dostonlarda tasvirlangan shaxs, voqea, narsa, tushuncha yoki hodisaning badiiy ifodasidir. Obrazlar orqali xalq o‘z dunyoqarashi, orzu-umidlari, ezgulik yovuzlikka qarshi kurashi, ijtimoiy hayot haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Alpomish dostonida singil obrazining vazifasi syujetni harakatga keltiruvchi unsur, Murodxon dostonida esa qahramonni ruhlantiruvchi kuch vzifasini bajaradi. Alpomish dostonida Qaldirg‘och ham, Murodxon dostonida esa uning singlisi ham epizodik qahramon sifatida tasvirlanadi.

Qaldirg‘och Alpomishning egiz qondoshidir. U akasini juda yaxshi ko‘radigan,akasining or-nomusi ,sha’ni uchun kurashuvchi qahramondir.Qaldirg‘och oyim alpning singlisi,alpning ruhi yuqqan kuch-quvvatli,chiroyda tengsiz haqiqiy ayollik xususiyatlari mujassam o‘zbakning qizidir.Dostonda u alohida chizilgan obrazlardan bo‘lib juda faol ,mehribon va voqeani harakatga keltiruvchi personajdir.

Alpomishning qahramonlik sarguzashti aynan Qaldirg‘ochning turtkisi bilan boshlanadi.

Mungluq singling senga arz qip turibdi
Qalmoqlarda checham jabr ko‘ribdi.

Bu yerda Qldirg‘och oyim o‘zini xuddi Barchinning o‘rniga qo‘yib, ayni ayollar qalbidagi tuyg‘uni his qiladi. Shuningdek, Barchinni checham deb unga arz qiladi.

Narmodalar sendan kamroq bo‘lami
Mardning yori to‘y-talashda qolami.

Qaldirg‘och oyim garchi ayol kishi bo‘lsada, biroq ko‘nglida g‘urur, or-nomus xislatlarini yaxshi xis qiladigan epik homiy obrazlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Barchinning maktubiga e’tiborsizligini ko‘rgan singil unga jur’at berish, g‘ururini uyg‘otish alpni o‘z joyidan siljitish kabi vazifalarni ham bajargan.

Ajratib olgin,zolim qo‘lidan
Xabar olgin musofirlar holidan
Jo‘na,aka, Boysun-Qo‘ng‘irot elidan

Qaldirg‘och singil obrazining haqiqiy qiyofasini ochib bergan qahramondir. Ya’ni, yovuzlik va zulmga qarshi turuvchi sabr-toqat, sadoqat namunasi sifatida gavdalanadi.

Murodxon dostonida singil obrazi Alpomish dostonidan farqli ravishda o‘ziga xos syujetga ega. Garchi dostonda singlisining ismi berilmagan bo‘lsada biroq dostonda bu qahramon mehr, rahm-shafqat, sadoqat, fidoyilik bilan kuch-quvvat beruvchi obraz sifatid namoyon bo‘ladi.

Boshimda pir-pirlar lovday jelagim
Qarchig‘ay changallim,yo‘lbars bilaklim
Ko‘rar ko‘zim,emikdoshim,chirog‘im
Yo‘l bo‘lsin,akajon,qayda borasan

Murodxonning singlisi barcha ayollarga o‘rnak bo‘luvchi mehribon insondir. U o‘z akasini yo‘lbars sifatida tasvirlab hech kimga yengilmasligini va qo‘rqmasligini aytib, bolalarcha beg‘uborlik bilan emikdoshim, chirog‘im kabi nomlar bilan ataydi. Doston mazmuniga o‘ziga xos jilo beruvchi o‘xshatish san’atidan foydalaniladi.

Yarashiqqa ponza ro‘mol o‘radim
Tarzing ko‘rib yurishingni so‘radim.
Yoki
Hamroh qilib yurdim qirqin qizlarni
Izlab chiqib ketgan sarvinozlarni

Yuqoridagi misralardan singilning o‘ziga xos ko‘rinishini anglashimiz mumkinki, uning boshidagi ponza ya’ni harir, ipak ro‘mol nafaqat go‘zallik beruvchi kiyimdir, balki uyat-iffat, sadoqat, hurmat, oila kabi ma’naviy tushunchalarning belgisi sifatida ko‘rsatiladi. Ortidagi qirq qizlar esa hamroh bo‘lish bilan bir qatorda qahramonning yordamchisi, sirdoshi, uning eng yaqin odamlari hamdir.

Mamlakating talon bo‘lib qolmaymi
Adolatman so‘rab tursang bo‘lmaymi
Shu yurtdan qizini birov bermaymi

Murodxonning ketganidan so‘ng yurti talon-taroj bo‘lishidan, adolatsizliklar ro‘y berishidan qayg‘uradigan singil akasi faqat o‘zini o‘ylamasligi yurtining tinchligini o‘ylashini akasiga uqtiryapti. Shuningdek, shu yerdan ham ne-ne go‘zallar unga, mamlakat shohiga yor bo‘lishini aytyapti.

Aytib o‘tganimizdek, Alpomish va Murodxon dostonlarining syujeti turlichadir. Alpomishda singlisi alpni yori uchun undaydi. Chunki ular bir-biriga unashtirilishgan edi. Tag‘in mamlakatda yurtni boshqaruvchi Boybo‘ribiy bor edi. Murodxon dostonida davlatni boshqarishda Murodxondan boshqa inson yo‘q edi. Murodxonning enasi va singlisi qolgan edi xolos. Shu boisdan uning singlisi uning uchun qayg‘uradi. Akasini yo‘lidan qaytarmoqchi bo‘ladi.

Bir yo‘liqibdi senga Kashmiri ayyor
Qayting,mehribonim,bormoq ne darkor
Parizod odamga vafo qilarmi
Ko‘rsa senga hech bir rahmi kelarmi

Murodxonning singlisi akasini xatarli yurishga majbur qilayotgan yorni ayyor, vafosiz kabi salbiy xislatlar bilan ataydi. Ya’ni o‘z jigari uni deb o‘lib ketishi mumkinligini anglaydi. Ya’ni rashk yoki tushunmovchilik kabi tabiiy psixologik ziddiyatni yuzaga keltiradi. Lekin akasining ont ichganini bilib bormasang bo‘lmas ekan deb unga oq yo‘l tilaydi.

Qaytayin qaytmading borar yo‘lingdan
Bor endi,bek og‘a haqqa topshirdim

Xulosa qilib aytganda, dostondagi ayni davr patriarxal tuzum davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrdagi oila tuzilmasida singil o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Oila markazida aka turadi. Har ikki dostonda ham singil bosh qahramonga madad yoki turtki beruvchi inson sifatida tahlil qilinadi. Aka jangda bo‘lganida uyda barqarorlikni saqlovchi, urug‘ sha’nini himoya qiluvchi timsol bo‘lib gavdalanadi. Ular orqali doston badiiy quvvatini oshiruvchi epitet, o‘xshatish, sifatlashlar qo‘llaniladi. Shuningdek, singil obrazi an’anaviylik asosidagi axloqiy mezonlar vazifasini ham bajaradi. U o‘ziga xos improvizatorlik xususiyatiga ham ega qahramondir. Doston kompozitsiyasining kirish boshlamasida, tugun qismida va yechim, xotimasida faol ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hodi Zarif. “O‘zbek xalq eposi”. – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. R.Qo‘chqarov “Xalq eposlarida ayol obrazlari”. – “Til va adabiyot ta’limi “jurnali 2016,N-5
3. M.Jo‘rayev.I.Eshonqulov. – Toshkent, Folklorshunoslikka kirish. 2017
4. Murodxon. – Toshkent: “Badiiy adabiyot” nashriyoti. 1965

Go‘zal ISLOMOVA,
Navoiy davlat universiteti
Tillar fakulteti magistranti

BADIIY MATNDA XOLERIK NUTQNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: badiiy matn inson psixologiyasini, uning ichki kechinmalari, hissiyotlarini va tabiati, xarakterining barcha jihatlarini ifoda etishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir xarakter, har bir tip o‘ziga xos nutqiy belgilar hamda individualligi bilan ajralib turadi. Xolerik inson tabiatining badiiy matndagi aksini tahlil qilish, o‘quvchilar va adabiyotshunoslar uchun g‘oyat ahamiyatli bo‘lgan vazifalardan biridir. Xolerik tip — oddiy holatda ham aniqlik, aniqlik va tezlik bilan ajralib turadigan, tez hayajonlanadigan, harakatchan, tashabbuskor, g‘ayratli inson sifatida tasvirlanadi. Bu sifatlar, tabiiyki, uning badiiy matndagi nutqida ham yorqin ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: *xolerik nutq, badiiy matn, individual xususiyatlar, temperament, ekspressivlik, emotsionallik, tezkorlik, dinamika, badiiy til, xarakter ifodasi.*

Аннотация: художественный текст является важным инструментом выражения психологии человека, его внутренних переживаний, эмоций и всех сторон его натуры, характера. Каждый персонаж, каждый тип отличается своими речевыми особенностями и индивидуальностью. Анализ отражения характера холерика в художественном тексте — одна из важнейших задач для студентов и литературоведов. Холерик характеризуется как человек, отличающийся точностью, точностью и быстротой даже в обыденных ситуациях, легко возбудимый, подвижный, предприимчивый, энергичный. Эти качества, безусловно, находят яркое выражение и в его речи в художественном тексте.

Ключевые слова: *холерик, литературный текст, индивидуальные особенности, темперамент, экспрессивность, эмоциональность, скорость, динамика, художественный язык, экспрессия характера.*

Annotation: the literary text is an important tool for expressing human psychology, his inner experiences, emotions and all aspects of his nature, character. Each character, each type is distinguished by its own speech characteristics and individuality. Analysis of the reflection of the nature of the choleric person in the literary text is one of the most important tasks for students and literary critics. The choleric type is described as a person who is distinguished by accuracy, precision and speed even in ordinary situations, who is easily excited, mobile, enterprising, energetic. These qualities, of course, are also vividly expressed in his speech in the literary text.

Key words: *choleric speech, literary text, individual characteristics, temperament, expressiveness, emotionality, speed, dynamics, artistic language, expression of character.*

Kirish. Xolerik tipdagi insonlarning nutqiga xos bo‘lgan asosiy belgi — bu ortiqcha impulsivlik, tezkorlik va keskinlikdir. Ularning nutqi asosan qisqa, sodda va aniqligi bilan ajralib turadi. G‘azabli, hissiyotga boy, ba’zan esa haddan ziyod ohangdor nutq ular uchun xos. Bunday individlarning gapirish uslubi ko‘pincha tez, nihoyatda ehtirosli va uzluksiz oqimda namoyon bo‘ladi. Fikrini aytishda ularga uzoq o‘ylash, mulohaza yuritish, gaplarini jisman va ruhiy jihatdan bezashdan ko‘ra, tez va muhim, asosan, hayotiy muammolar yechimini ko‘rsatib berish lozim degan qoidaga amal qiladilar. Badiiy matnda xolerik nutqning individualligini aks ettirish uchun mualliflar ko‘pincha dialog va monologlarda bevosita dinamika, qattiq ohang va qat’iylik elementlarini ishlatadilar. Ularning so‘zlarida zo‘r ekpressivlik, ba’zan g‘azab, ba’zan ehtirosli chaqiriq, takroriy gaplar va kuchli ifoda vositalari bo‘ladi. Xolerik xarakteri markazida turgan qahramon ustuvor g‘oya yoki maqsad atrofida o‘z nutqini quradi va hech qachon bema’ni so‘z ishlatmaydi. Nutqda fikrini tez yetkazish, doim nimadandir norozi yoki chidab turolmayotganidek ifoda qilish xolerik tiplarga xos, natijada ularning

nutqida pauzalar juda qisqa, nutqning ohangi esa, odatda, yuqori bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

So‘z va iboralarni tanlashga kelsak, xolerik tip uchun sodda, ravon, to‘g‘ri fikrlar va qisqa iboralar xosdir. Ularning nutqi badiiy matndagi ritmning o‘zgaruvchanligi, sehrli tezligi va nimadandir norozilik ohangini bera olishi bilan boshqalardan ajralib chiqadi. Xolerik tipga mansub obrazlar orqali badiiy matnda vaziyat yoki voqealar rivoji dinamikasini kuchaytirish, syujetda keskin burilishlarni aks ettirish, konfliktdan chiqish yo‘llarini gavdalantirish mumkin. Xolarik obrazning nutqida ko‘pincha irodaviy shakl, buyruq, chaqiriq, tezkor javob, baqiriq, ovoz balandligi, temp va intonatsiyaning tez o‘zgarishi kabi xususiyatlar kuzatiladi. Emotsional jihatdan xolerik nutq baland, samimiy, aniq va ochiq bo‘ladi. U zo‘r xursandchilik, g‘azab, ba’zan tarkibida sarkastik yoki kinoyali ohanglar ham mavjud bo‘ladi. Inson qalbining qalqib ketishini, miyasida tez o‘zgaradigan fikrlar va kayfiyatlarning bevosita nutqga o‘tishini o‘zbek badiiy adabiyoti an’analarida o‘ta ta’sirli tarzda aks ettiriladi. Xoleriklarning so‘zida to‘xtovlilik, «sekin gapirish», «to‘liq izohlar»ga ehtiyoj sezilmaydi; ular o‘z fikrini bir lahza ko‘chada yurib ayta oladi, har qanday muammoni ochiqcha va biror yashirin niyatsiz, aniq tarzda gapira oladi. Ularning nutqida mas’uliyat hissi kuchli seziladi. Vaziyatga munosabati, jamiyatga va atrofdagilarga bo‘lgan fikrlari g‘oyat aniq va tez namoyon bo‘ladi. Maqsad va g‘oya tarafdori bo‘lgan xolerik inson istagan vaziyatda o‘z nuqtayi nazarini ustuvor qo‘yadi, o‘zgalarni ham shunga ishontirishga harakat qiladi. So‘z va iboralar keskinligi, to‘g‘ridan-to‘g‘riligi, qo‘shimcha izohsizligini badiiy dialog va nutq parchalarda aniq ko‘rsatish mumkin [1].

Xoleriklar nutqida emotsional, psixologik va mantiqiy zo‘riqishlarni yanada chuqur ilgari surish, obraz xarakterini yanada jonli ochib berish uchun frazeologik iboralardan ko‘ra, oddiy va keskin iboralar, kuchli ohang va ta’sirchan sintaksis birikmali gaplarga ustuvor ahamiyat beriladi. Uzluksiz so‘z ta’siri, epitetlarning kamligi, tez o‘zgaruvchi mazmun, qisqa va tez-tez pauzalar, ba’zan jumlalarni yarimta, peshlavha yoki xitob formalarida aytilishi ham mazkur tip uchun xos. Xolerik obrazlar asosan syujet rivojini tezlashtiruvchi, dramatik to‘qnashuvlar va konfliktlarni avj oldiruvchi rollarni bajaradi [2].

Muhokama va natijalar

Badiiy matndagi xolerik nutq, o‘zining tabiati, energiyasi, temperamentidagi o‘ziga xosliklari bilan o‘quvchini befarq qoldirmaydi. U o‘z atrofidagilarga kuchli ta’sir o‘tkazadi, boshqa xarakter tiplari nutqiga nisbatan ko‘proq dinamiklik va kuchli emotsional zamin beradi. Xolerik tipdagi qahramon — badiiy matnning faol, tashabbuskor va harakatchan harakteri bo‘lib, u o‘zining so‘zlari, gap tartibi va ifoda vositalari orqali o‘quvchini bir zumda o‘ziga jalb qila oladi. Ularning nutqini o‘rganishda, tahlil etishda asosiy e’tibor ularning harakatchanligi, hayajondorligi va psixologik energiyasiga qaratiladi. Bu tip vakillari har qanday holatda ham o‘z his-tuyg‘ularini yashirmaydi. Ular o‘z so‘zlarini boshqa obrazlardan farqli ravishda, bir oz agressiv, lekin halol va aniq ifodalaydi. Sukut saqlash xolerikga xos emas, u doimo voqea markazida bo‘ladi, doimo o‘z so‘zi, harakati bilan syujetga o‘z kuchli energiyasini singdiradi [3].

Matnda asosiy harakatlar, muhim burilishlar, dramatik vaziyatlar ko‘pincha xolerik obrazlar orqali aks ettiriladi. Ularning so‘zlarida doimo shoshilinchlik, vaqtni tejash, tezkorlik sezilib turadi. Xolerik tipdagi xarakterlar nutqidagi tahlikali ohang, doimiy g‘azab yoki ehtiros, ular doimo biror narsa qilishga, oldinga intilishga majbur bo‘ladilar. Inson ruhiyati uchun tabiiy bo‘lgan ushbu o‘zgaruvchanlik faqatgina badiiy matnda emas, balki hayotimizda ham ko‘plab namoyon bo‘ladi. Xolerik tip emotsiyalarga uzoq bardosh bera olmaydi. U boshqalarga nisbatan o‘z iste’dodini va layoqatini ko‘proq namoyon qiladi. Shu sababli badiiy matnda xolerik obraz orqali ifodalanadigan nutqning individualligi har doim yorqin, jonli va dramatik ohangda eshitiladi. Nutqida hamisha kuch, harakat va ehtiros mujassam bo‘ladi. U kichik gaplarni, baland ovozni, buyruq va chaqiriq ohanglarini, hatto baqirganini ham ko‘rsatib tura oladi. Xolerik har bir qadamida ham o‘ziga xoslik, jismoniy va ruhiy kuch aks etadi. Yuqoridagi jihatlar asosida aytish mumkinki, badiiy matnda xolerik nutqning xususiyatlari asosan quyidagilardan iborat: impulsivlik va tezlik, ifodaning balandligi va kuchi, pauzalar va ohanglarning o‘ziga xosligi, emotsional jihatdan iste’molning kuchi va natural zarbasi, leksik va sintaktik vositalarning soddaligi va lo‘ndaligi, dialog va frazalarni qisqa, tez va ochiq

tashkil etishi. Bu belgilar badiiy asarda konfliktli vaziyatlar, dramatik harakatlar, syujetlarning qizg‘in nuqtalarini tasvirlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [4].

Xolerik tip eng ko‘p uchraydigan emotsional portlashlar sababchisi, tezlik va aniqlik harakati tashabbuskori sanaladi. Uning ovozi, so‘zi, har qanday asarda eng asosiy energiya manbai sanaladi. Harakat va so‘zlarining kuchli va jadal ohangda ifodalanishi badiiy asarga milliy va ijtimoiy kayfiyat, yangi tematik evolyutsiyani olib kiradi. Biroq xolerik tipdagi nutqning bu jihatlari asar umumiy mazmuni, bosh qahramonning ruhiy psixologiyasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Badiiy matndagi xolerik nutq o‘ziga xos sintaktik qurilmalarga, qisqa va inkor etuvchi gaplarga, so‘z bosimiga, hissiyotga, kuchli verba imkoniyatga tayanadi. U konfliktga va dramatizmga boy asarlarda asosan asosiy harakat kuchi, dramatik nuqtalarning kuchaytiruvchisi sifatida taqdim etiladi. Shunday qilib, badiiy asarda xolerik tipdagi obrazlarning nutq orqali individualligini, emotsional va psixologik kuchini, o‘ziga xos ifoda hamda harakatchanligini aniqlash mumkin. Ularning nutqi asarni jonlantiruvchi, voqealarga muayyan tezlik va dramatiklik, zo‘r energiya baxsh etuvchi muhim omilga aylanadi. Xolerik nutqning badiiy asardagi syujet rivojiga ta’siri o‘ziga xos va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Asarlarda xolerik xarakterli qahramonlarning nutqi, ularning fe’l-atvori, ichki dunyosi bilan chambarchas bog‘liq holda, voqealar rivojini tezlashtiradi, syujetning dinamikasini oshiradi va asarga hayajonli ruhi kirib kelishiga yordam beradi. Xolerik personajlar odatda juda harakatchan, tez qaror qiluvchi, emotisonal hamda ba’zan g‘azabli va keskin gapiruvchi odamlar sifatida tasvirlanadi. Ularning nutqi odatda qisqa, qat’iy, emotsiyaga boy, ba’zida hukmron ohangda va burni baland tusda bo‘ladi. Bu uyg‘onuk va to‘xtovsiz harakat, jadal nutq va shoshilinch chiqishlar asardagi voqealarning tabiiy ritmiga ta’sir qiladi, kutilmagan burilishlar, yangi g‘oyalar, to‘satdan yuzaga kelgan konfliktlar vujudga keladi. Syujet rivoji uchun zarur bo‘lgan konfliktlar va dramatik vaziyatlar asosan xolerik qahramonlarning qattiqqo‘l so‘zlari va ohanglari orqali yuzaga chiqadi. Ular asardagi boshqa qahramonlar bilan bo‘lgan munosabatlarida doimiy ziddiyat, kelishmovchilik va bahs-munozara maydonini yaratadi. Bu kabi sahnalar esa o‘quvchini asarga yanada chuqurroq jalb qiladi, voqealarning rivoji, o‘zgarishi va keskin burilishi uchun zamin tayyorlaydi. Xolerik nutqli qahramonlar ko‘pincha tashabbuskor bo‘lishadi, eng qiyin yoki noaniq vaziyatlarda ham qat’iy harakat qilishadi, o‘z harakati yoki so‘zi bilan syujetni yangi bosqichga olib chiqadi, asosiy voqealarga turtki beradi. Ularning keskin fikrlari va ochiq so‘zlari vaziyatning tez o‘zgarishiga, hadisalar rivojining odatiy yo‘ldan chiqib ketishiga sabab bo‘ladi. Xolerik qahramonlar nafaqat voqealarning rivojiga, balki asar kayfiyati, muhit va boshqa qahramonlarning harakatiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda xolerik nutqning individual xususiyatlari, avvalo, uning impulsivligi, tezligi, emotsiyalarga to‘liqligi, aniqligi, ohangdorligi, qisqa va keskinligi bilan ajralib turadi. Bu tipdagi nutq orqali asarlar syujeti yanada jonlanadi, obrazlar xarakteri ochiladi, dramaviy nuanslarning kuchayishiga va o‘quvchi e’tiborining ko‘payishiga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy matnda xolerik tipdagi obrazlar va ularning nutqini o‘rganish adabiyotshunoslikda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi, ular orqali asarlar estetik sifati va tajriba boyligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpanova Sh. O‘zbek tilida ruhiy holatning aks etishi. – Toshkent, 2019. – 112-bet.
2. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168-bet.
3. Hakimov M. Pragmalingvistik tadqiqotlar tarixi. – Farg‘ona, 2020. – 145-bet.
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari (“Lingvistika” yo‘nalishidagi magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma). – Andijon, 2006. – 34-35-bet.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zME, 2008. – 241-bet.
6. Yuldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.

Maftuna NURMAMATOVA,
Navoiy davlat universiteti 1-bosqich magistranti

FALSAFA QOMUSIY LUG‘ATIDA “VIJDON” LEKSEMASINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada “vijdon” leksik kategoriyasiga oid sinonimik birliklarning “Falsafa qomusiy lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”(6 jild)dagi talqinlari qiyosiy tahlil qilingan. Ularning umumiy va xususiy sema va sememalari asosida qiyoslangan. “Falsafa qomusiy lug‘ati”da “vijdon” umumiy semali birliklar tizimi orqali yoritilgan bo‘lib, bu birliklarning semantik hamda leksikografik talqinlaridagi farqlar, ularning ma’no qatlamlari va konnotativ xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *umumiy sema, xususiy sema, leksik kategoriya, falsafiy lug‘at, sinonimlar, ichki semantik nazorat, semantik maydon.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the interpretations of synonymous units related to the lexical category “conscience” in the “Philosophy Dictionary” and the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” (6 volumes). They are compared on the basis of their general and specific semantics and semantics. In the “Philosophy Dictionary” “conscience” is covered through a system of general semantic units, and the differences in the semantic and lexicographic interpretations of these units, their layers of meaning and connotative properties are identified.

Key words: *general semantics, specific semantics, lexical category, philosophical dictionary, synonyms, internal semantic control, semantic field.*

Аннотация: в данной статье представлен сравнительный анализ интерпретаций синонимичных единиц, относящихся к лексической категории «совесть», в «Философском словаре» и «Пояснительном словаре узбекского языка» (6 томов). Сравнение проводится на основе их общей и специфической семантики и семантики. В «Философском словаре» «совесть» рассматривается через систему общих семантических единиц, и выявляются различия в семантических и лексикографических интерпретациях этих единиц, их смысловых слоях и коннотативных свойствах.

Ключевые слова: *общая семантика, специфическая семантика, лексическая категория, философский словарь, синонимы, внутренний семантический контроль, семантическое поле.*

“Vijdon” asosiy axloqiy tushunchalardan biri bo‘lib, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining yadro qatlamiga oid tushuncha hisoblandi. Insonning ichki ruhiy mezoni, o‘z xatti-harakatlarini baholash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. “Ma’naviyat tushunchasi, uning ma’noviy qirralari, tushunchaning ichki strukturasi juda keng”[1]. Shu boisdan uning tarkibiy qismlarini sistemali o‘rganish kategoriyaning leksik xususiyatlarini yanada keng tadqiq etishni talab qiladi. “Falsafa qomusiy lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “vijdon” kategoriyasiga oid birliklar bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin qilingan, biroq bu talqinlarda o‘ziga xos farqlar mavjud.

“Falsafa qomusiy lug‘ati”da “vijdon” umumiy semali atov birliklarning semantik aloqadorligi va ularning insonning ichki dunyosini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, mazkur tushunchalarning semantik maydonini kengaytiruvchi sinonimik qatorlarga oid birliklarning mazmuniy tarmoqlanishi hamda falsafiy, axloqiy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati aks etgan.

“Falsafa qomusiy lug‘ati”da “vijdon” umumiy semali atov birliklari insonning o‘zini o‘zi baholashi, axloqiy mas’uliyatni his qilishi, yaxshilik va yomonlikni farqlash qobiliyati sifatida izohlab beriladi[2]. Ushbu birliklar o‘zaro sinonimik birliklar hosil qilib, vijdon Sharq falsafasida “halollik”, “ichki poklik”, “diyonat” kabi tushunchalar bilan bog‘liq o‘rganiladi hamda insonning ichki dunyosini, axloqiy yo‘nalishini belgilovchi kompleks kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

“Vijdon” kategoriyasi tarixiy-falsafiy tafakkurda insonning ichki baholovchi nazorati, axloqiy mezoni va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi markaziy tushunchalardan biridir. Inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan holda, turli hayotiy

1 Farrux Yuldashev. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasining sistemasi va semantikasi. – Navoiy, 2023. – B. 128.

2 Bu haqida qarang. Фалсафа.Қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004.

vaziyatlarni hal etishda yo‘l-yo‘riq beruvchi, yaxshi xulq-atvorni shakllantiruvchi va insoniy fazilatlarni mustahkamlovchi nazariy hamda amaliy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. U halollik, bag‘rikenglik, adolat va diyonat kabi qadriyatlarni inson tafakkuriga singdiradi. Shu ma’noda, falsafa insonning ma’naviy-ruhiy kamolotini belgilovchi asosiy vosita sifatida, turli diniy va ma’naviy qarashlarni anglash, ularni muvofiqlashtirish hamda bag‘rikenglik muhitini shakllantirishda ko‘prik vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilshunosligida tarxiy leksik qatlam va u haqidagi leksikografik talqinlarni turli lug‘atlar orqali qadimiy asarlardan olishimiz mumkin. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida mazkur kategoriyaga oid birliklar, vijdonga oid atamalar izohini beruvchi matnlar qo‘shiq, maqol kabi badiiy parchalar tarkibida faol qo‘llanilgan. Ularning bir qismi hozirgi o‘zbek tilidagi “vijdon, or, nomus, halollik, poklik” kabi tushunchalarga semantik jihatdan uyg‘un. Asarning indeks-lug‘atida “Erlik” – mardlik, to‘g‘rilik[3], (I 129-16 ar.95-16), “utmish\yatum” – ayb, gunoh, mas’uliyat hissi[4],(116-25; ar-84-2) “kipty” - rostlik, ishonch, e’tiqod, haqiqat[5] kabi so‘zlar izohlangan bo‘lib, bu so‘zlar “vijdon” umumiy semali atov birliklar semantik qatlamini shakllantiruvchi shaxsning axloqiy sifatlarini ifodalaydi. Shu boisdan turli lug‘atlar va ularning birliklari turlicha leksikografik talqin qilinadi.

Ma’lumki, shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi birliklarni faylasuf olimlar turli lug‘at so‘zliklari sifatida to‘plashgan va leksikografik sharhlar berishgan. Buning natijasi sifatida “Falsafa. Qomusiy lug‘at”[6], “Falsafa. Qisqacha izohli lug‘ati”[7], “Falsafa. Ensiklopedik lug‘at”[8] lari yaratildi. Lug‘atlarda falsafiy terminlarning izohi, etimologiyasi haqida batafsil ma’lumot keltirilgan.

“Falsafa qomusiy lug‘ati”da “vijdon” leksik kategoriyasidagi so‘zlar so‘z va birikma tarzida keltirilgan bo‘lib, ular quyidagicha izohlangan. Bunda lug‘at birliklari quyidagicha tasvirlangan:

1. Lug‘at birliklari – bosh so‘z – turg‘un birikma.
2. Etimologik ma’lumot.
3. Uslubiy xarakteristika.
4. Lug‘at birliklari ma’nosini belgilash va qayd etish.
5. Izoh.
6. Sharhlovchi maqola, ilyustrativ sitatalar[9].

Quyida “vijdon” leksik kategoriyasidagi ayrim sinonim so‘zlarning “Falsafa qomusiy lug‘ati”dagi leksikografik talqinini ko‘rib o‘tamiz.

“Halollik” leksemasida “poklik (ma’naviy poklik)”, “or”, “nomus”, “iffat” semalari mavjud bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish, vafodorlik, halol ekanlik”[10] ma’nosida kelgan. Ushbu so‘z ushbu umumiy semalar o‘z paradigmasiga “halollik, pokllik, adolatparvarlik, diyonat, to‘g‘rilik” sinonimik qatorni birlashtiradi.

“Falsafa qomusiy lug‘ati”da ushbu leksema “ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishining hayotida sodir bo‘layotgan ijobiy yoki salbiy holatlarga munosabatida ifodalanadi. Vijdon kishining ma’naviy yetukligiga bog‘liq. Uning kundalik faoliyatida, xatti-harakatida, fe’l-atvorida, oila, millat, jamiyat va vatan oldidagi mas’uliyatini his etishda namoyon bo‘ladi. Har bir qilgan ishida, odamlar bilan qilgan muloqotlarda fikrlarini sarhisob qiladi. Nohaqlikka, adolatsizlikka murosasizlik bilan, qarshilik ko‘rsatadi. Ayrim kimsalar vijdonni tug‘ma xislat deydilar. Biroq vijdonning shakllanishi bolalikdan yashayotgan muhitga, oila va jamiyatdagi ta’lim – tarbiyaga, yaqin atrofidagi odamlarning madaniyati, axloq-odobi, dunyoqarashiga ko’p jihatdan bog‘liq ”[11] deya ta’riflangan. Mazkur tahlillar va talqinlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Leksik-semantik jihatdan farqlar yuzaga keladi. Xususan, O‘TILdagi denotativ ma’nosi so‘zning kundalik nutqdagi ijtimoiy-amaliy mazmuni yoritilgan va nutqiy faol ma’nosi aks ettirilgan.

2. O‘TILda mazkur leksemaning semantik yadrosi – *diyonat, insof* tushunchalari bilan chegaralanadi.

3. Nutqiy vaziyat va shaxsiy xulq me’yorlarni belgilovchi ijtimoiy me’yor sifatida baholangan.

4. So‘zning ijobiy(bir tomonlama) axloqiy baholash funksiyasi aks etgan. Aslida “vijdon” leksemasining semantik tarkibida har ikki sema mavjud, buni quyidagi “Falsafa qomusiy lug‘ati”dagi talqin orqali ko‘rish mumkin. Xususan, mazkur lug‘atda vijdonga “

3 Девону луғотит турк. Индекс-луғат. / Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967.
4 Девону луғотит турк. Индекс-луғат. / Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967.
5 Девону луғотит турк. Индекс-луғат. / Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967.
6 Фалсафа.Қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004.
7 Абдуллаева М. Ва бошкалар. Фалсафа кискача изохли лугат. . – Тошкент: Шарқ, 2004.
8 Фалсафа энциклопедик лугат. –Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
9 Фалсафа.Қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004..
10 O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. I. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 187.
11 Фалсафа.Комусий лугат. –Тошкент: Шарқ, 2004.

ijtimoiy ong shakllaridan biri” deb ta’rif beriladi. Bu esa so‘zga nazariy-falsafiy talqin beradi. Bundan tashqari quyidagi farqlarni ko‘rish mumkin:

1. “Vijdon” semantik maydonini shakllanishida *halollik, pokllik, adolatparvarlik, diyonat, to‘g‘rilik* orqali sistemali ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rsatilgan.

2. Vijdonni ijtimoiy ong tizimining bir elementi deb baholab, uning me’yoriy va tartibga soluvchi funksiyasini ochiqlangan.

3. Uning denotativ ma’nosida “vijdon” shaxsiy emas, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniyat mezoni sifatida baholanadi.

Lisoniy va falsafiy talqin o‘rtasidagi asosiy farqlar

Lug‘at	**O‘TIL**	**“Falsafa qomusiy lug‘ati”**
Leksikografik talqin	Lisoniy (leksik-semantik)	Falsafiy (ontologik-aksiologik)
Yadro sema	Kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi	Ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishining hayotida sodir bo‘layotgan ijobiy yoki salbiy holatlarga munosabatida ifodalanadi.
Qo‘llanish sohasi	Kundalik faol nutq, Nohaqlikka, adolatsizlikka murosasizlik bilan, qarshilik ko‘rsatish bilan bog‘liq vaziyatlar	Jamiyat, falsafa, axloqshunoslikning “xos” leksemasi
Paradigmatik xususiyati	Sinonimik qatori: insof –diyonat– ma’naviy poklik– to‘g‘rilik M: *vijdonli inson, pok inson, diyonatli inson, to‘g‘ri inson*	Ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi birlik, madaniyat va ongning “xosilasi”
Funksional xususiyati	*Shaxsning* xatti-harakatini baholaydi	*Jamiyatning* ma’naviy me’yorini belgilaydi

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘TIL “vijdon”leksemasini til tizimidagi ijtimoiy-xulqiy me’yor sifatida, ya’ni nutqiy va ijtimoiy amaliy birlik darajasida talqin etadi. “Falsafa qomusiy lug‘ati” esa uni ma’naviy-ijtimoiy hodisa, ongning ijtimoiy shakli, mahsuli sifatida ko‘rsatib, tushunchani falsafiy, aksiologik darajaga talqin etadi. Demak, birinchi manba deskriptiv-lisoniy, ikkinchisi esa normativ-falsafiy yo‘nalishda yondashadi.

Ushbu farq lingvoma’naviyatshunoslik uchun muhim, chunki u so‘zning semantik qatlamdan konseptual qatlamga o‘tishini ko‘rsatadi[12]: “axloq” — leksik birlik sifatida “xulq”ni, konseptual birlik sifatida esa “ma’naviy me’yor”ni ifodalaydi.

Shunday qilib, “vijdon” leksemasi til tizimida leksik-semantik birlik sifatida inson insofi va diyonati bilan bog‘liq bo‘lsa, falsafiy talqinda u jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy ong shakli sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, “vijdon” tushunchasi til–madaniyat–ma’naviyat uchligining uzviy bog‘lovchisi sifatida qaralishi mumkin.

12 Farrux Yuldashev. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasining sistemasi va semantikasi. – Navoiy, 2023. – B. 128.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. / Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967.
2. Фалсафа.Комусий лугат. –Тошкент: Шарк, 2004.
3. Абдуллаева М. Ва бошкалар. Фалсафа кискача изохли лугат. . –Тошкент: Шарк, 2004.
4. Фалсафа энциклопедик лугат. –Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. I. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022.
6. Farrux Yuldashev. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasining sistemasi va semantikasi. – Navoiy, 2023. – B. 128.

Bibi-Aysha SALIYEVA,
Oriental universiteti
Lingvistika (Arab tili) yo‘nalishi
2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **Nigora ERKINOVA,**
Fan va texnologiyalar universiteti
Pedagogika kafedrasi f.f.f.d.(PhD), dots.v.b.

ARAB VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MAVHUM SO‘ZLARNING O‘RGANILISHI: TARIXIY VA NAZARIY TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada arab tilshunosligi tarixida mavhum so‘zlarning (al-alfaz al-ma’naviyya) o‘rganilishi masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sibavayh, Xalil ibn Ahmad, Zamaxshariy va Ibn Jinni kabi klassik olimlarning qarashlari zamonaviy pragma-semantik yondashuvlar bilan qiyoslanadi. Shuningdek, maqolada mavhum so‘zlarning morfologik yasalishi, ildiz va qolip munosabatlari hamda arabcha mavhum birliklarning o‘zbek tilida kechgan semantik transformatsiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *arab tili, mavhum so‘zlar, semantika, Sibavayh, Ibn Jinni, masdar, kognitiv tilshunoslik, kontekstual ma’no, pragmatika, o‘zbek tili, semantik transformatsiya.*

Аннотация: в данной статье анализируется изучение абстрактных существительных (аль-альфаз аль-ма’навийя) в истории арабского языкознания. В исследовании сопоставляются взгляды классических ученых, таких как Сибавейхи, Халиль ибн Ахмад, Замахшари и Ибн Джинни, с современными прагма-семантическими подходами. Также освещаются вопросы морфологического словообразования абстрактных слов и семантические трансформации арабских абстрактных заимствований в узбекском языке.

Ключевые слова: *арабский язык, абстрактные слова, семантика, Сибавейхи, Ибн Джинни, масдар, когнитивная лингвистика, контекстуальное значение, прагматика, узбекский язык.*

Annotation: this article analyzes the study of abstract nouns (al-alfaz al-ma’naviyya) in the history of Arabic linguistics. The research compares the views of classical scholars such as Sibawayh, Khalil ibn Ahmad, Zamakhshari, and Ibn Jinni with modern pragma-semantic approaches. Furthermore, the article explores the morphological derivation of abstract words and the semantic transformations of Arabic abstract loanwords within the Uzbek language context.

Keywords: *Arabic language, abstract nouns, semantics, Sibawayh, Ibn Jinni, masdar, cognitive linguistics, contextual meaning, pragmatics, Uzbek language.*

Arab tili dunyo tillari orasida eng qadimiy, mukammal tuzilgan va chuqur nazariy asoslangan tillardan biridir. Uning grammatikasi, fonetikasi va semantikasi VIII–IX asrlardanoq shakllanib, o‘ziga xos ilmiy maktablari vujudga kelgan. Ushbu maktablarda nafaqat so‘zning shakliy jihatlari, balki ma’noviy va mantiqiy mazmuni ham tahlil qilingan. Shu bois arab tilshunosligida “mavhum so‘zlar” (الألفاظ المعنوية yoki الأسماء المعنوية)masalasi erta davrlardanoq muhim o‘rin egallagan bo‘lib, bu boradagi ilk fundamental qarashlarni arab tilining birinchi yirik grammatigi Sibavayhning (VIII asr) “Al-Kitob” asarida uchratish mumkin. Sibavayh so‘zlarni maxsus (moddiy) va ma’naviy (mavhum) turlarga ajratar ekan, moddiy so‘zlar sezgi organlari orqali idrok etiladigan narsalarni bildirishi, mavhum so‘zlar esa inson tafakkuri va hissiy idroki bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin jismoniy mavjudlikka ega bo‘lmagan tushunchalarni ifodalashini ta’kidlaydi [1]. Bu nazariyani davom ettirgan Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy (IX asr) “Kitob al-‘Ayn” lug‘atida ayrim ildizlarning ma’nosi vaqt o‘tishi bilan moddiylikdan mavhumlikka o‘tishini, ya’ni semantik kengayish hodisasini kuzatgan [2].

Masalan, “nur” so‘zi dastlab jismoniy yorug‘likni bildirgan bo‘lsa, keyinchalik “ruhiy, ma’naviy nurlanish” ma’nosini ham qamrab olgan.

Tilning mantiqiy va kognitiv asoslari haqida so‘z yuritgan Ibn Jinni (X asr) “Al-Xasa’is” asarida mavhum so‘zlarni inson tafakkurining mahsuli deb ta’riflaydi va tilda “tashxislash” jarayoni orqali mavhum

tushunchalarga shakl berilishini asoslaydi [3]. Klassik arab tilshunosligining cho‘qqisi hisoblangan Zamaxshariy (XII asr) esa “Al-Mufassal” asarida mavhum so‘zlarning balog‘at va fasohatdagi rolini alohida ta’kidlab, ularning Qur’on va hadis tili uchun o‘ta muhim ekanligini, chunki inson hissiyotlari va axloqiy qadriyatlarini ifoda etishda eng samarali vosita ekanligini ko‘rsatib o‘tgan [4]. Shuningdek, Abdulqohir Jurjoniy (XI asr) o‘zining “Daloil al-e’joz” asarida ma’no nazariyasini rivojlantirib, mavhum birliklarning kontekstual bog‘liqligini tahlil qilgan. Ibn Faris (X asr) esa “Maqoyis al-lug‘a” asarida so‘z ildizlari orqali ma’noni aniqlashga harakat qilib, mavhum ma’nolarning ildiz darajasida mavjudligini va arab tili morfologik yo‘l bilan mavhum fikrni ifodalashga qodir ekanini isbotlagan [5].

Qur’on tili sifatida arab tili o‘zining ma’naviy-falsafiy boyligini aynan “iman”, “taqvo”, “adl”, “rahma” kabi yuzlab mavhum so‘zlar orqali namoyon etadi. Bu birliklar tafsir va balog‘at ilmlarida lingvistik birlik bo‘lishdan tashqari, axloqiy va falsafiy kategoriya sifatida ham talqin etiladi. XX–XXI asr arab tilshunosligida esa bu masalani o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Tammam Hasan “Al-lug‘a wa ma‘naha” asarida mavhum so‘zlarning ma’nosi ijtimoiy ong va madaniy kontekst bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatib, “hurriya” yoki “karama” kabi so‘zlarni jamiyat tafakkurining mahsuli sifatida baholaydi [6]. Arab tili tizimida mavhum so‘zlar asosan, ism toifasiga kirsa-da, ularning aksariyati harakat yoki holatni moddasiz ifodalovchi masdarlardan yasalishi ularning abstrakt tabiatini belgilaydi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, arab tilida mavhum so‘zlar o‘ta elastik bo‘lib, ularning aniq ma’nosi faqat kontekst orqali aniqlanadi, bu esa tilning semantik tizimi naqadar ko‘p qatlamli ekanligidan dalolat beradi [7].

Arab va o‘zbek tillari o‘rtasidagi ko‘p asrlik lisoniy aloqalar natijasida ko‘plab arabcha mavhum birliklar o‘zbek tili leksik qatlamiga o‘zlashgan. Biroq, bu jarayonda so‘zlarning dastlabki semantik asosi saqlangan holda, ularning ma’no ko‘lami torayishi, kengayishi yoki butunlay yangi konnotativ ma’no kasb etishi kuzatiladi. Masalan, arab tilidagi “ma’rifat” (معرفة) so‘zi etimologik jihatdan “bilish”, “tanish” (tanib olish) ma’nolarini anglatadi. Klassik arab tilshunosligida bu so‘z insonning aqliy va hissiy bilish jarayonini ifodalovchi mavhum ism sanaladi. O‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida esa ushbu birlikning semantik ko‘lami kengayib, u nafaqat “bilish”, balki “madaniyat”, “ma’naviy yuksalish” va “ta’lim-tarbiya” kabi ijtimoiy-falsafiy tushunchalarni ham qamrab olgan. Bu hodisa o‘zbek tilshunosligida arabcha mavhum leksikaning o‘zbek xalqi dunyoqarashi va islomiy tafakkuri ta’sirida yangi ma’no qatlamlari bilan boyiganini ko‘rsatadi. Shuningdek, “ixlos” (إخلاص) so‘zi ham arab tilida “poklash”, “xolis bo‘lish” (bir narsani aralashmalardan tozalash) degan lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, asosan, diniy-falsafiy matnlarda “e’tiqodning sofligi” ma’nosida qo‘llaniladi. O‘zbek tili kontekstida esa ushbu mavhum birlik pragmatik jihatdan “biror ishga astoydil berilish”, “hurmat va ehtirom bilan yondashish” kabi nutqiy ma’nolarni ham ifodalay boshladi. Bu kabi semantik transformatsiyalar mavhum so‘zlarning nafaqat statik lug‘aviy birlik, balki dinamik nutqiy vosita ekanligidan dalolat beradi. Bunday tahlillar uchun o‘zbek tilshunosi N.Mahmudovning til birliklarini muloqot va so‘zlovchi maqsadi bilan bog‘liq holda o‘rganish haqidagi qarashlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [8].

Mavhum so‘zlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular arab tilida ko‘pincha juftliklar yoki antonimik qarshiliklar asosida semantik maydon hosil qiladi. Masalan, “adl” (adolat) va “zulm” (zulm/noloyiqlik), “ilm” (bilim) va “jahl” (bilimsizlik/nodonlik) kabi tushunchalar o‘zaro ziddiyatda o‘rganiladi. Arab tilshunosligida ushbu juftliklar shunchaki qarama-qarshi so‘zlar emas, balki insonning hayotiy va axloqiy muvozanatini belgilovchi kategoriyalar sifatida tavsiflanadi. Ibn Jinni ta’kidlaganidek, mavhum tushunchalar tilda insonning ichki kechinmalarini tartibga soladi. O‘zbek tilida ham ushbu so‘zlar xuddi shu semantik iyerarxiyada saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilish chastotasi va uslubiy bo‘yoqlari mahalliy nutq etikasi (etnolingvistik xususiyatlar) asosida shakllangan.

Arab tilidagi mavhum so‘zlarning o‘rganilishida ularning uslubiy (stilistik) va pragmatik imkoniyatlari alohida tadqiqot obyektidir. Arab balog‘at ilmida mavhum birliklar ko‘pincha nutqning ta’sirchanligini oshirish, fikrni obrazli va lirik ifodalash uchun xizmat qiladi. Xususan, “mujarrad” (mavhum) tushunchalarni “mushaxxas” (aniq/moddiy) obrazlar orqali ifodalash arab tilshunosligida o‘ziga xos an’anadir. Masalan, arab she’riyati va nasrida “o‘lim” (الموت) yoki “baxt” (السعادة) kabi mavhum tushunchalar ko‘pincha harakatlanuvchi, jonli mavjudot sifatlari bilan tavsiflanadi.

Bu jarayonni Abdulqohir Jurjoniy “Asror al-balog‘a” (balog‘at sirlari) deb atab, mavhumlikning moddiylik bilan uyg‘unlashuvini tilning eng yuksak imkoniyati sifatida baholagan [9]. Bunday uslubiy vositalar so‘zlovchining ichki kechinmalarini tinglovchiga yetkazishda oddiy grammatik qoliplardan ko‘ra samaraliroq hisoblanadi.

Zamonaviy pragmalingvistika nuqtayi nazaridan yondashilsa, arab tilidagi mavhum so‘zlar ko‘pincha “nutqiy aktlar” tarkibida asosiy yukni o‘z zimmasiga oladi. J.Serl va J.Ostin kabi olimlarning nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, arab tilida “va’da”, “iltimos”, “duo” yoki “tashakkur” mazmunidagi nutqiy harakatlar bevosita mavhum leksika bilan bog‘liqdir. Masalan, arab muloqot odobida ko‘p qo‘llaniladigan “karam” (saxiylik), “lutf” (muloyimlik), “ixlos” (samimiylik) so‘zlari shunchaki lug‘aviy birlik emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi pragmatik indikatorlardir. Arab tili tadqiqotchisi T. G‘aniyevaning ta’kidlashicha, muloqot jarayonida bunday so‘zlarning tanlanishi so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan munosabatini va nutqiy strategiyasini belgilaydi [10]. Bu esa mavhum so‘zlarning nafaqat semantik, balki kuchli pragmatik potensialga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, arab tilida mavhum so‘zlarning antonimik uyadoshligi ularning konseptual maydonini yanada kengaytiradi. Arab tilshunosligida “haq” (حق) va “botil” (باطل) kabi mavhum juftliklar insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy ustunlar sifatida tahlil qilinadi. Ushbu birliklar o‘zbek tiliga o‘zlashganda ham o‘zining qadimiy konseptual mohiyatini saqlab qolgan, biroq ularning nutqiy qo‘llanilishi milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar asosida yangicha pragmatik ranglar bilan to‘yingan. Arab tili grammatik tizimining o‘ziga xosligi shundaki, undagi ildiz va qolip munosabatlari terminologik bazani muntazam boyitishga xizmat qiladi. Mavhum leksikaning shakllanishida bitta uch harfli ildizdan o‘nlab turli semantik qatlamga ega birliklar yasalishi mumkin. Masalan, *ayn-lom-mim* (ع ل م) ildizi misolida *ilm* (nazariy bilim), *ta’lim* (faoliyat), *ma’lumot* (substansiya), *olam* (falsafiy kategoriya) va *alomat* (semiotik belgi) kabi o‘zaro bog‘liq, ammo har biri o‘ziga xos mavhumlik darajasiga ega bo‘lgan so‘zlar tizimi vujudga keladi. Bu esa arab tili morfologiyasining naqadar kuchli ma’no yasash imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi

Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligida mavhum so‘zlarni o‘rganish VIII asrdagi grammatik tasniflardan boshlanib, bugungi kunda kognitiv va pragmatik tahlillar darajasiga yetdi. Sibavayh, Zamaxshariy va Ibn Jinni kabi ulamolarning bu boradagi ilmiy merosi bugungi zamonaviy tilshunoslikning eng murakkab muammolarini yechishda hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Arab va o‘zbek tillari misolida mavhum leksikani qiyosiy-pragmatik tadqiq etish, har ikki tilning lisoniy dunyo manzarasini chuqur anglashga, shuningdek, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslikning nazariy poydevori mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mavhum so‘zlar tizimi insoniyatning intellektual va ruhiy taraqqiyotini o‘zida aks ettiruvchi eng murakkab va ayni paytda eng boy lisoniy xazinadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сибавейҳи. Ал-Китаб. – Каир: Мактаба ал-Ханжи, 1988.
2.Аль-Фарахиди. Китаб аль-Айн. – Багдад: Дар ар-Рашид, 1980.
3.Ибн Жинни. Ал-Хасаис. – Каир: Дар ал-Кутуб ал-Мисрийя, 1952.
4.Замахшари. Ал-Муфассал фи санъат ал-и’раб. – Бейрут: Дар ал-Жийл, 1990.
5.Ибн Фарис. Макаис ал-луга. – Каир: Дар ал-Фикр, 1946.
6.Таммам Хассан. Ал-луга ва ал-мана. – Каир: Алам ал-кутуб, 1994.
7.Махмуд Фахми Хижозий. Ал-лугавиййат ал-арабиййа. – Кувейт: Вакалат ал-матбуат, 1973.
8.Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... – Тошкент: Академнашр, 2013.
9.Абдулқоҳир Журжоний. Асрор ал-балоға. – Байрут: Дар ал-Кутуб ал-илмийя, 1995.
10.Ғаниева Т. Прагмалингвистика асослари. – Тошкент: Фан, 2012.

Anvaruddin RAXIMOV,
Oriental universiteti
Lingvistika (arab tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **Nigora ERKINOVA,**
Fan va texnologiyalar universiteti
Pedagogika kafedrasi f.f.f.d.(PhD), dots.v.b.

SHARQ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MATNNI LINGVOPOETIK ASPEKTDA O‘RGANISH ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq, xususan arab va turkiy (o‘zbek) tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganishning tarixiy va nazariy asoslari yoritiladi. Qadimgi davrlardan boshlab mumtoz va zamonaviy davrgacha bo‘lgan ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Arab balog‘at ilmi, turkiy yozma yodgorliklar, mumtoz o‘zbek adabiyoti va zamonaviy lingvopoetika nazariyalari qiyosiy aspektda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, balog‘at, badiiy matn, fasohat, poetik til, matn lingvistikasi.*

Аннотация: в статье рассматриваются исторические и теоретические основы лингвопоэтического изучения художественного текста в восточном языкознании, в частности в арабской и тюркской (узбекской) лингвистике. Анализируются научные концепции, сформировавшиеся с древнего периода и охватывающие классический и современный этапы развития. В сравнительном аспекте исследуются арабская наука о балогате, тюркские письменные памятники, классическая узбекская литература и современные теории лингвопоэтики.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, балогат, художественный текст, фасохат, поэтический язык, лингвистика текста.*

Annotation: this article explores the historical and theoretical foundations of the linguopoetic study of literary texts in Eastern linguistics, particularly in Arabic and Turkic (Uzbek) linguistic traditions. Scholarly approaches from ancient times through the classical and modern periods are analyzed. Arabic rhetoric (balagha), Turkic written monuments, classical Uzbek literature, and modern linguopoetic theories are examined from a comparative perspective.

Key words: *linguopoetics, balagha, literary text, fasaḥa, poetic language, text linguistics.*

Til va adabiyotning o‘zaro uzviy bog‘liqligi masalasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Badiiy matn tahlilida til birliklarining estetik vazifasi, tovush, so‘z va sintaktik qurilmalarning badiiy ta’sir hosil qilishdagi roli lingvopoetika fanining asosiy tadqiqot doirasini tashkil etadi. Ushbu maqolada sharq va o‘zbek tilshunosligida matnni lingvopoetik aspektda o‘rganish an’analari tarixiy izchillikda yoritiladi.

Qadimgi davr Markaziy Osiyo qadimgi davrlarda turli madaniyatlar, tillar va adabiy an’analarning kesishgan hududi bo‘lib, badiiy til va tilshunoslikning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Bu davrda yashagan olim-u shoirlar tilning badiiy jihatlarini, she’riyat qonuniyatlarini hamda nutq san’atini o‘rganishga katta e’tibor berganlar. Bu hududdagi qadimgi badiiy til jihatlari o‘ziga xos bo‘lib, bunda she’riy va obrazlilik xarakterlari, musiqaviylik hamda ohangdorlik xususiyatlari, diniy-falsafiy mazmundagi xususiyatlari bilan ajralib turgan.

Ko‘kturk, Uyg‘ur va Qoraxoniylar davrida yaratilgan badiiy yodgorliklar tabiat tasviri, qahramonlik ruhi va mifologik obrazlar bilan ajralib turadi. Xususan, VII–VIII asrlarga mansub “Kultegin yodgorligi” turkiy adabiy tafakkurning qahramonlik, targ‘ibiy va falsafiy ruhdagi poetik uslubini namoyon etadi. Sharq madaniy makonida ilohiy so‘z qudrati haqidagi tasavvurlar esa zardushtiylik matni – “Avesto”da yaqqol ifodalangan bo‘lib, u qadimgi diniy-falsafiy tafakkurning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Turkiy xalqlar – Ko‘kturk, Uyg‘ur va Qoraxoniylar davrida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari tabiat tasviri, qahramonlik ruhiyati hamda mifologik obrazlarga boy bo‘lgan. Qadimgi turkiy she’riyat alliteratsiya, qofiyalashuv va aniq ritmik tuzilish (4+4, 7+7 bo‘g‘inli misralar) bilan ajralib turadi. Shuningdek, So‘g‘d va Xorazm madaniy muhitiga mansub qo‘shiqlardagi lirik ohang, ixcham iboralar qadimgi davrdayoq tilning badiiy qudratidan ongli ravishda foydalanilganini va so‘z san’atiga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi[1].

Markaziy Osiyoda til taraqqiyotida turkiy tillarning ta’siri muhim o‘rin tutgan bo‘lib, turkiy xalqlar badiiylik va so‘z san’atiga alohida e’tibor qaratganlar. Buni XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida yaqqol ko‘rish mumkin. Mazkur asarda nafaqat shu davr tili, balki uning

1 A. Hayitmetov A. “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar” 1992-yil.

grammatikasi va turli dialektlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Unda yana she’riyatga ham urg‘u qaratilgan[2]. Asarda keltirilgan she’rlar va maqollar turkiy tillarda badiiy ifoda, obrazlilik hamda poetik tafakkur erta shakllanganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, adabiy turkiy tilning ilk yirik badiiy yodgorliklaridan biri, she’riy uslub va axloqiy targ‘ibot tarzida yozilgani ham shu davr she’riyatida badiiylikka e’tibor mavjudligini ko‘rsatadi[3].

Arab diyori va unga tutash hududlarda tilning estetik va ifodaviy imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu badiiy tilga oid nazariy qarashlarning erta davrlardayoq shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu an’ana arab tilshunosligida “علم البلاغة”[4] nomi bilan ma’lum bo‘lgan ilmiy yo‘nalishda o‘z ifodasini topgan. Arab xalqlari orasida Islom dini kirib kelishidan avval ham yuksak badiiy mahoratga ega shoirlar mavjud bo‘lgan. Biroq badiiy nutq va so‘z san’atini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish mustaqil fan sifatida aynan islomdan keyingi davrda shakllangan. Balog‘at (arab. بلاغة) atamasi aniq, ravon va ta’sirchan nutqni ifodalash ma’nosida qo‘llanadi. Islom dinining kirib kelishi bilan Qur’oni Karim tilovati,[5] uni tartil va tajvid qoidalariga muvofiq o‘qish hamda mazmunini chuqur anglash jarayoni Balog‘at ilmining yanada yuksak bosqichga ko‘tarilishiga turtki bo‘ldi. Shu bois Qur’on arab tilidagi balog‘atning eng oliy namunasi sifatida e’tirof etiladi. Undagi uslubiy go‘zallik, ohangdorlik va teran ma’nolar arab tilida nutq estetikasi va badiiy ifodani chuqur o‘rganishga kuchli rag‘bat uyg‘otgan.

VIII – IX asrlarda yashagan Al-Jahiz “Bayon va tabyin” asarida balog‘atga doir fikrlarini ilk bor tizimli ifodalaydi. Unda Jahiz quyidagi fikrlarni ilgari suradi:[6]

1. Bayon (ifoda) tushunchasi. Fikrni aniq, ta’sirli, va ma’nodorroq yetkazish san’ati deb ta’kidlaydi.

Al-Jahiz fikricha, tilning asosiy vazifasi fikrni aniq va tushunarli tarzda ifodalash, ya’ni so‘zlovchi bilan tinglovchi orasida samarali muloqotni ta’minlashdir. U tilni faqat estetik vosita sifatida emas, balki ma’no yetkazish va muloqotni amalga oshirish vositasi sifatida ham ko‘radi. Shu nuqtayi nazardan, so‘zning ma’nosi va ishlatilish uslubi, nutqning aniqligi va tushunarli bo‘lishi juda muhimdir.

2. Balog‘atning darajalari.

Jahizga ko‘ra, balog‘at so‘zning qisqaligi yoki uzunligida emas, balki uning o‘rnida, maqsadga muvofiq ishlatilishidadir. U so‘zning tovush ohangi, mantiqiy izchilligi, ma’no chuqurligi va uslubiy uyg‘unligiga alohida e’tibor beradi.

3. Nutq va tafakkur aloqasi.

Jahiz nutqni inson tafakkurining ifodasi deb biladi. U inson nutqini fikrning aks-sadosi sifatida tahlil qiladi.

4. Qur’on balog‘ati:

U Qur’onning balog‘atini “ilohiy bayon” sifatida ulug‘laydi. Qur’onda til vositalarining eng mukammal namunasi mujassam ekanligini ta’kidlaydi[7].

X asrda ko‘plab she’riyat va balog‘at haqidagi asarlar paydo bo‘ldi, lekin bizgacha faqat Askariyning 1004- yilda yozgan “Kitabu-s-sina’atayn al-kitaba va-sh-shi’r” (“Ikki hunar kitobi: yozuv (nasr) va she’riyat”) asari yetib kelgan. Aslida, bu asar avvalgi mualliflarning ushbu sohadagi fikrlarini jamlagan asar bo‘lib, Askariy she’riyat va balog‘atni birlashtirib, ularning har biriga teng ravishda murojaat qiladi. Askariy tomonidan boshlangan bu yo‘nalish arab sharqida qabul qilingan va keyingi shu kabi asarlarda keng tarqalgan. Masalan, Ibnu-l-Asiyrning mashhur “المثل السائر في أدب الكاتب و الشاعر”[8] asari mavjud. Ibnu-l-Asiyr “علم البديع”[9]ni balog‘a ilmining alohida bo‘limi sifatida qarab, o‘z asarini uning fundamental qoidalari bilan kirishdan boshlaydi. Asarning so‘nggi ikkita bo‘limida u “so‘z san’ati” (الصناعة اللفظية) va “ma’no san’ati” (الصناعة المعنوية)ni tahlil qiladi. “Ilmu-l-bayan”ning obyekti tilning tozalik va to‘g‘riligi (فصاحة) hamda so‘zlar orqali maqsadga erishishdir.

XI asrda arab she’riyatiga oid eng muhim asarlardan biri Ibn Roshiyqning (995–1000-yillarda tug‘ilgan, 1063–1064-yillarda vafot etgan) “ كتاب العمدة في صناعة الشعر و نقده ”[10] (She’riyat san’ati va uning tanqidi asoslari) asari bo‘lgan. Mazkur asar she’riyat va uning tanqidiga oid eng keng qamrovli va yaxshi tizimlashtirilgan nazariyani o‘z ichiga oladi, shu bilan birga, o‘sha davrning she’riyatini ham ifodalaydi. Ibn Roshiyqning asarida mumtoz arab she’riyatida mazmun va shakl muammosiga katta e’tibor qaratilgan. Kitob o‘zining mohiyati bo‘yicha arab sheriyatiga oid barcha avvalgi asarlarning mukammal qisqacha xulosasini taqdim etadi[11].

Qudama ibn Ja’far (IX-X asr) – “Naqd ash-She’r” asarida she’riyatning estetik tamoyillarini belgilaydi.

2 https://old.allomalar.uz/allomalar_batafsil/16

3 https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html

4 Xamidjon B. Raximov. Arab balog‘at ilmining shakllanishi va rivojlanishi oriental journal of philology

5 Saydaliyev Muhammad Hoji Mirzo – “Qur’on: ilohiy ko‘rsatma va yuksak badiiyat uyg‘unligi” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 1 | issue 11 issn 2181-1784 scientific journal impact factor. 2021.

6 Oriental Journal of Philology jurnali maqolasi “arab balog`at ilmining shakllanishi va rivojlanishi” Pages: 778-785

7 “The Quranic Study in al-Jahiz’s Book Kitab al-Bayan wa al-Tabyin” – ResearchGate maqolasi https://www.researchgate.net/publication/367390501_the_quranic_study_in_al-jahiz%27s_book_kitab_al-bayan_wa_al-tabyin_as_a_model_yiaerjiaxizideshu_taojianaerbayanxiaodaliyazhouaertabienweimoxing_degulanjingyanjiu

8 ضياء الدين نصر الله بن محمد بن عبد الكريم الشيباني الجزري، المثل السائر في أدب الكاتب والشاعر، تحقيق: أحمد الحوفي وبدوي طبانة، الناشر: نهضة مصر للطباعة والنشر والتوزيع، القاهرة، الطبعة: الثانية، 1939. – ج. 2. – ص. 3

9 [1] ابن رشيق القيرواني، أبو علي الحسن. العمدة في محاسن الشعر وآدابه ونقده. تحقيق: محمد محيي الدين عبد الحميد. - بيروت: دار الجيل، 1981. - ج. 1. - ص. 105.

10 ابن رشيق القيرواني، أبو علي الحسن. العمدة في محاسن الشعر وآدابه ونقده. تحقيق: محمد محيي الدين عبد الحميد. - بيروت: دار الجيل، 1981. - ج. 1. - ص. 105.

11 Xamidjon B. Raximov “Arab balog‘at ilmining shakllanishi va rivojlanishi” Oriental Journal of Philology jurnali maqolasi Pages: 778-785

Bu arab she'riyatining estetik asoslari va balog'atga doir fikrlarini ilmiy asosda tahlil qilgan birinchi yozma manbalardan biridir. U she'rda uning estetik tamoyillari haqida shu asarida o'z fikrini bayon qiladi va she'r go'zalligini ikki qismga ajratadi:[12]

1. Ma'no, ya'ni fikr teranligi va dolzarbligi. Bunda o'quvchining she'rdan oladigan estetik his-tuyg'ulari unda ishlatilgan so'zlarning ma'no jihatdan naqadar kuchli ma'nolarda ishlata olish, mazmunning kengligi, undagi tashbehlarning ishlatilishini tahlil qilib, fikr yuritadi.

2. Lafz, ya'ni ifoda uslubining nafisligi va fasohatini inobatga oladi. Bunda Qudama she'rni ifoda etishda fonetik jihatlarni ham nazarda tutadi. Qudama tashbeh, kinoya, majoz, va boshqa badiiy san'atlarning adabiy baho berishda muhim mezon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu orqali u balog'at ilmining keyingi rivojiga asos yaratdi. Qudama she'rni baholash mezonlarini birinchi bo'lib ilmiy asosda belgilagan, bunda u so'z va ma'noning uyg'unligi, o'ziga xoslik va ta'sirchanlik, estetik aniqlik kabi jihatlarni aytib o'tadi.

Qudama ilk bor fasohat bilan balog'at orasidagi farqni nazariy jihatdan tushuntirdi.

Yana bir arab tilshunosligida bu sohada ishlagan olimlardan biri bu Ibn Jinniydir. U tovushlar va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratgan. Uning fikricha, tovushlar nafaqat fonetik birliklar, balki ma'no tashuvchilardir. Bu g'oyani u ""سر صناعة الإعراب - "Sirr Sina at al-I'rab" asarida bayon qilgan. Ibn jinniy she'riyatda fonetik go'zallikning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikricha, she'rning estetik ta'siri tovushlarning uyg'unligi va ritm tuzilishiga bog'liq. Bu yondashuv arab she'riyatining fonetik tahlilining rivojlanishiga xizmat qilgan[13].

Xulosa shuki, o'tkazilgan tahlillar natijasida:

1) Sharq, xususan, arab va o'zbek tilshunosligida matnni lingvopoetik o'rganish uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u "Balog'at ilmi" doirasida shakllangan. Al-Jahiz, Ibn Jinniy va Qudama ibn Ja'far kabi olimlarning qarashlari zamonaviy matn tilshunosligi va lingvopoetikaning poydevori bo'lib xizmat qiladi;

2) mumtoz sharq tilshunosligida badiiy matn tahlilida "lafz" va "ma'no" ning o'zaro mutanosibligi asosiy mezon bo'lgan. Bu yondashuv zamonaviy lingvopoetikaning til birliklarining estetik vazifasini aniqlash tamoyillari bilan to'liq mos keladi;

3) qadimgi turkiy yodgorliklar va arab balog'at ilmi namunalari badiiy nutqning nafaqat informativ, balki kuchli ta'sirchanlik funksiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Ibn Jinniyning tovush va ma'no bog'liqligi haqidagi g'oyalari bugungi kun fonosemantikasi va she'riy matn tahlili uchun muhim manbadir.

4) Sharq va o'zbek tilshunosligidagi boy merosni zamonaviy metodologik usullar bilan qiyosiy o'rganish, bugungi o'zbek lingvopoetikasini yangi nazariy xulosalar bilan boyitish imkonini beradi.

Xullas, matnni lingvopoetik aspektda tadqiq etishda sharqona klassik an'analar va zamonaviy tilshunoslik yutuqlarini sintez qilish badiiy asar mohiyatini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

12 Academia.edu https://www.academia.edu/10852856/Excerpt_from_Qudama_Ibn_Ja_far_s_Naqd_ash_Shi_r_Criticism_of_Poetry_

13 www.lam.edu.ly Journal of Academic Research Vol. 15(2020)47-56. Yousef Mokhtar Elramli, Tareq Bashir Maiteq page47

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hayitmetov A. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1992.

2.Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.160-b.

3.**Задорнова, В. Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: дис. ... д-ра филол. наук / В.** Я. Задорнова. – Москва, 1992. 427 с.

4.Ali Hamzah Hadi, Ahmed Kareem Mustafa Al-Abadi. The effectiveness of a proposed strategy based on deconstructive theory in developing the skills of analyzing the literary text in the Department of Arabic Language in the faculties of education // Journal for Educators, Teachers and Trainers. 2023. – Vol. 14 (2).

6.Arab balog'at ilmining shakllanishi va rivojlanishi // Oriental Journal of Philology. 2025. 778–785-b.

7.The Quranic Study in al-Jahiz's Book Kitab al-Bayan wa al-Tabyin as a Model // ResearchGate. URL: https://www.researchgate.net/publication/367390501

8.Yasser Muhammad. Text Grammar in Modern Arabic Poetry: Doctor of Philosophy in Arabic Studies. 2013.

9.Yousef Mokhtar Elramli, Tareq Bashir Maiteq. Ibn Jinni's views on the relationship between sound and meaning // Journal of Academic Research. 2020. – Vol. 15. P. 47–56.

10.Excerpt from Qudama Ibn Ja'far's Naqd ash-Shi'r (Criticism of Poetry). Academia.edu. URL: https://www.academia.edu/10852856/

11.Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit-turk. Allomalar.uz portali. URL: https://old.allomalar.uz/allomalar_batafsil/16

12.Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Emin Usmon tarjimasi). Xurshid Davron kutubxonasi. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html

Zulfinoy XAYDAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) magistranti
haydarovazulfinoy@gmail.com
telefon: +998943600279



KASBIY KOMPETENSIYALAR VA INTEGRATIV YONDASHUVNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy, metodologik va ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Integrativ yondashuvning mohiyati, uning kompetensiyaviy ta'lim bilan uzviy bog'liqligi hamda oliy ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida mualliflik konsepsiyasi ishlab chiqildi. Natijalar integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va professional faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishini ko'rsatdi.Maqola OAK talablariga muvofiq IMRAD tuzilmasida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *integrativ yondashuv, kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy ta'lim, fanlararo integratsiya, zamonaviy ta'lim.*

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические и методологические основы формирования профессиональных компетенций студентов на основе интегративного подхода в системе современного образования. Раскрыта сущность интегративного подхода, его взаимосвязь с компетентностной моделью обучения и значение в профессиональной подготовке будущих специалистов. На основе системного, компетентностного и интегративного подходов проведён теоретический анализ научно-педагогической литературы. Результаты исследования подтверждают, что интегративный подход способствует повышению уровня профессиональных знаний, практических навыков и готовности студентов к профессиональной деятельности. Статья структурирована в соответствии с требованиями ОАК и модели IMRAD.

Ключевые слова: *интегративный подход, профессиональная компетенция, компетентностное обучение, междисциплинарная интеграция, современное образование.*

Annotation: the article examines the theoretical and methodological foundations of developing students' professional competencies based on an integrative approach in modern education. The essence of the integrative approach, its relationship with the competency-based education model, and its role in professional training are analyzed. Using systemic, competency-based, and integrative approaches, the study provides a theoretical analysis of pedagogical literature. The results indicate that integrative learning significantly enhances students' professional knowledge, practical skills, and readiness for professional activity. The article is structured according to OAK requirements and the IMRAD model.

Key words: *integrative approach, professional competence, competency-based education, interdisciplinary integration, modern education.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozoridagi talablarning tezkor o'zgarishi sharoitida takomillashib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida faqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni emas, balki kasbiy faoliyatni mustaqil, samarali va mas'uliyat bilan amalga oshira oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.Shu bois ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish, ya'ni talabalarda aniq kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning yetakchi paradigmasiga aylandi.

Kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish esa integrativ yondashuv bilan uzviy bog'liqdir. Integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish hamda bilimlarni real kasbiy vaziyatlar bilan bog'liq holda o'zlashtirishga imkon yaratadi. Natijada talabalarning kasbiy kompetensiyalari tizimli va kompleks tarzda rivojlanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy ta'lim sharoitida integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning

nazariy asoslarini aniqlash, ushbu yondashuvning kompetensiyaviy ta’lim bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda oliy ta’lim jarayonida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishdagi pedagogik ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

— integrativ yondashuv tushunchasining pedagogik mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

— kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda uning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish;

— integrativ yondashuv va kompetensiyaviy ta’lim o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni ilmiy asoslash;

— zamonaviy ta’lim jarayonida integrativ yondashuvning talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini yoritib berish.

Methods (Tadqiqot metodlari). Mazkur tadqiqot jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Xususan, pedagogika va ta’lim nazariyasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish orqali integrativ yondashuv va kompetensiyaviy ta’limning konseptual asoslari aniqlashtirildi. Taqqoslash metodi yordamida turli tadqiqotchilarning qarashlari o‘zaro solishtirilib, umumiy va farqli jihatlari belgilandi.

Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid nazariy xulosalarni yagona mantiqiy tizimga keltirishga xizmat qildi. Shuningdek, mantiqiy tahlil va deduktiv xulosa chiqarish metodlari orqali mavjud nazariy qarashlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar tashkil etib, ular ta’lim jarayonini o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Mazkur metodlar majmuyi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining mohiyatini chuqur tahlil qilishga zamin yaratdi.

Results (Tadqiqot natijalari). O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Xususan, fanlararo integratsiya ta’lim mazmunining yaxlitligini ta’minlab, bilimlarning tizimli o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.Natijada talabalarda nazariy bilimlar alohida fanlar doirasida emas, balki real kasbiy faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Tadqiqot natijalari integrativ yondashuvning talabalarning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligining ta’minlanishi talabalarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy masalalarga ijodiy yondashishga undaydi. Shuningdek, integrativ yondashuv talabalarning kommunikativ, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi aniqlandi. Olingan natijalar integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyalarni kompleks shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi ekanligini ko‘rsatadi.

Discussion (Muhokama). Tadqiqot davomida olingan natijalar integrativ yondashuvning kompetensiyaviy ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqlaydi.Nazariy tahlil jarayonida aniqlangan xulosalar pedagogika sohasidagi yetakchi olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ldi. Xususan, fanlararo integratsiya va nazariya bilan amaliyotning uzviy bog‘lanishi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi tasdiqlandi.

Integrativ yondashuv talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu holat talabalarni real kasbiy faoliyat sharoitlariga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlari – raqobatbardosh, faol va mas’uliyatli mutaxassislarni tayyorlash jarayonida integrativ yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Conclusion (Xulosa). Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’limda integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ta’lim mazmuni, metodlari va shakllarini uyg‘unlashtirish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi. Integrativ yondashuv va kompetensiyaviy ta’lim uyg‘unligi asosida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va professional faoliyatga tayyor mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolotov V. A., & Serikov, V. V. *Kompetentnostnaya model obrazovaniya*.–Moscow: Pedagogika, 2020
2. Hodjaev B. X. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*.–Tashkent: Fan, 2021
3. UNESCO.*Education for sustainable development*. –Paris: UNESCO, 2018
4. Zimnyaya I. A. *Klyuchevye kompetentsii kak rezultat sovremennogo obrazovaniya*.–Moscow: Research Center, 2019

Gulshirin RUSTAMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) magistranti



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari va metodologik yondashuvlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ekologik madaniyat shaxsning tabiatga nisbatan ongli munosabati, ekologik bilimlari, qadriyatlari hamda amaliy faoliyatini aks ettiruvchi integral sifat sifatida talqin etiladi. Tadqiqot jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan, aksiologik va tizimli yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari aniqlangan. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish hamda tajriba-sinov elementlari asosida boshlang'ich ta'lim jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiyani takomillashtirish, o'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *ekologik madaniyat, boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, pedagogik asoslar, metodologik yondashuvlar, ekologik kompetensiya.*

Аннотация: в статье проведён научно-теоретический анализ педагогических основ и методологических подходов формирования экологической культуры у учащихся начальных классов. Экологическая культура рассматривается как интегральное качество личности, включающее экологические знания, ценности, сознательное отношение к природе и практическую деятельность. В процессе исследования определены педагогические возможности личностно-ориентированного, деятельностного, аксиологического и системного подходов в формировании экологической культуры младших школьников. На основе анализа психолого-педагогической литературы, педагогического наблюдения и элементов опытно-экспериментальной работы обоснованы эффективные формы, методы и средства развития экологической культуры в условиях начального образования. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования экологического воспитания и повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: *экологическая культура, начальное образование, экологическое воспитание, педагогические основы, методологические подходы, экологическая компетентность.*

Annotation: this article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical foundations and methodological approaches to the formation of environmental culture in primary school students. Environmental culture is interpreted as an integral personal quality that includes environmental knowledge, values, conscious attitudes toward nature, and practical activity. The study identifies the pedagogical potential of learner-centered, activity-based, axiological, and systemic approaches in developing environmental culture at the primary education level. Based on the analysis of pedagogical literature, pedagogical observation, and elements of experimental work, effective forms, methods, and tools for fostering environmental culture in primary school students are substantiated. The findings contribute to improving environmental education and enhancing the overall effectiveness of the educational process.

Key words: *environmental culture, primary education, environmental education, pedagogical foundations, methodological approaches, environmental competence.*

Kirish (Introduction)

Hozirgi globallashuv sharoitida ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar jamiyatning ekologik savodxonligi va madaniyatini oshirish zaruratini keskin kuchaytirmoqda. Shu bois ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi nafaqat ekologiya yoki tabiiy fanlar doirasida, balki pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ekologik madaniyat shaxsning tabiatga nisbatan ongli munosabati, ekologik bilimlari, qadriyatlari va amaliy faoliyatini o‘z ichiga oluvchi integrativ sifatdir. Bu sifatning shakllanishi, avvalo, ta’lim jarayonida, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich sinf yoshi bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda berilgan ekologik bilimlar va tarbiya keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida ekologik bilimlar mazmuni kengaytirilib, ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga intilish kuchaymoqda. Biroq mavjud holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida tizimli pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani, metodologik asoslarning aniq belgilab olinmagani mazkur jarayon samaradorligini pasaytirmoqda.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari hamda metodologik yondashuvlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakl va metodlari asoslab beriladi.

Tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash va metodologik yondashuvlar asosida takomillashtirilgan pedagogik tizimni asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- ekologik madaniyat tushunchasining pedagogik mazmunini aniqlash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini yoritish;
- ekologik madaniyatni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlarni tahlil qilish;
- ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari (Methods)

Mazkur tadqiqotda umumilmiy va pedagogik tadqiqot metodlarining kompleksidan foydalanildi. Tadqiqot metodlari qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tanlandi hamda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan yoritishga xizmat qildi.

Avvalo, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi qo‘llanildi. Mazkur metod orqali ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va metodologik yondashuvlarga oid ilmiy manbalar o‘rganildi hamda tizimlashtirildi. Bu usul tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida ekologik madaniyatni shakllantirishga doir turli yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Natijada pedagogik jarayonni tashkil etishda samarali bo‘lgan metodologik yo‘nalishlar aniqlab olindi va umumlashtirildi.

Pedagogik kuzatish metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiatga munosabati, ekologik xulq-atvor ko‘nikmalari va dars jarayonidagi faolligini o‘rganishda qo‘llanildi. Ushbu metod orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyati rivojlanish darajasini aniqlashga imkon yaratildi.

Shuningdek, suhbat va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar o‘quvchilarning ekologik bilimlari, ota-onalar va pedagoglarning ekologik tarbiya haqidagi qarashlarini aniqlashga xizmat qildi. Olingan ma’lumotlar ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonidagi muammolarni aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotda pedagogik tajriba-sinov ishlari elementlaridan ham foydalanildi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan dars va mashg‘ulotlar ishlab chiqilib, ularning samaradorligi

kuzatildi. Olingan natijalar sifat va qisman miqdor jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni tizimli pedagogik asoslar va aniq metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi pedagogik asoslar muhim hisoblanadi:

Birinchidan, ekologik ta’limning uzluksizligi va izchilligi. Boshlang‘ich sinfda ekologik bilimlar oddiy tushunchalardan boshlanib, o‘quvchanlik va yosh xususiyatlariga mos ravishda murakkablashib borishi zarur.

Ikkinchidan, ta’lim va tarbiyaning integratsiyasi. Ekologik madaniyat faqat bilimlar majmui emas, balki qadriyatlar va amaliy xulq-atvorni ham o‘z ichiga olganligi sababli, uni shakllantirishda ta’limiy va tarbiyaviy komponentlar uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, faoliyatga yo‘naltirilganlik. O‘quvchilar ekologik bilimlarni faqat tinglab yoki o‘qib emas, balki amaliy faoliyat jarayonida egallaganlarida ularning ekologik madaniyati samarali shakllanadi. Masalan, tabiatni muhofaza qilishga doir kichik loyihalar, kuzatishlar va amaliy mashg‘ulotlar buning yorqin misolidir.

Tadqiqot davomida ekologik madaniyatni shakllantirishda samarali bo‘lgan quyidagi metodologik yondashuvlar aniqlandi:

- Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, bunda o‘quvchi ekologik tarbiya jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi;
- Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, ekologik xulq-atvorni shakllantirishda amaliy harakatlarga tayanadi;
- Aksiologik yondashuv, ekologik qadriyatlarni o‘quvchi ongiga singdirishga xizmat qiladi;
- Tizimli yondashuv, ekologik madaniyatni bilim, munosabat va faoliyat birligida ko‘rib chiqadi.

Olingan natijalar asosida ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligi pedagogik yondashuvlar majmuasidan foydalanilganda sezilarli darajada oshishi aniqlandi.

Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, boshlang‘ich sinf bosqichida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi ko‘p jihatdan pedagogik jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqligi tasdiqlandi. Tadqiqotlarda qayd etilgan ekologik tarbiyaga oid umumiy yondashuvlar mazkur ishda boshlang‘ich ta’lim sharoitiga moslashtirildi.

Alohida ta’kidlash joizki, metodologik yondashuvlar faqat nazariy darajada emas, balki amaliy jihatdan ham pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ekologik madaniyatni rivojlantirishda integrativ va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim pedagogik vazifalardan biridir. Ushbu jarayon samaradorligi ekologik tarbiyaning puxta pedagogik asoslariga va metodologik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

Tadqiqot natijalari asosida ekologik madaniyatni shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligi aniqlandi. Bu yondashuvlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida ekologik tarbiyani takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bolotov, V. A., & Serikov, V. V. (2003). *Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazovatelnoy programme*. Moscow: Pedagogika.

2.Zimnyaya, I. A. (2004). *Klyuchevye kompetentsii kak pedagogicheskaya kategoriya*. Moscow: Issledovatelskiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov.

3.UNESCO. (2017). *Education for sustainable development goals: Learning objectives*. Paris: UNESCO Publishing.

4.Tilbury, D. (2011). Education for sustainable development: An expert review of processes and learning. *UNESCO*, 18(2), 33–45.

5.Palmer, J. (1998). *Environmental education in the 21st century: Theory, practice, progress and promise*. London: Routledge.

Gulrux IMAMOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganilgan hamda kasbiy-metodik kompetensiyaning tarkibiy qismlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy-metodik tayyorgarlikni oshirish uchun an’anaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda refleksiv pedagogik tafakkurni rivojlantirish zarur.

Kalit so‘zlar: *kasbiy-metodik tayyorgarlik, ingliz tili o‘qituvchisi, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, metodik kompetensiya, ta’lim sifati.*

Аннотация: в данной статье теоретически анализируются вопросы совершенствования профессионально-методической подготовки будущих учителей английского языка. В ходе исследования были изучены научные работы отечественных и зарубежных ученых и определены компоненты профессионально-методической компетентности. Результаты исследования показывают, что для совершенствования профессионально-методической подготовки необходимо интегрировать традиционные и инновационные образовательные технологии, формировать практические навыки и развивать рефлексивное педагогическое мышление.

Ключевые слова: *профессионально-методическая подготовка, учитель английского языка, компетентность, педагогические технологии, методическая компетентность, качество образования.*

Annotation: this article theoretically analyzes the issues of improving the professional and methodological training of future English language teachers. In the course of the research, the scientific works of local and foreign scientists were studied and the components of professional and methodological competence were identified. The results of the study show that in order to improve professional and methodological training, it is necessary to integrate traditional and innovative educational technologies, form practical skills, and develop reflective pedagogical thinking.

Key words: *professional and methodological training, English language teacher, competence, pedagogical technologies, methodological competence, quality of education.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari va xalqaro integratsiya sharoitida chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘qitish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘qitish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda [1]. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyati bevosita malakali pedagog kadrlarning kasbiy-metodik tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu masala pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi deganda, ularning o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish hamda o‘z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish qobiliyatlari majmuasi tushuniladi. Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish omillari va yo‘nalishlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo‘llanilgan. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida mahalliy va xorijiy manbalar, pedagogik va metodik tadqiqotlar, hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Kasbiy-metodik tayyorgarlik muammosi pedagogika fanida keng o‘rganilgan bo‘lib, turli ilmiy maktablar tomonidan uning mohiyati, tarkibi va shakllanish mexanizmlari tadqiq etilgan.

Rossiyalik olim E.N. Solovova chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, u o‘qituvchining metodik kompetensiyasini kasbiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida ta’riflaydi [2]. Olimaning fikricha, metodik kompetensiya nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar va kreativ qobiliyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarligini baholashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, A.N. Shchukin o‘z tadqiqotlarida chet tillarni o‘qitish metodikasining

nazariy asoslarini chuqur tahlil qilib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga lingvistik, psixologik-pedagogik va metodik komponentlarni kiritadi [3]. Olim ta’kidlaganidek, ushbu komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi va integratsiyasi samarali kasbiy faoliyatning kafolati hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida J. Richards va T. Rodgers chet tili o‘qitish metodlari va yondashuvlari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan [4]. Ularning ishlarida kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan o‘qitish va boshqa zamonaviy metodlarning nazariy asoslari batafsil yoritilgan. Bu tadqiqotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. D. Nunan esa vazifaga asoslangan til o‘qitish konsepsiyasini ishlab chiqib, amaliy yo‘naltirilgan ta’limning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslagan [5]. Uning yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayonida amaliy komponentga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu muammoni o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shganlar. J. Jalolov chet tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borib, milliy ta’lim tizimi sharoitida chet til o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan [6]. Olim tomonidan ishlab chiqilgan metodik tizim mahalliy pedagogik an’analar va xorijiy tajribaning optimal uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan. M.N. Xo‘jaqulov bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalalarini tadqiq qilib, kompetentlik yondashuvining milliy ta’lim tizimida qo‘llanilishi yo‘nalishlarini belgilagan [7].

Zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy-metodik tayyorgarlik tarkibiga bir qator muhim komponentlar kiritiladi. Birinchidan, lingvistik kompetensiya bo‘lib, u o‘qituvchining ingliz tilini mukammal egallashi, til tizimining barcha darajalarini chuqur bilishi va til materialini to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, psixologik-pedagogik kompetensiya bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish va ta’lim jarayonini boshqarish ko‘nikmalarini nazarda tutadi [8]. Uchinchidan, metodik kompetensiya bo‘lib, u dars loyihalash, o‘quv materiallarini tanlash va moslashtirish, turli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash hamda o‘quvchilar faoliyatini baholash ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bir qator omillarga bog‘liqligi aniqlandi. Avvalo, ta’lim dasturlarining mazmuni va tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim standartlari nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarning muvozanatli rivojlanishini ta’minlashi lozim [9]. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida nazariy tayyorgarlikka ko‘proq e’tibor qaratiladi, amaliy komponent esa yetarli darajada rivojlantirilmaydi. Bu esa bitiruvchilarning real pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot tizimini takomillashtirish zaruriyati aniq namoyon bo‘ldi. Pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Biroq, mavjud amaliyot tizimi ko‘pincha qisqa muddatli va yuzaki xarakterga ega bo‘lib, talabalarning to‘liq kasbiy tajriba orttirishi uchun yetarli imkoniyat bermaydi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda pedagogik amaliyot uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etiladi, talabalar birinchi kursdan boshlab maktab muhiti bilan tanishtiriladi.

Refleksiv pedagogik tafakkurni rivojlantirish ham kasbiy-metodik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etildi.Refleksiya o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda doimiy ravishda o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatini nazarda tutadi [10].Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish ularning kasbiy o‘sishining uzluksizligini ta’minlaydi.Buning uchun ta’lim jarayonida portfolio usuli, kundalik yuritish, o‘zaro baholash va boshqa refleksiv texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Raqamli kompetensiya bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi.Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanish, onlayn platformalarda dars o‘tkazish, multimedia materiallarini yaratish va qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur. Shu bilan birga, texnologiyalar ta’limning maqsadi emas, balki vositasi ekanligini unutmaslik lozim.

Kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda mentorlik tizimining ahamiyati ham ta’kidlangan. Tajribali o‘qituvchilarning bo‘lajak kadrlar bilan ishlashi, ularning dastlabki kasbiy tajribasini qo‘llab-quvvatlashi va yo‘naltirishi kasbiy adaptatsiya jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.Mentorlik nafaqat amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga, balki kasbiy qadriyatlar va an’analarni o‘zlashtirish, kasbiy identitetni shakllantirishga ham yordam beradi.

Kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda madaniyatlararo kompetensiyaning roli ham alohida e'tiborga loyiqdir.Ingliz tili nafaqat lingvistik tizim, balki madaniy qadriyatlar va kommunikativ an'analar tashuvchisi hamdir. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar til o'rgatish jarayonida madaniyatlararo muloqot tamoyillarini hisobga olishlari, o'quvchilarga nafaqat til birliklarini, balki ularning madaniy kontekstini ham tushuntirishlari lozim. Tahlil shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiya rivojlangan o'qituvchilar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga, tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini samaraliroq shakllantirishga qodir. Bu kompetensiyani rivojlantirish uchun bo'lajak o'qituvchilarni ingliz tili tarqalgan mamlakatlarning madaniyati, urf-odatlari, ijtimoiy muloqot xususiyatlari bilan tanishtirish, imkon qadar autentik materiallardan foydalanish va madaniyatlararo loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish zarur.

O'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligida kommunikativ metodikani chuqur o'zlashtirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy chet tili ta'limida kommunikativ yondashuv yetakchi o'rinni egallaydi va bu yondashuv o'qituvchidan maxsus metodik ko'nikmalarni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar kommunikativ vaziyatlarni loyihalash, interaktiv mashqlar tizimini ishlab chiqish, guruhli va juftlikda ishlash shakllarini samarali tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rag'batlantirish usullarini puxta egallashlari kerak. Adabiyotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, kommunikativ kompetensiyaga ega o'qituvchilar an'anaviy grammatik-tarjima metodiga tayanuvchi hamkasblariga nisbatan yuqoriroq ta'lim natijalariga erishadilar. Biroq, kommunikativ metodikani samarali qo'llash uchun o'qituvchining o'zi ham ingliz tilida erkin muloqot qila olishi, spontan nutqiy vaziyatlarga moslasha olishi va o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini to'g'ri baholay olishi talab etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytish mumkinki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ta'lim tizimining turli komponentlarini o'z ichiga oladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, samarali kasbiy-metodik tayyorgarlik lingvistik, psixologik-pedagogik va metodik kompetensiyalarning integratsiyasini talab qiladi. Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning muvozanatli rivojlanishi, pedagogik amaliyot tizimining takomillashtirilishi, refleksiv tafakkurning shakllantirilishi hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining rivojlantirilishi kasbiy-metodik tayyorgarlikning sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Kelgusida ushbu muammoni chuqurroq o'rganish, xususan, kasbiy-metodik tayyorgarlikni shakllantirish modellarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini empirik jihatdan tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori.

2. Solovova E.N. Metodika obucheniya inostrannym yazykam: bazovyy kurs lektsiy / E.N. Solovova. – Moskva: Prosveshcheniye, 2006.239-s.

3. Shchukin A.N. Obucheniye inostrannym yazykam: teoriya i praktika / A.N. Shchukin. – Moskva: Filomatis, 2007. 480-s.

4. Richards J.C. Approaches and Methods in Language Teaching / J.C. Richards, T.S. Rodgers. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410-p.

5. Nunan, D. Task-Based Language Teaching / D. Nunan. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.222-p.

6. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi / J. Jalolov. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.432-bet.

7. Xo'jaqulov M.N. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish / M.N. Xo'jaqulov // Til va adabiyot ta'limi. – 2019. №3.45-51-bet.

8. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya / N.V. Kuzmina. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.149-s.

9. Zimnyaya I.A. Klyuchevyye kompetentsii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya / I.A. Zimnyaya // Vyssheye obrazovaniye segodnya.–2003.–№5.34-42-s.

10. Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action / D.A. Schön. – New York: Basic Books, 1983.374-p.

Diyora JALILOVA,
TGFU Pedagogika yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

NEYROPEDAGOGIK DARS: JORIY ETISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: maqolada neyropedagogik darsning nazariy asoslari, uning o‘quv jarayonidagi afzalliklari va samaradorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Individuallashtirilgan o‘qitish, kognitiv resurslarni optimallashtirish, neyroplastiklikni rag‘batlantirish hamda emotsional holatni boshqarishning ta’lim sifati uchun ahamiyati ko‘rsatiladi. Shuningdek, neyropedagogik yondashuvni joriy etishga ta’sir etuvchi omillar asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *neyropedagogika, neyrodidaktika, kognitiv jarayonlar, individuallashtirish, neyroplastiklik, ta’lim samaradorligi.*

Annotation: the article analyzes the theoretical foundations of the neuropedagogical lesson, its advantages in the educational process and mechanisms of effectiveness. The importance of individualized learning, optimization of cognitive resources, stimulation of neuroplasticity, and management of emotional states for the quality of education is shown. Also, the factors influencing the implementation of the neuropedagogical approach are discussed.

Key words: *neuropedagogy, neurodidactics, cognitive processes, individualization, neuroplasticity, educational effectiveness.*

Аннотация: в статье анализируются теоретические основы нейропедагогического урока, его преимущества в образовательном процессе и механизмы эффективности. Показано значение индивидуализации обучения, оптимизации когнитивных ресурсов, стимуляции нейропластичности и управления эмоциональными состояниями для качества образования. Также рассматриваются факторы, влияющие на реализацию нейропедагогического подхода.

Ключевые слова: *нейропедагогика, нейродидактика, когнитивные процессы, индивидуализация, нейропластичность, эффективность обучения.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim texnologiyalari va miya faoliyati haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishi tufayli pedagogika sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri — neyropedagogika. Bu yo‘nalish neyrofan, psixologiya va pedagogik amaliyotlarni birlashtiruvchi fanlararo soha hisoblanadi. Neyropedagogika ta’lim mazmuni va shakllarini miya faoliyatining xususiyatlari hamda uning o‘rganish mexanizmlariga moslashtirishga intiladi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish, diqqat va xotirani rivojlantirish, shuningdek, ta’lim jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. [1][2]

Neyropedagogik yondashuv dars tarkibida shunchaki “zamonaviy” atamalar va texnologiyalarni qo‘llashni emas, balki neyrofan natijalarini dars tuzilmasini rejalashtirish va o‘qitish strategiyalariga chuqur tatbiq etishni nazarda tutadi. Asosiy masalalardan biri — an’anaviy ta’lim jarayonini neyropedagogika prinsiplari asosida qay darajada o‘zgartirish mumkinligi va bunday yondashuvning o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar uchun haqiqiy afzalliklari nimalardan iborat ekanligini aniqlashdir.

Neyrodidaktika ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan neyropedagogikaning asosi sifatida ko‘riladi. U ta’limni individuallashtirishga, yuqori psixik funksiyalar va o‘quvchining neyron tashkiloti kabi individual xususiyatlarni hisobga olishga yo‘naltirilgan. [3] Rossiyaning yetakchi nazariyotchilaridan biri E. F. Zeer o‘z tadqiqotida neyrodidaktika shunchaki “miya”ga oid ritorikani qo‘shmaydi, balki har bir o‘quvchi uning o‘ziga xos neyrofiziologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladigan yangi ta’lim paradigmalaridan birini — individual yondashuvni shakllantirishini ta’kidlaydi. [4]

Bilish va ta’lim neyrofanlari nuqtayi nazaridan qaralganda, miya o‘qish jarayonida passiv emas: u doimiy ravishda o‘zgaradi (neyroplastiklik), tashqi stimullarga javob beradi, moslashadi va tajriba asosida yangi neyron aloqalarini yaratadi. [5] Ana shu mexanizmlar darsni loyihalash jarayonida inobatga olinishi mumkin: neyroplastiklikni rag‘batlantiradigan, diqqatni mustahkamlaydigan va ma’lumotning uzoq muddatli saqlanishiga yordam beradigan o‘quv vazifalari va ta’lim muhitini yaratish muhimdir.

Neyropedagogik yondashuv tanqidchilari ilmiy neyrofan tadqiqotlari bilan ularning sinf amaliyotida qo‘llanilishi o‘rtasida mavjud bo‘lgan tafovutga e’tibor qaratadilar. Masalan, Usha Gosvami ko‘plab “miya-orientatsiyalangan” o‘quv dasturlari ishonchli ilmiy asos shakllanishidan tezroq paydo bo‘layotganini, shuningdek, o‘qituvchilar ko‘pincha kuchli neyroilmiy dalillar bilan tasdiqlanmagan tijoriy mahsulotlarga duch kelishini ta’kidlaydi. [6]

O‘qitishni individuallashtirish. Neyrodidaktik strategiyalarni qo‘llash o‘quv materialini va dars sur’atini har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu turli darajadagi topshiriqlar, individual qiyinchiliklarni hisobga olish, shuningdek diqqat va aqliy yuklamani monitoring qilish asosidagi qayta aloqa

kabi elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday yondashuv motivatsiya va ishtirokni kuchaytiradi, chunki o‘quvchi uning individual xususiyatlari tan olinayotganini his qiladi [1].

Kognitiv resurslarni optimallashtirish. Neyrofan yutuqlariga asoslangan darsni loyihalash orqali faoliyatlarni shunday tashkil qilish mumkinki, aqliy yuklama optimal taqsimlansin va ortiqcha “zo‘riqish” yuzaga kelmasin. Bu esa xotira samaradorligini oshirishga, ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishga va aqliy charchoqni kamaytirishga yordam beradi [5].

Neyroplastiklikni rag‘batlantirish. Muammoli vazifalar, mulohaza yuritish (refleksiya) kabi miyaga yangi chaqiriqlar beradigan mashqlar orqali neyropedagogik dars neyron o‘zgarishlarni kuchaytirishi, aloqalarni mustahkamlashi va bilimning chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtirilishiga xizmat qilishi mumkin [7].

Emotsional holat va diqqatni boshqarish. O‘quvchilarning miyasi emotsional va motivatsion stimullarga sezgir. Neyropedagogika darsga ijobiy emotsional muhitni qo‘llab-quvvatlaydigan elementlarni — tanaffuslar, refleksiya, stressni boshqarish — kiritishni tavsiya qiladi. Bu diqqatni yaxshilashi, tashvish darajasini kamaytirishi va o‘qitish samaradorligini oshirishi mumkin [9].

O‘qituvchining malakasi. O‘qituvchi nafaqat pedagogik ko‘nikmalarga, balki miya faoliyati haqida bazaviy bilimlarga ham ega bo‘lishi kerak, shunda u neyropedagogik strategiyalarni to‘g‘ri va ongli ravishda qo‘llay oladi. Zamonaviy tadqiqotlar neyrota’limda ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini ta’kidlaydi [1][6].

Infratuzilma va resurslar. Ko‘plab hollarda neyropedagogik darsni joriy etish texnologiyalar mavjud bo‘lishini talab qiladi: multimediya jihozlari, raqamli ilovalar yoki diqqat monitoringi tizimlari. Resurslarning yetishmasligi to‘laqonli neyropedagogik o‘qitish modellari tomon o‘tishni qiyinlashtiradi [4].

Ilmiy baza va gipotezalarni tekshirish. Neyropedagogik yondashuvlarning samaradorligi doimiy ilmiy tekshiruvni talab qiladi. Tadqiqotchilar “miya — ta’lim” o‘zaro ta’siri sohasida ko‘pincha yetarli dalillarga ega bo‘lmagan amaliyotlar paydo bo‘lishini, shu bois ilmiy baholash zarur ekanini ta’kidlashadi [6][5].

Etik va normativ jihatlar. Neyrotexnologiyalardan, ayniqsa fiziologik signallar bilan bog‘liq vositalardan (masalan, EEG) foydalanish qat’iy etik me’yorlarga rioya qilishni va o‘quvchilarning ma’lumotlarini himoya qilishni talab qiladi [2].

Maktab darsida neyropedagogik yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri tashkil etilganda bunday darslar quyidagilarga imkon beradi:

- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va o‘qitishni shaxsiylashtirishga ko‘maklashish [1];
- optimal kognitiv yuklama orqali bilimlarning chuqur va barqaror o‘zlashtirilishini oshirish [7];
- o‘z-o‘zini boshqarish, diqqat, ongli nazorat va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish [3][9];
- neyrofan va pedagogika o‘rtasidagi ilmiy-amaliy aloqani mustahkamlab, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ilmiy asoslanganligini oshirish [6].

Agar pedagogik, metodologik va ilmiy qo‘llab-quvvatlash tizimli tarzda ta’minlansa, neyropedagogik dars miyaga xos mexanizmlarni chuqur tushunishga asoslangan va o‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan yangi ta’lim modelining asosiy elementi bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Neyropedagogik dars neyrofan yutuqlari va pedagogik amaliyotning integratsiyasi bo‘lib, o‘qitish samaradorligini oshirishni maqsad qiladi. Neyrodidaktika va kognitiv neyrofan asoslariga tayangan holda bunday yondashuv ta’lim jarayonini individuallashtirish, aqliy resurslarni optimallashtirish, neyroplastiklikni rag‘batlantirish hamda o‘quvchilarning emotsional holatini boshqarishda katta imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Bunday darslarni joriy etishning samaradorligi o‘qituvchining tayyorgarligi, zarur resurslarning mavjudligi va ilmiy tadqiqotlar bilan qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq. Shunga qaramay, neyropedagogik yondashuv ta’lim tizimini yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim istiqbollarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Зеер Э. Ф. Нейродидактика – инновационный тренд персонализированного образования. *Профессиональное образование и рынок труда*, №4, 2021.

2.Сорочинский М. А. Нейропедагогика: возможности и ограничения исследования электронного обучения. *Управление образованием*, 2023.

3.Юсупов Д. Ф. Система принципов нейропедагогики. *Образование и инновационные исследования*, 2023.

4.Мамбеталина А. С., Рыскулова М. М., Жумагалиева З. Н. Применение нейропедагогического подхода в процессе обучения в Казахстане и за рубежом. *Педагогика: история, перспективы*, 2019.

5.Usha Goswami. Neuroscience and education: from research to practice? *Nature Reviews Neuroscience*, 2006.

6.Жабина А. А. Нейрообразование и нейродидактика: роль нейронаук. *KIDS Journal*, 2025.

7.Eric Jensen. Brain-Based Learning: Teaching the Way Students Really Learn. Corwin, 2020.

8.Kurt W. Fischer. Dynamic Skill Theory. *Mind, Brain, and Education*.

9.Marcus Conyers. Big Ideas for Effective Teaching. Teachers College Press, 2020.

10.Boydavlatov A. Нейродидактика как новая сфера образования. *NAMSPI Journal*, 2023.

Farida HAMRAYEVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
1-kurs magistranti

INGLIZ VA O‘ZBEK ILMIY MATNLARIDA TERMINLAR TARJIMASINING MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi ilmiy terminologiyani tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy lingvistik, semantik va metodik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminologik ekvivalentlik, semantik noaniqlik, adaptatsiya standartlari hamda terminlar yasalishidagi struktur farqlar kabi muhim masalalar aniqlangan. Qiyosiy tahlil va turli ilmiy sohalardan keltirilgan misollar orqali mavjud terminologik bazalardagi bo‘shliqlar yoritilib, tarjimaning aniqligi va izchilligini oshirishga qaratilgan strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy terminologiya, tarjima, ingliz–o‘zbek, ekvivalentlik, adaptatsiya, semantik noaniqlik.*

Annotation: this article examines the main linguistic, semantic, and methodological challenges encountered in translating scientific terminology between English and Uzbek. The study identifies key issues such as terminological equivalence, semantic ambiguity, standards of adaptation, and structural differences in term formation. Through comparative analyses and examples from various scientific fields, the research highlights gaps in existing terminological resources and proposes strategies for improving accuracy and consistency in translation.

Key words: *scientific terminology, translation, English–Uzbek, equivalence, adaptation, semantic ambiguity.*

Аннотация: в данной статье анализируются основные лингвистические, семантические и методические проблемы, возникающие в процессе перевода научной терминологии между английским и узбекским языками. В исследовании выявлены такие важные вопросы, как терминологическая эквивалентность, семантическая неопределённость, стандарты адаптации и структурные различия в словообразовании терминов. На основе сравнительного анализа и примеров из различных научных областей раскрываются существующие пробелы в терминологических ресурсах, а также предлагаются стратегии, направленные на повышение точности и последовательности перевода.

Ключевые слова: *научная терминология, перевод, английский–узбекский, эквивалентность, адаптация, семантическая неопределённость.*

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarning jadal rivojlanishi terminologik tarjimaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Global ilmiy axborot oqimi, fan-texnika yutuqlari va xalqaro ilmiy hamkorlik natijasida ingliz tilidagi terminlar o‘zbek ilmiy matnlarida faol qo‘llanmoqda. Biroq terminlar tarjimasida semantik nomuvofiqliklar, ekvivalent tanlashdagi qiyinchiliklar, grek–lotin asosli terminlarning moslashtirilishi kabi muammolar uchraydi. Mazkur tadqiqot ingliz–o‘zbek ilmiy matnlari o‘rtasida terminlarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolarni tahlil qilishga qaratiladi. Ingliz va o‘zbek ilmiy matnlaridagi terminlar tarjimasi tarjimonlardan nafaqat lug‘aviy bilim, balki terminologiya, fanlararo munosabat va kontekstni chuqur anglashni talab qiladi. Ingliz tili global ilm-fan tili bo‘lib, ko‘plab yangi terminlar aynan ingliz tilida shakllanadi. Ushbu terminlarni o‘zbek tiliga aniq, izchil va normativ shaklda ko‘chirish jarayonida bir qator muammolar vujudga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

Qiyosiy tahlil metodi: Ingliz va o‘zbek tillaridagi terminlarning semantik va morfologik tarkibi taqqoslandi.

Korpus tahlili: Ingliz va o‘zbek ilmiy maqolalari, dissertatsiyalari va rasmiy hisobotlardan olingan terminlar o‘rganildi.

Leksik-semantik tahlil: Ekvivalentlik, sinonimiya, polisemiya holatlari aniqlab chiqildi.

Tarjima transformatsiyalari tahlili: Transliteratsiya, kalka, adaptatsiya, kontekstual interpretatsiya kabi usullar baholandi.

Ushbu metodlar yordamida terminlarning shakllanishi, qo‘llanishi va tarjima jarayonidagi muammolar tizimli ravishda o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. *Ekvivalent tanlashdagi muammolar.* Ko‘plab inglizcha terminlar o‘zbek tilida tayyor ekvivalentga ega bo‘lmagani uchun tarjimonlar turlicha yondashuvlarni qo‘llaydilar. Masalan:

assessment, *evaluation*, *measurement* terminlari ba’zan bir xil — “baholash” tarzida noaniq tarjima qilinadi.

competence va *competency* terminlari o‘zbekchada aralashtirib qo‘llanadi.

Bunday holatlar ilmiy matnning aniqligiga putur yetkazadi.

Semantik noaniqlik va ko‘p ma’nolilik (polysemy). Ba’zi inglizcha terminlar kontekstga qarab keskin o‘zgarib turadi:

monitoring — “kuzatish”, “nazorat”, “tahliliy kuzatuv”;

intervention — “aralashuv”, “ta’sir ko‘rsatish”, “muolaja tadbiri”;

modality — lingvistik, pedagogik yoki tibbiy kontekstda turlicha ma’noda qo‘llanadi.

Bu esa tarjimonning kontekstni chuqur anglashini talab qiladi.

Morfologik va struktur farqlar. Ingliz tilida terminlarning aksariyati **kompound, affiksatsiya, konversiya** orqali yaratiladi:

overgeneralization, *misinterpretation*, *neuroplasticity*.

O‘zbek tilida esa **affiksatsiya** yetakchi bo‘lib, ko‘p hollarda inglizcha uzoq shaklli terminlarni ixcham tarzda ifodalash qiyinlashadi.

Grek–lotin asosli terminlarning moslashtirish muammolari. Ilm-fan sohasida grek–lotin asosli terminlar juda ko‘p:

categorized, *syntax*, *morphology*, *anesthesia*, *photosynthesis*.

Ular o‘zbekchaga transliteratsiya yo‘li bilan ko‘chadi, lekin ayrim hollarda imloviy xilma-xillik kuzatiladi:

anesthesia — anesteziya / anesteziya(?)

morphology — morfologiya / morfologiya (variantlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi uchraydi)

Turli fan sohalaridagi terminlarning mos kelmasligi. Bir xil termin turli fanlarda mutlaqo boshqa ma’noga ega bo‘ladi:

alignment – lingvistikada “moslashtirish”, texnikada “sozlash”, pedagogikada “kompetensiyaga moslashtirish”.

resource – iqtisodda “resurs”, ta’limda “o‘quv manbasi”.

Bu holat tarjima jarayonini murakkablashtiradi.

Terminologik standartlarning to‘liq shakllanmaganligi. O‘zbek tilida ayrim xalqaro terminlarning yagona normativ shakli mavjud emas:

digitalization, *digitization* terminlari turlicha: “raqamlashtirish”, “raqamli texnologiyalashtirish”, “digitizatsiya” kabi variantlarda uchraydi.

Bu esa ilmiy uslubda bir xillikni buzadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz–o‘zbek terminologik tarjimasida eng katta muammolar ekvivalent tanlash, semantik noaniqlik, morfologik mos kelmaslik va standart yetishmovchiligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, global terminlar o‘zbek tilida turlicha ko‘rinishda uchrayotgani ilmiy matnlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muammoni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

–terminologiyani standartlashtirish bo‘yicha yagona davlat bazasini yaratish;

–tarjimonlar uchun fanlararo terminologik lug‘atlar tayyorlash;

–inglizcha terminlarning ko‘chishi va adaptatsiyasi bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

–ilmiy matn tarjimasi uchun korpus texnologiyalaridan foydalanish;

–bir xil terminning kontekstga mos ma’nosini aniqlash bo‘yicha didaktik ko‘rsatmalar ishlab chiqish.

Shuningdek, tarjimonlar semantik moslikni ta’minlash uchun atama yaratuvchilik (termin coinage) tamoyillaridan foydalanishlari zarur.

Xulosa. Tadqiqot ingliz va o‘zbek ilmiy matnlarida terminlarni tarjima qilishda bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Ekvivalent tanlashdagi noaniqliklar, morfologik farqlar, grek–lotin terminlarining moslashtirilishi va fanlararo terminlar o‘rtasidagi ma’no tafovutlari tarjimaning aniqligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun standartlashtirish, korpus lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish va tarjima metodologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ingliz–o‘zbek ilmiy matnlarida terminlar tarjimasidagi muammolar, asosan, ekvivalent tanlash, semantik aniqlikni ta’minlash, grek–lotin terminlarini moslashtirish, struktur farqlarni qoplash va standartlashtirishning yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 2018.
2. Catford, J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford University Press, 1965.
3. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. Prentice Hall, 1988.
4. Cabré, M. T. *Terminology: Theory, Methods and Applications*. John Benjamins, 1999.
5. Лотте, Д. С. *Основы построения научно-технической терминологии*.–Москва: Наука, 1961.
6. Суперанская, А. В. *Общая терминология: Вопросы теории*.–Москва: URSS, 2009.
7. Алимурадов К. С. *Перевод научных текстов: лингвистические и методические основы*. –Санкт-Петербург, 2014
8. Хомутова Т. Н. *Термин и терминосистема в научном дискурсе*.–Москва, 2013.
9. Azizov U. *Lingvistik tadqiqotlar va tarjima jarayoni*.–Termiz: TDU, 2021
10. To‘xliyev B. *Terminologiya asoslari*.–Toshkent: Universitet, 2010.
11. Ochilov A. *Tarjima jarayonida ekvivalentlik masalalari*.–Toshkent, 2019
12. Rahmonov R. *Ingliz tilidagi ilmiy terminlarning o‘zbekchaga ko‘chishi*.–Toshkent, 2022.
13. Salomova G. A. “O‘zbek tilshunosligida terminlar tizimining shakllanish muammolari.” *Til va adabiyot*, 2021.

Munisaxon ERKINJONOVA,
Farg'ona davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
25/117 -guruh, 1- bosqich talabasi



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA ANTONIMLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda uchraydigan antonimlarning semantik, stilistik hamda madaniy ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Xususan, ikki tildagi maqollarda keng qo'llaniladigan "*mehnatkash – dangasa", "aqlli – nodon", "kuchli – kuchsiz", "yaxshi – yomon"* kabi antonimlar mazmunning kuchayishida, g'oyaning lo'nda va ta'sirchan ifodalanishida qanday vazifa bajarishi yoritiladi. Tadqiqot jarayonida ingliz tilidagi "***The diligent* succeed, *the lazy* fail", "*A wise* man learns, *a foolish* ignores"** kabi maqollar hamda o'zbek tilidagi "***Mehnatkash* elga davlat yaqin, *dangasaga* yer ham tor**" singari birliklar qiyosiy tahlil qilinadi. Bu kabi antonimik konstruksiyalar ikki tilda ham axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish va ma'naviy tajribani avloddan avlodga yetkazishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek paremiologiyasida antonimlarning qo'llanishi umumiy qonuniyatlarga asoslanishini, qarama-qarshi birliklar esa mazmunning strukturalanishi hamda semantik kontrastni kuchaytirish orqali maqollarni yanada samarali ifoda vositasiga aylantirishini ko'rsatadi. Maqola yakunida umumiy xulosalar berilib, antonimlarning maqol yaratishdagi stilistik qiymati keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: *antonim, tazod, maqol, semantika, ma'no, ziddiyat, tahlil, o'xshashlik, farq, ritm, mazmun, ifoda, leksikologiya, qiyos, xalq og'zaki ijodi.*

Аннотация: в данной статье проводится научный анализ семантического, стилистического и культурного значения антонимов, встречающихся в английских и узбекских пословицах. Особое внимание уделяется распространённым антонимическим парам, таким как *«трудолюбивый – ленивый», «мудрый – глупый», «сильный–слабый», «хороший–плохой»*, и их роли в усилении содержания, а также в создании выразительности и лаконичности высказывания. В исследовании сопоставляются английские пословицы ("***The diligent* succeed, *the lazy* fail"; "*A wise* man learns, *a foolish* ignores")** и узбекские пословицы («***Трудолюбивому* народ близок к *достатку*, *ленивому* и земля кажется *тесной*»).** Антонимические конструкции в обоих языках служат важным средством укрепления нравственных ценностей, формирования социальных норм и передачи духовного опыта из поколения в поколение. Результаты исследования показывают, что использование антонимов в английской и узбекской паремиологии основывается на общих закономерностях, а противопоставленные единицы усиливают семантический контраст и структурируют содержание, делая пословицы более эффективным коммуникативным средством. В конце статьи представлены общие выводы, в которых раскрывается стилистическая ценность антонимов в создании пословиц.

Ключевые слова: *антоним, контраст, пословица, семантика, значение, противопоставление, анализ, сходство, различие, ритм, выражение, содержание, лексикология, сравнение, фольклор.*

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the semantic, stylistic, and cultural significance of antonyms found in English and Uzbek proverbs. In particular, it examines how commonly used antonymic pairs such as "*hard-working – lazy," "wise – foolish," "strong – weak," "good – bad"* reinforce meaning and enhance the clarity and expressiveness of the message. The study compares English proverbs like "***The diligent* succeed, *the lazy* fail" and "*A wise* man learns, *a foolish* ignores"** with Uzbek proverbs such as "***A hard-working* person finds prosperity near , *lazy* person, even the earth feels narrow."** These antonymic structures serve as important tools for strengthening moral values, shaping social norms, and transmitting cultural experience across generations in both languages. The findings show that the use of antonyms in English and Uzbek paremiology is based on shared linguistic patterns, and that contrasting units contribute to organizing meaning and intensifying semantic contrast, thereby making proverbs more effective communicative devices. The article concludes with general findings, highlighting the stylistic value of antonyms in the formation of proverbs

Key words: *antonym, contrast, proverb, semantics, meaning, opposition, analysis, similarity, difference, rhythm, expression, content, lexicology, comparison, folklore.*

Kirish. Antonimlar — bu leksik semantikaning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, ma’nosi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar yoki tushunchalar juftligini tashkil etadi. Tilshunoslik nazariyasida antonimlar nutqdagi semantik kontrastni yaratish vositasi sifatida qaraladi, chunki ular qarama-qarshi tushunchalarni aniq ajratadi va fikrning ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Antonimlarning semantik tahlili tilning mazmun tuzilishini ochib beradi va leksik birliklarning o‘zaro nisbiy o‘rnini aniqlash imkonini yaratadi . Antonimlarning kelib chiqishi turlicha bo‘lib, ular tilning ichki semantik mexanizmlari, ijtimoiy-madaniy tajriba va nutq amaliyoti orqali shakllanadi. Ba’zi antonimlar til ichki qarama-qarshiliklaridan kelib chiqsa, boshqalarida ular uzoq tarix davomida nutq amaliyotida mustahkamlanadi. Masalan, sifat antonimlari *(yaxshi–yomon)* xususiyat jihatdan qarama-qarshi bo‘lib, fe’l antonimlari esa harakat yoki holatning teskari effektini ifodalaydi (*kelmoq–ketmoq*).Lingvistlar antonimlarni shakli va vazifasiga ko‘ra bir necha turga ajratadi: (1) sifat antonimlari — xususiyat jihatidan qarama-qarshi so‘zlar; (2) fe’l antonimlari— harakat yoki holatlarning qarama-qarshiligi; (3) miqdor antonimlari — *ko‘p–oz, uzun–qisqa* kabi miqdor va o‘lchamga oid kontrast; (4) fazoviy antonimlar—*yuqori–past, ichki–tashqi* kabi makon bilan bog‘liq qarama-qarshiliklar; (5) abstrakt tushunchalar antonimlari — *haqiqat–yolg‘on, do‘st–dushman* kabi tushunchaviy qarama-qarshiliklar. Shu sababli antonimlar tilning semantik boyligini oshirish, qarama-qarshi tushunchalarni aniq ajratish va fikrni tazod orqali kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Asosiy qism. Maqollarda antonimlar tilning eng samarali semantik va stilistik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular so‘zlarning qarama-qarshi ma’nolarini aks ettirishi bilan birga, xalqning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari va hayotiy tajribasini qisqa, lo‘nda va ta’sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida antonimlar paremiologik birliklarda keng qo‘llanilib, ularning funksiyasi ko‘pincha axloqiy, tarbiyaviy hamda ma’naviy xulosalarni kuchaytirishga qaratilgan. Antonimlarning bu roli xalq tilida nafaqat nutqning ritmini va ifodaviyligini oshiradi, balki tilning ichki semantik tuzilishini ham mustahkamlaydi .Masalan, “***Mehnatkash* elga davlat yaqin, *dangasaga* yer ham tor”** maqolida mehnatkash–dangasa antonim juftligi asosiy g‘oyani aniq ifodalaydi: faol va mehnatkash shaxs jamiyatda muvaffaqiyatga erishadi, dangasa esa imkoniyatlarni boy beradi. Bu maqol xalq hayotidagi mehnatga hurmat va dangasalikning zararini ta’kidlaydi, shuningdek, amaliy hayotiy maslahat sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, “***Yaxshi* bilan *do‘st, yomon* bilan *dushman*”** maqolida antonim *yaxshi–yomon* ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi va insonlarning xulq-atvorini baholash mezonini ta’kidlaydi. Ushbu antonimlar maqol mazmunini tinglovchi yoki o‘quvchi uchun esda qolarli qiladi, fikrni tez va aniq yetkazadi. Shuningdek, antonimlar yordamida o‘zbek maqollarida qarama-qarshi tushunchalar orqali ma’naviy va ijtimoiy saboqlar samarali tarzda ifodalanadi. Bundan tashqari, “***Ko‘p* bilan to‘y, *oz* bilan hoy**” kabi miqdor antonimlari (*ko‘p–oz)* kundalik hayotiy tajribani aks ettiradi. Bu antonimlar maqolning lo‘ndaligini oshiradi, o‘quvchida hayotiy saboqni samarali qabul qilishni ta’minlaydi va xalqning iqtisodiy-fazoviy tushunchalarini ifodalaydi.Shu tariqa, o‘zbek antonimlari nafaqat semantik boylikni oshiradi, balki xalq dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar va madaniyatni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Paremiolog olimlar fikricha, antonimlar stilistik kontrastni kuchaytirish orqali maqolni ritmik va esda qolarli shaklda ifodalashga imkon yaratadi. Ingliz tilida ham antonimlar maqollarning semantik va stilistik mohiyatini belgilovchi asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, “**No *pain,* no *gain*”** maqolida antonim *pain–gain* mehnat va natija o‘rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettiradi; maqol qisqa va lo‘nda shaklda amaliy maslahat beradi: harakat qilmasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, “**Easy *come,* easy *go***” maqolida antonim *come–go* narsalarning kelishi va ketishi, hayotiy hodisalar o‘zgaruvchanligini ifodalaydi. Ingliz antonimlari semantik kontrastni mustahkamlash, maqol mazmunini ritmik va ta’sirchan shaklda yetkazish imkonini beradi. Shu tariqa, ingliz antonimlari ham o‘quvchi

uchun esda qolarli, aniq va amaliy saboqlarni yetkazish vazifasini bajaradi.Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz maqollarida antonimlar bir xil asosiy funksiyani bajaradi: qarama-qarshi tushunchalarni aks ettirish, fikrni ritmlash va axloqiy-amaliy xulosalarni kuchaytirish.Biroq, ularning kontekstga bog‘liq qo‘llanilishi farq qiladi. O‘zbek tilida antonimlar xalq dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar va madaniy an’analarga bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida ular ko‘proq amaliy hayotiy maslahat va hayotiy tajribani ta’kidlashga yo‘naltirilgan. Shu tariqa, antonimlar maqollarda semantik kontrastni mustahkamlash, stilistik boylik yaratish va fikrni qisqa, lo‘nda, esda qolarli shaklda yetkazish vazifasini bajaradi. Shuningdek, antonimlar paremiologik birliklarda kognitiv funksiyani ham bajaradi: ular nutq va yozma matnning esdalik va ta’sirchanlik darajasini oshiradi, til foydalanuvchisiga axloqiy, madaniy va amaliy saboqlarni samarali yetkazadi. Shu jihatdan, antonimlar nafaqat semantik va stilistik vosita, balki til va madaniyatni bog‘lovchi, kommunikativ samaradorlikni oshiruvchi muhim element sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, antonimlar o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarda tilning semantik va stilistik asosiy vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.Ular qarama-qarshi tushunchalarni aniq ifodalash orqali fikrni ritmlaydi, matnga lo‘ndalik va ta’sirchanlik kiritadi hamda tinglovchi yoki o‘quvchida esdalikni oshiradi. O‘zbek tilidagi maqollarda, masalan, *mehnatkash–dangasa, yaxshi–yomon, ko‘p–oz* antonim juftliklari xalqning madaniy qadriyatlarini, axloqiy me’yorlarini va hayotiy tajribasini aks ettiradi. Shu antonimlar orqali maqollar qisqa, lekin chuqur ma’noli saboqlar beradi va tilning ichki semantik boyligini mustahkamlaydi.Ingliz tilidagi maqollarda esa antonimlar semantik kontrastni yaratish va fikrni ritmik, esda qolarli shaklda yetkazish uchun ishlatiladi. Masalan, *pain–gain, easy–hard, come–go* antonimlari hayotiy hodisalar, mehnat va natija, narsalarning kelishi va ketishini qarama-qarshi qilib ifodalaydi. Bu esa maqol mazmunini lo‘nda, ritmik va ta’sirchan qiladi, o‘quvchiga aniq amaliy va hayotiy saboqlarni yetkazishga xizmat qiladi.Har ikkala tilda antonimlar semantik kontrast yaratish, fikrni ritmlash va axloqiy-amaliy xulosalarni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Farqi shundaki, o‘zbek tilida antonimlar ko‘proq madaniy va ijtimoiy kontekstga bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida ular individual hayotiy tajriba va maslahatni ifodalashga yo‘naltiriladi.Umuman olganda, antonimlar maqollarda stilistik boylik yaratadi, semantik kontrastni mustahkamlaydi, fikrni lo‘nda va ta’sirchan yetkazadi hamda foydalanuvchiga amaliy va axloqiy saboqlarni samarali yetkazadi. Shu jihatdan, antonimlarning maqol yaratishdagi stilistik va kommunikativ qiymati yuqori ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyons, J. (1977).Semantics, Vol. 1.Cambridge University Press.
2. Cowie, A. P. (2010).The Oxford History of English Lexicology.Oxford University Press.
3. Mahmudov S. O‘zbek tilidagi maqollar va ularning semantik tahlili.–Toshkent: Fan, 2019
4. Bekmurodov R. Paremiologiya asoslari: O‘zbek va ingliz maqollarini solishtirish. –Toshkent: Adabiyot, 2020
5. Lekić, D. (2015). Proverbs and Their Cognitive and Cultural Contexts. Routledge.
6. Akhmedova N. Til va madaniyat: O‘zbek paremiologiyasi tahlili.–Toshkent: Ilm-fan, 2018
7. Karimov T. Semantik kontrast va antonimlar: Lingvistik tadqiqotlar.–Samarkand: Fan va Ma’rifat, 2021
8. https://www.encyclopedia.com/humanities/dictionaries-thesauruses-pictures-and-press-releases/antonym







Shahrizoda BOTIRBOYEVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyot(Ingliz tili) yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
shahrezodabotirboyiva@gmail/com

Xurshed HAYDAROV

Anisa MAVLONKULOVA

Ilmiy rahbar: Umida KARIMOVA
Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN SAMARALI METODLAR

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan samarali usullarni aniqlash va tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, samarali metodlarning tahlili va amaliy natijalari keltirilib, xulosa hamda takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ingliz tilini o‘qitish, samarali metodlar, interfaol usullar, o‘yinli ta’lim, kommunikativ yondashuv, innovatsion texnologiyalar, motivatsiya.*

Аннотация: в данной статье освещаются эффективные методы преподавания английского языка учащимся начальных классов. В статье представлены анализ литературы по теме, методология исследования, приведены анализ эффективных методов и практические результаты, а также даны выводы и рекомендации.

Ключевые слова: *начальная школа, английский язык, эффективные методы, интерактивные методы, игровое обучение, коммуникативный подход, инновационные технологии, мотивация.*

Annotation: this article examines effective methods of teaching English to elementary school students. The article presents an analysis of relevant literature, research methodology, an analysis of effective methods and practical results, and provides conclusions and recommendations.

Key words: *primary education, English language teaching, effective methods, interactive methods, game-based learning, communicative approach, innovative technologies, motivation.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini bilish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Dunyo miqyosida har xil yoshdagi insonlarning chet tilini o‘rganishga qiziqishi ortib bormoqda[1, 1]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ingliz tilini o‘rganuvchilar soni sezilarli darajada oshdi. Tadqiqotlar bolalar kattalarga nisbatan chet tilini tez va oson o‘zlashtirishini tasdiqlaydi [3,120]. Ushbu maqolada mazkur masala bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilinib, tadqiqot metodologiyasi bayon etiladi, samarali metodlar tahlil natijalari bilan muhokama qilinadi va so‘ngra xulosa hamda takliflar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tilini o‘qitish metodikasi sohasida turli nazariy yondashuv va usullar mavjud. An’anaviy yondashuvlardan grammatik-tarjima, to‘g‘ridan

to‘g‘ri (direct) metod, audiolingval metod kabi usullarni misol qilish mumkin [4,16].An’anaviy passiv o‘qitish usullariga nisbatan mazmunli va qiziqarli mashg‘ulotlar kichik yoshdagi bolalar uchun foydaliroq ekani tajriba orqali isbotlangan. So‘nggi yillarda qator tadqiqotlarda xorijiy til ta’limida yangi metod va texnologiyalarning samaradorligi o‘rganilgan. Masalan, Bekmuratova (2012) ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yoritgan [5,2]. Turdaliyeva (2020) esa boshlang‘ich sinflarda zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarning tilga qiziqishini oshirishini ta’kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda, asosan, sifat va tajriba metodlaridan foydalanildi. Dastlab, mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy manbalardagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, samarali metodlar haqidagi nazariy ma’lumotlar umumlashtirildi. Tadqiqotning amaliy qismi sifatida bir guruh 2-sinf o‘quvchilari bilan pedagogik tajriba o‘tkazildi: unda yangi inglizcha so‘zlar bir guruhga an’anaviy (tarjima va yodlash) usulda, ikkinchi guruhga esa interfaol o‘yinlar orqali o‘rgatildi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatishda samaradorligi yuqori bo‘lgan bir necha metod va yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin. Quyida ular bo‘yicha tahlil natijalari keltiriladi.

Birinchidan, o‘yinlar orqali o‘qitish (geymifikatsiya) usuli. Maktab yoshidagi bolalar uchun o‘yin eng tabiiy faoliyat bo‘lib, dars jarayonida o‘yin elementlarini joriy etish ular uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratadi. Xususan, Cambridge English mutaxassislari o‘tkazgan izlanishlar darsda o‘yinlardan foydalanilganida o‘quvchilarning ishtiroki, erishgan yutuqlari va o‘zlashtirgan bilimlarini eslab qolish ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lishini tasdiqlagan [10, 1-bet].

Biz o‘tkazgan tajribada ham o‘yin usulining samarasi yaqqol kuzatildi.Bir guruhga yangi so‘z va iboralar an’anaviy tarzda (tarjima qilish va takrorlash orqali) o‘rgatilib, ikkinchi guruhda esa ayni material o‘yinli mashg‘ulotlar orqali mustahkamlab borildi.Natijada, o‘yin bilan o‘qigan guruh o‘quvchilari bir haftadan so‘ng o‘rgangan so‘zlarning taxminan 85 foizini eslab qolgan bo‘lsa, an’anaviy usuldagi guruh atigi 60 foizini eslab qolganini test sinovlari ko‘rsatdi. Demak, o‘yinli ta’lim so‘z va iboralarni chuqurroq hamda uzoqroq muddatga o‘zlashtirishga yordam beradi. [8, 68].

Ikkinchidan, qo‘shiq va she’rlar yordamida o‘qitish. Bolalar musiqiy va ritmik mashg‘ulotlarni juda yaxshi ko‘rishadi.Shu bois ingliz tilidagi qo‘shiqlar, chantlar (she’rchalar) ular uchun mazmunli va esda qolarli muhit yaratadi.Masalan, alifbo qo‘shiqlari, mavzuga oid qisqa qo‘shiqlar yoki inglizcha bolalar she’rlari (“Twinkle, Twinkle, Little Star” kabi) kichik yoshdagi o‘quvchilarga yangi so‘zlarni oson eslab qolishda yordam beradi.Qo‘shiqlar yordamida o‘tkaziladigan jismoniy harakatli tanaffuslar (masalan, “Head and Shoulders” qo‘shig‘i orqali tana a’zolarini o‘rgatish) ham bolalarning bir vaqtning o‘zida kuylab, harakat qilib, tilni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. [9, 12]

Uchinchidan, harakatli (Total Physical Response – TPR) metoddan foydalanish. Bu metodda o‘qituvchi turli buyruq va ko‘rsatmalar beradi, o‘quvchilar esa ularni jismoniy harakat bilan bajaradi.Masalan, darsda “Stand up”, “Sit down”, “Touch your nose” kabi buyruqlar berilib, bolalar ular mazmunini harakat bilan darhol bajarishga o‘rgatiladi.Kuzatishlarimizga ko‘ra, TPR usuli qo‘llanganda o‘quvchilar yangi so‘z va ifodalarni tezroq tushunib, mustahkam eslab qolishdi. Masalan, buyruqlar va harakatlar uyg‘unligi orqali bog‘langan holda o‘rgangan fe’llar (sakramoq, yugurmoq, chizmoq va h.k.) an’anaviy yodlashga nisbatan bolalar xotirasida uzoqroq saqlanadi.

To‘rtinchidan, ko‘rgazmali vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizual materiallarjudamuhim.Ranglirasmlar,kartochkalar, jadvallar, real obyektlar kabi ko‘rgazmali vositalar orqali yangi so‘z va tushunchalarni osonroq tushuntirish mumkin.Multimedia ilovalari, audio va video materiallar, interaktiv o‘yinlar bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Masofaviy ta’lim jarayonida ham onlayn platformalar orqali turli ko‘rgazmali va interfaol mashqlarni qo‘llash mumkin bo‘ldi. [7, 332].

Beshinchidan, hikoya va ertaklar orqali o‘qitish. Kichik yoshdagi bolalarga qiziqarli hikoya va ertaklarni tinglash katta zavq bag‘ishlaydi.Shu sababli ingliz tilida hikoya aytib berish (Storytelling) usuli chet tilini o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi sodda matnli qisqa hikoyalarni ifodali ovozda o‘qib eshittirishi yoki rasmli kitob asosida rivoyat qilib berishi mumkin. Masalan, mashhur inglizcha ertaklar (“The Three Little Pigs”, “Goldilocks and the Three Bears” va boshqalar) asosida dars ishlanmalari tuzish bolalarda predmetga nisbatan qiziqishni oshirib, yangi so‘zlarni tabiiy kontekstda o‘zlashtirishga yordam beradi. [11, 36].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda o‘yin, qo‘shiq, harakat va interfaol texnologiyalarga asoslangan metodlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘zlashtirish sifatini oshiradi.An’anaviy faqat grammatik qoidalar va tarjimaga tayanadigan darslarga qaraganda qiziqarli va interfaol mashg‘ulotlar bolalarning darsga jalb etilish darajasini yuqori qilib, ularning tilga bo‘lgan qiziqishini orttiradi hamda mustahkam bilim va ko‘nikmalar hosil qiladi.

Ingliz tili o‘qituvchilari muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida ishtirok etib, yosh o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatish metodikasi bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari, o‘zaro tajriba almashishlari zarur. Ta’lim muassasalari esa boshlang‘ich sinf xonalarini qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalar (proyektor, sifatli audio tizim, kartochkalar to‘plami va h.k.) bilan ta’minlashga e’tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umirova Z. “Importance of Learning Foreign Languages.”International Scientific Conference of Students and Young Scientists “Farabi Alemi”, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875-son qarori. Xalq so‘zi,2012-yil 12-dekabr.

3. Turakulova Lola X. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishning usullari.” Наука и инновации (Nauka i innovatsii), vol. 1, no. 1, 2024, 119–122-pp.

4. Jalolov Jamol.Chet tili o‘qitish metodikasi.–Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

5. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.”–Toshkent: Referat, 2012.

6. Turdaliyeva G. N. “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar.” 2020.

7. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T.: 8. – C. 4-9.

8. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6.

9.Umida K. (2022). The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(4), 1-6.

10. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 367-369.

Ситора ИБАЙДУЛЛАЕВА,
магистрант 1-го курса
Ферганского государственного университета

РЕЛИГИОЗНЫЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЕГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

Аннотация: в статье исследуется проблема недостаточной изученности эволюции религиозных мотивов в творчестве Ф.М. Достоевского и их роли в трансформации его мировоззрения от раннего утопического социализма к глубокому православному христианству, особенно в контексте биографических кризисов и философских поисков XIX века. Цель статьи – проанализировать ключевые религиозные мотивы в основных романах писателя («Преступление и наказание», «Идиот», «Бесы», «Братья Карамазовы») и выявить их влияние на формирование авторского мировоззрения как синтеза личного духовного опыта и библейских архетипов.

Ключевые слова: *Ф.М. Достоевский, религиозные мотивы, мировоззрение, православие, библейские аллюзии, искупление, страдание.*

Annotatsiya: maqolada F.M. Dostoyevskiy ijodidagi diniy motivlar taraqqiyoti va ularning muallif dunyoqarashining dastlabki utopik sotsializmdan chuqur provaslav xristianligiga o‘zgarishidagi o‘rni yetarlicha o‘rganilmaganligi muammosi tadqiq etiladi. Bu masala, ayniqsa XIX asr shaxsiy hayotidagi inqirozlar va falsafiy izlanishlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi yozuvchining asosiy romanlaridagi (“Jinoyat va jazo”, “Telba”, “Jinlar”, “Aka-uka Karamazovlar”) muhim diniy motivlarni tahlil qilish hamda ularning muallif dunyoqarashining shakllanishiga ta’sirini aniqlashdir. Bu dunyoqarash shaxsiy ma’naviy tajriba va Tavrot arxetiplarining uyg‘unlashuvi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *F.M. Dostoyevskiy, diniy motivlar, dunyoqarash, provaslavlik, Tavrot timsollariga ishora, gunohdan poklanish, azob-uqubat.*

Annotation: this article explores the understudied evolution of religious motifs in F.M. Dostoevsky’s works and their role in transforming his worldview from early utopian socialism to profound Orthodox Christianity, particularly in the context of biographical crises and philosophical quests of the 19th century. The aim of the article is to analyze key religious motifs in the author’s major novels (“Crime and Punishment,” “The Idiot,” “Demons,” “The Brothers Karamazov”) and to reveal their influence on the formation of Dostoevsky’s worldview as a synthesis of personal spiritual experience and biblical archetypes.

Key words: *F.M. Dostoevsky, religious motifs, worldview, Orthodoxy, biblical allusions, redemption, suffering.*

Введение

Федор Михайлович Достоевский (1821–1881) занимает уникальное место в русской и мировой литературе как писатель, чье творчество пронизано глубокими философско-религиозными исканиями. Его романы не просто художественные произведения, но и своеобразные трактаты о природе человека, добра и зла, свободы и Бога. Религиозные мотивы в творчестве Достоевского эволюционируют параллельно с изменениями в его собственном мировоззрении, отражая биографические перипетии: от увлечения утопическим социализмом в молодости до глубокого православного убеждения после сибирской каторги.

Обзор литературы

Исследования религии в творчестве Достоевского берут начало в работах русских религиозных философов Серебряного века. Н.А. Бердяев в «Миросозерцании Достоевского» (1923) подчеркивал диалектику свободы и Бога как центральную тему писателя [1]. С.Л. Франк в статье «Сущность и ведущие мотивы русской философии» видел в Достоевском родоначальника религиозно-нравственной традиции [2]. К.В. Мочульский в монографии «Достоевский. Жизнь и творчество» (1947) акцентировал христианский гуманизм писателя, эволюционирующий от социального утопизма к православному реализму [3].

М.М. Бахтин в «Проблемах поэтики Достоевского» (1963) фокусировался на полифонии голосов, включая религиозные, но избегал прямого метафизического толкования, подчеркивая диалогичность [4]. Современные работы, такие как С. Касседы «Dostoevsky’s Religion» (2005), подчеркивают конфликт веры и сомнения. В русской литературе выделяются статьи в «КиберЛенинке», анализирующие библейские мотивы [6].

Несмотря на богатство источников, многие исследования фрагментарны, не всегда учитывая биографический контекст сибирского перелома.

Методы

Исследование основано на интертекстуальном анализе романов Достоевского с опорой на Евангелие и православную традицию. Использованы биографические материалы (письма, «Дневник писателя»), сравнительный метод для сопоставления ранних и поздних произведений, а также герменевтический подход для интерпретации символов

(воскрешение Лазаря, притча о блудном сыне). Источники: полное собрание сочинений Достоевского в 30 томах [5], библейские тексты в синодальном переводе.

Результаты

Биографические истоки религиозных мотивов

Мировоззрение Достоевского формировалось под влиянием детства в религиозной семье: отец читал Библию, мать водила в церковь. Ранний период (1840-е) отмечен увлечением социализмом Петрашевского кружка, где религия виделась опиумом. Арест 1849 г., инсценированная казнь и каторга в Омске (1850–1854) стали поворотным моментом. В «Записках из Мертвого дома» (1861–1862) Достоевский описывает духовный кризис и возрождение через страдание.

Евангелие, подаренное в Тобольске женами декабристов, стало единственной книгой на каторге. Сибирский опыт усилил веру в Христа как идеал смирения и любви. После ссылки (1854–1859) Достоевский отвергает атеизм, видя в нем источник нигилизма.

Религиозные мотивы в «Преступлении и наказании»

Роман – манифест искупления через покаяние. Раскольников воплощает «человекобожество»: теория «тварей дрожащих» и «право имеющих» пародирует ницшеанство ante litteram. Библейские мотивы: чтение притчи о воскрешении Лазаря (Ин. 11) Соней – символ возрождения. Соня Мармеладова – носительница евангельской любви, жертвы. Эпилог с чтением Евангелия подчеркивает: истинное наказание – муки совести, искупление – через Христа.

Здесь мировоззрение Достоевского кристаллизуется: без Бога мораль рушится, свобода приводит к преступлению.

Мотивы в «Идиоте»

Князь Мышкин – «положительно прекрасный человек», образ Христа в миру. Религиозные мотивы: апокалиптические видения (эпилепсия как озарение), критика католицизма как «принудительной» веры. Библейские аллюзии: Мышкин как страдающий праведник (книга Иова), его смерть – жертва за грехи общества.

Достоевский показывает трагедию Христа в современном мире: красота спасет мир, но мир отвергает ее.

В «Бесах»

Роман – памфлет против нигилизма и революции. Ставрогин и Шигалёв – демонические фигуры, пародирующие антихриста. Религиозный мотив: бесноватость как следствие безбожия. Евангельская цитата «легион бесов» (Мк. 5:9). Епископ Тихон и монах – носители православия.

Мировоззрение: атеизм ведет к хаосу, только вера в Бога дает свободу.

В «Братьях Карамазовых»

Итоговый роман: «Легенда о Великом инквизиторе» – апофеоз критики безбожного гуманизма. Иван Карамазов отвергает мир, где страдает ребенок («слезинка ребенка»). Алеша – ученик старца Зосимы, воплощение активной любви. Мотивы: страдание как путь к Богу, всеобщая ответственность.

Достоевский утверждает: православие – путь к гармонии, католицизм и социализм – искажения.

Религиозные мотивы формируют мировоззрение Достоевского как синтез личного опыта и евангельской истины: человек свободен, но свобода без Бога – гибель; спасение – в смирении и любви.

Обсуждение

Результаты подтверждают тезис о эволюции: от сомнений к вере. В отличие от Толстого (рациональное христианство), Достоевский подчеркивает мистику страдания. Сравнивая с Бахтиным, полифония включает голос Бога, но не доминирует [4]. Критика атеизма актуальна: «если Бога нет, всё дозволено» (Иван Карамазов).

Ограничения: фокус на поздних романах; перспективы – анализ публицистики.

Заключение

Религиозные мотивы – стержень творчества Достоевского, определяющий его мировоззрение как православный экзистенциализм. Через библейские образы и личный опыт писатель показывает: человек обретает смысл в Боге. Это наследие остается ориентиром в эпоху духовных кризисов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бердяев Н.А. Миросозерцание Достоевского. Париж: YMCA-Press, 1923. 238 с.
2. Франк С.Л. Русское мировоззрение. СПб.: Наука, 1996. 736 с.
3. Мочульский К.В. Достоевский: Жизнь и творчество. Париж: YMCA-Press, 1947. 512 с.
4. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М.: Художественная литература, 1972. 470 с.
5. Достоевский Ф.М. Полное собрание сочинений: в 30 т. Л.: Наука, 1972–1990.
6. Парилов О.В. Хилиастические мотивы в творчестве Ф.М. Достоевского // Философия и культура. 2013. № 5. С. 45–52.

Мадинабону МАРУФЖОНОВА,
магистрант 1-го курса Ферганского государственного университета

ЭВОЛЮЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ ПРОЗЕ ПЕРВОЙ И ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА

Аннотация: в статье рассматривается проблема эволюции художественного образа личности в русской прозе XIX века, обусловленная социально-историческими трансформациями, изменением философских и эстетических парадигм, а также развитием реалистической поэтики. Цель статьи заключается в выявлении основных этапов и закономерностей формирования образа личности в русской прозе первой и второй половины XIX века, а также в анализе изменений в художественных средствах его репрезентации.

Ключевые слова: *художественный образ, личность, русская проза XIX века, реализм, психологизм, типизация, авторская позиция.*

Annotatsiya: maqolada XIX asr rus nasrida shaxs badiiy obrazining evolyutsiyasi masalasi ko‘rib chiqiladi. Bu jarayon ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar, falsafiy va estetik qarashlarning yangilanishi hamda realistik poetikaning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmidagi rus nasrida shaxs obrazi shakllanishining asosiy bosqichlari va qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, uni tasvirlashning badiiy vositalaridagi o‘zgarishlarni o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, shaxs, XIX asr rus nasri, realizm, ruhiy tahlil, umumlashtirish, muallif nuqtayi nazari.*

Annotation: this article examines the evolution of the artistic portrayal of personality in 19th-century Russian prose, influenced by socio-historical transformations, shifts in philosophical and aesthetic paradigms, and the development of realistic poetics. The research aims to identify the main stages and patterns in the formation of personality depiction in Russian prose of the first and second half of the 19th century, as well as to analyze changes in the artistic means of its representation.

Key words: *artistic image, personality, 19th-century Russian prose, realism, psychological depth, typification, author’s perspective.*

Введение

Проблема художественного образа личности занимает одно из центральных мест в истории русской литературы XIX века. Именно в этот период личность становится основным объектом художественного исследования, а внутренняя жизнь человека – главным предметом художественного осмысления. Русская проза XIX века демонстрирует сложную эволюцию способов изображения личности, отражающую изменения общественного сознания, философских представлений о человеке и художественных принципов словесного искусства [1].

Образ личности в русской прозе XIX века не является статичной категорией, а развивается в тесной связи с историческим контекстом и литературными направлениями. В первой половине века доминируют романтические и сентиментальные тенденции, в которых личность предстает как носитель исключительных духовных качеств или как объект эмоционального переживания. Во второй половине XIX века происходит переход к критическому реализму, в рамках которого личность рассматривается в ее социально-исторической обусловленности и психологической сложности [2].

Изменение художественного образа личности связано с формированием нового типа героя, отражающего кризис традиционных ценностей и поиск нравственных ориентиров. В произведениях И. С. Тургенева, Ф. М. Достоевского, Л. Н. Толстого личность становится полем напряженного диалога между внутренними стремлениями и внешними обстоятельствами, между свободой и ответственностью, между индивидуальным и общественным [3].

Методология исследования

Методологической основой исследования послужили принципы историко-литературного, сравнительно-типологического и структурно-семантического анализа. Комплексный подход позволяет рассмотреть художественный образ личности как динамическую систему, формирующуюся в контексте литературного процесса XIX века.

Результаты исследования

Результаты исследования позволили выявить основные этапы и закономерности эволюции художественного образа личности в русской прозе первой и второй половины XIX века. Анализ произведений показал, что образ личности претерпевает существенные изменения, отражающие как трансформации художественного сознания, так и социально-философские сдвиги эпохи.

В первой половине XIX века художественный образ личности формируется под влиянием романтизма, сентиментализма и зарождающегося реализма. Личность в этот период представляется как носитель индивидуальной духовной ценности, часто противопоставленной обществу. В произведениях А. С. Пушкина и М. Ю. Лермонтова герой наделен ярко выраженной индивидуальностью, внутренней свободой и способностью к рефлексии [4], [5].

Так, образ Евгения Онегина демонстрирует тип «лишнего человека», который становится одним из ключевых для русской литературы. Онегин – личность сложная, противоречивая, лишенная цельности, что отражает кризис дворянского сознания эпохи. Аналогичные черты обнаруживаются в образе Печорина, чья личность раскрывается через самоанализ и конфликт с окружающим миром. В этих образах внутренний мир героя выступает центральным объектом художественного изображения.

Н. В. Гоголь вносит принципиально новое измерение в изображение личности, акцентируя внимание на деформации человеческого начала в условиях бюрократической и социальной среды. В «Шинели» образ Акакия Акакиевича Башмачкина представляет тип «маленького человека», чья личность подавлена внешними обстоятельствами, однако сохраняет внутреннее нравственное ядро. Таким образом, уже в первой половине века наблюдается дифференциация типов личности и усложнение их художественного воплощения.

Во второй половине XIX века происходит качественный скачок в развитии художественного образа личности, связанный с утверждением критического реализма и усилением психологизма. Личность перестает быть только объектом эстетического изображения и становится предметом философского и нравственного анализа.

